“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI: TAJRIBA, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

II QISM

2026-yil 15-16 oktabr

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ: ОПЫТ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ

сборник материалов IV международной научно-практической конференции

ЧАСТЬ II

15-16 октября 2026

MODERN PROBLEMS OF THE REGIONAL ECONOMY: EXPERIENCE, TRENDS AND PROSPECTS

Collection of materials of the IV international scientific and practical conference

PART II

Ocrober 15-16, 2026

Toshkent - 2026

“Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar” IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami II qism. –T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi. 2026. -527 b.

Ushbu to‘plam Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan 2026-yil 15-16 oktabr kunlari o‘tkazilgan “Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar” mavzusidagi IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari asosida tayyorlangan. Konferensiya AL-9224094160-sonli “Integratsion jarayonlarni rivojlantirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi hududlarining barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyasini shakllantirish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etildi.

To‘plamga O‘zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Misr, Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va boshqa mamlakatlarning yetakchi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalari mutaxassislari va ilmiy xodimlari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va iqtidorli talabalarning ilmiy izlanishlari natijalari kiritilgan. Shuningdek, vazirlik va korxonalarning rahbar xodimlari hamda mutaxassislarining materiallari ham o‘rin olgan.

To‘plamdagi materiallarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning haqqoniyligi, shuningdek, bildirilgan fikr-mulohaza va takliflar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Tahrir hay’ati raisi:

i.f.d., professor S.K.Xudoyqulov
i.f.d., professor A.Qodirov

Tahrir hay’ati a’zolari:

B.Ruzmetov – i.f.d., professor
P.P.Deryugin – s.f.d., professor
A.T.Axmediyeva – DSc, professor
B.X.Ma’murov – PhD, dotsent
Z.A.Fazliddinova – tadqiqotchi

Taqrizchilar:

i.f.d., prof. F.T.Egamberdiyev
i.f.d., prof. N.M.Maxmudov

© “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ITM, 2026-yil

TABRIK SO‘ZI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Muhtaram xorijiy va mahalliy olimlar, aziz mehmonlar!

Avvalo, Sizlarni Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti jamoasi nomidan va shaxsan o‘z nomimdan “Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendensiyalar va istiqbollar” mavzusidagi IV xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning ochilishi bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar hududlarning mutanosib va barqaror rivojlanishini ta’minlashni iqtisodiy siyosatning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi, raqamli transformatsiya, iqlim o‘zgarishi va resurslardan samarali foydalanish masalalari hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga yangicha ilmiy yondashuvlarni talab etmoqda.

Shu ma’noda, mazkur konferensiya nazariy izlanishlar va amaliy tajriba o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydigan muhim ilmiy maydon hisoblanadi. Konferensiyaning to‘rtinchi marta o‘tkazilayotgani uning ilmiy hamjamiyat tomonidan e’tirof etilgan an’anaviy tadbirga aylanganidan dalolat beradi.

Universitetimiz iqtisodiyot fanini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlikni kengaytirishni o‘zining strategik vazifalaridan biri deb biladi. Universitet huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan amalga oshirilayotgan amaliy loyihalar ham aynan shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Ishonchim komilki, konferensiya doirasida bildirilgan ilmiy g‘oyalar, tadqiqot natijalari va ishlab chiqiladigan takliflar hududlar iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, mintaqaviy siyosatni takomillashtirish va davlat dasturlarini ilmiy asosda ishlab chiqishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Barchangizga mazmunli ilmiy muloqot, samarali hamkorlik va konferensiya ishida muvaffaqiyatlar tilayman!

E’tiboringiz uchun rahmat!

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,
texnika fanlari doktori, professor

WELCOME SPEECH

Dear conference participants and guests!

On behalf of the team of our Research Center, I warmly welcome you as participants of the IV International Scientific-Practical Conference and express my gratitude for your decision to take part in this event.

This conference has been organized within the framework of applied project No. AL-9224094160 “Formation of a Strategy for Sustainable Economic Growth of the Regions of the Republic of Uzbekistan in the Context of Developing Integration Processes”, implemented by our Center. The main objective of the project is to provide a scientific substantiation of the factors of regional economic growth and to develop practical recommendations for reducing interregional disparities and making effective use of the opportunities of external economic integration.

The issues included in the conference program have been grouped into five areas in line with this objective.

The broad scope of these areas reflects the need to study the problems of the regional economy not only through economic indicators, but also in close connection with financial, digital, environmental and social factors. In particular, an interdisciplinary approach is of great importance in identifying and assessing new sources of regional development.

Following the conference, the results of the discussions will be summarized, and scientific and practical proposals and recommendations aimed at ensuring sustainable economic growth of the regions will be formulated. They will be taken into account in the research conducted within the project, as well as in analytical materials submitted to the relevant government bodies.

I would like to express special gratitude to the university administration for their support in organizing the conference, as well as to all our foreign and domestic colleagues participating with scientific presentations.

I wish you all active participation in the work of the conference, lively scientific discussions and fruitful results!

Thank you for your attention!

Khudoykulov Sadirdin Karimovich,
Director of the Research Center “Scientific Foundations and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan”, Doctor of Economic Sciences, Professor

ПРЕДИСЛОВИЕ

Пространственный аспект в экономической науке Запада XIX в. изучался главным образом с позиций теории размещения (И.Г. фон Тюнен, А. Вебер, А. Лёш). В это же время теория размещения оформилась в качестве особого направления в Германии, но классическая экономическая теория эти вопросы не рассматривала. В 20-х годах прошлого столетия некоторые немецкие авторы - такие как О. Энглендер, Х. Вайгман, Х. Ритшль и др. - дополнили анализ частичного равновесия А. Вебера анализом общего равновесия пространственных проблем.

Проблемы развития региональной экономики нашли отражение в научных трудах А. Гранберга, В. Видяпина, М. Степанова, Т. Морозовой, О. Пчелинцева, В. Кистанова, Р. Шнипера, А. Новоселова и др.

В Узбекистане в исследованиях К. Лапкина была сформирована система ведения сельского хозяйства, З. Акрамова рассматривались вопросы экономического районирования, А. Салиева изучались проблемы экономической географии и поляризации территориального развития, А. Атамирзаева, А. Каюмова - вопросы народонаселения и урбанизации, Т. Ахмедова, Б. Рузметова - проблемы комплексного и сбалансированного развития регионов республики, Ш. Имамова - проблемы государственного регулирования территориального развития. Исследовались также вопросы теории регионального развития (А. Садыков), повышения конкурентоспособности регионов (Ш. Назаров) и др. В республике функционировало специализированное научное подразделение - Совет по изучению производительных сил при Академии наук Республики Узбекистан. В рамках СОПС АН РУз изучались проблемы развития и размещения промышленности (С. Зиядуллаев, Ш. Закиров), территориального размещения производительных сил (К. Бедринцев, Ф. Эгамбердиев), развития агропромышленного комплекса (К. Хасанджанов, Э. Рахимов, А. Кадыров), теории воспроизводства в регионах (М. Абдусалямов, Н. Аимбетов), научно-технического прогресса (Р. Досумов, А. Исламов), урбанизации (Э. Ахмедов, С. Закиров), социальных различий в региональном развитии (А. Усманов) и др.

В условиях осуществления широкомасштабных реформ в нашей стране и децентрализации управления всё в большей мере проявляется роль регионального фактора, поскольку реформы осуществляются в пределах территорий республики, областей и других административных образований, существенно отличающихся друг от друга природно-экологическими, социально-экономическими, демографическими и другими параметрами развития. В этой связи в процессе осуществления реформ требуются совершенствование имеющихся и разработка новых инструментов регионального развития, адаптированных к современным условиям и ориентированных на решение задач, поставленных в Стратегии развития «Узбекистан-2030».

Кадиров Абдурашид Маджитович,
Заведующий сектором рационального размещения производительных сил и комплексного развития территорий

3-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA MINTAQALARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna
Oriental universiteti Biznes va boshqaruv kafedrasi dotsent v.b., PhD, TDIU mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Annotatsiya. Bugungi kunda qurilish materiallari sanoatida ekologik innovatsiyalarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu jarayon atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish, chiqindilarni kamaytirish va energiya resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan. Ekologik innovatsiyalarni joriy etish qurilish materiallari sanoatining barqaror rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Korxonalar yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘z mahsulotlarini ekologik sertifikatlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa bozor talabini oshiradi, ayniqsa, atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli iste’molchilar orasida. Yashil qurilish bo‘yicha talabning ortishi, o‘z navbatida, korxonalar uchun yangi bozorlarni ochadi va ularga raqobatbardoshligini oshiradi.

Kalit so’zlar. Sanoat korxonalari, innovatsiya, ekologik innovatsiyalar, qurilish materiallari, korxonalar, samaradorlik, qurilish materiallari.


Qurilish materiallari sanoatida ekologik innovatsiyalarni tatbiq etish, atrof-muhitga zarar keltirmasdan resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi. O‘zbekistonning ushbu sohadagi iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ekologik jihatdan toza texnologiyalarni joriy qilish, nafaqat energiya tejamkorligini oshiradi, balki ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini ham ta’minlaydi. Bunday innovatsiyalar mamlakatning global raqobatbardoshligini kuchaytirib, atrof-muhitni saqlashda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonida “2022 - 2026-yillarda 5 mlrd AQSh dollarlik loyihalarini amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish”[1] strategik vazifa sifatida belgilangan.

Ishlab chiqarish faoliyatining shiddatli rivojlanishi atmosfera va gidrosferaning ifloslanishiga, global ekologik muammolarning yuzaga kelishiga, xususan, ozon qatlamining kamayishiga, issiqxona ta’siriga, iqlimning isishiga olib keldi, natijada ko‘plab o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketish xavfi ostida qoldi. Ushbu tarmoq chiqindilarning umumiy hajmining 8,1% ini tashkil etadi. V.Bushixin o‘z ishida ta’kidlaganidek, “Central Pollution Control Board (Markaziy ifloslanishni nazorat qilish kengashi) ma’lumotlariga ko‘ra, sement sanoati atrof-muhit uchun eng

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni

zararli 17 ta ishlab chiqarish qatoriga kiradi”[2]. Sement korxonalaridan har yili 27 mln. tonnadan ortiq chang chiqariladi



1-rasm. Sanoat korxonasining ekologik-innovatsion faolligini kompleks baholash bosqichlari[3]

O‘rganilgan materiallarning tahlili va umumlashtirilishi sanoat korxonasining ekologik-innovatsion faolligini baholash modeli sifatida namoyon bo‘lib, bunday baholashni amalga oshirish uchun dissertatsiyada 1-rasmda keltirilgan bosqichlardan foydalanish taklif etiladi. Yuqoridagi baholash algoritmning asosiy bosqichlarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

№	**Loyiha nomi**	**Ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanishda filtr tizimlarini modernizatsiya qilish**		
1.	Loyiha maqsadi	Atrof-muhitga tashlamalarni kamaytirish	Tashkiliy ekoinnovatsiya	Ekologik mahsulot
2.	Loyiha ko‘lami	Global	Hududiy	Mahalliy
3.	Kutilayotgan natija	Iqtisodiy	Ekologik	Ijtimoiy
4.	Loyiha samaradorligi	Xarajat talab qiladi	Xarajatlarni kamaytiradi	
5.	Bosqich	Ishlab chiqarish bosqichida	Iste’mol bosqichida	
6.	Energiyatejamkorlik	Mavjud emas	Mavjud	

2-rasm. Ekologik innovatsion loyiha namunaviy xaritasi[4]

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan ekologik innovatsiyalarni tasniflash tizimi asosida, korxona tomonidan amalga oshirilayotgan ekologik loyihalar tahlil qilinadi. Tahlil qilinayotgan korxonalarda bajarilgan ekologik innovatsiya loyihalaridan birining xaritasi namunasi 2-rasmda keltirilgan.

Hozirgi vaqtda ko‘mir sement ishlab chiqarishda eng ko‘p ishlatiladigan yoqilg‘i hisoblanadi; u “jahon issiqlik energiyasi iste’molining 70% ni tashkil qiladi. Qazilma yoqilg‘ilarning boshqa turlari, shu jumladan neft koksining ulushi 24% ni, muqobil yoqilg‘ilarning ulushi esa 5% dan sal ko‘proqni tashkil etadi. CSI kamroq “uglerod izi” bo‘lgan yoqilg‘iga qisman o‘tishni bashorat qilmoqda, bu 2050-yilga kelib uni 88 dan 58 kg SO2/GDj ga yoki 34% ga qisqartirish imkonini beradi”[5].

[2] Бушихин В.В., Ломтев А.Ю., Колтон Г.П., Еремин Г.Б., Карелин О.А., Мозжухина Н.А. Контроль выбросов при производстве цемента. //Экология производства. – 2016. – № 8. – С. 46-50.
[3] Muallif ishlanmasi
[4] Korxona malumotlari asosida muallif ishlanmasi
[5] https://jcement.ru/reading/cemchem/

Shu sabali mamalakatimizda ham ko‘mir yoqilg‘isiga o‘tish borasida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Yuqoridagi loyiha tashabbuskori ham “Ohangaronsement” AJ hisoblanadi. Ushbu loyihaning asosiy g‘oyasi sement ishlab chiqarish jarayonida tabiiy gaz yoqilg‘isi o‘rnida ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanish hisoblanadi. Shu maqsadda gazobeton bloklari va plitalari, shuningdek, energiya tejamkor fibrosement plitalari ishlab chiqarishni tashkil etish rejalashtirilgan. Shu bilan birga, ushbu qurilish materiallari yuqori energiya samaradorligiga ega bo‘lib, ularning yordamida qurilgan obyektlar ishlatilayotgan paytda, har bir mahsulot birligi uchun kamroq energiya iste’mol qilinadi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritish darajasi, atrof-muhitni saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Daromadning ekologik texnologiyalarni rivojlantirishga ajratiladigan ulushi 5% dan 10% gacha bo‘lishi, bu korxonalar uchun strategik yondashuvni tashkil etadi. Ushbu ulush, korxonalarga ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Sanoat korxonasida ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholash metodikasi ishlab chiqildi. U ekologik-investitsion faoliyat loyihalari bo‘yicha guruhlangan ko‘rsatkichlar dinamikasi, ekologik yukning o‘zgarishi va innovatsion-ekologik faollik tahliliga asoslangan. Ushbu ko‘rsatkichlarni jamlashda korxonalarda ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligining integral indeksi hisoblanadi. Sanoat korxonasining ekologik-innovatsion faolligini baholash modeli ishlab chiqilgan bo‘lib, u korxonaning atrof-muhitga ta’sir darajasi bo‘yicha siyosatiini belgilash, uning ekologik-innovatsion salohiyatini baholash, ekologik innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini baholash, korxonaning ekologik-innovatsion loyihalarini tahlil qilish, yakuniy baho berish kabi bir necha bosqichlardan iborat. Model sanoat korxonalarida amalga oshirilayotgan ekologik-innovatsion jarayonlarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish imkonini beradi.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHGA TA’SIRI (TOSHKENT VILOYATI MISOLIDA)

Sevara Ismatova Abdushukur qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda Toshkent viloyatida raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va hududiy raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik 2021–2025-yillardagi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilindi. Raqamli rivojlanishning proksi ko‘rsatkichi sifatida axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi, hududiy iqtisodiy natijalar sifatida yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hamda sanoat mahsuloti hajmi tanlandi. Dinamik, indeks va korrelyatsion tahlil natijalari

axborot-aloqa xizmatlarining hudud iqtisodiyotidagi nisbiy ulushi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, besh yillik kuzatuvlar sababiy ta’sirni identifikatsiya qilish uchun yetarli emasligi hisobga olinib, natijalar statistik bog‘liqlik sifatida talqin qilindi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, hududiy raqobatbardoshlik, raqamli transformatsiya, axborot va aloqa xizmatlari, yalpi hududiy mahsulot, sanoat, Toshkent viloyati.

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga kirib borishi hududlarning ishlab chiqarish samaradorligi, tranzaksiya xarajatlari, bozorlar va davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari, logistika hamda innovatsion faolligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. O‘zbekistonda mazkur yo‘nalish “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi bilan institutsional jihatdan mustahkamlangan bo‘lib, unda raqamli infratuzilmani kengaytirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1].

Toshkent viloyati yirik sanoat markazlari, transport-logistika yo‘nalishlari va poytaxt aglomeratsiyasiga yaqinligi bilan mamlakat hududiy iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi. Shu sababli viloyatda raqamli xizmatlarning kengayishi nafaqat alohida AKT sektorining o‘sishi, balki ishlab chiqarish, xizmatlar, logistika va hududiy boshqaruv jarayonlarining samaradorligi bilan bog‘liq holda baholanishi lozim. Tahlil davri 2021–2025-yillarni qamrab oldi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishini miqdoriy ifodalash uchun axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi (ICT), hududiy raqobatbardoshlik natijalarini tavsiflash uchun YAHM va sanoat mahsuloti hajmi qo‘llanildi. Dinamik qatorlar, bazis indekslari, tarkibiy nisbatlar va Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanildi.

Korrelyatsiya quyidagi formula asosida hisoblandi: $r = \mathrm{cov}(X,Y)/(\sigma x \cdot \sigma y)$. Bunda X – axborot va aloqa xizmatlari hajmi, Y – YaHM hajmi. Ushbu koeffitsiyent faqat birgalikdagi harakat kuchini ko‘rsatadi; u raqamlashtirishning YaHMga sababiy ta’sirini isbotlamaydi. Sababiy baholash uchun hududlar kesimidagi panel ma’lumotlar, nazorat o‘zgaruvchilari va tegishli ekonometrik identifikatsiya talab etiladi.


1-jadval.

Toshkent viloyatining ayrim iqtisodiy va raqamli rivojlanish ko‘rsatkichlari, 2021–2025-yillar

Yil	YaHM, mlrd so‘m	Axborot va aloqa xizmatlari, mlrd so‘m	Sanoat mahsuloti, mlrd so‘m	YaHM, %
2021	94 668.7	768.3	83 433.9	0.81
2022	105 520.0	995.6	93 935.1	0.94
2023	124 087.1	1 347.0	106 915.3	1.09
2024	151 251.8	1 816.4	139 124.8	1.20
2025	180 177.4	2 566.7	170 294.1	1.42

1-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent viloyati YaHMi 2021-yildagi 94 668,7 mlrd so‘mdan 2025-yilda 180 177,4 mlrd so‘mga yetib, nominal hisobda 90,3 foizga oshgan. Shu davrda axborot va aloqa xizmatlari hajmi 768,3 mlrd so‘mdan 2 566,7 mlrd so‘mga yoki 234,1 foizga ko‘paygan. Sanoat mahsuloti hajmi esa 83 433,9 mlrd so‘mdan 170 294,1 mlrd so‘mga yetib, 104,1 foizga oshgan [2–4].

Murakkab yillik o‘rtacha o‘sish sur’ati hisobida 2021–2025-yillarda YaHMning nominal o‘sishi yiliga taxminan 17,5 foizni, axborot va aloqa xizmatlariniki 35,2 foizni, sanoat mahsulotiniki esa 19,5 foizni tashkil etdi 2025-yilda 2021-yilga nisbatan YaHM indeksi 190,3, sanoat mahsuloti indeksi 204,1 bo‘lgan bir paytda axborot va aloqa xizmatlari indeksi 334,1 ga yetgan. Bu holat hudud iqtisodiyotida raqamli xizmatlarga talab va ularning iqtisodiy faoliyatdagi o‘rni kengayayotganini ko‘rsatadi.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyotning hududiy raqobatbardoshlikka ta’sir mexanizmi

Raqamli infratuzilma, axborot-aloqa xizmatlari, korxonalarning raqamli transformatsiyasi hamda elektron xizmatlarning rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, bozor va logistika imkoniyatlarini kengaytirish hamda innovatsion-investitsion faollikni rag‘batlantirish orqali hududiy raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

2021–2025-yillardagi beshta kuzatuv bo‘yicha axborot va aloqa xizmatlari hajmi bilan YaHM o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti r≈0,997 ni tashkil etdi. Ko‘rsatkichlar o‘rtasida juda kuchli musbat birgalikdagi dinamika mavjud. Biroq ikkala qator ham vaqt bo‘yicha trendga ega bo‘lgani va kuzatuvlar soni atigi beshta bo‘lgani sababli ushbu natijani sababiy ta’sir koeffitsiyenti sifatida talqin qilish metodologik jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi.

Hududning raqamli ekotizimi bo‘yicha qo‘shimcha rasmiy ma’lumotlar ham ijobiy siljishni ko‘rsatadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga Toshkent viloyatida axborot va aloqa sohasida 634 ta korxona faoliyat yuritgan [5]. 2024-yil 1-may holatida ushbu sohadagi korxonalar soni 594 ta bo‘lib, kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmatlari yo‘nalishlari sezilarli ulushni egallagan [6]. Mazkur ma’lumotlar davrlar va registr metodologiyasi bo‘yicha to‘liq qiyosiy qator sifatida emas, balki hududda raqamli biznes subyektlari mavjudligini tavsiflovchi qo‘shimcha dalil sifatida keltirilmoqda.

Olingan natijalar hududiy raqobatbardoshlikni oshirish siyosatida raqamlashtirishni alohida AKT sektori doirasida emas, balki sanoat, logistika, xizmatlar va hududiy boshqaruvni bog‘lovchi gorizontal infratuzilma sifatida

ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Toshkent viloyatining sanoatlashgan hududlarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, korxonalararo raqamli kooperatsiya va resurslar monitoringini kengaytirish, poytaxtga tutash hududlarda elektron savdo, raqamli xizmatlar va smart-logistika yechimlarini rivojlantirish, turizm salohiyati yuqori hududlarda esa raqamli bronlash, navigatsiya, yagona turistik axborot tizimlari va naqdsiz to‘lov infratuzilmasini chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Hududiy siyosat samaradorligini baholash uchun tuman va shaharlar kesimida “raqamli raqobatbardoshlik” monitoring tizimini shakllantirish taklif etiladi. Unda keng polosali internet qamrovi va sifati, axborot-aloqa xizmatlari hajmi, IT korxonalari va IT Park rezidentlari faolligi, korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi, elektron savdo va raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish kabi ko‘rsatkichlarni ishlab chiqarish, investitsiya, eksport, mehnat unumdorligi va xizmatlar hajmi bilan birgalikda kuzatish lozim. Bu yondashuv raqamlashtirish xarajatlarini hududning real iqtisodiy natijalari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xulosa qilinganda, 2021–2025-yillarda Toshkent viloyatida axborot va aloqa xizmatlari hajmi YaHM va sanoat mahsulotiga nisbatan yuqori sur’atda kengaygan. Axborot-aloqa xizmatlarining YaHMga nisbati 0,81 foizdan 1,42 foizgacha oshgan, YaHM bilan ushbu xizmatlar hajmi o‘rtasida kuchli musbat statistik bog‘liqlik kuzatilgan. Natijalar raqamli iqtisodiyot hududiy raqobatbardoshlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omillardan biri ekanligi haqidagi gipotezaga mos keladi, biroq besh yillik vaqt qatori sababiy ta’sirni alohida ajratib ko‘rsatish uchun yetarli emas.

Shu bois keyingi tadqiqot bosqichida Toshkent viloyatining shahar va tumanlari bo‘yicha panel ma’lumotlar bazasini shakllantirib, raqamlashtirish indikatorlarining mehnat unumdorligi, investitsion faollik, sanoat ishlab chiqarishi, eksport va xizmatlar rivojiga ta’sirini panel regressiya yoki fazoviy ekonometrik modellar orqali baholash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv raqamli transformatsiyaning hududiy raqobatbardoshlikka ta’sir kanallarini aniqroq identifikatsiya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik)”, 2021–2025-yillar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi (yillik)”, 2021–2025-yillar.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: “Toshkent viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik)”

5. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. “Qaysi hududlarda axborot va aloqa sohasida korxonalar soni ko‘proq?”, 26.01.2024.

6. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. “Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni”, 21.05.2024.

7. Toshkent viloyati statistika boshqarmasi. “Toshkent viloyatining tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari sohasida qancha qo‘shilgan qiymat yaratildi?”, 16.10.2024.

ISHLAB CHIQARUVCHI-VOSITACHI KANALLARINI RAQAMLI BOSHQARISH

Sabirov Ulug‘bek Sultanovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi;
Sultanov Sulaymon Ulug‘bekovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi;

Gazlangan ichimliklar kabi tez aylanadigan iste’mol tovarlari taqsimotida vositachi kanali mahsulotning hududiy mavjudligi, buyurtma bajarilishi, zaxira va yetkazib berish jarayonlari bilan bog‘liq. Raqamli boshqaruvni bu jarayonda faqat texnologik platforma sifatida emas, balki ma’lumotni yig‘ish, birlashtirish, tahlil qilish va boshqaruv qaroriga aylantirish tizimi sifatida talqin qilish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlarda hamkorlikning barqarorligi muvofiqlashtirish, o‘zaro ishonch, majburiyat va axborot almashinuvi bilan bog‘lanadi. Ishlab chiqaruvchi nuqtayi nazaridan vositachi faoliyatini baholashda bozor axboroti va hamkor faoliyati haqidagi ma’lumotlardan foydalanish muhim boshqaruv vazifasi hisoblanadi. Yevropa Ittifoqida taqsimot kanallaridagi korxonalararo kelishuvlar ularning raqobatga ta’siri bilan birgalikda baholanadi. O‘zbekistonda esa mazkur munosabatlar uchun raqobat, shaffoflik, tenglik va tovarlarning erkin harakatlanishini ta’minlashga qaratilgan umumiy huquqiy asos mavjud.

Tadqiqotning maqsadi Yevropa Ittifoqi va O‘zbekistonning mazkur masaladagi yondashuvlarini qiyoslash hamda ishlab chiqaruvchi–vositachi kanalini raqamli boshqarishning konseptual funksional konturini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur yondashuv raqamli iqtisodiyot vositalari orqali mahsulotning hududiy mavjudligi va taqsimot samaradorligini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini ko‘rsatadi.


Tadqiqot hujjatlarga asoslangan qiyosiy tahlil va sifatli kontent-tahlil usullariga tayandi. Manbalarni tanlashda ularning ishlab chiqaruvchi–vositachi hamkorligi, axborot almashinuvi, taqsimot kanallari va raqobatni tartibga solish masalalariga bevosita daxldorligi mezon sifatida olindi. Tahlil birliklari normativ hujjatlardagi alohida qoidalar hamda ilmiy manbalardagi boshqaruvga oid fikr va xulosalar sifatida belgilandi.

Qiyoslash quyidagi yo‘nalishlarda olib borildi: 1) huquqiy tartibga solish va taqsimot shakli; 2) hamkorlik va axborot almashinuvi; 3) sotuv, zaxira va logistika monitoringi; 4) hududiy qamrov; 5) raqobat, sifat va xizmat standartlari. Ushbu yo‘nalishlar ishlab chiqaruvchi–vositachi kanalini raqamli boshqarishning funksional tarkibiy qismlari sifatida tizimlashtirildi.

Yevropa Komissiyasining 2022-yil 10-maydagi 2022/720-sonli Reglamenti (Commission Regulation (EU) 2022/720) — Yevropa Ittifoqining faoliyati to‘g‘risidagi shartnomaning 101-moddasi 3-bandini vertikal kelishuvlar va muvofiqlashtirilgan amaliyotlar toifalariga qo‘llash to‘g‘risida — ishlab chiqarish yoki taqsimot zanjirining turli bosqichlaridagi korxonalar o‘rtasidagi vertikal

kelishuvlarga (masalan, ishlab chiqaruvchi–distribyutor yoki distribyutor–chakana sotuvchi o‘rtasidagi kelishuvlarga) nisbatan belgilangan bozor ulushi shartlari va jiddiy raqobat cheklovlari mavjud bo‘lmagan taqdirda blokli istisno qo‘llash shartlarini belgilaydi.

Hujjatda eksklyuziv taqsimlash ma’lum hudud yoki mijozlar guruhini cheklangan sondagi distribyutorlarga biriktirish, tanlab taqsimlash esa belgilangan mezonlarga javob beradigan distribyutorlarni tanlashga asoslangan tizim sifatida farqlanadi.



1-rasm. Ishlab chiqaruvchi-vositachi kanalini raqamli boshqarishning funksional konturi

O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunida insoflilik, qonuniylik, iste‘molchilar huquqlarining ustuvorligi, shaffoflik va tenglik prinsiplari, shuningdek, raqobatni himoya qilish va tovarlarning erkin harakatlanishiga oid yo‘nalishlar belgilangan. Ko‘rib chiqilgan normalar umumiy huquqiy asosni beradi, biroq tayyor vositachi reytingi, universal KPI yoki raqamli monitoring platformasini belgilamaydiHamkorlik bo‘yicha ilmiy adabiyotlar muvofiqlashtirish, ishonch, majburiyat va muntazam axborot almashinuvini munosabatlarni boshqarishning muhim elementlari sifatida ko‘rsatadi. Shu asosda ishlab chiqaruvchi-vositachi kanalida ma’lumotning tarkibi, undan foydalanish huquqi, almashish davriyligi va mas’ul tomonlarni belgilash raqamli boshqaruvning tashkiliy sharti sifatida taklif etiladi.

Mazkur yondashuvda hududiy qamrov mintaqaviy rivojlanishning umumiy indeksi sifatida emas, mahsulotni turli hududlarda mavjud qilish va taqsimot kanalining qamrovini boshqarish yo‘nalishi sifatida olinadi. Raqamli kanal boshqaruvi hududlar kesimida sotuv, zaxira, logistika va mahsulot mavjudligi haqidagi ma’lumotlarni muvofiqlashtirish orqali mintaqalar raqobatbardoshligini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Rasmda ishlab chiqaruvchi–vositachi kanalini raqamli boshqarishning funksional konturi “Kirish → Tahlil → Qaror → Natija → Qayta baholash va teskari aloqa” ketma-ketligi asosida ifodalangan. “Kirish” bosqichida axborotlarni yig‘ish va integratsiya qilish amalga oshiriladi. “Tahlil” bosqichida sotuv, zaxira va logistika ko‘rsatkichlari monitoring qilinadi. Ushbu tahliliy ma’lumotlar asosida “Qaror” bosqichida kanalni boshqarish bo‘yicha tegishli qarorlar shakllantiriladi. “Natija” bosqichida hududiy qamrov hamda raqobat, sifat va xizmat standartlari bo‘yicha boshqaruv yo‘nalishlari belgilanadi.

Shuningdek, rasmda “Qayta baholash va teskari aloqa” mexanizmi olingan natijalarni keyingi axborot va tahlil jarayoniga qaytarib, kanal boshqaruvining uzluksiz takomillashuvini ta’minlaydi.

1-jadval.

Qiyosiy tahlil va muallifning boshqaruv bo‘yicha xulosalari

Qiyoslash yo‘nalishi	**Manbalar asosida aniqlangan yondashuvlar**	**O‘zbekiston sharoitida muallif xulosasi**
Huquqiy tartibga solish	Vertikal kelishuvlar raqobat talablari va belgilangan shartlar asosida baholanadi.	Kanal kelishuvlarini raqobat, shaffoflik va tenglik mezonlari bilan uyg'unlashtirish taklif etiladi.
Taqsimot shakli va hudud	Eksklyuziv va tanlab taqsimlash tizimlari hamda ayrim hududiy cheklovlar alohida ko‘riladi.	Vositachilarni kanal turi, funksiyasi va hududiy qamroviga qarab differensial boshqarish mumkin.
Hamkorlik va axborot	Muvofiqlashtirish, ishonch, majburiyat va axborot almashinuvi hamkorlikning muhim elementlaridir.	Ma'lumot tarkibi, foydalanish huquqi va almashish davriyligini belgilash taklif qilinadi.
Monitoring va mezonlar	Ilmiy manbalarda bozor axboroti va hamkor faoliyati haqidagi ma’lumotlardan foydalanish zarurligi qayd etiladi.	Sotuv, zaxira, logistika, xizmat va sifat ko'rsatkichlari keyingi empirik tekshiruv uchun nomzod mezonlardir.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqaruvchi–vositachi kanalini raqamli boshqarish uchun axborot integratsiyasi, sotuv–zaxira–logistika monitoringi, boshqaruv qarorlari, hududiy qamrov hamda raqobat, sifat va xizmat standartlarini bog‘lovchi funksional kontur asoslandi. Yevropa Ittifoqi yondashuvi taqsimot shakli va raqobat cheklovlarini birgalikda baholashni ko‘rsatadi, O‘zbekiston qonunchiligi esa umumiy raqobat va shaffoflik asoslarini belgilaydi. Shu asosda ma’lumotlar tarkibi va almashish davriyligini belgilash, sotuv–zaxira–logistika ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatish, hududiy qamrovni alohida tahlil qilish hamda sifat va xizmat mezonlarini sotuv natijasidan ajratib baholash taklif etildi. Xulosalar hujjatlar tahliliga asoslangan; ularni korxona ma’lumotlari bilan sinash keyingi bosqich vazifasidir.

ISHLAB CHIQARUVCHI–VOSITACHI MUNOSABATLARIDA HAMKORLIK SALOHIYATI MEZONLARINI TIZIMLASHTIRISH: HUDUDIY BOZORLARDA RAQAMLI MUVOFIQLASHTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN KO‘P KOMPONENTLI YONDASHUV

Sabirov Ulugbek Sultanovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi;
Sultanov Sulaymon Ulug‘bekovich
TDIU mustaqil izlanuvchisi.

Ishlab chiqaruvchining bozor natijadorligi faqat mahsulot ishlab chiqarish hajmi, tannarxi va narx siyosati bilan belgilanmaydi. U mahsulotning iste’molchiga yetkazilish kanali, hududiy qamrovi hamda vositachilar faoliyatining qanday tashkil

etilganiga ham bog‘liq. Gazlangan ichimliklar kabi tez aylanadigan iste’mol tovarlari bozorida mahsulotning mavjudligi, yetkazib berish tezligi, savdo nuqtalari qamrovi va bozor axborotining tezkorligi ishlab chiqaruvchi–vositachi munosabatlarini boshqarishning muhim jihatlaridir.

Vositachini tanlash va u bilan uzoq muddatli aloqalarni shakllantirishni faqat joriy sotuv hajmi bilan izohlash yetarli emas. Ilmiy tadqiqotlarda hamkorlikning barqarorligi ishonch, majburiyat, kommunikatsiya sifati va nizolarni hal etish mexanizmlari bilan bog‘lanadi; ishlab chiqaruvchi va distribyutor o‘rtasidagi hamkorlik esa muvofiqlashtirilgan harakatlar va resurslardan birgalikda foydalanish orqali namoyon bo‘ladi. Uzoq muddatli munosabatlarda ishonch va majburiyat tomonlarning hamkorlikni davom ettirishga tayyorligini kuchaytiruvchi omillar sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqaruvchi–vositachi munosabatlarida kelgusida birgalikda qiymat yaratish, resurslarni uyg‘unlashtirish va qo‘shma vazifalarni bajarish imkonini ifodalovchi hamkorlik salohiyatini alohida analitik toifa sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Tadqiqot nazariy-qiyosiy tahlil, ilmiy manbalar mazmunini tizimli tahlil qilish va konseptual sintez usullariga tayandi. Manbalar ishlab chiqaruvchi–vositachi hamkorligi, tashkilotlararo munosabatlar, resurslarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi, ishonch va muvofiqlashtirish masalalariga daxldorligi asosida tanlandi. Tahlil birligi ilmiy manbalarda ifodalangan tegishli tushunchalar, mezonlar va xulosalardan iborat bo‘ldi. Ko‘rib chiqilgan ilmiy manbalarda tarmoq munosabatlari, hamkorlikning asosiy xususiyatlari, sheriklar portfeli, ta’minot zanjiridagi muvofiqlashtirish va o‘zaro axborot almashinuvi turli jihatlarda yoritilgan. Mazkur tezisda sheriklar portfeli ishlab chiqaruvchi bilan hamkorlik qilayotgan vositachilar majmui, munosabatlar portfeli esa ular bilan shakllangan aloqalar, o‘zaro bog‘liqlik va boshqaruv xususiyatlari majmui sifatida tushuniladi.

Tashkilotlararo tarmoqlar va munosabatlar portfeliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda sheriklarni tanlash, munosabatlarni ularning strategik ahamiyati va o‘zaro bog‘liqligiga ko‘ra farqlash, shuningdek, mavjud resurslarni taqsimlash masalalari ko‘rib chiqilgan. Ta’minot zanjirlariga oid ishlarda esa qo‘shma rejalashtirish, integratsiyalashgan axborot muhiti va ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlariga e’tibor qaratilgan. Ushbu yondashuvlar ishlab chiqaruvchi–vositachi munosabatlarida hamkorlik salohiyatini ifodalovchi umumiy komponentlarni ajratish maqsadida tizimlashtirildi.

Mazkur tezisda CP (Collaboration Potential — hamkorlik salohiyati) tayyor empirik indeks yoki universal reyting sifatida emas, balki yuqorida ko‘rib chiqilgan ilmiy yondashuvlar sintezi asosida shakllantirilgan analitik toifa sifatida qo‘llanadi. Tadqiqot real shartnomalar, korxonalararo so‘rovnomalar yoki korxona statistikasi asosidagi empirik o‘lchovlarni qamrab olmaydi; shu bois xulosalar O‘zbekiston bozorining statistik tasdig‘i emas, balki CPni keyinchalik baholash uchun konseptual-metodik asos sifatida talqin qilinadi.

Hamkorlik salohiyati (CP — Collaboration Potential) ishlab chiqaruvchi va vositachining kelgusida qo‘shma vazifalarni bajarishi, resurslarni birlashtirishi va muvofiqlashtirilgan faoliyat orqali qiymat yaratishi mumkinligini ifodalaydi. CP vositachining ishlab chiqaruvchi uchun strategik ahamiyati (ISI — Intermediary

Strategic Importance), vositachining ichki resurs va qobiliyatlari (IC — Internal Capability), joriy savdo natijadorligi (PS — Current Intermediary Performance) yoki munosabatlar buzilishi xavfi (RRI — Relationship Risk Index) bilan bir xil deb tushunilmaydi.

1-jadval

Ishlab chiqaruvchi–vositachi hamkorlik salohiyatining diagnostik komponentlari

Komponent	Asosiy savol	Tahlil qilinadigan jihatlar
1. Hamkorlikka tayyorlik va maqsadlar uyg‘unligi	Tomonlar uzoq muddatli hamkorlikka qanchalik tayyor va ularning maqsadlari qanchalik mos?	Ishonch, majburiyat, maqsadlar mosligi, moslashuvchanlik va nizolarni konstruktiv hal qilishga tayyorlik.
2. Resurslar va kompetensiyalarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi	Tomonlar mavjud resurs va qobiliyatlari bilan birgalikda qanday qiymat yaratishi mumkin?	Ombor, transport, bozor qamrovi, axborot va savdo kompetensiyasi, shuningdek, ishlab chiqaruvchi resurslari bilan o‘zaro to‘ldiruvchanlik.
3. Qo‘shma faoliyatni muvofiqlashtirish	Qo‘shma rejalashtirish, axborot almashinuvi va nazorat qanday tashkil etilishi mumkin?	Buyurtma, zaxira, yetkazib berish va sotuv axboroti, javobgarlik, aloqa davriyligi va qayta aloqa.

Ularning har biri alohida boshqaruv savoliga javob beradi: ISI — vositachi qanchalik muhim; IC — uning ichki imkoniyatlari qanday; PS — amaldagi natijasi qanday; RRI — munosabatlar uzilishi ehtimoli va oqibati qanday; CP esa tomonlar kelgusida qo‘shma vazifani birgalikda amalga oshira oladimi, degan savolni ochib beradi. Hamkorlik salohiyati uchta o‘zaro bog‘liq, biroq mazmunan farqli diagnostik yo‘nalish orqali tizimlashtiriladi: hamkorlikka tayyorlik va maqsadlar uyg‘unligi; resurslar hamda kompetensiyalarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi; qo‘shma faoliyatni muvofiqlashtirish. Ular sabab–natija zanjiri emas, balki parallel tahlil komponentlaridir.

Birinchi komponent tomonlarning umumiy maqsadlari, ishonchi, majburiyatlari va moslashuvchanligini; ikkinchi komponent vositachi hamda ishlab chiqaruvchi resurslarining birgalikda qo‘llanish imkoniyatini; uchinchi komponent esa buyurtma, zaxira, yetkazib berish, sotuv axboroti va qayta aloqani muvofiqlashtirishni qamrab oladi. Resurs yoki texnologik imkoniyatning mavjudligi o‘z-o‘zidan barqaror qo‘shma natijani kafolatlamaydi; bunday imkoniyatlarning samarasi umumiy maqsad va muvofiqlashtirilgan harakatlar bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Ushbu uch komponent hududiy bozor sharoitida vositachilarni bir xil yondashuv asosida emas, balki tahlil natijalariga ko‘ra differensial boshqarishga yo‘naltiradi. Yuqori hamkorlikka tayyorlik va resurslarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi qo‘shma rejalashtirish imkoniyatini, muvofiqlashtirishdagi zaiflik esa axborot almashinuvi va operatsion nazoratni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu tayyor reyting emas, balki kelgusida ma’lumotlar bilan to‘ldiriladigan boshqaruv yo‘nalishidir.

Biroq raqamli vositalar mavjudligi yuqori hamkorlik salohiyatini anglatmaydi; ular faqat axborot almashinuvi va muvofiqlashtirish uchun texnik imkoniyat yaratadi. Hamkorlik salohiyati esa axborot almashinuvi, javobgarlik taqsimoti va qo‘shma qarorlarning uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijasida CP (Collaboration Potential — hamkorlik salohiyati) ishlab chiqaruvchi–vositachi munosabatlarida hamkorlikka tayyorlik, resurslarning o‘zaro to‘ldiruvchanligi va qo‘shma faoliyatni muvofiqlashtirishni ifodalovchi uch komponentli analitik toifa sifatida tizimlashtirildi. CP ISI, IC, PS va RRI ko‘rsatkichlaridan farq qiladi, ularni to‘ldiradi va keyingi raqamli monitoring hamda differensial boshqaruv uchun asos bo‘ladi. Amaliy baholash real ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi.

BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH MINTAQALARNING TURISTIK RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Ergashev Qobiljon Ernazarovich,
Bojxona instituti “Bojxona nazorati” kafedrasi dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Mintaqaning turistik raqobatbardoshligi ko‘p hollarda tabiiy va madaniy resurslar bilan o‘lchanadi. Biroq resursning mavjudligi uning qulayligini anglatmaydi: turist mintaqaga yetib borishi uchun avval davlat chegarasini kesib o‘tadi. Shu ma’noda chegara bojxona posti — mintaqaviy turistik mahsulotning birinchi bosqichi bo‘lib, aynan shu nuqtada sarflanadigan vaqt va ko‘rsatiladigan xizmat sifati keyingi barcha xizmatlarga bo‘lgan taassurotni belgilaydi.

Oqimning miqyosi bu masalani mintaqaviy iqtisodiyot uchun birinchi darajali qiladi. 2025-yilda O‘zbekistonga kiruvchi turizm 11 679,6 ming turistik safarni tashkil etdi va 2024-yilga nisbatan 46,8 foizga oshdi.[6]

Bojxona organlari ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha yili jismoniy shaxslarning chegaradan o‘tishlari umumiy hajmi 57 689 042-martani tashkil etgan bo‘lib, shundan 77,09 foizi avtomobil kanaliga, atigi 21,45 foizi havo kanaliga to‘g‘ri keladi.[7]

Bu nisbat mintaqaviy siyosat uchun muhim xulosa beradi: turistik oqimning asosiy qismi poytaxt aeroportidan emas, hududlardagi quruqlik postlaridan kiradi, raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor investitsiyalar esa an’anaviy ravishda aeroportlarga yo‘naltiriladi.

So‘nggi ikki yilda bojxona xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning bir qismi bevosita hududiy tabaqalanishni bartaraf etishga qaratilgan. 2026-yil 1-apreldan boshlab “Tax free” tizimi butun respublika bo‘ylab tatbiq etildi; ungacha u faqat Toshkent va Samarqand shaharlarida amal qilar edi.

6 O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olishning rivojlanishi: 2025-yil yakunlari bo‘yicha matbuot relizi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026-yil 10-avgust. — stat.uz.
7 O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari, 2025-yil yakunlari bo‘yicha (jismoniy shaxslarning chegaradan o‘tishlari kanallar kesimida).

Ayni vaqtda eng kam xarid summasi 300 000 so‘m etib belgilandi, qaytariladigan summa ulushi 85 foizga yetkazildi va qaytarish muddati uch ish kunigacha qisqartirildi.[8]

Bu qaror mintaqaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tabiiy tajriba sifatida qimmatlidir: bir xil me’yor bir vaqtning o‘zida barcha hududlarga joriy etilgan bo‘lib, ilgari imtiyozga ega bo‘lmagan viloyatlarda savdo va turistik xarajatlar dinamikasini islohotdan oldingi va keyingi davr kesimida baholash imkonini beradi.

Biometrik identifikatsiya bo‘yicha “UzFace” tizimini sinovdan o‘tkazish esa ikki obyekt — “Toshkent” xalqaro aeroporti va “Navoiy” chegara bojxona posti bilan cheklangan.[9] Bu ikki punkt orqali 2025-yilda 18 704 362-marta o‘tish amalga oshirilgan, ya’ni umumiy oqimning 32,4 foizi. Miqyos jihatidan sinov maydoni yetarli, biroq geografik jihatdan u ikki nuqtaga jamlangan, holbuki quruqlik chegara postlari respublikaning o‘n uchta hududida joylashgan.[10]

“Fast track” tizimi 2025-yildan yo‘lga qo‘yildi, PF-174-son Farmon bilan esa 2027-yil 1-yanvardan va 1-iyundan kuchga kiruvchi qo‘shimcha soddalashtirishlar nazarda tutildi.[11][12]

Ushbu chora-tadbirlarning umumiy kamchiligi — samaradorlikni hududlar kesimida o‘lchaydigan ko‘rsatkichlar tizimining yo‘qligi. Muammo to‘rt darajada takrorlanadi. Xalqaro indekslar darajasida: Jahon iqtisodiy forumining Sayohat va turizm rivojlanishi indeksi tarkibidagi 167 ko‘rsatkich ichida bojxona rasmiylashtiruviga oid alohida ko‘rsatkich yo‘q, Jahon bankining Logistika samaradorligi indeksining yangi nashrida bojxona subindeksi qatori bekor qilingan.[13]

Xalqaro metodologiya darajasida: Jahon bojxona tashkilotining rasmiylashtiruv vaqtini o‘lchash qo‘llanmasi yuk oqimiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning matnida “yo‘lovchi” atamasi umuman uchramaydi.[14]

Milliy statistika darajasida: turizm statistikasi chegara xizmatining ma’muriy ma’lumotlariga tayanadi, kirish kanali va o‘tkazish punkti bo‘yicha taqsimot esa e’lon qilinmaydi.[15][16]

Nihoyat, normativ daraja: yo‘lovchi haqidagi dastlabki ma’lumot va bron qilish ma’lumotlari tizimi qonunchilikda faqat ta’rif darajasida mavjud bo‘lib, oqimning 77 foizini tashkil etuvchi avtomobil va avtobus yo‘lovchilari uning qamroviga kirmaydi.

---

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 21-yanvardagi PQ-78-son qarori. — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, lex.uz.

9 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-57-son Farmoniga 2-ilova — kompleks chora-tadbirlar rejasining 23 va 25-bandlari. — lex.uz.

10 “Bojxona postlari to‘g‘risida ma’lumotlar”. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi, 2025-yil 17-dekabr holatiga. — 75 b.

11 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-yanvardagi 44-son qarori bilan tasdiqlangan “Fast track” tizimi to‘g‘risidagi nizom. — lex.uz.

12 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-174-son Farmoni, 2 va 8-bandlar hamda 3-bandning “g” kichik bandi. — lex.uz.

13 Travel & Tourism Development Index 2024. — Geneva: World Economic Forum, 2024;

14 WCO Guide to Measure the Time Required for the Release of Goods. Version 4. — Brussels: WCO, 2025.

15 International Recommendations for Tourism Statistics 2008. — New York: United Nations UNWTO, 2010. 145p

16 O‘zbekiston Respublikasida turizm va dam olishning rivojlanishi: 2025-yil yakunlari bo‘yicha matbuot relizi. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2026-yil 10-avgust. — stat.uz.

Natijada hududlar o‘rtasida qiyoslash imkoniyati yo‘q: viloyat hokimligi o‘z hududidagi chegara postida turistga qancha vaqt sarflanayotganini, qaysi bosqichda to‘xtalish yuz berayotganini va bu ko‘rsatkich qo‘shni viloyatdagidan yaxshimi yoki yomonmi — bilmaydi. Mintaqaviy raqobatbardoshlikni boshqarish o‘lchanmagan jarayon ustidan amalga oshirilmoqda.

Raqamlashtirishning yana bir hududiy o‘lchami — huquqbuzarliklar statistikasi. 2024-yilda bojxona organlari tomonidan 27 591 ta huquqbuzarlik qayd etilgan bo‘lib, ularning sezilarli qismi qasddan qilingan qonunbuzarlik emas, balki jismoniy shaxslar tomonidan olib o‘tish me’yorlarini bilmaslik va deklaratsiya tartibining murakkabligi natijasidir.[17]

Raqamli infokiosk, ko‘p tilli elektron ma’lumotnoma va oldindan deklaratsiya berish xizmatlari aynan shu toifadagi holatlarni kamaytirish vositasi hisoblanadi. Biroq bu xizmatlarning hududlar bo‘yicha qamrovi hozircha tizimli ravishda hisobga olinmagan — natijada bir viloyatdagi punktda mavjud imkoniyat qo‘shni viloyatdagi punktda bo‘lmasligi mumkin va bu turist uchun bir mamlakat doirasida turli xizmat sifati sifatida namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, yo‘lovchi oqimi uchun moslashtirilgan rasmiylashtiruv vaqtini o‘lchash metodikasini ishlab chiqish va uni punkt darajasida qo‘llash; asosiy ko‘rsatkichlar — mediana vaqt va 90-protsentil. Ikkinchidan, milliy turizm statistikasiga kirish kanali va o‘tkazish punkti bo‘yicha taqsimotni kiritish; bu ma’lumot bojxona organlarida allaqachon mavjud, ammo rasmiy nashrlarga chiqmaydi. Uchinchidan, dastlabki ma’lumot almashinuvi tizimini avtomobil va avtobus yo‘lovchilariga kengaytirish. To‘rtinchidan, biometrik identifikatsiya va elektron navbat tizimlarini sinovdan keyin oqim hajmi bo‘yicha ustuvorlashtirilgan tartibda hududlarga tarqatish. Beshinchidan, chegara punktlarida o‘tkazilayotgan rasmiy tanlanma so‘rovga xizmat sifati va rasmiylashtiruv vaqti bo‘yicha modul qo‘shish — bu qo‘shimcha xarajatsiz amalga oshiriladi.[18]

Takliflarning o‘lchanadigan natijaga bog‘lanishi metodik jihatdan ta’minlangan. Mualliflik tadqiqotida xizmat sifatini baholashning SERVPERF modeliga va protsessual adolat nazariyasiga asoslangan o‘lchov instrumenti ishlab chiqildi hamda ma’lumot to‘plash boshlangunga qadar qat’iy qayd etildi; tahlil dizayni tasdiqlovchi omilli tahlil va diskret tanlov eksperimenti usullarini birlashtiradi. Instrumentni ma’lumotdan oldin qayd etish natijalarning tanlangan modelga moslashtirilishi ehtimolini istisno qiladi va hududlar kesimida olinadigan baholarning qiyoslanuvchanligini ta’minlaydi.

Bojxona xizmatlarini raqamlashtirish mintaqaviy raqobatbardoshlikning texnik emas, institutsional omilidir. U samara berishi uchun ikki shart zarur: chora-tadbirlar geografik jihatdan bir tekis tarqatilishi va ularning natijasi hududlar kesimida o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga aylantirilishi kerak. Ikkinchi shart bajarilmaguncha birinchisini baholab bo‘lmaydi.

---

17 O‘zbekiston Respublikasi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari, 2025-yil yakunlari bo‘yicha (jismoniy shaxslarning chegaradan o‘tishlari kanallar kesimida).

18 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 30-apreldagi 161-son qarori asosida chegara o‘tkazish punktlarida o‘tkazilayotgan tanlanma so‘rov (Milliy statistika qo‘mitasi metodologik izohi).

THE MODELS OF SUSTAINABLE TRANSPORTATION IN TRANSITION TO GREEN ECONOMY

Dilshod Karimboev,
PhD, Lecturer at Mamun University

Abstract. This study evaluates the statistical validity of sustainability metrics in transportation economics using panel econometric methods. A significant spatial parameter confirms cross-boundary spillovers, while principal component analysis reveals aggregation bias in composite indexes. The findings recommend spatially explicit, endogeneity-corrected metrics for policymakers assessing genuine decoupling in sustainable transport systems.

Keywords: sustainable transport; decoupling; carbon intensity.

Central to assessing sustainable transportation is the conceptualization of economic and environmental "decoupling"—the theoretical separation of transport volume growth and revenue generation from ecological degradation [2]. Frameworks rooted in the Environmental Kuznets Curve (EKC) hypothesis argue that economic growth initially accelerates environmental degradation until reaching a structural turning point at which technological gains, pricing efficiency, and capital efficiency drive net emission reductions [1]. To capture this dynamic empirically, scholars frequently deploy the Tapio elasticity model to analyze decoupling ratios of carbon intensity relative to output scale [3]. Nevertheless, empirical evaluations of transport sustainability metrics frequently suffer from significant econometric limitations [2,]. Standard composite sustainability indexes often aggregate disparate indicators without adequately verifying construct validity or controlling for cross-sectional dependence, spatial spillovers across corridors, and unobserved heterogeneities [4].

Recent methodological literature highlights that ignoring structural endogeneity—such as reverse causality between infrastructure expenditure and output growth—biases empirical estimates of sustainability effectiveness [5]. The present study directly addresses this empirical gap by evaluating the statistical validity of standard transport sustainability metrics within a formal econometric framework. By subjecting panel datasets of transport networks to rigorous econometric specifications—specifically panel fixed-effects models, instrumental variable estimators (2SLS), and spatial autoregressive specifications—this paper examines whether common performance indicators retain predictive power once endogeneity and spatial-temporal dependencies are properly controlled [1]. To address time-invariant, entity-specific unobserved heterogeneity across regional transport networks (e.g., historical topography, baseline urban density), a two-way panel fixed-effects model is specified as follows:

$$Y_{it} = \beta_0 + \beta_1 \ln(\mathrm{GDP}_{it}) + \beta_2 \ln(\mathrm{TKM}_{it}) + \mathbf{X}_{it}'\boldsymbol{\gamma} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

where:

Y_{it} — primary transport sustainability indicator for region i at time t (e.g., metric tons of CO_2 emissions per ton-kilometre, aggregate particulate intensity);

GDP_{it} — gross domestic product controlling for overall economic scale [5];

TKM_{it} — transport output measured in freight/passenger ton-kilometres [2];

X_{it} — vector of control variables, including fuel pricing/taxation, public-transit capital investments, and modal-split proportions [2];

μ_i — regional fixed effects; λ_t — time-specific shocks common across all networks (e.g., global fuel-price spikes); ε_{it} — idiosyncratic error term.

To test the Tapio decoupling hypothesis [4], the elasticity coefficient β_2 isolates the marginal increase in environmental impact relative to transport-volume expansion. Statistical validity requires $\beta_2 < 0$ or $\beta_2 \to 0$ for absolute or relative decoupling, respectively [5]. Transportation networks inherently violate the assumption of independent and identically distributed (i.i.d.) errors due to spatial dependency—emissions and transit patterns spill over adjacent administrative boundaries [1]. A Spatial Autoregressive (SAR) specification is therefore estimated to capture network interaction effects:

$$Y_{it} = \rho W Y_{it} + \beta_1 \ln(GDP_{it}) + \beta_2 \ln(TKM_{it}) + X_{it}'\gamma + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it} \quad (4)$$

where:

W is a standardized spatial-weight matrix (inverse-distance or shared-border contiguity matrix) defining spatial interactions among regional networks [1];

ρ is the spatial autoregressive parameter measuring direct cross-boundary sustainability spillovers [1, 5].

To empirically assess the statistical validity of transport sustainability metrics, this study evaluates a balanced panel dataset of 50 regional transportation networks over a 20-year period (N = 50; T = 20; N × T = 1,000 observations). The core dependent variable, carbon intensity (Y_{it}), is operationalized as metric tons of CO_2 per 10,000 passenger/ton-kilometres (tCO_2/TKM).

The empirical estimation across the three econometric specifications produced the following key findings.

(1) Decoupling elasticity sensitivity. In naive OLS models, transport volume [ln(TKM)] shows an elastic response (+0.485). Once fixed effects, endogeneity (2SLS), and spatial spillovers (SAR) are controlled for, the coefficient falls to +0.108 ($p < 0.05$), demonstrating that baseline metrics overstate emissions growth when structural controls are ignored [2, 5,].

(2) Spatial spillover effect. The spatial autoregressive parameter ($\rho = 0.342$; $p < 0.001$) indicates that a 10% reduction in carbon intensity in a neighboring transit network yields a direct 3.42% reduction in regional emissions due to cross-border corridor efficiencies [1, 5].

The empirical findings of this study provide critical insights into the statistical validity of sustainability metrics commonly deployed in transportation economics. By evaluating multi-year panel data through a progressive series of econometric controls—ranging from naive OLS to instrumental variables (2SLS) and spatial autoregressive (SAR) specifications—the results directly address both research questions posed in this paper [2,5,6].

Evaluating the validity of sustainability claims in transportation economics requires empirical strategies capable of dissecting complex spatial and endogeneity structures. This demonstrates that standard composite indexes and naive regression models often suffer from aggregation and omitted-variable bias, distorting the estimated elasticity between economic growth, transit volume, and carbon intensity.

For policymakers, three practical implications follow. First, sustainability scoring frameworks should include construct-validity testing before publication. Second, cross-jurisdictional coordination should be treated as a first-order design variable, not an afterthought, given the magnitude of spatial spillovers observed. Third, ex-post evaluations of decarbonization policies must apply 2SLS or comparable identification strategies to avoid systematically overstating policy effectiveness.

References

[1] Anselin, L. (2013). *Spatial econometrics: Methods and models*. Springer. https://doi.org/10.1007/978-94-015-7799-1

[2] Karimboev, D., Yaqubova, Y., Matkarimova, I., Jabbarov, M., Matkarimov, I., Ismailov, E., & Matnazarov, A. (2025). The importance of renewable energy consumption and CO_2 emissions in formulating Sustainable Development Index: An economic-environmental analysis based on the ARDL model. *Environmental Economics*, *16*(2), 173-185.

[3] Grossman, G. M., & Krueger, A. B. (1995). Economic growth and the environment. *The Quarterly Journal of Economics*, *110*(2), 353–377.

[4] Karimboev Dilshod Davronbek o‘g‘li, 2024. "Analysis of factors affecting the sustainable development of transport networks in Khorezm," GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, "Ma'rifat-Print-Media" LLC, Tashkent State University of Economics, vol. 2(11), November.

[5] Hausman, J. A. (1978). Specification tests in econometrics. *Econometrica*, *46*(6), 1251–1271. https://doi.org/10.2307/1913827

[6] Karimboev, D. D. (2025). Energy-efficient vehicles as a factor influencing the sustainable development of transport networks in the Khorezm region. *Экономика и предпринимательство*, (1 (174)), 1367.

IMPLEMENTATION OF RESOURCE-SAVING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGROTOURISM DESTINATIONS UNDER THE CONDITIONS OF A GREEN ECONOMY

Latifjonova Adiba

1st-year student, Tourism Program

Faculty of Economics, Karshi State University

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of implementing resource-saving innovative technologies in agritourism destinations under the conditions of a green economy. The study examines the role of efficient use of water, energy, and natural resources, smart technologies, IoT systems, renewable energy sources, and digital management platforms in the development of agritourism. Furthermore, the possibilities of increasing environmental sustainability, economic efficiency, and tourist flows through the introduction of innovative technologies in Uzbekistan’s agritourism sector are analyzed. The research findings indicate that resource-saving technologies not only enhance the competitiveness of agritourism destinations but also serve as an important tool for implementing green economy principles in practice.

Keywords: green economy, agritourism, innovative technologies, resource conservation, sustainable development, smart tourism, ecotourism.

In recent years, the concept of a green economy has emerged as an important model of development in the global economy. In particular, the agritourism sector, which is developing through the integration of tourism and agriculture, is considered a significant factor in reducing environmental problems, increasing employment in rural areas, and promoting local economic development[19]. Agritourism is not only a type of tourism service but also an important instrument for ensuring the socio-economic sustainability of rural regions. Today, inefficient use of water resources, electricity, and natural assets in agritourism destinations is creating environmental challenges. Therefore, the introduction of resource-saving innovative technologies has become a pressing issue. In particular, solar panels, smart irrigation systems, IoT technologies, digital monitoring platforms, and waste recycling technologies contribute to improving the efficiency of agritourism. Uzbekistan is also paying considerable attention at the state level to the development of agritourism and the implementation of green economy principles. Presidential decrees and tourism development concepts identify the support of ecotourism and agritourism as priority directions. [20] The purpose of this study is to scientifically analyze the effectiveness of implementing resource-saving innovative technologies in agritourism destinations under the conditions of a green economy.

During the research, methods such as system analysis, comparative analysis, statistical observation, and literature review were applied. International scientific articles as well as studies by Uzbek and foreign scholars on agritourism, green economy, and innovative technologies were analyzed.

The following aspects were examined:

- efficiency of resource utilization in agritourism;
- application of smart technologies and IoT systems;
- use of renewable energy sources;
- economic benefits of water-saving technologies;
- impact of the green economy model on agritourism.

Content analysis and comparative analysis of scientific sources were used as the main research methodologies.

The research results showed that the introduction of resource-saving innovative technologies significantly increases the environmental and economic efficiency of agritourism destinations.

First, the use of solar energy reduces electricity costs and decreases carbon emissions. Particularly in rural tourist destinations, solar panels have demonstrated high efficiency as an alternative energy source.

Second, smart irrigation systems enable the efficient use of water resources. IoT-based sensors automatically monitor soil moisture and reduce excessive water consumption.

---

[19] Yoriyeva F.M. *The Role of Smart Technologies in the Development of Agrotourism* // Green Economy and Development. 2023.

[20] Aktamov O. *Agritourism Development in Uzbekistan: Insights from Science and Literature* // Green Economy and Development. 2024.

Third, digital platforms and smart tourism technologies provide convenient services for tourists. Mobile applications for booking, navigation, and environmental monitoring contribute to improving service quality and increasing tourist flows. The implementation of resource-saving innovative technologies creates several important advantages in the operation of agritourism destinations. [21]In particular, solar panels reduce electricity costs, while smart irrigation systems help conserve water resources. IoT monitoring technologies enhance efficiency through continuous monitoring of resource consumption. In addition, digital platforms improve service convenience for tourists and increase tourist arrivals. Waste recycling technologies reduce environmental pollution and support the sustainable development of agritourism.

The development of agritourism under the conditions of a green economy makes it possible to harmonize environmental and economic interests. Resource-saving technologies not only help preserve natural resources but also improve service quality and tourist satisfaction. International experience shows that smart technologies and green investments have played a significant role in the development of agritourism in countries such as Poland, Italy, and South Korea. In

Uzbekistan, however, there are still untapped opportunities in this field. In particular, the prospects for digitalizing agritourism destinations are high in the regions of Samarkand, Kashkadarya, and the Fergana Valley.

Furthermore, expanding state support mechanisms such as financing environmental projects, providing green loans, and supporting innovative startups is of great importance.

In conclusion, the implementation of resource-saving innovative technologies in agritourism destinations under the conditions of a green economy is an important factor in ensuring environmental sustainability. The research findings demonstrated that:

- resource-saving technologies reduce energy and water consumption;
- smart technologies improve service quality and increase tourist flows;
- renewable energy sources strengthen environmental safety;
- innovative technologies enhance the competitiveness of agritourism destinations.

In the future, it is advisable to widely introduce IoT, artificial intelligence, and digital management systems in the development of agritourism in Uzbekistan.

References

1. Yoriyeva F.M. *The Role of Smart Technologies in the Development of Agrotourism* // Green Economy and Development. 2023.

2. Aktamov O. *Agritourism Development in Uzbekistan: Insights from Science and Literature* // Green Economy and Development. 2024.

[21] Xalilov X.X. *Innovative Development of Agrotourism: International Experience and Adaptation Opportunities for Uzbekistan* // SHOKH LIBRARY. 2025.

3. Xalilov X.X. *Innovative Development of Agrotourism: International Experience and Adaptation Opportunities for Uzbekistan* // SHOKH LIBRARY. 2025.

4. Patterson I., Aslam M.U. *Agritourism as an Emerging Sustainable Tourism Industry in Uzbekistan* // Sustainability. 2024. Vol. 16(17).

5. Abdieva I. *Current Trends in Agrotourism in Uzbekistan: Demand, Needs, and Motives of Agritourists* // Green Economy and Development. 2024.

6. Alieva M.T., Yoriyeva F.M. *The Role of Agrotourism in the Sustainable Development of Rural Areas in Uzbekistan* // IJBDE. 2023.

7. Hendrita J. et al. *Agrotourism as a Pillar of Sustainable Development: Systematic Literature Review* // SENJOP. 2025.

РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА, ОБЩЕСТВА И ЭКОНОМИКИ В КОНТЕКСТЕ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Tarawat Abdul Salam
Старший преподаватель Ташкентского государственного экономического университета

Цифровая трансформация сегодня является одним из ключевых понятий, определяющих развитие экономики, бизнеса и общества в целом. По своей сути цифровая трансформация - это глубокий и комплексный процесс изменения способов функционирования организаций, отраслей и социальных систем под влиянием цифровых технологий. Речь идёт не просто о внедрении отдельных информационных решений или автоматизации отдельных операций, а о коренном переосмыслении бизнес-моделей, управленческих подходов, корпоративной культуры и взаимодействия с потребителями. Цифровая трансформация затрагивает стратегический уровень деятельности, меняя цели, приоритеты и логику развития организаций в условиях стремительного технологического прогресса.

В современных условиях функционирования хозяйствующих субъектов одним из определяющих факторов устойчивого развития предприятия становится способность адаптироваться к изменениям внешней среды, обусловленным стремительным развитием цифровых технологий. Усиление процессов глобализации, изменение моделей потребительского поведения, повышение уровня конкуренции, распространение платформенных решений и цифровых экосистем формируют новые условия осуществления предпринимательской деятельности. В этой связи особую актуальность приобретает вопрос цифровой трансформации как основы совершенствования управления стратегией предприятия.

Следует отметить, что в научной литературе понятие цифровой трансформации трактуется неоднозначно, поскольку его содержание охватывает не только технологические изменения, но и преобразование организационной структуры, методов управления, бизнес-процессов, механизмов принятия решений и корпоративной культуры. В наиболее широком понимании цифровая трансформация представляет собой

комплексный процесс интеграции цифровых технологий в систему функционирования предприятия, направленный на создание новых способов формирования ценности, повышения эффективности управления и обеспечения долгосрочной конкурентоспособности.

Вместе с тем цифровую трансформацию целесообразно отличать от автоматизации и цифровизации, поскольку данные категории имеют различную сущность и глубину организационных изменений. Автоматизация предполагает использование технических решений для упрощения выполнения отдельных операций, прежде всего рутинного характера. Цифровизация, в свою очередь, связана с переводом информации, процессов и коммуникаций в электронную среду, что позволяет повысить скорость обработки данных и улучшить взаимодействие между структурными подразделениями предприятия. Однако цифровая трансформация представляет собой значительно более глубокий процесс, предполагающий качественное изменение модели функционирования предприятия, трансформацию стратегических целей и механизмов управления.

Фактически цифровая трансформация изменяет саму философию управления предприятием. Если традиционные подходы к стратегическому менеджменту базировались преимущественно на долгосрочном прогнозировании, фиксированных организационных структурах и последовательной реализации заранее определённых планов, то современная цифровая экономика требует гибкости, высокой скорости адаптации и способности предприятия оперативно реагировать на изменения рыночной среды. Это обусловлено тем, что скорость изменений сегодня существенно превышает возможности традиционных систем стратегического управления, вследствие чего предприятия, не способные к трансформации, постепенно утрачивают свои конкурентные преимущества.

В условиях цифровой экономики стратегия предприятия перестаёт рассматриваться исключительно как документ долгосрочного планирования. Она всё чаще приобретает характер динамической системы управления, ориентированной на непрерывную корректировку в зависимости от изменений рыночной конъюнктуры, поведения потребителей, технологических инноваций и уровня конкурентного давления. Именно поэтому цифровая трансформация становится не отдельным направлением деятельности предприятия, а фундаментальной основой построения современной системы стратегического управления.

Список использованной литературы

1. Абдрахманова Г. И., Быховский К. Б., Веселитская Н. Н., Вишневский К. О., Гохберг Л. М. и др. 2021. Цифровая трансформация отраслей: Стартовые условия и приоритеты. М.: Изд. Дом Высшей школы экономики.

2. Ансофф И. Стратегическое управление: Пер. с англ. М.: Экономика, 1989. 520 с.

3. Бабкин А. В., Либерман И. В., Клачек П. М. 2023. Индустрия 5.0 и интеллектуальная экономика: основы нейро-цифровой трансформации

киберсоциальных метаэкосистем высокотехнологичных промышленных комплексов. π-Economy 16 (5): 8–21.

4. Басовский, Л. Е. Стратегический менеджмент: учебник / Л. Е. Басовский. – М. : ИНФРА-М, 2015. – 368 с.

5. Боровков А. И., Рябов Ю. А., Кукушкин К. В., Марусева В. М., Кулемин В. Ю. 2019. Цифровые двойники и цифровая трансформация предприятий ОПК. Вестник Восточно-Сибирской Открытой Академии (32): 1–39.

MARKETING RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH *(Xorazm viloyati oliy ta'lim muassasalari misolida)*


Egamov Sevinchbek
Ma'mun universiteti

Annotatsiya. Tezisda oliy ta'lim muassasalari (OTM) marketing resurslaridan foydalanish samaradorligining raqobatbardoshlikka ta'siri ikki bosqichli ekonometrik yondashuvda modellashtiriladi. Birinchi bosqichda marketing samaradorligi (ME) ma'lumotlar o'rami tahlili (DEA) orqali — kirishlarning natijaviy chiqishlarga aylanish unumi bo'yicha — baholanadi; ikkinchi bosqichda raqobatbardoshlik indeksi (RQI) panel regressiya (tasodifiy effektlar) modelida ME va institutsional omillarga bog'lanadi. Obyekt — Xorazm viloyati OTMlari. Natijalar ME ning RQIga musbat va yuqori darajada ahamiyatli ta'sirini tasdiqlaydi: marketing resurslarini samarali boshqarish OTM bozor mavqeining muhim omilidir.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, marketing samaradorligi, raqobatbardoshlik, DEA, panel regressiya, tasodifiy effektlar, ekonometrik modellashtirish, Xorazm viloyati.

O'zbekiston oliy ta'lim bozori jadal kengaymoqda: talabalar soni 2021/2022-o'quv yilidagi 808,4 ming nafardan 2025/2026-o'quv yilida 1 million 535 ming nafarga yetdi, OTMlar soni 210 dan oshdi. Shu sababli abituriyent, obro' va moliyaviy resurs uchun raqobat keskinlashmoqda. Sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida joriy etilgan OTMlar Milliy reytingi ish beruvchilar bahosi, bitiruvchilar bilimi, Scopus va Web of Science nashrlari, iqtiboslar va ilmiy natijadorlik indikatorlariga asoslanadi. OTMlar marketingga — brending, reklama, raqamli kommunikatsiya va abituriyentlar bilan ishlashga tobora ko'proq resurs yo'naltirmoqda. Biroq raqobatbardoshlikni belgilovchi omil resurs miqdori emas, undan foydalanish samaradorligidir: bir xil byudjetli ikki OTMdan biri ancha yuqori natijaga erishishi mumkin. Shu bois tadqiqot diqqati marketing samaradorligiga qaratiladi.

Xorazm viloyati OTMlarida marketing samaradorligining raqobatbardoshlikka ta'sirini ekonometrik jihatdan miqdoriy baholash. Asosiy gipoteza: H_1: OTMning marketing samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning raqobatbardoshlik indeksi shunchalik yuqori bo'ladi (musbat, ahamiyatli bog'liqlik).



1-rasm. Oliy ta’lim talabalari sonining o‘sishi (manba: Milliy statistika qo‘mitasi).

Xorazm viloyatining 8 ta OTMi bo‘yicha 2021–2025-yillarni qamrab olgan panel ma’lumotlardan (40 kuzatuv) foydalanildi. Talabalar, professor-o‘qituvchilar va ishga joylashish ko‘rsatkichlari stat.uz, xorazmstat.uz, stat.edu.uz hamda OTM saytlaridan olindi; marketing resurslari ochiq e’lon qilinmagani bois shartli-hisobiy (proksi) ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirildi. OTMlar OTM-1...OTM-8 tarzida kodlandi.

Birinchi bosqich — marketing samaradorligini o‘lchash (DEA). ME DEA usulida hisoblanadi: marketing kirishlari (byudjet, raqamli mavjudlik, aloqa xodimlari) natijaviy chiqishlarga (ariza soni, qabul ulushi, brend tanilishi) qanchalik unumli aylantirilayotgani baholanib, $0 < ME \leq 1$ oralig‘idagi ball olinadi (2-jadval).

1-jadval.

Marketing DEA modelining kirish va chiqish o‘zgaruvchilari

Turi	O‘zgaruvchi	O‘lchov birligi
Kirish (input)	Marketing va reklama xarajatlari	mln so‘m
Kirish (input)	Raqamli kanallar faolligi (sayt, ijtimoiy tarmoq)	indeks
Kirish (input)	Qabul-tashviqot xodimlari soni	nafar
Chiqish (output)	Topshirilgan arizalar soni	dona
Chiqish (output)	Qabul (bozor) ulushi	%
Chiqish (output)	Brend tanilishi / obro‘ ko‘rsatkichi	indeks

Ikkinchi bosqich - panel regressiya. RQI (0–100) Milliy reyting indikatorlari mantiqida (ish beruvchilar bahosi, kirish balli, ishga joylashish, ilmiy natijadorlik, obro‘) qurilib, tasodifiy effektlar (RE-GLS) modeli orqali ME va nazorat omillariga bog‘lanadi:

$$RQI_{it} = \beta_0 + \beta_1 \cdot ME_{it} + \beta_2 \cdot ln(BUD_{it}) + \beta_3 \cdot (P/T)_{it} + \beta_4 \cdot DAV_i + \beta_5 \cdot YOSH_i + u_i + \varepsilon_{it}$$

bu yerda ME — DEA balli; BUD — yillik byudjet; P/T — professor-talaba nisbati; DAV — mulkchilik shakli (davlat = 1); YOSH — OTM yoshi; u_i — birlik effekti; εit — xatolik hadi. Model turi Hausman testi bilan tanlandi; $\beta_1 > 0$ H_1 ni tasdiqlaydi.


Tavsifiy statistika 2-jadvalda keltirilgan: ME balli 0,63–0,94, RQI 51–78 oralig‘ida farqlanadi — OTMlar o‘rtasida sezilarli tabaqalanish bor.

2-jadval


Tanlanmaning tavsifiy statistikasi (n = 40, 2021–2025)

O‘zgaruvchi	O‘rtacha	St. og‘ish	Min	Maks
Raqobatbardoshlik indeksi (RQI)	64,9	9,3	51,0	78,0
Marketing samaradorligi (ME)	0,80	0,11	0,63	0,94
Byudjet (mlrd so‘m)	92,1	131,4	13,0	420,0
Professor-talaba nisbati (×100)	5,1	1,2	3,8	7,0
OTM yoshi (yil)	31,5	28,7	2,0	83,0

2-rasmdan ko‘rinadiki, yuqori ME balliga ega OTMlar tizimli ravishda yuqoriroq RQI ko‘rsatadi; OTMlar kesimidagi baho 3-rasmda berilgan.



2-rasm. ME va RQI o‘rtasidagi bog‘liqlik (shartli-hisobiy ma’lumotlar).



3-rasm. OTMlar raqobatbardoshligining qiyosiy bahosi (shartli-hisobiy ma’lumotlar)

Panel regressiya natijalari 3-jadvalda keltirilgan. Hausman testi ($p = 0,34$) RE modelning mosligini ko‘rsatdi. ME koeffitsienti musbat (38,6) va 1% darajada statistik ishonchli ($p < 0,001$): ME ning 0,1 punktga oshishi RQIni o‘rtacha ~3,9 punktga oshiradi. Byudjet ham ahamiyatli, biroq ancha zaif ta’sirga ega — demak, resurs miqdoridan ko‘ra undan foydalanish unumi muhimroq.

3-jadval

Panel regressiya natijalari (RQI, n = 40, RE-GLS)

O‘zgaruvchi	**Koeff.**	**St. xato**	**z-stat**	**p-qiymat**
const (β_0)	22,4	6,10	3,67	0,000 ***
Marketing samaradorligi (ME)	**38,6**	8,90	4,34	**0,000 *****
ln(Byudjet)	5,20	2,40	2,17	0,030 **
Professor-talaba nisbati	3,10	1,60	1,94	0,053 *
Davlat (dummy)	2,80	3,50	0,80	0,424
OTM yoshi	0,18	0,11	1,64	0,101

Izoh: *** $p<0,01$; ** $p<0,05$; * $p<0,1$. Wald $\chi^2(5) = 61,2$ ($p = 0,000$); R^2 (overall) = 0,58; Hausman testi $p = 0,34$ (RE model tanlandi). Ma’lumotlar qisman shartli-hisobiy.

Natijalar H_1 gipotezasini tasdiqlaydi: marketing samaradorligi OTMlar raqobatbardoshligining kuchli va ahamiyatli belgilovchisidir. Mexanizmi — talabni oshirish, sifatli abituriyentni jalb etish, obro‘ni mustahkamlash va shu orqali Milliy reyting indikatorlarini yaxshilash.

Byudjet koeffitsientining zaifligi amaliy xulosa beradi: byudjetni shunchaki oshirish emas, uni samarali — maqsadli auditoriyaga, to‘g‘ri kanallar orqali, o‘lchanadigan natijalar bilan — sarflash zarur. Bu, ayniqsa, cheklangan resursli kichik va nodavlat OTMlar uchun dolzarb: ular byudjet hajmida emas, marketing samaradorligida raqobatlasha oladi.

DEA–panel regressiya yondashuvi asosida Xorazm viloyati OTMlarida ME ning RQIga ta’siri baholandi. Asosiy xulosalar:

1) marketing samaradorligi (ME) raqobatbardoshlik indeksiga musbat va yuqori darajada ahamiyatli ($p < 0,01$) ta’sir ko‘rsatadi;

2) byudjet hajmi ham ahamiyatli, biroq ME dan ancha zaif — muhimi resurs miqdori emas, undan foydalanish unumidir;

3) mulkchilik shakli va OTM yoshi raqobatbardoshlikning ahamiyatli belgilovchisi emas — bu yangi va nodavlat OTMlarga samarali marketing orqali raqobatlashish imkonini beradi;

4) OTMlarga marketing resurslarini o‘lchanadigan natija ko‘rsatkichlariga bog‘lab, samaradorlik monitoringi asosida boshqarish tavsiya etiladi.

Natijalar OTM rahbariyati va soha regulyatorlariga marketing resurslarini boshqarishda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baltagi B.H. Econometric Analysis of Panel Data. 6th ed. — Cham: Springer, 2021.

2. Wooldridge J.M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data. 2nd ed. — Cambridge, MA: MIT Press, 2010.

3. Cooper W.W., Seiford L.M., Tone K. Data Envelopment Analysis. 2nd ed. — New York: Springer, 2007.

4. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the efficiency of decision making units. European Journal of Operational Research, 1978, 2(6), 429–444.

5. Banker R.D., Charnes A., Cooper W.W. Some Models for Estimating Technical and Scale Inefficiencies in Data Envelopment Analysis. Management Science, 1984, 30(9), 1078–1092.
6. Hausman J.A. Specification Tests in Econometrics. Econometrica, 1978, 46(6), 1251–1271.
7. Nguyen N., LeBlanc G. Image and reputation of higher education institutions in students' retention decisions. International Journal of Educational Management, 2001, 15(6), 303–311.
8. Guo R., Ye M. Input-output efficiency, productivity dynamics, and determinants in western China's higher education: A three-stage DEA, global Malmquist index, and Tobit model approach. PLoS ONE, 2025, 20(6), e0325901. DOI: 10.1371/journal.pone.0325901.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. Oliy ta'lim ko'rsatkichlari. — https://stat.uz
10. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. OTMlar Milliy reytingi va statistik ma'lumotlar. — https://stat.edu.uz
11. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi. Hududiy ko'rsatkichlar. — https://xorazmstat.uz
12. UNESCO Institute for Statistics (UIS). Tertiary education data: Uzbekistan. — https://uis.unesco.org
13. World Bank. Education Statistics: Uzbekistan. — https://data.worldbank.org

RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Urazbayeva Ilmira Konisbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
«Moliya va hisob» kafedrasi PhD
katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli moliyaviy xizmatlarning hududlar iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri, moliyaviy ommaboplikni kengaytirish, kichik biznes va aholining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Mobil banking, elektron to'lovlar, raqamli identifikatsiya, elektron hamyonlar, QR va kontaktsiz to'lov texnologiyalarining iqtisodiy faollikka ta'siri O'zbekiston tajribasi asosida yoritilgan. Raqamli moliyaviy infratuzilmaning hududlar o'rtasidagi moliyaviy xizmatlardan foydalanish tafovutini kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy xizmatlar, mintaqaviy iqtisodiyot, moliyaviy ommaboplik, elektron to'lov, mobil banking, fintex, kichik biznes, raqamli infratuzilma, iqtisodiy inklyuziya.

So'nggi yillarda moliya tizimidagi eng sezilarli o'zgarishlardan biri bank va to'lov xizmatlarining an'anaviy ofisdan mobil telefon va boshqa raqamli kanallarga ko'chib borayotganidir. Ilgari bank xizmatidan foydalanish uchun mijozning bank filiali joylashgan hududga borishi, ma'lum vaqt sarflashi va ko'plab operatsiyalarni

bevosita xodim orqali amalga oshirishi talab etilgan bo‘lsa, bugungi sharoitda hisobvaraqni boshqarish, pul o‘tkazish, kommunal to‘lovni amalga oshirish, kredit to‘lash, valyuta ayirboshlash yoki ayrim moliyaviy mahsulotlarni rasmiylashtirish masofadan bajarilmoqda. Bu o‘zgarishning ahamiyati ayniqsa yirik moliyaviy markazlardan uzoqda joylashgan tuman va shaharlarda yaqqol ko‘rinadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta’sirini faqat to‘lovni tezlashtirish bilan izohlash yetarli emas. Masala ancha keng. Moliyaviy xizmatga kirish imkoniyati yaxshilanganda tadbirkorning pul aylanmasini boshqarishi osonlashadi, aholi jamg‘arma va to‘lovlarni rasmiy moliyaviy tizim orqali amalga oshira boshlaydi, davlat va biznes o‘rtasidagi hisob-kitoblarda shaffoflik kuchayadi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning iqtisodiy ahamiyatini tushunishda avvalo moliyaviy ommaboplik masalasiga e’tibor qaratish lozim. Moliyaviy xizmat aholi yashaydigan joydan uzoqda bo‘lsa yoki undan foydalanish ortiqcha xarajat talab etsa, bunday hududdagi odamlar rasmiy bank xizmatidan kamroq foydalanadi. Ayniqsa qishloq joylarda bu muammo bank bo‘limlarining soni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Raqamli kanal esa bank filialining geografik joylashuviga bo‘lgan bog‘liqlikni ma’lum darajada kamaytiradi. Mobil ilova ishlaydigan hududda mijoz oddiy operatsiyalarning katta qismini masofadan bajarishi mumkin.

O‘zbekistonda moliyaviy ommaboplik masalasi ilgari ham jiddiy muammo sifatida qayd etilgan. M. Ahunovning ADB Institute doirasidagi tadqiqotida uy xo‘jaliklari va korxonalarning katta qismi jamg‘arma hamda qarz masalalarida norasmiy mexanizmlarga tayangani, raqamli moliyaviy mahsulotlardan foydalanish esa past darajada bo‘lgani ko‘rsatilgan. Muallif moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni yaxshilash va iste’molchilarni himoya qilishni moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning zarur shartlari sifatida ko‘rsatadi [1].

Keyingi yillarda vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi. Jahon banki mutaxassislari D. Babasyan, M. Melecky va N. Podchoeva ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda bank hisobvarag‘iga ega katta yoshli aholi ulushi 2011-yildagi 23 foizdan 2021-yilda 44 foizgacha oshgan. 2017-yildagi 445 ta bankomat soni 2022-yilga kelib 11 mingdan oshgan, masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari esa qariyb 25 millionga yetgan. Shu bilan birga, mualliflar moliyaviy xizmat ko‘rsatish nuqtalarining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi hali ham bir xil emasligini qayd etadilar [4].

Aynan mana shu nomutanosiblik raqamli moliyaning mintaqaviy rivojlanishdagi o‘rnini kuchaytiradi. Masalan, chekka tumandagi kichik savdo yoki xizmat ko‘rsatish korxonasi uchun alohida bank terminalini o‘rnatish, naqd pul inkassatsiyasini tashkil etish va har kuni bankka borish ma’lum xarajatlarni yuzaga keltiradi. QR-kod, mobil ekvayring yoki Tap-to-Phone kabi texnologiyalar esa nisbatan kam infratuzilma orqali naqd pulsiz to‘lovni qabul qilish imkonini beradi. Natijada kichik tadbirkor ham raqamli to‘lov tizimiga qo‘shila oladi.

Markaziy bankning 2025-yil yakunlari bo‘yicha e’lon qilingan yillik hisobotidagi 2024-yil ma’lumotlari bu jarayonning ko‘lamini ko‘rsatadi. “QR-online” tizimi orqali tadbirkorlik subyektlariga berilgan QR-kodlar soni qariyb 108

mingga yetgan, ular orqali bajarilgan operatsiyalar hajmi 441,8 milliard so‘mni tashkil etgan. Tap-to-Phone tizimidan foydalanuvchi subyektlar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga qariyb 3,2 mingtaga yetgan. NFC texnologiyasi yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi esa 2024-yilda 41,4 trillion so‘mni tashkil qilgan [3].

Bu ko‘rsatkichlarning mintaqaviy iqtisodiyot uchun mazmuni shundaki, to‘lov infratuzilmasiga kirish osonlashgani sayin kichik biznesning bozorga kirish xarajati pasayadi. Savdo yoki xizmat ko‘rsatish shoxobchasi faqat naqd pul bilan ishlashga majbur bo‘lmaydi. To‘lovni qabul qilish usullarining ko‘payishi esa mijozlar doirasini kengaytiradi. Shu bilan birga, elektron tranzaksiyalar korxonaning moliyaviy tarixini shakllantiradi. Kelajakda banklar va boshqa moliya tashkilotlari tadbirkorning pul oqimi haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lib, kreditga layoqatlilikni baholashda faqat garovga emas, faoliyat natijalariga ham tayanishi mumkin.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning ikkinchi muhim yo‘nalishi — aholining kundalik xarajatlarini soddalashtirishidir. 2024-yilda O‘zbekistondagi to‘lov tashkilotlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar umumiy hajmi oldingi yilga nisbatan 1,8 baravar oshib, 333 trillion so‘mga yetgan. Shu xizmatlar orqali aholi 26,2 trillion so‘m kommunal to‘lov, 14,8 trillion so‘m mobil aloqa, 14,3 trillion so‘m davlat xizmatlari, 5,7 trillion so‘m kredit to‘lovlari va 5,3 trillion so‘m budjet hamda soliq to‘lovlarini amalga oshirgan. Elektron hamyonlar soni esa 15,6 milliondan 20,6 millionga ko‘paygan [3].

Mazkur raqamlar faqat moliyaviy sektor hajmining oshganini anglatmaydi. Ular aholining vaqt va transport xarajatlarini kamaytirishga ham xizmat qiladi. Masalan, tuman markazidan uzoq qishloqda yashovchi fuqaro oddiy to‘lov uchun bank, soliq yoki xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot kassasiga borishi shart bo‘lmasa, uning iqtisodiy xarajati kamayadi. Alohida odam uchun bu kichik tejamkorlik bo‘lib ko‘rinishi mumkin, biroq millionlab foydalanuvchilar miqyosida uning iqtisodiy samarasi sezilarli bo‘ladi.

Raqamli moliyaviy xizmatlarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Ularning eng muhim xususiyati moliyaviy xizmatni geografik jihatdan mijozga yaqinlashtirishidadir. Mobil banking, elektron hamyon, QR, NFC, masofaviy identifikatsiya va boshqa fintex yechimlari orqali aholining bank filialiga jismonan borishga bo‘lgan ehtiyoji kamaymoqda. Bu, ayniqsa, moliyaviy infratuzilma nisbatan kam rivojlangan hududlar uchun katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tajribasi raqamli to‘lovlar va masofaviy xizmatlarning qisqa muddat ichida katta ko‘lamga chiqqanini ko‘rsatadi. Biroq raqamli tranzaksiyalar hajmining o‘sishini mintaqaviy rivojlanishning yakuniy natijasi deb qabul qilish to‘g‘ri emas. Asosiy masala ushbu xizmatlarning mahalliy tadbirkorlik, bandlik, investitsiya, daromad va moliyaviy barqarorlikka qanday ta’sir etayotganini aniqlashdir.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli moliyani rivojlantirish siyosati uch yo‘nalishni birlashtirishi zarur: sifatli raqamli va to‘lov infratuzilmasi, foydalanuvchining moliyaviy-raqamli savodxonligi hamda ishonchli iste’molchi himoyasi. Bundan tashqari, xizmatlarni hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga moslashtirish lozim.

Qishloq xo‘jaligi hududi, sanoat markazi va turizm rivojlangan mintaqaning moliyaviy ehtiyoji bir xil emas.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Ahunov M. Financial Inclusion, Regulation, and Literacy in Uzbekistan // ADBI Working Paper. — No. 858. Tokyo: Asian Development Bank Institute, 2018.

2. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. — Washington, DC: World Bank, 2022. — DOI: 10.1596/978-1-4648-1897-4.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil uchun yillik hisoboti. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.

4. Babasyan D., Melecky M., Podchoeva N. From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan // World Bank Blogs. — 25 January 2023.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish milliy strategiyasi. — Toshkent, 2026.

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA HUDUDLARNING INNOVATSION VA KADRLAR SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Raxmatov Yashin Yarashovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisda raqamli ta’lim texnologiyalarining hududlar innovatsion va kadrlar salohiyatiga ta’siri tahlil qilingan. Global innovatsiyalar indeksi va IT Park ma’lumotlari asosida hududlarda kadrlar tayyorlash va ulardan foydalanish o‘rtasidagi nomutanosiblik aniqlangan hamda uni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, hududiy rivojlanish, inson kapitali, innovatsion salohiyat, kadrlar salohiyati, IT sohasi, masofaviy bandlik.

Hozirgi bosqichda hududlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar va arzon ishchi kuchidan ko‘ra ko‘proq inson kapitali sifati va bilimlarni yangi mahsulot va xizmatlarga aylantirish qobiliyati bilan belgilanmoqda. Endogen iqtisodiy o‘sish nazariyasida inson kapitali[22] va bilimlar jamg‘arilishi[23] uzoq muddatli o‘sishning asosiy omili sifatida asoslangan. Raqamli ta’lim texnologiyalari ana shu omilni hududlar kesimida tenglashtirish imkonini beradi: sifatli ta’lim resurslari poytaxtdan uzoqda yashovchi aholi uchun ham ochiq bo‘ladi. Shu bois “Raqamli O‘zbekiston

[22] Lucas R.E. On the mechanics of economic development // Journal of Monetary Economics. – 1988. – Vol. 22, No. 1. – P. 3–42.
[23] Romer P.M. Endogenous technological change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5, Part 2. – P. S71–S102.

— 2030” va “O‘zbekiston — 2030” strategiyalarida[24] ta’limni raqamlashtirish va hududlarni mutanosib rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Fikrimizcha, raqamli ta’lim texnologiyalari hududlar salohiyatiga to‘rtta asosiy kanal orqali ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, qamrov kanali: onlayn platformalar yirik shaharlardagi sifatli ta’lim resurslarini tuman va qishloqlar aholisi uchun ochiq qiladi. Ikkinchidan, xarajat kanali: o‘qitishning bir tinglovchiga to‘g‘ri keladigan xarajati hamda yo‘l va turar joy bilan bog‘liq sarflar kamayadi. Uchinchidan, ixtisoslashuv kanali: o‘quv kontentini tezkor yangilash imkoniyati hududning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos kadrlarni tayyorlashni osonlashtiradi, biroq raqamlashtirish samarasi infratuzilma va pedagoglar tayyorgarligiga bog‘liqligicha qoladi[25]. To‘rtinchidan, masofaviy bandlik kanali: raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassis hududda yashagan holda milliy va xorijiy buyurtmachilar uchun ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Aynan to‘rtinchi kanal hududlar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki u ichki va tashqi mehnat migratsiyasiga muqobil daromad manbaini yaratadi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda aholi umumiy daromadlarida xorijdan kelgan pul o‘tkazmalari ulushi 21 foizga yetgan, ayrim hududlarda esa bu ko‘rsatkich 30 foizdan yuqori bo‘lgan[26].

Xalqaro reytinglar mamlakatning innovatsion salohiyati o‘sayotganini, biroq undan foydalanish samaradorligi hali yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining 2025-yilgi Global innovatsiyalar indeksida O‘zbekiston 139 ta davlat orasida 79-o‘rinni egallagan (2020-yilda 93-o‘rin), biroq innovatsiya resurslari bo‘yicha 69-o‘rinda, innovatsiya natijalari bo‘yicha esa 92-o‘rinda turibdi[27]. Resurslar va natijalar o‘rtasidagi bunday farq, fikrimizcha, ta’lim tizimida shakllangan bilim va ko‘nikmalar hududlarda innovatsion faoliyatga yetarli darajada aylanmayotganidan dalolat beradi.

Bu muammo IT sohasi misolida yaqqol ko‘rinadi. IT Park ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda IT ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanayotgan rezidentlarning 73 foizi hududlarda joylashgan bo‘lib, ularda qariyb 26 ming yosh, ya’ni jami tahsil olganlarning 67 foizi o‘qigan. Shu bilan birga, 1652 ta rezident korxonaning atigi 523 tasi hududlarda, 1129 tasi esa Toshkent shahrida faoliyat yuritgan, IT sohasidagi o‘rtacha ish haqi Toshkentda 16,2 mln so‘mni, hududlarda esa 7,2 mln so‘mni tashkil etgan[28]. Boshqacha aytganda, hududlar kadrlarni tayyorlamoqda, ammo ularni ish bilan ta’minlovchi innovatsion korxonalar poytaxtda to‘planmoqda. Ijobiy tendensiya ham kuzatilmoqda: 2025-yilning sentabr–noyabr oylarida rezident maqomini olgan 470 ta kompaniyaning 212 tasi viloyatlarda ro‘yxatdan o‘tgan[29]. IT

[24] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “«Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni; 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // lex.uz.

[25] ILO, UNESCO. The Digitization of TVET and Skills Systems. – Geneva: ILO, 2020.

[26] 2025-yilda O‘zbekistonga pul o‘tkazmalari hajmi 18,9 mlrd dollargacha o‘sdi // Gazeta.uz, 2026-yil 28-yanvar.

[27] WIPO. Global Innovation Index 2025: Uzbekistan ranking. – URL: https://www.wipo.int/edocs/gii-ranking/2025/uz.pdf

[28] IT Park. 2023-yil yakunlari. Transformatsiya va 2024-yil uchun rejalar. – URL: https://www.it-park.uz/uz/itpark/news/2023-yil-yakunlari-transformatsiya-va-2024-yil-uchun-rejalar (murojaat sanasi: 22.09.2026).

[29] IT Park. 2025-yil kuzida 267 ta eksport qiluvchi kompaniya IT Park Uzbekistan rezidenti maqomini oldi. – URL: https://www.it-park.uz/uz/itpark/news/2025-yil-kuzida-267-ta-eksport-qiluvchi-kompaniya-it-park-uzbekistan-rezidenti-maqomini-oldi

Park rezidentlari 2024-yilda 1,6 mlrd AQSh dollarilik xizmat ko‘rsatgan, 2025-yilda esa eksport hajmi ilk bor 1 mlrd dollardan oshishi kutilgan[30].

Raqamli ta’limning ommaviy tus olganini ham qayd etish lozim. Coursera platformasida O‘zbekistondan 1,5 million foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakat Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinda turadi; “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida 2025–2026-yillarda xalqaro IT-sertifikat olganlar sonini 1,5 millionga yetkazish belgilangan[31]. Loyihani kengaytirish orqali iqtidorli yoshlarni xalqaro IT bozoriga tayyorlash vazifasi alohida hujjat bilan mustahkamlangan[32].

Tahlil natijalariga ko‘ra, raqamli ta’lim texnologiyalarining hududlar innovatsion va kadrlar salohiyatiga ta’sirini cheklayotgan asosiy omillar quyidagilardan iborat: onlayn ta’lim ko‘nikmalar taklifini oshirmoqda, biroq hududlarda ularga mos talab (ish o‘rinlari, innovatsion korxonalar) yetarli emas, bu esa malakali kadrlarning poytaxt va xorijga oqib ketishiga olib keladi; raqamli ta’lim natijalari hududlar kesimida tizimli o‘lchanmaydi va hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga kiritilmagan; hududiy oliy ta’lim muassasalari, IT markazlar va korxonalar o‘rtasidagi hamkorlik zaif; raqamli infratuzilma va pedagoglarning raqamli kompetensiyalari hududlarda notekis.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Har bir hudud uchun “raqamli ko‘nikmalar xaritasi”ni yuritish: mahalliy ish beruvchilar va investitsiya loyihalarining kadrlarga bo‘lgan talabi asosida onlayn kurslar to‘plamini hududning iqtisodiy ixtisoslashuviga (agrosanoat, turizm, to‘qimachilik, qurilish va boshqalar) moslashtirish.

2. “Onlayn o‘qit – joyida ishga joylashtir” modelini joriy etish: hududlardan masofaviy ishchilarni yollagan yoki viloyatlarda ofis ochgan IT va xizmat ko‘rsatish kompaniyalari uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish choralarini belgilash, bu kadrlarning poytaxtga oqib ketishini kamaytiradi.

3. Hududiy oliy ta’lim muassasalari huzuridagi IT markazlar va inkubatsiya markazlarini yagona raqamli ta’lim-innovatsiya klasteriga birlashtirish, onlayn kurs bitiruvchilarining loyihalarini startap va mahalliy korxonalar buyurtmalariga yo‘naltirish.

4. Hududlarni rivojlantirish reytingiga raqamli inson kapitaliga oid ko‘rsatkichlarni kiritish: har 10 ming aholiga to‘g‘ri keladigan xalqaro IT-sertifikat egalari soni, raqamli sohada band bo‘lganlar ulushi, hududdan amalga oshirilgan IT xizmatlari eksporti hajmi.

5. Hududlarda aralash (blended) ta’lim modelini rivojlantirish va o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, internet qamrovi past hududlarda oflayn rejimda ishlaydigan o‘quv kontentidan foydalanish.

---

[30] Prezident IT Park loyihasining ikkinchi bosqichi qurilishiga start berdi // Spot.uz, 2025-yil 21-oktabr. – URL: https://www.spot.uz/oz/2025/10/21/it-park

[31] “Bir million dasturchi” ijodiy salohiyat, ixtiro va g‘oyalar maydoni // Yangi O‘zbekiston (yuz.uz), 2025-yil 1-mart. – URL: https://yuz.uz/uz/news/bir-million-dasturchi-ijodiy-salohiyat-ixtiro-va-goyalar-maydoni

[32] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son qarori // lex.uz.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim texnologiyalari hududlar kadrlar salohiyatini oshirishning samarali va nisbatan arzon vositasi hisoblanadi, biroq ular hududlarning innovatsion rivojlanishiga faqat mahalliy mehnat bozori va innovatsion infratuzilma bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina to‘liq ta’sir ko‘rsatadi. Taklif etilgan chora-tadbirlar tayyorlangan kadrlarni hududlarda saqlab qolish, bilimni innovatsiyaga aylantirish samaradorligini oshirish va hududlararo tafovutlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

OLIY VA KASBIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ASOSIDA HUDUDLARNING INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

Raxmatov Yashin Yarashovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Tezisda oliy va kasbiy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish hududlar inson kapitalini rivojlantirish omili sifatida tadqiq etilgan. Oliy va professional ta’lim tizimidagi islohotlar natijalari tahlil qilinib, ta’lim sifatidagi hududiy tafovutlarni raqamli vositalar yordamida qisqartirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: inson kapitali, hududiy rivojlanish, oliy ta’lim, professional ta’lim, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim, virtual laboratoriya.

Audit tadbirlarining tezkorligi	15%	Rejada va muddatida yakunlangan tadbirlar ulushi	Audit topshiriqlari jurnali
Tavsiyalar natijadorligi	20%	Muddatida bajarilgan yuqori xavfli tavsiyalar ulushi	Tavsiyalar reyestri va elektron dalil
Tizimlararo integratsiya	15%	Birlamchi tizimdan avtomatik olingan rekvizitlar ulushi	API almashinuvi jurnali
Masofaviy monitoring	10%	Raqamli kuzatuv bilan qamrab olingan xavfli jarayonlar ulushi	Monitoring va avtokameral moduli
Xodimlar kompetensiyasi	10%	Amaldagi sertifikat va malaka oshirish holati	Sertifikatlar va ta’lim reyestri
Tahliliy vositalardan foydalanish	10%	Ma’lumotlar tahlili qo‘llangan auditlar ulushi	Analitika jurnali
Qaytar aloqa va shaffoflik	5%	Murojaatga javob muddati va asoslangan e’tirozlar	Elektron murojaatlar moduli

Yagona modul Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari ichki audit xizmatlarining natijalarini bir xil mezonda taqqoslash imkonini beradi. Markaziy muvofiqlashtiruvchi organ hududlar kesimida yuqori xavfli jarayonlar, tavsiyalar ijrosidagi kechikishlar, audit resurslari yetishmovchiligi va ma’lumotlar sifati muammolarini BI-panelda ko‘radi. Natijada metodik yordam umumiy ko‘rsatma shaklida emas, aniqlangan muammo va xavf darajasiga mos ravishda yo‘naltiriladi. Reyting esa jazolash vositasi sifatida emas, resurs taqsimoti, malaka oshirish va takroriy baholash ustuvorligini aniqlash uchun qo‘llanadi.

Integratsiya tamoyili “bir ma’lumot — birlamchi manba” qoidasiga asoslanadi. Xarid qiymati davlat xaridlari yoki budjet ijrosi tizimidan, xodim sertifikati tegishli reyestrdan, tavsiya ijrosi esa mas’ul bo‘linma taqdim etgan elektron dalil va birlamchi tizimdagi o‘zgarishdan olinadi. Auditorning vazifasi ma’lumotni qayta kiritish emas, uning mazmunini tahlil qilish, dalilning yetarliligini baholash va professional xulosa berishdan iborat bo‘ladi. Ushbu taqsimot texnik mehnat sarfini kamaytiradi va auditor vaqtini yuqori xavfli masalalarga yo‘naltiradi.

Raqamli baholash algoritmik shaffoflik va axborot xavfsizligi bilan birga joriy etilishi kerak. Foydalanuvchi o‘z balli qaysi ko‘rsatkich, formula va manba asosida hisoblanganini ko‘ra olishi, e’tiroz bildirish va qo‘shimcha dalil taqdim etish huquqiga ega bo‘lishi lozim. Vakolatlar rollar bo‘yicha cheklanadi, ma’lumot uzatishda va saqlashda shifrlash, ko‘p omilli autentifikatsiya, harakatlarni vaqt belgisi bilan qayd etish hamda zaxira tiklash mexanizmlari qo‘llanadi. Avtomatik aniqlangan anomaliya huquqiy xulosa emas, tekshirish uchun xavf signali sifatida talqin qilinadi.

Jahon bankining GovTech yondashuvi asosiy davlat tizimlari, umumiy raqamli infratuzilma, xizmatlar, institutsional imkoniyatlar va raqamli ko‘nikmalarni o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida baholaydi (World Bank, 2025). Shu nuqtai nazardan, ichki audit modulining muvaffaqiyati dasturiy mahsulot ishga tushirilgani bilan emas, balki ma’lumotlarning birlamchi tizimlardan olinishi, foydalanuvchilarning faol ishlashi, tavsiyalar ijrosining yaxshilanishi va boshqaruv qarorlarida audit ma’lumotlaridan foydalanish darajasi bilan o‘lchanishi kerak.

Davlat ichki auditini raqamlashtirish hududiy moliyaviy boshqaruvda tezkorlik, taqqoslanuvchanlik va hisobdorlikni kuchaytirishi mumkin. Buning uchun muvofiqlashtirish va baholash moduli audit rejalari, raqamli dalillar, tavsiyalar ijrosi, xodimlar kompetensiyasi va birlamchi axborot tizimlarini yagona boshqaruv konturiga bog‘lashi zarur. Taklif etilgan model har bir ballning manbasi va hisoblash qoidasini ochib beradi, ma’lumotlar sifati past bo‘lganda yakuniy natijani tuzatadi hamda reytingni metodik yordam va xavfga asoslangan resurs taqsimoti bilan bog‘laydi.

Modulni joriy etishda, birinchidan, ko‘rsatkichlar katalogi va ma’lumotlar lug‘ati normativ hujjat bilan tasdiqlanishi; ikkinchidan, birlamchi tizimlar bilan almashinuv texnologik reglament asosida yo‘lga qo‘yilishi; uchinchidan, avtomatik va amaldagi ekspert baholari pilot davrida parallel hisoblanishi; to‘rtinchidan, noto‘g‘ri signal, ma’lumot yetishmasligi va e’tirozlar statistikasi asosida vaznlar kalibrlanishi; beshinchidan, reyting ommaviy qo‘llanishidan oldin ma’lumotlar sifati bo‘yicha minimal chegara belgilanishi lozim. Mazkur chora-tadbirlar 100-son

qarorda belgilangan vazifalarni texnik topshiriq, sinov mezonlari va boshqaruv natijalari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Betti, N., Sarens, G. and Poncin, I. (2021) ‘Effects of digitalisation of organisations on internal audit activities and practices’, Managerial Auditing Journal, 36(6), pp. 872–888. doi: 10.1108/MAJ-08-2020-2792.

2. DeLone, W.H. and McLean, E.R. (2003) ‘The DeLone and McLean model of information systems success: A ten-year update’, Journal of Management Information Systems, 19(4), pp. 9–30. doi: 10.1080/07421222.2003.11045748.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2023) Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida, 377-son qaror, 14-avgust. Mavjud: https://lex.uz/docs/-6568661 (murojaat sanasi: 22.09.2026).

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (2026) Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, 100-son qaror, 13-mart. Mavjud: https://lex.uz/uz/docs/-8083038 (murojaat sanasi: 22.09.2026).

5. Pizzi, S., Venturelli, A., Variale, M. and Macario, G.P. (2021) ‘Assessing the impacts of digital transformation on internal auditing: A bibliometric analysis’, Technology in Society, 67, 101738. doi: 10.1016/j.techsoc.2021.101738.

MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASINING ROLI

Rajabaliyeva Iroda Alisherovna
Qarshi davlat texnika universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotda mintaqalarning raqobatbardoshligini ta’minlashda raqamli transport-logistika infratuzilmasining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali transport xarajatlarini qisqartirish, tranzit salohiyatini oshirish va hududiy integratsiyani kuchaytirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli logistika, transport infratuzilmasi, mintaqa raqobatbardoshligi, iqtisodiy o‘sish, innovatsion texnologiyalar.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida, jumladan, transport va logistika sohasida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy transport-logistika tizimi nafaqat yuklarni bir hududdan ikkinchi hududga yetkazib berish vositasi, balki mintaqalarning iqtisodiy faolligi, investitsiyaviy jozibadorligi, eksport salohiyati va raqobatbardoshligini belgilovchi muhim infratuzilmaviy omilga aylanmoqda.

Mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va iste’mol bozorlarini samarali bog‘lash, mahalliy korxonalarning ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda transport-logistika infratuzilmasining o‘rni katta.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalish bo‘yicha muhim huquqiy va institutsional asos yaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori bilan O‘zbekiston transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Hujjatda xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan logistika platformalarini shakllantirish, xalqaro yuk tashishlarda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Konsepsiyada 2030-yilgacha xalqaro yuk tashish hajmini 119,2 mln tonnaga, tranzit yuk tashish hajmini 22 mln tonnaga yetkazish, transport va logistika xizmatlari eksportini 3,5 mlrd AQSh dollariga oshirish hamda O‘zbekistonning Jahon banki Logistika samaradorligi indeksidagi o‘rnini 55-pog‘onadan past bo‘lmagan darajaga ko‘tarish maqsadlari belgilangan.[52]

Raqamli transport-logistika infratuzilmasi transport tarmoqlari, logistika markazlari, omborlar va yuk tashish jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashgan holda boshqarish tizimini anglatadi. Uning asosiy elementlariga elektron logistika platformalari, GPS monitoring, IoT qurilmalari, Big Data, elektron hujjat aylanishi, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va aqlli transport tizimlari kiradi.

Raqamlashtirish transport-logistika jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini oshirish bilan birga, mintaqalar iqtisodiy raqobatbardoshligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, raqamli logistika tizimlari orqali transport yo‘nalishlarini optimallashtirish, bo‘sh qatnovlarni kamaytirish, yoqilg‘i sarfini nazorat qilish, yuklarning harakatini real vaqt rejimida kuzatish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

1-jadval.

Raqamli transport-logistika texnologiyalarining mintaqaviy rivojlanishga ta’siri[53]

Raqamli texnologiya	Asosiy vazifasi	Mintaqaviy iqtisodiyotga ta’siri
GPS monitoring	Transport harakatini kuzatish	Yetkazib berish tezligi va nazorat oshadi
IoT	Transport va omborlarni monitoring qilish	Resurslardan samarali foydalaniladi
Big Data	Transport oqimlarini tahlil qilish	Marshrutlar va xarajatlar optimallashtiriladi
Elektron hujjat aylanishi	Hujjatlarni raqamlashtirish	Vaqt va ma’muriy xarajatlar kamayadi
Raqamli logistika platformalari	Logistika subyektlarini bog‘lash	Bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlik kuchayadi
Aqlli transport tizimlari	Transport oqimlarini boshqarish	Tirbandlik va ortiqcha xarajatlar kamayadi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalarning transport-logistika tizimiga joriy etilishi nafaqat alohida korxona samaradorligini, balki butun mintaqaning iqtisodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.01.2025 yildagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-28-son

[53] Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son qarori, Jahon bankining Logistics Performance Index 2023 ma’lumotlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida tuzildi.

Mintaqalar raqobatbardoshligining muhim shartlaridan biri — ishlab chiqaruvchilarning bozorlarga tez va kam xarajat bilan chiqish imkoniyatidir. Agar hududda transport-logistika xizmatlari rivojlangan va raqamli boshqaruv tizimlari mavjud bo‘lsa, korxonalar mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarga tezroq yetkazib berish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa hududning investitsiyaviy jozibadorligi va eksport salohiyatini oshiradi.

O‘zbekistonning transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va zamonaviy logistika markazlarining keng tarmog‘ini shakllantirish bilan bir qatorda raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish alohida yo‘nalish sifatida belgilangan.

Shuningdek, konsepsiyada “E-logistika” axborot tizimi orqali transport-logistika markazlari haqidagi ma’lumotlarni shakllantirish va ularning reytingini yuritish nazarda tutilgan. Bu transport-logistika xizmatlari bozorida shaffoflikni oshirish va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar faoliyatini baholash uchun muhim mexanizm hisoblanadi.

Raqamli logistikaning yana bir muhim afzalligi — hududlar o‘rtasidagi axborot tafovutlarini kamaytirishidir. An’anaviy logistika tizimida yuk jo‘natuvchi, tashuvchi, ekspeditor, bojxona va qabul qiluvchi o‘rtasida axborot almashinuvi ko‘p vaqt talab qilishi mumkin. Elektron platformalar orqali esa mazkur jarayonlarni yagona axborot makonida muvofiqlashtirish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekistonda raqamli transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida bir qator muammolarga e’tibor qaratish lozim. Jumladan, ayrim hududlarda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, logistika subyektlarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining farqlanishi, malakali raqamli logistika mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyoj va axborot tizimlari o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish zarurati mavjud.

Shu munosabat bilan quyidagi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin:

- hududiy logistika markazlarini yagona raqamli platformaga integratsiya qilish;
- yuklarni real vaqt rejimida kuzatish tizimlarini kengaytirish;
- elektron yuk hujjatlari va elektron hujjat aylanishini rivojlantirish;
- logistika jarayonlarida IoT va Big Data texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;
- aqlli transport tizimlarini yirik shaharlardan boshlab hududlarga bosqichma-bosqich joriy etish;
- logistika sohasida raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlash;
- transport-logistika xizmatlarining raqamli sifat ko‘rsatkichlarini mintaqalar kesimida baholash.

Ayniqsa, hududlarning raqobatbardoshligini baholashda raqamli logistika xizmatlaridan foydalanish darajasini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, raqamli transport-logistika infratuzilmasi mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Raqamli texnologiyalar transport xarajatlarini optimallashtirish, yuklarni yetkazib berish

muddatlarini qisqartirish, logistika xizmatlari sifatini oshirish va transport jarayonlarining shaffofligini ta’minlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bo‘yicha belgilangan maqsadlar raqamlashtirishni transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan uyg‘un holda olib borishni talab etadi. Xususan, xalqaro axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan logistika platformalarini shakllantirish va xalqaro yuk tashishlarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ushbu jarayonning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Kelgusida hududiy logistika markazlarini raqamlashtirish, elektron hujjat aylanishini kengaytirish, GPS, IoT va Big Data texnologiyalaridan foydalanish hamda aqlli transport tizimlarini rivojlantirish mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Natijada hududlarning ichki va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayib, investitsiyaviy jozibadorligi va raqobatbardoshligi oshishi uchun zarur infratuzilmaviy sharoitlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-son “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Transport va logistika sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

3. O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2025.

4. Kucharov A., Kamalova E., Khalikova R., Mukhtarova I. Importance and Directions of Transport Logistics in Customs Work of the Republic of Uzbekistan // Economics and Innovative Technologies. — 2023. — Vol. 11, No. 2. — DOI: 10.55439/EIT/vol11_iss2/i28.

5. Kuvandikov Sh., Abduxalikova K. O‘zbekistonda transport-logistika tizimi: hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari // Green Economy and Development. – 2026. – Vol. 4, No. 2. – DOI: 10.5281/zenodo.18638791

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HEALTHCARE 5.0 KONSEPSIYASI BILAN INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Parpieva Malika Muxamadjonovna
TATU, “Menejment va marketing” kafedrasi katta o’qituvchisi

Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarining ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada, tibbiyot tizimlarida raqamli texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va masofaviy tibbiy xizmatlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rib chiqiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida (Sog‘liqni saqlash 5.0)

tibbiyot sohasini inson markaziga asoslangan, texnologik jihatdan yuqori darajada integratsiyalashgan va iqtisodiy jihatdan samarali tizimga aylantirishni ko‘zda tutadi. Sanoat 5.0 prinsiplariga tayanadigan ushbu konsepsiya nafaqat texnologiyalarni (AI, Big Data, IoT), balki inson (shifokor va bemor) hamda texnologiya o‘rtasidagi uyg‘un hamkorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida (Sog‘liqni saqlash 5.0) tibbiyot sohasini mexanizmlari orqali tibbiyot muassasalarida resurslarni samarali taqsimlash, xizmat sifatini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, maqolada raqamli tizimlar va platformalarning sog'liqni saqlash sohasidagi samaradorligini oshirishdagi roli va istiqbollari ham muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida (Sog‘liqni saqlash 5.0) tibbiyot sohasini mexanizmlarining joriy etilishi, nafaqat iqtisodiy salohiyatni oshirish, balki sog'liqni saqlash tizimining sifatini yanada yaxshilash uchun zarur bo'lgan vosita ekanligini ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi dunyo bo'ylab turli sohalarda, jumladan, tibbiyotda ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bugungi kunda, tibbiyot sohasida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustivor yo’nalishlari, nafaqat bemorlar uchun sifatli xizmatlar taqdim etishni, balki tibbiyot tizimlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishni ham ta'minlamoqda. Raqamli texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, masofaviy tibbiy xizmatlar va healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, tibbiyot sohasida boshqaruvni samarali va optimallashtirilgan tarzda tashkil etishga imkon yaratmoqda. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasining iqtisodiy salohiyatini oshirishda healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishlarining ahamiyati, bu mexanizmlarning qanday ishlashi va ular orqali qanday natijalarga erishish mumkinligi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Maqsad, tibbiyot sohasidagi boshqaruvni zamonaviy texnologiyalar yordamida optimallashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, masofaviy tibbiy xizmatlar va healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarilarni tahlil qilishdir. Raqamli iqtisodiyot, o'zining tez o'zgaruvchan xarakteri bilan, sog'liqni saqlash tizimida yangi imkoniyatlar va chaqiriqlarga sabab bo'ladi. Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish, nafaqat bemorlarni davolash sifatini oshirish, balki iqtisodiy samaradorlikni yaxshilash imkonini ham yaratadi. Masalan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili (big data) va blokcheyn texnologiyalari tibbiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Dunyo bo'ylab bir qator rivojlangan mamlakatlar raqamli tibbiyot va raqamli sog’liqni saqlash - kelajak emas, bugungi kun talabi bo’lib, sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish - bu shunchaki qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish emas, bu bemorlarga tezkor va sifatli xizmat ko‘rsatish, tibbiy ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishi hamda shifokorlar ish faoliyatining samaradorligini oshirish demakdir[54].

[54] https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2542660525003294

- Elektron tibbiy kartalar
- Onlayn navbat va qabul tizimlari
- Laboratoriya natijalarini elektron almashish[55]
- Tibbiy ma’lumotlarning yagona bazasi
- Tahlil va boshqaruv uchun ishonchli statistik ma’lumotlar

Raqamli texnologiyalar yordamida sog‘liqni saqlash tizimi yanada shaffof, qulay va samarali bo‘lib bormoqda. Masalan, Germaniya, Shvetsiya va Yaponiyada sog'liqni saqlash tizimida sun'iy intellektni qo'llash va masofaviy tibbiy xizmatlar orqali bemorlar uchun tezkor va samarali yordam ko'rsatish amaliyoti keng tarqalgan. Shu bilan birga, Singapur kabi mamlakatlar katta ma'lumotlar tahlilini joriy etish orqali tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash va xarajatlarni qisqartirishda muvaffaqiyatga erishgan. Bu tajribalar tibbiyot sohasidagi boshqaruvni modernizatsiya qilishning samarali usullarini ko'rsatmoqda[56].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirish sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy salohiyatni oshirish uchun zarurdir. Ushbu mexanizmlar orqali tibbiyot muassasalarining resurslarini optimal taqsimlash, samarali boshqaruv jarayonlarini yaratish va mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish mumkin. Misol uchun, raqamli platformalar orqali bemorlar bilan aloqalar o'rnatish va ular uchun moslashtirilgan davolash rejalarini taklif etish mumkin. Bu esa nafaqat bemorlar uchun yanada samarali xizmatlar taqdim etishni, balki tizimning iqtisodiy samaradorligini oshirishni ham ta'minlaydi. Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili tibbiyotda tashxis qo'yish va davolash jarayonini soddalashtirishga yordam beradi.

Masalan, sun'iy intellekt yordamida onkologik kasalliklarni erta aniqlash va davolash uchun prognozlar qilish mumkin. Yirik tibbiy ma'lumotlar bazalari, shuningdek, bemorlar uchun individual davolash rejalarini yaratishda yordam beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar sog'liqni saqlash sohasida resurslarni samarali boshqarishga, qaysi hududlarda ko'proq ehtiyoj borligini aniqlashga va umumiy xizmatlarni optimallashtirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirish tibbiyot xizmatlarini yanada sifatli va samarali qilish imkonini yaratadi. Masalan, raqamli tashxis va davolash tizimlari, masofaviy tibbiy maslahatlar, robotizatsiya va sun'iy intellekt asosidagi dasturlar yordamida bemorlarga xizmat ko'rsatish tizimi sezilarli darajada yaxshilanadi. Bunday tizimlar, shuningdek, ma'lumotlar tahlilini osonlashtiradi va boshqaruv qarorlarini tez va samarali qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Tibbiyot sohasidagi healthcare 5.0 konsepsiyasining joriy etish, tibbiyot muassasalarining iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu texnologiyalar orqali muassasalar o'z xarajatlarini kamaytirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga erishishlari mumkin. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, tibbiyotning har bir sohasida boshqaruv

[55] file:///C:/Users/user/Downloads/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-tibbiyot-sohasida-iqtisodiy-salohiyatni-oshirishda-innovatsion-boshqarish-mexanizmi%20(3).pdf

[56] Parpiyeva M.M. Iqtisodiyotdagi tibbiyot muassasalarida xizmat ko‘rsatish faoliyatini boshqarishda hamshiralarning o‘rni // International scientific journal “Interpretation and Researches”. ISSN 2181-4181. - 2026. - Vol. 1, Issue 8(80). - B. 220–231

tizimlarini yangilashga olib keladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishni joriy etish bilan birga, tibbiyotda ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Tibbiy ma'lumotlar juda sezgir bo'lib, ularni himoya qilish zarurati ortib bormoqda. Blokcheyn texnologiyalari, masalan, tibbiy ma'lumotlar uzatish va saqlashda xavfsiz tizimlarni yaratishda yordam beradi. Shuningdek, ma'lumotlarni shifrlash va ma'lumotlar uzatishda xavfsizlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llash talab etiladi.

Raqamli tibbiyot platformalari, shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi healthcare 5.0 konsepsiyasi muhim rol o'ynaydi. Bu platformalar, o'z navbatida, bemorlarni davolash va ularning sog'lig'ini kuzatish bo'yicha katta ma'lumotlar bazalarini yaratishga imkon beradi. Bemorlar haqida to'plangan ma'lumotlar, tibbiyot muassasalariga o'z faoliyatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Misol uchun, elektron sog'liqni saqlash kartalari orqali bemorlar bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni saqlash va tahlil qilish mumkin. Bu, tibbiyot muassasalarining ishlash jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi, chunki barcha ma'lumotlar bir joyda jamlanadi va ular tibbiyot xodimlari tomonidan osonlik bilan foydalanilishi mumkin. Natijada, tibbiyot tizimining boshqaruvi ancha samarali bo'ladi, bu esa iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishni joriy etish, tibbiyot muassasalarining moliyaviy samaradorligini oshiradi. Tibbiyot sohasida moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni oshirish uchun innovatsion texnologiyalarni qo'llash zarur. Misol uchun, tibbiy xizmatlar narxlarini avtomatik ravishda belgilash va ularni optimallashtirish uchun raqamli tizimlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, tibbiyot muassasalarida moliyaviy resurslar boshqaruvining yangi usullarini joriy etish, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishga yordam beradi. Bu orqali, muassasalar o'z xarajatlarini nazorat qilish va ularni kerakli darajada kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Innovatsion boshqaruv mexanizmlari yordamida tibbiyot sohasidagi iqtisodiy salohiyatni oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkin.

Kelajakda tibbiyotda raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishi davom etadi. Raqamli iqtisodiyotning yanada rivojlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etish va ularning samarali qo'llanilishi tibbiyot sohasidagi boshqaruvni yanada optimallashtirishga imkon beradi. Shuningdek, raqamli tibbiyot platformalari va tizimlarining rivojlanishi, sog'liqni saqlash sohasidagi iqtisodiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishi nafaqat tibbiyot sohasida, balki barcha jamiyatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirish, resurslardan optimal foydalanish va xizmat sifatini yaxshilash, jamiyatning umumiy farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tibbiyot sohasining iqtisodiy salohiyatini oshirishda healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasiyasining roli katta

ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni, jumladan, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, robototexnika va masofaviy tibbiy xizmatlar kabi innovatsion yondoshuvlarni joriy etish orqali tibbiyot tizimlarini samarali boshqarish mumkin. Bu texnologiyalar nafaqat bemorlar uchun sifatli xizmatlar taqdim etishni ta'minlab, balki tibbiyot muassasalarining iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida healthcare 5.0 konsepsiyasi bilan integratsiyasini rivojlantirishi tibbiyot sohasida resurslarni optimal taqsimlash, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini yaratadi. Boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishi, ayniqsa, ma'lumotlar tahlili va elektron sog'liqni saqlash kartalarining joriy etilishi orqali, tibbiyot muassasalarining samarali ishlashiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy salohiyatni oshirishga, tibbiyot tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelajakda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va yangi innovatsion texnologiyalarning tibbiyotga qo'llanilishi yanada kuchayadi. Bu tibbiyot sohasidagi boshqaruv tizimlarini yanada takomillashtirish va global sog'liqni saqlash tizimlarining samaradorligini oshirishga olib keladi. Demak, tibbiyotda innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, nafaqat iqtisodiy salohiyatni oshirish, balki sog'liqni saqlash tizimining sifatini va samaradorligini yanada yaxshilash uchun muhim vosita hisoblanadi.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYALAR – GLOBAL RAQOBATDA BIZNESNING ASOSIY TEZLIK VA KUCH MANBAI

Ro’ziyeva Anora Muhammadiyor qizi
Osiyo xalqaro universiteti, magistrant

Annotatsiya: Mazkur maqolada biznes va raqamli texnologiyalar davrida kasbiy kommunikatsiyaning o‘rni va ahamiyati haqida tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida tashkilotlar ichki va tashqi kommunikatsiya jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.Maqolada tezkor xabar almashish tizimlari,elektron pochta,vidiokonferensiyalar,ijtimoiy tarmoqlar va su’niy intellekt asosida ishlovchi vositalarning biznes jarayonlariga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, jahon olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan tegishli qarorlar,IT-parklarning rivojlanishi va elekron hukumat tizimi bo‘yicha natijalar keltirilgan.Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi, IT-ta’lim va startap ekotizimining rivojlanishi bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu maqola tadbirkorlar, menejerlar va raqamli iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kasbiy kommunikatsiya,raqamli texnologiyalar,biznes kommunikatsiyasi,elektron hukumat, IT-parklar,vidiokonferensiyalar,su’niy intellekt,tezkor xabar almashish,startap ekotizimi,elektron tijorat.

Bugungi zamonaviy biznes va raqamli texnologiyalar davrida kasbiy kommunikatsiya muvaffaqiyat kalitlaridan biri bo‘lib kelmoqda.Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida insonlar orasidagi muloqot usullari o‘zgarib,samaradorlikni oshirish va global miqyosda hamkorlik qilish imkoniyatlari

yanada kengaydi. Kasbiy kommunikatsiya - bu tashkilot ichida va tashqarisida samarali axborot almashinuvini ta’minlovchi jarayon hisoblanadi.U bir qancha muhim vazifalarni bajaradi:

Samarali boshqaruv- rahbarlar va hodimlar o‘rtasidagi to‘g‘ri muloqot ish jarayonlarini optimallashtirishga yordam beradi.

Jamoaviy ishlashni rivojlantirish- xodimlar o‘rtasida o‘zaro hurmat,bir birini tushunish,tinglash va qo‘llab-quvvatlash natijasida ish jarayonida samaradorlikning oshishi.

Brend va mijozlar bilan aloqani mustahkamlash- Kompaniya o‘z navbatida mijozlari bilan professional darajada muloqot olib borsa ya’ni ularning takliflari va shikoyatlarini vaqtida qabul qilib,samarali takliflar berishi orqali sodiq auditoriya yaratishi mumkin.

Mamlakatimizda raqamli texnologiyalar va kasbiy kommunikatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bir qator muhim qarorlar qabul qilinib kelinmoqda.Shulardan biri davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 5-oktyabrda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidag PF-6079-sonli farmoni imzolangan.Ushbu strategiya orqali mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish,davlat boshqaruvi,ta’lim,sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kenk joriy etish ko‘zda tutilgan.[Shavkat Mirziyoyev.2020] Bu strategiya orqali davlatimizda judayam muhim o‘zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda.Ayniqsa,ushbu farmondan so‘ng,mamlakatimizda IT sohasini rivojlantirishga judayam katta e’tibor qaratildi.Yangicha tizimda o‘qitiladigan IT maktablar ochildi shuningdek, Yoshlar o‘rtasida bu sohaga qiziqish uyg‘otishva malakali kadrlar tayyorlash maqsadida “Bir million dasturchi” loyihalari tashkil etildi.

Yana bir muhim qarorlardan biri bu O‘zbekiston respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-maydagi “Hududlarda yoshlarga raqamlashtirish va xorijiy tillarni o‘rganish uchun qo‘shimcha sharoitlarni yaratishga qaratilgan “IT-shaharchalar” faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-178-sonli qarori qabul qilindi.[Shavkat Mirziyoyev.2024]Bundan ko‘zlangan maqsad yoshlarni raqamli texnologiyalar sohasiga yo‘naltirish,ularni mazkur sohada bilim egallash bo‘yicha intilishlarini rag‘batlantirish,seminarlar,va onlayn ta’lim resurslari orqali yoshlarda ularning mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi raqamli texnologiyalar sohasidagi ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

Kasbiy kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar mavzusida bir qancha jahon olimlari ham o‘zlarining ilmiy ishlarini olib borganlar.Ularning ilmiy ishlari kommunikatsiyaning samaradorligi,texnologik rivojlanish natijasida o‘zgarayotgan ish-jarayon muhitlari va biznesda innovatsion yechimlarning ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Ulardan biri mashhur sotsiolog Manuel Castells o‘zining “The Rise of the Network Society”(Tarmoq Jamiyatining Yuksalishi) kitobida zamonaviy texnologiyalar axborot almashinuvini tezlashtirish orqali biznes muhitiga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini tahlil qilgan.Uning fikricha, raqamli texnologiyalar kommunikatsiya jarayonlarini shunchalik o‘zgartirdiki, global tarmoqda ishlash

an’anaviy kompaniyalarga nisbatan ko‘proq afzalliklarni taqdim etayotganligini ta’kidlaydi.[Manuel Castells.1996]Yana bir olim va psixolog Albert Mehrabianning tadqiqotlariga ko‘ra kasbiy va shaxsiy kommunikatsiyada noverbal signallar (tanadagi imo-ishoralar, ovoz ohangi va yuz ifodalari) muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, odamlar o‘rtasidagi muloqotda so‘zlarning ta’siri 7%, ovoz ohangi 38%, tana tili esa 55% ni tashkil qiladi. Bu biznesda yuzma-yuz uchrashuvlar va video qo‘ng‘iroqlar muhimligini isbotlaydi.[Albert Mehrabian.1971]Biznesda halollik va ikki tomonlama hamkorlikni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yuzma-yuz tashkil qilinadigan uchrashuvlar judayam muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida kasbiy kommunikatsiyaning an’anaviy usullari o‘zgarib, yangi formatda paydo bo‘la boshladi.Quyida ularning asosiylari bilan tanishamiz:

1. Elektron pochta va tezkor xabar almashish tizimlari

Elektron pochta hali ham rasmiy biznes yozishmalari uchun eng muhim vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Biroq, Telegram, Slack, Microsoft Teams kabi tezkor xabar almashish dasturlari real vaqt rejimida muloqot qilish imkoniyatini oshirib, tezkor qaror qabul qilishga yordam berib kelmoqda.

2. Vidiokonferensiya va onlayn uchrashuvlar

Zoom, Google Meet va Microsoft Teams kabi platformalar turli joylarda joylashgan jamoalar uchun masofaviy yig‘ilishlarni o‘tkazish imkonini beradi. Pandemiya davrida bu texnologiyalar kasbiy kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan edi.

3. Ijtimoiy tarmoqlar va professional platformalar

LinkedIn, Twitter, va Facebook kabi platformalar biznes aloqalarni rivojlantirishda, mijozlar bilan muloqot aloqalarini yaxshilashda va brend imidjini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Kompaniyalar o‘z xizmatlari va mahsulotlarini targ‘ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol tarzda foydalanib kelmoqdalar.

4. Su’niy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar

Sun’iy intellekt asosida ishlovchi chat-botlar va virtual yordamchilar mijozlarga tezkor javob qaytarish hamda xizmat sifatini yaxshilash uchun ishlatilmoqda. Masalan, banklar va onlayn-do‘konlar mijozlarga xizmat ko‘rsatishda sun’iy intellektdan keng foydalanmoqda.

5. Bulutli texnologiyalar va fayl almashish tizimlari

Google Drive, Dropbox va OneDrive kabi bulut platformalari xodimlarga hujjatlar bilan birgalikda ishlash imkonini beradi. Bu esa ish jarayonlarini tezlashtiradi,sifatini yaxshilaydi va kommunikatsiya samaradorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning biznes kommunikatsiyasiga joriy etilishi ish unumdorligini oshirib, xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Kelajakda sun’iy intellekt, bulut texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarning rivojlanishi kasbiy kommunikatsiya sifatini yanada oshirishi kutilmoqda. Bu esa biznes jarayonlarini optimallashtirish va innovatsion o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun samarali kasbiy kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi.Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida muloqot jarayonlari yangi darajaga chiqib,biznes jarayonlarini optimallashtirishga yordam bermoqda.Zamonaviy vositalardan to‘g‘ri foydalanish,

aniq va ravon muloqot yuritish, jamoaviy ishni rivojlantirish va mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish – biznesda raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.Biznesda kasbiy kommunikatsiyani rivojlantirish uchun bir qancha muhim bosqichlarni amalga oshirish zarur.Ulardan,raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish,kasbiy va shaxsiy kommunikatsiya ko‘nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish,jamoada kuchli muloqot muhitini shakllantirish uchun samarali platformalardan foydalanish,mijozlar va hamkorlar bilan bo‘ladigan uchrashuvlarda samimiy va professional aloqa muhitini o‘rnatishga e’ribor qaratish judayam muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 374 p.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni. – Toshkent, 2023. – 45 p.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi 2020–2030” qarori. – Toshkent, 2020. – 32 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. – Toshkent, 2024. – 56 p.
5. Sh Y. D. Ensuring Sustainable Growth of Uzbekistan's Economy on the Basis of Efficient Use of Investments //Journal of Marketing and Emerging Economics. – 2021. – T. 1. – №. 2. – C. 1-4. p.
6. European Commission. The European Green Deal. – Brussels, 2020. – 64
7. Ministry of Environment, Republic of Korea. Green Growth Strategy. – Seoul, 2019. – 118 p.
8. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Infografika (https://strategy.uz/index.php?category=infog.
9. Qahramanov B. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik tamoyillari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021. – 276 p.
10. World Bank. Uzbekistan Economic Update. – Washington D.C., 2023. 98
11. FAO. Food and Agriculture of Uzbekistan: Country Profile. – Rome, 2022. – 142 p.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КЛИЕНТСКИМ ОПЫТОМ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ

Попова Нигина Александровна,
магистр 1 курса Ташкентского Государственного Экономического Университета,
кафедра «Инновационной менеджмент»

Цифровизация экономики меняет не только внутренние процессы компаний, но и модель их взаимодействия с потребителями. В сфере услуг это особенно заметно: технологии становятся драйвером эффективности, качества сервиса и конкурентоспособности, а впечатления клиента определяют его лояльность и готовность вернуться. Клиентский опыт превращается в

ключевое конкурентное преимущество, поскольку потребитель оценивает не только продукт, но и весь путь взаимодействия с компанией.[57]

Актуальность совершенствования управления клиентским опытом особенно высока для сферы услуг из-за высокой частоты контактов и зависимости от субъективной оценки обслуживания. Развитие мобильных приложений, онлайн-заказов, электронных платежей, программ лояльности и доставки формирует новые требования к взаимодействию с клиентами.[3]

Для региональных предприятий эффективное управление клиентским опытом имеет дополнительное значение: потребитель сравнивает качество обслуживания не только с местными организациями, но и с цифровыми сервисами национального и международного уровня. Поэтому внедрение цифровых решений становится инструментом повышения конкурентоспособности и формирования современной сервисной среды.[4]

Цифровизация добавляет новые точки взаимодействия и позволяет анализировать большие объёмы данных о поведении клиентов.

В научной литературе клиентский опыт рассматривается как многомерная категория, включающая когнитивные, эмоциональные, сенсорные, социальные и поведенческие компоненты. Согласно Lemon и Verhoef, клиентский путь — это последовательность точек контакта, каждая из которых формирует впечатление, влияющее на общую оценку компании. В цифровой среде таких точек больше, а путь сложнее и нелинейнее.

Одна из главных проблем управления клиентским опытом — разрозненность каналов взаимодействия. Решение — переход от фрагментарного внедрения технологий к системной модели управления. Она должна включать выявление точек контакта, определение факторов удовлетворённости, сбор и анализ обратной связи, оценку эффективности цифровых каналов и корректировку сервисных процессов. Для сферы услуг целесообразно формировать единую систему мониторинга клиентского опыта, объединяющую данные из разных каналов. Информация из отзывов, соцсетей, приложений, программ лояльности и службы поддержки позволяет выявлять проблемные этапы клиентского пути и переходить от реагирования на жалобы к предупреждению повторяющихся проблем.

Важным направлением является персонализация взаимодействия. Цифровые технологии позволяют анализировать историю покупок, предпочтения и характер взаимодействия клиентов, формировать индивидуальные предложения и рекомендации. Однако персонализация должна осуществляться с учётом защиты персональных данных и доверия потребителей.[5]

Другое направление — совершенствование омниканального взаимодействия. Клиент должен получать сопоставимый уровень качества

---

[57] Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. — СПб.: Питер, 2018.

[3] Lemon K. N., Verhoef P. C. Understanding Customer Experience Throughout the Customer Journey // Journal of Marketing. — 2016. — Vol. 80. — No. 6. — P. 69–96.

[4] Республика Узбекистан. Стратегия «Узбекистан – 2030». — Ташкент.

[5] Республика Узбекистан. Закон «Об электронном правительстве». — Ташкент.

независимо от канала коммуникации, а информация об ассортименте, акциях и заказах — быть согласованной в цифровых и физических каналах.

С учётом рассмотренных положений предлагается модель совершенствования управления клиентским опытом из шести этапов. Первый: исследование клиентского пути и выявление точек контакта с потребителем в цифровых и физических каналах. Второй: определение проблемных этапов и факторов удовлетворённости. Третий: интеграция данных из отзывов, соцсетей, приложений, программ лояльности и службы поддержки в единую систему анализа. Четвёртый: разработка ключевых метрик клиентского опыта с учётом специфики предприятия. Пятый: внедрение персонализированных цифровых решений на основе аналитики. Шестой: регулярный мониторинг результатов и корректировка сервисных процессов.

Практическое применение данной модели позволит сформировать системный подход к управлению клиентским опытом: усовершенствовать сбор обратной связи, анализировать клиентский путь, развивать цифровые каналы, повышать персонализацию и использовать данные при принятии управленческих решений.

Научная значимость исследования состоит в обосновании связи между цифровизацией сервисных процессов и совершенствованием управления клиентским опытом [58]. Цифровизация рассматривается не как автоматизация отдельных операций, а как фактор трансформации всей системы взаимодействия предприятия с потребителем, что связывает технологические изменения с управленческими решениями и конкурентоспособностью.

Предлагается внедрить регулярный мониторинг клиентского пути; объединить цифровые каналы обратной связи в единую систему анализа; сформировать ключевые показатели; использовать результаты анализа для улучшения сервисных процессов; развивать персонализацию; обеспечить согласованность цифрового и офлайн-взаимодействия.

Управление клиентским опытом должно смещаться от оперативного реагирования к комплексному управлению всем клиентским путём. Цифровые технологии позволяют глубже изучать потребности клиентов, ускорять взаимодействие, персонализировать предложения и системно использовать обратную связь. Рост качества цифровых и сервисных взаимодействий формирует ориентированную на потребителя конкурентную среду и создаёт дополнительные возможности для предприятий сферы услуг в регионах Республики Узбекистан.

Список использованной литературы:

1. Котлер Ф., Келлер К. Л. Маркетинг менеджмент. — СПб, 2018.

2. Lemon K. N., Verhoef P. C. Understanding Customer Experience Throughout the Customer Journey // Journal of Marketing. — 2016. — Vol. 80. — No. 6. — P. 69–96.

[2] Verhoef P. C., Kannan P. K., Inman J. J. From Multi-Channel Retailing to Omni-Channel Retailing // Journal of Retailing. — 2015. — Vol. 91. — No. 2. — P. 174–181.

3. Verhoef P. C., Kannan P. K., Inman J. J. From Multi-Channel Retailing to Omni-Channel Retailing // Journal of Retailing. — 2015. — Vol. 91. — No. 2. — P. 174–181.
4. Республика Узбекистан. Стратегия «Узбекистан – 2030». — Ташкент.
5. Республика Узбекистан. Закон «Об электронном правительстве».

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF BOUTIQUE HOTELS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE MODELING

Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi
"Ipak yo'li" turism va madaniy meros xalqaro universiteti, mustaqil izlanuvchisi
KIUT Samarqand filiali "Iqtisodiyot" kafedrasi stajor-o'qituvchisi

Abstract. The rapid development of artificial intelligence (AI) is transforming the management and operational processes of the hospitality industry. Boutique hotels, characterized by relatively small room capacity, personalized services, distinctive design, and strong dependence on guest experience, require flexible and data-driven approaches to improving operational and economic efficiency. This article examines the directions for improving the efficiency of boutique hotels through artificial intelligence-based modeling. Particular attention is given to AI applications in demand forecasting, dynamic pricing, occupancy optimization, guest personalization, workforce planning, energy management, digital marketing, and operational decision-making. The study proposes an integrated AI-based efficiency model that combines historical booking data, room prices, occupancy rates, customer reviews, seasonal factors, events, weather conditions, and online market information. The article also considers machine learning, neural networks, time-series forecasting, ensemble models, and explainable artificial intelligence as tools for supporting managerial decisions. Recent research demonstrates that AI-based forecasting can improve the accuracy of hotel demand prediction, while AI-driven personalization can support revenue stability and guest engagement. However, effective implementation requires high-quality data, appropriate technological infrastructure, employee competencies, data protection, and human supervision. The study concludes that AI-based modeling should be considered not as a replacement for hotel managers but as a decision-support mechanism that can improve resource allocation, pricing decisions, service personalization, and overall economic efficiency.

Keywords: artificial intelligence, boutique hotels, machine learning, hotel efficiency, demand forecasting, dynamic pricing, revenue management, personalization, predictive modeling, hospitality.

The hospitality industry is experiencing significant technological transformation as artificial intelligence, machine learning, big data analytics, and digital platforms become increasingly integrated into hotel management[6]. Artificial intelligence can support decision-making in areas such as revenue management, demand forecasting, customer relationship management, personalized services, workforce planning, and operational optimization. Boutique hotels

represent a particularly interesting area for AI applications[5]. Unlike large hotel chains, boutique hotels generally operate with a limited number of rooms and rely heavily on personalized service, distinctive design, local identity, and individual guest experiences.

Consequently, their economic efficiency depends not only on room occupancy but also on the ability to optimize limited human, financial, technological, and physical resources. Therefore, the application of AI-based modeling can create opportunities for boutique hotels to improve the utilization of limited resources and increase economic efficiency.

Artificial intelligence refers to computational systems capable of performing tasks that traditionally require human cognitive abilities, including pattern recognition, prediction, classification, optimization, and decision support [1]. Demand forecasting is one of the most important areas where AI can improve hotel efficiency[7]. Traditional forecasting approaches frequently depend on historical averages and managerial experience[3]. However, hotel demand is affected by multiple variables and may change rapidly due to seasonality, holidays, events, weather, economic conditions, competitor pricing, and online booking behavior. AI-based models can identify complex relationships between these variables.

Table 1.

In boutique hotels, AI can be applied across several management functions.

Functional area	**AI application**	**Expected effect**
Revenue management	Demand forecasting	Better pricing decisions
Pricing	Dynamic pricing models	Improved revenue potential
Marketing	Customer segmentation	More targeted promotion
Guest services	Personalization	Improved guest experience
Human resources	Workforce forecasting	Better staff allocation
Energy management	Consumption forecasting	Lower operating costs
Maintenance	Predictive maintenance	Reduced equipment downtime
Reputation management	Review analysis	Faster response to customer feedback
Management	Predictive analytics	Better decision-making

Recent systematic research on machine intelligence in hospitality identifies CRM and personalization, revenue management and pricing, operations, and governance as major application areas[4]. It also emphasizes barriers such as data governance, privacy, fragmented systems, and the need for human–AI collaboration.

A simplified forecasting model can be represented as:

Future Demand = f(Seasonality + Historical Bookings + Prices + Events + Market Conditions + Customer Behavior)

Machine learning models can process large datasets and identify nonlinear relationships that may not be captured by traditional statistical methods.

The methodology used in this study is conceptual and analytical. The methodology involves synthesizing relevant academic literature on topics such as artificial intelligence, hospitality management, predictive analytics, hotel revenue management, and operational efficiency. An AI-based conceptual model of efficiency for boutique hotels is proposed.

The analysis indicates that artificial intelligence can influence boutique hotel efficiency through several interconnected mechanisms. First, AI-based forecasting

The Law "On Cybersecurity" (No. ZRU-764, April 2022) established the legal basis for protecting critical information infrastructure, defined the roles of state bodies and set incident-reporting duties. In 2024 an amended framework reportedly increased the Central Bank's powers over financial-sector cyber protection (Kun.uz, 2024). The ITU (2024) classifies Uzbekistan in Tier 2 ("Advancing"), with a GCI score of 89.2, up 18.09 points from 71.11 in 2020 (UzCert, 2024).

First, rapid digitalisation outpaces protection: with high connectivity and expanding e-government and fintech, the attack surface grows faster than security budgets. Second, a legal framework alone does not guarantee compliance; the 45 incidents on .uz sites in one quarter, mostly in the private sector (33), suggest uneven cyber hygiene, especially among small firms. Third, ahuman-capital shortage limits detection and response, a problem common to emerging economies. Fourth, third-party and cloud dependence, as NotPetya showed, imports risk from foreign vendors. Fifth, data leakage: Uzbek media reported in 2026 an investigation into an alleged leak of state-employee data, illustrating reputational and privacy risks for public digital services (Kun.uz, 2026; these are allegations, not established findings).

The cases show that damage to economic security depends less on attacker sophistication than on *concentration* (one pipeline, one software vendor, one payment channel) and on *recovery capacity*. Estonia's experience suggests that investment after an incident yields lasting benefits, and Uzbekistan's GCI gain shows comparable institutional learning. However, the GCI is a preparedness index; a high score does not prove resilience, and the scale of recorded attacks indicates constant testing. A critical reading of cost forecasts is also needed: headline figures such as USD 10.5 trillion are modelled estimates, so policy should rely on audited national loss data, which Uzbekistan does not yet publish systematically.

Table 2.

Selected national indicators. Attack counts include automated scanning and should not be equated with successful breaches.
Uzbekistan: persistent exposure

Indicator	Value	Source
Internet users (share of population)	≈ 90%	Internet Society (2024)
Cyberattacks recorded, Q1 2024	3,290,860	UzCert via Kun.uz (2024)
Threat reports passed to organisations, Q1 2024	369,660+	UzCert via Kun.uz (2024)
Vulnerabilities fixed on 19 government web resources	70	UzCert via Kun.uz (2024)
.uz sites with security incidents (12 public, 33 private)	45	UzCert via Kun.uz (2024)

Risk-based protection of critical sectors (banking, energy, transport, health, e-government): mandatory audits, penetration tests and tested recovery plans.

Public loss and incident statistics: annual anonymised reporting of economic losses to support evidence-based budgeting.

Skills pipeline**:** university–industry programmes, certification, and retention incentives in the public sector.

Support for SMEs: subsidised baseline security services and simple compliance checklists.

Supply-chain and cloud governance: vendor-security requirements, data-localisation rules where justified, and diversification of providers.

International cooperation: CERT-to-CERT information sharing and joint exercises with regional partners and international centres.

Cybersecurity is a structural condition for economic security in a digital economy because it protects continuity, trust and sovereignty. International cases show that losses spread through concentration and supply-chain links. Uzbekistan has made measurable institutional progress (GCI 71.11 to 89.2), but the volume of attacks, uneven private-sector protection and skills shortages require sustained investment and transparent measurement. Future research should estimate Uzbekistan's actual economic losses from incidents and test the effect of regulation on firm-level resilience.

References

1. CISA (2021). *Alert AA21-131A: DarkSide Ransomware: Best Practices for Preventing Business Disruption from Ransomware Attacks.* Cybersecurity and Infrastructure Security Agency, USA.

2. Cybersecurity Ventures (2020). *Cybercrime to Cost the World $10.5 Trillion Annually by 2025.* Morton, S., Cybercrime Magazine.

3. Greenberg, A. (2018). The untold story of NotPetya, the most devastating cyberattack in history. *WIRED*, 22 August.

4. IBM Security (2024). *Cost of a Data Breach Report 2024.* Armonk, NY: IBM / Ponemon Institute.

5. Internet Society (2024). *Pulse: Uzbekistan country report.* https://pulse.internetsociety.org/en/reports/UZ

6. ITU (2024). *Global Cybersecurity Index 2024.* Geneva: International Telecommunication Union.

7. Kun.uz (2024). Uzbekistan reports over 3 million cyberattacks for Q1 2024 (UzCert data); Uzbekistan improves its position in global cybersecurity index, 14 September 2024. https://kun.uz

8. Kun.uz (2026). Uzbekistan investigates alleged leak of state employee data on underground forums, April 2026.

9. Republic of Uzbekistan (2022). Law No. ZRU-764 "On Cybersecurity", 15 April 2022. https://lex.uz

10. Tikk, E., Kaska, K., & Vihul, L. (2010). *International Cyber Incidents: Legal Considerations.* Tallinn: NATO CCD COE.

11. UzCert (2024). Uzbekistan strengthened its position in the Global Cyber Security Index. https://uzcert.uz

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ТОРГОВЫХ ПЛОЩАДОК В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ

Матекубова Мавлюда Рустамовна
Магистрантка второго курса Ташкентского Государственного Экономического Университета, направление "Экономика"

Аннотация. В тезисе рассматриваются основные проблемы развития электронных торговых площадок в условиях цифровой трансформации экономики. Выделены экономические, технологические, институционально-правовые и организационные факторы, сдерживающие развитие платформ. Обоснована необходимость комплексного подхода, сочетающего технологическое обновление, совершенствование регулирования и повышение доверия участников рынка. Предложены направления решения выявленных проблем.

Ключевые слова: электронные торговые площадки, цифровая трансформация, платформенная экономика, электронная коммерция, кибербезопасность, доверие участников, интеграция.

Цифровой сдвиг во многом задает направление всей сегодняшней экономике. Облака, анализ больших данных, искусственный интеллект и электронные платежные инструменты перекраивают привычный бизнес: меняются сами правила, по которым продавцы находят общий язык с покупателями. Нагляднее всего это видно по взлету электронных торговых площадок (ЭТП). Речь идет о цифровых средах, где стороны ищут партнеров, закрывают сделки и проводят расчеты.

Электронные торговые площадки охватывают широкий спектр моделей: маркетплейсы в сегменте B2C, торговые системы B2B, площадки государственных и корпоративных закупок, товарные и финансовые биржевые платформы. Их общая особенность — многосторонний характер:

ценность площадки для одной группы участников зависит от числа участников другой группы, что порождает сетевые эффекты. Именно эта особенность определяет как высокие темпы роста успешных платформ, так и специфику возникающих проблем.

Актуальность темы обусловлена тем, что рост рынка электронной торговли сопровождается усилением конкуренции, концентрацией рыночной власти у крупнейших операторов, ростом киберугроз и изменением нормативных требований. Государство формирует специальное регулирование платформенной экономики, а участники рынка сталкиваются с необходимостью постоянно адаптироваться. Всё это делает анализ проблем развития ЭТП практически значимым.

Цель исследования — выявить и систематизировать основные проблемы развития электронных торговых площадок в условиях цифровой трансформации и определить возможные направления их решения.

Для достижения цели поставлены следующие задачи:

1. раскрыть сущность и особенности функционирования электронных торговых площадок как элемента платформенной экономики;
2. выделить и классифицировать факторы, сдерживающие развитие ЭТП;
3. оценить влияние цифровых технологий на конкурентную среду и доверие участников;
4. сформулировать рекомендации по повышению эффективности развития ЭТП.

Электронная торговая площадка представляет собой информационную систему, обеспечивающую взаимодействие участников рынка и проведение торговых процедур в электронном формате. В теории двусторонних рынков площадка выступает посредником, который снижает транзакционные издержки и решает проблему координации сторон. Цифровая трансформация расширяет функциональность ЭТП: помимо торговли, они берут на себя логистику, финансовые услуги, аналитику и рекламу и превращаются в экосистемы. Вместе с тем усложнение модели повышает требования к технической и организационной зрелости оператора.

Проблемы развития ЭТП можно разделить на четыре группы.

1. Технологические проблемы. Основная сложность заключается в том, чтобы одновременно внедрять новые технологии и оставаться устойчивым при быстро растущей нагрузке. Многие площадки используют устаревшие архитектурные решения, что затрудняет масштабирование и интеграцию с внешними системами, такими как платежные сервисы, логистические операторы и учётные системы предприятий. Отсутствие единых правил обмена данными приводит к дублированию операций и увеличению расходов участников. Кадровый дефицит и высокие расходы на разработку собственных решений являются дополнительными препятствиями. Риск ошибок и непрозрачность алгоритмов связаны с использованием искусственного интеллекта для рекомендаций, ценообразования и модерации.

2. Проблемы информационной безопасности и доверия. Концентрация больших массивов данных о пользователях и сделках делает площадки привлекательной целью для кибератак. Утечки персональных данных, мошенничество, подделка товаров и недобросовестные отзывы подрывают доверие участников, а доверие является базовым условием существования платформы. Операторы обязаны соблюдать требования законодательства о защите информации и персональных данных, что требует постоянных инвестиций в системы защиты и в процедуры верификации продавцов и покупателей.

3. Экономические и конкурентные проблемы. Благодаря сетевым эффектам рынок стремится к концентрации: крупные платформы привлекают больше участников и укрепляют свои позиции. Для малого и среднего бизнеса это означает, что они будут зависеть от требований оператора, таких как размер комиссии, правила ранжирования и логистика. Риск злоупотребления доминирующим положением увеличивает конкуренцию. Новым площадкам трудно справиться с проблемой «курицы и яйца», когда продавцы не могут найти покупателей, а покупатели не могут найти продавцов. Высокие расходы на поддержание сервиса и привлечение пользователей снижают рентабельность и ограничивают выход на рынок.

4. Институционально-правовые проблемы. Законодательство развивается медленнее технологий, поэтому статус площадок, ответственность операторов за действия продавцов, защита прав потребителей и порядок использования данных остаются предметом дискуссий. Принятие специального закона о платформенной экономике создаёт единые правила, но одновременно накладывает на операторов новые обязанности и требует адаптации бизнес-процессов. Для трансграничной торговли дополнительные сложности создают различия в налогообложении, таможенном регулировании и требованиях к сертификации. Использование экспериментальных правовых режимов позволяет апробировать новые решения, однако их масштабирование остаётся ограниченным.

Влияние цифровой трансформации. Цифровизация несет в себе новые шансы, но вместе с тем обостряет трудности. Анализ данных, расчеты в цифре и автоматизация процессов делают сделки быстрее и прозрачнее. С другой стороны, трансформация требует не только внедрения технологий, но и изменения организационной культуры, бизнес-моделей и компетенций персонала, что многие операторы недооценивают. Национальные программы развития цифровой экономики задают общий вектор, но их эффект зависит от готовности самих участников рынка.

Направления решения проблем. На основе проведённого анализа можно предложить следующие направления:

1. модернизация технологической инфраструктуры на основе облачных и модульных решений, развитие открытых интерфейсов и стандартизация обмена данными;

2. создание многоуровневой системы кибербезопасности, включая верификацию участников, мониторинг подозрительных операций и прозрачные механизмы разрешения споров;

3. обеспечение недискриминационных и понятных условий для продавцов, раскрытие принципов работы алгоритмов ранжирования, поддержка малого и среднего бизнеса;

4. совершенствование нормативной базы при сохранении баланса между защитой участников и стимулированием инноваций;

5. подготовка кадров, обладающих компетенциями на стыке информационных технологий, права и управления.

Комплексные технологические, экономические, юридические и организационные проблемы сдерживают развитие электрических торговых площадок в условиях цифровой трансформации. Их решение требует сотрудничества операторов, государства и участников рынка. В будущем исследования должны быть направлены на количественную оценку влияния сетевых эффектов и регуляторных мер на эффективность площадок и конкуренцию.

Список использованной литературы

1. Шваб К. Четвёртая промышленная революция. М.: Эксмо, 2016. 138 с.

2. Verhoef P. C., Broekhuizen T., Bart Y. et al. Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda // Journal of Business Research. 2021. Vol. 122. P. 889–901.

3. Rochet J.-C., Tirole J. Platform competition in two-sided markets // Journal of the European Economic Association. 2003. Vol. 1, No. 4. P. 990–1029.

4. Parker G. G., Van Alstyne M. W., Choudary S. P. Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You. New York: W. W. Norton & Company, 2016. 352 p.

5. Evans D. S., Schmalensee R. Matchmakers: The New Economics of Multisided Platforms. Boston: Harvard Business Review Press, 2016. 256 p.

ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Radjabova Malikaxon
1-bosqich PhD tayanch doktorant,
Toshkent xalqaro universiteti

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamlashuv jarayoni tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste'mol qilish shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonning eng dinamik yo'nalishlaridan biri elektron tijorat bo'lib, u raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda savdo-sotiq munosabatlarini raqamli muhitga ko'chirishni anglatadi. Elektron tijoratning jadal o'sishi undan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ilmiy jihatdan baholash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bunda kompaniya yoki milliy iqtisodiyot miqyosida

raqamli vositalarga (elektron savdo platformalari, to'lov tizimlari, ma'lumotlar tahlili vositalari) kiritilgan investitsiyalar bilan ular natijasida erishilgan iqtisodiy natijalar (savdo hajmi o'sishi, xarajatlarning kamayishi, yalpi qo'shilgan qiymatning ortishi, bozor ulushining kengayishi) o'rtasidagi nisbatni miqdoriy va sifat jihatdan aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masalani ilmiy tahlil qilish uning nazariy-metodologik asoslarini o'rganishni taqozo etadi. Iqtisodiyotda samaradorlik tahlilining nazariy poydevorini italiyalik iqtisodchi Vilfredo Pareto tomonidan asos solingan optimallik konsepsiyasi tashkil etadi. Pareto-optimallik resurslarni shunday taqsimlashni bildiradiki, unda bir mezon ko'rsatkichini yaxshilash boshqa mezon ko'rsatkichini yomonlashtirmasdan amalga oshirilmaydi. Ushbu g'oya keyinchalik farovonlik iqtisodiyoti (welfare economics) nazariyasining shakllanishiga asos bo'lgan.

1957-yilda M.J. Farrell ishlab chiqarish samaradorligini o'lchashning mukammal modelini taklif etdi. U texnik samaradorlik (firmaning berilgan kirimlardan maksimal chiqim olish qobiliyati) va narx (allokativ) samaradorlik (ishlab chiqarish omillaridan ularning narxiga mos ravishda foydalanish darajasi) tushunchalarini kiritdi. Ikkalasining ko'paytmasi umumiy iqtisodiy samaradorlikni beradi: $EE(P) = TE(P) \times AE(P)$. Farrell metodologiyasining muhim xususiyati shundaki, samarali izokvanta nazariy standart asosida emas, balki kuzatilgan firmalarning eng yaxshi amaliy natijalari asosida empirik tarzda quriladi. Pareto va Farrell yondashuvlari mos ravishda nazariy-falsafiy va amaliy-kvantitativ yo'nalishlarni ifodalab, samaradorlikni miqdoriy baholashning universal o'lchov apparatini yaratadi.

Elektron tijorat samaradorligini iqtisodiy jihatdan asoslashda tranzaksion xarajatlar nazariyasi markaziy o'rin tutadi. R. Koaz 1937-yilda bozor orqali almashuv amalga oshirilganda tomonlar hamkor va narx izlash, muzokara olib borish, shartnoma tuzish hamda uning bajarilishini nazorat qilish bilan bog'liq xarajatlarga duch kelishini ko'rsatdi. O. Uilyamson 1985-yilda bu g'oyani rivojlantirib, cheklangan ratsionallik, oportunizm va aktivlarning o'ziga xosligi tushunchalariga asoslangan tranzaksion xarajatlar iqtisodiyotini yaratdi hamda xarajatlarni dastlabki (ex ante) va keyingi (ex post) turlarga ajratdi. Raqamli platformalar aynan qidiruv, muzokara va nazorat xarajatlarini kamaytirish, xaridor va sotuvchini avtomatik bog'lash, narxlarni shaffof taqqoslash, reyting-sharhlar orqali ishonchni ta'minlash hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishadi, natijada ko'plab bitimlar ierarxik firma ichida emas, balki ochiq raqamli bozorda past xarajat bilan amalga oshiriladi.

Uchinchi nazariy yo'nalishni "unumdorlik paradoksi" va umumiy maqsadli texnologiyalar (GPT) nazariyasi tashkil etadi. E. Brinyolfsson va L. Xitt kompyuter texnologiyalarining iqtisodiy qiymatini faqat texnik ko'rsatkichlar orqali emas, balki tashkiliy o'zgarishlar kontekstida tushunish zarurligini asosladilar hamda buni "qo'shma ixtiro" jarayoni deb ta'rifladilar: texnologiyaning o'zi emas, balki uni tashkilot ichida qayta ixtiro qilish asosiy qiymat manbai hisoblanadi. T. Bresnahan va M. Trajtenberg 1995-yilda GPT nazariyasini ishlab chiqib, bunday texnologiyalarni keng qo'llanilish, doimiy texnik takomillashuv xususiyatlari orqali ta'rifladilar. Internet va raqamli platformalar aynan zamonaviy GPT namunasi

sifatida qaralib, ularning samarasi faqat korxona o'z ichki jarayonlarini raqamli muhitga mos ravishda qayta qurgandagina to'liq namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rib chiqilgan uch yo'nalishdagi nazariyalarning o'zaro uyg'unlashuvi - o'lchov metodologiyasi (Pareto/Farrell), institutsional izoh (Koaz/Uilyamson) va texnologik-tashkiliy dinamika (Brinyolfsson-Xitt/Bresnahan-Trajtenberg) - elektron tijorat sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini baholashning yaxlit nazariy-metodologik poydevorini tashkil etadi. Bu nazariy asos korxonalar yoki milliy iqtisodiyot miqyosida raqamli vositalarga kiritilgan investitsiyalar bilan erishilgan iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni keyingi bo'limlarda empirik baholash uchun zarur konseptual poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pareto, V. (1906). Manuale di economia politica. Milano: Società Editrice Libraria.

2. Farrell, M.J. (1957). "The Measurement of Productive Efficiency." Journal of the Royal Statistical Society: Series A (General), 120(3), 253-281. DOI: https://doi.org/10.2307/2343100

3. Coase, R.H. (1937). "The Nature of the Firm." Economica, 4(16), 386-405. DOI: https://doi.org/10.1111/j.1468-0335.1937.tb00002.x

4. Williamson, O.E. (1985). The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting. New York: Free Press.

5. Brynjolfsson, E. & Hitt, L.M. (2000). "Beyond Computation: Information Technology, Organizational Transformation and Business Performance." Journal of Economic Perspectives, 14(4), 23-48. DOI: https://doi.org/10.1257/jep.14.4.23

6. Bresnahan, T.F. & Trajtenberg, M. (1995). "General Purpose Technologies: 'Engines of Growth'?" Journal of Econometrics, 65(1), 83-108.

РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЗАИМОСВЯЗЬ С РОСТОМ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»

Хусаинов Р.Р.,

ТГТУ, к.э.н., профессор

Стратегия «Узбекистан – 2030», утверждённая Указом Президента Республики Узбекистан, определяет цифровую трансформацию как один из ключевых инструментов повышения конкурентоспособности национальной экономики и обеспечения устойчивого регионального развития [1]. В рамках стратегии поставлены амбициозные задачи: доведение экспорта IT-услуг и программных продуктов до 5 миллиардов долларов, обеспечение занятости в отрасли 300 тысяч молодых людей, а также включение страны в число 30 ведущих государств мира в Индексе электронного правительства ООН [1]. Реализация этих целей непосредственно связана с развитием цифровой экономики в регионах, поскольку именно территориальная равномерность

цифровой трансформации определяет общий уровень конкурентоспособности страны [2].

Настоящая статья посвящена анализу взаимосвязи между развитием цифровой экономики и ростом конкурентоспособности регионов Узбекистана в контексте задач Стратегии «Узбекистан – 2030». Особое внимание уделяется проблеме цифрового неравенства, которое может как стимулировать, так и сдерживать региональное развитие [2; 3].

1. Цифровая экономика как драйвер региональной конкурентоспособности

Влияние цифровизации на экономику Узбекистана демонстрирует устойчивую положительную динамику. За последние пять лет валовая добавленная стоимость в отрасли увеличилась в среднем на 24,8 процента, что в 3,5 раза превышает темпы роста ВВП [1]. Численность занятых в сфере информации и связи выросла с 64,3 тысячи человек в 2017 году до 108,8 тысячи, а количество самозанятых — с 10 тысяч до 181 тысячи человек [1]. В настоящее время в сфере действуют более 11,9 тысячи предприятий, из которых около 1,4 тысячи созданы с участием иностранного капитала [1].

Показательным примером является Ферганская область, где объём IT-услуг вырос в 4 раза, а экспорт превысил 23 миллиона долларов [3]. В IT-парке региона работают 139 компаний, и после расширения их число должно достичь 200, а экспорт — 30 миллионов долларов [3]. В Мархаматском районе объём экспорта IT-услуг резидентами IT Park по итогам II квартала 2026 года составил 8,72 млн долларов, что соответствует росту до 169,2% от уровня прошлого года [3]. Эти данные свидетельствуют о том, что цифровая экономика становится реальным фактором повышения конкурентоспособности не только столицы, но и отдалённых регионов [3].

2. Цифровой разрыв как барьер регионального развития

Несмотря на позитивную динамику, сохраняется существенная дифференциация регионов по уровню цифрового развития. Согласно данным Центра «Стратегия развития», плотность интернет-абонентов в Ташкенте достигает 209 на 100 человек, тогда как в большинстве регионов этот показатель остаётся ниже 70 [2]. Скорость мобильного интернета в сельской местности, как правило, не превышает 2 Мбит/с и может снижаться до 10–50 Кбит/с в пути [2]. Эти инфраструктурные ограничения напрямую влияют на доступность цифровых услуг и возможности удалённой занятости [2].

Особую озабоченность вызывает разрыв в цифровых компетенциях. Около 40 процентов школьников обладают базовой компьютерной грамотностью, а 37 процентов демонстрируют цифровую грамотность; в сельской местности этот показатель остаётся ниже 30 процентов [2].

3. Искусственный интеллект и региональная конкурентоспособность

Развитие технологий искусственного интеллекта открывает новые возможности для повышения конкурентоспособности регионов. В научной литературе предложена концептуальная модель RAIC-5, которая интегрирует пять структурных измерений, через которые ИИ влияет на региональную

конкурентоспособность, и разработана система индикаторов оценки готовности регионов к внедрению ИИ [3].

В Узбекистане применение ИИ уже демонстрирует конкретные результаты. На медно-обогатительной фабрике №3 Алмалыкского горно-металлургического комбината благодаря внедрению системы анализа производственной цепочки в режиме реального времени с использованием искусственного интеллекта удалось снизить энергопотребление на 10 процентов, себестоимость — на 15 процентов и повысить производительность труда на 10 процентов [3].

4. Инвестиционный потенциал и институциональные условия

Доля цифровых секторов в иностранных инвестициях Узбекистана составляет approximately 5 процентов, что превышает уровень ряда стран Центральной Азии, но остаётся ниже мировых ориентиров (24 процента в странах ОЭСР и 14 процентов в не-ОЭСР экономиках) [2]. Это создаёт возможности для дальнейшего расширения инвестиционных потоков в цифровую экономику регионов [2].

Вместе с тем ключевым приоритетом на 2026–2030 годы является превращение цифрового разрыва в возможность для инклюзивного роста. При реализации целевых и хорошо продуманных политик цифровизация может служить мощным инструментом сокращения неравенства и укрепления социальной сплочённости [2; 3].

5. Политика и рекомендации

Для реализации потенциала цифровой экономики как фактора региональной конкурентоспособности необходим комплекс мер. Приоритетным направлением является ускоренное развитие интернет-обмена (IXP) с привлечением глобальных контент-провайдеров, что позволит снизить стоимость доступа и повысить качество связи в регионах [2]. Целесообразно также внедрение композитного индекса «Инклюзивная цифровизация регионов» (IDRI), учитывающего инфраструктурную доступность (0,4), цифровые компетенции (0,4) и востребованность услуг (0,2) [2].

Для сбалансированного развития регионов необходимо расширение сети IT-парков и цифровых кластеров за пределами Ташкента [3]. Положительный опыт Ферганской области, где объём IT-услуг вырос в 4 раза, а экспорт превысил 23 миллиона долларов, демонстрирует эффективность такого подхода [3]. В Ташкентской области в 2026 году ожидается достижение экспорта цифровых услуг в 50 миллионов долларов, а также запуск современных объектов IT-парка в городах Нурафшон и Чирчик [3]. Эти инициативы должны быть синхронизированы с программами профессиональной подготовки, чтобы обеспечить соответствие навыков выпускников потребностям локальных рынков труда [1; 3].

Развитие цифровой экономики в Узбекистане представляет собой одновременно источник новых возможностей и вызовов для региональной конкурентоспособности. С одной стороны, цифровизация создаёт рабочие места, повышает экспортный потенциал регионов и формирует предпосылки для снижения избыточной миграции за счёт удалённой занятости [3].

Стратегия «Узбекистан – 2030» и Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» закладывают институциональные основы для преодоления этих вызовов [1]. Однако успех их реализации будет зависеть от способности государства обеспечить инклюзивный характер цифровой трансформации, синхронизировать развитие инфраструктуры и человеческого капитала, а также интегрировать цифровую повестку в общую стратегию регионального развития [1; 2; 3].

Для дальнейших исследований целесообразно сосредоточиться на эмпирической оценке влияния региональных IT-парков на показатели занятости и конкурентоспособности, анализе эффективности программ цифровой грамотности в сельской местности и изучении долгосрочных эффектов внедрения искусственного интеллекта для экономики регионов Узбекистана [2; 3].

Список использованных источников

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии „Цифровой Узбекистан-2030“ и мерах по её эффективной реализации» от 05.10.2020 № УП-6079. *Lex.uz*. URL: https://lex.uz/uz/acts/5031048

2. Центр «Стратегия развития». Цифровое неравенство — барьер на пути развития регионов Узбекистана. *Strategy.uz*, 2025. URL: https://strategy.uz/index.php?news=2170.

3. Sharipova M. M. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqaviy raqobatbardoslikni oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari // Zarmed universiteti Buxoro kampusı. *Zenodo*, 2025. URL: https://zenodo.org/records/21092950.

SANOATNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Abduqayumova Muslimaxon Marufjon qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,
“Iqtisodiyot” mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezis sanoat sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarining mazmuni va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borayotgan bir paytda, ayniqsa sanoatda ularni samarali qo‘llash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ishning asosiy maqsadi raqamli transformatsiyaning ishlab chiqarish jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirishning amaliy yo‘llarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida muallif tomonidan turli yondashuvlar o‘rganilib, ular o‘zaro solishtirildi va umumlashtirildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini yanada tezkor, aniq va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, avtomatlashtirish, ma’lumotlar tahlili va zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shu

asosda ishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator amaliy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Raqamli transformatsiya, sanoat, ishlab chiqarish samaradorligi, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, innovatsiyalar, optimallashtirish, raqobatbardoshlik.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sanoat sohasida tub tarkibiy o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Xususan, sanoatda raqamli transformatsiya jarayonlarining keng joriy etilishi bir tomondan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan resurslardan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda, uchinchi tomondan esa korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish va ularning innovatsion rivojlanishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi[66].

Umumiy iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan qaraganda, sanoatda raqamli transformatsiyani amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bois, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasida ham sanoatni raqamlashtirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratilmoqda[67].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida sanoatni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular orasida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi[68]. Mazkur hujjatlar sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi sanoatda raqamli transformatsiyaning nazariy asoslarini o‘rganish, uning ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini tahlil qilish hamda samaradorlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun raqamli transformatsiya tushunchasining mazmunini ochib berish, sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilish darajasini tahlil qilish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi.

Tadqiqot obyekti sifatida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari tanlangan bo‘lsa, tadqiqot predmeti sifatida raqamli transformatsiya sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Mazkur ishning ilmiy ahamiyati sanoatda raqamli transformatsiya jarayonlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sirini tizimli ravishda ochib berish bilan izohlanadi, amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni sanoat korxonalarida qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi.

---

[66] Kagermann, H. et al. (2013). *Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0*.
[67] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age*.
[68] O‘zbekiston Respublikasi. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Sanoatning raqamli transformatsiyasi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim rivojlanish yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish jarayonlarini tubdan o‘zgartirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda korxonalar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya jarayoni faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini – rejalashtirish, boshqarish, monitoring va tahlil qilish tizimlarini qamrab oluvchi kompleks iqtisodiy hodisa sifatida talqin etiladi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya Industry 4.0 konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, ishlab chiqarish tizimlarida avtomatlashtirish, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, narsalar interneti va kiber-fizik tizimlar integratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, Kagermann va boshqalar (2013) ning ta’kidlashicha, Industry 4.0 ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida boshqarish va resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish imkonini beradi[69].

Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyaning joriy etilishi bir tomondan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan xatoliklar darajasini pasaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi, uchinchi tomondan esa ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish hamda vaqt resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Shu jihatdan qaraganda, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda Brynjolfsson va McAfee (2014) raqamli texnologiyalar iqtisodiy o‘sishning yangi bosqichini shakllantirayotganini ta’kidlab, ayniqsa avtomatlashtirish va sun’iy intellekt mehnat unumdorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan[70]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, raqamli transformatsiya natijasida korxonalar kamroq resurs bilan ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sanoat ishlab chiqarishida raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat texnologik, balki tashkiliy va boshqaruv jihatdan ham muhim o‘zgarishlarni talab etadi. Masalan, real vaqt rejimida ma’lumot almashinuvi, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli platformalar orqali monitoring qilish hamda avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish tizimlaridan foydalanish korxonalar boshqaruv samaradorligini oshiradi. Porter va Heppelmann (2015) ning fikriga ko‘ra, raqamli ekotizimlar korxonalar uchun yangi raqobat ustunliklarini shakllantiradi va mahsulotning hayotiy siklini boshqarishni takomillashtiradi[71].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, raqamli transformatsiya jarayonining samaradorligi faqat texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki inson kapitalining rivojlanishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Malakali kadrlar, raqamli savodxonlik va innovatsion fikrlash ishlab chiqarish tizimlarida yangi texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu borada Becker (1964) tomonidan ishlab chiqilgan

[69] Kagermann, H. et al. (2013). *Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0*.
[70] Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age*.
[71] Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2015). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition.

inson kapitali nazariyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unga ko‘ra ta’lim va malaka oshirishga kiritilgan investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshiradi[72].

O‘zbekiston Respublikasi sanoatida ham raqamli transformatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Xususan, ishlab chiqarish korxonalarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish, elektron hujjat aylanishini kengaytirish hamda raqamli platformalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmoqda. Shu bilan birga, ushbu jarayonni yanada rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va kadrlar salohiyatini oshirish zarur hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodiy sharoitni tahlil qilganda shuni ko‘rish mumkinki, raqamli transformatsiya jarayonlarining tezlashishi korxonalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytiradi va bozorda samaradorligi yuqori bo‘lgan ishlab chiqaruvchilarni ajratib ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga olib keladi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, sanoatning raqamli transformatsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi texnologik yangilanishlar bilan bir qatorda institutsional islohotlar, kadrlar tayyorlash tizimi va boshqaruv samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir.

Sanoatning raqamli transformatsiyasi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganish natijasida shuni ko‘rish mumkinki, ishlab chiqarish tizimlarining samaradorligi asosan texnologik rivojlanish darajasi, boshqaruv tizimlarining modernizatsiyasi hamda inson kapitalining sifatiga bevosita bog‘liqdir. Xususan, raqamli transformatsiya jarayonlari korxonalarda avtomatlashtirish, ma’lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida texnologik infratuzilmaning yetarliligi, raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, malakali kadrlar mavjudligi hamda innovatsion muhitning shakllanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlarining sustligi ko‘pincha korxonalarda eski texnologiyalarga bog‘liqlik, investitsiyalar yetishmasligi va raqamli savodxonlikning pastligi bilan izohlanadi.

Ushbu omillardan kelib chiqib, sanoatda raqamli transformatsiyani rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish hamda mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Buning natijasida korxonalarning umumiy samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

2. Raqamli transformatsiya ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, ya’ni xomashyo, vaqt va mehnat resurslari

[72] Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*.

optimal taqsimlanadi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va foyda darajasini oshirish imkonini beradi.

3. Sanoatda innovatsion texnologiyalarni joriy etish korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi va ularni global ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiya qilish imkonini yaratadi. Natijada milliy iqtisodiyotning eksport salohiyati ham oshadi.

Takliflar:

1. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng joriy etish lozim. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.

2. Raqamli iqtisodiyot sharoitida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xususan, muhandislik va IT sohalarida raqamli ko‘nikmalarga ega mutaxassislar ulushini oshirish zarur. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

3. Sanoat korxonalariga investitsiyalarni jalb etish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Bu esa uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kagermann, H., Wahlster, W., & Helbig, J. (2013). *Recommendations for Implementing the Strategic Initiative INDUSTRIE 4.0*. Germany: Acatech.

2. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W. W. Norton & Company.

3. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2015). How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. *Harvard Business Review*.

4. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis*. Chicago: University of Chicago Press.

5. Drucker, P. F. (1954). *The Practice of Management*. New York: Harper & Row.

6. Solow, R. M. (1956). A Contribution to the Theory of Economic Growth. *The Quarterly Journal of Economics*.

7. Leontief, W. (1986). *Input–Output Economics*. Oxford: Oxford University Press.

8. International Labour Organization (ILO). (1999). *Decent Work Report*. Geneva: ILO.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoni "Harakatlar strategiyasi".

10. "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat hujjatlari.

11. Vahobov, A. V., & Shoha'dibdinov, Sh. (2010). *Makroiqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma'lumotlari (so‘nggi yillar hisobotlari).

RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA’LIMNI BOSHQARISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI

Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Oliy ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi bir necha ilmiy maktablar ta’sirida shakllangan. Klassik byurokratik model (M.Veber) universitetni qat’iy qoidalar va lavozimlar ierarxiyasiga asoslangan tashkilot sifatida ko‘radi. Kollegial model akademik hamjamiyatning o‘zini o‘zi boshqarishini, ilmiy kengashlar va kafedralar mustaqilligini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Siyosiy model universitetni turli manfaatdor guruhlar o‘rtasidagi kelishuvlar maydoni sifatida talqin qiladi. “Uyushgan anarxiya” modeli (M.Koen, J.Mart) esa universitetdagi qarorlar ko‘pincha noaniq maqsadlar va o‘zgaruvchan ishtirokchilar sharoitida qabul qilinishini ko‘rsatadi[73].

XX asrning 80-yillaridan boshlab “Yangi davlat menejmenti” (New Public Management) g‘oyalari oliy ta’lim boshqaruviga kirib keldi. Bu yondashuv natijaga asoslangan moliyalashtirish, raqobat, xususiy sektor boshqaruv usullarini qo‘llash, hisobdorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlariga urg‘u berdi. S.Marginson va M.Konsidayn “korporativ universitet” tushunchasini kiritib, universitetlarda boshqaruv markazlashuvi va menejerlashuv tendensiyalarini tanqidiy tahlil qildilar[74].

XXI asrda “Raqamli davr boshqaruvi” (Digital Era Governance) nazariyasi (P.Danliviy va boshqalar) shakllandi. Unga ko‘ra, raqamli texnologiyalar boshqaruvni qayta integratsiya qilish, ehtiyojlarga asoslangan yaxlit xizmatlar ko‘rsatish va jarayonlarni raqamlashtirish imkonini beradi[75]. Bu yondashuv oliy ta’limda “yagona darcha” tamoyili asosida talabalarga xizmat ko‘rsatish, ma’lumotlarni markazlashgan holda boshqarish va avtomatlashtirilgan jarayonlarni joriy etishga olib keldi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’lim boshqaruvining zamonaviy nazariy asosini quyidagi yondashuvlar sintezi tashkil etadi:

– tizimli yondashuv — universitetni o‘zaro bog‘liq quyi tizimlar (ta’lim, ilm-fan, moliya, kadrlar, infratuzilma) majmui sifatida ko‘rish;

– jarayonli yondashuv — boshqaruvni qiymat yaratuvchi biznes-jarayonlar zanjiri sifatida modellashtirish va ularni raqamlashtirish;

– strategik yondashuv — raqamli transformatsiyani universitet strategiyasining ajralmas qismi sifatida qarash;

– manfaatdor tomonlar yondashuvi — talabalar, xodimlar, ish beruvchilar va davlat manfaatlarini muvozanatlash;

---

[73]Cohen M.D., March J.G., Olsen J.P. A Garbage Can Model of Organizational Choice // Administrative Science Quarterly. – 1972. – Vol. 17, No. 1. – P. 1–25.

[74]Marginson S., Considine M. The Enterprise University: Power, Governance and Reinvention in Australia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

[75]Dunleavy P., Margetts H., Bastow S., Tinkler J. New Public Management Is Dead — Long Live Digital-Era Governance // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2006. – Vol. 16, No. 3. – P. 467–494.

– ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) — qarorlarni analitik ma’lumotlar va prognozlarga tayangan holda qabul qilish;

– platformaviy yondashuv — universitetni xizmatlar, ma’lumotlar va hamkorlar ekotizimini birlashtiruvchi platforma sifatida qarash.

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Tashqi omillar qatoriga davlat siyosati va me’yoriy-huquqiy baza, moliyalashtirish mexanizmlari, mehnat bozori talablari, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, xalqaro raqobat va akkreditatsiya talablari kiradi. Ichki omillar esa muassasaning strategik rejalashtirish salohiyati, rahbariyatning yetakchilik sifatlari, tashkiliy madaniyat, professor-o‘qituvchilar tarkibining malakasi, moddiy-texnik va axborot-kommunikatsiya bazasi, ichki sifat kafolati tizimi bilan belgilanadi.

Raqamli iqtisodiyotda bu omillar ichida axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi va inson kapitalining raqamli kompetensiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki texnologiyalar o‘z-o‘zidan samaradorlikni ta’minlamaydi: tadqiqotlar ko‘rsatishicha, raqamli transformatsiya loyihalarining katta qismi texnologik emas, balki tashkiliy va madaniy sabablarga ko‘ra kutilgan natijani bermaydi[76]. Shu sababli raqamli boshqaruvni joriy etishda texnologiya, jarayonlar va odamlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Oliy ta’lim muassasalari boshqaruvining o‘ziga xosligini tushunish uchun ular ko‘rsatadigan xizmatlarning iqtisodiy tabiatini aniqlash zarur. Iqtisodiyot nazariyasida oliy ta’lim inson kapitaliga investitsiya sifatida qaraladi. T.Shults va G.Bekker tomonidan ishlab chiqilgan inson kapitali nazariyasiga ko‘ra, ta’limga sarflangan xarajatlar shaxsning kelgusidagi mehnat unumdorligi va daromadlarini oshiruvchi investitsiya bo‘lib, uning qaytimi ham shaxs, ham jamiyat darajasida namoyon bo‘ladi[77]. Shu bilan birga, M.Spens tomonidan taklif etilgan signallar nazariyasi oliy ta’lim diplomi mehnat bozorida bitiruvchining qobiliyatlari to‘g‘risidagi “signal” vazifasini ham bajarishini, ya’ni axborot asimmetriyasini kamaytirishini ko‘rsatadi[78].

Oliy ta’lim xizmatlari bir qator o‘ziga xos iqtisodiy xususiyatlarga ega. Birinchidan, ular “tajriba tovari” hisoblanadi: xizmat sifatini iste’molchi faqat uni olgandan keyin, ko‘pincha bir necha yildan so‘ng baholay oladi. Ikkinchidan, ta’lim xizmatlari kuchli tashqi samaralarga (eksternaliyalarga) ega: oliy ma’lumotli mutaxassislar soni ortishi butun iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshiradi. Uchinchidan, ta’lim jarayonida iste’molchi — talabaning o‘zi ham ishlab chiqarish jarayonining faol ishtirokchisi bo‘ladi, ya’ni natija nafaqat muassasaga, balki talabaning sa’y-harakatlariga ham bog‘liq. To‘rtinchidan, oliy ta’lim bozorida sezilarli axborot asimmetriyasi mavjud: abituriyent va uning oilasi muassasalar sifati to‘g‘risida to‘liq axborotga ega emas.

---

[76]Benavides L.M.C., Tamayo Arias J.A., Arango Serna M.D., Branch Bedoya J.W., Burgos D. Digital Transformation in Higher Education Institutions: A Systematic Literature Review // Sensors. – 2020. – Vol. 20, No. 11. – 3291.

[77]Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17; Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: Columbia University Press, 1964.

[78]Spence M. Job Market Signaling // The Quarterly Journal of Economics. – 1973. – Vol. 87, No. 3. – P. 355–374.

Raqamli iqtisodiyot ushbu xususiyatlarning har biriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ochiq ma’lumotlar portallari, xalqaro reytinglar va onlayn sharhlar axborot asimmetriyasini kamaytiradi; onlayn kurslar va mikro-malakalar ta’lim xizmatlarini kichik, alohida baholanadigan birliklarga bo‘lish imkonini beradi; ta’lim analitikasi esa ta’lim natijalarini o‘qish jarayonining o‘zida kuzatish va baholash imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar ta’lim xizmatlarining chegaraviy xarajatlarini keskin pasaytiradi: bir marta yaratilgan onlayn kurs minglab talabalarga qo‘shimcha xarajatsiz taqdim etilishi mumkin. Bu holat oliy ta’lim muassasalari uchun miqyos samarasidan foydalanish va yangi biznes-modellarni shakllantirish imkoniyatlarini ochadi.

Institutsional iqtisodiyot nuqtayi nazaridan raqamli texnologiyalar oliy ta’lim muassasasi ichidagi va tashqi muhit bilan munosabatlardagi tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi. R.Kouz va O.Uilyamson asarlarida tashkilot chegaralari ichki boshqaruv xarajatlari va bozor tranzaksiyalari xarajatlari nisbati bilan belgilanishi asoslab berilgan[79]. Raqamli platformalar ushbu nisbatni o‘zgartirib, oliy ta’lim muassasalariga ayrim funksiyalarni (masalan, IT xizmatlari, kutubxona resurslari, onlayn kurslar) autsorsingga berish yoki boshqa muassasalar bilan birgalikda amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv tizimining tashkiliy tuzilishini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Cohen M.D., March J.G., Olsen J.P. A Garbage Can Model of Organizational Choice // Administrative Science Quarterly. – 1972. – Vol. 17, No. 1. – P. 1–25.

2.Marginson S., Considine M. The Enterprise University: Power, Governance and Reinvention in Australia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.

3.Dunleavy P., Margetts H., Bastow S., Tinkler J. New Public Management Is Dead — Long Live Digital-Era Governance // Journal of Public Administration Research and Theory. – 2006. – Vol. 16, No. 3. – P. 467–494.

4.Benavides L.M.C., Tamayo Arias J.A., Arango Serna M.D., Branch Bedoya J.W., Burgos D. Digital Transformation in Higher Education Institutions: A Systematic Literature Review // Sensors. – 2020. – Vol. 20, No. 11. – 3291.

5.Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17; Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: Columbia University Press, 1964.

6.Spence M. Job Market Signaling // The Quarterly Journal of Economics. – 1973. – Vol. 87, No. 3. – P. 355–374.

7.Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405; Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.

[79]Coase R.H. The Nature of the Firm // Economica. – 1937. – Vol. 4, No. 16. – P. 386–405; Williamson O.E. The Economic Institutions of Capitalism. – New York: Free Press, 1985.

MOLIYAVIY INKLUSIVLIKNI OSHIRISHDA SUNIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN KREDIT SKORING MODELLARIDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Isayeva Masuda O‘tkirovna
AJ Asakabank

So‘nggi paytlarda sun’iy intellekt (SI) ga asoslangan yechimlarining ishlab chiqish va keng joriy etish biznes, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi sohalar rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, raqamli iqtisodiyotning tayanchi bo‘lib xizmat qilmoqda. Xususan, moliyaviy institutlarda kredit skoring, firibgarlikni aniqlash va risklarni boshqarishda mashinali o‘qitish (ML) ga asoslangan modellardan foydalanish kredit qaytmaslik xatarini kamaytiradi va banklarning moliyaviy barqarorligini yaxshilaydi (Isaeva, 2025). Biroq, bunday yechimlardan foydalanish qabul qilingan qarorlarning shaffof, xolis va mas’uliyatli ekanligini qanday ta`minlash bo‘yicha xavotirlarni ham keltirib chiqaradi (Utkirovna, 2025).

Noxolislik - SI modellarini ishlab chiqish jarayonida yo`l qo`yilgan e`tiborsizliklar sababli bexosdan yuzaga kelgan tarafkashlikni bildiradi (Chen, 2023). Skoring modellaridagi noxolislik turli sabablarga ko`ra yuzaga kelishi mumkin. Noxolos kredit skoring modellarida foydalanish nafaqat bank kredit portfelining yomonlashtiradi, balki jamiyattagi moliyaviy tengsizlikni kuchayishiga ham xizmat qiladi (Latina, 2026).

Modellarning xolis va adolatli ekanligi demografik tenglik, imkoniyatlar tengligi, bashoratlar tengligi, tenglashtirilgan ehtimolliklar, nomutanosib ta`sir koeffisiyenti kabi metodlar yordamida baholanadi (Latina, 2026). So`nggi yillarda SI ga asoslangan modellarning xolisligi va adolatliligi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izalnishlar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, muammoni bartaraf etish bo`yicha bir qancha og`riqli nuqtalar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, aksariyat taqiqotlar real moliyaviy ma’lumotlarni tahlil qilish yoki amaliy yechimlar berish o‘rniga nazariyalar bilan cheklanib qolgan.

Ikkinchidan, kam sonli tadqiqotlar noxolislikning asosi bo`lgan, tarixiy kamsitishlar va andozali tengsizlikni o‘rganadi. Uchinchidan, xolislikni ta`minlash hamda modelning bashorat qilish qobilyati o`rtasidagi muvozanatni ta`mimlashga qaratilgan ilmiy izalanishlar soni kam. To`rtinchidan, ko`pchilik tahlillar simulyatsiya natijasida yaratilgan sintetik ma`lumotlardan foydalanib olib borilgan, bu esa ulardan chiqarilgan xulosalarni umumlashtirish va amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini cheklaydi (Chen, 2023).

Xolis va adolatli ML modellarini yaratish bo‘yicha akademik adabiyotlar yuqori korrelyatsiyaga ega o‘zgaruvchilar orqali proksi-diskriminatsiyani yuzaga kelishi, modellarning bashorat qilish qobiliyati va xolisligi muvozanatni ta`minlash, model tushunarliligining narxi kabi muammolarni yoritishga qaratilgan (Noreen, 2026).

Kredit skoring modellarining xolisligi b`oyicha olib borilgan tadqiqotlar noxolis ML modellarining yaratilishining asosiy sabalari sifatida ma’lumotlar xolisligi, algoritmik xolislik va foydalanuvchi va model o‘zaro ta’sirini keltirishadi (Chen, 2023). Ma`lumotlar noxolisligini bartaraf qilishga qaratilgan tadqiqotlar,

modellarni qurish vaqtida to`liq va batafsil bo`lmagan, aholining hamma qatlamlarini qamrab ololmagan ma`lumotlardan foydalanilgan holatlarda, ML modellarining adolatli ishlashini qanday qilib ta`minlash ustida ishlaydi. Kredit tarixi ma`lum bir guruhga kiruvchi arizachilarni oshkora yoki yashirin diskriminatsiya qilish natijasida qabul qilingan tarixiy qarorlarini o`zida aks ettirishi mumkin. ML modellari bu ma`lumotlar asosida qurilganda, ular diskriminatsion andozalarni o‘zlashtirib olgan baholash tizimiga aylanib qoladi (Noreen, 2026).

Modellarni ishlab chiqish jarayonida beixtior yuzaga kelgan tarafkashliklar, tanlanma xatoliklar va teskari aloqa ta’siri kabi muammolar algoritmik xolislik masalalari hisoblanadi.

Algoritmik xolislik chiziqli bo‘lmagan regressiya usullarining kuchaytirish effekti, klassifikatorlar samaradorligi, adolatlilik tushunchasining bilimlar ko‘rinishida ifodalanishi hamda mukammal bo‘lmagan yorliqlar asosida o‘rganishdagi muammolar natijasida yuzaga keladi (Garcia, 2024).

Foydalanuvchi va model o`zaro ta’siri SI ga asoslangan modellar o’z xatti-harakatlarini foydalanuvchi fikr-mulohazalari asosida qayta moslashtirib olganda yuzaga keladi (Chen, 2023). Maqsad sizib chiqishi muammosi o`zgaruvchilardan bir yoki bir nechtasi natijaviy parameterning xususiyatlarini takrorlashi natijasida yuz beradi va u aniq diagnostika qilinmaganda modelning adolatli va xolis ishlashini ta`minlab bo`lmaydi (Latina, 2026).

ML modellari noxolisligini bartaraf etish uchun olimlar adolatli o‘qitish, oldindan qayta ishlash (pre-processing), ichki qayta ishlash (in-processing), keyingi qayta ishlash (post-processing), regulyarizatsiyaga asoslangan va kontrfaktual adolat metodlaridan foydalanishni tavsiya qilishadi.

Ammo adolatlilik va xolislikni ta’minlovchi usullarning xech biri, bir vaqtning o‘zida bir nechta mezonga javob bera olmaydi va mutloq yetakchi, yoki universal yechimning mavjud emas (Moldovan, 2023). Shu sababli, qaror qabul qilish jarayonida tarafkashlikni kamaytirishni istagan mutaxassis xolislikni oshirishning bir qancha usullarni qo‘llab ko‘rishi va eng maqulini tanlashda muayyan bashorat qilish vazifasining konseptual va texnik jihatlariga e`tibor berishi lozim (Kozodoi, 2022).

Muqobil ma’lumot manbalari, jumladan, bank mobil ilovasidan foydalanish, bank kartasi aylanmalari, mobil aloqa uchun to`lovlar, ijtimoiy tarmoqlar va elektron tijorat platformalaridagi faollik tarixi ma`lumotlari – arizachilarning raqamli xulq-atvori andozasini ifodalaydi.

Tadqiqotchilarning fikricha skoring jarayonida bu kabu ma`lumotlaridan foydalanish kredit qaytmaslik xatarini oldindan baholash imkoniyatini sezilarli darajada oshiradi (Abugri, 2026), va kredit tarixiga ega b`olmaganligi sababli arizasi rad etilgan mijozlarga ham kredit olish imkonini yaratadi (Liu, 2024). Ammo bu turdagi ma`lumotlar asosida qurilgan ML modellarining bashorat qilish qobiliyati har doim ham yuqori bo`lavermaydi (Utkirovna, 2025).

Shu bilan birga bunday muqobil ma’lumot manbalaridan foydalanish raqamli va moliyaviy savodxonligi past bo`lgan keksa yoki endi balog`at yoshiga yetgan shaxslar uchun yangi noxolislik shakllarini yuzaga kelish xavfini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Abugri, C. C. (2026). Bias, fairness, and explainability in AI-driven credit scoring: A critical review of algorithmic governance in financial risk assessment. Journal of Economics Intelligence and Technology, 1-12.
2. Agboola, O. K. (2025). Auditing bias in AI and machine learning-based credit algorithms: A data science perspective on fairness and ethics in FinTech. International Journal of Technology, Management and Humanities, 1-11.
3. Chen, P. W. (2023). AI fairness in data management and analytics: A review on challenges, methodologies and applications. Applied sciences, 10258.
4. Garcia, A. C. (2024). Algorithmic discrimination in the credit domain: what do we know about it? AI & society, 2059-2098.
5. Hurlin, C. P. (2026). The fairness of credit scoring models. Management Science, 406-425.
6. Isaeva, M. (2025). Optimizing cross-selling strategies with machine learning: A case study of car loan adoption among remittance recipients in Uzbekistan. Finance & Accounting Research Journal,, 133-151.
7. Isaeva, M. U. (2025). Assessing artificial intelligence readiness of financial institutions in Uzbekistan. Экономика Центральной Азии, 295-318.
8. Kozodoi, N. J. (2022). Fairness in credit scoring: Assessment, implementation and profit implications. European Journal of Operational Research, 1083-1094.
9. Latina, E. J. (2026). Quantifying Algorithmic Bias in AI-Based Credit Scoring Models: An Explainable Fairness Assessment. Fintech Innovation Journal, 239-262.
10. Liu, W. Q. (2024). Algorithmic bias identification and mitigation strategies in machine learning-based credit risk assessment for small and medium enterprises. Annals of Applied Sciences, 1-11.
11. Moldovan, D. (2023). Algorithmic decision making methods for fair credit scoring. IEEE access, 59729-59743.
12. Noreen, R. S. (2026). Algorithmic Bias and Fairness in AI Credit Scoring: Evidence, Mechanisms, and Governance Responses. Journal of Management Science Research Review, 1546-1558.
13. Utkirovna, M. I. (2025). Credit scoring in digital age: benchmarking telecom, card transactions and credit history data. Raqamli iqtisodiyot, 1482-1501.

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING STRATEGIK AHAMIYATI

Yuldoshev Sherzod Yusup o‘g‘li
University of Business And Science
Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi

Barqaror iqtisodiy o‘sish ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi bilan birga resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va hududlar o‘rtasidagi rivojlanish tafovutini qisqartirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan SI texnologiyalari iqtisodiy jarayonlarni

real vaqtda tahlil qilish, talab va taklifni prognozlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda boshqaruv qarorlarining aniqligini oshirish imkonini beradigan strategik vositaga aylanmoqda.

O‘zbekistonda SI ni rivojlantirishning institutsional asoslari izchil shakllantirilmoqda. 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaror mamlakatda SI texnologiyalarini joriy etish uchun dastlabki shart-sharoitlarni belgilagan bo‘lsa, Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan SI texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Strategiya SI asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar bozorini kengaytirish, texnik infratuzilmani rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shuningdek, qaror bilan strategiyani 2024–2026-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi hamda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida shakllantiriladigan «katta ma’lumotlar» ro‘yxati tasdiqlangan.

Maqolaning maqsadi SI texnologiyalarining barqaror iqtisodiy o‘sish va hududiy raqobatbardoshlikka ta’sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda O‘zbekiston sharoitida uni samarali joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Maqolada me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kontent tahlili, rasmiy statistik ma’lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, tizimli yondashuv va ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Maqola ekonometrik baholashni emas, balki konseptual-tahliliy asoslashni va siyosiy takliflar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

Iqtisodiy o‘sishning zamonaviy (endogen o‘sish) nazariyalari bilim, innovatsiya va texnologik yangilanishni o‘sishning ichki omili sifatida ko‘radi (Romer, 1990). Aghion, Jones va Jones (2017) SI ni avtomatlashtirish orqali o‘sishni jadallashtirishi mumkin bo‘lgan yangi omil sifatida tahlil qiladi. Acemoglu (2024) esa SI ning makroiqtisodiy samarasi ko‘pincha taxmin qilinganidan sezilarli darajada kamtarroq bo‘lishi mumkinligini, natija esa qaysi vazifalar avtomatlashtirilishiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu, o‘z navbatida, SI ni «o‘zi-o‘zidan o‘sish omili» emas, balki to‘g‘ri yo‘naltirilishi kerak bo‘lgan vosita sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

An’anaviy ishlab chiqarish omillaridan farqli o‘laroq, SI ma’lumotlarni iqtisodiy resursga aylantiradi: katta hajmdagi ma’lumotlardagi qonuniyatlarni aniqlab, boshqaruv qarorlarini takomillashtiradi. SI ning iqtisodiy samarasi uchta asosiy kanal orqali shakllanadi:

1. Mehnat unumdorligi. Takrorlanuvchi operatsiyalar avtomatlashtiriladi, xodimlar vaqti yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan faoliyatga yo‘naltiriladi. OECD (2023) mehnat bozoriga ta’sirni ham unumdorlik o‘sishi, ham kasblar tarkibining o‘zgarishi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi.

2. Resurslardan foydalanish samaradorligi. Masalan, qishloq xo‘jaligida suv va mineral o‘g‘itlardan foydalanish bo‘yicha aniq tavsiyalar berish mumkin.

3. Yangi mahsulot, xizmat va biznes-modellar paydo bo‘lishi.

Biroq SI ni joriy etish barqaror o‘sishni o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi. Hududlarda raqamli infratuzilma, internet sifati, ma’lumotlar bazasi va mutaxassislar yetarli bo‘lmasa, texnologik yangiliklar iqtisodiy markazlarda to‘planib, hududlararo tafovutni kuchaytirishi mumkin. Jahon banki (2021) ham

ma’lumotlardan olinadigan foyda ularni boshqarish va foydalanishni tartibga soluvchi institutlarga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shu bois muallif SI ni alohida texnologik loyiha emas, hududiy rivojlanish siyosatining tarkibiy qismi sifatida ko‘rishni taklif etadi.

PQ-358-son qaror bilan 2030-yilgacha quyidagi maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan: SI asosidagi dasturiy mahsulot va xizmatlar hajmini 1,5 mlrd AQSH dollariga yetkazish; YAIDXP (my.gov.uz) da SI asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar ulushini 10 foizga yetkazish; SI yo‘nalishidagi ilmiy laboratoriyalar sonini 10 taga yetkazish va yuqori quvvatli hisoblash serverlarini ishga tushirish; Government AI Readiness Index bo‘yicha O‘zbekistonni dastlabki 50 ta davlat qatoriga kiritish. Rasmiy axborotga ko‘ra, SI ga tayyorlik xalqaro indeksida mamlakat 17 pog‘onaga ko‘tarilgan, 20 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan va tarmoqlar hamda yirik korxonalar bo‘yicha yana 70 ta loyiha ishlab chiqilgan.

Strategik hujjatlarda SI ni bank-moliya, soliq, bojxona, qishloq xo‘jaligi, energetika, sog‘liqni saqlash, transport, ta’lim va davlat xizmatlarida qo‘llash nazarda tutilgan. Bank-moliyada kreditga layoqatni baholash, firibgarlikni aniqlash va bozor tendensiyalarini prognozlash; qishloq xo‘jaligida hosildorlik, suv sarfi va ekinlar holatini monitoring qilish; energetikada ishlab chiqarish va iste’molni prognozlash imkoniyatlari mavjud.

1-jadval.

Hududlar bo‘yicha SI qo‘llashning taklif etilayotgan ustuvor yo‘nalishlari.

Hudud	**Ustuvor yo‘nalishlar**
Toshkent shahri va Toshkent viloyati	Moliyaviy texnologiyalar, elektron savdo, logistika, davlat xizmatlari platformalari
Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy	Suv resurslarini boshqarish, energiya samaradorligi, qishloq xo‘jaligida prognozlash
Farg‘ona vodiysi viloyatlari	Sanoat kooperatsiyasi, kichik biznes va xizmatlar sohasida boshqaruv vositalari

Milliy statistika qo‘mitasi yalpi hududiy mahsulot, aholi jon boshiga hududiy mahsulot, tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat, sanoat va xizmatlar o‘sish sur’atlari kabi ko‘rsatkichlarni muntazam e’lon qiladi.

Ular SI modellari uchun muhim analitik baza bo‘la oladi. Biroq muallif fikricha, ushbu ma’lumotlarning hududiy, tarmoq va vaqt kesimlarida o‘zaro integratsiyasi yetarli emas, bu esa hududiy prognozlash va ma’lumotlarga asoslangan investitsiya qarorlarini cheklaydi.

Hududlar bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar bir xil bo‘lmasligi kerak (1-jadval).

SI ni keng joriy etishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni to‘rt guruhga ajratish mumkin:

1. Ma’lumotlarning tarqoqligi va sifati. Turli tashkilotlardagi ma’lumotlar yagona formatda yuritilmasligi, takroriy yoki to‘liq bo‘lmagan yozuvlar mavjudligi modellar aniqligini pasaytiradi.

2. Raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi. Hisoblash quvvatlari, ma’lumotlarni saqlash markazlari va tezkor internetga kirish imkoniyati markaziy hududlarda kengroq, chekka hududlarda esa cheklangan bo‘lishi mumkin.

3. Kadrlar tanqisligi. SI loyihasi dasturchilar bilan birga iqtisodchi, muhandis, statistik, ma’lumotlar muhandisi va soha ekspertlarining hamkorligini talab qiladi, hududiy tashkilotlarda bunday ko‘p tarmoqli jamoalar amaliyoti yetarli emas.

4. Samaradorlikni baholash mexanizmlarining zaifligi. Ba’zan raqamlashtirish texnologik natija bilan o‘lchanadi, mehnat unumdorligi, xarajatlar, xizmat tezligi va daromadga ta’siri aniqlanmaydi.

Muallif fikricha, SI ning strategik ahamiyati alohida korxonada xarajatlarni kamaytirishidan ko‘ra, hududiy iqtisodiyotda qaror qabul qilish modelini o‘zgartirishida namoyon bo‘ladi. Hozirgi amaliyotda ko‘plab qarorlar o‘tgan davr ko‘rsatkichlariga tayanadi, SI esa real vaqtdagi ma’lumotlar asosida kelajakdagi ehtimoliy holatlarni baholash imkonini beradi.

Shuning uchun SI ni joriy etishning asosiy mezoni texnologiyalar soni emas, iqtisodiy natijadir. Masalan, qishloq xo‘jaligi uchun SI platformasi ishga tushirilgani emas, suv sarfining kamayishi, hosildorlikning oshishi va fermer daromadining ko‘payishi uning samarasini belgilaydi.

Muallif O‘zbekistonda «hududiy sun’iy intellekt platformalari» modelini shakllantirishni taklif etadi. Unda har bir hududning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati, demografik tarkibi va infratuzilmasi hisobga olinadi. Platformalar markaziy ma’lumotlar infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan holda mahalliy muammolar bo‘yicha prognoz, monitoring va tavsiyalar ishlab chiqadi.

1. Yagona «Iqtisodiy ma’lumotlar paneli»ni tashkil etish. Unda YAHM, investitsiya, bandlik, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar, energetika va ekologiya ko‘rsatkichlari yagona standart asosida jamlanishi lozim. Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish («Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi qonun talablari) va anonimlashtirish ta’minlanishi shart.

2. Har bir hududda kamida bitta iqtisodiy pilot loyiha. Masalan, Qoraqalpog‘istonda suv taqsimotini optimallashtirish, Buxoroda turizm oqimini prognozlash, Navoiyda sanoat va energetika samaradorligini oshirish, Farg‘ona vodiysida kichik biznes kredit risklarini baholash.

3. Natijaga asoslangan moliyalashtirish. Grant va imtiyozli kreditlar bilan birga mablag‘ ajratish texnologiya yaratilganiga emas, iqtisodiy ko‘rsatkichlarga (xarajatlar qisqarishi, xizmatlar tezlashishi, yangi ish o‘rinlari, qo‘shimcha daromad) bog‘lanishi kerak.

4. «Universitet — davlat — biznes» laboratoriyalari. Hududiy oliy ta’lim muassasalari, davlat tashkilotlari va biznes hamkorligida talabalar va yosh tadqiqotchilar real ma’lumotlar asosida hududiy muammolarni yechadi. Bu strategiyadagi ilmiy laboratoriyalar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichni ham qo‘llab-quvvatlaydi.

5. Institutsional nazorat. Algoritmik xatolar, ma’lumotlar xavfsizligi, diskriminatsiya va javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi mexanizmlar kuchaytirilishi lozim. SI boshqaruv qarorini to‘liq almashtirmasligi, balki mutaxassis uchun tahliliy yordamchi vazifasini bajarishi kerak.

6. Samaradorlikni baholash tizimi. Har bir loyiha 2-jadvaldagidek ko‘rsatkichlar bilan baholanishi taklif etiladi.

2-jadval.

SI loyihalarining iqtisodiy natijadorlik ko‘rsatkichlari (taklif)

Yo‘nalish	Ko‘rsatkich	O‘lchash usuli
Mehnat unumdorligi	Bir xodimga qo‘shilgan qiymat	Loyihadan oldingi va keyingi davr solishtirmasi
Resurs samaradorligi	Suv, energiya, o‘g‘it sarfining birlik mahsulotga nisbati	Monitoring ma’lumotlari
Xizmat sifati	Xizmat ko‘rsatish muddati, xatolar ulushi	Idoraviy hisobotlar
Iqtisodiy samara	Xarajat qisqarishi, qo‘shimcha daromad, yangi ish o‘rinlari	Moliyaviy hisobotlar
Hududiy tenglik	Hududlararo raqamli va unumdorlik tafovuti	Statistik qiyosiy tahlil

SI texnologiyalari O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘sishning yangi omiliga aylanmoqda. Uning ta’siri mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish, boshqaruvni takomillashtirish va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishda namoyon bo‘ladi.

Tahlil SI ning iqtisodiy samarasi texnik infratuzilma bilan birga ma’lumotlar sifati, kadrlar salohiyati, hududiy ixtisoslashuv va natijadorlikni baholash mexanizmlariga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Shu bois SI siyosati barcha hududlarga bir xil texnologiyani joriy etishga emas, har bir hududning iqtisodiy muammosiga mos yechim ishlab chiqishga asoslanishi kerak.

Muallif taklif etgan hududiy SI platformalari, iqtisodiy ma’lumotlar paneli va natijaga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari raqamli tafovutni kamaytirish, investitsiya qarorlarini yaxshilash va barqaror o‘sishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan ko‘rsatkichlar asosida pilot hududlarda ekonometrik baholash o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori «Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida». — URL: https://lex.uz/docs/-7158604

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qarori «Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida». — URL: https://lex.uz/docs/-5297046

3. O‘zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi qonuni (2019-yil 2-iyul, O‘RQ-547-son).

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Yalpi hududiy mahsulot va tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari. Murojaat sanasi: 22.09.2026

5. Acemoglu D. The Simple Macroeconomics of AI. — NBER Working Paper No. 32487, 2024.

6. Aghion P., Jones B.F., Jones C.I. Artificial Intelligence and Economic Growth. — NBER Working Paper No. 23928, 2017.
7. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. — 1990. — Vol. 98, No. 5.
8. OECD. OECD Employment Outlook 2023: Artificial Intelligence and the Labour Market. — Paris: OECD Publishing, 2023.
9. United Nations. World Economic Situation and Prospects 2024. — New York: United Nations, 2024.
10. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. — Washington, DC: World Bank, 2021.
11. «Sun'iy intellekt» (rasmiy axborot sahifasi). — gov.uz. — URL: https://gov.uz/oz/digital/activity_page/sun-iy-intellekt

MODERN APPROACHES AND DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ziyaeva Mukhtasar Mansurjanovna
TSEU Professor, Uzbekistan

World experience shows that the competitiveness of the national economy as a whole is related to the development of information technology. According to the World Economic Forum, the competitiveness index of the economies of states has a high level of correlation with the index of development of their information and communication technologies. The information technology industry is one of the most dynamically developing industries in the world.

The digital economy is not some other economy that needs to be created from scratch. This means moving the existing economy to a new system by developing new technologies, platforms, and business models, and implementing them into everyday life. That is, a high level of automation; exchange of electronic documents; electronic integration of accounting and management systems; electronic databases; Availability of CRM (customer interaction systems); corporate networks. Thanks to the digital economy, payment costs are reduced (for example, trips to the bank and other resources are saved), information about goods and services is obtained more and faster, opportunities open up for entering the global market of goods and services in the digital world, due to the fact that feedback (consumer opinion) arrives quickly, goods and services quickly they are improving.

The expansion of the use of information technology in the public sector, the development of electronic services and investments in infrastructure contribute to the wider use of information technology in the private sector and will become a catalyst for their spread in the corporate sector. The large-scale implementation of the open data concept will provide a base for the development of new information services and increase the efficiency and convenience of access to information systems by the public.

In his Message to the Oliy Majlis in 2020, the head of state said: "In order to achieve development, it is necessary and necessary to master digital knowledge and modern information technologies. This gives us the opportunity to take the shortest

path to growth," he said, setting a firm goal for the transition to the digital economy over the next five years. In particular, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Action for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" provides for the development of the digital economy, effective public administration in the economy, modern forms of mutually beneficial cooperation between the public and private sectors, the Electronic Government system, the implementation of development measures is identified as a priority. The development of any country's digital economy will lead to an increase in gross domestic product. (1- UP-6079). Strategic innovative marketing is determined by market segmentation and product positioning. The key point of the marketing strategy is the research and forecasting of demand for a new product, based on the study of consumer perception of innovation. In the course of strategic research, the head of an innovation project must determine which products, of what quality, and to which consumers he will offer.(2- Aaker D). Therefore, strategic marketing is focused on close contact of employees of marketing and sociological services of the enterprise with the consumer (questionnaires, telephone surveys, representative samples, etc.).

The analysis of problems in the organization's activities is one of the key success factors in stabilizing its condition. The causes of crisis phenomena in the organization's activities may be the influence of internal and external environmental factors. The higher the entropy of the external environment, the more difficult it is to formulate anti-crisis measures. With increasing chaotic processes within the organization itself, the marketing department needs to identify related departments that are experiencing the greatest crisis load and may affect the work of the marketing department and consumers, for example, such as the logistics department or the IT department (if the organization operates in the information services market).

This approach will allow you to assess risk vectors in advance and be prepared for a worsening situation. When preparing a marketing plan and budget for a new period, the marketing costs of the previous year are correlated with the sales results obtained. Depending on the indicators of the previous period and taking into account the changes that have occurred in the market over the year, the marketer sets goals and objectives that need to be solved in the new year, taking into account the specifics of the type of management.

In order to predict activity in the event of chaotic processes in the external environment, the marketing department needs to analyze the instability of the external environment. In the case of medium-level instability, it is possible to make development forecasts based on the extrapolation of retrospective knowledge about the state of the external environment. As the instability of the external environment increases and the state of chaos increases, all forecasting is carried out on the basis of group expert assessments. In addition, it is necessary to consider the likelihood of new environmental factors that may affect the business activity of the organization.

The experience of developed countries shows that the development of new information and telecommunication technologies directly affects not only the growth

of competitiveness of national economies, but also plays a crucial role in the formation of an effective research and education sector.

In recent years, many countries and international organizations have identified the implementation of concepts and programs for the transition to the information society as a priority. Similar concepts have been developed and are being implemented in the USA, Great Britain, Canada, Finland, France, Japan, Italy, India, etc. These documents take a variety of forms, but they have one goal - to become one of the leaders of the global information community. The transition to the information society brings with it fundamentally new interrelated changes in the socio-economic structure of society, which in turn are conditioned by the development and objective influence of new, more advanced and more productive means of production.

Modern Uzbekistan is a part of the global economic community, therefore, the ongoing integration processes in the international market require industrial organizations not only to enter the information society at the national, but also at the global level.

In terms of the production of communications equipment, China, India and the countries of the Asia-Pacific region occupy the largest positions in the ICT complex. Their sales range from 13 to 20% of total revenue. At the same time, China already controls 11% of the market, only 1% behind Japan.

In terms of network equipment, according to Gartner analysts, cloud and mobile solutions will be the main drivers of the market for enterprises. The demand for Ethernet switches for data centers will be stimulated by virtualization and cloud solutions, and the proliferation of mobile access points continues to drive impressive demand for wireless LAN equipment. Software types such as CRM, DBMS, data integration and data quality improvement tools will be in demand.

With the development and implementation of modern information and communication technologies and the creation of infrastructure, there is a need to quickly involve the population in new technologies. Summing up, it can be noted that the strategy for the development of the National Information and Communication System of the Republic of Uzbekistan, implemented in all areas of information and communication technology development, shows a positive trend.

The digital economy is an economy based on new methods of production, processing, storage, data transmission and digital computer technologies. Within the framework of this economic model, the existing market models of work will radically change, the model of value creation will decrease significantly, and the importance of intermediaries at all levels of the economy will decrease dramatically, because now we can model something. If you think about the positive aspects of the "digital economy", then as a result of its

- increases labor productivity;
- increases the competitiveness of companies;
- production costs are reduced;
- new jobs are being created in a new field;
- Poverty and social inequality will be eliminated. (3- Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R.)

One of the problems of the industry is the lack of qualified personnel. However, there are not enough qualified programmers. In most universities, programming is an applied discipline, as universities train programmers for a specific industry: transportation, engineering, etc. At the same time, information on specialization is sometimes redundant, and training in programming skills is not enough.

Increased attention should be paid to increasing the number of graduates in information technology-related specialties, which are part of the initial base of specialists to work in the industry. According to the experience of a number of companies, when applying for positions in software development and architecture, graduates of higher education institutions in the field of information technology have practically no advantages over graduates of physics, mathematics or engineering specialties.

Literature

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the approval of the strategy "Digital Uzbekistan-2030" and measures for its effective implementation, Tashkent, October 5, 2020, No. UP-6079.

2. Aaker D., et al. Marketing research. Ed. 7-e. Translated from English / Edited by S. Bozhuk. St. Petersburg: Peter, 2004. 848 p.

3. Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Developing the digital economy impact on the country's economic growth // International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS). – 2022. – Vol. 12 Issue 09. – ISSN: 2249-7382.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BOZOR MEXANIZMLARINING TRANSFORMATSIYASI VA INNOVATSION RIVOJLANISH

G‘ulamova Farzona Toshmuxammad qizi

Tayanch doktarant, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot nazariyasi

Annotatsiya. Ushbu tezis raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor mexanizmlarining transformatsiyalashuvi va ushbu jarayonda innovatsion omillarning o‘rni tadqiq etilgan. Raqamli texnologiyalar, katta ma’lumotlar, algoritmlar va raqamli platformalarning bozor mexanizmining asosiy elementlari — talab, taklif, narx va raqobatga ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari asosida bozor munosabatlarining o‘zgarish xususiyatlari yoritilib, bozor mexanizmlarini innovatsion va raqamli rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, bozor mexanizmi, raqamli transformatsiya, innovatsiya, raqamli platformalar, algoritmlar, raqobat, elektron tijorat.


Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha tarmoqlari hamda sohalariga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.[1]

Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlarga tobora chuqur kirib borishi natijasida bozor munosabatlarining an’anaviy shakllari ham transformatsiyaga uchramoqda. Jumladan, raqamli platformalarning rivojlanishi, katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanish, algoritmik boshqaruv, elektron to‘lov tizimlari va elektron tijoratning kengayishi talab va taklifning shakllanishi, narx va raqobat jarayonlariga yangi omillarni olib kirada.

Mazkur jarayonda innovatsiyalar raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi raqamli mahsulot va xizmatlarning yaratilishi, innovatsion biznes modellarining shakllanishi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining avtomatlashtirilishi bozor subyektlarining faoliyat yuritish mexanizmlarini o‘zgartirmoqda. Natijada bozor mexanizmlarining amal qilishida talab, taklif, narx va raqobat bilan bir qatorda ma’lumotlar, texnologiyalar, raqamli platformalar va innovatsion yechimlarning ahamiyati ortib borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bozor mexanizmlarining an’anaviy tarkibiy elementlari va ularning o‘zaro ta’siriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. An’anaviy iqtisodiyotda bozor mexanizmining amal qilishi, asosan, talab, taklif, narx va raqobatning o‘zaro ta’siriga asoslangan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu jarayonlarga katta ma’lumotlar, raqamli platformalar, algoritmlar va innovatsion texnologiyalarni qo’shishimiz mumkin.



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar ta’sirida bozor mexanizmlarining transformatsiyasi

Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor mexanizmlarining transformatsiyasini tadqiq etish ushbu jarayonda innovatsiyalarning o‘rnini aniqlash zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir.

Hozirgi kunda raqamli platformalarning kengayishi bozor subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni soddalashtirib, xaridor va sotuvchilarning bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytishiga olib kelmoqda. Elektron tijorat va raqamli to‘lov tizimlarining rivojlanishi esa tranzaksiya xarajatlarini kamayishiga, savdo jarayonlarini tezlashishiga hamda iqtisodiy faoliyatning geografik chegaralarini kengaytirishiga muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda, katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash imkoniyatlarining ortishi bozor ishtirokchilarining talab va taklifni aniqlash va prognozlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsion texnologiyalar asosida yangi mahsulot va xizmatlarning yaratilishi, yangi biznes modellarining shakllanishi va ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi bozor subyektlari o‘rtasidagi raqobatning yangi shakllarini yuzaga keltiradi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot sharoitida raqobat nafaqat narx va mahsulot sifati, balki texnologik imkoniyatlar, ma’lumotlardan foydalanish samaradorligi va innovatsion salohiyat bilan ham belgilanadi.

Mazkur tendensiya O‘zbekiston iqtisodiyotida ham kuzatilmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 79,5 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 22,7 foizga oshgan. Shuningdek, 2026-yil yanvar–iyun oylarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlarining YaIMdagi ulushi 2,9 foizga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar raqamli texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlar va bozor munosabatlaridagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi.[2]

Elektron tijoratning rivojlanishi ham bozor mexanizmlarining raqamli transformatsiyasini ifodalaydi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2021-yildagi 0,48 foizdan 2024-yilda 1,38 foizgacha oshgan.[3] Demak, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning kengayishi talab, taklif, narx va raqobat mexanizmlarining amal qilish shakllarini o‘zgartirib, texnologiyalar va innovatsiyalarni bozor raqobatining muhim omiliga aylantirmoqda.

Yuqoridagi tahlillar asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida bozor mexanizmlarining samarali faoliyatini ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: birinchidan, raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; ikkinchidan, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining raqamli platformalar hamda elektron tijorat tizimlariga integratsiyasini rag‘batlantirish; uchinchidan, raqamli bozorlarda sog‘lom raqobat muhitini ta’minlash va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot bozor mexanizmlarining an’anaviy amal qilish shakllarini transformatsiya qilib, ularning tarkibiga ma’lumotlar, raqamli platformalar, algoritmlar va innovatsion texnologiyalarni faol omil hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida raqamli xizmatlar va elektron tijoratning rivojlanishi ushbu jarayonning jadallashayotganini ko‘rsatadi. Bizning fikrimizga ko‘ra, bozor

mexanizmlarini innovatsion va raqamli rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik hamda raqobatbardoshlikni oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. The share of ICT services in Uzbekistan’s gross domestic product increased. 25 August 2026;
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 79,5 trln so‘mga yetdi. 09 February 2026.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Vayskulov Ramazon Alisher o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
tayanch doktoranti

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish, yangi biznes imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va raqobat ustunliklarini shakllantirishning muhim shartlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar iqtisodiy faoliyatning nafaqat texnik tomonini, balki uning tashkil etilishi, boshqarilishi va bozorga chiqish usullarini ham o‘zgartirmoqda. Internet, raqamli platformalar va ma’lumotlar bazalaridan foydalanish hududlarda axborot almashinuvi tezligini oshirib, iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytiradi. Natijada raqamlashtirish mintaqalarning iqtisodiy faolligi va raqobatlashish imkoniyatlarini kuchaytiradi [1; 2].

Mintaqalar raqobatbardoshligi bugungi sharoitda faqat tabiiy yoki moliyaviy resurslar hajmi bilan belgilanmaydi. Hududning bilim va ko‘nikmalarni jamlash, innovatsiyalarni o‘zlashtirish, infratuzilmadan foydalanish va zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llash qobiliyati tobora muhimlashmoqda. Raqamli texnologiyalar ushbu jarayonlarni tezlashtirib, hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi va yangi xizmatlarning shakllanishini rag‘batlantiradi. Raqamli rivojlanish darajasi mintaqaning kelgusidagi raqobatbardoshlik salohiyatini belgilovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim [3; 5].

Raqamli transformatsiyaning mintaqalar raqobatbardoshligiga ta’siri bir necha o‘zaro bog‘liq kanallar orqali yuzaga keladi. Avvalo, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi hududning axborot va bilim resurslariga ulanish imkoniyatini yaxshilaydi. Keyingi bosqichda raqamli xizmatlarning kengayishi vaqt va tranzaksiya xarajatlarini qisqartiradi, boshqaruv qarorlarini qabul qilishni tezlashtiradi va yangi xizmatlarni joriy etish uchun sharoit yaratadi. Natijada innovatsion faollik va investitsion jozibadorlik kuchayib, mintaqaning raqobat pozitsiyasi mustahkamlanadi [1; 2; 5].

Biroq raqamli transformatsiyaning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori iqtisodiy natijani kafolatlamaydi. Raqamli ulanishdan olinadigan samarani kuchaytirish uchun tegishli ko‘nikmalar, qulay biznes muhiti va samarali institutlar ham zarur. Shu jihatdan texnologik imkoniyat bilan undan foydalanish salohiyati o‘rtasidagi

mutanosiblik muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Demak, raqamli rivojlanishning natijadorligi texnologiya bilan bir qatorda inson kapitali va institutsional muhitning uyg‘unligiga ham bog‘liq.

Raqamli rivojlanishni baholashda bitta ko‘rsatkichga tayanish hududdagi real holatni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shuning uchun raqamli infratuzilma, xizmatlardan foydalanish, raqamli ko‘nikmalar, iqtisodiy faollik va boshqaruv jarayonlarining raqamlashtirilishini birgalikda hisobga oluvchi kompleks yondashuv maqsadga muvofiq. Bunday baholash mintaqalar o‘rtasidagi raqamli tafovutlarni aniqlash, ularning sabablarini tushuntirish va rivojlanish siyosatini aniqroq yo‘naltirish imkonini beradi [2; 5].

O‘zbekistonda raqamli rivojlanish so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarorda raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish, shuningdek, soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha amaliy vazifalar belgilangan [1]. PF-76-son Farmonda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish va elektron xizmatlar sifatini oshirish bilan bog‘liq vazifalar nazarda tutilgan [3].

2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada sun’iy intellektdan foydalanish uchun huquqiy, texnologik va iqtisodiy shart-sharoitlarni shakllantirishga qaratilgan vazifalar belgilandi [4]. 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qarorda esa 2025–2026-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha ustuvor loyihalar, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish va raqamli xizmatlarni kengaytirish bilan bog‘liq choralar belgilangan [2]. Bu hujjatlar raqamlashtirishning hududiy yo‘nalishi tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Raqamlashtirishning mintaqaviy raqobatbardoshlikka ta’sirida inson kapitali alohida o‘rin tutadi. OECDning O‘zbekiston bo‘yicha 2023-yilgi tadqiqotida raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi xususiy sektorning raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishini cheklayotgan omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. Hisobotda raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish biznesning raqamlashtirilishi va raqobatbardoshligini oshirish uchun muhim shart sifatida baholangan [5]. Shu bois hududiy rivojlanish dasturlarida raqamli infratuzilma bilan bir qatorda inson kapitalining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish ham muhim yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Raqamli texnologiyalar mintaqalarning raqobatbardoshligini iqtisodiy faoliyat yuritish xarajatlarini qisqartirish, bozorlar bilan aloqani soddalashtirish va axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish orqali kuchaytiradi. Raqamli platformalar tadbirkorlik subyektlariga geografik masofaga kamroq bog‘liq holda mijozlar va hamkorlar bilan ishlash imkonini beradi. Raqamli boshqaruv vositalari esa resurslardan foydalanishni monitoring qilish va jarayonlarni muvofiqlashtirishni yengillashtiradi [1; 5].

Shu nuqtayi nazardan, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishning samarali yondashuvi sifatli raqamli infratuzilmani shakllantirish, aholi va biznesning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni iqtisodiy faoliyat va boshqaruvga amaliy jihatdan integratsiya qilishga tayanishi kerak. Raqamli siyosat

natijadorligini faqat texnologiyalar soni bilan emas, balki ularning real iqtisodiy samaraga aylanish darajasi bilan baholash zarur. Umuman, raqamli iqtisodiyot va mintaqalar raqobatbardoshligi bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlar bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji hududlarda yangi va barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirishga xizmat qiladi [2; 3; 4; 5].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori. Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-6472548

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son qarori. Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. LexUZ. Manba: https://lex.uz/uz/docs/-7730357

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi PF-76-son Farmoni. Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida. LexUZ. Manba: https://lex.uz/docs/-6472528

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. LexUZ. Manba: https://lex.uz/docs/-7158604

5. OECD (2023). Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/6c54f447-en.

RAQAMLI EKOTIZIM SHAROITIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Shavkatov Behruz Rustam o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Kechki ta’lim va magistratura
fakulteti 1-bosqich magistranti

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholash va oshirishning an’anaviy yondashuvlarini o‘zgartirmoqda. Xususan, raqamli platformalar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), geoaxborot tizimlari, elektron davlat xizmatlari va raqamli moliyaviy instrumentlar investorlarning hudud to‘g‘risidagi axborotni tezkor olishi, investitsiya loyihalarini tanlashi va biznes jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O‘zbekiston sharoitida ham hududlarning investitsiyaviy salohiyatidan samarali foydalanish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish, investitsiya jarayonlaridagi byurokratik to‘siqlarni kamaytirish hamda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish dolzarb vazifalardan biridir. Bunda “raqamli hudud” konsepsiyasini rivojlantirish, investitsiya loyihalarining yagona raqamli ma’lumotlar bazasini yaratish, hududlarning investitsiyaviy reytingini raqamli

indikatorlar asosida baholash va investorlar uchun interaktiv platformalarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdgi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmonida quyidagi chora-tadbirlar keltirib o‘tilgan:

texnoparklar va kovorking markazlari faoliyatini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish orqali zamonaviy raqobatbardosh va eksportga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulotlar va xizmatlarni, mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish;

milliy startaplarni rivojlantirishni rag‘batlantirish va axborot texnologiyalari sohasida yangi ish boshlayotgan korxonalar va kichik korxonalarga, jumladan venchur moliyalashtirish orqali ko‘maklashish;

intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish, ustav kapitalida intellektual mulkni ko‘rsatish imkoniyatini yaratish bilan bog‘liq tartibotlarni soddalashtirish;

axborot texnologiyalari sohasidagi startap va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining muqobil mexanizmlarini joriy yetish;

innovatsion g‘oyalar, startaplar va venchur loyihalarini moliyalashtirish tizimining barqaror zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

axborot texnologiyalari sohasida yangidan ish boshlagan va kichik korxonalarga startap-loyihalarni amalga oshirishda, innovatsiya faoliyati natijalarini investitsiyalarni jalb qilgan holda ko‘maklashish;

texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish. [1]

John H. Dunning o‘zining “Explaining International Production” (1988) asarida Dunningning Location Advantage konsepsiyasini raqamli iqtisodiyot sharoitida kengaytirib, hududning investitsiyaviy jozibadorligini nafaqat an’anaviy omillar, balki raqamli infratuzilma, internet va telekommunikatsiya sifati, elektron hukumat, raqamli davlat xizmatlari, IT-mutaxassislar salohiyati, innovatsion ekotizim va raqamli biznes muhiti bilan ham bog‘lash mumkin. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda “raqamli location advantage” hududning xorijiy va mahalliy investorlar uchun jozibadorligini belgilovchi muhim omil sifatida talqin qilinishi mumkin. [2]

S.Zokirov ilmiy tadqiqot ishlarida internet va telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli davlat xizmatlari, ma’lumotlarni uzatish tizimlari va raqamli platformalarning hududlarning investitsiyaviy jozibadorligiga ta’siri o‘rganilgan. Muallif raqamli infratuzilma investorlar uchun axborot almashinuvini tezlashtirishi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishi, ma’muriy jarayonlarni soddalashtirishi va qulay biznes muhitini shakllantirishini asoslaydi. [3]

O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlik ekotizimi kengayib bormoqda, bunda moliya texnologiyalari yetakchi tarmoq sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2018-yildan buyon Markaziy Osiyoda startaplar soni 6 baravarga o‘sib, 2023-yilga borib 6000 dan oshdi, shundan O‘zbekiston hissasi 1200 ga yaqinni tashkil qiladi. Biroq, bunday startaplarning faqat 50 dan 100 tagachasi barqaror ishlaydi. Ta’sischilarning atigi

2% dan 5% gachasini tashkil qiluvchi ayollar esa sezilarli darajada kam vakil bo‘lib qolmoqdalar. Hukumatning startaplar o‘sishini rag‘batlantirishga qaratilgan turli strategiyalari, farmonlari va qarorlariga qaramasdan, ekotizim cheklangan moliyalashtirish, murabbiylar va malakali iste’dodlar etishmasligi kabi muammolarga duch kelishda davom etmoqda. Hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan tashkilotlar muhim yordam ko‘rsatadi, ammo venchur kapital (VK) hali ham boshlang‘ich bosqichda qolmoqda, jami investitsiyalar 2023 yilda 6,3 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa-da, 2024 yilda 80 million AQSh dollarini qo‘lga kiritgan Qozog‘iston kabi mintaqaviy tengdoshlaridan hali ham ortda qolmoqda. Kraudfanding va konvertatsiya qilinadigan kreditlar kabi muqobil moliyalashtirish mexanizmlari uchun tegishli huquqiy asosning mavjud emasligi asnosida normativ bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda. Kengroq qo‘llab-quvvatlash ekotizimlari kengayib borishiga qaramasdan, hanuzgacha parchalanib kelmoqda. IT Park, C-Space, Plug and Play va Startap Garage kabi tashkilotlar qimmatli resurslarni taqdim etadi, biroq ko‘plab startaplar bu dasturlardan bexabar yoki ular bilan shug‘ullanmagan. Universitetda inkubatsiya qilish harakatlari kam rivojlangan, korporativ ishtirok esa minimaldir. Yaqinda qabul qilingan qaror korporativ venchur ishtirokni rag‘batlantirishga qaratilgan, ammo ishtirok etish asosan 50% dan ortiq davlat hissasiga ega bo‘lgan davlat korxonalari bilan cheklangan. O‘zbekiston startaplari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyati rivojlanishning dastlabki bosqichida, 55% 1-3 yil davomida faoliyat yuritadi. 70% moliyalashtirishni asosiy muammo deb hisoblaydi, undan keying o‘rinlarni mijozlarni jalb qilish (40%) va masshtabni kengaytirish (35%) masalalari agallagan. Startaplar o’zlarining texnologik yo‘nalishlariga qaramay, texnik tajribadan ko‘ra biznes va moliyaviy ko‘nikmalarga ustuvorlik beradi. Aksariyat o‘zbek startaplari mustaqil tashkil etilgan (50%). Tartibga solish to‘siqlari, jumladan, murakkab soliq jarayonlari o‘sishni yanada qiyinlashtiradi. 45% mintaqaviy yoki global miqyosda ishlaydi, ammo xalqaro mijozlarni topish xalqarolashtirish uchun ko‘proq yordam zarur bo‘lgani tufayli qiyin bo‘lib qolmoqda. Ushbu to‘siqlarga qaramay, startaplarning 85% O‘zbekistonning raqamli kelajagi haqida optimizm bildirmoqda. Barqaror o‘sishni ta’minlash uchun hukumat moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi, murabbiylik va inkubatsiya dasturlariga kirishni yaxshilashi, investorlar uchun soliq imtiyozlarini joriy etishi va xalqaro kengayish uchun qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishi kerak. Mintaqaviy innovatsion markazlarni rivojlantirish va muqobil moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish dinamik va raqobatbardosh raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. [4]

Umuman olganda, raqamli ekotizimning rivojlanishi hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishning muhim strategik omiliga aylanmoqda. Zamonaviy sharoitda investorlar hududni tanlashda nafaqat tabiiy resurslar, bozor hajmi, transport va mehnat resurslarini, balki raqamli infratuzilma, internet sifati, elektron davlat xizmatlari, raqamli moliyaviy xizmatlar, innovatsion salohiyat va malakali IT-kadrlar mavjudligini ham hisobga olmoqda. Shu sababli hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish siyosatini raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki,

hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish investorlar uchun zarur axborotning tezkor va ochiq bo‘lishini ta’minlaydi, investitsiya loyihalarini izlash va baholash jarayonini soddalashtiradi hamda ma’muriy va tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Startaplar, texnoparklar, IT markazlar, innovatsion laboratoriyalar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik hududning texnologik salohiyatini oshiradi. Bu esa yuqori qo‘shilgan qiymatga ega ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, hududlar o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish alohida strategik vazifa hisoblanadi. Raqamli infratuzilmaning faqat iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlarda jamlanishi investitsiya oqimlarining hududiy nomutanosibligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli chekka va iqtisodiy salohiyati nisbatan past hududlarda internet va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va IT-kadrlar tayyorlashga ustuvor ahamiyat berish lozim. Tadqiqotda yana bir muhim xulosa shundan iboratki, raqamli ekotizim va investitsiyaviy jozibadorlik o‘rtasida o‘zaro mustahkamlovchi bog‘liqlik mavjud**.** Ya’ni rivojlangan raqamli muhit investitsiyalarni jalb qilishga yordam bersa, jalb qilingan investitsiyalar yangi raqamli infratuzilma, texnologiyalar va innovatsion loyihalarni rivojlantirish uchun moliyaviy imkoniyat yaratadi. Natijada “raqamli rivojlanish → investitsiya oqimi → innovatsion rivojlanish → hududiy iqtisodiy o‘sish” mexanizmi shakllanadi.

Shu asosda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini baholashda “raqamli-investitsiyaviy jozibadorlik” tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda hududning investitsiyaviy salohiyati raqamli infratuzilma, raqamli xizmatlar, inson kapitali, innovatsion faollik, raqamli tadbirkorlik, institutsional shaffoflik va investitsiya axborotining ochiqligi bilan birgalikda baholanishi mumkin. Natijada, raqamli ekotizimni shakllantirish hududning zamonaviy “Location Advantage”, ya’ni joylashuv afzalligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv hududlarni investorlar uchun yanada ochiq, shaffof, innovatsion va raqobatbardosh qilishga imkon beradi. Shu bois O‘zbekiston hududlarida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish strategiyalarini ishlab chiqishda raqamli transformatsiyani alohida yo‘nalish sifatida emas, balki investitsiya siyosati, innovatsion rivojlanish va hududiy iqtisodiy siyosat bilan integratsiyalashgan yagona strategik tizim sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son. — Toshkent, 2020.

2. Dunning, J. H. (1988). Explaining International Production. London: Unwin Hyman.

3. Zokirov S.T. Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda raqamli infratuzilmaning o‘rni // Moliyaviy texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2026. – 5(4).–48.DOI:10.5281/zenodo.22760912.

4. United Nations Development Programme (UNDP). O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti: Raqamli tadbirkorlik va sun’iy intellekt holati. – Toshkent, 2025.

HUDUDIY RAQAMLI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA TELEKOMMUNIKATSIYA INFRATUZILMASIGA INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINING O‘RNI

Berdiklichev Mardan Jaxangirovich
TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi

Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya infratuzilmasi hududning ishlab chiqarish, xizmatlar, ta’lim, sog‘liqni saqlash va davlat boshqaruvi tizimlarini bog‘laydigan bazaviy infratuzilmaga aylandi. Yuqori tezlikdagi va barqaror aloqa tarmog‘i mavjud hududda korxonalarning tranzaksiya xarajatlari pasayadi, yangi xizmatlar bozori shakllanadi, mehnat bozori kengayadi va biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyati ortadi. Shu sababli telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish masalasi faqat texnik qamrovni oshirish emas, balki hududiy iqtisodiy o‘sishni moliyalashtirishning alohida yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Jahon banki raqamli infratuzilmani iqtisodiy o‘sish va bandlikning muhim tayanchi sifatida baholaydi; keng polosali ulanishning kengayishi korxonalar va aholi uchun bozorlar, xizmatlar hamda ish imkoniyatlariga kirishni yaxshilaydi [1]. OECD esa kelajak keng polosali tarmoqlarini moliyalashtirishda faqat aloqa operatorlari emas, tower kompaniyalari, texnologik kompaniyalar, moliyaviy aktivlar boshqaruvchilari va davlat sektori ham faol ishtirok etayotganini qayd etadi [2]. Bu holat telekommunikatsiya infratuzilmasi kapital talab qiladigan, uzoq muddatli va tarmoq samarasi yuqori bo‘lgan investitsiya obyekti ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda 2026–2030-yillarga yangilangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida xalqaro internetga ulanish tezligini 5 000 Gbit/s ga yetkazish, optik tolali aloqa liniyalari va keng polosali ma’lumot uzatish tarmoqlari qamrovini 99 foizga olib chiqish hamda telekommunikatsiya xizmatlari bozorining yillik o‘sish sur’atini 10 foizgacha oshirish belgilangan [3]. Ushbu ko‘rsatkichlarning moliyaviy manbalari sifatida ijrochilar, xususiy sektor va davlat ishtirokidagi korxonalar mablag‘lari ko‘rsatilgani tarmoqni rivojlantirishda aralash moliyalashtirishning ahamiyatini kuchaytiradi.

Telekommunikatsiya tarmoqlariga investitsiya kiritishning birinchi xususiyati – boshlang‘ich kapital xarajatlarining yuqoriligidir. Magistral optik tarmoqlar, bazaviy stansiyalar, data-markazlar, elektr ta’minoti va dasturiy boshqaruv tizimlari katta hajmdagi uzoq muddatli kapitalni talab qiladi. Ikkinchi xususiyat – aktivning iqtisodiy samarasi faqat operator daromadi bilan cheklanmasligidir. Raqamli tarmoq ta’lim, bank, logistika, savdo va davlat xizmatlari samaradorligini ham oshiradi. ITUning GEMS yondashuvi aynan shu jihatni hisobga olib, raqamli infratuzilma

loyihalarida xususiy investitsiya qaytimi bilan birga ijtimoiy-iqtisodiy qaytimni baholashni taklif etadi [4].

Uchinchi xususiyat – hududlar bo‘yicha tijoriy qaytimning turlicha bo‘lishidir. Aholi zich, to‘lov qobiliyati yuqori va biznes faolligi katta hududlarda tarmoqning foydalanuvchi bazasi tez shakllanadi. Chekka va kam aholi yashaydigan hududlarda esa bir abonentga to‘g‘ri keladigan kapital xarajat yuqori bo‘lib, xususiy investor uchun loyiha rentabelligi pasayadi. OECDning hududiy raqamli tafovutlar bo‘yicha tadqiqotida sifatli va arzon keng polosali aloqa mavjudligi qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish uchun asosiy shartlardan biri ekani ko‘rsatilgan [5]. Demak, telekommunikatsiya infratuzilmasini bir xil moliyalashtirish modeli asosida emas, hududning talab zichligi va ijtimoiy qaytimiga qarab moliyalashtirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil ma’lumotlarida optik tolali aloqa bilan qamrov hududlar bo‘yicha farq qilishi ko‘rinadi. Masalan, Andijon, Namangan, Sirdaryo, Toshkent viloyati va Toshkent shahrida aholi maskanlari qamrovi 100 foizga yaqin bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 91,7 foiz, Navoiy viloyatida 94,49 foiz, Jizzaxda 96,4 foiz va Qashqadaryoda 96,69 foizni tashkil etgan [6]. Bunday farq investitsiya resurslarini hududlar o‘rtasida teng taqsimlashdan ko‘ra, qamrov bo‘shlig‘i va talab xususiyatlariga qarab yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jadvaldagi guruhlash nazariy jihatdan xususiy va ijtimoiy qaytim o‘rtasidagi farqqa asoslanadi. Tijoriy jihatdan jozibador hududlarda davlat mablag‘ini bevosita qurilishga yo‘naltirish zarurati past; bu yerda raqobat, infratuzilmani birgalikda ishlatish va kapital bozoridan mablag‘ jalb qilish ustuvor bo‘lishi mumkin. Tijoriy qaytimi yetarli bo‘lmagan hududlarda esa davlat ko‘magi xususiy investitsiyani siqib chiqarmasdan, aksincha, loyiha riskini kamaytiruvchi vosita bo‘lishi lozim. Jahon banki bunday hududlarda gap-funding, riskni yumshatish instrumentlari va davlat-xususiy sheriklikni xususiy investitsiyani jalb etish vositasi sifatida ko‘rsatadi [1].

1-jadval

Moliyalashtirish mexanizmlarining hududiy qo‘llanilishi

Hudud tipi	**Asosiy xususiyat**	**Maqbul moliyalashtirish mexanizmi**
Yuqori talab va zichlik	Tijoriy qaytim tez, abonentlar bazasi keng	Operator mablag‘i, bank krediti, obligatsiya, uskunachi krediti
O‘rta darajadagi talab	Qaytim mavjud, biroq kapital xarajat sezilarli	Operator + uzoq muddatli kredit, DXSh, infratuzilmani birgalikda ishlatish
Chekka va past zichlik	Xususiy qaytim past, ijtimoiy qaytim yuqori	Gap-funding, maqsadli subsidiya, xalqaro moliya, DXSh, universal xizmat modeli

2025-yil 16-sentabrdagi PQ–286-son qarorda 2025–2026-yillarda hududlarda 66 ming km optik tolali aloqa liniyasi o‘tkazish va 2 284 ta tayanch stansiyani ishga tushirish vazifasi belgilangan [7]. Qarorning hududiy ilovalarida optik liniyalarni qurish asosan telekommunikatsiya operatorlari mablag‘lari, tayanch stansiyalarni o‘rnatish esa operator mablag‘lari bilan birga qurilma yetkazib beruvchilarning kreditlari hisobidan moliyalashtirilishi ko‘zda tutilgan. Bu amaliyot tarmoqda

korporativ mablag‘ va yetkazib beruvchi kreditining muhimligini ko‘rsatsa-da, kelgusida kapital manbalarini yanada diversifikatsiya qilish zarur.

Birinchidan, infratuzilmani birgalikda ishlatish mexanizmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Bir hududda bir nechta operatorning parallel tayanch va transport infratuzilmasini qurishi kapital xarajatlarni takrorlashi mumkin. Infratuzilmani ulashish qishloq hududlarida tarmoq qurilishining kapital va operatsion xarajatlarini pasaytirishi, shu orqali xususiy investor uchun loyiha jozibadorligini oshirishi mumkin [8]. Bunda texnik standartlar, narx shakllanishi va operatorlar o‘rtasidagi teng foydalanish qoidalarini aniq belgilash muhim.

Ikkinchidan, hududiy loyihalarni moliyalashtirishda “tijoriy qaytim + ijtimoiy samara” tamoyilini qo‘llash zarur. Masalan, chekka tumanlarga optik tarmoq olib borish operator uchun qisqa muddatda yuqori foyda bermasligi mumkin, biroq maktab, tibbiyot muassasasi, davlat xizmati, kichik biznes va masofaviy bandlik uchun katta tashqi samara yaratadi. Shu sababli bunday loyihalarni tanlashda faqat sof foyda yoki qaytish muddati emas, qamrovning kengayishi, xizmat narxining pasayishi, yangi foydalanuvchilar soni va hududdagi iqtisodiy faollikka ta’sir ham baholanishi kerak. ITU GEMS modeli moliyaviy qaytim bilan bir qatorda raqamli dividend va boshqa tarmoqlarga ta’sirni hisoblash imkonini beradi [4].

Uchinchidan, uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish talab etiladi. Telekom tarmog‘i aktivlari uzoq muddat xizmat qilgani sababli qisqa muddatli kredit bilan moliyalashtirish aktiv va majburiyatlar muddati o‘rtasida nomutanosiblik keltirib chiqaradi. Shu nuqtayi nazardan infratuzilmaviy obligatsiyalar, sindikatsiyalashgan kreditlar, xalqaro moliya institutlari resurslari va loyiha moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. OECD raqamli aloqa tarmoqlarini moliyalashtirishda moliyaviy aktivlar boshqaruvchilari va uzoq muddatli institutsional investorlar roli ortib borayotganini qayd etadi [2].

To‘rtinchidan, hududiy investitsiya qarorlarida qamrov ko‘rsatkichining o‘zi yetarli mezon emas. Tarmoq mavjud bo‘lsa-da, sifat, tezlik yoki xizmat narxi bo‘yicha cheklov saqlanishi mumkin. Shu bois investitsiya samaradorligini “qamrov – sifat – narx – foydalanish” zanjiri asosida baholash maqsadga muvofiq. OECD ham raqamli tafovutni baholashda faqat tarmoq mavjudligini emas, sifat va affordability, ya’ni xizmatning aholi uchun iqtisodiy jihatdan maqbulligini birgalikda ko‘rishni tavsiya etadi [5].

Telekommunikatsiya infratuzilmasiga investitsiyalar hududning raqamli iqtisodiyotga qo‘shilish imkoniyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekistonda keng polosali tarmoq qamrovi yuqori darajaga yetgan bo‘lsa-da, hududlar kesimida qamrov, tarmoq zichligi va tijoriy qaytim sharoitlari bir xil emas. Shu sababli moliyalashtirish mexanizmi ham hududlarning iqtisodiy xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. Tijoriy jozibador hududlarda xususiy kapital va bozor instrumentlarining ulushini oshirish, o‘rta darajadagi hududlarda davlat-xususiy sheriklik va uzoq muddatli kreditlardan foydalanish, chekka hududlarda esa maqsadli gap-funding va ijtimoiy qaytimni hisobga oluvchi moliyalashtirishni qo‘llash maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv davlat mablag‘larini barcha hududlarga bir xil taqsimlashdan ko‘ra, xususiy investitsiyani jalb qilish imkoniyati past bo‘lgan nuqtalarga yo‘naltirishga yordam beradi. Natijada telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish hududlarning raqamli raqobatbardoshligini oshirish, biznes va xizmatlar bozorini kengaytirish hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan raqamli rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Connectivity and Networks. Washington, DC, 2025. https://www.worldbank.org/en/brief/2025/04/10/connectivity-and-networks
2. OECD. Financing broadband networks of the future. OECD Digital Economy Papers, No. 365. Paris: OECD Publishing, 2024. DOI: 10.1787/eafcb-en.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. https://lex.uz/docs/-8050769
4. International Telecommunication Union (ITU). Global Economic Model and Study (GEMS) Tool for Digital Infrastructure Deployment. Geneva, 2026.
5. OECD. Closing Broadband Connectivity Divides for All: From Evidence to Practice. Paris: OECD Publishing, 2025. DOI: 10.1787/d5ea99b2-en.
6. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Telekommunikatsiya: 2025-yil holatiga hududlar bo‘yicha keng polosali portlar va optik tolali aloqa qamrovi. https://gov.uz/oz/digital/activity_page/telecommunicatio
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ–286-son qarori. “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
8. Kibinda N., Shao D., Mwogosi A., Mambile C. Broadband infrastructure sharing as a catalyst for rural digital economy: A systematic review for developing countries. Telecommunications Policy, 2025. DOI: 10.1016/j.telpol.2025.103028.

DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT AND REGIONAL COMPETITIVENESS: ASSESSING THE SOCIO-ECONOMIC CONDITION OF REGIONS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND SATELLITE DATA

Toymasov Zufarjon Zokir o‘g‘li
Chief Specialist,
Social Policy Laboratory

Abstract: This paper examines the interrelation between the development of the digital economy and the enhancement of regional competitiveness, focusing on the use of remote sensing and artificial intelligence (AI) to assess the socio-economic condition of regions, and poverty levels in particular. By integrating nighttime lights (NTL) imagery with geographic information system (GIS) technologies and machine learning, the study proposes data-driven analytical tools that complement demographic and economic statistics and support evidence-based regional policy.

Keywords: digital economy, regional competitiveness, satellite data, artificial intelligence, machine learning, nighttime lights (NTL), Google Earth Engine, spatial analysis, GIS, Python.

In the era of globalization and digital transformation, the digital economy has become one of the main drivers of regional competitiveness. The ability of a region to attract investment, create jobs, and raise household incomes increasingly depends on the quality of its digital and physical infrastructure, the availability of skilled human capital, and the capacity of local authorities to make decisions based on reliable and timely data. Managing regional competitiveness therefore requires an accurate and up-to-date understanding of where regions stand and how they change over time.

Traditional statistical sources, such as population censuses and household surveys, remain essential but are characterized by high financial costs, long update cycles, and limited spatial detail. In this regard, the application of satellite data and AI algorithms makes it possible to assess regional development and poverty levels with high accuracy and in near real time.

This represents an important technical solution for implementing the social policy of "New Uzbekistan" in a targeted and effective manner, and it is itself a product of the digital economy: data, algorithms, and open computing platforms are used to improve regional governance.

The aim of this paper is to show how satellite-derived nighttime lights data and machine learning can serve as a digital tool for monitoring regional economic conditions, and how such a tool can strengthen regional competitiveness.

One of the most reliable indicators of a region's economic activity is satellite-derived nighttime lights (NTL) data, since the intensity of artificial light reflects the concentration of population, industry, services, and infrastructure. The research methodology is based on collecting data for regional boundaries (shapefiles) using geospatial data processing platforms (notably Google Earth Engine) and training AI algorithms on the collected data.

In the empirical analysis, selected regions were taken as units of analysis; for example, for Navoi region, a comparative analysis was conducted of NTL imagery from 2015 and 2025 and other spatial data, including the Normalized Difference Vegetation Index (NDVI), distance to road infrastructure, and building density. Based on the large volume of collected data (big data), machine learning models such as Random Forest and convolutional neural networks (CNNs) are used to perform image classification and regression analysis. To automate the workflow and make effective use of GIS technologies, the necessary scripts were developed using the essential libraries of the Python programming language. The use of open data and open-source tools keeps the approach low-cost and easily reproducible by regional authorities.

AI models show that the light intensity observed in satellite imagery is directly correlated with a region's economic development, household income, and consumption expenditure. This makes NTL-based indicators a practical proxy for the economic dimension of regional competitiveness, particularly where official statistics are available only at an aggregated level or with a delay.

The study creates the following opportunities for strengthening regional competitiveness:

Micro-level spatial analysis: developing analytical dashboards that visualize socio-economic conditions not only at the district or city level but also at the level of individual mahallas (neighborhood communities) or city blocks.

Dynamic monitoring: rapidly assessing, year by year, the dynamics of regional development or decline.

Targeted assistance: directing resources allocated under social policy to the areas that need them most (those with the lowest light intensity and infrastructure levels).



Figure 1. Average nighttime light intensity of the Republic of Uzbekistan for 2025.

Investment and infrastructure planning: identifying under-served areas and areas with growth potential, so that investment in digital and transport infrastructure can be prioritized where it will raise competitiveness most. Evidence-based regional ranking: building transparent, regularly updated indicators for comparing regions and evaluating the effect of development programs.

The integration of satellite data and artificial intelligence is becoming a fundamental tool for analyzing regional development in modern engineering practice. By providing timely, low-cost, and spatially detailed information, it strengthens data-driven governance, helps direct resources and investment to where they are most needed, and thereby contributes to regional competitiveness.

The adoption of such technologies by young innovative engineers and researchers will, on the one hand, improve the quality of social policy and demographic analysis in Uzbekistan and, on the other, serve as a powerful technological platform for advancing the digital economy and achieving the Sustainable Development Goals (SDGs). Further research should validate the models against household survey data and extend the analysis to all regions of the country.

References:

1. Jean, N., et al. (2016). "Combining satellite imagery and machine learning to predict poverty." Science, 353(6301), 790-794.
2. Henderson, J. V., Storeygard, A., & Weil, D. N. (2012). Measuring economic growth from outer space. American Economic Review, 102(2), 994-1028.
3. Elvidge, C. D., et al. (2017). VIIRS night-time lights. International Journal of Remote Sensing, 38(21), 5860-5879.
4. Breiman, L. (2001). Random forests. Machine Learning, 45(1), 5-32.
5. Google Earth Engine Data Catalog (VIIRS Day Band Composites).
6. Data of the National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan.
7. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to organize public administration effectively in the fields of higher education, science and innovation within the framework of administrative reforms.”

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ОТРАСЛИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ УЗБЕКИСТАНА И ПЕРСПЕКТИВЫ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Муминов Баходир Болтаевич
профессор Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация. В тезисе на примере деятельности IT Park анализируются институциональные механизмы поддержки отрасли информационных технологий Узбекистана. Обобщена динамика экспорта IT-услуг, численности и состава резидентов технопарка, объёма и отраслевой структуры венчурных инвестиций за 2020–2026 гг. Оценены налоговые и таможенные льготы, изменения правил резидентства, вступившие в силу в 2026 г., а также роль компаний с иностранным, в том числе российским, капиталом. Выявлен разрыв между достигнутыми показателями и стратегическими целями и обоснованы предложения по развитию международного сотрудничества, прежде всего цифровой кооперации с Россией.

Ключевые слова: информационные технологии, IT Park, экспорт IT-услуг, налоговые льготы, венчурные инвестиции, институциональный механизм, международное сотрудничество.

Отрасль информационных технологий становится для экономики Узбекистана одним из основных источников диверсификации экспорта и создания высококвалифицированных рабочих мест. Стратегией «Узбекистан — 2030» к 2030 г. установлены целевые ориентиры: экспорт цифровых услуг — 5 млрд долл. США, численность резидентов IT Park — 7 500 компаний [1, с. 9; 3]. Основным институциональным инструментом достижения этих целей выступает технопарк IT Park, созданный на основании Указа Президента от 30.06.2017 № УП-5099 [2].

Цель исследования — оценить эффективность механизмов поддержки IT-отрасли и определить направления развития международного сотрудничества. Использованы методы анализа рядов динамики, структурного

и сравнительного анализа. Информационную базу составили материалы научно-исследовательского отчёта, данные IT Park, KPMG и RISE Research.

Экспорт IT-услуг в последние годы растёт быстрыми темпами. Его объём увеличился со 190 млн долл. США в 2021 г. до 344 млн долл. США в 2023 г. и превысил 1,1 млрд долл. США в 2025 г. Однако этот показатель составляет лишь около 22% от целевого значения 2030 г. в 5 млрд долл. США [1, с. 9–10, 107]. Для достижения цели экспорт в 2026–2030 гг. должен расти в среднем более чем на 35% в год (рис. 1).




Рисунок 1 – Динамика экспорта IT-услуг Узбекистана и цель на 2030 г., млн долл. США

Источник: составлено автором по данным [1, с. 9–10].

Устойчиво растёт и численность резидентов IT Park: с 770 компаний в 2020 г. до 2 802 в 2025 г. и до 3 575 по состоянию на июнь 2026 г. [1, с. 109, 150]. Среднегодовой темп прироста числа резидентов в 2020–2025 гг. составил около 29%. При сохранении этого темпа целевой ориентир в 7 500 резидентов может быть достигнут в 2029–2030 гг. (рис. 2).

Тем не менее структурные проблемы отрасли сохраняются. Рост экспорта обеспечивается преимущественно аутсорсингом и BPO, тогда как собственные тиражируемые программные продукты занимают в экспортной модели пока небольшое место [1, с. 9]. Кроме того, почти половина экспорта IT-услуг приходится на один рынок — США, что указывает на необходимость расширения географии экспорта [1, с. 140].




Рисунок 2 – Динамика численности резидентов IT Park Uzbekistan

Источник: составлено автором по данным [1, с. 109, 150].

Система льгот для резидентов IT Park остаётся ключевым конкурентным преимуществом отрасли. Резиденты освобождены от налога на прибыль и социального налога, налог на доходы физических лиц работников до 01.01.2028 взимается по ставке 7,5%. Для компаний с долей экспорта более 50% льготный режим продлён до 2040 г. [1, с. 150; 5]. Вместе с тем постановлением Президента от 26.12.2025 № ПП-388 с 01.04.2026 из льготного

режима исключены платёжные организации, маркетплейсы и микрофинансовые организации, а отчисления в дирекцию технопарка дифференцированы [1, с. 122; 4]. Это свидетельствует о политике направления льгот на собственную разработку программного обеспечения и экспорт.

Анализ состава резидентов показал значительную роль иностранного капитала. В 2025 г. из 2 802 резидентов 752 являлись компаниями с иностранным участием, из них 343 созданы с участием российского капитала [1, с. 109, 127]. Иными словами, почти каждый второй резидент с иностранным участием связан с Россией. Активизируется и венчурное финансирование: в 2025 г. объём венчурного рынка составил 99,3 млн долл. США, из которых 65,5 млн долл. США пришлось на один раунд экосистемы Uzum. Объём сделок без учёта Uzum вырос на 93% по сравнению с 17,5 млн долл. США в 2024 г. и достиг 33,8 млн долл. США (рис. 3) [1, с. 128; 6; 7].




Рисунок 3 – Состав резидентов IT Park (а) и объём венчурных инвестиций (б)

Источник: составлено автором по данным [1, с. 109, 127–128; 6; 7].

Заслуживает внимания и отраслевая структура венчурных инвестиций. В 2025 г. 40% инвестиций было направлено в электронную коммерцию, 13% — в финтех, 12% — в корпоративное программное обеспечение [1, с. 128; 6]. Такая концентрация показывает, что быстрее всего развиваются потребительские сегменты рынка, тогда как промышленные и корпоративные решения пока находятся на стадии привлечения инвестиций (рис. 4).




Рисунок 4 – Отраслевая структура венчурных инвестиций (2025 г.)

Источник: составлено автором по данным [1, с. 128; 6].

Полученные результаты обосновывают ряд направлений развития международного сотрудничества. Значительное число резидентов с российским капиталом свидетельствует о наличии готовой основы для совместной разработки программного обеспечения и аутсорсинга. В подготовке кадров примером служит проект «Сбера» School 21: за два года его кампусы в Самарканде и Ташкенте провели более 950 мероприятий и сформировали сеть из более чем 80 партнёрских организаций [1, с. 129; 9]. В сфере кибербезопасности отдельной площадкой для технологического сотрудничества может стать Cyber Park, объединяющий более 145 резидентов [1, с. 148; 8]. Реальной возможностью расширения географии экспорта является выход с совместными продуктами на российский рынок, а в краткосрочной перспективе — на рынки Центральной Азии.

Институциональные механизмы поддержки IT-отрасли Узбекистана дают высокие результаты по численности резидентов и объёму экспорта. Однако для достижения экспортной цели 2030 г. необходим переход от аутсорсинга услуг к созданию собственных программных продуктов, привлечение инвестиций в корпоративные и промышленные решения, а также расширение географии экспорта. Этой задаче служат и изменения в системе льгот, введённые с 2026 г. Приоритетными направлениями сотрудничества с Россией являются совместная разработка, подготовка кадров и кибербезопасность; оценка их эффективности — задача дальнейших исследований.

Список литературы

1. Живалов В.Н. и др. Цифровая трансформация экономики России и Узбекистана: развитие совместных цифровых проектов и инфраструктуры: отчет о НИР (промежуточный) / ВАВТ Минэкономразвития России; рук. В.Н. Живалов. – М., 2026. – 179 с.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 30.06.2017 № УП-5099 «О мерах по коренному улучшению условий для развития отрасли информационных технологий в республике» // Национальная база данных законодательства (lex.uz).

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан — 2030»» // Национальная база данных законодательства (lex.uz).

4. Вводятся новые правила для резидентов IT Park Uzbekistan [Электронный ресурс] // IT Park Uzbekistan. – URL: https://www.it-park.uz/ru/itpark/news/-pravila-dlya-rezidentov-it-park-uzbekistan

5. Налоговые льготы для стартапов и иностранных инвесторов в IT-секторе Узбекистана [Электронный ресурс] // IT Park Uzbekistan. – URL: https://www.it-park.uz/ru/itpark/news/nalogovye-lgoty-dlya-startapov-i-inostrannyh-investorov-v-it-sektore-uzbekistana

6. Объём венчурного рынка Узбекистана в 2025 году составил 99,3 млн долларов [Электронный ресурс] // Spot.uz. – 06.04.2026.

7. KPMG в Узбекистане. Рынок венчурного капитала Узбекистана [Электронный ресурс]. – 2025.
8. Cyber Park: возможности и перспективы для IT-индустрии [Электронный ресурс] // Spot.uz. – 13.07.2026.
9. School 21 отметила два года работы в Узбекистане [Электронный ресурс] // Afisha.uz. – 23.12.2025.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ТРАНСГРАНИЧНОЙ ИНТЕГРАЦИИ С РОССИЕЙ

Арабов Убайдулло Хамрокул угли
старший преподаватель кафедры
«Искусственный интеллект» Ташкентского
государственного экономического университета

Аннотация. В тезисе анализируются динамика рынка электронной торговли Узбекистана в 2020–2025 гг., географическая структура трансграничной онлайн-торговли и практические инструменты цифровой интеграции с Россией. Обобщены данные об объёме рынка и его доле в ВВП, уровне конкуренции между маркетплейсами и экспортном канале через российские платформы. Трансграничный электронный документооборот, электронные разрешения на грузоперевозки и правовой эксперимент с бондовыми складами оценены как ключевые институциональные факторы снижения издержек торговли. По результатам анализа сформулированы предложения по интеграции систем электронной торговли двух стран.

Ключевые слова: электронная торговля, маркетплейс, трансграничная торговля, электронный документооборот, цифровая логистика, концентрация рынка, Узбекистан, Россия.

Развитие цифровой экономики закреплено в Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» в качестве одного из приоритетов государственной политики [2]. Электронная торговля занимает в этом процессе особое место: она не только переводит внутренний потребительский рынок в цифровой формат, но и формирует новые каналы внешней торговли. О значении направления свидетельствует постановление Президента Республики Узбекистан от 13.04.2026 № ПП-136, которым поставлена цель довести объём электронной коммерции до 30 трлн сумов к 2030 г. [3; 1, с. 81–82].

Россия для Узбекистана является одновременно крупным торговым партнёром и источником готовой цифровой торговой инфраструктуры — через платформы Wildberries, Ozon и Market Yandex Go [1, с. 133]. Поэтому изучение интеграции систем электронной торговли двух стран представляет собой актуальную научно-практическую задачу. Цель исследования — оценить структурные изменения рынка электронной торговли Узбекистана и обосновать направления углубления трансграничной интеграции с Россией. Использованы методы сравнительно-статистического и институционального анализа; информационную базу составили материалы научно-

исследовательского отчёта, данные Национального агентства перспективных проектов (НАПП) и таможенных органов Узбекистана.

За последние пять лет рынок электронной торговли Узбекистана существенно расширился. Его объём вырос с 0,4 млрд долл. США в 2020 г. до 2,8 млрд долл. США в 2025 г., а доля в ВВП — с 1,2 до 4,8% [1, с. 73]. Рассчитанный на основе этих данных среднегодовой темп роста составляет около 47,6% (рис. 1).




Рисунок 1 – Объём рынка электронной торговли Узбекистана и его доля в ВВП (2020–2025 гг.)

Источник: составлено автором по данным [1, с. 73].

Вместе с тем сохраняется методическая несопоставимость оценок: по различным расчётам объём рынка на начало 2026 г. оценивается в диапазоне от 1,3 до 2,8 млрд долл. США [1, с. 80]. По данным НАПП, оборот маркетплейсов увеличился с 201 млн долл. США в 2021 г. до 543 млн долл. США в 2023 г., в стране зарегистрировано более 50 маркетплейсов [4]. С учётом того что розничный товарооборот в 2025 г. составил 482,4 трлн сумов, доля онлайн-канала пока ограничивается несколькими процентами [9]. Следовательно, при высоких темпах роста потенциал рынка ещё далеко не исчерпан.

Второй аспект проблемы связан со структурой трансграничной торговли. Импорт через каналы трансграничной электронной торговли вырос с 192 млн долл. США в 2022 г. до 380 млн долл. США в 2024 г. При этом доля Китая снизилась с 67,7 до 60,0%, а доля России увеличилась с 20,8 до 25,0% (рис. 2) [1, с. 74–75].




Рисунок 2 – Географическая структура трансграничной электронной торговли Узбекистана (2022–2024 гг.), млн долл. США

Источник: составлено автором по данным [1, с. 75].

Несмотря на рост доли России, торговые документы переведены в цифровой формат не полностью, а стандарты и API платформ несовместимы. В результате продавцы, работающие на нескольких площадках, вынуждены вручную дублировать данные об остатках, заказах и ценах [1, с. 77]. Именно эти институциональные и технологические разрывы являются основным фактором роста издержек трансграничной торговли.




Рисунок 3 – Доли платформ на рынке электронной торговли Узбекистана (2025 г., оценка)

Источник: рассчитано автором по данным [1, с. 74].

Анализ структуры рынка показал умеренный уровень концентрации. По оценке авторов, в 2025 г. на Uzum Market приходилось 32% рынка, на Wildberries — 16%, на Olcha.uz — 15% [1, с. 74]. Рассчитанный по этим долям индекс Херфиндаля–Хиршмана составляет около 1818, что соответствует умеренно концентрированному рынку с диапазоном значений 1500–2500 (рис. 3). Следует учитывать, что официальная статистика долей маркетплейсов не публикуется, поэтому индекс носит оценочный характер.

Российские платформы становятся для местных продавцов экспортным каналом. Продажи узбекистанских продавцов через Wildberries составили 418 млн долл. США в 2023 г. и 605 млн долл. США в 2024 г., а в 2025 г. оборот увеличился в 2,31 раза [1, с. 133; 5]. Если принять за базу 2024 г., объём 2025 г. оценивается примерно в 1,4 млрд долл. США (рис. 4). Рост обеспечивается главным образом текстильной продукцией, что подтверждает посредническую роль платформ в выходе национальных производителей на российский рынок.




Рисунок 4 – Объём продаж узбекистанских продавцов на платформе Wildberries

*Источник: составлено автором по данным [1, с. 133; 5]. *Значение 2025 г. рассчитано умножением объёма 2024 г. на коэффициент 2,31.*

Институциональные условия интеграции также улучшаются. С сентября 2026 г. наряду с компанией «Тензор» юридически значимый трансграничный электронный документооборот с Узбекистаном обеспечивает и СКБ «Контур» через сервис «Диадок» [1, с. 87–89; 6]. До конца 2026 г. планируется совместно с Россией внедрить электронные разрешения на международные грузоперевозки (e-permit); такими разрешениями Узбекистан уже обменивается с семью странами [1, с. 136; 7]. Кроме того, в 2026–2028 гг. проводится правовой эксперимент с бондовыми складами. Полезным здесь может стать опыт пилотного проекта Евразийского экономического союза в сфере внешней электронной торговли, допускающего помещение товаров под процедуру таможенного склада и их выпуск по мере продажи физическим лицам [1, с. 90–91; 8].

Полученные результаты позволяют обосновать несколько практических направлений углубления интеграции. Прежде всего, необходимо гармонизировать форматы электронных счетов-фактур и электронных транспортных накладных, а также обеспечить взаимное признание электронной подписи через доверенную третью сторону [1, с. 156]. Целесообразно также создавать совместные сервисы по оформлению документов, логистике и аналитике для узбекистанских продавцов на российских маркетплейсах. Апробировать эти решения позволит пилотный цифровой логистический коридор Ташкент — Москва с полностью электронным оформлением грузов [1, с. 141].

Рынок электронной торговли Узбекистана растёт высокими темпами, однако доля онлайн-канала в розничной торговле пока невелика, а сам рынок умеренно концентрирован. Доля России в трансграничной торговле устойчиво растёт, а российские платформы стали эффективным экспортным каналом для узбекистанских производителей. Трансграничный электронный документооборот, электронные разрешения и бондовые склады создают реальную институциональную основу для снижения издержек торговли. В дальнейших исследованиях следует уделить внимание совершенствованию методики оценки долей платформ и количественной оценке экономического эффекта инструментов интеграции.

Список литературы

1. Живалов В.Н. и др. Цифровая трансформация экономики России и Узбекистана: развитие совместных цифровых проектов и инфраструктуры: отчет о НИР (промежуточный) / ВАВТ Минэкономразвития России; рук. В.Н. Живалов. – М., 2026. – 179 с.

2. Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 № УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» и мерах по её эффективной реализации» [Электронный ресурс] // Национальная база данных законодательства. – URL: https://lex.uz/docs/5031048

3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 13.04.2026 № ПП-136 «О мерах по созданию благоприятных условий для дальнейшего

развития электронной коммерции в Республике Узбекистан» // Национальная база данных законодательства (lex.uz).

4. Миллиард долларов оборота и 50 маркетплейсов: власти Узбекистана рассказали о развитии ситуации на рынке электронной коммерции [Электронный ресурс] // Oborot.ru. – 06.05.2024.

5. Продажи узбекистанского бизнеса на Wildberries выросли более чем в два раза [Электронный ресурс] // Spot.uz. – 31.12.2025.

6. Без бумажных оригиналов: Россия и Узбекистан запустили трансграничный электронный документооборот [Электронный ресурс] // Podrobno.uz. – 08.09.2026. – URL: https://podrobno.uz/cat/uzbekistan-i-rossiya-dialog-partnerov-/bez-bumazhnykh-originalov-rossiya-i-uzbekistan-zapustili-transgranichnyy-elektronnyy-dokumentooborot

7. Россия и Узбекистан перейдут на электронные разрешения для грузоперевозок к 2027 году [Электронный ресурс] // ТКС.ру. – 26.08.2026.

8. Решение Коллегии Евразийской экономической комиссии от 03.08.2021 № 94 [Электронный ресурс].

9. ВВП Узбекистана в 2025 году вырос на 7,7% и превысил 147 млрд долларов [Электронный ресурс] // Kun.uz. – 24.01.2026.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Xudoynazarov Murod Maxmudjanovich
Toshkent gumanitar fanlar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli transformatsiya jarayonlarining zamonaviy sug‘urta kompaniyalari moliyaviy samaradorligiga ta’siri chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Mamlakatimiz sug‘urta bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etishning bugungi holati tahlil qilinib, moliyaviy ko‘rsatkichlarni xususan, rentabellik, xarajatlar koeffitsiyenti, likvidlilikni yaxshilash mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, O‘zbekistonda sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli transformatsiya, sug‘urta kompaniyasi, moliyaviy samaradorlik, InsurTech, xarajatlar koeffitsiyenti, elektron sug‘urta, sun’iy intellekt, risklarni boshqarish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va to‘rtinchi sanoat inqilobi davrida har qanday moliyaviy institut, jumladan, sug‘urta kompaniyalari faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Raqamli transformatsiya endilikda oddiygina texnologik yangilanish emas, balki biznes-modellarni tubdan qayta qurish, mijozlar tajribasini boyitish hamda ichki operatsion xarajatlarni keskin qisqartirish orqali moliyaviy samaradorlikni oshirishning asosiy omiliga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va moliya bozorini liberallashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari bilan tasdiqlangan strategiyalar sug‘urta bozorining ochiqligi, shaffofligi hamda texnologik jihatdan modernizatsiya qilinishini ta’minlamoqda. Shu bois, raqamli transformatsiya sharoitida sug‘urta kompaniyalari moliyaviy samaradorligini oshirish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi — raqamli texnologiyalarning sug‘urta kompaniyalari moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash, xorijiy tajribalarni tahlil qilish hamda O‘zbekistonda ushbu yo‘nalishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Raqamli transformatsiya tushunchasi ilmiy adabiyotlarda an’anaviy biznes jarayonlarini raqamli texnologiyalar hususan, sun’iy intellekt, big data, blokcheyn, bulutli texnologiyalar yordamida tubdan o‘zgartirish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Sug‘urta sohasida bu jarayon InsurTech ekotizimining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liq.

Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy samaradorligi quyidagi asosiy moliyaviy koeffitsiyentlar orqali baholanadi:

- Zararlilik koeffitsiyenti: to‘langan sug‘urta tovoni miqdorining tushgan sug‘urta mukofotlariga nisbati.
- Xarajatlar koeffitsiyenti: ma’muriy va operatsion xarajatlarning topilgan mukofotlarga nisbati.
- Qo‘shma koeffitsiyent: zararlilik va xarajatlar koeffitsiyentlari yig‘indisi (100% dan past bo‘lishi kompaniya foyda ko‘rayotganini bildiradi).
- Kapital va aktivlar rentabelligi: kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va daromadliligi ko‘rsatkichlari.

Raqamli transformatsiya quyidagi mexanizmlar orqali ushbu ko‘rsatkichlarni yaxshilashga xizmat qiladi:

1. Avtomatlashtirilgan anderayting (Automated Underwriting): Mijozning risk darajasini sun’iy intellekt yordamida soniyalarda baholash orqali vaqt va mehnat xarajatlarini kamaytiradi.
2. Onlayn savdo kanallari (E-Commerce & Aggregators): Vositachilik komissiyalarini va brokerlik to‘lovlarini qisqartirib, xarajatlar koeffitsiyentini pasaytiradi.
3. Masofaviy zarar to‘lovlarini tartibga solish (Digital Claims Settlement): Fotofiksatsiya va masofaviy baholash tizimlari firibgarlik holatlarini kamaytirib, zararlilik koeffitsiyentini optimallashtiradi.

O‘zbekistonda sug‘urta bozorini isloh qilish va raqamlashtirish huquqiy bazasi mustahkamlanib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrdagi “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va uning ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda boshqa qonunosti hujjatlari ushbu jarayonlarning huquqiy kafolati hisoblanadi.

Mamlakatimizda majburiy sug‘urta turlari (masalan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish — OSAGO) bo‘yicha yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimlari joriy etildi. Bu esa qog‘ozbozlikni yo‘qotib, shaffoflikni ta’minladi.

Quyidagi jadvalda so‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorining asosiy raqamli ko‘rsatkichlari dinamikasi keltirilgan (shartli ilmiy-statistik tahlil ma’lumotlari asosida):

1-Jadval

O‘zbekiston sug‘urta bozorida raqamli ko‘rsatkichlar dinamikasi

Yillar	Jami yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari (mlrd so‘m)	Elektron shaklda tuzilgan sug‘urta polislarining ulushi (%)	O‘rtacha zarar to‘lab berish muddati (kun)	Xarajatlar koeffitsiyenti (o‘rtacha, %)
2023	4,250	42.5%	14 kun	38.2%
2024	5,800	58.1%	9 kun	35.0%
2025	7,650	74.3%	5 kun	31.8%
2026 (prognoz)	9,800	88.0%	3 kundan kam	28.5%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sug‘urta bozori professional ishtirokchilari assotsiatsiyasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Taym-menejmentning inson omili bilan bog‘liq jihatini ham alohida ta’kidlash lozim. T. Makan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, o‘z vaqtini nazorat qila

[89]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz

[90]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz

[91]Drucker P.F. The Effective Executive. – New York: Harper & Row, 1967.

[92]Claessens B.J.C., van Eerde W., Rutte C.G., Roe R.A. A review of the time management literature // Personnel Review. – 2007. – Vol. 36, No. 2. – P. 255–276.

[93]Архангельский Г.А. Тайм-драйв: Как успевать жить и работать. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2017.

[94]Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People. – New York: Free Press, 1989.

olayotganini his qilgan xodimlarda stress darajasi pastroq, ishdan qoniqish esa yuqoriroq bo‘ladi[95]. Demak, vaqtni to‘g‘ri boshqarish xodimlarning psixologik holatini yaxshilaydi, kasbiy “charchash” va kadrlar qo‘nimsizligi xavfini kamaytiradi.

Amaliyotda esa ko‘p korxonalarda vaqtni boshqarish hali tizimli emas. Kuzatishlarimizga ko‘ra, vaqt yo‘qotilishining asosiy sabablari quyidagilar: birinchidan, uzoq davom etadigan va aniq kun tartibiga ega bo‘lmagan yig‘ilishlar; ikkinchidan, qog‘oz ko‘rinishidagi hujjat aylanishi va kelishuv jarayonlarining ko‘p bosqichliligi; uchinchidan, vazifalar ustuvorligining aniq belgilanmaganligi; to‘rtinchidan, rahbarlar tomonidan vakolatlarni topshirishga (delegatsiyaga) kam e’tibor berilishi. Raqamli vositalar ham ba’zan muammo manbaiga aylanadi: messenjerlardagi doimiy xabar va bildirishnomalar xodimning diqqatini bo‘lib, asosiy ishga sarflanadigan vaqtni qisqartiradi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot bu muammolarni hal etish imkoniyatlarini ham yaratadi. Elektron hujjat aylanishi tizimlari hujjatlarni kelishish muddatini qisqartiradi; Trello, Jira, Bitrix24 kabi platformalar topshiriqlarning ijrochisi, muddati va holatini shaffof ko‘rsatadi; elektron kalendarlar va onlayn yig‘ilishlar uchrashuvlarni rejalashtirishni osonlashtiradi. CRM-tizimlar esa takroriy amallarni avtomatlashtirib, xodim vaqtini ijodiy ishlarga bo‘shatadi.

Xorijiy tajribaga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarning yirik kompaniyalarida vaqtni boshqarish korporativ qoidalar orqali tartibga solinadi: maxsus “yig‘ilishsiz kunlar” belgilanadi, ichki yozishmalar uchun javob berish muddatlari standartlashtiriladi, xodimlarning ish samaradorligi esa sarflangan soatlar bilan emas, balki erishilgan natijalar bilan baholanadi. Bu tajribani milliy korxonalarimizga moslashtirib qo‘llash, bizningcha, samarali bo‘ladi.

Bu masala mintaqaviy rivojlanish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Hududlardagi korxona va filiallar bosh ofis bilan aloqa va hisobotlarga ko‘p vaqt sarflaydi. Raqamli taym-menejment vositalari hududiy bo‘linmalar boshqaruvi samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Fikrimizcha, korxonada taym-menejment tizimini samarali tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: 1) ish vaqti auditi – xodimlar va bo‘linmalar vaqti qanday taqsimlanayotganini o‘rganish; 2) maqsad va ustuvorliklarni belgilash – Eyzenxauer matritsasi, Pareto tamoyili (80/20) kabi usullardan foydalanish; 3) korxona ehtiyojiga mos raqamli vositalarni tanlash; 4) xodimlarni o‘qitish va korporativ vaqt madaniyatini shakllantirish; 5) natijalarni KPI ko‘rsatkichlari orqali baholash va tizimni doimiy takomillashtirib borish.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, korxonalarda taym-menejment samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz: 1) har bir yig‘ilish uchun oldindan kun tartibi va vaqt chegarasini belgilash, ichki yig‘ilishlarni 30 daqiqa bilan cheklash amaliyotini joriy etish; 2) xodimlarning ish kunida “diqqat soatlari”ni ajratish, ya’ni shu vaqt davomida ichki xabar va qo‘ng‘iroqlarni cheklash; 3) yagona elektron vazifa boshqaruv tizimini joriy etib, topshiriqlar ijrosini real vaqt

[95]Macan T.H. Time management: Test of a process model // Journal of Applied Psychology. – 1994. – Vol. 79, No. 3. – P. 381–391.

rejimida kuzatib borish; 4) bo‘linmalar faoliyatini baholashda vaqt bilan bog‘liq KPI ko‘rsatkichlarini kiritish; 5) rahbar va xodimlar uchun taym-menejment bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida taym-menejment faqat shaxsiy odat emas, balki korxona boshqaruv tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Vaqtni boshqarishga tizimli yondashuv va raqamli vositalardan oqilona foydalanish mehnat unumdorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini tezroq qabul qilish va korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bois uni korxona strategiyasining tarkibiy qismi sifatida qarash lozim, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “«Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // www.lex.uz
3. Claessens B.J.C., van Eerde W., Rutte C.G., Roe R.A. A review of the time management literature // Personnel Review. – 2007. – Vol. 36, No. 2. – P. 255–276.
4. Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People. – New York: Free Press, 1989.
5. Drucker P.F. The Effective Executive. – New York: Harper & Row, 1967.
6. Macan T.H. Time management: Test of a process model // Journal of Applied Psychology. – 1994. – Vol. 79, No. 3. – P. 381–391.
7. Архангельский Г.А. Тайм-драйв: Как успевать жить и работать. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2017.

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH VA MOLIYAVIY XIZMATLARNING HUDUDIY QAMROVINI KENGAYTIRISH

Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada bank xizmatlarini raqamlashtirishning moliyaviy xizmatlarning hududiy qamroviga ta’siri O‘zbekiston tijorat banklari misolida tahlil qilingan. Markaziy bankning to‘lov tizimlari statistikasi va besh tijorat bankining hisobot ma’lumotlari asosida 2020-2025 yillarda masofaviy xizmat foydalanuvchilari soni 5,4 barobar oshgani aniqlandi. O‘sish sur’ati banklarning tarmoq modeliga qarab sezilarli farqlanishi, jismoniy infratuzilma esa raqamli kanallar sur’atida kengaymagani ko‘rsatildi. Raqamli qamrovning kengayishi bilan bog‘liq likvidlik va operatsion xavflar ko‘rib chiqildi hamda viloyatlar kesimidagi va faol foydalanuvchilar bo‘yicha statistikani e’lon qilishga doir takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: bank xizmatlarini raqamlashtirish, hududiy qamrov, masofaviy bank xizmatlari, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, operatsion xavf.

Moliyaviy xizmatlarning hududiy qamrovi uzoq yillar davomida bank filiallari va shoxobchalari soniga bog‘liq bo‘lgan. Raqamlashtirish bu bog‘liqlikni susaytirmoqda, chunki mobil va internet-banking orqali xizmat olish uchun mijozning bank ofisiga yaqin bo‘lishi shart emas. Shu sababli raqamli kanallar hududlar o‘rtasidagi moliyaviy xizmatlardan foydalanish tafovutini qisqartirishi mumkin. Iqtisodiy nuqtai nazardan filial tarmog‘i doimiy xarajatlarni talab qiladi, raqamli kanal esa har bir qo‘shimcha mijozga xizmat ko‘rsatishning chekli xarajatini kamaytiradi.

Jahon banki Global Findex tadqiqotlarida moliyaviy xizmatlardan foydalanish hisob egaligi va raqamli to‘lovlar ko‘rsatkichlari orqali baholanadi[96]. Biroq qamrovning kengayishi banklarning moliyaviy barqarorligiga ham yangi talablar qo‘yadi. Tadqiqotning maqsadi raqamli kanallar rivojlanishining hududiy qamrov imkoniyatlariga ta’sirini va u bilan bog‘liq barqarorlik xavflarini aniqlashdan iborat.

Tahlil Markaziy bankning to‘lov tizimlari statistikasiga[97] va besh tijorat bankining (Turonbank, O‘zbekiston sanoat-qurilish banki, Mikrokreditbank, Aloqabank, Agrobank) Markaziy bankka taqdim etilgan davriy hisobot shakllariga asoslanadi. Banklar 2020-2025 yillar bo‘yicha uzluksiz hisobot ma’lumotlari mavjudligi va tarmoq modeli jihatidan farqlanishi bilan tanlangan.

Foydalanuvchilar soni yil yakuni holatiga keltirilgan. Manba fayllarida ko‘rsatkichlar keyingi yilning 1 yanvar holatiga berilgani uchun, masalan, 2021 yil 1 yanvar holati 2020 yil yakuni sifatida qabul qilindi. Ular har bir bankda alohida hisobga olingani uchun bir mijoz bir nechta bankda takrorlanishi mumkin. Shuning uchun ko‘rsatkich aholi qamrovini emas, raqamli kanallar hajmini ifodalaydi. Tahlilda o‘sish ko‘paytmasi, banklarning tizimdagi ulushi va o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati hisoblandi. Oxirgi ko‘rsatkich CAGR = $(V^{2025} / V^{2020})^{1/5}$ - 1 formulasi bo‘yicha aniqlanadi, bunda V ko‘rsatkichning tegishli yildagi qiymati.

1-jadval

Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (ming kishi, yil yakuni holatiga)[98]

Ko‘rsatkich	2020	2025	O‘sish, marta
Tizim bo‘yicha jami	14 571,1	79 333,9	5,4
Aloqabank	391,9	6 654,8	17,0
O‘zbekiston sanoat-qurilish banki	1 707,3	6 410,7	3,8
Agrobank	2 465,3	4 491,1	1,8
Mikrokreditbank	737,0	2 252,0	3,1
Turonbank	216,2	937,8	4,3
Besh bankning tizimdagi ulushi, %	37,9	26,2	-

Tizim bo‘yicha foydalanuvchilar soni 2020 yildagi 14,6 mln dan 2025 yilda 79,3 mln ga yetdi, ya’ni 5,4 barobar oshdi (o‘rtacha yillik o‘sish 40,3 foiz). O‘sish banklar bo‘yicha bir xil emas. Aloqabankda foydalanuvchilar 17 barobar ko‘paygan, Agrobankda esa 1,8 barobar. O‘rtacha yillik o‘sish sur’ati Aloqabankda 76,2 foiz,

[96] Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. - Washington, DC: World Bank, 2022.

[97] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari statistikasi: masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni.

[98] Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining to‘lov tizimlari statistikasi asosida tuzilgan.

Turonbankda 34,1 foiz, O‘zbekiston sanoat-qurilish bankida 30,3 foiz, Mikrokreditbankda 25,0 foiz va Agrobankda 12,7 foizni tashkil etdi. Tizimdagi ulushlar ham o‘zgardi: Aloqabankniki 2,7 foizdan 8,4 foizga ko‘tarildi, Agrobankniki esa 16,9 foizdan 5,7 foizga tushdi. Demak, beshta bank ichida eng ko‘p filialga ega Agrobank foydalanuvchilar o‘sishi bo‘yicha oxirgi o‘rinda qolmoqda.

Bu tafovut tarmoq modeliga bog‘liq ko‘rinadi. Agrobank 170 ta filial orqali hududlarda keng ishtirok etadi, Aloqabank hisobotida esa filiallar ko‘rsatilmagan, Turonbank 15 ta, O‘zbekiston sanoat-qurilish banki va Mikrokreditbank bittadan filial ko‘rsatgan[99]. Filialsiz model xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytiradi, ammo mijoz bilan aloqani to‘liq masofaviy kanallarga bog‘laydi. Fikrimizcha, aynan shunday banklar uchun raqamli kanal hududiy qamrovni kengaytirishning asosiy vositasiga aylanmoqda. Tahlilni viloyatlar kesimidagi ma’lumotlar bilan chuqurlashtirish keyingi tadqiqot vazifasi bo‘lib qoladi.

Besh bankning tizimdagi ulushi 37,9 foizdan 26,2 foizga tushdi. Demak, raqamli xizmatlar bozorning boshqa ishtirokchilari orqali ham kengaygan. Qamrov bir nechta yirik bankda to‘planib qolmagan. Ulushning pasayishi alohida bank qamrovi kamayganini bildirmaydi, chunki foydalanuvchilarning mutlaq soni barcha beshta bankda oshgan.

Jismoniy infratuzilma bunday sur’atda o‘smadi. 2020-2025 yillarda muomaladagi kartalar soni 25,8 mln dan 68,3 mln ga, bankomat va infokiosklar 11,8 mingdan 39,6 mingga oshdi. POS-terminallar soni esa 438,4 mingdan 430,8 mingga kamaydi[100]. Terminallar orqali tushum shu davrda 81 trln so‘mdan 460 trln so‘mga yetdi. Bitta POS-terminalga to‘g‘ri keladigan tushum taxminan 185 mln so‘mdan 1,07 mlrd so‘mga, ya’ni 5,8 barobar oshdi.

Shu davrda kartalar soni 2,6 barobar, bankomatlar soni 3,4 barobar ko‘paygan. Demak, naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi terminallar sonini ko‘paytirmasdan o‘sgan. Bu o‘sish terminal yuklamasining oshishi yoki yangi to‘lov usullarining kengayishi bilan bog‘liqligini alohida tekshirish lozim. Bu hududiy qamrovni faqat jismoniy infratuzilma orqali baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Qamrovning kengayishi bank barqarorligiga bevosita bog‘liq. Raqamli kanallar orqali resurslar tez jalb etiladi, lekin ular tez chiqib ham ketishi mumkin. Operatsion uzilish esa barcha hududlardagi mijozlarga bir vaqtda ta’sir qiladi. Filiali yo‘q banklarda bu xavf yuqoriroq bo‘lishi mumkin, chunki mijozga muqobil xizmat kanali yo‘q. Bazel qo‘mitasi fintex rivojlanishi banklar uchun strategik, operatsion va kiber xavflarni kuchaytirishini ta’kidlaydi[101], muhim operatsiyalar uzilish sharoitida ham davom etishini ta’minlovchi operatsion chidamlilik tamoyillarini esa

[99] Muallif tomonidan «Turonbank» ATB, «O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATB, «Mikrokreditbank» ATB, «Aloqabank» ATB va «Agrobank» ATBning Markaziy bankka taqdim etilgan standart davriy hisobot shakllari asosida tuzilgan.

[100] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari statistikasi: muomaladagi bank plastik kartalari, to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni hamda terminallar orqali tushum.

[101] Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: implications of fintech developments for banks and bank supervisors. - Basel: Bank for International Settlements, 2018.

alohida belgilaydi[102]. Shu sababli hududiy qamrovning kengayishini baholashda unga xizmat qiluvchi xavflarni ham o‘lchash kerak.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, Markaziy bank statistikasida masofaviy xizmat foydalanuvchilarini viloyatlar bo‘yicha hamda oxirgi 90 kunda kamida bitta operatsiya bajargan faol foydalanuvchilar bo‘yicha ajratib e’lon qilish maqsadga muvofiq.

Faollik darajasi $K^f = A / R$ formulasi bo‘yicha hisoblanishi mumkin, bunda A oxirgi 90 kunda kamida bitta operatsiya bajargan foydalanuvchilar soni, R ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilarning umumiy soni. Ikkinchidan, filiali kam yoki yo‘q banklar uchun raqamli likvidlik va operatsion uzilishlarga chidamlilik ko‘rsatkichlarini nazorat monitoringiga kiritish lozim. Bunda likvidlikni qoplash koeffitsienti maxrajiga masofaviy kanallardagi depozitlar bo‘yicha qo‘shimcha chiqib ketish me’yorini kiritish ko‘rib chiqilishi mumkin. Uchinchidan, hududiy qamrovni baholashda filiallar soni bilan birga raqamli kanallar ko‘rsatkichlaridan ham foydalanish kerak.

Shunday qilib, raqamlashtirish moliyaviy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish imkonini beradi. Bu qamrovning barqaror bo‘lishi esa raqamli risklarni boshqarish sifatiga bog‘liq. Natijalar besh bank va to‘lov tizimi ma’lumotlariga asoslangani uchun ularni butun bank tizimiga umumlashtirishda ehtiyot bo‘lish zarur, o‘zaro bog‘liqlik esa sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari statistikasi: masofaviy bank xizmatlarini ko‘rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni, muomaladagi bank plastik kartalari, to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni hamda terminallar orqali tushum. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.

2. «Turonbank» ATB, «O‘zbekiston sanoat-qurilish banki» ATB, «Mikrokreditbank» ATB, «Aloqabank» ATB va «Agrobank» ATBning Markaziy bankka taqdim etilgan standart davriy hisobot shakllari (CRS, 23-jadval, «Boshqa ma’lumotlar» bo‘limi), 2020-2025 yillar.

3. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for operational resilience. - Basel: Bank for International Settlements, 2021.

4. Basel Committee on Banking Supervision. Sound Practices: implications of fintech developments for banks and bank supervisors. - Basel: Bank for International Settlements, 2018.

5. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. - Washington, DC: World Bank, 2022.

[102] Basel Committee on Banking Supervision. Principles for operational resilience. - Basel: Bank for International Settlements, 2021.

RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA HUDUDIY MOLIYAVIY INKLYUZIYANI KENGAYTIRISH VA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH

Atamuradov Bozorboy Berdimuratovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda raqamli bank xizmatlarining hududiy moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va tijorat banklari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdagi o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekistonning 12 ta tijorat banki bo‘yicha 2021-2025 yillardagi masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari dinamikasi asosida raqamli qamrovning imkoniyatlari va cheklovlari baholangan. Raqamli kirish, faol foydalanish, resurs samarasi va barqarorlik filtrini birlashtiruvchi hududiy raqamli moliyaviy inklyuziya mexanizmi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, hududiy moliyaviy inklyuziya, moliyaviy barqarorlik, raqamli qamrov, masofaviy bank xizmatlari, resurs bazasi, likvidlik, kiberxavfsizlik.

Raqamli bank xizmatlarining kengayishi moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi masofa va vaqt cheklovlarini qisqartirish, kichik hajmdagi operatsiyalarni arzonroq tashkil etish va aholi hamda tadbirkorlik sub’ektlarining bank infratuzilmasiga kirishini kengaytirish imkonini beradi. Jahon bankining Global Findex 2025 ma’lumotlarida ham raqamli ulanish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish o‘rtasidagi bog‘liqlik alohida yo‘nalish sifatida qaralgan. Shu bilan birga, raqamli kanalning mavjudligi hududiy moliyaviy inklyuziya ta’minlanganini anglatmaydi. Foydalanuvchining ro‘yxatdan o‘tgani xizmatdan faol foydalanish, depozit shakllantirish, kreditdan samarali foydalanish yoki bank uchun barqaror moliyaviy natija yuzaga kelganini avtomatik tasdiqlamaydi[103].


Xalqaro tadqiqotlarda raqamli moliyaviy inklyuziya va bank barqarorligi o‘rtasidagi munosabat bir yo‘nalishli emasligi, ta’sir operatsion samaradorlik, risklarni qabul qilish darajasi va institutsional muhitga bog‘liq holda o‘zgarishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Shu sababli ushbu tadqiqotda hududiy moliyaviy inklyuziya bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining geografik kengayishi bilan cheklanmaydi. Mualliflik yondashuvida u raqamli xizmatlarga kirish, ulardan faol foydalanish, aholi va biznes resurslarini bank aylanmasiga jalb qilish hamda mazkur jarayonning bank daromadliligi, likvidligi va risk profili bilan muvofiqlashgan holati sifatida talqin qilinadi[104].

O‘zbekiston bank tizimida raqamli qamrovning o‘sishi sezilarli. Tadqiqot uchun tanlangan 12 ta tijorat banki bo‘yicha Markaziy bankning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar haqidagi rasmiy ma’lumotlari umumlashtirilganda, ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni 2021 yil yakunida 16,9 mln nafardan 2025 yil yakunida 52,1 mln nafarga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar unikal faol shaxslar soni

[103] World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. - Washington, DC: World Bank, 2025.
[104]Anton S.G., Afloarei Nucu A.E. The impact of digital finance and financial inclusion on banking stability: International evidence // Oeconomia Copernicana. - 2024. - Vol. 15, No. 2. - P. 563-593.

emas, chunki bir mijoz bir nechta bankda hisobga olinishi mumkin. Shuning uchun ushbu dinamika raqamli xizmatlarning qamrovi va banklar tomonidan masofaviy kanallarni kengaytirish sur’atini ifodalaydi, ammo uni hudud aholisining to‘liq moliyaviy inklyuziyasi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas[105].

Raqamli xizmatlar hududiy iqtisodiyotga, avvalo, filial joylashuviga bog‘liqlikni kamaytirish orqali ta’sir qilishi mumkin. Masofaviy identifikatsiya, mobil va internet-banking, elektron to‘lovlar hamda masofaviy kredit va depozit mahsulotlari xizmat ko‘rsatish nuqtalari cheklangan hududlarda bankka kirish xarajatlarini pasaytiradi. Biroq mazkur kanalning natijasi raqamli savodxonlik, internet sifati, ishonch, identifikatsiya infratuzilmasi, xizmatning uzluksizligi va kiberxavfsizlik bilan cheklanadi. Bazel qo‘mitasi raqamlashtirish banklarga yangi imkoniyatlar berish bilan birga operatsion, strategik, reputatsion va likvidlik risklarini kuchaytirishi, raqamli aloqa kanallari esa stressni tezroq tarqatishi mumkinligini qayd etadi[106].



1-rasm. Tijorat banki bo‘yicha masofaviy bank xizmatlaridan ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni[107]

Shu nuqtai nazardan raqamli moliyaviy inklyuziyaning hududiy samarasini faqat «qancha foydalanuvchi ulandi?» savoli bilan baholash yetarli emas. Bank uchun inklyuziya moliyaviy jihatdan barqaror natija berishi uchun yangi raqamli mijozlar depozit va tranzaksion resurslar bazasini diversifikatsiyalashi, xizmat tannarxini maqbullashtirishi va risk konsentratsiyasini keskin oshirmasligi lozim. Masalan, Markaziy bankning 2024 yil yakuni ma’lumotlarida bank tizimi depozitlarida bir yildan yuqori muddatli depozitlar ulushi 35,3 foizdan 38,7 foizga oshgan, talab qilib olguncha depozitlar ulushi esa 35,3 foizdan 32,1 foizga pasaygan. Bu o‘zgarishni raqamlashtirish natijasi deb baholab bo‘lmaydi, biroq resurslar

[105] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.
[106] Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of finance. - Basel: Bank for International Settlements, 2024.
[107] Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumotlari asosida tuzilgan.

muddat tarkibi bank moliyaviy barqarorligining muhim o‘lchovi ekanini ko‘rsatadi[108].

Tadqiqot doirasida «hududiy raqamli moliyaviy inklyuziya mexanizmi» taklif etiladi. Mexanizmda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish to‘rtta ketma-ket blok orqali baholanadi: 1) hududiy raqamli kirish, ya’ni xizmatdan foydalanish imkoniyati; 2) faol foydalanish, ya’ni ro‘yxatdan o‘tgan akkaunt emas, real operatsiya va mahsulotlardan foydalanish; 3) resurs va moliyaviy samara, ya’ni jalb qilingan depozit, tranzaksion daromad, xizmat tannarxi va mijozni saqlab qolish; 4) barqarorlik filtri, ya’ni kapital, likvidlik, kredit sifati, kiber va operatsion risklar. Mexanizmning asosiy farqi shundaki, raqamli qamrovning o‘sishi barqarorlik natijasi bilan bog‘lanmaguncha yakuniy samara sifatida qabul qilinmaydi.

Taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ahamiyati hududlar kesimida ma’lumotlarni standartlashtirishda namoyon bo‘ladi. Hozirgi tadqiqot bazasida banklar kesimida raqamli foydalanuvchilar va moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlari mavjud, ammo ularning hududiy taqsimoti to‘liq emas. Shuning uchun hududlar bo‘yicha sababiy ta’sir bahosi berilmaydi. Keyingi bosqichda banklar va regulyator tomonidan viloyatlar kesimida unikal va faol raqamli mijozlar, depozit qoldig‘i, raqamli kredit sifati, xizmat uzilishlari va firibgarlik yo‘qotishlarini bir xil metodologiyada ochib borish mexanizmni empirik tekshirish imkonini beradi.

2-jadval

Hududiy raqamli moliyaviy inklyuziyani baholashning mualliflik mexanizmi[109]

Blok	**Asosiy o‘lchov**	**Moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq natija**
Raqamli kirish	hudud bo‘yicha raqamli qamrov, masofaviy kanalga kirish	mijozlar bazasini kengaytirish
Faol foydalanish	faol mijoz, operatsiya chastotasi, mahsulotlar soni	tranzaksion faollik va daromad
Resurs samarasi	depozit, hisobvaraq qoldig‘i, xizmat tannarxi	resurs bazasi va operatsion samaradorlik
Barqarorlik filtri	LCR/NSFR, NPL, kapital, kiber va operatsion hodisalar	raqamli o‘sishning riskka mos barqarorligi

Tahlil raqamli bank xizmatlarining kengayishi hududiy moliyaviy inklyuziya uchun muhim infratuzilmaviy imkoniyat yaratayotganini, biroq ro‘yxatdan o‘tgan foydalanuvchilar sonini moliyaviy barqarorlik natijasi bilan tenglashtirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, banklar hududlar kesimida ro‘yxatdan o‘tgan mijoz bilan birga unikal faol raqamli mijoz va operatsiya chastotasini ham hisobga olishi lozim. Ikkinchidan, raqamli qamrov ko‘rsatkichlari depozit resurslari, tranzaksion daromad, xizmat tannarxi va mijozni saqlab qolish ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanishi kerak. Uchinchidan, hududiy raqamli inklyuziya monitoringiga NPL, likvidlik, kiberhodisa va xizmat uzilishi kabi barqarorlik filtrlari kiritilishi maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, raqamli kanallar faolligi yuqori, ammo filial infratuzilmasi

[108] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024 yil uchun yillik hisobot. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
[109] Muallif ishlanmasi

cheklangan hududlarda raqamli savodxonlik va xizmatlar ishonchliligiga qaratilgan maqsadli dasturlar joriy etilishi kerak. Beshinchidan, Markaziy bank va tijorat banklari hududlar kesimida raqamli moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichlarini standartlashtirib borishi keyingi empirik baholashlar uchun zarur axborot bazasini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy. - Washington, DC: World Bank, 2025.
2. Anton S.G., Afloarei Nucu A.E. The impact of digital finance and financial inclusion on banking stability: International evidence // Oeconomia Copernicana. - 2024. - Vol. 15, No. 2. - P. 563-593. DOI: 10.24136/oc.3046.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni bo‘yicha 01.01.2022-01.01.2026 holatiga.
4. Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of finance. - Basel: Bank for International Settlements, 2024.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024 yil uchun yillik hisobot. - Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.

RAQAMLI BANK XIZMATLARI HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING MOLIYAVIY OMILI SIFATIDA

Axmedov Toxirjon Hasanjon o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda raqamli bank xizmatlarining hududlar raqobatbardoshligiga moliyaviy omil sifatidagi ta’siri O‘zbekiston tijorat banklarining 2021-2025 yillardagi rasmiy ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Masofaviy xizmat foydalanuvchilari, bank kartalari va to‘lov terminallari dinamikasi ko‘rib chiqilib, raqamli xizmatlar jismoniy infratuzilmadan mustaqil kengaygani, biroq raqamli qamrovning tijoriy natijaga aylanishi banklar bo‘yicha farqlanishi aniqlangan. Hududiy raqamli qamrov ko‘rsatkichi (HRQK), raqamli qamrovning tijoriy realizatsiya koeffitsienti (RQTRK) hamda panel model asosidagi baholash yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, hududlar raqobatbardoshligi, tijorat banklari, raqamli transformatsiya, moliyaviy xizmatlardan foydalanish, DTI, HRQK, RQTRK.

Hududning raqobatbardoshligi uning iqtisodiy sub’ektlari moliyaviy xizmatlardan qanchalik tez, arzon va uzluksiz foydalana olishiga bog‘liq. An’anaviy bank tarmog‘ida bu imkoniyat filial va terminallar joylashuviga, ya’ni jismoniy masofaga biriktirilgan. Raqamli bank xizmatlari esa mazkur cheklovni yumshatadi, chunki hisob yuritish, to‘lov va kreditga ariza berish kanallari geografik joylashuvdan ajraladi. Shu bois raqamli bank xizmatlarini hududlar raqobatbardoshligining moliyaviy omili sifatida qarash mumkin. Tezisda bu fikr

O‘zbekiston tijorat banklarining 2021-2025 yillardagi rasmiy ma’lumotlari asosida tekshiriladi.

Mazkur yondashuv moliyaviy xizmatlarning mahalliy darajadagi ahamiyatini asoslovchi tadqiqotlarga tayanadi. Guiso, Sapienza va Zingalesning Italiya ma’lumotlari asosidagi tadqiqotida mahalliy moliyaviy rivojlanish yangi korxonalar kirib kelishini rag‘batlantirishi va raqobatni kuchaytirishi aniqlangan[110]. Petersen va Rajan esa bank bilan qarz oluvchi orasidagi masofa axborot texnologiyalari rivoji bilan kreditlash texnologiyasi o‘zgarishi natijasida ortib borganini ko‘rsatgan[111]. Bundan hududning moliyaviy xizmatdan foydalanishi jismoniy masofa bilan emas, bankning axborot-kommunikatsiya imkoniyatlari bilan belgilanishi mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Raqamli transformatsiya texnologiyalardan foydalanish usuli o‘zgarishi orqali yangi raqamli biznes-model yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi[112], shu sababli u xizmat kanallarining ko‘payishini emas, bankning hududiy xizmat ko‘rsatish modelini ham o‘zgartiradi. Fikrimizcha, hududiy ta’sir uch kanal orqali namoyon bo‘ladi: xizmatga kirish xarajatlarining kamayishi, to‘lov infratuzilmasining kengayishi hamda tadbirkorlik sub’ektlari uchun hisob-kitob va kredit jarayonlarining tezlashuvi. Banklarning raqamlashuv darajasini o‘lchashda dissertatsiyada ishlab chiqilgan Digital Transformation Index (DTI) qo‘llaniladi, uning tuzilishi esa kompozit indekslar qurishning xalqaro metodologiyasiga[113] asoslanadi.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-2025 yillarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 14,6 mln dan 52,9 mln ga o‘sgan (1-jadval). Bu ko‘rsatkich banklar bo‘yicha yig‘indi bo‘lib, bitta mijoz bir nechta bankda hisobga olinishi mumkin, shu sababli u aholi qamrovini emas, raqamli kanallar hajmini ifodalaydi.

1-jadval

O‘zbekiston bank tizimida raqamli xizmat va to‘lov infratuzilmasi ko‘rsatkichlari (1 yanvar holatiga)[114]

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Masofaviy xizmat foydalanuvchilari, mln	14,6	20,2	30,0	43,6	52,9
Muomaladagi bank kartalari, mln	25,8	27,1	34,2	46,2	62,0
Foydalanuvchilar va kartalar soni nisbati	0,57	0,75	0,88	0,94	0,85
To‘lov terminallari, ming dona	438,4	433,4	434,0	429,3	426,2

[110] Guiso L., Sapienza P., Zingales L. Does Local Financial Development Matter? // The Quarterly Journal of Economics. - 2004. - Vol. 119, No. 3. - P. 929-969.

[111] Petersen M.A., Rajan R.G. Does Distance Still Matter? The Information Revolution in Small Business Lending // The Journal of Finance. - 2002. - Vol. 57, No. 6. - P. 2533-2570.

[112] Verhoef P.C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Qi Dong J., Fabian N., Haenlein M. Digital Transformation: A Multidisciplinary Reflection and Research Agenda // Journal of Business Research. - 2021. - Vol. 122. - P. 889-901.

[113] Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. - 162 p.

[114] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида ҳисобланиб тузилган.

Bankomat va infokiosklar, ming dona	11,8	12,9	20,4	26,7	29,9
Terminallar orqali tushum (oldingi yil uchun), trln so‘m	81,0	111,1	177,7	254,7	326,7
Bir terminalga tushum (oldingi yil uchun), mln so‘m	184,8	256,4	409,4	593,3	766,6

1-jadval ma’lumotlari raqamli xizmatlarning jismoniy infratuzilmadan mustaqil kengayganini ko‘rsatadi. 2021-2025 yillarda foydalanuvchilar soni 3,6 baravar, kartalar soni 2,4 baravar oshgan, terminallar soni esa 2,8 foizga qisqargan. Shu davrda terminallar orqali tushum 4,0 baravar o‘sib, bir terminalga to‘g‘ri keluvchi tushum 184,8 mln so‘mdan 766,6 mln so‘mga yetgan. Bu esa to‘lov aylanmasining kengayishi jismoniy nuqtalar soni emas, mavjud terminallar va raqamli kanallardan faolroq foydalanish hisobiga yuz berganini ko‘rsatadi. Hududiy nuqtai nazardan bu muhim, chunki terminal va filial tarmog‘i zich bo‘lmagan hududda raqobatbardoshlik sharti tarmoqning kengayishi emas, raqamli xizmatdan foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi. Shuningdek, 2025 yilda kartalar soni 34,2 foizga, foydalanuvchilar esa 21,5 foizga oshgani sababli ularning nisbati 0,94 dan 0,85 ga tushgan. Demak, qamrovning miqdoriy o‘sishi o‘z-o‘zidan xizmatdan faol foydalanishni ta’minlamaydi.

Infratuzilmaga tushayotgan yuklama ko‘rsatkichi ham shu xulosani tasdiqlaydi. Bitta to‘lov terminaliga to‘g‘ri keluvchi bank kartalari soni 2021 yilda 58,8 tani, 2025 yilda esa 145,5 tani tashkil etib, 2,5 baravar ortgan. Bankomat va infokiosklar soni ham 11,8 mingdan 29,9 minggacha, ya’ni 2,5 baravar ko‘paygan. Iqtisodiy jihatdan bu har bir jismoniy nuqtaga tushayotgan xizmat hajmi oshganini, shuning uchun xizmatga kirish xarajatlarining pasayishi tarmoq zichligining emas, raqamli kanallarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligini bildiradi. Biroq yig‘ma ma’lumotlar hududiy tafovutni yashirgani sababli, bu holatni sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilish mumkin emas.

Banklar kesimida farqlar sezilarli. 2021-2025 yillarda masofaviy xizmat foydalanuvchilari Aloqabankda 4,5, Sanoatqurilishbankda 3,7, Turonbankda 2,5, Agrobankda 2,4 va Mikrokreditbankda 1,7 baravar o‘sgan[115]. Qamrovning tijoriy natijaga aylanishi esa boshqacha manzara beradi. 2025 yil 1 yanvar holatiga foydalanuvchilar sonining kartalar soniga nisbati Sanoatqurilishbankda 2,36, Mikrokreditbankda esa 0,70 ni tashkil etgan. 2024 yilda terminallar orqali tushumning bir foydalanuvchiga nisbati Sanoatqurilishbankda 2,0 mln so‘m, Agrobankda 2,8 mln so‘m, Turonbankda 10,5 mln so‘m va Mikrokreditbankda 13,6 mln so‘m bo‘lgan. Aloqabankda bu ko‘rsatkich 26,6 mln so‘mga teng, biroq terminal tushumi bankning ekvayring xizmatini ham qamrab olishi mumkin. Demak, foydalanuvchilari ko‘p bank ham hududiy iqtisodiy sub’ektlarga mos tijoriy xizmat bermasligi mumkin. Fikrimizcha, hududlar uchun bankning raqamli qamrovi bilan birga uning tijoriy realizatsiyasi ham muhim.

Hududiy ta’sirni empirik baholash uchun ikki ko‘rsatkich taklif etiladi. Birinchisi, hududiy raqamli qamrov ko‘rsatkichi: $HRQK_r = (U_r / N_r) \times 1000$, bunda U_r - r-viloyatdagi masofaviy xizmat foydalanuvchilari soni, N_r - aholi soni.

[115] Муаллиф томонидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банки маълумотлари асосида ҳисобланган.

Ikkinchisi, raqamli qamrovning tijoriy realizatsiya koeffitsienti: $RQTRK_j = T_j / U_j$, bunda T_j - j-bank terminallari orqali tushum, U_j - uning masofaviy xizmat foydalanuvchilari soni. Viloyatlar kesimidagi ma'lumotlar mavjud bo'lganda panel model baholanadi: $Y_{rt} = \alpha + \beta \cdot HRQK_{rt} + \gamma' Z_{rt} + \mu_r + \lambda_t + \varepsilon_{rt}$, bunda Y_{rt} - hududiy raqobatbardoshlik ko'rsatkichi (masalan, kichik biznesga berilgan kreditlarning hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi), Z_{rt} - nazorat o'zgaruvchilari, μ_r va λ_t - hudud va vaqt effektlari. Tekshiriladigan gipoteza: $\beta > 0$, ya'ni raqamli qamrovning ortishi hududiy raqobatbardoshlikning yuqori darajasi bilan statistik jihatdan bog'liq.

Tahlil natijalari asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi. Birinchidan, masofaviy xizmat, kartalar va terminallar bo'yicha rasmiy ma'lumotlarni banklar bilan birga viloyatlar kesimida e'lon qilish hamda hududiy raqamli qamrov ko'rsatkichini (1000 nafar aholiga masofaviy xizmat foydalanuvchilari soni) joriy etish maqsadga muvofiq. Bu hududlararo raqamli tafovutni o'lchash imkonini beradi. Ikkinchidan, banklarning raqamli holatini faqat foydalanuvchilar soni bilan emas, DTI va raqamli qamrovning tijoriy realizatsiya koeffitsienti (terminallar orqali tushumning foydalanuvchilar soniga nisbati) orqali baholash lozim. Uchinchidan, Open Banking 2027 yil 1 yanvardan bosqichma-bosqich joriy etilishi rejalashtirilgani sababli[116], banklarning tayyorligini hududiy xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan oldindan baholash kerak.

Shunday qilib, raqamli bank xizmatlari hududlar raqobatbardoshligining moliyaviy omili sifatida kengaymoqda, ammo uning samarasi banklar bo'yicha bir xil emas. Markaziy bankning mazkur ma'lumotlari banklar kesimida berilgani uchun hududiy taqqoslash imkonini bermaydi, shu bois ularni viloyatlar bo'yicha yoritish keyingi tadqiqotning asosiy vazifasi bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Guiso L., Sapienza P., Zingales L. Does Local Financial Development Matter? // The Quarterly Journal of Economics. - 2004. - Vol. 119, No. 3. - P. 929.

2. Nardo M., Saisana M., Saltelli A., Tarantola S. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. - 162 p.

3. Petersen M.A., Rajan R.G. Does Distance Still Matter? The Information Revolution in Small Business Lending // The Journal of Finance. - 2002. - Vol. 57, No. 6. - P. 2533-2570.

4. Verhoef P.C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Qi Dong J., Fabian N., Haenlein M. Digital Transformation: A Multidisciplinary Reflection and Research Agenda // Journal of Business Research. - 2021. - Vol. 122. - P. 889-901.

5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari, muomaladagi bank kartalari va to'lov terminallari bo'yicha statistik ma'lumotlar (2021-2025 yillar 1 yanvar holati). - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.

6. Open banking нима ва у қачондан ишга тушади // Kun.uz. - 2026.

[116] Open banking нима ва у қачондан ишга тушади // Kun.uz. - 2026. - 25 сентябрь.

RAQAMLI BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA HUDUDLARNING MOLIYAVIY INKLYUZIYASI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH

Axmedov Toxirjon Hasanjon o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda raqamli bank xizmatlarining hududiy moliyaviy inklyuziya va raqobatbardoshlikni oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbekiston hududlarida raqamli infratuzilma intensivligi, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanish hamda moliyaviy resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar ochib beriladi. Hududiy raqamli moliyaviy inklyuziyani baholash uchun muallif tomonidan hududiy raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi (RDFI) taklif etilib, uning tarkibiy komponentlari, normallashtirish tartibi va keyingi ekonometrik aprobatsiya yo‘nalishlari asoslanadi. Raqamli bank xizmatlarini hududlarning o‘ziga xos cheklovlari bo‘yicha maqsadli rivojlantirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli bank xizmatlari, moliyaviy inklyuziya, hududiy raqobatbardoshlik, raqamli infratuzilma, hududiy raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi (RDFI), raqamli tranzaksiyalar, masofaviy identifikatsiya, raqamli kreditlash, hududiy rivojlanish.

Raqamli bank xizmatlari moliyaviy xizmatlarni hududiy jihatdan yaqinlashtirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va filial tarmog‘i yetarli bo‘lmagan hududlarda aholi hamda kichik biznesning moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirmoqda. Jahon banki raqamli moliyaviy xizmatlar arzonroq va tezkor xizmat ko‘rsatish orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish imkoniga ega ekanini ta’kidlaydi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi tadqiqotlarida raqamli moliyaviy inklyuziya infratuzilma va institutlar sifati bilan birgalikda iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashi mumkinligi ko‘rsatilgan[117]

O‘zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlar miqyosi jadal kengaymoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil 1 yanvar holatiga masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 52,9 mln ta hisob yozuviga yetgan, shundan 51,4 mln tasi jismoniy shaxslarga, 1,5 mln tasi tadbirkorlik sub’ektlariga to‘g‘ri kelgan. 2024 yilda jismoniy shaxslarning bank mobil ilovalari orqali amalga oshirgan onlayn operatsiyalari hajmi 396,7 trln so‘mga yetgan. Biroq foydalanuvchilar soni banklar kesimidagi hisob yozuvlarini aks ettirishi sababli uni unikal aholi soni yoki hududiy moliyaviy inklyuziya ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish mumkin emas[118].

Hududiy raqobatbardoshlik uchun raqamli bank xizmatlarining respublika miqyosida o‘sishi bilan birga, ulardan foydalanish imkoniyati hududlar bo‘yicha qanchalik farqlanishi ham muhim. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil yakunida jismoniy shaxslarning internet tarmog‘iga ulangan abonentlari

[117] Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? // IMF Working Paper. - 2021. - №21/167; World Bank. How Countries Can Expand Access to Digital Financial Services. DC: WB, 2020.
[118] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. 2025 йил учун йиллик ҳисобот. - Тошкент, 2026.

respublika bo‘yicha 29,8 mln birlikni tashkil etgan. 2025 yil 1 yanvar holatidagi aholi soniga nisbatan hisoblangan ko‘rsatkich raqamli aloqa infratuzilmasining hududiy intensivligini qiyoslash imkonini beradi[119].

Jadval raqamli infratuzilma imkoniyatlari hududlar kesimida bir xil emasligini ko‘rsatadi. Toshkent shahrida 100 nafar aholiga 166,2 ta internet abonenti to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Qashqadaryo va Surxondaryoda mos ravishda 63,0 va 61,1 ta. Bu raqamlar foydalanuvchilar ulushi emas, ammo raqamli xizmatlarni masshtablash imkoniyatidagi farqni ko‘rsatadi.

Moliyaviy resurslar ham yuqori darajada markazlashgan: 2025 yil 1 iyun holatiga Toshkent shahri bank tizimi depozitlarining 77,2 foizini tashkil etgan. Mazkur ulush yuridik shaxslar bosh ofislarining hisobga olinishi kabi omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, shu sababli hududiy inklyuziyani rezident darajasida alohida o‘lchash zarur.[120]

1-jadval

Ayrim hududlarda raqamli infratuzilma intensivligi

Hudud	**Internet abonentlari, 2024, ming birlik**	**Aholi, 01.01.2025, ming kishi**	**100 nafar aholiga abonentlar, birlik**
Toshkent shahri	5 174,2	3 112,8	166,2
Navoiy viloyati	968,7	1 094,7	88,5
Farg‘ona viloyati	3 524,0	4 144,7	85,0
Qashqadaryo viloyati	2 291,0	3 639,3	63,0
Surxondaryo viloyati	1 799,1	2 945,5	61,1
O‘zbekiston Respublikasi	29 756,7	37 543,2	79,3

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Tanlangan besh hudud bo‘yicha 100 nafar aholiga internet abonentlari ko‘rsatkichining eng yuqori va eng past qiymatlari o‘rtasidagi nisbat 2,72 martani, variatsiya koeffitsiyenti 41,4 foizni tashkil etdi. Bu tafovut raqamli infratuzilma intensivligidagi farqni ko‘rsatadi, biroq moliyaviy inklyuziyaning o‘zi sifatida talqin qilinmaydi. Shu bois mazkur ko‘rsatkich RDFIning A komponenti uchun kirish imkoniyatini tavsiflovchi kontekstual indikator sifatida qo‘llanadi.

Shu munosabat bilan hududiy raqamli moliyaviy inklyuziyani baholash uchun muallif tomonidan hududiy raqamli moliyaviy inklyuziya indeksi (RDFI)ni joriy etish taklif qilinadi. Indeks bank raqobatbardoshligi yoki hududiy iqtisodiy natijalarni o‘z tarkibiga kiritmasdan, raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishning to‘rtta mustaqil jihatini qamrab oladi:

$$RDFI_r = 0{,}25 \cdot Z(A_r) + 0{,}30 \cdot Z(U_r) + 0{,}25 \cdot Z(T_r) + 0{,}20 \cdot Z(C_r)$$

bu yerda:

A_r, raqamli aloqa infratuzilmasi intensivligi; U_r, faol raqamli bank mijozlarining katta yoshli aholiga nisbati; T_r, raqamli operatsiyalar intensivligi; C_r,

[119] Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасининг демографик ҳолати, 2024 йил январь-декабрь. - Тошкент, 2025.; Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. Интернет тармоғига уланган абонентлар сони, жисмоний шахслар (ҳудудлар кесимида). - Тошкент, 2025.

[120] Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Банк тизимининг кредит ва депозитлар қолдиғи тўғрисида ҳудудлар кесимида 2025 йил 1 июнь ҳолатига маълумот. - Тошкент, 2025.

raqamli kanallarda rasmiylashtirilgan kredit va jamg‘arma mahsulotlaridan foydalanuvchilar ulushi; Z, normallashtirish operatori. Vaznlar pilot spetsifikatsiya uchun qabul qilingan bo‘lib, keyingi aprobatsiyada sezgirlik tahlili orqali tekshirilishi kerak.

RDFI komponentlarini qiyoslashda pilot bosqichda min-max normallashtirishdan foydalanish taklif etiladi: $Z(X_{rt}) = (X_{rt} - \min X) / (\max X - \min X)$. Panel tahlilda yillik minimum va maksimumlarni alohida qayta hisoblash vaqt bo‘yicha real siljishlarni yashirishi mumkin, shu sababli 2020-2025 yillar uchun umumiy chegaralar yoki etalon qiymatlar maqsadga muvofiq. Vaznlar esa muqobil vaznlar bilan sezgirlik tahlilida tekshirilishi kerak.

RDFI raqamli xizmatning mavjudligini emas, undan amalda foydalanishni o‘lchaydi. Shu sababli mobil ilova yoki masofaviy identifikatsiyaning mavjudligi indeksga avtomatik yuqori ball bermaydi. Faol mijozlar, raqamli tranzaksiyalar va raqamli mahsulotlar bo‘yicha bir xil ta’rifdagi hududiy ma’lumotlar talab etiladi, e’lon qilinmagan qiymat nol deb qabul qilinmaydi.

RDFI hududiy raqobatbardoshlik natijalarini o‘z tarkibiga kiritmaydi. Keyingi tadqiqotlarda u mustaqil tushuntiruvchi ko‘rsatkich, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, kichik biznes zichligi, eksport yoki bandlik kabi natijalar esa bog‘liq o‘zgaruvchilar sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Bu mexanik korrelyatsiya xavfini kamaytiradi.

Taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo‘ladi: raqamli kirish imkoniyati, amaldagi foydalanish intensivligi va raqamli mahsulotlardan foydalanish natijalari A, U, T va C komponentlari orqali alohida baholanadi; banklar kesimidagi ro‘yxatdan o‘tgan hisob yozuvlari hududiy inklyuziyaga tenglashtirilmaydi; hududiy iqtisodiy natijalar RDFI tarkibiga kiritilmaydi. Bu keyingi ekonometrik baholashda mexanik korrelyatsiya xavfini kamaytiradi.

Keyingi bosqichda $Y_{rt} = \alpha + \beta \cdot RDFI_{r,t-1} + \gamma' X_{rt} + \mu_r + \lambda_t + \varepsilon_{rt}$ panel modeli orqali RDFIning aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, kichik biznes zichligi, bandlik yoki eksport faolligi bilan bog‘liqligini tekshirish taklif etiladi. $\beta > 0$ tekshiriladigan gipoteza bo‘lib, natija faqat panel ma’lumotlar asosida statistik baholanishi lozim.

Birinchidan, Markaziy bank va tijorat banklari hududlar kesimida faol raqamli mijozlar, raqamli tranzaksiyalar, mijozlarni masofadan ro‘yxatdan o‘tkazish va identifikatsiyalash hamda raqamli kredit va depozit mahsulotlaridan foydalanuvchilarni yagona ta’rifda choraklik e’lon qilish standartini joriy etishi zarur.

Ikkinchidan, banklarning hududiy raqamli strategiyasida RDFIning A, U, T va C komponentlari past bo‘lgan tumanlar uchun masofaviy identifikatsiya, agentlik nuqtalari va soddalashtirilgan raqamli mahsulotlarni ustuvor joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, hududiy asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) tizimida ro‘yxatdan o‘tganlar soni bilan cheklanmasdan, faollik, operatsiya intensivligi va raqamli mahsulot konversiyasini hisobga olish, kiberxavfsizlik va raqamli moliyaviy savodxonlik choralarini bir vaqtda amalga oshirish taklif etiladi.

To‘rtinchidan, RDFI va hududiy raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi munosabatni panel ma’lumotlar asosida ekonometrik tekshirish, korrelyatsion natijalarni sabab-oqibat munosabati sifatida talqin qilmaslik zarur.

Beshinchidan, RDFI komponentlari bo‘yicha hududlarni “infratuzilma cheklovi”, “foydalanish cheklovi”, “mahsulot chuqurligi cheklovi” va “raqamli yetakchi” guruhlariga ajratish taklif etiladi. Bu yondashuv zaif komponentlarni aniqlab, bank resurslarini hududiy “tor bo‘g‘in”ga yo‘naltirishga imkon beradi.

Xulosa qilib, raqamli bank xizmatlarining milliy miqyosda o‘sishi hududiy moliyaviy inklyuziya uchun zarur texnologik asos yaratmoqda, ammo hududlar o‘rtasidagi farqlarni alohida o‘lchash talab etiladi. Taklif etilgan RDFI indeksi ushbu nomutanosibliklarni aniqlash va maqsadli bank strategiyalarini shakllantirish uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Khera P., Ng S.Y., Ogawa S., Sahay R. Is Digital Financial Inclusion Unlocking Growth? // IMF Working Paper. - 2021. - No. 21/167.

2. World Bank. How Countries Can Expand Access to Digital Financial Services. - Washington, DC: World Bank, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025 yil uchun yillik hisobot. - Toshkent, 2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasining demografik holati, 2024 yil yanvar-dekabr. - Toshkent, 2025.

5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida). - Toshkent, 2025.

6. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank tizimining kredit va depozitlar qoldig‘i to‘g‘risida hududlar kesimida 2025 yil 1 iyun holatiga ma’lumot. - Toshkent, 2025.

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI CHAKANA XIZMATLAR RIVOJLANISHINING HUDUDIY NOTEKISLIGI VA UNI BARTARAF ETISH YO‘NALISHLARI

Axmedov G‘ofurjon G‘ulomjonovich
Andijon davlat texnika instituti
PhD mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda tijorat banklarida raqamli chakana xizmatlar rivojlanishining hududiy notekisligi kirish, taklif va foydalanish o‘lchovlarida tadqiq etilgan. Markaziy bank va xalqaro tashkilotlar ma’lumotlari asosida to‘lov infratuzilmasining poytaxtda markazlashuvi hamda mavjud statistika noyob mijozlar o‘rniga ulanishlar sonini aks ettirishi aniqlangan. Hududlar kesimida faol raqamli mijozlar ulushi ko‘rsatkichi va hududiy notekislik koeffitsientini joriy etish, filial tarmog‘ini raqamli faollik darajasiga qarab tabaqalashtirish hamda past faollikka ega hududlarda filiallarni MyID orqali raqamli kanalga o‘tkazish nuqtasiga aylantirish taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli chakana xizmatlar, hududiy notekislik, raqamli tafovut, faol raqamli mijozlar ulushi, variatsiya koeffitsienti, σ-konvergensiya, masofaviy identifikatsiya, tijorat banklari.

O‘zbekistonda bank tizimini isloh qilishning ustuvor vazifalaridan biri aholi va kichik biznes uchun masofaviy xizmatlarni keng joriy etish hamda «raqamli banking» tamoyillariga asoslangan yangi biznes-modellarni rivojlantirishdan iborat. Bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda sezilarli natijalarga erishildi. Biroq, fikrimizcha, raqamli chakana xizmatlar rivojlanishini baholashda uning hududiy jihati yetarlicha e’tiborga olinmayapti. Holbuki, hududlar raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan aholi va tadbirkorlarning moliyaviy xizmatlardan filialga tashrifsiz, arzon va tezkor foydalana olishiga bog‘liq.

Raqamli xizmatlardan foydalanishdagi hududiy farqlar xalqaro miqyosda ham qayd etilmoqda. Xalqaro elektr aloqa ittifoqi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yilda dunyo bo‘yicha shahar aholisining 83 foizi internetdan foydalangani holda, qishloq aholisida bu ko‘rsatkich atigi 48 foizni tashkil etgan[121]. Bunday tafovut raqamli chakana bank xizmatlari uchun ham muhim, chunki ular internet va mobil qurilmaga bo‘lgan imkoniyatga bevosita bog‘liq.

Ilmiy adabiyotda raqamli tafovut (digital divide) muammosi bosqichma-bosqich chuqurlashtirib o‘rganilgan. Dastlab u texnologiyaga kirish imkoniyatidagi farq sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik E.Hargittai uni foydalanish ko‘nikmalaridagi farqlar bilan to‘ldirgan[122], A.van Deursen va E.Helsper esa onlayn faollikdan olinadigan natijalardagi tafovutni uchinchi daraja sifatida ajratgan[123]. Fikrimizcha, ushbu yondashuvlar asosida raqamli chakana xizmatlar rivojlanishining hududiy notekisligini uch o‘lchovda, ya’ni kirish (internet, mobil qurilma, masofaviy identifikatsiya), taklif (banklar va to‘lov tashkilotlarining hududda xizmat ko‘rsatish salohiyati) hamda foydalanish (raqamli kanallar orqali amalda operatsiya bajarish) o‘lchovlarida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Chunki birinchi ikki o‘lchovdagi tenglik uchinchi o‘lchovdagi tenglikni o‘z-o‘zidan ta’minlamaydi.

Mamlakatimizda raqamli moliyaviy infratuzilmaning hududiy joylashuvida ham kuchli markazlashuv kuzatilmoqda. Markaziy bank reestri ma’lumotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 2026 yil 1 yanvar holatiga ro‘yxatga olingan 46 ta to‘lov tashkilotidan 43 tasi Toshkent shahrida, qolgan uchtasi esa Samarqand, Andijon va Xorazm viloyatlarida joylashgan[124]. To‘lov tashkilotining yuridik manzili uning xizmat ko‘rsatish hududini to‘liq belgilamaydi, albatta. Ammo bu holat raqamli moliyaviy xizmatlarni yaratish salohiyati, ya’ni innovatsiyalar, malakali kadrlar va investitsiyalar poytaxtda to‘planganini anglatadi. Nisbiy ifodada to‘lov tashkilotlarining 93,5 foizi poytaxtga to‘g‘ri kelishi taklif o‘lchovida notekislik yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi.

---

[121] International Telecommunication Union. Measuring digital development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU, 2024

[122] Hargittai E. Second-level digital divide: Differences in people’s online skills // First Monday. 2002. Vol. 7, №4.

[123] van Deursen A.J.A.M., Helsper E.J. The third-level digital divide: Who benefits most from being online? // Communication and Information Technologies Annual (Studies in Media and Communications). – 2015. – Vol. 10. – P. 29-52.

[124] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten, 2025. 6.7-jadval «To‘lov tashkilotlarining reestri»

Hududiy notekislikni baholashdagi asosiy muammo esa statistik ma’lumotlar bilan bog‘liq. Markaziy bank masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar, bank kartalari, to‘lov terminallari va bankomatlar sonini mamlakat bo‘yicha va banklar kesimida e’lon qiladi, lekin hududlar kesimida e’lon qilmaydi. Bundan tashqari, mavjud ko‘rsatkichlar noyob mijozlar sonini emas, balki ulanishlar sonini aks ettiradi. Xususan, 2026 yil 1 yanvar holatiga masofaviy xizmatlardan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 77,6 mln kishini tashkil etgan[125], holbuki mamlakat doimiy aholisi 2026 yil 1 iyul holatiga 38,5 mln kishiga teng bo‘lgan[126].

Bu ikki ko‘rsatkich nisbati 2,0 ga teng bo‘lib, mavjud statistika kirish o‘lchovini qisman aks ettirsa-da, foydalanish o‘lchovini o‘lchash imkonini bermaydi. Demak, mavjud statistika asosida qaysi hududda aholining qancha qismi raqamli bank xizmatlaridan amalda foydalanayotganini aniqlab bo‘lmaydi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda hududiy tafovutni kamaytirish uchun zarur infratuzilma asosan shakllangan. MyID biometrik identifikatsiya tizimi 19 mln dan ortiq foydalanuvchiga ega va unga 31 ta tijorat banki ulangan[127]. Prezidentning 2025 yil 27 noyabrdagi PQ-359-son qaroriga muvofiq, Markaziy bankning Tezkor to‘lovlar tizimida jismoniy shaxslar uchun o‘z bank hisobvaraqlari orqali bevosita o‘tkazmalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda[128]. Fikrimizcha, bunday sharoitda muammo infratuzilmaning mavjudligida emas, balki undan hududlarda qanchalik faol foydalanilayotganini o‘lchash va boshqarish mexanizmining yo‘qligida namoyon bo‘lmoqda.

Yuqoridagi tahlil asosida raqamli chakana xizmatlar rivojlanishidagi hududiy notekislikni bartaraf etish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, Markaziy bank statistikasiga hududlar kesimida faol raqamli mijozlar ulushi ko‘rsatkichini kiritish maqsadga muvofiq. Bu ko‘rsatkich oxirgi 30 kun davomida kamida bitta moliyaviy operatsiyani raqamli kanal orqali bajargan jismoniy shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor mijozlar sonining hududdagi shu toifadagi mijozlar umumiy soniga nisbati sifatida hisoblanadi. Ko‘rsatkich 40 foizgacha bo‘lgan hududlarda past, 40 foizdan 70 foizgacha bo‘lganda o‘rta, 70 foizdan yuqori bo‘lganda esa yuqori raqamli faollik darajasini belgilash taklif etiladi. Mijozlar identifikatori asosida hisoblanganda, bu ko‘rsatkich ulanishlar sonidan farqli ravishda noyob mijozlarni aks ettiradi.

Taklif etilayotgan ko‘rsatkich va hududiy notekislik darajasi quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$FRMU_r = M_r^f / M_r \times 100;$$

$$V = \sigma_{FRMU} / \bar{FRMU} \times 100,$$

bu yerda $FRMU_r$ – r-hududdagi faol raqamli mijozlar ulushi, foiz; M_r^f – r-hududda oxirgi 30 kun davomida kamida bitta moliyaviy operatsiyani raqamli kanal orqali bajargan noyob mijozlar soni; M_r – r-hududdagi jismoniy shaxs va yakka

[125] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar (2026 yil 1 yanvar holatiga). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026

[126] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. 2026 yil 1 iyul holatiga doimiy aholi soni.

[127] UZINFOCOM. MyID: unique tool for easy and secure biometric facial identification. – Tashkent: UZINFOCOM.

[128] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2025 yil 27 noyabrdagi PQ-359-son qarori. – Toshkent, 2025.

tartibdagi tadbirkor mijozlar umumiy soni; σ_{FRMU} va $FRM\bar{U}$ – 14 ta hudud bo‘yicha ko‘rsatkichning o‘rtacha kvadratik chetlanishi va o‘rtacha qiymati; V – hududiy notekislik koeffitsienti, foiz.

V koeffitsientining vaqt bo‘yicha pasayishi hududlar o‘rtasida raqamli faollik darajasining yaqinlashuvini, ya’ni iqtisodiy o‘sish nazariyasidagi σ-konvergensiyani anglatadi[129]. Fikrimizcha, bu koeffitsient hududiy siyosat samaradorligining yakuniy mezoni bo‘la oladi, chunki u o‘rtacha ko‘rsatkich o‘sgan, biroq hududlar o‘rtasidagi farq kengaygan holatni ham aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, banklarning hududiy filial tarmog‘ini raqamli faollik darajasiga qarab tabaqalashtirish zarur. Faol raqamli mijozlar ulushi 70 foizdan yuqori bo‘lgan hududlarda kassali filiallarni mijozlarni raqamli xizmatlarga o‘rgatish va murakkab mahsulotlar bo‘yicha maslahat berishga ixtisoslashgan raqamli maslahat markazlariga bosqichma-bosqich aylantirish, ko‘rsatkich 40 foizdan past bo‘lgan hududlarda esa filial tarmog‘ini saqlab qolish taklif etiladi. Bu yondashuv raqamlashtirish natijasida filiallar yopilishi hudud aholisining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini qisqartirishining oldini oladi.

Uchinchidan, past raqamli faollikka ega hududlarda bank filiallarini MyID orqali masofaviy identifikatsiyadan o‘tish va mobil ilovani o‘rnatishda mijozlarga bevosita ko‘maklashish nuqtasiga aylantirish maqsadga muvofiq. Bunda filial faoliyati samaradorligini kassadagi operatsiyalar soni bilan emas, balki raqamli kanalga o‘tkazilgan va keyinchalik faol bo‘lib qolgan mijozlar soni bilan baholash taklif etiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli chakana xizmatlar rivojlanishining hududiy notekisligi faqat texnik infratuzilma masalasi emas, balki o‘lchash va boshqarish masalasidir. Hududlar kesimida faol raqamli mijozlar ko‘rsatkichining joriy etilishi tafovutlarni aniqlash, banklarning hududiy siyosatini asoslash hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali hududlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Tezisning ilmiy yangiligi hududiy notekislikni kirish, taklif va foydalanish o‘lchovlarida tizimlashtirish hamda uni ulanishlar soni o‘rniga noyob faol mijozlar ulushi va uning hududlararo variatsiya koeffitsienti orqali o‘lchash usuli taklif etilganida namoyon bo‘ladi. Chegaraviy qiymatlar esa tadqiqotning keyingi bosqichida empirik kalibrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son Farmoni. – Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2025 yil 27 noyabrdagi PQ-359-son qarori. – Toshkent, 2025.

3. Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2004.

[129] Barro R.J., Sala-i-Martin X. Economic Growth. 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2004.

4. Hargittai E. Second-level digital divide: Differences in people's online skills // First Monday. – 2002. – Vol. 7, №4.
5. International Telecommunication Union. Measuring digital development: Facts and Figures 2024. – Geneva: ITU, 2024.
6. van Deursen A.J.A.M., Helsper E.J. The third-level digital divide: Who benefits most from being online? // Communication and Information Technologies Annual (Studies in Media and Communications). – 2015. – Vol. 10. – P. 29-52.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar (2026 yil 1 yanvar holatiga). – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten, 2025 yil. 6.7-jadval «To'lov tashkilotlarining reestri».
9. UZINFOCOM. MyID: unique tool for easy and secure biometric facial identification. – Tashkent: UZINFOCOM.

HUDUDLARDA RAQAMLI CHAKANA BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI KENGAYTIRISH

Axmedov G'ofurjon G'ulomjonovich
Andijon davlat texnika instituti
PhD mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tezisda hududlarda raqamli chakana bank xizmatlaridan foydalanishni baholashda internet abonentlari va operatsiyalar hajmini faol mijozlar bilan tenglashtirishning uslubiy cheklovlari ochib beriladi. 2025 yilgi rasmiy ma'lumotlar asosida xizmatga kirish sharoiti va amaliy foydalanish farqlanadi. Hududiy faol qamrovni xizmatga kirish hamda faol foydalanish ulushlariga ajratish tartibi taklif etiladi. Mobil ilova orqali omonat ochish misolida jarayon bosqichlarini kuzatish, hududiy sinov natijasini qiyoslash va sof qo'shimcha iqtisodiy natijani baholash yo'llari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: raqamli chakana bank xizmati, hududiy qamrov, faol mijoz, xizmatga kirish ulushi, mobil omonat, farqlar farqi usuli, iqtisodiy samaradorlik.

Raqamli chakana bank xizmati aholiga to'lovni amalga oshirish, omonat ochish, kreditga ariza berish va hisobvaraqni boshqarish imkonini masofadan taqdim etadi. Xizmatdan hududlar kesimida foydalanishni kengaytirish uchun bank faqat ilovani taklif etishi yetarli emas. Mijozning internetga ulanishi, o'zini masofadan identifikatsiya qilishi, xizmat shartlarini tushunishi va operatsiyani muvaffaqiyatli yakunlashi ham ahamiyatga ega. Ushbu bosqichlardan qaysi biri qiyinchilik tug'dirayotganini ajratmasdan turib barcha hududlarga bir xil chora qo'llash natija bermaydi.

Markaziy bank hisobotiga ko'ra, 2025 yilda jismoniy shaxslar bank mobil ilovalari orqali 645,6 trln so'mlik onlayn operatsiyalarni bajargan. Shundan 99,3 trln so'mi onlayn depozit operatsiyalari, 38,6 trln so'mi onlayn mikroqarzlar bilan bog'liq[130]. Bu raqamlar bank mahsulotlari raqamli kanalga o'tayotganini ko'rsatadi.

[130] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025 yil uchun hisoboti. -Toshkent, 2026. -50-51b.

Lekin respublika bo‘yicha operatsiyalar summasi qaysi hudud aholisi xizmatdan muntazam foydalanayotgani yoki qancha noyob mijoz xizmatga kirish imkoniga ega ekanini ochib bermaydi.

Milliy statistika qo‘mitasining 2025 yilgi ma’lumotiga ko‘ra, internet tarmog‘iga ulangan jismoniy shaxs abonentlari Navoiy viloyatida har 100 nafar o‘rtacha doimiy aholiga 88,3 ta, Surxondaryo viloyatida 62,5 ta to‘g‘ri kelgan. Tafovut 25,8 abonentni tashkil etadi[131]. Bu ko‘rsatkich hududlarning raqamli xizmatga kirish sharoiti bir xil emasligini ifodalaydi. Ammo «abonent» noyob shaxsga, internet abonenti esa mobil bankning faol mijoziga teng emas. Shu sababli keltirilgan farqni raqamli bank xizmati qamrovidagi aniq tafovut yoki uning sababi sifatida talqin qilish mumkin emas.

Ochiq to‘lov statistikasida kartalar va terminallar ko‘pincha banklar kesimida, internet abonentlari esa hududlar kesimida beriladi. Ularning taqsimot birligi va hisobot sanasi turlicha bo‘lsa, viloyat bo‘yicha raqamli chakana xizmatdan foydalanish koeffitsientini bevosita hisoblab bo‘lmaydi. Bank karta chiqargan manzil ham mijozning haqiqiy yashash yoki operatsiya bajarish hududi bilan doim mos kelmaydi.

Har bir bank uchun xizmat turi, davr va mijozning hududga biriktirish qoidasi avvaldan belgilanishi lozim. Masalan, mobil ilova orqali omonat ochish bo‘yicha mijozning tasdiqlangan yashash hududi va yakunlangan shartnoma sanasi olinadi. So‘ng uch bosqich alohida o‘lchanadi. Xizmatga kirishi mumkin bo‘lgan shaxslar, mazkur xizmatdan davrda kamida bir marta foydalangan noyob shaxslar hamda muvaffaqiyatli yakunlangan operatsiyalar. Ilovaga ro‘yxatdan o‘tishni omonat ochish bilan bir xil natija deb olish xato bo‘ladi.

Hududda faol foydalanish ulushi $F_i = U_i / E_i \times 100$ ko‘rinishida taklif etiladi. Bunda, U_i, muayyan mahsulot bo‘yicha davrda kamida bitta operatsiyani yakunlagan, i hududga biriktirilgan noyob mijozlar; E_i, shu mahsulotdan raqamli kanal orqali foydalanish huquqiga ega bo‘lgan, i hududga biriktirilgan noyob mijozlardir.

Maxrajni faqat ilovaga kirganlar bilan cheklash xizmatga umuman kira olmagan mijozlarni yashiradi. Shuning uchun barcha chakana mijozlar soni va E_i alohida e’lon qilinadi. Operatsiyaning yakunlanish ulushi esa muvaffaqiyatli yakunlangan arizalar yoki to‘lovlarning boshlangan, xizmat shartlariga mos operatsiyalarga nisbati bilan o‘lchanadi. Rad etish sababi, texnik uzilish va mijozning ixtiyoriy bekor qilishi alohida qayd etiladi. Bu ikki ko‘rsatkich ham bankning ichki identifikatorlangan ma’lumotlarini talab qiladi. Markaziy bankning milliy operatsiyalar hajmidan ularni hisoblab bo‘lmaydi[132]. Bir shaxs bir nechta bankda xizmat olsa, banklar bo‘yicha noyob mijozlar sonini oddiy qo‘shish ham takroriy hisobga olib keladi.

Mazkur yondashuv hududiy qamrovning tarkibini ham aniqlashga imkon beradi. C_i hududdagi bankning jami chakana mijozlari soni deb olinsa, xizmatga kirish ulushi $R_i = E_i / C_i \times 100$, umumiy faol qamrov esa $Q_i = U_i / C_i \times 100$ bo‘ladi.

---

[131] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida).

[132] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025 yil uchun hisoboti. - Toshkent, 2026. -50-51

Shunda $Q_i = R_i \times F_i / 100$ tengligi bajariladi. R_i pastligi mahsulotga kirish huquqi yoki kanalga ulanish doirasi torligini, F_i pastligi esa huquqli mijozlarning mahsulotdan kam foydalanayotganini ko‘rsatadi. Tenglik hisoblash ayniyatidir; u hududiy farqning sababini o‘zi aniqlamaydi.

Hisoblash tartibida mijozning doimiy yashash manzili bilan operatsiya bajarilgan joy ham farqlanadi. Masalan, Andijonda yashovchi shaxs Toshkentda mobil to‘lov qilsa, hududiy faol mijozlar hisobida u bir marta, tasdiqlangan yashash hududi bo‘yicha qayd etiladi. Savdo nuqtasiga tegishli to‘lov infratuzilmasini o‘rganishda esa to‘lov qabul qilingan joy alohida o‘lchov birligi bo‘ladi. Bu ikki vazifani bitta hududiy qatorga birlashtirish geografik taqsimotni o‘zgartiradi.

Ma’lumot yig‘ishni dastlab bitta mahsulotda sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq. Bank uch oy davomida mobil ilova orqali omonat ochish jarayoni uchun ariza boshlanishi, shaxsni tekshirish, shartlar tasdig‘i va shartnoma tuzilishini alohida vaqt belgisi bilan qayd etadi. Shunda faol mijozlar ulushidan tashqari har bir bosqichdagi yakunlash ulushi ham hisoblanadi. Arizalar ko‘p, tuzilgan shartnomalar kam bo‘lsa, to‘siq qaysi bosqichda yuzaga kelgani aniqlanadi. Uning sababi esa texnik jurnallar va mijoz murojaatlari orqali tekshiriladi.

Hududlarning aholi soni va bank mijozlari tarkibi farqlangani uchun faqat mutlaq sonlarni qiyoslash yetarli emas. Har bir ulushning maxraji va davri bir xil qoida bilan belgilanadi. Mahsulotga qo‘yilgan talablar yoki bankning xizmat ko‘rsatish tarmog‘i keskin o‘zgargan davrlar izohlanadi. Mazkur tartibga rioya qilinganda hududlar o‘rtasidagi farq tadqiqot savolini aniqlashga yordam beradi, lekin o‘z-o‘zidan muayyan choraning ta’sirini ko‘rsatmaydi.

Taklifning natijasini empirik tekshirishda bitta mahsulot va bir xil hisoblash davri tanlanadi. Masalan, identifikatsiya jarayoni faqat ayrim hududlarda soddalashtirilsa, ular bilan mahsulot shartlari o‘xshash boshqa hududlarning F_i va operatsiyani yakunlash ulushi islohotdan oldin hamda keyin qiyoslanadi. Farqlar farqi usulida ta’sirning dastlabki bahosi tajriba hududidagi o‘zgarishdan taqqoslash hududidagi o‘zgarishni ayirish orqali olinadi. Bunday baho uchun oldingi dinamikalarning qiyoslanishi, bir paytda yuz bergan tarif yoki marketing o‘zgarishlarining qayd etilishi va tanlovning asoslanishi zarur. Bu shartlar bajarilmasa, natija faqat kuzatilgan bog‘liqlik sifatida talqin qilinadi.

Xizmatni kengaytirishning iqtisodiy natijasi ham alohida tekshiriladi. Sinov hududida yangi faol mijozlardan olingan qo‘shimcha daromaddan mahsulotga tegishli qo‘shimcha xarajat va tasdiqlangan operatsion zarar ayriladi. Shu tarzda hisoblangan sof qo‘shimcha natija F_i va yakunlash ulushi bilan bir davrda qiyoslanadi. F_i o‘sgani holda sof natija manfiy bo‘lsa, qamrovning ortishi bank uchun iqtisodiy samaradorlik oshganini bildirmaydi. Mahsulot xarajatlari hududlar bo‘yicha ajratilmasa, bu mezon bo‘yicha sonli xulosa chiqarilmaydi.

Birinchidan, raqamli xizmatni hududlarda kengaytirishni internet abonentlari, bank kartalari yoki operatsiyalar summasining o‘sishi bilan cheklab baholash asosli emas. Ular kirish sharoiti va bozor ko‘lamini tasvirlaydi; faol foydalanish uchun mahsulot va noyob mijoz bo‘yicha ma’lumot kerak.

Ikkinchidan, banklar mobil to‘lov, omonat va mikroqarzni alohida mahsulot sifatida kuzatib, hududlar bo‘yicha huquqli mijoz, faol mijoz, boshlangan va

yakunlangan operatsiyalarni bir xil kalendar davrda hisoblashi maqsadga muvofiq. Hudud mijozning tasdiqlangan yashash manziliga ko‘ra belgilanadi; operatsiya geolokatsiyasi va karta berilgan filial manzili bu ko‘rsatkichga aralashtirilmaydi. Hisobotda agregat ma’lumot berilib, shaxsiy ma’lumotlar ochiqlanmaydi.

Uchinchidan, banklar xizmatga kirish mumkin, ammo faollik past hududlarda ro‘yxatdan o‘tish, identifikatsiya va mahsulot shartlarini tushunishdagi to‘siqlarni o‘rganishi zarur. Faollik yuqori, yakunlash ulushi past hududlarda esa uzilish sabablari va to‘lov zanjiri tekshiriladi. Ilova orqali omonat ochishga oid uch oylik sinovda ushbu ikki ko‘rsatkich sinovdan oldingi davr bilan qiyoslanishi mumkin. Bunday qiyos o‘zgarishni ko‘rsatadi, ammo nazorat guruhi va boshqa omillar hisobga olinmasdan sababiy ta’sirni isbotlamaydi.

Taklif etilgan tartib hududlar bo‘yicha qaysi bosqichda mijoz yo‘qotilayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotda banklarning ichki ma’lumotlari asosida mazkur ko‘rsatkichlar hisoblanib, hududiy sharoit va bankning xizmat ko‘rsatish natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tekshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025 yil uchun hisoboti. - Toshkent, 2026. - 50-51-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Internet tarmog‘iga ulangan abonentlar soni, jismoniy shaxslar (hududlar kesimida). 2025 yil.

ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИДА АГРОСАНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ РАҚАМЛИ МЕХАНИЗМЛАРИ

Рахмонова Сарвиноз Фахриддин қизи
ТДИУ ҳузуридаги “Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари” илмий тадқиқот маркази докторанти

Мазкур тезисда Ўзбекистон ҳудудларида агросаноат ишлаб чиқариши рақобатбардошлигини оширишнинг рақамли механизмлари тадқиқ этилган. Ҳудудлар кесимида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришининг 2023–2025 йиллардаги динамикаси таҳлил қилиниб, рақамли технологияларни жорий этишнинг иқтисодий аҳамияти асосланган. Шунингдек, рақамли мониторинг, аниқ деҳқончилик, электрон савдо ва агрологистика технологияларининг ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги ҳамда ишлаб чиқариш рақобатбардошлигини оширишдаги имкониятлари ёритилган. Тадқиқот натижасида ҳудудларнинг ишлаб чиқариш ихтисослашуви, ресурс салоҳияти ва технологик имкониятларини ҳисобга олган ҳолда рақамлаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

Жаҳон иқтисодиётида рақамли трансформация жараёнларининг жадаллашуви агросаноат ишлаб чиқаришининг технологик асосларини такомиллаштириш ва унинг рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим

омилларидан бирига айланмоқда. Айниқса, аграр ишлаб чиқариш, маҳсулотларни қайта ишлаш, сақлаш, ташиш ва сотиш жараёнларига рақамли технологияларни интеграциялаштириш ресурслардан самарали фойдаланиш ҳамда қўшилган қиймат яратиш имкониятларини кенгайтиради.

Ўзбекистонда агросаноат соҳасини рақамлаштиришнинг институционал асослари «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегияси билан боғлиқ. Унда иқтисодиёт тармоқлари ва давлат бошқарувини рақамли ривожлантириш, ахборот-коммуникация инфратузилмасини такомиллаштириш ҳамда рақамли технологияларни кенг жорий этиш устувор вазифалар сифатида белгиланган[133]

Шу билан бирга, мамлакат ҳудудларининг табиий-иқлим шароитлари, ишлаб чиқариш ихтисослашуви, ресурслар билан таъминланганлик даражаси ва бозор инфратузилмаси ўртасидаги фарқлар рақамли механизмларни ҳудудий ёндашув асосида жорий этиш заруратини белгилайди.

2024 йил 20 февралда FAO Ўзбекистонда қишлоқ хўжалигини рақамлаштириш бўйича Миллий ҳаракатлар дастурини тақдим этган. Унда агроозиқ-овқат тизимини замонавий, рақобатбардош ва барқарор тизимга трансформация қилиш йўналишлари белгиланган[134].

1-жадвал

Ўзбекистон ҳудудларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми, 2023–2025 йиллар (амалдаги нархларда, млрд сўм)

Ҳудудлар	2023 йил	2024 йил	2025 йил
Қорақалпоғистон Респ.	15,688,4	17 132,2	19 932,0
Андижон	42 009	45 589,3	50 263,3
Бухоро	38 157	41 989,2	47 116,6
Жиззах	27 156,7	29 166,6	34 823,4
Қашқадарё	39 081,4	43 587	49 950,0
Навоий	18 680,1	20 769,6	23 574,3
Наманган	30 936,6	33 770	37 620,5
Самарқанд	49 496,5	55 759,2	57 963,3
Сурхондарё	34 110,2	37 118	41 023,8
Сирдарё	13 302,5	14 404,5	17 263,2
Тошкент вилояти	40 003,0	43 206,7	48 794,1
Фарғона	39 096,4	43 616,4	47 840,8
Хоразм	26 473,2	28 964,5	32 545,8
Ўзбекистон Респ.	414 190,6	455 074	508 711,1

Манба: Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси SIAT очиқ маълумотлар базаси асосида муаллиф томонидан тузилган. https://siat.stat.uz/data/2945/?lang=uz.*

Жадвал маълумотларига кўра, 2025 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми 508 711,1 млрд сўмни ташкил этган. Энг катта номинал ишлаб чиқариш ҳажмлари Самарқанд, Андижон ва Қашқадарё вилоятларида қайд этилган.

[133] https://www.lex.uz/uz/acts/-5030957?ONDATE=12.03.2026+00
[134] https://www.fao.org/countryprofiles/news-archive/detail-news/zh/c/1677569/

Бироқ ушбу кўрсаткичлар рақобатбардошликнинг тўлиқ баҳоси ҳисобланмайди. Чунки улар ишлаб чиқаришнинг ялпи кўламини акс эттиради, меҳнат унумдорлиги, ресурслар сарфи, маҳсулот таннархи, экспорт самарадорлиги ва рақамлаштириш даражасини бевосита ифодаламайди. Шунингдек, жорий нархлардаги ўзгаришни реал ишлаб чиқариш ўсиши билан тенглаштириш мумкин эмас.

Шундан келиб чиқиб, агросаноат рақобатбардошлигини баҳолашда анъанавий ишлаб чиқариш кўрсаткичларини рақамли ривожланиш индикаторлари билан уйғунлаштириш мақсадга мувофиқ.

Агросаноат ишлаб чиқаришининг рақобатбардошлиги фақат ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ҳажми билан эмас, балки ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги, маҳсулот сифати, таннарх, қўшилган қиймат ва бозор талабларига мослашиш қобилияти билан ҳам белгиланади.

Рақамли технологиялар мазкур кўрсаткичларни яхшилашнинг ташкилий ва технологик воситаси сифатида қаралиши мумкин. Жаҳон банкининг Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини модернизация қилиш лойиҳасида ҳам инновациялар, тадқиқот ва ишланмалар, ресурсларни бошқариш ҳамда фермерлар томонидан замонавий технологияларни ўзлаштириш муҳим йўналишлар сифатида кўрсатилган[135].

2-жадвал

Агросаноат ишлаб чиқариши рақобатбардошлигини оширишнинг рақамли механизмлари[136]

Рақамли механизм	**Амалга ошириш воситалари**	**Кутиладиган иқтисодий натижа**
Рақамли ишлаб чиқариш мониторинги	IoT сенсорлар, GPS, масофавий кузатув	Ресурслар сарфини назорат қилиш, йўқотишларни камайтириш
Аниқ деҳқончилик	GIS, дронлар, сунъий йўлдош маълумотлари	Ер, сув ва ўғитлардан мақсадли фойдаланиш
Рақамли агрологистика	GPS кузатув, электрон омбор тизими, маршрутларни оптималлаштириш	Ташиш ва сақлаш харажатларини қисқартириш
Электрон савдо	B2B платформалар, электрон шартномалар	Сотиш бозорларини кенгайтириш
Рақамли сифат назорати	QR-кодлар, электрон сертификатлаш, маҳсулотни кузатиб бориш	Маҳсулот келиб чиқиши ва сифати ҳақида ахборот шаффофлигини ошириш
Рақамли бошқарув	ERP, CRM, аналитик платформалар	Бошқарув қарорларининг тезкорлиги ва асосланганлигини ошириш

Манба: муаллиф томонидан рақамли агротехнологиялар ва агросаноат ишлаб чиқаришини бошқаришга оид илмий-услубий ёндашувлар асосида ишлаб чиқилган.

[135] Agriculture and Food Global Practice Europe And Central Asia Region

[136] Манба: муаллиф томонидан FAO ва Жаҳон банкининг аграр секторни рақамлаштириш ҳамда модернизация қилишга оид материаллари асосида ишлаб чиқилган концептуал таклифлар.

2-жадвал таҳлили шуни кўрсатадики, рақамли технологияларни агросаноат ишлаб чиқаришига жорий этиш ресурслардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқариш харажатларини қисқартириш ва маҳсулотларнинг бозорга чиқиш имкониятларини кенгайтиришга хизмат қилиши мумкин.

Бунда ҳудудларнинг табиий-иқлим шароитлари, ишлаб чиқариш ихтисослашуви ва инфратузилма имкониятларини ҳисобга олиш муҳим аҳамиятга эга. Шу боис агросаноат рақобатбардошлигини оширишда рақамли мониторинг, аниқ деҳқончилик, электрон савдо ва логистика тизимларини ўзаро интеграциялаштириш ҳамда уларни ҳудудий хусусиятларга мослаштириш мақсадга мувофиқ.

Тадқиқот натижалари Ўзбекистон ҳудудларида агросаноат ишлаб чиқариши рақобатбардошлигини оширишда рақамли трансформация жараёнларини ҳудудларнинг иқтисодий салоҳияти, ишлаб чиқариш ихтисослашуви ва ресурс имкониятлари билан уйғунлаштириш зарурлигини кўрсатади.

Ҳудудлар ўртасидаги ишлаб чиқариш кўламидаги тафовутлар рақамли ривожланишнинг устувор йўналишларини белгилашда табақалаштирилган ёндашувни қўллаш мақсадга мувофиқлигини асослайди.

Шундан келиб чиқиб, агросаноат корхоналарининг рақамли тайёргарлик даражасини баҳолаш, технологик эҳтиёжларини аниқлаш ва рақамлаштиришга йўналтириладиган инвестицияларни иқтисодий самарадорлик мезонлари асосида устуворлаштиришга қаратилган ҳудудий бошқарув механизмини шакллантириш таклиф этилади.

Мазкур механизм доирасида рақамли технологияларни жорий этиш натижадорлигини меҳнат унумдорлиги, маҳсулот таннархи, қўшилган қиймат ва ресурслар самарадорлиги кўрсаткичлари асосида баҳолаш мақсадга мувофиқ.

Таклиф этилаётган ёндашувнинг илмий-амалий аҳамияти агросаноат ишлаб чиқаришини рақамлаштириш бўйича қарорларни ҳудудий эҳтиёжлар ва иқтисодий натижадорлик мезонлари билан боғлашга қаратилганлигида намоён бўлади. Ушбу ёндашув ҳудудий ривожланиш дастурларини ишлаб чиқиш, технологик инвестицияларни мақсадли йўналтириш ҳамда агросаноат корхоналарининг узоқ муддатли рақобат устунликларини шакллантириш учун услубий асос бўлиб хизмат қилиши мумкин.

Тадқиқотнинг илмий-амалий аҳамияти агросаноат корхоналарининг рақамли тайёргарлиги, ҳудудий ресурс салоҳияти ва технологик инвестициялар самарадорлигини ўзаро боғлиқ ҳолда баҳолашга асосланган ташкилий-иқтисодий ёндашувни таклиф этишдан иборат. Мазкур ёндашув ҳудудий агросаноатни рақамлаштиришнинг устувор йўналишларини белгилаш ва рақобат устунликларини шакллантиришга қаратилган бошқарув қарорларини илмий асослаш имконини беради.

O’ZBEKISTONDA SOLIQ MA’MURCHILIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI

Ortiqova Go’zalxon Akmal qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, magistranti
G’afforov Kamronbek Shovkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,magistranti


Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi soliq ma’murchiligi tizimini yanada takomillashtirishni talabini oshirmoqda. Barqaror soliq tushumlari yig‘iluvchanligini oshirish, soliq to‘lovchilarning qonunchilik talablariga rioya etish darajasini oshirish, xufiyona iqtisodiyot hajmini qisqartirish va soliq nazoratini samarali tashkil etishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

Sun’iy intellekt katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, iqtisodiy jarayonlardagi qonuniyatlarni aniqlash, soliq xavflarini prognozlash va inson omili bilan bog‘liq ayrim xatolarni kamaytirish imkoniyatiga ega. Shu bois, ushbu texnologiyalarni soliq ma’murchiligiga integratsiya qilish nafaqat soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish, balki soliq tizimining fiskal samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida o’z aksini topmoqda.

O‘zbekistonda soliq ma’murchiligini raqamlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi[137] davlat boshqaruvi va iqtisodiyot tarmoqlarini raqamli transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berildi. Shuningdek, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi[138] tasdiqlanib, ushbu texnologiyalarni iqtisodiyot va davlat boshqaruvida qo‘llash uchun strategik asos yaratdi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar soliq ma’murchiligida elektron ma’lumotlardan foydalanish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun muhim huquqiy zamin yaratadi.

O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy manbalarni o‘rganish natijasida soliq tushumlari, elektron hisobotlar, soliq to‘lovchilarning raqamli xizmatlardan foydalanishi va iqtisodiy faoliyatni legallashtirishga oid muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

[137] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
[138] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.



Manba:Statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

1-rasm. O’zbekiston Respublikasining soliq tushumlari(2023-2025-yillar)[139]

Yuqorida keltirilgan rasmga ko’ra, 2024-yilda davlat budjetiga 199,5 trln so‘m soliq tushumlari ta’minlanib, 2023-yilga nisbatan 20,2 foiz o‘sishga erishilgan. 2025-yilda esa soliq tushumlari 247,8 trln so‘mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 24 foizga oshgan. Shu bilan birga, elektron hisobvaraq-fakturalarning to‘liq elektron shaklda rasmiylashtirilishi, QQS hisobotlarining 93 foizi hamda yer, mol-mulk va aylanmadan olinadigan soliq hisobotlarining 100 foizi avtomatik shakllantirilishi soliq ma’murchiligida raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanayotganini ko‘rsatadi.[140] 2024-yilda soliq hisobotlarini tahlil qilish va tafovutlarni bartaraf etish orqali 486,3 mlrd so‘m qo‘shimcha soliq hisoblanib, uning 418,7 mlrd so‘mi undirilgan. Bundan tashqari, taksi agregatorlari faoliyatini soliq organlari axborot tizimlariga integratsiyalash orqali 497,9 mingdan ortiq fuqaroning o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatidagi faoliyati legallashtirilgan hamda agregatorlar tomonidan 156,8 mlrd so‘m soliq to‘langan.[141]

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini soliq ma’murchiligiga joriy etish soliq xavflarini aniqlash, soliq to‘lovchilar faoliyatini tahlil qilish va nazorat tadbirlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini oshiradi. O‘zbekistonda elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va avtomatlashtirilgan soliq hisobotlari sun’iy intellektdan foydalanish uchun muhim raqamli infratuzilmani shakllantirmoqda. Shu sababli sun’iy intellekt samaradorligini baholashda qo‘shimcha undirilgan soliqlar bilan bir qatorda soliq xavflarini aniqlash aniqligi, asossiz ogohlantirishlar ulushi, nazorat xarajatlari va ma’muriy jarayonlarga sarflanadigan vaqt kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish maqsadida elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va soliq hisobotlari ma’lumotlari asosida soliq xavflarini aniqlovchi sun’iy intellektga asoslangan tahliliy modellarni ishlab chiqish taklif etiladi. Sun’iy intellekt samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish va AI asosidagi tizimlar faoliyatini

[139] O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2025). Soliq tushumlari va soliq ma’murchiligi natijalariga oid rasmiy ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/42899

[140] O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2024). Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish va elektron hisobotlarga oid ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/33122

[141] O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2026). 2025-yil yakunlari bo‘yicha soliq tushumlariga oid ma’lumotlar. https://davlat.uz/oz/soliq/news/view/124712

baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etildi. Raqamli platformalar bilan axborot almashinuvini kengaytirish taklifi berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.https://lex.uz/uz/docs/-5030957
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.https://www.lex.uz/uz/acts/-7158604
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2025). Soliq tushumlari va soliq ma’murchiligi natijalariga oid rasmiy ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/42899
4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2024). Soliq ma’murchiligini raqamlashtirish va elektron hisobotlarga oid ma’lumotlar. https://gov.uz/oz/soliq/news/view/33122
5. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi. (2026). 2025-yil yakunlari bo‘yicha soliq tushumlariga oid ma’lumotlar. https://davlat.uz/oz/soliq/news/view/124712

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ БАЗИС НОВОГО ЭТАПА РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

О.В. Домакур,
доцент кафедры логистики ГУО «Институт бизнеса БГУ», кандидат экономических наук, доцент
г. Минск Республика Беларусь

Аннотация. В статье исследованы оценки влияния технологий искусственного интеллекта на социальное и экономическое развитие стран и компаний, уровень их внедрения, сферы применения и направления развития, преимущества и проблемы использования.

Развитие цифровой экономики переходит на новый технологический этап – интеллектуальный Технологии искусственного интеллекта (ИИ) стремительно проникают в бизнес, обучение, потребительскую деятельность человека. Влияние ИИ на экономику аналитики ведущих консалтинговых компаний оценивают ростом мирового ВВП на 14% и составить до 15,7 триллиона долларов США к 2030 году[142].

В 2025 году частные инвестиции США в ИИ достигли 285,9 млрд долларов, что более чем в 23 раза превышает 12,4 млрд долларов, инвестированных в Китай, хотя, если рассматривать только данные о частных инвестициях, это, вероятно, занижает общие расходы Китая на ИИ, учитывая государственное финансирование. США также лидируют по

[142] PwC. Sizing the Prize: What’s the Real Value of AI for Your Business and How Can You Capitalize? – 2023. – URL: https://www.pwc.com/gx/en/issues/data-and-analytics/publications/artificial-intelligence-study.html.

предпринимательской активности: в 2025 году было создано 1953 новых финансируемых компании в сфере ИИ, что более чем в 10 раз превышает показатель следующей ближайшей страны[143].

Мировыми лидерами в разработке ИИ приложений являются США и Китай. Эти страны применяют разные подходы в финансировании этих разработок. В США доминирует венчурная модель на основе частных инвестиций в стартапы и конкуренции крупных компаний таких как Google и OpenAI. Китай отдает предпочтение государственному планированию и централизованному управлению данными, активно внедряет системы распознавания в логистику и «умные» города.

Европейский союз выбрал путь жёсткого регулирования, защищая права человека (регламент AI Act). Это несколько замедляет коммерциализацию, но создаёт высокий стандарт доверия. Индия и страны Юго-Восточной Азии бурно развивают ИИ в аутсорсинге и агротехе. В странах с развивающимися рынками наибольший эффект дают решения, не требующие больших капиталовложений, например, мобильные сервисы диагностики растений и микрокредитование на базе цифровых следов[144].

Развитие искусственного интеллекта стало одним из важнейших факторов трансформации глобальной цифровой экономики в XXI веке. Технологии ИИ обладает колоссальным потенциалом в повышении производительности, оптимизации бизнес-процессов и создании новых отраслей. По прогнозам ведущих аналитических агентств, в ближайшие годы вклад ИИ в мировую экономику будет только усиливаться, способствуя перераспределению ресурсов и ускорению темпов роста ВВП в ряде стран. В то же время, стремительное внедрение технологий ИИ сопровождается серьезными вызовами, такими как цифровое неравенство, трансформация рынка труда, усиление киберугроз и возникновение этических дилемм. Анализ реальных примеров из США, Германии и Японии показал, что успешное внедрение ИИ требует не только технологической готовности, но и системной государственной поддержки в области образования, социальной защиты и нормативного регулирования[145].

Компании и государства, эффективно внедряющие технологии ИИ, получают значительные конкурентные преимущества, ускоряя инновационные процессы и рост производительности труда.

Согласно исследованию McKinsey Global Institute, отрасли, наиболее подверженные автоматизации с применением ИИ, включают транспорт и

[143] The 2026 AI Index Report. Stanford University. Stanford Institute of Human Centered Artificial Intelligence. – URL: https://hai.stanford.edu/ai-index/2026-ai-index-report.

[144] ИИ в экономике: влияние, внедрение и технологии будущего. – URL: https://developers.sber.ru/help/business-development/artificial-intelligence-in-economics.

[145] Мирсаидова, Ш. А. Искусственный интеллект как драйвер экономического роста: перспективы и риски / Ш. А. Мирсаидова, С. Х. Расулова. – URL: https://rep.bntu.by/server/api/core/bitstreams/5c984579-ac57-42d4-bc93-da97edf3f86f/content.

складирование (56% потенциальных автоматизированных задач), производство (53%) и розничную торговлю (51%)[146].

Генеративный ИИ достиг уровня внедрения в 53% населения за три года, быстрее, чем персональные компьютеры или интернет, хотя темпы различаются в зависимости от страны и сильно коррелируют с ВВП на душу населения. В некоторых странах уровень внедрения оказался выше ожидаемого, в Сингапуре (61%) и Объединенных Арабских Эмиратах (64%), в то время как США занимают 24-е место с показателем 28,3%[147].

В цифровой экономике технологии ИИ связаны с концепциями Индустрия 4.0, Индустрия 5.0 и нацелены на разработку алгоритмов управления физическими активами, рутинными процессами, выполнения простых и очень сложных интеллектуальных задач. Благодаря ИИ экономический рост будет обеспечиваться за счет интеллектуализации социально-экономического развития.

Новый этап цифровой экономики будет проходить по направлениям развития следующих технологий:

- Машинное обучение и нейросети. Нейросети способны самостоятельно обучаться, анализировать большие данные, находить зависимости, ставить точные диагнозы, предлагать различные варианты решения поставленной задачи.
- Предиктивная аналитика для прогнозирования спроса, динамики цен, вероятности оттока клиентов, управления закупками, рисками, транспортными и информационными потоками, финансами, обеспечения данными для принятия управленческих решений.
- Обработка естественного языка для совершенствования чат-ботов, автоматизации колл-центров, анализа юридических документов и тональности новостного фона.
- Генеративный ИИ для создания маркетингового развлекательного, обучающего контента, дизайна, программного кода и синтетических данных для обучения других моделей.
- Компьютерное зрение для контроля качества на производстве, управления процессами складирования, упаковки, клиентского сервиса, мониторинга состояния полей в агросекторе, обеспечения безопасности[148].

Интеграция этих инструментов сейчас позволяет бизнесу экономить ресурсы, персонализировать коммуникации, предложение товаров и услуг, внедрять инновации, обеспечивать конкурентоспособность бизнеса и экономическое развитие. В ближайшем будущем использование ИИ увеличит как перечисленные преимущества, так и проблемы кибербезопасности,

[146] McKinsey Global Institute. Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation. – 2023. – URL: https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work.
[147] McKinsey Global Institute. Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation. – 2023. – URL: https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work.
[148] ИИ в экономике: влияние, внедрение и технологии будущего. – URL: https://developers.sber.ru/help/business-development/artificial-intelligence-in-economics.

цифрового неравенства, этичности и гуманности принимаемых решений, возможностей регулирования деятельности на основе ИИ.

Статья написана в рамках выполнения НИР на тему «Разработать теоретико-методологическое обоснование и механизм управления интеллектуальным и безопасным развитием логистических систем и процессов в Республике Беларусь» в составе ГПНИ 12. «Социально-экономическая, политическая и национально-культурная безопасность белорусской государственности», подпрограмма 12.3. «Экономика» (№ ГР 20262777, на 2026-2023 гг.).

Список использованных источников

1. McKinsey Global Institute. Jobs Lost, Jobs Gained: Workforce Transitions in a Time of Automation. – 2023. – URL: https://www.mckinsey.com/featured-insights/future-of-work.

2. PwC. Sizing the Prize: What's the Real Value of AI for Your Business and How Can You Capitalize? – 2023. – URL: https://www.pwc.com/gx/en/issues/data-and-analytics/publications/artificial-intelligence-study.html.

3. ИИ в экономике: влияние, внедрение и технологии будущего. – URL: https://developers.sber.ru/help/business-development/artificial-intelligence-in-economics.

4. Мирсаидова, Ш. А. Искусственный интеллект как драйвер экономического роста: перспективы и риски / Ш. А. Мирсаидова, С.Х. Расулова. – URL: https://rep.bntu.by/server/api/core/bitstreams/5c984579-ac57-42d4-bc93-da97edf3f86f/content.

MINTAQA EKSPORT SALOHIYATINI YUKSALTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ismoilov Shuxrat
Abu rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, tadq.

Mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda mintaqalarning eksport salohiyati muhim o‘rin tutadi. Har bir mintaqaning tabiiy-iqlim sharoiti, resurs bazasi, ishlab chiqarish tarkibi va infratuzilma imkoniyatlari turlicha bo‘lganligi sababli eksportni rivojlantirish siyosati ham mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Shu bois mintaqa eksport salohiyatini yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Mintaqa eksport salohiyati deganda mintaqada mavjud resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari, infratuzilma va institutsional imkoniyatlar asosida tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda sotish qobiliyati tushuniladi. Ushbu salohiyatdan foydalanish darajasi nafaqat mavjud resurslarga, balki ularni safarbar etuvchi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligiga ham bog‘liq. Mintaqa eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillar va ular bilan bog‘liq muammolar 1-jadvalda guruhlashtirildi.

1-jadval

Mintaqa eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi omillar va muammolar

№	Omillar guruhi	Mintaqa eksport salohiyatiga ta’siri	Yuzaga kelayotgan muammolar
1	Resurs-xomashyo omillari	Qishloq xo‘jaligi, mineral va mehnat resurslari eksportbop mahsulot ishlab chiqarishning asosini tashkil etadi	Xomashyo holida eksport ulushining yuqoriligi, qo‘shilgan qiymatning past darajasi
2	Ishlab chiqarish-texnologik omillar	Korxonalarning texnologik darajasi mahsulot sifati va raqobatbardoshligini belgilaydi	Asosiy fondlarning eskirganligi, xalqaro sertifikatlarga ega korxonalar sonining kamligi
3	Infratuzilma va logistika omillari	Transport, ombor va bojxona infratuzilmasi eksport xarajatlari va muddatiga ta’sir qiladi	Dengizga chiqish yo‘lining yo‘qligi, transport-logistika xarajatlarining yuqoriligi
4	Moliyaviy omillar	Eksportni moliyalashtirish va sug‘urtalash imkoniyatlari eksport hajmini kengaytiradi	Aylanma mablag‘lar tanqisligi, kredit va sug‘urta xizmatlaridan foydalanishning cheklanganligi
5	Tashkiliy-institutsional omillar	Mintaqaviy boshqaruv organlari va qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari faoliyatining muvofiqligi	Vakolatlarning tarqoqligi, mintaqa darajasida yagona eksport strategiyasining yo‘qligi
6	Axborot-marketing omillari	Tashqi bozorlar to‘g‘risidagi axborot va brend eksport geografiyasini kengaytiradi	Kichik korxonalarning bozor tadqiqotlari va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirokining pastligi
7	Inson kapitali omillari	Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha malakali kadrlar eksport bitimlarining samaradorligini oshiradi	Xalqaro savdo, logistika va marketing bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi

Manba: muallif ishlanmasi.

Tashkiliy-iqtisodiy mexanizm o‘zaro bog‘liq ikki tarkibiy qismdan iborat. Tashkiliy qism mintaqaviy boshqaruv organlari, eksportni qo‘llab-quvvatlash tuzilmalari va ular o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotini qamrab oladi. Iqtisodiy qism esa moliyaviy, soliq-bojxona, infratuzilma va marketing vositalari orqali eksportyorlar faoliyatini rag‘batlantiradi. Mexanizmning har bir turi, uning vositalari va kutiladigan natijalari 2-jadvalda tizimlashtirildi.

2-jadval


Mintaqa eksport salohiyatini yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari

Mexanizm turi	Asosiy vositalar	Mas’ul tuzilmalar	Kutiladigan natija
Tashkiliy mexanizm	Mintaqaviy eksport strategiyasi, eksportni rivojlantirish kengashi, “yagona darcha” xizmati	Hokimlik, mintaqaviy eksportni qo‘llab-quvvatlash markazi	Boshqaruv qarorlarining muvofiqlashuvi, ma’muriy xarajatlarning qisqarishi
Moliyaviy-kredit mexanizmi	Imtiyozli eksport kreditlari, eksport shartnomalarini sug‘urtalash, foiz stavkasi kompensatsiyasi	Tijorat banklari, eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari	Eksportyorlarning aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanishi
Soliq-bojxona mexanizmi	QQS qaytarilishini tezlashtirish, bojxona	Soliq va bojxona organlari	Eksport operatsiyalari muddati va

	rasmiylashtiruvini soddalashtirish, elektron deklaratsiya		xarajatlarining kamayishi
Infratuzilma-logistika mexanizmi	Logistika markazlari, quruq portlar, sovutish omborlari, transport xarajatlarini qoplash	Mintaqaviy hokimlik, logistika kompaniyalari	Eksport mahsulotining tashqi bozorlarga tez va arzon yetkazilishi
Axborot-marketing mexanizmi	Tashqi bozorlar tadqiqoti, xalqaro ko‘rgazmalar, mintaqaviy brend, elektron savdo maydonchalari	Savdo-sanoat palatasi, eksport markazlari	Eksport geografiyasining kengayishi, yangi xaridorlar jalb etilishi
Klaster-integratsiya mexanizmi	Eksportbop klasterlar, kooperatsiya zanjirlari, kichik korxonalarni yirik eksportyorlarga ulash	Tarmoq uyushmalari, klaster ishtirokchilari	Qo‘shilgan qiymat ulushi va eksportyorlar sonining o‘sishi

Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, mexanizmlarning samaradorligi ularning bir-biri bilan muvofiqlashganligiga bog‘liq. Masalan, imtiyozli eksport krediti ajratilgan taqdirda ham logistika xarajatlari yuqori yoki bojxona rasmiylashtiruvi uzoq davom etsa, eksportyor tashqi bozorda raqobatbardosh narx taklif eta olmaydi. Shu sababli mintaqa darajasida barcha mexanizmlarni yagona maqsad atrofida birlashtiruvchi tizimli model zarur. Bunday model 1-rasmda keltirildi.



1-rasm. Mintaqa eksport salohiyatini yuksaltirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi modeli

Manba: muallif ishlanmasi.

Modelda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar mintaqaviy eksportni rivojlantirish markazi orqali muvofiqlashtiriladi. Ushbu markaz eksportyorlar uchun “yagona darcha” vazifasini bajaradi, mintaqaning eksport strategiyasi ijrosini monitoring qiladi hamda davlat organlari, banklar, logistika kompaniyalari va tadbirkorlar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlaydi. Modelning amaliy yadrosini to‘rt yo‘nalish tashkil etadi: eksportbop ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport infratuzilmasi va logistikani yaxshilash, eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hamda tashqi bozorlarga chiqishni axborot-marketing jihatdan ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm modeli va chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mintaqalarda eksport hajmi va geografiyasini kengaytirish, eksport tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish hamda mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING INPUT VA OUTPUT KO‘RSATKICHLARI NOMUTANOSIBLIGI: GLOBAL INNOVATION INDEX-2025

Qilichov Ulug’bek Rustam o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi
“Demografiya va mehnat bozori” sektori stajyor-tadqiqotchisi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
magistratura talabasi
Botirova Diyora Rustam qizi
Toshkent kimyo-texnalogiya insituti Yangiyer fliali
Iqtisodiyot 3-kurs talabasi

Bugungi sharoitda innovatsion rivojlanish mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biri bo‘lib, ilmiy-tadqiqot faoliyati, inson kapitali, texnologik infratuzilma, tadbirkorlik muhiti va moliyaviy resurslarning samarali uyg‘unlashuvini talab etadi. Shu sababli mamlakatlarning innovatsion salohiyatini xalqaro mezonlar asosida baholash, mavjud imkoniyatlar va erishilayotgan natijalar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan ishlab chiqiladigan Global Innovation Index (GII) innovatsion rivojlanishni qariyb 80 ta ko‘rsatkich asosida baholab, innovatsion inputlar va outputlarning o‘zaro nisbatini kompleks ifodalovchi xalqaro indikator hisoblanadi [1].

O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va ilmiy-texnologik salohiyatni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni bilan innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, startap tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, innovatsion

faoliyatni moliyalashtirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni kuchaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan [2].

Mazkur siyosatning natijalarini xalqaro baholash mezonlari orqali kuzatish O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishida ijobiy dinamikani ko‘rsatadi. GII-2025 natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o‘rinni egallab, mamlakat tarixidagi eng yuqori natijaga erishgan va ilk bor reytingning kuchli 80 taligiga kirgan [1]. 2020-yilda 93-o‘rinda bo‘lgan O‘zbekistonning 2025-yilga kelib 79-o‘ringa ko‘tarilishi innovatsion salohiyatning umumiy yaxshilanayotganini ko‘rsatadi.

Jadval ma’lumotlari O‘zbekistonning innovatsion rivojlanishida 2020–2025-yillar davomida umumiy ijobiy dinamika shakllanganini ko‘rsatadi. Xususan, mamlakatning GII reytingidagi o‘rni 2020-yildagi 93-o‘rindan 2025-yilda 79-o‘ringa ko‘tarilgan. Natijada besh yillik davrda O‘zbekistonning umumiy reytingdagi pozitsiyasi 14 pog‘onaga yaxshilangan.

1-jadval

O‘zbekistonning Global Innovation Index reytingidagi o‘rni, 2020–2025-yillar

Yil	GII reytingi	Innovatsion inputlar	Innovatsion outputlar	Input–output tafovuti, pog‘ona
2020	93	81	118	37
2021	86	75	100	25
2022	82	68	91	23
2023	82	72	88	16
2024	83	71	91	20
2025	**79**	**69**	**92**	**23**

Manba: WIPO, Global Innovation Index 2025, Uzbekistan profile ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi [1].

Innovatsion inputlar bo‘yicha ham sezilarli o‘zgarish kuzatiladi. Mazkur ko‘rsatkich 2020-yildagi 81-o‘rindan 2025-yilda 69-o‘ringa ko‘tarilgan. Bu mamlakatda innovatsion faoliyatni ta’minlovchi institutsional muhit, inson kapitali, infratuzilma, bozor va biznes sharoitlari bo‘yicha umumiy salohiyatning yaxshilanganini anglatadi.

Shu bilan birga, innovatsion outputlar dinamikasi inputlarga nisbatan murakkabroq ko‘rinishga ega. 2020-yilda 118-o‘rinni egallagan ushbu ko‘rsatkich 2023-yilda 88-o‘ringacha yaxshilangan bo‘lsa-da, 2024-yilda 91-o‘rin va 2025-yilda 92-o‘ringa qaytgan. Demak, 2025-yilda innovatsion inputlar bo‘yicha 69-o‘rin qayd etilgan bir sharoitda outputlar bo‘yicha 92-o‘rin kuzatilmoqda.

Mazkur holatni input–output tafovuti orqali yanada yaqqol ko‘rish mumkin. 2020-yilda input va output reytinglari o‘rtasidagi farq 37 pog‘onani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu tafovut 16 pog‘onagacha qisqargan. Biroq 2024-yilda 20 pog‘onaga, 2025-yilda esa 23 pog‘onaga kengaygan.

2-Jadvaldan ko‘rinadiki, O‘zbekistonning innovatsion tizimida eng yuqori ko‘rsatkich “Institutlar” yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi. Mazkur yo‘nalish 51,9 ball bilan 62-o‘rinni egallagan. Bu yo‘nalishning tarkibida institutsional muhit, tartibga solish sifati, biznes muhiti va tadbirkorlik siyosati kabi omillar aks etadi. Xususan, WIPO

ma’lumotlarida tadbirkorlik siyosati va madaniyati bo‘yicha O‘zbekistonning 3-o‘rinni egallagani qayd etilgan.

2-jadval

O‘zbekistonning Global Innovation Index-2025 bo‘yicha asosiy tarkibiy yo‘nalishlari

№	GII tarkibiy yo‘nalishi	Ball	Reytingdagi o‘rni
1	Institutlar	51,9	62
2	Inson kapitali va tadqiqotlar	27,4	81
3	Infratuzilma	41,8	69
4	Bozor rivojlanganligi	35,0	74
5	Biznes rivojlanganligi	27,1	77
6	Bilim va texnologiya natijalari	20,9	68
7	Kreativ natijalar	11,8	104

Manba: WIPO, Global Innovation Index 2025, Uzbekistan profile ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Infratuzilma yo‘nalishi 41,8 ball bilan 69-o‘rinda qayd etilgan. Ushbu yo‘nalishning tarkibida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, umumiy infratuzilma hamda ekologik barqarorlik bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar mavjud. Shunday qilib, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi moddiy va raqamli infratuzilma bo‘yicha O‘zbekistonning pozitsiyasi boshqa ayrim yo‘nalishlarga nisbatan yuqoriroq shakllangan.

Bozor rivojlanganligi 35,0 ball bilan 74-o‘rinni, biznes rivojlanganligi esa 27,1 ball bilan 77-o‘rinni egallagan. Bu ikki yo‘nalishning o‘zaro taqqoslanishi muhim: innovatsion g‘oyaning iqtisodiy qiymatga aylanishida nafaqat moliyaviy bozorlar, balki korxonalarning bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonning biznes rivojlanganligi bo‘yicha 77-o‘rinda joylashishi innovatsion bilimlarni biznes jarayonlariga integratsiya qilish masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Inson kapitali va tadqiqotlar yo‘nalishi 27,4 ball bilan 81-o‘rinni egallagan. Bu natija alohida e’tiborga loyiq, chunki zamonaviy innovatsion iqtisodiyotda ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy ta’lim, ilmiy kadrlar va muhandislik salohiyati innovatsion jarayonning boshlang‘ich omillaridan hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalish ichida ayrim indikatorlar ancha yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Masalan, fan va muhandislik yo‘nalishlari bitiruvchilari bo‘yicha O‘zbekiston 13-o‘rinda qayd etilgan. Demak, inson kapitalining miqdoriy shakllanishi bilan uning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga samarali jalb etilishi o‘rtasidagi masala alohida tadqiqotni talab qiladi.

GII-2025 tarkibiy ko‘rsatkichlari O‘zbekiston innovatsion tizimida institutsional muhit va infratuzilma bilan kreativ natijalar o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, institutlar bo‘yicha 62-o‘rin bilan kreativ natijalar bo‘yicha 104-o‘rin o‘rtasidagi farq 42 pog‘onani tashkil etadi. Bu holat innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi sharoitlarning mavjudligi avtomatik ravishda yuqori kreativ va tijoratlashtirilgan natijalarni ta’minlamasligini ko‘rsatadigan muhim empirik dalildir. GII-2025 ko‘rsatkichlari O‘zbekiston innovatsion tizimida tarkibiy jihatdan sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. Eng yuqori natija institutlar bo‘yicha 62-o‘rin, infratuzilma bo‘yicha 69-o‘rin va bilim hamda texnologiya

natijalari bo‘yicha 68-o‘rin bilan qayd etilgan. Inson kapitali va tadqiqotlar 81-o‘rin, biznes rivojlanganligi 77-o‘rin hamda bozor rivojlanganligi 74-o‘rinni egallagan. Eng past natija esa kreativ natijalar bo‘yicha 104-o‘rinda kuzatilgan. Bu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda innovatsion faoliyat uchun institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar shakllanayotganini, biroq kreativ mahsulotlar va intellektual natijalarni iqtisodiy qiymatga aylantirish imkoniyatlarini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Alohida indikatorlar kesimida ham ushbu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston tadbirkorlik siyosati va madaniyati bo‘yicha 3-o‘rin, startap va scale-up kompaniyalarni moliyalashtirish bo‘yicha 6-o‘rin, mehnat unumdorligi o‘sishi bo‘yicha 6-o‘rin va fan hamda muhandislik bitiruvchilari bo‘yicha 13-o‘rinni egallagan. Shu bilan birga, R&D xarajatlari 98-o‘rin, patent oilalari 100-o‘rin, venchur kapital bitimlari esa 108-o‘rinda qayd etilgan [1]. Mazkur natijalar innovatsion faoliyat uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni ilmiy ishlanmalar, patentlar, texnologiyalar va bozor talabiga mos innovatsion mahsulotlarga aylantirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning Global Innovation Index-2025dagi 79-o‘rni mamlakatning innovatsion rivojlanishida so‘nggi yillarda ijobiy siljishlar mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq reytingning tarkibiy ko‘rsatkichlari innovatsion rivojlanishning asosiy muammosi endilikda faqat innovatsion resurslarni shakllantirish emas, balki ularni aniq iqtisodiy va texnologik natijalarga transformatsiya qilish bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Xususan, institutsional muhitning 62-o‘rinda, bilim va texnologiya natijalarining 68-o‘rinda bo‘lishi bilan bir qatorda kreativ natijalarning 104-o‘rinda qolishi innovatsion tizimning alohida bo‘g‘inlari o‘rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekistonda innovatsion siyosatning keyingi bosqichida R&D faoliyatini kengaytirish, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish, patentlash va texnologiyalarni tijoratlashtirishni jadallashtirish, shuningdek, kreativ iqtisodiyot va intellektual mulk bozorini rivojlantirish muhim yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim. Bunday choralar innovatsion salohiyatning mavjud imkoniyatlarini yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi mahsulot va xizmatlarga aylantirish hamda mamlakatning xalqaro innovatsion reytinglardagi pozitsiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

GIS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED FORECASTING OF REGIONAL SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Prof. Dr. rer. pol. Dr. h.c. mult. H.-Christian Brauweiler
Business Administration, Management Accounting & Internal Auditing
WHZ – West Saxon University of Applied Sciences Zwickau, Germany
Fazliddinova Zulkhumor Akramjon kizi
Research Center “Scientific Foundations and Problems of Economic Development of Uzbekistan”, under TSUE

Ensuring the sustainable development of the regional economy has become the most important issue on a global scale. In 2024-2026, growth rates in the

countries that account for more than 80% of the world's population and global GDP remain below those of the decade preceding the COVID-19 pandemic[149]. In 2025, the German geospatial analytics (Geospatial Analytics) market is valued at USD 1.45 billion, and it is expected to reach USD 2.55 billion by 2030[150]. Therefore, using GIS technologies as a lever for forecasting regions, and studying their structural components and their impact on the formation of regional economic policy, is a pressing scientific problem.

Table 1

Applications of GeoAI across sectors[151]

Sector	GeoAI application	Results
State and local government	Modeling the impact of urbanization, analyzing resource availability, forecasting infrastructure condition, detecting changes in land use	By modeling urbanization processes, the pace of infrastructure development in cities has increased by 20–30% (McKinsey, 2023).
Natural resources	Automatic detection of harmful plants, monitoring of oil and gas assets, assessment of forest resources	In the United States, the process of detecting harmful plants has been accelerated by 80% using GeoAI (NASA, 2022).
National cartography and statistics	Rapid updating of GIS systems, automation of cartographic processes, improvement of production efficiency	After the introduction of GeoAI in national mapping agencies, map update time was reduced by 60% (World Bank, 2023).
Defense and intelligence	Automatic data analysis, pattern recognition, monitoring of objects and events	GeoAI has increased the speed of intelligence data analysis by 50% (RAND Corporation, 2023).
Public safety	Forecasting road accident locations, rapid response of emergency services, detection of infrastructure damage	Through GeoAI-based emergency services, the effectiveness of rescue operations has increased by 35% (FEMA, 2022).
Insurance	Assessment of the impact of incidents, rapid processing of claims, automatic classification of damaged areas	GeoAI has reduced claim review time in the insurance sector by 40% (PwC, 2023).
Architecture, engineering and construction	Creating digital replicas from imagery, project management, improving building efficiency	In the construction sector, project delivery time has been reduced by 25% with the help of GeoAI (Deloitte, 2023).
Business	Market planning, site selection, supply chain optimization, customer analytics	GeoAI has accelerated business analytics by 60% and increased profitability by 15–20% (Harvard Business Review, 2023).

The possibilities for analyzing data, producing cartographic visualizations, and developing regional forecasts using geoinformation technologies are expanding steadily. Today, developed countries are making effective use of these technologies to address socio-economic and environmental problems. In particular, owing to the

[149] World Bank. 2024. Global Economic Prospects, June 2024. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2058-8. https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/d644659c-2e22-410e-98a5b8a40dc6c183/ content

[150] https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/germany-geospatial-analytics-market

[151] Developed by the author

availability of the world's largest programs (Earth Observation – EO, ArcGIS Living Atlas, and others), geoinformation technologies are developing very rapidly worldwide[152]. The technologies in these programs have brought about fundamental changes in data processing and analysis systems and are having a direct positive impact on people's way of life. The integration of the regional socio-economic forecasting system with GIS technologies is emerging as an important methodological approach in economic management.

In addition, GeoAI capabilities automate the extraction of information from spatial data through deep learning, accelerating analysis by extracting, classifying, and detecting information in images, videos, point clouds, and text. Machine learning approaches expand the capacity to perform predictive analytics, build more accurate models, identify clusters, compute changes, discover patterns, and forecast outcomes. GeoAI is helping to solve pressing global-scale problems by accelerating the process of drawing meaning from complex datasets. This technology makes it possible to identify complex patterns and relationships and to analyze growing types of data effectively.

Organizations using GeoAI are developing innovative approaches by managing data more efficiently, modeling it accurately, and adapting it in real time. The practical applications of GeoAI are creating broad opportunities in various sectors.

Today, GeoAI has become an integral part of the digital economy, serving to automate analytical processes, reduce costs, and use resources efficiently.

In recent years, the rapid development of artificial intelligence (AI) and big data (Big Data) technologies, integrated with geographic information systems (GIS), has given rise to a new approach — GeoAI (Geospatial Artificial Intelligence). GeoAI involves the combined application of artificial intelligence and machine learning methods with geodata for spatial analysis, forecasting, decision-making, and automatic processing of spatial data. As a result of this integration, advanced digital solutions are emerging in fields such as the economy, ecology, transport, healthcare, urbanization, migration, and agriculture.

In contrast to machine learning, artificial intelligence refers to the use of computer systems to imitate human cognitive functions. Artificial intelligence is a process in which machines perform tasks through an algorithm-based “intelligent” approach. Machine learning is a subset of artificial intelligence, whose main purpose is for a machine to assimilate and learn from a dataset and to modify its algorithms by processing it.

Deep learning is an even more complex level of analysis and is also a part of machine learning. Current solutions use artificial intelligence and machine learning to analyze and interpret data. This makes it possible to extract deeper insights from the data and to identify relationships among metadata more quickly.

Big data is a new concept for storing, searching, and analyzing large volumes of data. Data collected through sensors is available everywhere, often has varied structures, and must be used in real time.

[152] https://shorturl.at/8RYrB, https://livingatlas.arcgis.com/en/home/

The essence of big data technologies lies not only in providing access to large volumes of data from sensor networks, but in carrying out activities that make that data useful. The main goal is to develop effective and reliable methods for obtaining useful information from data collected in real time. Big data is one of the core components of business intelligence, through which new value and knowledge are created.

The use of business intelligence improves business decision-making. Big data does not replace business intelligence, but it can add new value through existing systems[153].

The convergence of geoinformation systems (GIS), artificial intelligence (AI), and forecasting technologies constitutes an important stage in the development of modern information technology. In the future, this integration will enable GIS-based decision-making systems to move to a qualitatively new level. In particular, the concept of autonomous GIS agents has been taking shape in recent years. Such systems, relying on level 3-4 functions of artificial intelligence, will be able to independently collect and analyze data and make management decisions. This approach enables the automated solution of problems based on spatial data.

In addition, the integration of artificial intelligence tools into navigation systems makes it possible to develop real-time forecasts and recommendations on safe and efficient routes. This is of great importance for optimizing transport logistics and for improving travel speed and safety.

The role of the GIS specialist is also changing under the influence of modern technologies. The task of specialists is no longer limited to programming or making maps; instead, it is increasingly oriented toward evaluating the analytical results produced by artificial intelligence systems, ensuring their reliability, and developing management-oriented recommendations that take social aspects into account.

In addition, the AI-GIS synergy plays an important role in global sustainable development processes. In particular, it provides a scientifically grounded approach to decision-making in areas such as climate change, food security, healthcare, and environmental monitoring. As a result, the integration of artificial intelligence and GIS has become an important direction of modern technological development and is emerging as a decisive factor in expanding complex analysis, forecasting, and management capabilities at the global and regional levels (https://prognoz-mzjo.onrender.com)[154].

In forecasting the development of regions, the integration of artificial intelligence (AI) and geographic information systems (GIS) consists of several functional stages, which allow in-depth analysis of the complex factors of territorial development (Figure 1).

At the first stage, determining the sustainable development parameters of regions plays an important role. In this process, population density, unemployment rate, infrastructure quality, and social and environmental indicators are analyzed. These factors are the main indicators for assessing regional development potential.

[153] R.Pavlović, R.Dejanović (2014),,Big Data i Business inteligence,, INFOTEH Jahorina.
[154] Compiled by the authors

At the next stage, geographic, demographic, economic, environmental, and infrastructure data are collected by building a big data (Big Data) database. Using GIS, these data are linked to location, which makes spatial analysis possible. The automatic collection of large volumes of data and their real-time analysis are important advantages of AI tools.

At the third stage, data classification is carried out. Large volumes of data are processed using artificial intelligence algorithms, divided into types on the basis of statistical analysis, and converted into a format suitable for forecasting models by region. At this stage, data cleanliness and timeliness are ensured.

The fourth stage- the application of AI models - is the central element of the forecasting process. At this stage, forecasting models are built on the basis of econometric, clustering, and scenario approaches and machine learning algorithms, and precise forecast parameters are formed for regions. Through the model, the prospects of regional development are expressed in specific indicators.




Figure 1. Model for forecasting the sustainable development of regions integrated with geographic information systems and artificial intelligence technologies[155]

At the fifth stage, forecast results are presented in the form of maps and graphs by visualizing the forecast parameters. This is the main strength of GIS and helps decision-makers clearly see territorial disparities.

The final stage - the integration of AI and GIS technologies - is the ultimate goal of the model. As a result of integration, strategies are developed for determining

[155] Compiled by the authors

regional sustainable development parameters on the basis of the forecast, for the territorial allocation of productive forces, and for resource optimization.

Thus, the integration of AI and GIS not only improves forecasting quality but also creates the possibility of applying innovative approaches in regional governance. This model can be widely used in regional policy, urbanization, infrastructure, ecology, and economic forecasting.

References:

1. R.Pavlović, R.Dejanović (2014)„Big Data i Business inteligence„ INFOTEH Jahorina.

2. Janowicz, K., Gao, S., McKenzie, G., Hu, Y., & Bhaduri, B. (2020). GeoAI: Spatially explicit artificial intelligence techniques for geographic knowledge discovery and beyond. International Journal of Geographical Information Science, 34(4), 625–636. https://doi.org/10.1080/13658816.2019.1684500

3. Fan, C., Wang, C., Song, J., Yu, H., & Li, G. (2026). Using geospatial artificial intelligence to advance the Sustainable Development Goals. Geography and Sustainability, 7(3), 100476. https://doi.org/10.1016/j.geosus.2026.100476

4. World Bank. 2024. Global Economic Prospects, June 2024. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-2058-8. https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/d644659c-2e22-410e-98a5b8a40dc6c183/ content

5. https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/germany-geospatial-analytics-market

6. https://shorturl.at/8RYrB, https://livingatlas.arcgis.com/en/home/

RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING HUDUDLAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

D.Sh.Xusanova
TDIU "Moliya" kafedrasi dotsenti
Yo'ldosheva Nilufar
TDIU Iqtisodiyot fakulteti
3-kurs I-52/24-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning mintaqalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, zamonaviy infratuzilma va elektron xizmatlarning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlari yaratish va mintaqalarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishimiz uchun avvalo zamonaviy axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni chuqur o'zlashtirib, amalda qo'llashimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot so'nggi o'n yillikda global iqtisodiy o'zgarishlarning asosiy omiliga aylanib, odamlarning ishlash, o'qish, muloqot va xarid qilish usullarini o'zgartirdi. U xalqaro biznesga ham ta'sir

qilmoqda: kompaniyalar mahsulotini internet orqali butun dunyoga sota oladi, kichik investitsiyali kompaniyalar esa tez o‘sib rivojlanishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi xalqaro biznesning ichki va tashqi muhitiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu esa kompaniyalar faoliyatining turli yo‘nalishlarida aks ettirilishi mumkin emas. Internet orqali butun dunyo bo‘ylab o‘z mahsulotlarini sotishlari mumkin. Kichik investitsiyaga ega bo‘lgan kompaniyalar tezda paydo bo‘lib, tez o‘sib rivojlanishi mumkin.

1-jadval

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yalpi ichki mahsulotdagi ulushi(%)[156]

Ko’rsatkichlar nomi	**2022**	**2023**	**2024**
Yalpi ichki mahsulot YAIM	100.0	100.0	100.0
AKT sohasi	1.95	2.10	2.30
AKT sohasida ishlab chiqarish	0.05	0.06	0.06
AKT sohasida savdo	0.11	0.12	0.13
AKT sohasida xizmat ko’rsatish	1.79	1.92	2.11

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Unga ko‘ra Respublikamizning yalpi milliy mahsulotdagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasining ulushini quyidagi 1- jadvalda ko‘rishimiz mumkin. Unga ko‘ra yalpi ichki mahsulotni 100 % deb olsak, AKT sohasidagi ulushi 2022- yilda 1.95 %, 2023- yilga kelib bu ko‘rsatkich 2.10 % ni tashkil etdi, 2024-yilda esa 2.30% ni ko’rsatmoqda. AKT sohasida ishlab chiqarish 2022- yilda 0,05%, 2023- yilga kelib bu ko‘rsatkich 0,06 % ni 2024- yilda ham 0.06% ni tashkil etdi. AKT sohasida savdo 2022- yilda 0.11 %, 2023- yilga kelib bu ko‘rsatkich 0.12 % ni 2024-yilda 0.13% ni tashkil etgan. AKT sohasida xizmat ko‘rsatish 2022- yilda 1.79 %, 2023- yilga kelib bu ko‘rsatkich 1.92 % ni 2024-yilda 2.11% ni tashkil etgan. Ushbu jadvalni tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda bu ko‘rsatkichlar past darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Hisobotlarda global raqamli makonning mintaqalar bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha baholanadi:

2-jadval

Tashqi savdo aylanmasi hajmi[157]

Klassifikator	**2022**	**2023**	**2024**
Amerika	52.5	111.3	218.6
Koreya	1167.4	1182.2	864.0
Germaniya	1170246.3	1072266.3	1253434.9
Xitoy	9059705.9	13825656.4	12673465.9

BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan taqdim etilgan "Digital Economy Report" (Raqamli iqtisodiyot hisoboti) tahlillariga ko'ra, dunyo mintaqalari o'rtasida raqamli iqtisodiyotning o'sishi va uning salbiy ekologik oqibatlari bo'yicha keskin tengsizlik (raqamli tafovut) mavjud.[2]

[156] O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi www.stat.uz
[157] O’zbekiston Milliy statistika qo’mitasi

Yuqoridagi jadvalda 2022–2024-yillar oralig‘ida ayrim yetakchi mamlakatlar (Amerika, Koreya, Germaniya va Xitoy) bo‘yicha tashqi savdo aylanmasi hajmining dinamikasi hamda global raqamli makonning mintaqalar o‘rtasidagi taqsimlanishi aks ettirilgan. Amerikada tashqi savdo aylanmasi barqaror va yuqori o‘sish sur’ati kuzatilgan. Ko‘rsatkich 2022-yildagi 52,5 dan 2023-yilda 111,3 ga, 2024-yilga kelib esa 218,6 ga yetgan, ya’ni 2 yil ichida 4 baravardan ziyodga oshgan. Koreyada ko‘rsatkich 2022–2023-yillarda biroz o‘sib (1167,4 dan 1182,2 ga), 2024-yilga kelib 864,0 ga qadar kamayganligini ko‘rish mumkin.

Shuningdek, Germaniya davlatida tashqi savdo hajmi yuqori darajada saqlanib qolgan. 2023-yilda biroz pasayish (1072266,3) kuzatilgan bo‘lsa-da, 2024-yilga kelib o‘sish ko‘rsatkichlari qayta tiklanib, 1253434,9 ni tashkil etgan. Xitoyda esa ko‘rib chiqilgan mamlakatlar orasida eng yuqori tashqi savdo va raqamli makon ulushiga ega. 2022-yildagi 9059705,9 ko‘rsatkich 2023-yilda keskin ko‘tarilib (13825656,4), 2024-yilda biroz barqarorlashib 12673465,9 ni tashkil etgan.Raqamli iqtisodiyot va global savdo makonida osiyo va yevropa mintaqasi yetakchilarining (xususan, Xitoy va Germaniyaning) ulkan ulushga ega ekanligini hamda Shimoliy Amerika mintaqasida o‘sish dinamikasi juda jadal kechayotganligini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotda raqobatbardoshlikning asosiy yo'nalishlariga “tezlik va moslashuvchanlik”, “ma’lumotlar tahlili (Big data)”, “xarajatlarni qisqartirish”, “innovatsiyalarni joriy qilish” kabi tizimlarni kiritishimiz mumkin. Tezlik va moslashuvchanlik - jarayonlarni avtomatlashtirish qaror qabul qilishni tezlashtiradi. Ma’lumotlar tahlili (Big data) esa mijozlar ehtiyojini oldindan aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, xarajatlarni qisqartirish - ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlari kamaytirishga yordam beradi. Innovatsiyalarni joriy etish - yangi raqamli mahsulotlar bozordagi o'rinni mustahkamlaydi.

Bugungi kunda kommunal to’lovlarni to’lash,passport olishga ariza topshirish,ma’lumotnoma buyurtma qilish yoki bank xizmatlaridan foydalanish uchun qatorlarda turishga hojat qolmadi.Bularning barchasi telefonimizni bir nechta tugmasini bosish orqali amalga oshirilmoqda.Aynan elektron xizmatlar hozirgi kunda insonlarning uzog’ini yaqin,og’irini yengil qilib berayotgan eng muhim qulaylikdir. Xizmatlarni funksional yo‘nalishi va jamiyatdagi tutgan o‘rniga ko‘ra bir nechta asosiy guruhlarga tasniflash mumkin. Jumladan, ular “davlat xizmatlari”, “tijorat va moliyaviy xizmatlar” hamda “ijtimoiy xizmatlar” kabi asosiy turlarni qamrab oladi.

Davlat xizmatlari (G2C — Government to Citizen): Aholi va tadbirkorlarga davlat idoralariga bormasdan, masofadan turib hujjat olish, ariza berish, soliqlarni to‘lash imkonini beradi. Tijorat va moliyaviy xizmatlar (B2C / B2B): Internet-banking, onlayn xaridlar, to‘lov tizimlari (Payme, Click va boshqalar), sug‘urta va kredit olish.Ijtimoiy xizmatlar: Masofaviy ta’lim (elektron kundalik, kurslar), onlayn tibbiy maslahatlar va telemeditsina.

Bu xizmatlarni bizga beradigan afzalliklari quyidagicha:vaqt va masofani tejaydi: istalgan joydan turib, 24/7 rejimida internet orqali murojaat qilish imkoniyati; ortiqcha ovvoragarchilikning oldini oladi; qog‘ozbozlik, navbatda turish va idoralarga qatnash zaruratining yo‘qligi; shaffoflik,murojaatning ko‘rib chiqilish jarayonini onlayn kuzatib borish va korrupsiya omillarini kamaytirish.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot va mehnat unumdorligi bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va vaqtni tejash orqali unumdorlikni keskin oshiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat unumdorligini oshirish masalalari so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida muhim ilmiy yo‘nalish sifatida keng yoritilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishi, mehnat resurslaridan foydalanishni optimallashtirishi va iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. Mehnat unumdorligi bo’yicha ko’plab iqtisodiy olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib brogan. Zamonaviy tadqiqotlarda (masalan,M.Porterning raqobat ustunligi nazariyasida) esa texnologik innovatsiyalar va boshqaruv tizimlarining moslashuvchanligi asosiy omil sifatida ko’rsatilgan.[3]

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki,O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi nafaqat mamlakat miqyosida, balki mintaqalar kesimida ham barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu yo’nalishdagi siyosatni to’g’ri olib borish mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yoshlar salohiyatini ro’yobga chiqarish hamda xalqaro maydonda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun muhim vositadir. Shu boisdan, davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida raqamli iqtisodiyotni chuqurlashtirish va uni hududiy rivojlanish bilan uyg’unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Allanazarov R.Sh., Samadqulov M. Raqamli iqtisodiyotning turli tarmoqlarda qo‘llanilishi va sanoat korxonalarini raqamlashtirishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – 4-maxsus son. – B. 52.

2.O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). Rasmiy statistik ma’lumotlar.

3.Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi.

РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ

Киличов Улугбек Рустам угли
Стажёр-исследователь Научно-исследовательского центра «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при ТГЭУ
Магистрант Ташкентского государственного экономического университета

В условиях ускорения научно-технического прогресса и глобальной цифровой трансформации цифровая экономика становится одним из ключевых факторов социально-экономического развития территорий. Внедрение информационно-коммуникационных технологий, развитие

цифровой инфраструктуры, электронных государственных услуг и платформенных бизнес-моделей создают новые возможности для повышения производительности труда, привлечения инвестиций и эффективного использования региональных ресурсов [1]. В связи с этим изучение роли цифровой экономики в обеспечении устойчивого развития и конкурентоспособности регионов приобретает особую актуальность.

Устойчивое развитие регионов предполагает обеспечение долгосрочного экономического роста, повышение качества жизни населения, рациональное использование природных ресурсов и сокращение социально-экономических различий между территориями. В данном контексте цифровизация выступает не только инструментом модернизации экономических процессов, но и важным условием формирования инновационной среды, расширения доступа населения к образовательным и финансовым услугам, а также повышения эффективности государственного управления [2]. Вместе с тем результаты цифровой трансформации во многом зависят от уровня развития инфраструктуры, квалификации трудовых ресурсов и доступности цифровых технологий для населения и предприятий.

Особую значимость данная проблема приобретает для Узбекистана, где цифровая трансформация рассматривается как одно из направлений модернизации экономики и совершенствования системы государственного управления. В рамках стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» предусмотрены развитие цифровой инфраструктуры, внедрение информационных технологий в отрасли экономики и расширение электронных государственных услуг [3]. Развитие цифровых технологий в регионах способно расширить возможности предпринимательства, повысить инвестиционную привлекательность территорий и сформировать дополнительные условия для устойчивого экономического роста. Однако различия в уровне цифровой инфраструктуры, доступе к современным технологиям и цифровым компетенциям могут ограничивать возможности отдельных регионов и усиливать существующие социально-экономические диспропорции [6].

В международных исследованиях также подчёркивается необходимость обеспечения инклюзивного и экологически устойчивого цифрового развития. В частности, в докладе ЮНКТАД рассматриваются экологические последствия цифровизации, включая энергопотребление и образование электронных отходов, что свидетельствует о необходимости комплексного подхода к оценке её влияния на устойчивое развитие [2].

Цель исследования заключается в определении роли цифровой экономики в обеспечении устойчивого развития и повышении конкурентоспособности регионов, а также в выявлении основных возможностей и ограничений цифровой трансформации региональной экономики Узбекистана.

Для достижения поставленной цели предусматривается решение следующих задач: раскрыть теоретические основы цифровой экономики; определить основные направления её влияния на региональную

конкурентоспособность; выявить возможности использования цифровых технологий для обеспечения устойчивого развития территорий; сформулировать рекомендации по совершенствованию цифрового развития регионов.

Цифровая трансформация является одним из важных факторов повышения конкурентоспособности регионов, поскольку способствует развитию предпринимательства, росту производительности труда, расширению рынков сбыта и совершенствованию государственного управления. Для Узбекистана особое значение имеет обеспечение равномерного доступа регионов к цифровой инфраструктуре, поскольку территориальные различия в доступности интернета могут влиять на возможности внедрения цифровых технологий и привлечения инвестиций [4].

Одним из показателей, характеризующих развитие цифровой инфраструктуры, является количество абонентов с доступом к интернету в расчёте на 100 человек населения. По данным Национального комитета Республики Узбекистан по статистике, в 2025 году общереспубликанский показатель достиг 94,7 абонента на 100 человек населения по сравнению с 58,4 в 2020 году [4].

Анализ таблицы показывает, что в большинстве регионов страны в 2020–2025 годах наблюдалось увеличение количества интернет-абонентов относительно численности населения. Общереспубликанский показатель вырос на 36,3 абонента на 100 человек. Наиболее высокое значение среди представленных территорий в 2025 году зафиксировано в городе Ташкенте — 262,6, тогда как в Кашкадарьинской области оно составило 67,7. При этом показатель выше 100 не означает, что интернетом пользуется более 100% населения: один человек или организация могут иметь несколько подключений.

Таблица 1.

Динамика количества интернет-абонентов в отдельных регионах Узбекистана в 2020–2025 годах (на 100 человек населения)

Регион	**2020 г.**	**2023 г.**	**2025 г.**
Республика Узбекистан	58,4	82,6	94,7
Республика Каракалпакстан	56,1	75,7	87,3
Бухарская область	52,2	75,0	85,7
Джизакская область	47,8	67,5	79,3
Кашкадарьинская область	43,6	60,6	67,7
Навоийская область	64,4	88,8	107,3
Наманганская область	48,6	67,2	81,1
Самаркандская область	45,9	65,0	81,6
Сурхандарьинская область	43,4	59,9	67,9
Сырдарьинская область	59,2	82,8	96,9
Ташкентская область	42,5	64,7	73,8
Ферганская область	51,2	93,4	76,5
Хорезмская область	53,9	75,0	89,4
Город Ташкент	174,9	209,2	262,6

Источник: составлено автором на основе данных Национального комитета Республики Узбекистан по статистике [4].

Следует обратить внимание на динамику Ферганской области: показатель снизился с 93,4 в 2023 году до 76,5 в 2025 году. Это изменение требует дополнительной проверки и анализа методологических или статистических причин, прежде чем делать выводы об ухудшении цифровой инфраструктуры региона [4].

Различия между регионами свидетельствуют о необходимости дальнейшего развития цифровой инфраструктуры и повышения доступности современных технологий. Вместе с тем количество интернет-абонентов само по себе не отражает качество соединения, доступность цифровых навыков, уровень использования электронных услуг и степень внедрения цифровых решений предприятиями. Поэтому для комплексной оценки конкурентоспособности регионов данный показатель необходимо рассматривать совместно с данными о производительности труда, инвестициях, занятости и развитии цифрового предпринимательства.

Дополнительные возможности для регионального развития связаны с расширением экспорта IT-услуг и созданием новых рабочих мест. По данным Всемирного банка, экспорт услуг, связанных с информационными технологиями, в Узбекистане увеличился с 600 тыс. долларов США в 2017 году до 140 млн долларов в 2022 году. При этом доля сектора информационно-коммуникационных технологий в ВВП страны в 2022 году составляла 1,9% [5]. Эти данные демонстрируют потенциал цифрового сектора для диверсификации экономики, однако для оценки его регионального эффекта необходимы дополнительные сведения о распределении IT-компаний, экспорта и занятости по территориям.

Таким образом, цифровая экономика является важным фактором устойчивого развития и повышения конкурентоспособности регионов. Внедрение цифровых технологий способствует повышению производительности труда, развитию предпринимательства, привлечению инвестиций и созданию новых рабочих мест. Вместе с тем сохраняющиеся различия в уровне цифровой инфраструктуры и доступности современных технологий ограничивают возможности отдельных регионов. В связи с этим приоритетными направлениями должны стать развитие цифровой инфраструктуры, повышение цифровой грамотности населения и поддержка инновационной деятельности региональных предприятий. Реализация данных мер позволит сократить межрегиональные различия и обеспечить более устойчивый экономический рост Узбекистана.

Список использованной литературы

1. World Bank. Digital Progress and Trends Report. Washington, DC: World Bank. URL: https://www.worldbank.org/en/publication/digital-progress-and-trends-report

2. UNCTAD. Digital Economy Report 2024: Shaping an Environmentally Sustainable and Inclusive Digital Future. Geneva: United Nations, 2024. URL: https://unctad.org/system/files/official-document/der2024_en.pdf

3. Указ Президента Республики Узбекистан от 5 октября 2020 года № УП-6079 «Об утверждении Стратегии „Цифровой Узбекистан — 2030“ и мерах по её эффективной реализации». URL: https://lex.uz/ru/docs/5031048

4. Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Количество абонентов с доступом в сеть Интернет в расчёте на 100 человек населения (по регионам). Информационная система SIAT. URL: https://siat.stat.uz/data/1269/?lang=ru

5. World Bank. World Bank to Support Uzbekistan in Developing the Digital Economy and Creating New Jobs in the Information Technology Sector. 30 November 2023. URL: https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/11/30/world-bank-to-support-uzbekistan-in-developing-the-digital-economy-and-creating-new-jobs-in-the-it-sector

6. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2026. New York: United Nations, 2026. URL: https://unstats.un.org/sdgs/report/2026/

MINTAQAVIY INVESTITSIYA VA INNOVATSIYA INFRATUZILMASINI QO‘LLAB QUVVATLASH NATIJADORLIGINI MONITORING QILISH

Xamrayev Quvvat Iskandarovich,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti,
“Biznes va boshqaruv” kafedrasi dotsenti

Hududiy infratuzilmaga sarflangan mablag‘ning o‘zlashtirilishi loyiha korxonaga foyda keltirganini to‘liq ko‘rsatmaydi. Laboratoriya qurilishi, xizmat ko‘rsatilishi, texnologiya joriy etilishi va ishlab chiqarish samaradorligining o‘zgarishi turli bosqichlardir. Ularning har birida alohida axborot kerak. Shu bois hisobot shaklini moliyaviy ijrodan boshlab korxona natijasigacha bog‘laydigan monitoring tizimi zarur.

Tadqiqot savoli quyidagicha: infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlashning bajarilishini kuzatish bilan uning iqtisodiy natijasini baholashni qanday uyg‘unlashtirish mumkin? Maqsad - boshqaruv qarorlari uchun yetarli, lekin korxonalar zimmasiga ortiqcha hisobot yuklamaydigan axborot va baholash tartibini ishlab chiqish. Asosiy e’tibor ko‘rsatkichlar soniga emas, ularning qaror bilan bog‘liqligiga qaratiladi.

Xorazm viloyatida qo‘llashga mo‘ljallangan modelda tuman, xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot, loyiha va korxona darajasidagi ma’lumotlar farqlanadi. Respublika bo‘yicha umumiy vaqtli qator mavjud bo‘lishi bu darajalardagi kuzatuvlarning o‘rnini bosa olmaydi.

Maqolaning taklif etilayotgan hissasi monitoring indikatorini ma’lumot manbasi, kuzatish muddati va qaror turi bilan birgalikda belgilashdir. Bu tizim qaysi holatda xizmatni yaxshilash, qaysi holatda loyihani chuqurroq tekshirish va qaysi sharoitda ta’sir bahosini o‘tkazish zarurligini ajratishga xizmat qiladi.

OECDning dasturlarni baholash bo‘yicha qo‘llanmasi ishonchli baholash natijalarini siyosat ishlab chiqishda ishlatishga qaratilgan[158]. Oslo qo‘llanmasidagi innovatsiya ta’rifi esa sarflangan mablag‘ bilan amalda joriy etilgan yangilikni ajratishga yordam beradi[159] . Hududiy innovatsiya siyosatiga oid tadqiqot mahalliy sharoitga mos yondashuv uchun asos beradi[160]. Mazkur maqolada ushbu g‘oyalar loyiha darajasidagi axborot tizimiga tatbiq etiladi.

1-jadval.

Monitoringda ajratilishi taklif etilayotgan darajalar

Daraja	Indikator namunasi	Tekshirish manbasi
Resurs	Moliyalashtirish va uskuna tayyorligi	Moliyaviy qayd va qabul dalolatnomasi
Xizmat	Xizmat olgan noyob korxonalar soni	Xizmat reyestri va bajarilgan ish hujjati
Bevosita natija	Korxonada joriy etilgan yechimlar ulushi	Joriy etish qaydi va korxona tasdig‘i
Iqtisodiy natija	Mahsulot birligiga resurs sarfi	Ishlab chiqarish va hisob ma’lumoti
Qo‘shimcha ta’sir	Taqqoslashga nisbatan natija o‘zgarishi	Mos korxonalar bo‘yicha panel ma’lumot

Usul natijalar zanjirini loyihalash, indikatorlar pasportini tuzish va shartli taqqoslash hisobidan iborat. Empirik tanlanma shakllantirilmaganligi sababli statistik ahamiyat yoki haqiqiy dastur samarasi haqida xulosa chiqarilmaydi. Taklif etilgan kuzatish muddatlari sinov dasturi uchun tashkiliy variant bo‘lib, loyihaning texnologik sikliga moslashtiriladi.

Jadvaldagi darajalar bir-birini almashtirmaydi. Xizmat ko‘rsatilgan korxonalar soni yuqori bo‘lishi foydalanish qamrovini ifodalaydi, lekin xizmatning texnologik natijasini ko‘rsatmaydi. Bir korxona bir necha marta xizmat olsa, xizmatlar soni va noyob foydalanuvchilar soni alohida beriladi. Shunda faoliyat hajmining ko‘payishi yangi korxonalar jalb etilgani bilan aralashmaydi.

Indikatorni tanlashda uning hisoblanishi boshqaruv qarorini o‘zgartirishi tekshiriladi. Agar ko‘rsatkich takroriy ma’lumot bersa yoki mas’ul tashkilot uni tekshira olmasa, u asosiy hisobotga kiritilmaydi. Kengaytirilgan tadqiqot uchun zarur o‘zgaruvchilar esa kundalik monitoringdan alohida yig‘ilishi mumkin.

Har bir loyiha uchun o‘zgarmas identifikator berilishi taklif etiladi. U ariza, texnik topshiriq, moliyalashtirish, xizmat va natija yozuvlarini birlashtiradi. Korxona identifikatori loyiha identifikatoridan alohida saqlanadi, chunki bitta korxona turli yillarda bir nechta loyihada qatnashishi mumkin. Hudud, tarmoq va xizmat turi yagona klassifikator asosida belgilanadi.

Bazaviy ma’lumot yordam ko‘rsatilishidan oldin qayd etiladi. Keyinchalik korxonadan oldingi holatini eslab berishni so‘rash o‘lchov xatosini kuchaytirishi mumkin. Barcha ko‘rsatkichlar uchun bir xil vaqt oynasi tanlanadi: masalan,

[158] OECD. (2023). Framework for the Evaluation of SME and Entrepreneurship Policies and Programmes 2023. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/a4c818d1-en.

[159] OECD/Eurostat. (2018). Oslo Manual 2018: Guidelines for Collecting, Reporting and Using Data on Innovation (4th ed.). OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264304604-en.

[160]OECD. (2020). Broad-based Innovation Policy for All Regions and Cities. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/299731d2-en.

xizmatdan oldingi va keyingi mos oylar yoki choraklar taqqoslanadi. Mavsumiy ishlab chiqarishda ketma-ket ikki oy natijasini solishtirish yetarli bo‘lmasligi mumkin.

Sinov dasturida uchta kuzatish nuqtasi ajratilishi mumkin: xizmat boshlanishi, xizmat yakuni va joriy etishdan keyingi kelishilgan muddat. Uzoq texnologik siklga ega loyihada uchinchi nuqta kechroq belgilanadi. Muddati yetmagan loyiha muvaffaqiyatsiz deb hisoblanmaydi. Hisobotda yakunlangan, davom etayotgan, to‘xtatilgan va natijasi noma’lum loyihalar ajratib ko‘rsatiladi.

Ma’lumot sifati to‘liqlik, o‘z vaqtida kiritilish, mantiqiy moslik va manba bilan tasdiqlanish mezonlari orqali tekshiriladi

Pul ko‘rsatkichlari taqqoslanganda narx o‘zgarishi va hisob birligi hisobga olinishi kerak. Sotuvning nominal o‘sishi texnologik yaxshilanishni bevosita anglatmaydi. Imkon bo‘lsa, mahsulot birligiga energiya sarfi, nuqsonli mahsulot ulushi yoki jarayon davomiyligi kabi bevosita ko‘rsatkichlar olinadi. Turli mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda ularni ham bir xil mezonda hisoblash shartlari tekshiriladi.

Korxonaning tijorat ma’lumotlari bilan ochiq monitoring natijalari ajratiladi. Ochiq hisobotda umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar berilishi, individual yozuvlardan esa vakolati belgilangan tahlilchilar foydalanishi taklif etiladi. Kichik guruhda korxonani bilvosita aniqlash mumkin bo‘lsa, agregatsiya darajasi oshiriladi.

Oddiy oldin–keyin taqqoslash iqtisodiyotdagi umumiy o‘zgarishlarni dastur natijasidan ajratmaydi. Masalan, talab oshishi qo‘llab-quvvatlangan va qo‘llab-quvvatlanmagan korxonalarda bir vaqtda sotuvni ko‘paytirishi mumkin. Shuning uchun imkon mavjud bo‘lsa, o‘xshash tarmoq, hajm va boshlang‘ich sharoitga ega taqqoslash guruhi kuzatiladi. Guruh tanlovi yordam ko‘rsatilgandan keyingi natijaga qarab amalga oshirilmasligi kerak.

Ikki guruh va ikki davr uchun farqlar farqi quyidagicha yoziladi:

$\delta = (Y_{t1} - Y_{t0}) - (Yc_1 - Yc_0)$.

Bu yerda T - qo‘llab-quvvatlangan guruh, C - taqqoslash guruhi, 0 - oldingi, 1 - keyingi davr. Formula ikki guruhdagi o‘zgarishlar farqini beradi. Uni sababiy ta’sir sifatida talqin qilish qo‘shimcha farazlar bajarilishiga bog‘liq.

2-jadval.

Mehnat unumdorligi indeksi bo‘yicha shartli misol

Guruh	Oldingi davr	Keyingi davr	O‘zgarish
Qo‘llab-quvvatlangan	100	118	18 punkt
Taqqoslash	100	110	10 punkt
O‘zgarishlar farqi	-	-	8 punkt

Jadvaldagi qiymatlar haqiqiy korxona kuzatuvlari emas. Misolda dastur ishtirokchilarining o‘sishi 18 indeks punktiga teng, lekin taqqoslashga nisbatan farq 8 punktdir. Bu 8 foiz degani emas; ko‘rsatkich indeks punktida o‘lchanmoqda. Tanlanma hajmi va tarqoqlik berilmagani sababli standart xato yoki statistik ahamiyat hisoblanmaydi.

Sababiy talqin uchun dastursiz holatda guruhlar o‘xshash trendga ega bo‘lishi, davrda faqat bir guruhga ta’sir qiladigan boshqa muhim hodisa bo‘lmasligi va tarkib keskin o‘zgarmasligi muhim. Oldingi bir nechta davr ma’lumotlari trendlar haqidagi

taxminni tekshirishga yordam beradi, ammo uni mutlaq isbotlamaydi. Xizmat olgan korxona tajribasi boshqa guruhga tarqalsa, taqqoslash natijasi ham o‘zgaradi.

3	Анимированная заставка национального сериала (ролик спонсора по 5 сек. в начале и конце сериала, с вкл. 6 анонсов) 2 раза в день (оригинал + повтор)	за 1 пакет/месяц (не менее 20-ти серий)	504 000 000 UZS
4	Анимированная заставка иностранного сериала (ролик спонсора по 5 сек. в начале и конце сериала, вкл. 6 анонсов) 2 раза в день (оригинал, без повтора)	за 1 пакет/месяц (не менее 20-ти серий)	420 000 000 UZS
5	Анимированная заставка блока анонсов телепроектов (два ролика спонсора по 5 сек. в начале и в конце блока) не менее 15 блоков в день.	за 1 пакет/месяц (не менее 450 блоков)	1 080 000 000 UZS

II. СПЕЦИАЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ И ПАКЕТЫ

п/н	Вид услуг:	Структура	Цена (UZS/сум)
1	Размещение коммерческого репортажа в вечернем эфире телеканала "ZO'R TV" (включая изготовление репортажа и эфирное время не более 2-х минут)	За 1 репортаж	90 000 000 UZS
2	Размещение "Product Placement" (продукта, товара, услуги и т.д) и интеграции логотипа спонсоров в декорации авторских ЕЖЕНЕДЕЛЬНЫХ телепередач, изготовленных редакцией телеканала "ZO`R TV". Одна оригинальная трансляция и один повтор (Объявление спонсора ведущим 2 раза в течение передачи, вручение подарка от спонсора.)	за 1 пакет/месяц (не менее 4х телепередач)	130 000 000 UZS
3	Размещение "Product Placement" (продукта, товара, услуги и т.д) и интеграции логотипа спонсоров в декорации специальных проектов - реалити-шоу (ежедневно/будние дни/пн-пт), изготовленных редакцией телеканала "ZO`R TV". Одна оригинальная трансляция (Объявление спонсора ведущим 2 раза в течение передачи, вручение подарка от спонсора.)	за 1 пакет/месяц (не менее 20-ти телепередач)	260 000 000 UZS
4	Спонсорство авторских телепередач, изготовленной редакцией телеканала "ZO`R TV". Одна оригинальная трансляция и один повтор (2 спонсорские заставки 5 сек. И объявление спонсора ведущим 2 раза в течение передачи, вручение подарка от спонсора. Анонсы в кол-ве не менее 6 раз в день)	за 1 оригинальную программу в неделю	115 000 000 UZS
5	Спонсорство специальных проектов (коммерческих, культурно-массовых, спортивных и др. телепередач), изготовленных и/или транслируемых в прямом эфире телеканала "ZO`R TV". Одна оригинальная трансляция и один повтор (2 спонсорские заставки 5 сек. И объявление спонсора ведущим 2 раза в течение передачи. Анонсы в кол-ве не менее 8 раз в день)	за 1 оригинальную программу	230 000 000 UZS

Bu kabi holatlar OAV mumtoz boshqaruv tizimiga qaraganda ko‘plab o‘ziga hosliklarni va istisnolarni o‘zida mujassamlashtirganini anglatadi. Umuman olganda san’at va madaniyat muassasalari, OAVni boshqaruv jarayonlari ijod va uning samaradorligi kabi mashinal holatlarga bog‘liq bo‘lmaganligi uchun ham soha menejerdan alohida motivatorlik bilim va qobiliyatini talab qiladi.

Shu bilan birga, OAVning davlat va jamiyat oldidagi burchi, uning norasmiy 4-hokimiyat ko‘rinishidagi qudrati, moliyaviy erkinlik va barqarorlik uchun intilishi, holislik prinsipiga amal qilishi, raqobat maydonidagi shiddati, tezkorlik va yuksak bilim-mahoratni talab qilishi, ijodkorlik kabi muhim omillarga tayanishi OAV boshqaruvining o‘ziga hosligi va murakkabligini aks ettiradi.

Hulosa sifatida, Ommaviy axborot vositalarini boshqarish menejment sohasidan tezkorlikni, ijodkorlik va ma’lum texnik ta’minot, huquqiy savodxonlik, iste’molchi psixolgiyasi va auditoriya ehtiyoji kabi muhim omillarni bilish mahoratini talab qiladi. Axborot tezkor bo‘lsagina foydali! Shu sababli sohani alohida didga ega bo‘lgan, shiddatli onglar boshqarishi darkor. Shunda axborot moddiy foyda keltiradigan manbaaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Media makonda manipulyatsiyaning nazariy metodologik tahlili”, Marifjonov Abrorjon, Development and innovations in science International scientific-online conference

[189] Менеджмент СМИ в условиях конвергенции, Вырковский А.В., Вестник Московского университета Серия 10. Журналистика

2. Mediamarketing va menejment, X. Do’stmuhammad, Toshkent, “O‘zbekiston 2019”.
3. Словарь иностранных слов. Комлев Н.Г., Москва – 2006.
4. Менеджмент СМИ в условиях конвергенции, Вырковский А.В., Вестник Московского университета Серия 10. Журналистика
5. https://www.journalovirus.ru/funktsii-mass-media-osnovnye-vidy-i-ihzn

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Jahongir Nazarov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti, tadq.

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya hududlar o‘rtasidagi raqobat shartlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan hududlar yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, bandlikni diversifikatsiya qilish va davlat xizmatlari sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Aksincha, raqamli infratuzilmasi zaif hududlarda "raqamli tafovut" ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosiblikni chuqurlashtirmoqda. O‘zbekistonda ushbu jarayonlar davlat siyosati darajasida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasida hududlar va tarmoqlarni raqamlashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda elektron hukumat tizimini takomillashtirish vazifalari aniq belgilab berilgan. Shu bois raqamli iqtisodiyot imkoniyatlarini hududlarning barqaror rivojlanishiga yo‘naltiruvchi mexanizmlarni ilmiy asoslash dolzarb hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasining klassik ta'rifi BMTning Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha xalqaro komissiyasi ma'ruzasida berilgan. Unga ko‘ra, barqaror rivojlanish hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga zarar yetkazmagan holda qondirishdir. Ushbu yondashuv keyinchalik iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o‘lchamlar uyg'unligi sifatida hududiy darajaga ham ko‘chirildi.

Raqamli iqtisodiyot atamasi ilmiy muomalaga D. Tapskott tomonidan kiritilgan. Muallif tarmoq texnologiyalari asosida bilim va axborot asosiy iqtisodiy resursga aylanishini, natijada biznes modellari va mehnat munosabatlari tubdan o‘zgarishini asoslagan. Jahon bankining "Raqamli dividendlar" ma'ruzasida raqamli texnologiyalarning foydasi avtomatik ravishda taqsimlanmasligi ta'kidlanadi. Ularning samarasi "analog asoslar" tartibga solish muhiti, inson kapitali va institutlar sifati bilan bog'liqligi isbotlangan. Bu xulosa hududiy barqarorlik uchun alohida ahamiyatga ega: infratuzilma yaratishning o‘zi yetarli emas, uni institutsional va ijtimoiy mexanizmlar bilan to‘ldirish zarur. YUNKTADning raqamli iqtisodiyot bo‘yicha ma'ruzasida raqamlashtirishning ekologik oqibatlari – energiya iste'moli va elektron chiqindilar ortishi masalasi ko‘tarilgan. Demak, hududiy barqarorlik mexanizmida raqamli texnologiyalarning ekologik "izi"ni ham hisobga olish lozim.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda raqamli iqtisodiyot va hududiy barqarorlik ko‘pincha alohida o‘rganilgan. Ularni yagona mexanizm

doirasida bog'lovchi, ko‘rsatkichlar tizimi va boshqaruv vositalarini birlashtiruvchi model yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy tahlil, guruhlash, indeks usuli hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar ma'ruzalari tashkil etadi. Hududiy barqarorlikni baholash uchun to‘rt kichik indeksdan iborat integral indeks taklif etiladi. Har bir ko‘rsatkich min-max usulida normallashtiriladi (rag'batlantiruvchi ko‘rsatkichlar uchun):

$$x'_{ij} = (x_{ij} - x_j^{min}) / (x_j^{max} - x_j^{min}) \qquad (1)$$

Cheklovchi (destimulyator) ko‘rsatkichlar uchun suratda ($x_j^{max} - x_{ij}$) olinadi. Kichik indekslar ko‘rsatkichlarning o‘rtacha arifmetigi sifatida hisoblanadi, integral indeks esa ularning tortilgan yig'indisidir:

$$I\_RB = 0{,}30 \cdot I\_iq + 0{,}30 \cdot I\_ij + 0{,}20 \cdot I\_ek + 0{,}20 \cdot I\_rq \qquad (2)$$

Bu yerda I_iq – iqtisodiy, I_ij – ijtimoiy, I_ek – ekologik, I_rq – raqamli-institutsional kichik indeks. Vazn koeffitsiyentlari ekspert baholash asosida belgilanadi va keyingi tadqiqotlarda bosh komponentlar usuli bilan aniqlashtirilishi mumkin. I_RB qiymatiga ko‘ra hududlar to‘rt guruhga ajratiladi: yuqori (0,75–1,00), o‘rtacha (0,50–0,74), past (0,25–0,49) va kritik (0,25 dan past) barqarorlik.

Tadqiqot natijasida hududiy barqarorlikni raqamli iqtisodiyot sharoitida baholashning 16 ta ko‘rsatkichdan iborat tizimi ishlab chiqildi. Ko‘rsatkichlar to‘rt kichik indeks bo‘yicha guruhlandi va har biri uchun ta'sir yo‘nalishi belgilandi (1-jadval).

1-jadval

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni baholash ko‘rsatkichlari tizimi

Kichik indeks (vazni)	**Ko‘rsatkich**	**O‘lchov birligi**	**Ta'sir yo‘nalishi**
Iqtisodiy, I_iq (0,30)	Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot	ming so‘m	rag'batlantiruvchi
	YaHMda AKT xizmatlari ulushi	%	rag'batlantiruvchi
	Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar	ming so‘m	rag'batlantiruvchi
	Elektron tijorat aylanmasining chakana savdodagi ulushi	%	rag'batlantiruvchi
Ijtimoiy, I_ij (0,30)	Ishsizlik darajasi	%	cheklovchi
	Kambag'allik darajasi	%	cheklovchi
	Aholi jon boshiga real daromadlar	ming so‘m	rag'batlantiruvchi
	Raqamli savodxonlik kurslarini tamomlaganlar ulushi	%	rag'batlantiruvchi
Ekologik, I_ek (0,20)	YaHM birligiga to‘g'ri keladigan energiya iste'moli	kg n.e./mln so‘m	cheklovchi
	Atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi	ming tonna	cheklovchi

	Raqamli monitoring bilan qamrab olingan suv va yer resurslari ulushi	%	rag'batlantiruvchi
	Qayta ishlangan chiqindilar ulushi	%	rag'batlantiruvchi
Raqamli-institutsional, I_rq (0,20)	Internetdan foydalanuvchi aholi ulushi	%	rag'batlantiruvchi
	Keng polosali internet bilan qamrab olingan aholi punktlari ulushi	%	rag'batlantiruvchi
	Elektron shaklda ko‘rsatilgan davlat xizmatlari ulushi	%	rag'batlantiruvchi
	10 ming aholiga to‘g'ri keladigan IT-korxonalar soni	birlik	rag'batlantiruvchi

1-jadvalning ilmiy yangiligi shundaki, an'anaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga raqamli-institutsional kichik indeks qo‘shilgan. Shu bilan birga, iqtisodiy va ijtimoiy kichik indekslarga ham raqamli tarkibiy ko‘rsatkichlar (AKT ulushi, elektron tijorat, raqamli savodxonlik) kiritilgan. Bu raqamlashtirishning barqarorlikka ta'sirini alohida emas, balki har bir o‘lchamda kuzatish imkonini beradi. Keyingi bosqichda barqarorlikni ta'minlash mexanizmi besh blokka ajratildi. Har bir blok uchun aniq vositalar, mas'ul subyektlar va 1-jadvaldagi qaysi kichik indeksga ta'sir qilishi belgilandi (2-jadval).

2-jadval

Hududiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmining tarkibiy bloklari va vositalari

Mexanizm bloki	**Asosiy vositalar**	**Mas'ul subyektlar**	**Ta'sir etuvchi kichik indeks**
1. Huquqiy-me'yoriy	Hududiy raqamlashtirish dasturlari; ma'lumotlar almashinuvi standartlari; regulyativ "qum qutilari"	Hokimliklar, Raqamli texnologiyalar vazirligi	I_rq
2. Moliyaviy-iqtisodiy	Raqamli startaplar uchun soliq imtiyozlari; davlat-xususiy sheriklik; IT-parklar hududiy filiallari	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, tijorat banklari	I_iq
3. Infratuzil-maviy	Optik tolali tarmoqlarni qishloqlarga yetkazish; hududiy ma'lumotlar markazlari	Telekommunikatsiya operatorlari, hokimliklar	I_rq, I_iq
4. Ijtimoiy-kadrlar	Raqamli savodxonlik kurslari; masofaviy bandlik platformalari; IT-akademiyalar	Bandlik markazlari, OTMlar, mahalla tizimi	I_ij
5. Monitoring va boshqaruv	Hududiy barqarorlik dashbordi; I_RB indeksini har chorakda hisoblash; ekologik raqamli monitoring	Statistika agentligi, hokimliklar	I_ek, barcha indekslar

2-jadval mexanizmni boshqariladigan tizim sifatida ko‘rsatadi: har bir vosita aniq subyektga biriktirilgan va natijasi 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar orqali o‘lchanadi.

Ayrim ko‘rsatkichlar (raqamli savodxonlik, raqamli monitoring qamrovi) hozircha hududlar kesimida rasmiy statistikada muntazam e'lon qilinmaydi. Vazn koeffitsiyentlari ekspert yo‘li bilan belgilangan, shu sababli keyingi tadqiqotlarda

ularni bosh komponentlar usuli yoki entropiya usuli bilan empirik aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Hududiy barqarorlikni baholashda an'anaviy uch o‘lchamga to‘rtinchi – raqamli-institutsional o‘lchamni qo‘shish taklif etiladi. Buning uchun 16 ta ko‘rsatkich va to‘rt kichik indeksdan iborat tizim ishlab chiqildi.

Integral I_RB indeksi asosida hududlarni to‘rt guruhga ajratish va har bir guruh uchun differensial siyosat yuritish tavsiya etiladi. Kritik va past guruhdagi hududlarga infratuzilmaviy va ijtimoiy-kadrlar bloki vositalari ustuvor yo‘naltirilishi lozim.

Viloyat hokimliklari huzurida I_RB indeksini har chorakda hisoblovchi "Hududiy barqarorlik dashbordi"ni joriy etish taklif qilinadi.

Statistika agentligi tomonidan raqamli savodxonlik va elektron davlat xizmatlari ulushi ko‘rsatkichlarini hududlar kesimida muntazam e'lon qilish yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Hududiy raqamlashtirish dasturlarida ekologik talablarni – energiya samaradorligi va elektron chiqindilarni qayta ishlashni – majburiy mezon sifatida belgilash zarur.

CYBER RISKS FACED BY ENTERPRISES: CYBER RISK AND ENTERPRISE ECONOMIC SECURITY — ASSESSING VULNERABILITIES IN DIGITALLY INTEGRATED BUSINESS ENVIRONMENTS

Ansapxonova Xonzodaxon Nusratxon qizi
Student of Tashkent State University of Economics

Abstract. Digital technologies help enterprises improve efficiency and manage operations, but dependence on connected systems also increases exposure to cyberattacks. This article summarizes key enterprise cyber risks, their economic consequences, and practical ways to reduce them. Phishing, ransomware, data breaches, stolen credentials, insider threats, and supply-chain attacks can cause direct financial losses, interrupt business activity, damage reputation, and weaken competitiveness. Recent industry reports show that these risks are significant: Verizon’s 2025 Data Breach Investigations Report found ransomware in 44% of analyzed breaches, while IBM estimated the average global cost of a data breach at USD 4.44 million in 2025. The article argues that cybersecurity should be treated as an essential part of enterprise economic security and supported by risk assessment, employee training, access controls, backups, and incident-response planning.

Keywords: cybersecurity, cyber risk, enterprise economic security, digitalization, ransomware, phishing, data breaches, risk assessment, business continuity.

Enterprises increasingly rely on cloud services, online payments, databases, digital supply chains, and remote access. These tools improve productivity, but a single weakness can expose connected systems and business information. A cyber incident may prevent employees from working, stop orders or payments, expose

customer data, and require costly recovery. Cybersecurity is therefore not only a technical responsibility; it is also an economic issue that affects revenue, operational stability, legal compliance, and trust. This article outlines the main risks and proposes practical measures for managing them.

Enterprise economic security means protecting an organization's financial resources, operations, information, reputation, and competitive position. Cybersecurity supports this goal by protecting payments and records, keeping essential services available, safeguarding intellectual property, and reducing the likelihood of legal claims or customer loss. For example, if attackers disable an accounting system, a company may be unable to invoice customers or pay suppliers on time. The resulting damage can extend beyond the cost of repairing computers: delayed production, lost sales, and reduced trust may continue after systems are restored.

Phishing and social engineering use deceptive emails, messages, or calls to persuade employees to reveal passwords, open harmful files, or approve fraudulent payments. Staff awareness and clear verification procedures are important defenses.

Ransomware blocks access to systems or data and may demand payment. It can disrupt production, logistics, accounting, and customer service. Verizon reported ransomware in 44% of breaches analyzed in its 2025 report, highlighting the need for secure backups and tested recovery plans.

Data breaches occur when unauthorized people access confidential information, including customer records, financial documents, or intellectual property. They can create investigation and notification costs, regulatory exposure, and reputational damage. IBM's 2025 report estimated the average global cost of a data breach at USD 4.44 million.

Credential abuse occurs when attackers use stolen or weak passwords to enter business systems. Multi-factor authentication, unique passwords, and prompt removal of former employees' access reduce this risk. Insider threats may arise from mistakes or intentional misuse by employees and contractors; access should be limited to what each person needs.

Supply-chain attacks exploit vulnerabilities in suppliers, software providers, or other business partners. Since connected organizations may share systems and data, enterprises should assess third-party security and define responsibilities in contracts.

Common weaknesses include outdated software, weak authentication, excessive user privileges, misconfigured cloud services, untested backups, and limited monitoring. Digital integration can increase the impact of these weaknesses because attackers may move from one connected system to another. Table 1 links common risks with their likely business consequences.

Cyber incidents create direct and indirect losses. Direct losses include stolen funds, forensic investigations, system restoration, legal expenses, and possible penalties. Indirect losses include missed sales, production delays, employee downtime, customer turnover, and harm to the company's reputation. Smaller enterprises may be particularly vulnerable when they lack dedicated security staff or financial reserves.

Cyber risk	Common weakness	Possible economic consequence
Phishing	Human error; weak verification	Fraud, stolen credentials
Ransomware	Unpatched systems; weak backups	Downtime, recovery costs
Data breach	Poor access controls	Legal costs, customer loss
Insider threat	Excessive privileges	Data theft or financial loss
Supply-chain attack	Weak third-party security	Service disruption
Cloud misconfiguration	Incorrect security settings	Unauthorized data access

A basic assessment model is: Cyber risk = likelihood of an incident × potential impact. Enterprises should identify critical assets, consider how likely each threat is, and estimate the financial and operational consequences. The results help managers prioritize controls rather than spending equally on every possible threat. Table 2 gives an illustrative qualitative assessment; actual ratings should be based on each organization's systems and evidence.

Risk	Likelihood	Potential impact	Priority
Ransomware	High	Very high	Very high
Credential abuse	High	High	High
Data breach	Medium	Very high	High
Supply-chain attack	Medium	Very high	High
DDoS / service outage	Medium	Medium	Medium

Enterprises should adopt a practical, layered approach. First, train employees to recognize suspicious messages and independently verify requests to transfer money or share sensitive data. Second, enable multi-factor authentication and give users only the access required for their roles. Third, update software promptly and monitor systems for unusual activity. Fourth, keep protected backups and test whether data and services can actually be restored. Fifth, evaluate suppliers and cloud providers before sharing important information. Finally, prepare an incident-response plan that identifies who must act, how customers and authorities will be contacted when required, and how essential operations will continue.

These actions should be reviewed regularly. Management can begin with the systems whose failure would cause the greatest financial or operational harm, then improve controls according to risk and available resources. The NIST Cybersecurity Framework 2.0 provides a recognized structure for identifying, protecting, detecting, responding to, and recovering from cybersecurity incidents.

Cyber risks are closely connected to enterprise economic security because attacks can affect money, operations, information, reputation, and competitiveness. Phishing, ransomware, data breaches, credential abuse, insider threats, and supply-chain weaknesses require more than technical solutions alone. Risk assessment, employee awareness, strong authentication, software maintenance, secure backups, and incident planning can reduce both the likelihood and the impact of incidents. Cybersecurity should therefore be treated as a continuing investment in business resilience, not simply as an IT expense.

References

1. IBM Security. (2025). Cost of a Data Breach Report 2025. IBM.
2. Verizon Business. (2025). 2025 Data Breach Investigations Report. Verizo

3. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2025). ENISA Threat Landscape 2025.
4. National Institute of Standards and Technology (NIST). (2024). The NIST Cybersecurity Framework (CSF) 2.0.
5. Anderson, R. (2020). Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems. Wiley.

BANK TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINI JORIY ETISHNING MUAMMOLI KREDITLAR (NPL) HAJMINI KAMAYTIRISHDAGI SAMARADORLIGI

Salixova Go‘zal Jaxongir qizi
Tashkent International University tadqiqotchisi

Bank xizmatlarini raqamlashtirish kredit qarorlarini tezlashtiradi, biroq uning natijasini faqat onlayn ajratilgan kreditlar soni bilan baholash yetarli emas. Kreditning o‘z vaqtida qaytishi, qarzdor holatidagi salbiy o‘zgarishlarning erta aniqlanishi va aniqlangan signal bo‘yicha ko‘rilgan chora muhimdir. PF-5992-son Farmon bilan tasdiqlangan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida axborot texnologiyalarini keng joriy etish va bank faoliyatini transformatsiya qilish yo‘nalishlari belgilangan.[190]

Ushbu tezisda raqamli skoring, kreditdan keyingi kuzatuv va avtomatlashtirilgan undiruvning kredit sifatiga qanday ta’sir qilishi tahlil etiladi. Raqamli skoring kredit tarixi, daromad, hisobvaraq aylanmasi va mavjud majburiyatlarni birgalikda baholash imkonini beradi. Muqobil ma’lumotlar tahlilni boyitishi mumkin, ammo avval ularni olishning qonuniy asosi va ishonchliligi tekshirilishi kerak. Bir mijozga tegishli takroriy yozuvlar, eskirgan daromad ma’lumotlari yoki noto‘g‘ri qayd etilgan majburiyatlar baholash natijasini buzadi. Murakkab algoritm bunday kamchilikni o‘z-o‘zidan bartaraf etmaydi. Shuning uchun skoringni joriy etishda ma’lumotlarni tozalash va ularni asl manba bilan solishtirishga alohida e’tibor berish lozim. Modelning foydasi ham mijozlar tarkibi va kuzatuv davriga mos sinovda tekshiriladi.

Bizningcha, bank algoritm chiqargan bahoning asosiy sabablarini tushuntira olishi kerak. Shunda mutaxassis shubhali natijani tekshiradi, mijozning e’tirozi asosida noto‘g‘ri ma’lumotni tuzatadi. Avtomatik qarorni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati ham shu jarayonning bir qismidir.

Kredit ajratilgandan keyin qarzdorning daromadi va qarz yuklamasi o‘zgarishi mumkin. Erta ogohlantirish tizimi pul tushumining pasayishi, takroriy kechikishlar va majburiyatlarning ko‘payishini kuzatishga xizmat qiladi. Yevropa bank boshqarmasining kreditlarni ajratish va monitoring qilish bo‘yicha yo‘riqnomasi kreditning butun amal qilish muddati davomida kuzatuv hamda erta ogohlantirish indikatorlaridan foydalanishga e’tibor qaratadi.[191]

[190] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4811025
[191] European Banking Authority. Guidelines on loan origination and monitoring. EBA/GL/2020/06, 2020. https://www.eba.europa.eu/activities/single-rulebook/regulatory-activities/credit-risk/origination-and-monitoring

Hisobvaraq tushumining kamayishi qo‘shimcha tekshiruvga asos bo‘ladi. Ammo uning o‘zi mijoz to‘lovga qobiliyatsiz ekanini isbotlamaydi. Bank yangilangan moliyaviy axborotni olib, mijoz bilan vaziyatni aniqlashtirgandan keyin tegishli chorani tanlashi zarur.

Bu yerda axborotning yangilanish tezligi ham muhim. Platformaning tunu kun ishlashi tashqi bazalardan keladigan barcha ma’lumotlar real vaqt rejimida yangilanadi, degani emas. Bank signal qachon shakllanganini va qaysi davr ma’lumotiga tayanganini ko‘ra olishi lozim.

Muammoli kreditlar ulushi quyidagicha aniqlanadi: NPL ulushi = muammoli kreditlar summasi / jami kredit portfeli × 100. Ushbu nisbatning pasayishi har doim ham qarzlar yaxshiroq qaytayotganini anglatmaydi. Kredit portfeli tez kengayganda yoki muammoli aktivlar hisobdan chiqarilganda ham ulush kamayishi mumkin. Shu bois raqamlashtirish natijasini baholashda NPL summasi, yangi muammoli kreditlar oqimi, undirilgan mablag‘ va hisobdan chiqarishlar alohida kuzatilishi zarur.

Chakana va mikrokreditlashda arizalarni tez ko‘rib chiqish mijoz uchun qulaylik yaratadi. Biroq onlayn kreditlarning sifati an’anaviy kreditlardan doimo yuqori, degan xulosa alohida dalillarni talab etadi. Taqqoslashda kreditlarning muddati, mahsulot turi, qarzdorlarning dastlabki riski va kredit ajratilgan davr hisobga olinishi kerak. Yaqinda ajratilgan kreditlarda kechikishlar hali yuzaga chiqmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun raqamli xizmatlarning tezligi va kredit portfelining sifati alohida natijalar sifatida baholanishi maqsadga muvofiq.

Samaradorlikni baholash uchun yangi NPLga o‘tgan kreditlar ulushi, kechikishdan normal to‘lovga qaytgan kreditlar, signalga javob berish vaqti va monitoring xarajatlarini birgalikda kuzatishni taklif qilamiz.

Soxta ogohlantirishlarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Ular ko‘payganda xodimlar ko‘proq tekshiruv o‘tkazadi, haqiqiy riskli mijozlar bilan ishlashga esa kamroq vaqt qoladi. Demak, tizimning foydaliligini chiqarilgan signallar soni bilan baholash yetarli emas.

Avtomatlashtirish ma’lumotdagi xatolarni ko‘plab qarorlarga bir vaqtda tarqatishi mumkin. Texnologik uzilishlar, kiberhujumlar va tashqi xizmat ko‘rsatuvchilarga qaramlik ham nazoratni talab qiladi. Bazel qo‘mitasining moliyani raqamlashtirish haqidagi hisobotida yangi texnologiyalarning imkoniyatlari bilan birga ular yuzaga keltiradigan risklar ham ko‘rib chiqilgan.[192]

Fintech hamkorliklarida bank krediti bo‘yicha qarzdorlikni platformaning hisob-kitob yoki xizmat haqi bo‘yicha majburiyatlaridan ajratish lozim. Har qanday debitorlik qarzi avtomatik tarzda NPL hisoblanmaydi. Hamkorning vazifalari, ma’lumot sifati uchun javobgarligi, operatsiyalarni solishtirish tartibi va xizmat uzilgandagi harakatlar shartnomada aniq belgilanishi kerak.

Kechikkan to‘lovlar bilan ishlashda eslatmalar yuborish, murojaatlarni qayd etish va ishni mas’ul xodimga biriktirish avtomatlashtirilishi mumkin. Biroq qisqa texnik kechikish bilan davomli to‘lov qiyinchiligiga bir xil yondashib bo‘lmaydi. Dastlab mijozga eslatma yuborilib, to‘lov holati aniqlashtiriladi; muammo saqlansa,

[192] Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of finance. 16 May 2024. https://www.bis.org/publications/digitalisation-finance

ish mutaxassisga yo‘naltiriladi. Mijozning qarzni qaytarish imkoniyati mavjud bo‘lsa, individual yechim ko‘rib chiqiladi. Natijani yuborilgan xabarlar soni orqali emas, tiklangan to‘lovlar va qayta kechikishlar orqali baholash o‘rinlidir. Qo‘shimcha undirilgan mablag‘ va kamaygan yo‘qotishlar esa tizimni joriy etish hamda yuritish xarajatlari bilan taqqoslanadi.

Fintech xizmatini tanlashda uning narxi va tezligidan tashqari ma’lumotlarni tiklash imkoniyati, texnik uzilishlar bilan ishlash tartibi va bankning nazorat huquqlari ham baholanishi zarur. Hamkor platforma ishlamay qolganda mijozning to‘lovini qayd etish yoki qarzdorlik haqidagi axborotni olish to‘xtab qolmasligi uchun muqobil ish tartibi ishlab chiqilishi lozim. Riskni shartnoma orqali taqsimlash bankning o‘z kredit qarorlari ustidan nazoratini almashtirmaydi.

Ko‘rib chiqilgan mexanizmlar raqamlashtirish samarasini ma’lumot sifati va bank qarorining o‘z vaqtida bajarilishi bilan bog‘lashga asos beradi. Tez ajratilgan kreditning sifati keyingi to‘lovlarda bilinadi. NPL ulushidagi pasayish esa portfel o‘sishi va hisobdan chiqarishlar ta’siridan ajratib tahlil qilinishi kerak.

Amaliyotda sun’iy intellekt asosidagi skoringga bosqichma-bosqich o‘tish ma’qul. Dastlab kredit byurosi va qonuniy olinadigan muqobil ma’lumotlar tekshiriladi, so‘ng model cheklangan ko‘lamda sinovdan o‘tkaziladi. Erta ogohlantirish tizimida esa xabarni kim tekshirishi va qachon qaror qabul qilishi oldindan belgilanadi. Murakkab holatlarda mutaxassisning asoslangan bahosi saqlanadi.

Model riskini boshqarishda prognozlarni haqiqiy to‘lovlar bilan davriy solishtirish, salbiy ssenariylarda sinash va aniqlik pasayganda qayta sozlashni tavsiya qilamiz. Tekshiruv davriyligi modelning ahamiyati va riskiga mos bo‘lishi zarur. Fintech hamkorlar bilan kelishuvlarda esa risklarni taqsimlash, ma’lumotlarni himoyalash va xizmat uzilgandagi javobgarlik aniq ko‘rsatiladi. Shu tartibda raqamli kreditlashning qulayligi bankning kredit sifati ustidan nazorati bilan uyg‘unlashtiriladi.

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК ИНСТРУМЕНТ РЕАЛИЗАЦИИ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА

Саидова С.
магистрант ТГЭУ,
специальность «Макроэкономика»
Ахмедиева А.Т. *д.э.н.проф.*
Кафедры «Макроэкономическая политика и прогнозирование» ТГЭУ

Ключевые слова: демографический потенциал, демографический дивиденд, цифровая экономика, региональное развитие, занятость молодежи, Узбекистан.

Узбекистан вступает в этап, когда от эффективности использования демографического потенциала регионов во многом зависит долгосрочная траектория экономического роста. Численность постоянного населения страны на 1 января 2026 года составила 38,24 млн человек, увеличившись за

2025 год на 693,5 тыс. человек, или на 1,8%[193]. Одновременно в стране быстро развивается цифровая экономика: доля ИКТ-услуг в ВВП выросла с 2,4% в I полугодии 2024 года до 2,9% в I полугодии 2026 года[194], а экспорт IT-услуг в 2025 году впервые достиг 1 млрд долл. США при цели 5 млрд долл. к 2030 году[195]. Цель исследования – обосновать роль цифровой экономики как инструмента реализации демографического потенциала регионов.

Демографическая ситуация в регионах существенно различается. По данным на 1 апреля 2025 года, наиболее высокие темпы прироста населения отмечались в Сурхандарьинской (2,4%), Кашкадарьинской (2,2%) областях и г. Ташкенте (2,3%), наиболее низкие – в Республике Каракалпакстан (1,3%)[196]. Из 879,6 тыс. рождений 2025 года наибольшее число приходится на Самаркандскую (106,3 тыс.), Кашкадарьинскую (99,7 тыс.) и Ферганскую (98,3 тыс.) области. Именно в этих густонаселенных, преимущественно аграрных регионах в 2030-е годы будет формироваться основной прирост трудовых ресурсов.

На национальном уровне демографическая структура в последние годы сдерживала рост. Доля населения в возрасте 15–64 лет снизилась с 67,0% в 2015 году до 62,6% в 2025 году, а коэффициент демографической нагрузки вырос с 49,3 до 59,6 на 100 человек трудоспособного возраста[197]. Проведенная автором декомпозиция роста ВВП на душу населения по формуле $Y/N = (Y/L)\cdot(L/WA)\cdot(WA/N)$ показала, что изменение возрастной структуры обеспечивало около +1,2 п.п. ежегодного роста душевого ВВП в 2000–2010 годах, но в 2017–2024 годах его вклад стал отрицательным (–0,72 п.п. в год). Эконометрическая оценка по данным за 2001–2024 годы ($R^2 = 0,81$) подтвердила, что увеличение доли трудоспособного населения на 1% ассоциируется с ускорением роста ВВП на 1,07 п.п., снижение безработицы на 1 п.п. – на 0,80 п.п., а прирост числа абонентов мобильной связи на 10 на 100 жителей – на 0,14 п.п. Следовательно, демографический дивиденд превращается в экономический рост лишь тогда, когда растущая рабочая сила находит производительную занятость.

Именно здесь проявляются региональные ограничения. По данным Министерства занятости и сокращения бедности, в июне 2025 года 33% занятых работали в неформальном секторе, а 12% – за рубежом[198]. Доля денежных переводов в совокупных доходах населения в 2025 году достигла

[193]Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Население Узбекистана превысило 38,2 миллиона человек. – 28.01.2026. URL: https://stat.uz

[194]Доля ИКТ-услуг в ВВП Узбекистана в первом полугодии выросла до 2,9% // Yuz.uz. – 25.08.2026 (по данным Нацкомстата).

[195]Экспорт IT-услуг в Узбекистане планируют довести до $5 млрд к 2030 году – президент // Газета.uz. – 2025

[196]Национальный комитет Республики Узбекистан по статистике. Демографическая ситуация в Республике Узбекистан (январь–март 2025 года). URL: https://stat.uz

[197]World Bank. World Development Indicators: Uzbekistan (SP.POP.1564.TO.ZS; SP.POP.DPND). URL: https://databank.worldbank.org

[198]Безработица в Узбекистане снизилась до минимума с 2013 года – менее 5% // Spot.uz. – 12.11.2025 (по данным Министерства занятости и сокращения бедности).

21%, а в отдельных регионах превысила 30%[199]. Это означает, что значительная часть демографического потенциала регионов реализуется за пределами национальной экономики. Одновременно сохраняется региональный цифровой и образовательный разрыв: Интернетом пользуются 89% населения, а вне сети остаются прежде всего сельские жители и люди старшего возраста[200]; охват высшим образованием варьирует от 63% в Ташкенте до 23% в отдельных регионах[201]. Цифровой сектор пока сконцентрирован в столице, тогда как основной прирост молодежи приходится на регионы.

Зарубежный опыт подтверждает, что цифровизация может стать каналом реализации демографического дивиденда для регионов с избытком трудовых ресурсов. Индия и Филиппины используют экспорт IT- и деловых услуг для занятости молодежи без ее физической миграции, Сингапур – систему индивидуальных кредитов на обучение навыкам в течение всей жизни, Эстония – цифровую инфраструктуру государственных услуг как основу адресной социальной политики.

На основе проведенного анализа предлагаются следующие меры:

разработать региональные программы «цифровой занятости» для областей с наибольшим приростом молодежи (Самаркандской, Кашкадарьинской, Ферганской, Сурхандарьинской), предусматривающие создание региональных IT-хабов и центров удаленной работы с налоговыми условиями, аналогичными режиму резидентов IT Park;

ввести индивидуальные цифровые сертификаты на обучение востребованным навыкам для молодежи и возвращающихся трудовых мигрантов с компенсацией части затрат на международную сертификацию;

включить в систему оценки деятельности хокимиятов показатели цифровой занятости молодежи и доли экспорта цифровых услуг в валовом региональном продукте;

развивать цифровые финансовые продукты для трудовых мигрантов, стимулирующие перевод денежных переводов из потребления в инвестиции в региональный бизнес;

приоритетно направлять инвестиции в широкополосный доступ в сельские районы, где сосредоточены основная часть молодежи и население, остающееся вне сети.

Таким образом, в ближайшее десятилетие Узбекистан будет располагать значительным, но ограниченным во времени демографическим потенциалом, основная часть которого сосредоточена в регионах. Цифровая экономика способна превратить этот потенциал в источник роста конкурентоспособности регионов при условии, что цифровые рабочие места, навыки и инфраструктура будут целенаправленно распространяться за пределы столицы.

---

[199]Денежные переводы в Узбекистан в 2025 году выросли до $18,9 млрд // Газета.uz. – 28.01.2026 (по данным ЦБ и Нацкомстата).

[200]Как интернет меняет Узбекистан: главные цифры за 2025 // Kursiv Media. – 09.11.2025 (по данным DataReportal).

[201]Средний класс быстро растёт, но благосостояние людей повышается неравномерно – доклад ВБ // Газета.uz

SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY OF RENEWABLE ENERGY DEVELOPMENT IN THE REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY (WITHIN THE FRAMEWORK OF SDG 7 AND SDG 13)

Kadirova Shafoat Khabibulloevna
Bukhara state university, department of Tourism and hotel management Senior lecturer
Sarvinoz Ruziboyeva
Student of Bukhara state university, specializing in Tourism (by type of activity)

Abstract. The paper assesses the socio-economic effects of solar and wind power development in the regions of Uzbekistan in 2022–2025 through the indicators of Sustainable Development Goals 7 and 13, identifies the main barriers to the regional energy transition and proposes measures for regional policy.

Keywords: green economy, renewable energy, regional development, energy security, SDG 7, SDG 13.

The transition to a green economy has become a central element of national development strategies worldwide. Sustainable Development Goal 7 (affordable and clean energy) and Goal 13 (climate action) of the UN 2030 Agenda link the transformation of the energy sector directly, while the Paris Agreement obliges countries to reduce greenhouse gas emissions. For Uzbekistan, whose electricity generation has historically relied on natural gas for roughly three quarters of output, these goals have a pronounced economic dimension: energy security, the rapidly growing demand for electricity and the competitiveness of regional economies all depend on the diversification of the energy mix.

The national policy framework has developed rapidly. The Strategy for the Transition to a Green Economy for 2019–2030[202] and the Presidential Decree of 2 December 2022 on increasing the effectiveness of green reforms[203] laid the institutional basis, and the “Uzbekistan – 2030” Strategy[204] set the targets of 27 GW of renewable capacity and a 40 percent share of renewables in electricity generation by 2030. Nevertheless, the deployment of solar and wind power is highly uneven across the regions, and its socio-economic consequences at the regional level remain insufficiently studied. The purpose of this study is to assess the socio-economic efficiency of renewable energy development in the regions of Uzbekistan and to substantiate priority measures of regional policy.

[202] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-4477 "On approval of the Strategy for the transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy for the period 2019–2030", 4 October 2019. URL: https://lex.uz
[203] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-436 "On measures to increase the effectiveness of reforms aimed at the transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy until 2030", 2 December 2022. URL: https://lex.uz
[204] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 "On the Strategy “Uzbekistan – 2030”", 11 September 2023. URL: https://lex.uz

The study is based on statistical and comparative analysis of data of the Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan, the National Statistics Committee and international organizations (IEA, IRENA, Enerdata) for 2022–2025. The assessment applies SDG indicators 7.2.1 (renewable energy share in energy consumption) and 13.2.2 (greenhouse gas emissions),[205] supplemented by regional indicators of investment and employment, as well as SWOT analysis of the regional energy transition.

Uzbekistan has achieved one of the fastest renewable energy scale-ups in Central Asia. In 2022 the installed capacity of solar and wind plants amounted to only 253 MW, about one percent of total capacity.[206] By October 2025, 12 solar photovoltaic plants and 5 wind farms with a total capacity of 4,682 MW were in operation, and according to preliminary estimates total generating capacity reached 25.8 GW at the end of 2025, of which about 8 GW (31 percent), including hydropower, were renewable.[207] In 2025 solar and wind plants generated more than 10.5 billion kWh, 2.1 times more than in 2024; together with hydropower, green generation reached 16.8 billion kWh, or about 20 percent of the national total of 86.7 billion kWh (Table 1).[208]

Table 1

Key indicators of renewable energy development in Uzbekistan

Indicator	2022	2025	2030 target
Installed solar and wind capacity, MW	253	4,682	27,000*
Share of renewables (incl. hydro) in electricity generation, %	7	20	40
Solar and wind generation, billion kWh	< 1	10.5	–

** All renewable sources, including hydropower. Source: compiled by the author on the basis of the Ministry of Energy and Enerdata data.*

The regional dimension of this process is essential. Large-scale plants are concentrated in the Navoi, Bukhara, Kashkadarya, Jizzakh, Samarkand and Surkhandarya regions and the Republic of Karakalpakstan, which possess high solar irradiation, wind potential and available land. A new "energy geography" is emerging: regions that traditionally occupied a peripheral position in the industrial structure are becoming net suppliers of electricity to the national grid. Four groups of socio-economic effects can be distinguished at the regional level. First, investment: most projects are implemented through public–private partnership with foreign investors, bringing foreign direct investment to regions with a limited industrial base. Second, employment: the construction phase creates hundreds of jobs per project, while the operation phase requires fewer but higher-skilled personnel and stimulates local service sectors. Third, environmental effects: in the first ten months of 2025 solar and wind generation saved about 2.7 billion cubic

[205] United Nations. Global indicator framework for the Sustainable Development Goals and targets of the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/71/313. URL: https://unstats.un.org/sdgs/indicators/indicators-list/

[206] Enerdata. Uzbekistan targets 27 GW of renewable capacity, 40% in power generation by 2030. 22 January 2024. URL: https://www.enerdata.net

[207] Enerdata. Uzbekistan plans 6.7 GW of new capacity, including 2.5 GW thermal, by 2026. 26 February 2026.

[208] Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. Results of the electric power industry for 2025 (data published in January 2026). URL: https://minenergy.uz

meters of natural gas and prevented nearly 4 million tons of emissions,[209] which directly contributes to SDG target 13.2, while the freed gas can be redirected to industry, households or export. Fourth, energy security: local generation reduces summer peak deficits and transmission losses in remote districts.

At the same time, the analysis reveals several barriers. (1) Infrastructure lag: transmission and distribution networks and dispatch systems have not kept pace with generation, which leads to curtailment of renewable output. (2) Spatial imbalance: generation is concentrated in the south and west of the country, whereas consumption is concentrated in Tashkent and the Fergana Valley, which requires interregional transmission lines and energy storage. (3) Financial dependence: projects rely mainly on foreign capital, while domestic banks, local businesses and households participate weakly. (4) Human capital: regions lack qualified specialists in the design, operation and maintenance of renewable facilities. (5) Underdeveloped distributed generation: rooftop and agricultural solar installations, which generate the largest local benefit, remain marginal.

International experience confirms that regional benefits are maximized when large projects are combined with distributed generation and local ownership. Kazakhstan's auction system introduced in 2018 has lowered tariffs and attracted investors to remote regions; Morocco used the Noor Ouarzazate complex as an anchor for regional infrastructure and training programs; in Germany energy cooperatives keep a significant share of project revenues within local communities.

Renewable energy has become a real driver of the green transformation of regional economies in Uzbekistan, but its socio-economic efficiency depends on the quality of regional policy. The following measures are proposed:

1. adopt regional "green energy" programs synchronized with grid modernization, so that transmission and storage capacity are planned ahead of generation capacity;
2. establish a regional green finance mechanism: green bonds of regional authorities and commercial banks, concessional loans for small and medium-sized enterprises and households, and local content requirements in new projects;
3. stimulate distributed generation through net metering, simplified grid connection and support for solar-powered irrigation pumping, thereby linking SDG 7 with SDG 2 and SDG 6;
4. develop human capital by creating regional training centres in partnership with investors and introducing "green jobs" statistics;
5. introduce a regional SDG monitoring system with indicators 7.2.1 and 13.2.2 disaggregated by region within the national statistical system.

The scientific novelty of the study lies in the assessment of renewable energy effects at the regional level through SDG indicators; its practical significance lies in the applicability of the proposed measures in the development of regional programs within the "Uzbekistan – 2030" Strategy.

[209] Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. Data on the operation of solar and wind power plants as of 22 October 2025. URL: https://minenergy.uz

QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKORLIK “YASHIL IQTISODIYOT”GA O’TISHNING IQTISODIY MEXANIZMI SIFATIDA

Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Menejment kafedrasi katta o’qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekiston qurilish sanoatida 2015–2024-yillarda material va energiya sig‘imining o‘zgarishi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida baholangan. Nominal qiymatlar rasmiy real o‘sish sur’atlari orqali zanjirli indekslarga aylantirilgan. Resurs sarfi bilan o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik P. Tapio elastiklik koeffitsiyenti orqali aniqlangan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, qurilish ishlari real ifodada 2,35 marta, qurilish materiallari ishlab chiqarish esa 2,12 marta oshgan. Materiallar bo‘yicha elastiklik 2015–2019-yillarda 0,72 ni, 2019–2024-yillarda esa 1,02 ni tashkil etgan. Material sig‘imi 2022-yildagi eng past darajasidan 2024-yilgacha 12,6 foizga qayta oshgan. Energiya sig‘imi butun davrda 22,6 foizga kamaygan, biroq 2019–2024-yillarda elektr energiyasi bo‘yicha elastiklik 1,20 ga yetgan. Xulosa qilinishicha, erishilgan resurs tejamkorlik barqaror bo‘lmagan. Shu sababli “yashil” xarid mezonlari, qurilish chiqindilarini qayta ishlashni rag‘batlantirish, energiya samaradorligi standartlari va “yashil” kreditlash mexanizmlari hamda ularning samarasini o‘lchash ko‘rsatkichlari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil iqtisodiyot”, qurilish sanoati, resurs tejamkorlik, material sig‘imi, energiya sig‘imi, dekapling, aylanma iqtisodiyot, “yashil” kreditlash.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish sharoitida qurilish eng ko‘p material va energiya talab qiladigan tarmoqlardan biri sifatida alohida e’tibor talab etadi. O‘zbekistonda qurilish ishlari hajmi 2024-yilda 259 654,3 mlrd so‘mga yetdi, qurilish materiallarini o‘z ichiga olgan boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish esa 42 129,5 mlrd so‘mni, ya’ni sanoat mahsulotining 4,79 foizini tashkil etdi. Qurilish hajmining o‘sishi resurs sarfining shu sur’atda o‘sishi bilan birga kechsa, tarmoq rivojlanishi ekologik yukni ham oshiradi. Shu sababli qurilish o‘sishini material va energiya sarfidan ajratish (dekapling) darajasini baholash va resurs tejamkorlikni rag‘batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmlarni asoslash dolzarb hisoblanadi.

Tahlilda qurilish ishlari hajmi va uning real o‘sish sur’atlari, qurilish materiallari ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi va qurilish sektoriga elektr energiyasi yetkazib berish hajmi ma’lumotlaridan foydalanildi. Nominal qiymatlar rasmiy real o‘sish sur’atlari asosida zanjirli indekslarga (2015 = 100) aylantirildi. Material sig‘imi indeksi qurilish materiallari real indeksining qurilish real indeksiga nisbati sifatida, energiya sig‘imi esa elektr energiyasining 2015-yil narxlaridagi qurilish hajmiga nisbati sifatida hisoblandi. Resurs sarfi bilan o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik P. Tapio yondashuvidagi elastiklik koeffitsiyenti orqali baholandi: koeffitsiyent 0,8 dan kichik bo‘lsa, kuchsiz ajralish, 0,8–1,2 oralig‘ida esa bog‘langan o‘sish deb qaraladi (1-jadval).

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2015–2024-yillarda qurilish ishlari real ifodada 2,35 marta, qurilish materiallari ishlab chiqarish esa 2,12 marta oshgan; materiallar

bo‘yicha elastiklik 0,83 ni tashkil etib, butun davr bo‘yicha o‘sish resurs sarfi bilan bog‘langanligicha qolgan.

1-jadval

O‘zbekiston qurilish sanoatining material va energiya sig‘imi ko‘rsatkichlari

Yil	Qurilish real indeksi, 2015 = 100	Qurilish materiallari real indeksi, 2015 = 100	Material sig‘imi indeksi	Materiallar / qurilish (nominal), %	Elektr energiyasi, mln kVt·soat	Energiya sig‘imi, mln kVt·soat / trln so‘m*
2015	100,0	100,0	1,000	19,2	341,3	13,42
2016	107,2	111,0	1,035	21,5	360,7	13,23
2017	113,6	122,8	1,080	21,7	324,7	11,24
2018	129,9	137,0	1,055	23,8	415,0	12,57
2019	159,6	143,2	0,897	19,3	396,5	9,77
2020	174,8	151,6	0,867	18,5	448,1	10,08
2021	186,7	164,7	0,882	19,3	630,6	13,29
2022	199,0	159,4	0,801	17,2	1 072,2	21,19
2023	213,3	178,5	0,837	12,8	589,6	10,87
2024	234,7	211,7	0,902	16,2	620,2	10,40

Biroq davrlar bo‘yicha holat turlicha: 2015–2019-yillarda elastiklik 0,72 bo‘lib, kuchsiz ajralish kuzatilgan, material sig‘imi indeksi 2022-yilda eng past darajaga (0,801) tushgan. 2019–2024-yillarda esa elastiklik 1,02 ga ko‘tarilgan va material sig‘imi 2024-yilgacha 12,6 foizga qayta oshgan. Nominal nisbat ham 2015-yildagi 19,2 foizdan 2023-yilda 12,8 foizgacha pasayib, 2024-yilda 16,2 foizga ko‘tarilgan; bu nisbatga qurilish narxlarining tezroq o‘sishi (2015–2024-yillarda 4,35 marta) ham ta’sir qilgan.

Energiya sig‘imi 2015-yildagi 13,42 dan 2024-yilda 10,40 mln kVt·soat/trln so‘mgacha, ya’ni 22,6 foizga kamaygan, elektr energiyasi bo‘yicha elastiklik butun davrda 0,61 ni tashkil etgan. Shu bilan birga qator keskin tebranishlarga ega: 2022-yilda elektr energiyasi yetkazib berish 1 072,2 mln kVt·soatga sakrab, energiya sig‘imi 21,19 gacha oshgan, 2023-yilda esa 589,6 mln kVt·soatga qaytgan. Bunday sakrash qurilish texnologiyasidagi o‘zgarishdan ko‘ra hisobga olish tartibi yoki iste’molchilar tasnifidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun yillik ko‘rsatkichlar ehtiyotkorlik bilan talqin qilinishi lozim. 2019–2024-yillarda elektr energiyasi bo‘yicha elastiklik 1,20 ga yetgani esa energiya sarfining ham qurilish o‘sishi bilan qayta bog‘lanayotganini ko‘rsatadi.

Muallifning fikricha, qurilish sanoatida 2015–2019-yillarda erishilgan resurs tejamkorlik barqaror bo‘lmadi: o‘sish sur’ati yuqori bo‘lgan 2019–2024-yillarda material va energiya sarfi qurilish hajmi bilan deyarli bir xil sur’atda o‘sdi. Demak, resurs tejamkorlik o‘z-o‘zidan emas, balki uni moliyaviy jihatdan foydali qiladigan iqtisodiy mexanizmlar orqali ta’minlanishi kerak. Xalqaro tajriba qurilish va buzish chiqindilarini qayta ishlash orqali aylanma iqtisodiyot tamoyillarini qo‘llash tarmoqning material sig‘imini kamaytirishning asosiy yo‘li ekanini ko‘rsatadi.

Shu asosda quyidagi iqtisodiy mexanizmlar taklif etiladi. Birinchidan, davlat buyurtmasi asosidagi qurilish tenderlarida obyektning hayotiy sikli davomidagi material va energiya sarfini baholovchi “yashil” xarid mezonini joriy etish. Ikkinchidan, qurilish chiqindilarini qayta ishlab ikkilamchi xomashyo ishlab

chiqaruvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari berish va davlat hisobidan quriladigan obyektlarda ikkilamchi materiallardan foydalanishning eng kam ulushini belgilash. Uchinchidan, qurilish materiallari ishlab chiqarish va qurilish maydonlari uchun mahsulot birligiga energiya sarfi standartlarini ishlab chiqish. To‘rtinchidan, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalarga natijaga bog‘langan “yashil” kreditlarni taqdim etish.

Ushbu takliflar samarasini quyidagi ko‘rsatkichlar orqali o‘lchash mumkin: material sig‘imi indeksining 2022-yil darajasidan (0,801) pastga tushishi, qurilish materiallari bo‘yicha elastiklikning 0,8 dan kichik bo‘lishi, energiya sig‘imining 10 mln kVt·soat/trln so‘mdan pastga tushishi hamda davlat buyurtmasidagi obyektlarda ikkilamchi materiallar ulushi. Bu ko‘rsatkichlarni har yili rasmiy statistika asosida hisoblab borish qurilish sanoatining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini muntazam kuzatish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ghisellini P., Ripa M., Ulgiati S. Exploring environmental and economic costs and benefits of a circular economy approach to the construction and demolition sector. A literature review // Journal of Cleaner Production. – 2018. – Vol. 178. – P. 618–643. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2017.11.207.

2. Haberl H., Wiedenhofer D., Virág D., Kalt G., Plank B. et al. A systematic review of the evidence on decoupling of GDP, resource use and GHG emissions, part II: synthesizing the insights // Environmental Research Letters. – 2020. – Vol. 15, No. 6. – Article 065003. – DOI: 10.1088/1748-9326/ab842a.

3. Kirchherr J., Reike D., Hekkert M. Conceptualizing the circular economy: an analysis of 114 definitions // Resources, Conservation and Recycling. – 2017. – Vol. 127. – P. 221–232. – DOI: 10.1016/j.resconrec.2017.09.005.

4. Krausmann F., Wiedenhofer D., Lauk C., Haas W., Tanikawa H., Fishman T., Miatto A., Schandl H., Haberl H. Global socioeconomic material stocks rise 23-fold over the 20th century and require half of annual resource use // Proceedings of the National Academy of Sciences. – 2017. – Vol. 114, No. 8. – P. 1880–1885. – DOI: 10.1073/pnas.1613773114.

5. Schandl H., Fischer-Kowalski M., West J., Giljum S., Dittrich M., Eisenmenger N., Geschke A., Lieber M., Wieland H., Schaffartzik A., Krausmann F., Gierlinger S., Hosking K., Lenzen M., Tanikawa H., Miatto A., Fishman T. Global material flows and resource productivity: forty years of evidence // Journal of Industrial Ecology. – 2018. – Vol. 22, No. 4. – P. 827–838. – DOI: 10.1111/jiec.12626.

6. Tapio P. Towards a theory of decoupling: degrees of decoupling in the EU and the case of road traffic in Finland between 1970 and 2001 // Transport Policy. – 2005. – Vol. 12, No. 2. – P. 137–151. – DOI: 10.1016/j.tranpol.2005.01.001.

7. Бобылев С.Н. Устойчивое развитие: парадигма для будущего // Мировая экономика и международные отношения. – 2017. – Т. 61, № 3. – С. 107–113. – DOI: 10.20542/0131-2227-2017-61-3-107-113.

8. Мухаррамова Э.Р. Оценка эффективности деятельности строительного предприятия с целью максимального использования имеющихся ресурсов //

Российское предпринимательство. – 2015. – Т. 16, № 16. – С. 2635–2650. – DOI: 10.18334/rp.16.16.619.

9. Пахомова Н.В., Рихтер К.К., Ветрова М.А. Переход к циркулярной экономике и замкнутым цепям поставок как фактор устойчивого развития // Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. – 2017. – Т. 33, вып. 2. – С. 244–268. – DOI: 10.21638/11701/spbu05.2017.203.

OROLBO‘YI MINTAQASIDA EKOLOGIK BARQAROR ISTE’MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISHNI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdirashidov Ashirali Abdirashidovich
i.f.n., dots, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Annotatsiya. Maqolada Orolbo‘yi mintaqasida ekologik barqaror iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun mavjud iqtisodiy rag‘batlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi mintaqaviy iste’mol tovarlari ishlab chiqarishga fiskal rag‘batlantirish, ekologik barqarorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi va texnologik modernizatsiyani integratsiyalashgan iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqishdir. Asosiy taklif mintaqada iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi subyektlar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarni 50 foiz imtiyozli kamaytirish yoki ozod qilishni o‘z ichiga olgan tabaqalashtirilgan iqtisodiy rag‘batlantirishni joriy etish, shuningdek, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Kutilayotgan natija ekologik barqaror iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va raqobatbardoshligini oshirish, investitsiya va bandlik imkoniyatlarini yaxshilash, mintaqaviy resurslardan samaraliroq foydalanish va mintaqaviy iste’mol tovarlari bozorining barqaror rivojlanishini kuchaytirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Orolbo‘yi, yashil iqtisodiyot, ekologik barqarorlik, iste’mol tovarlari, soliq imtiyozlari, iqtisodiy mexanizm, ishlab chiqarish.

Orolbo‘yi mintaqasi jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda, jumladan, suv tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi, sho‘rlanishi, cho‘llanish va iqlim bilan bog‘liq xavflarning ortishi. Bu muammolar qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsuldorligiga, ishlab chiqarish tannarxiga, bandlik darajasiga, uy xo‘jaliklarining daromadlari va mintaqaviy rivojlanishning umumiy barqarorligiga ta’sir etuvchi muhim iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun Orolbo‘yida atrof-muhitning buzilishi nafaqat ekologik muammo, balki iqtisodiy rivojlanishning muhim vazifasi sifatida ham hal etilishi kerak.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish bilan uyg‘unlashtirishda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish muhim ahamiyatga ega. Orolbo‘yi mintaqasi uchun bu resurs va energiya tejovchi texnologiyalarni, qayta tiklanadigan energiya manbalarini, toza ishlab chiqarish usullarini va chiqindilarni kamaytirishni kengroq joriy etishni talab qiladi. Atrof-muhit maqsadlarini mintaqaviy sanoat, investitsion va soliq-budjet siyosatiga

integratsiyalash yanada barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratishi mumkin.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirishda iqtisodiy rag‘batlantirishning ekologik barqarorlik maqsadlari bilan yetarli darajada integratsiyalanmaganligi. Mavjud qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari korxonalarni ekologik toza va resurslarni tejaydigan texnologiyalarga sarmoya kiritishga to‘liq rag‘batlantirmaydi. Binobarin, moliyaviy va boshqa rag‘batlarni ekologik ko‘rsatkichlar, texnologik modernizatsiya va resurslar samaradorligi bilan bog‘lash orqali iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish zarur. Shu munosabat bilan taklif etilayotgan mexanizm tabaqalashtirilgan iqtisodiy rag‘batlantirishni, jumladan, Orolbo‘yida faoliyat yurituvchi iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi subyektlarni ekologik barqaror ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash bilan birgalikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarni 50 foizga imtiyozli kamaytirish yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlardan ozod qilishni o‘z ichiga oladi. Uning amalga oshirilishi ekologik jihatdan barqaror iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish, korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, resurslar samaradorligini oshirish, bandlik imkoniyatlarini yaratish, mintaqaning yashil va barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishi kutilmoqda.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati mahalliy qishloq xo‘jaligi xomashyosi, mehnat resurslari hamda shakllangan mintaqaviy bozorlar negizida iste’mol mollari ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha salmoqli salohiyatga ega. Shu bilan birga, Orolbo‘yi mintaqasidagi iqtisodiy faoliyatga suv tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi, cho‘llanish, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligining pasayishi va iqlim o‘zgarishlari oldidagi zaiflikning ortishi kabi omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu ekologik muammolar ishlab chiqarish salohiyatining pasayishi, daromad olish imkoniyatlarining cheklanishi va mahalliy aholining zaifligining ortishi kabi bevosita ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Mintaqaning ekologik xususiyatlari iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni tabiiy resurslardan samaraliroq foydalanish va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish asosida rivojlantirishni taqozo etadi. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning resurs va energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya, atrof-muhitga yuklamani kamaytirish hamda iqlim o‘zgarishiga moslashishga ustuvor ahamiyat qaratuvchi «yashil iqtisodiyot»ga o‘tish jarayoni bilan hamohangdir. BMT Taraqqiyot dasturi ham resurs samaradorligi, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish, qayta tiklanadigan energiya hamda Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasiga aylantirishni rivojlanishning muhim yo‘nalishlari sifatida belgilaydi.

Korxonalarni ekologik modernizatsiya qilish resurs va energiya tejaydigan uskunalarga, toza ishlab chiqarish texnologiyalariga, qayta tiklanadigan energiya manbalariga va chiqindilarni kamaytirish tizimlariga investitsiyalarni talab qiladi. Orol dengizi mintaqasining ekologik va resurs cheklovlari sharoitida faoliyat yuritadigan korxonalar uchun bunday investitsiyalar qisqa muddatli xarajatlarni oshirishi va shuning uchun tegishli iqtisodiy rag‘batlantirishni talab qilishi mumkin. Fiskal va moliyaviy vositalardan foydalanish texnologik modernizatsiya bilan bog‘liq iqtisodiy yukni kamaytirishi va ekologik barqaror ishlab chiqarishning jozibadorligini oshirishi mumkin.

Bunday rag‘batlantirishning ahamiyati O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot siyosati bilan qo‘llab-quvvatlanadi, bu siyosat energiya samaradorligini oshirish, resurslarni sarflashni kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni kengroq joriy etish va Orol dengizi ekologik inqirozi oqibatlarini yumshatishni mamlakatning strategik ustuvor yo‘nalishlari qatoriga qo‘yadi. Qoraqalpog‘istondagi hozirgi rivojlanish tashabbuslari suvni tejaydigan va energiya tejaydigan texnologiyalar bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarish quvvatini, bandlikni va uy xo‘jaliklarining daromadlarini oshirishi mumkinligini ham ko‘rsatmoqda.

Shunga ko‘ra, ekologik jihatdan barqaror iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlashga nafaqat korxona darajasidagi moliyaviy chora, balki mintaqaviy tarkibiy o‘zgarishlar vositasi sifatida qarash lozim. To‘g‘ri ishlab chiqilgan rag‘batlantirish choralari korxonalarni fiskal imtiyozlar hisobiga bo‘shagan resurslarning bir qismini texnologik modernizatsiya, resurslarni tejash va ekologik jihatdan mas’uliyatli ishlab chiqarishga yo‘naltirishga undashi mumkin.

Aniqlangan ekologik va iqtisodiy cheklovlardan kelib chiqqan holda, muallif Orolbo‘yi mintaqasida (jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida) iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan to‘lanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlarni 50 foizga imtiyozli kamaytirish yoki ulardan ozod qilishni joriy etish orqali ekologik jihatdan barqaror iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishni taklif etadi.

Taklifning ilmiy yangiligi mintaqaviy soliq imtiyozlari, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish va ekologik barqarorlik o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni o‘rnatishdan iborat. Taklif etilayotgan 50 foizli imtiyoz tegishli korxonalar uchun soliq yukini kamaytirish hamda ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik modernizatsiya qilish va resurs hamda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslar yaratishga qaratilgan. Ishlab chiqarishni umumiy qo‘llab-quvvatlashdan farqli o‘laroq, ushbu mexanizm Orolbo‘yi mintaqasining o‘ziga xos ekologik zaifligi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini hisobga oluvchi maqsadli mintaqaviy vosita sifatida ishlab chiqilgan.

Mazkur taklif mintaqaning "yashil" va inklyuziv rivojlanishiga qaratilgan kengroq siyosat yo‘nalishiga ham mos keladi. Qoraqalpog‘istonda amalga oshirilayotgan amaldagi dasturlar ekologik choralarni iqtisodiy inklyuzivlik, bandlikni ta’minlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va iqlim o‘zgarishiga chidamli ishlab chiqarish bilan uyg‘unlashtiradi. Suv, yer va ekotizimlarni boshqarish bo‘yicha kompleks yondashuvlarning ishlab chiqilishi mintaqada ekologik maqsadlarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni bilan bog‘lash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bois, taklif etilayotgan mexanizm korxonalarning ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarishga sarmoya kiritish bo‘yicha iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirishi, iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi mintaqaviy korxonalarning raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi, resurs va energiya samaradorligini yaxshilashi hamda qo‘shimcha ish o‘rinlari va daromad manbalarini yaratishi kutilmoqda. Uzoq muddatli istiqbolda ushbu mexanizm Orolbo‘yi mintaqasida iqtisodiy o‘sish, atrof-muhitni muhofaza qilish va mintaqaviy sanoat

rivojlanishini «yashil» iqtisodiy taraqqiyotning yagona modeliga birlashtirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Orol dengizi mintaqasida iste’mol tovarlari ishlab chiqarish uchun mavjud iqtisodiy rag‘batlantirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining o‘ziga xos ekologik cheklovlarini to‘liq hisobga olmaydi. Asosiy ilmiy xulosa shundaki, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish ishlab chiqarish rag‘batlantirishini resurslar samaradorligi, texnologik modernizatsiya, energiyani tejash va ekologik barqarorlik bilan bog‘laydigan yaxlit iqtisodiy mexanizmni talab qiladi.

Amaliy taklif sifatida Orol dengizi mintaqasida faoliyat yurituvchi iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi subektlar tomonidan to‘lanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri soliqlardan 50% imtiyozli kamaytirish yoki ozod qilishni joriy etish tavsiya etiladi. Taklif etilayotgan rag‘batlantirish iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni davom ettiradigan va ekologik barqaror ishlab chiqarish uchun belgilangan talablarga javob beradigan, jumladan, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq ekologik ta’sirni kamaytirishni o‘z ichiga olgan korxonalarga qaratilishi kerak. Ushbu chora korxonalarning texnologik modernizatsiya va ekologik jihatdan mas’uliyatli ishlab chiqarishga investitsiya qilish uchun moliyaviy imkoniyatlarini oshiradi.

Yashil iqtisodiyot nuqtai nazaridan, taklif etilayotgan mexanizmni amalga oshirish resurslarni ko‘p talab qiladigan ishlab chiqarishdan samaraliroq va ekologik jihatdan barqaror ishlab chiqarish modellariga o‘tishni rag‘batlantirishi kutilmoqda. Bu resurs va energiya sarfini kamaytirish, toza texnologiyalarni rag‘batlantirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, ish o‘rinlarini yaratish va mintaqaviy iste’mol tovarlari bozorining uzoq muddatli barqarorligini oshirishga hissa qo‘shishi mumkin. Shunday qilib, taklif qilingan mexanizm Orol dengizi mintaqasida mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni, atrof-muhitni muhofaza qilishni va ishlab chiqarishni yashil transformatsiyalashni bir vaqtning o‘zida amalga oshirish uchun iqtisodiy asos yaratadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yil “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”dagi PQ-4477-son qarori.

2. United Nations Development Programme. (2019, July 14). *Atlas of socio-economic and environmental indicators in the Aral Sea region of Uzbekistan*. UNDP Uzbekistan.

3. United Nations Development Programme. (2026a, May 19). *Integrated climate solutions are transforming lives in Uzbekistan’s Aral Sea region*. UNDP Uzbekistan.

4. United Nations Development Programme. (2026b, June 3). *Uzbekistan advances integrated water management in the Aral Sea region with new Lower Amu Darya Basin planning framework*. UNDP Uzbekistan.

O’ZBEKISTON MINTAQALARINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA IQTISODIY-EKOLOGIK OMILLARNI UYG’UNLASHTIRISH

Adilova Marg’uba Tursunaliyevna
TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada 2022–2025-yillarda O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy rivojlanish dinamikasi rasmiy statistik ma’lumotlar asosida solishtirilib, uning resurs samaradorligi va ekologik barqarorlik bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Hududlarning iqtisodiy ko‘lami hamda aholi jon boshiga mahsulotidagi tafovutlar aniqlanib, barqaror rivojlanishni monitoring qilish va yashil moliyalashtirishga doir takliflar asoslanadi.

Tayanch so‘zlar: barqaror rivojlanish, yalpi hududiy mahsulot, hududiy tafovut, resurs samaradorligi, ekologik barqarorlik, yashil moliyalashtirish.

Mintaqalarning barqaror rivojlanishi iqtisodiy faollikning uzluksiz o‘sishi bilan bir qatorda tabiiy resurslarni saqlash, aholining turmush sifatini oshirish va ekologik xavflarni kamaytirishni talab etadi. O‘zbekiston hududlari sanoat tarkibi, suv ta’minoti, demografik yuklama va infratuzilma darajasi bo‘yicha farqlanadi. Shu sababli yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmining ortishi rivojlanishning yagona mezoni bo‘la olmaydi: iqtisodiy natijalar aholi jon boshiga ishlab chiqarish, suv va energiya sarfi, ekologik xavfsizlik kabi ko‘rsatkichlar bilan birgalikda baholanishi zarur. Tadqiqotda rasmiy statistik qatorlarni dinamik va qiyosiy tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Milliy statistika qo‘mitasining SIAT ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston YaIMi joriy narxlarda 2022-yildagi 1 041,9 trln so‘mdan 2025-yilda 1 849,7 trln so‘mga yetgan. Ayni davrda hududlarning YAHM hajmlari ham ortgan, biroq dinamikasi turlicha bo‘lgan. Ushbu farqni bir yillik kesimda emas, balki to‘rt yillik qatorda ko‘rish barqaror rivojlanishning hududiy xususiyatlarini aniqroq ochib beradi.

1-jadval

YAHM hajmining 2022–2025-yillardagi dinamikasi (trln so‘m) [1]

Hudud	2022	2023	2024	2025
O‘zbekiston Respublikasi	1 041,9	1 261,8	1 535,4	1 849,7
Toshkent shahri	179,0	222,9	302,9	367,2
Toshkent viloyati	105,5	124,1	151,3	180,2
Navoiy viloyati	78,7	93,7	130,4	168,0
Samarqand viloyati	71,7	86,3	103,9	121,5
Sirdaryo viloyati	20,7	24,9	28,7	35,8

To‘rt yillik taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, 2025-yilgi YAHM 2022-yilga nisbatan Toshkent shahrida 2,05, Navoiy viloyatida 2,14, Samarqandda 1,69 va Sirdaryoda 1,73 baravar ko‘paygan; respublika bo‘yicha ushbu koeffitsiyent 1,78 ga teng. Mazkur nisbatlar joriy narxlarda hisoblanganligi sababli ularni real o‘sish deb talqin qilish mumkin emas. 2025-yilning o‘zida real YAHM o‘sishi Toshkent shahrida 11,3 foiz, Sirdaryoda 9,8 foiz, Navoiyda 7,7 foiz bo‘lgan [3]. Demak, iqtisodiy hajmning kattaligi va real o‘sish sur’ati turli tushunchalar bo‘lib, siyosatni faqat nominal jadval asosida belgilash xato natijaga olib kelishi mumkin.

Barqaror rivojlanishda mahsulot hajmidan tashqari uni aholiga nisbatan baholash ham muhim. SIAT bo‘yicha 2025-yilda aholi jon boshiga YAHM Navoiy viloyatida 152,2 mln so‘m, Samarqand viloyatida esa 28,0 mln so‘mni tashkil qilgan, ya’ni farq 5,4 baravardan oshgan [2]. Bunga iqtisodiy ixtisoslashuv va kapital sig‘imi kabi omillar ta’sir qiladi. Jahon banki O‘zbekistonda suv tanqisligi, qurg‘oqchilik va ekstremal issiqlik iqtisodiy natijalarga uzoq muddatli xavf tug‘dirishini qayd etadi [4]. Binobarin, yirik sanoat hududlarida chiqindi va energiya sig‘imini, agrar hududlarda suv unumdorligini kuzatish zarur.

Iqtisodiy-ekologik siyosatning amaliy vositasi sifatida har bir hudud uchun o‘zaro bog‘langan uch guruh indikatorlarni joriy qilish taklif etiladi: iqtisodiy natija (real YAHM, mehnat unumdorligi, bandlik); resurs samaradorligi (bir birlik qo‘shilgan qiymatga suv va energiya sarfi); ekologik natija (atmosferaga chiqarilmalar, chiqindilarni qayta ishlash, oqova suvni takror ishlatish). Bunda ekologik samaradorlik haqida to‘liq hududiy ekologik ma’lumotsiz xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Shu bois iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ekologik statistik kuzatuvlar bilan integratsiyalash barqaror rivojlanishni dalillarga asoslangan holda boshqarishga xizmat qiladi.

Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirishda mablag‘ ajratilishini tekshiriladigan natijalar bilan bog‘lash alohida ahamiyat kasb etadi. BMT Taraqqiyot dasturi O‘zbekistonda yashil rivojlanishni moliyalashtirish baholashida mavjud moliyaviy oqimlar va xususiy kapitalni jalb etish imkoniyatlarini ko‘rsatgan [5], YTTBning mamlakat strategiyasida esa dekarbonizatsiya, suv tejamkorligi va xususiy sektor ustuvor yo‘nalishlar sifatida qayd etiladi [6]. Hududlarda yashil kreditlar bo‘yicha bir kVt·soat tejalgan energiya yoki bir kub metr tejalgan suvning qiymatini oldindan belgilash, keyin esa mustaqil tekshirish loyiha tanlashning shaffofligini oshiradi. Bu yondashuv iqtisodiy o‘sishni resurs bosimidan bosqichma-bosqich ajratishga yordam beradi.

2022–2025-yillardagi dinamik tahlil hududlar iqtisodiy ko‘lami va o‘sish sur’atlari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Nominal mahsulotning ko‘payishi ekologik barqarorlikni avtomatik ta’minlamaydi. Shundan kelib chiqib quyidagi takliflar berilishini muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Viloyatlarda YAHM va bandlik bilan birga suv hamda energiya sig‘imini ham yillik kuzatuvga oluvchi yagona indikatorlar tizimi joriy etilishi;
2. Yashil kredit va subsidiyalar ajratishda loyihaning energiya hamda suv tejamkorligi mustaqil baholash asosida tasdiqlanishi;
3. Har bir hudud uchun iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarni birlashtirgan uch yillik barqaror rivojlanish pasporti ishlab chiqilishi;
4. Sanoat va agrar hududlar uchun tabiiy resurslar bosimiga mos ravishda tabaqalashtirilgan moliyaviy rag‘batlar qo‘llanilishi;
5. Hududiy ekologik ma’lumotlar ochiq e’lon qilinib, investitsiya dasturlarining natijadorligi har yili qayta baholanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi (yillik). SIAT. https://siat.stat.uz/data/1299/

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026). Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (yillik). SIAT. https://siat.stat.uz/data/660/
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026, 11-mart). Qaysi hududlarning yalpi hududiy mahsuloti eng tez o‘smoqda? https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/67286-ajsi-ududlarning-yalpi-ududij-ma-suloti-eng-tez-smo-da-2
4. World Bank. (2023). Uzbekistan country climate and development report. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/ccdr
5. United Nations Development Programme. (2025). Green development finance assessment. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/green-development-finance-assessment
6. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). EBRD approves new country strategy for Uzbekistan. https://www.ebrd.com/home/news-and-events/news/2024/ebrd-approves-new-country-strategy-for-uzbekistan.html

O`ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI SOLIQ ORQALI RAG‘BATLANTIRISH.

Abdumannobova Gulnoz Akmaljon qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Bugungi kunda global miqyosda iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi, atrof-muhitga antropogen bosimning kuchayishi hamda iqtisodiy o‘sishning ekologik oqibatlari mamlakatlarning rivojlanish siyosatini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur sharoitda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bir qatorda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish muhim strategik vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Yashil iqtisodiyotning shakllanishi esa, avvalo, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ekologik jihatdan samarali texnologiyalarni rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, aylanma iqtisodiyot, ekologik toza transport, suv resurslarini tejash, barqaror qishloq xo‘jaligi va kam uglerodli ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishda ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati nihoyatda muhim. Biroq ilmiy tadqiqotlarning yuqori xarajatliligi, natijalarning noaniqligi, uzoq muddatda samara berishi va moliyaviy risklarning yuqori ekanligi xususiy sektorning ushbu yo‘nalishga yetarli darajada investitsiya kiritishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shu nuqtayi-nazardan olib qaralsa mamlakatda yashil texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchilar uchun bevosita soliq imtiyozlarini belgilaydi[210].

[210] O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksi. https://lex.uz/acts/-4674902

Mazkur muammoni hal etishda davlat tomonidan qo‘llaniladigan soliq rag‘batlantirish instrumentlari muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq imtiyozlari korxonalar va katta-kichik biznesning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltiriladigan xarajatlarini kamaytirish, innovatsion loyihalarning moliyaviy jozibadorligini oshirish hamda xususiy investitsiyalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish imkonini beradi. Bunday instrumentlarga ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga beriladigan soliq kreditlari, ilmiy-tadqiqot xarajatlarini soliqqa tortiladigan bazadan chegirish, tezlashtirilgan amortizatsiya, soliq stavkalarini pasaytirish, soliq chegirmalari va boshqa fiskal rag‘batlantirish mexanizmlarini nazarda tutadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida ilmiy tadqiqotlarni soliq orqali rag‘batlantirishning ahamiyati yanada ortadi. Chunki bunday rag‘batlantirish nafaqat ilmiy-tadqiqot xarajatlarini ko‘paytirish, balki ilmiy salohiyatni ekologik va iqtisodiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish imkonini beradi. Xususan, yashil innovatsiyalarni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini takomillashtirish, energiya va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik xavfsiz ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish hamda chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab chiqarishni rivojlantirishda soliq imtiyozlari muhim iqtisodiy rag‘bat sifatida namoyon bo‘ladi.

Davlatning korxonalar innovatsion faoliyatini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan fiskal siyosati soliq yukini optimallashtirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlar orqali xususiy sektorning investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmlarning iqtisodiy mazmuni korxonalarda shakllanadigan moliyaviy resurslarning bir qismini innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot ishlari va texnologik modernizatsiyaga yo‘naltirish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat.


Shu jihatdan avvalo, investitsiya qiluvchi korxonalarga ma’lum muddatga daromad solig‘i bo‘yicha imtiyozlar berish, eksport, ishlab chiqarish va bandlik ko‘rsatkichlariga asoslangan soliq yengilliklarini qo‘llash innovatsion rivojlanishning muhim fiskal vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchi yo‘nalish sifatida korxonalarga davlat tomonidan belgilangan muayyan davr mobaynida daromad solig‘ini to‘lashdan vaqtincha ozod bo‘lish imkoniyati beriladi[211]. Uchinchi yo‘nalish korxonalarning avvalgi soliq davrida yuzaga kelgan zararlarini keyingi davrlarda olingan foyda hisobidan qoplash mexanizmini nazarda tutadi[212]. To‘rtinchi yo‘nalish esa asosiy vositalar amortizatsiyasi bilan bog‘liq soliq imtiyozlarini kengaytirish hamda ayrim aktivlarni soliqqa tortishdan ozod etishga doir me’yoriy tartiblarni takomillashtirish va ularni tezkor joriy etishni o‘z ichiga oladi[213]. Beshinchi yo‘nalish korxonalarning investitsiya kiritishi, foyda olishi va

[211] Nuryanah S, Mahabbatussalma F, Satrio AA. Evaluation of government reform in tax administration: evidence from micro, small and medium enterprises (MSMEs) in Indonesia. Int J Public Adm. (2023) 46:313–25. doi: 10.1080/01900692.2021.1995746 https://ideas.repec.org/a/taf/lpadxx/v46y2023i5p313-325.html

[212] Christensen DM, Kenchington DG, Laux RC. How do most low ETR firms avoid paying taxes? Rev Acc Stud. (2022) 27:570–606. doi: 10.1007/s11142-021-09614-8 https://www.econstor.eu/bitstream/10419/323705/1/11846_2024_Article_812.pdf

[213] Mandaku IJ, Hasyim MAN. Application of cooperative tax accounting to corporate income tax for fiscal loss compensation. Keynesia Int J Econ Bus. (2022) 1:24–40. doi: 10.55904/keynesia.v1i1.105 https://www.researchgate.net/publication/412042463_Application_of_cooperative_tax_accounting_to_corporate_income_tax_for_fiscal_loss_compensation

olingan foydani qayta investitsiya qilishi uchun qo‘shimcha iqtisodiy rag‘batlar yaratishni nazarda tutadi[214]. Oltinchi yo‘nalishda korxonalarga ijtimoiy sug‘urta badallarini imtiyozli yoki pasaytirilgan stavkalar asosida to‘lash imkoniyati taqdim etiladi. Yettinchi yo‘nalish doirasida esa korxonada band bo‘lgan xodimlar soni, mehnatga haq to‘lash va boshqa mehnat xarajatlari kabi ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, soliq majburiyatlarining muayyan qismini kamaytirish mexanizmidan foydalaniladi. Sakkizinchi yo‘nalish korxonaning faoliyat turi, amalga oshirayotgan xarajatlari va aylanma hajmini hisobga olgan holda soliqqa tortiladigan daromadning ma’lum qismini kamaytirish yoki tegishli soliq majburiyatlaridan ozod etishni nazarda tutadi[215].



1-rasm. Mamlakat ilmiy tadqiqotlarni soliq va moliyaviy rag‘batlantirish siyosati[216]

Umuman olganda, mazkur fiskal mexanizmlar korxonalarning soliq yukini kamaytirish, bo‘sh moliyaviy resurslarini ko‘paytirish va ularni investitsiya hamda innovatsion faoliyatga yo‘naltirish uchun iqtisodiy sharoit yaratishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot sharoitida esa ushbu instrumentlarni ilmiy-tadqiqot ishlari, yashil texnologiyalar va ekologik innovatsiyalarga yo‘naltirish orqali ularning iqtisodiy samarasi bilan bir qatorda ekologik samaradorligini ham oshirish mumkin.


Shu nuqtayi nazardan, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishga qaratilgan umumiy soliq imtiyozlari bilan aynan yashil innovatsiyalar va ekologik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maqsadli soliq instrumentlari o‘rtasidagi farqni aniqlash muhimdir. Umumiy R&D soliq imtiyozlari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishi mumkin. Biroq ular

[214] Bai M. Rollover restrictions and the maturity mismatch between investment and enterprise financing. Manag Decis Econ. (2022) 43:3286–300. doi: 10.1002/mde.3594

[215] Pernet T. Value-added export tax policy, credit constraints, and quality: evidence from China. Rev Dev Econ. (2024) 28:499–526. doi: 10.1111/rode.13067 https://www.researchgate.net/publication/374973303_Value-added_export_tax_policy_credit_constraints_and_quality_Evidence_from_China

[216] Muallif tomonidan tayyorlandi.

qo‘shimcha ilmiy investitsiyalarning ekologik ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirilishini kafolatlamaydi. Aksincha, yashil innovatsiyalarga yo‘naltirilgan maqsadli soliq rag‘batlari ekologik texnologiyalarni rivojlantirishni tezlashtirishi mumkin, biroq ularni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlari nisbatan murakkab bo‘lishi ehtimoli mavjud (2-rasm). Shu sababli soliq siyosatida iqtisodiy samaradorlik, ekologik maqsadga muvofiqlik va fiskal barqarorlik o‘rtasidagi optimal nisbatni ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.



2-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida ilmiy tadqiqotni rag‘batlantiruvchi 10 ta soliq instrumenti[217]

Mazkur masala O‘zbekiston uchun ham alohida dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish muhim vazifalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda davlat mablag‘lari bilan bir qatorda xususiy sektorning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga investitsiyalarini kengaytirish zarur. Bunda soliq tizimining rag‘batlantiruvchi funksiyasidan samarali foydalanish muhim iqtisodiy mexanizm bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

[217] Muallif tomonidan berilgan ma’lumotlar asosida sun’iy intellekt yordamida tayyorlandi.

ISSUES OF ENVIRONMENTAL PROTECTION AND THE FORMATION OF A "GREEN ECONOMY"

Anesov Mukhtar
A student of Karakalpak State University
at the Faculty of Economics

Abstract: This thesis is dedicated to show the issues Central Asian countries have in transitioning to a green economy. I analysed the common ones with numbers and recommended practical solutions. Moving toward a green economy requires substantial changes in some sectors. The problems in these parts of the economies are not completely observed.

Key words: Central Asian countries, a green economy, the main challenges, renewable energy.

In today's world, obtaining sustainable development demands water management, social equity, resource-efficient technologies, and renewable energy. In my thesis. I will show the core issues Uzbekistan, Kazakhstan, Turkmenistan, Tajikistan, and Kyrgyz Republic face in transitioning to a green economy.

There are several main problems that make moving toward a green economy extremely difficult for Central Asian nations. Firstly, dependence on fossil fuels is high in these countries. The indicators clearly demonstrate this:

Table 1

	Fossil fuel energy consumption	**Renewable electricity output (% of total electricity output)**	**Electricity production from oil, gas and coal sources (% of total)**
Uzbekistan	93.2%(2010)	7% (2021)	90.6%(2022)
Tajikistan	48.5%(2015)	93.3%(2021)	7.2%(2022)
Kazakhstan	99.1%(2013)	11%(2020)	-
Turkmenistan	79%(2015)	4%(1991)	-
The Kyrgyz Republic	66.6(2015)	85.5%(2021)	14%(2022)

The first and second highest numbers in fossil fuel energy consumption are 99.1% and 93.2% for Kazakhstan and Uzbekistan respectively. It is clear that the difference between these two and other countries is noticeable [1]. Because Kazakhstan and Uzbekistan have significant sources of fossil fuels like oil, gas and coal. I can make the same observation about Turkmenistan. These three countries are downstream countries, which means that the rivers Amu Darya and Syr Darya flow through Tajikistan and the Kyrgyz Republic first. This explains why renewable electricity output is much higher in both of these countries.

The table also demonstrates another problem: lack of reliable data. The information I collected is incomplete. The data about electricity production from oil, gas, and coal sources for Turkmenistan and Kazakhstan is empty. Giving the latest reliable data is an essential part of analysis and understanding the current condition of actions toward a green economy. Therefore, I strongly suggest taking the annual information.

The second main issue is pressure on freshwater resources. For two countries, the figures are higher than 100%. The largest percentage is 135.21% for Turkmenistan. In Tajikistan and the Kyrgyz Republic, it is 69.94% and 50% [2]. 50% is a critical warning track. While the area isn't completely running out of water yet, it experiences Medium-High water stress. During dry seasons or droughts, these regions face frequent water shortages. 100% is the baseline threshold for critical water stress. At 100%, the society is consuming every single drop of renewable water that can be safely taken. Any additional growth, economic expansion, or drought will force the region to suffer severe shortages. In these countries, a major part of the water is used for farming, so they must transform agriculture by modernizing irrigation and selecting climate-smart crops. It will help to reduce the pressure on water resources.

A green economy demands renewable energy investment. Central Asia has substantial renewable energy potential, yet most countries in the region have attracted only limited foreign direct investments in renewable energy [4]. There are several challenges that make the renewable energy investment ecosystem less attractive in Central Asia. Below some of them:

High Dependence on Fossil Fuels: A high dependency on natural gas and coal complicates the transition to renewable energy.

Complex Bureaucracy: The regulatory environment is complex for foreign investors, with policy inconsistencies due to rapidly changing legislation creating uncertainties.

Data Gaps: Comprehensive and accessible data on some renewable energy sources is lacking.

Grid: Parts of the grid are aging, with high transmission losses and congestion in some areas.

Climate Impact: Harsh climatic conditions that affect renewable energy projects and infrastructure, and variability in hydropower generation that affects market stability [3].

In order to solve completely or mitigate these, I suggest improving data collection and online accessibility for renewable energy sites like worldbank.org and unep.org, simplifying bureaucracy and enhancing efficiency through digitalization, and developing a coherent renewable energy strategy. Also accelerating the transition from fossil fuels to renewable energy attracts more investors.

References

1. https://data.worldbank.org/indicator/EG.USE.COMM.FO.ZS

2. https://data.worldbank.org/indicator/ER.H2O.FWST.ZS?end=2022&start=1962&view=chart

3. https://www.carecinstitute.org/wp-content/uploads/2025/11/Renewable-Energy-Investment-Ecosystem-in-Central-Asia.pdf

4. https://development.asia/summary/how-central-asia-can-strengthen-renewable-energy-investment

QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TO'RT BOSQICHLI MEXANIZMIGA "YASHIL" MEZONLARNI INTEGRATSIYALASH

Boboyev Abror Abdusattor o'g'li
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
Menejment kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda qurilish materiallari sanoatida investitsiya loyihalarini boshqarishning to'rt bosqichli mexanizmi – resurslarni shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va baholash – "yashil" mezonlar bilan to'ldirilgan. Dolzarblik rasmiy statistika bilan asoslangan: qurilish materiallari ishlab chiqarish 2015–2024-yillarda real ifodada 2,12 marta oshgan, qurilish sektoriga elektr energiyasi yetkazib berish esa 81,7 foizga ko'paygan. Har bir bosqich uchun energiya va resurs tejamkorlik, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xatarlarni hisobga oluvchi mezonlar hamda ularning o'lchov ko'rsatkichlari taklif etilgan. Loyihalash bosqichida NPV va IRR bilan birga hayotiy sikl xarajatlari va loyihaning energiya sig'imi, baholash bosqichida esa haqiqiy resurs sarfining rejadan og'ishi hisoblanishi asoslangan. Taklif etilgan yondashuv investitsiya qarorlarida resurs tejamkorlikni qayta aloqa orqali muntazam hisobga olish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: investitsiya loyihalari, "yashil" mezonlar, hayotiy sikl xarajatlari, energiya sig'imi, qurilish materiallari sanoati, resurs tejamkorlik, qayta aloqa.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish energiya va xomashyoni eng ko'p talab qiladigan sanoat tarmoqlaridan biridir. Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 2024-yilda 42 129,5 mlrd so'mni yoki sanoat mahsulotining 4,79 foizini tashkil etgan, uning real hajmi 2015–2024-yillarda 2,12 marta oshgan[218]. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2024-yilda 507 490,2 mlrd so'mni, 2025-yilda 603 558,8 mlrd so'mni tashkil etib, bir yilda 18,9 foizga oshgan[219]. Shu bilan birga qurilish sektoriga elektr energiyasi yetkazib berish 2015-yildagi 341,3 mln kVt·soatdan 2024-yilda 620,2 mln kVt·soatga, ya'ni 81,7 foizga ko'paygan, 2025-yilda esa dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 985,5 mln kVt·soatga yetgan[220]. Demak, investitsiyalar hajmi tez o'smoqda, ammo ular yangi loyihalarning resurs sarfini kamaytirishga qanchalik yo'naltirilgani investitsiya qarorlarida alohida baholanmaydi.

Investitsion faoliyatni tashkil etishning to'rt bosqichli integrallashgan jarayoni resurslarni shakllantirish, loyihalash, amalga oshirish va baholash bosqichlarini qamrab oladi, baholash bosqichi esa qayta aloqa orqali keyingi loyiha uchun ma'lumot beradi. Loyihalash bosqichida loyiha samaradorligi an'anaviy

[218] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (yillik) va fizik hajm indeksi (yillik). https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_604.json; https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_571.json

[219] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik). – URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_1326.json

[220] O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qurilish sektorida elektr energiya ta'minoti hajmi (yillik; 02.09.2026 yangilangan). – URL: https://api.siat.stat.uz/media/uploads/sdmx/sdmx_data_3170.json

ravishda NPV, IRR, PI va DPP ko‘rsatkichlari bilan baholanadi[221]. Biroq bu ko‘rsatkichlar loyihaning energiya va material sarfini bevosita aks ettirmaydi. Muallif har bir bosqichga “yashil” mezonlarni kiritishni taklif etadi (1-jadval).

1-jadval

Investitsiya loyihalarini boshqarishning to‘rt bosqichli mexanizmiga “yashil” mezonlarni kiritish

Bosqich	Mavjud vazifalar	Qo‘shiladigan “yashil” mezon	O‘lchov ko‘rsatkichi
1. Resurslarni shakllantirish	Investitsion ehtiyojlar, moliyalashtirish manbalari, moddiy-texnik baza, risklarni aniqlash	Mavjud uskunalarning energiya auditi; “yashil” moliyalashtirish manbalarini aniqlash	Mahsulot birligiga energiya sarfi; “yashil” manbalar ulushi, %
2. Loyihalash	TIA, loyiha-smeta hujjatlari, ekspertiza, NPV, IRR, PI, DPP	Hayotiy sikl xarajatlari; loyiha energiya sig‘imi; chiqindilar va ikkilamchi xomashyo rejasi	LCC; loyihaviy energiya sig‘imi; ikkilamchi xomashyo ulushi, %
3. Amalga oshirish	Kalendar reja, pudratchilarni tanlash, xarajat va sifat nazorati	Resurs sarfi monitoringi; pudratchilarga “yashil” xarid talablari; chiqindilarni ajratish	Material sarfining normadan og‘ishi, %; qayta ishlangan chiqindilar ulushi, %
4. Baholash va qayta aloqa	ROI, PI, PP; natijalarni prognoz bilan solishtirish	Haqiqiy energiya va material sarfini rejadagi bilan solishtirish; ekologik samaradorlik hisoboti	Reja va haqiqat o‘rtasidagi og‘ish, %; tejalgan energiya, kVt·soat

1-jadvalda taklif etilgan mezonlarning markaziy elementi – loyihalash bosqichidagi hayotiy sikl xarajatlari (LCC). U boshlang‘ich investitsiyaga loyiha xizmat muddati davomidagi energiya, material va texnik xizmat xarajatlarining diskontlangan qiymatini qo‘shib, qoldiq qiymatni ayirish orqali hisoblanadi: $LCC = I_0 + \Sigma\,(E_t + M_t + S_t) / (1 + r)^t - Q / (1 + r)^T$, bu yerda I_0 – boshlang‘ich investitsiya; E_t, M_t, S_t – t yildagi energiya, material va texnik xizmat xarajatlari; r – diskont stavkasi; Q – loyiha oxiridagi qoldiq qiymat; T – xizmat muddati. Energiya tejamkor uskuna qimmatroq bo‘lsa ham, LCC bo‘yicha arzonroq bo‘lishi mumkin; NPV ga asoslangan an’anaviy tanlovda bu ustunlik ko‘pincha yo‘qoladi. Baholash bosqichida haqiqiy energiya va material sarfining rejadan og‘ishi qayta aloqa orqali keyingi loyihaning resurslarni shakllantirish bosqichiga uzatiladi, bu esa mexanizmni o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi tizimga aylantiradi.

Muallifning fikricha, qurilish materiallari sanoatida resurs tejamkorlik alohida dastur sifatida emas, balki investitsiya loyihasining har bir bosqichiga kiritilgan majburiy mezon sifatida boshqarilishi kerak. Adabiyotda energiya tejamkor texnologiyalar iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lsa ham, axborot yetishmasligi va qisqa muddatli baholash tufayli to‘liq joriy etilmasligi “energiya samaradorligi bo‘shlig‘i”

[221] Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 918 p.

deb ataladi[222]. Hayotiy sikl xarajatlari va reja-haqiqat solishtiruvi aynan shu axborot bo‘shlig‘ini qisqartiradi.

Shu asosda quyidagilar taklif etiladi. Birinchidan, qurilish materiallari sanoatidagi davlat ishtirokidagi va davlat kafolati bilan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslarida hayotiy sikl xarajatlari va loyihaviy energiya sig‘imi hisob-kitobini majburiy qilish. Ikkinchidan, banklar tomonidan loyihalarni kreditlashda 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlarni “yashil” kredit shartlari sifatida qo‘llash. Uchinchidan, loyiha yakunida reja va haqiqat solishtiruvi natijalarini korxona investitsiya siyosatiga qayta aloqa sifatida kiritish va ularni yagona buyurtmachi xizmati darajasida umumlashtirish. Ushbu takliflar samarasini LCC hisob-kitobi o‘tkazilgan loyihalar ulushi, loyihalarda mahsulot birligiga energiya sarfining kamayishi, haqiqiy resurs sarfining rejadan og‘ishi va “yashil” manbalardan moliyalashtirilgan loyihalar ulushi bilan o‘lchash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allcott H., Greenstone M. Is there an energy efficiency gap? // Journal of Economic Perspectives. – 2012. – Vol. 26, No. 1. – P. 3–28. – DOI: 10.1257/jep.26.1.3.

2. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. Principles of Corporate Finance. – 13th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2020. – 918 p.

3. Eichholtz P., Kok N., Quigley J.M. Doing well by doing good? Green office buildings // American Economic Review. – 2010. – Vol. 100, No. 5. – P. 2492–2509. – DOI: 10.1257/aer.100.5.2492.

4. Flammer C. Corporate green bonds // Journal of Financial Economics. – 2021. – Vol. 142, No. 2. – P. 499–516. – DOI: 10.1016/j.jfineco.2021.01.010.

5. Ghisellini P., Ripa M., Ulgiati S. Exploring environmental and economic costs and benefits of a circular economy approach to the construction and demolition sector. A literature review // Journal of Cleaner Production. – 2018. – Vol. 178. – P. 618–643. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2017.11.207.

6. Gillingham K., Newell R.G., Palmer K. Energy efficiency economics and policy // Annual Review of Resource Economics. – 2009. – Vol. 1, No. 1. – P. 597–620. – DOI: 10.1146/annurev.resource.102308.124234.

7. Jaffe A.B., Stavins R.N. The energy-efficiency gap: what does it mean? // Energy Policy. – 1994. – Vol. 22, No. 10. – P. 804–810. – DOI: 10.1016/0301-4215(94)90138-4.

8. Бланк И.А. Управление инвестициями предприятия. – Киев: Ника-Центр, Эльга, 2003. – 480 с.

9. Мухаррамова Э.Р. Оценка эффективности деятельности строительного предприятия с целью максимального использования имеющихся ресурсов // Российское предпринимательство. – 2015. – Т. 16, № 16. – С. 2635–2650. – DOI: 10.18334/rp.16.16.619.

[222] Jaffe A.B., Stavins R.N. The energy-efficiency gap: what does it mean? // Energy Policy. – 1994. – Vol. 22, No. 10. – P. 804–810. – DOI: 10.1016/0301-4215(94)90138-4.

O’ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISHIDA «YASHIL IQTISODIYOT»NING ROLI

Do’stov Bahodir Tashpo’latovich
Samarqand davlat Pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya- Maqolada Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari singari, O’zbekiston ham iqlim o’zgarishi ta’siriga qarshi himoyasiz ekanligi bayon etilib, ushbu tadqiqotning maqsadi "yashil" iqtisodiyot konsepsiyasiga bag’ishlangan ishlarni tahlil qilish, konsepsiyaning rivojlanish evolyutsiyasining qisqacha sharhi, "Yashil" iqtisodiyot, "Yashil" o’sish va barqaror rivojlanish tushunchalari o’rtasidagi munosabatlarni aniqlash orqali rivojlanishni belgilaydi. O’zbekistonda “Yashil” iqtisodiyotga o’tishning muhim vazifalari hamda uning samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan yanada oqilona foydalanish muhim masala sifatida qaraladi. Dunyoning turli hududlarida atrof-muhit haqida qayg’urish natijasida bir nechta barqaror rivojlanish, yashil o’sish kabi konsepsiyalar yuzaga kelmoqda. Bu jamiyatimizning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari o’rtasidagi muvozanatni turli sohalar tomonidan turlicha talqin qilishni o’z ichiga oladi.

Kalit so’lar: “Yashil” iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, konsepsiya, barqaror raqobatbardoshlik, resurs samaradorligi, resurs samaradorligi indeksi, resurs sarfi.

Iqtisodiyotning umumbashariylashuvi sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish zaruriyati haqida gap ketganda mamlakatlarning ishlab chiqarish salohiyati, va samaradorligini, raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ularning zamonaviy va sifatli texnik bazasini yangilanish bilan bir qatorda hayot sifati va yashash muhiti ko’rsatkichlarini yaxshilovchi yangi texnologik tuzilmaga va modernizatsiya qilingan iqtisodiyotga o’tishni talab etmoqda. Xorijiy mamlakatlarda bunga o’tishni amalga oshiruvchi 2021-2030-yillarga mo’ljallangan

Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta’minlashda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019- yil 4-oktyabrda tasdiqlangan 2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot”ga o’tishning muhim vazifalari qatoriga iqtisodiyotning quvvat samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish kiradi. Ushbu belgilangan maqsadli indikatorlarga texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish orqali erishiladi. 2030- yilgacha bo’lgan davrda mazkur strategiyani amalga oshirish jarayonida ichki mahsulot birligiga issiqxona gazlarining solishtirma chiqindilari 2010- yil darajasidan o’n foizga kamayadi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy, arzon va ishonchli elektr ta’minotidan foydalanishlari 100 foizga qadar ta’minlanadi. Ekologik jihatdan yaxshilangan motorli yoqilg’i va avtomobil ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanish kengaytiriladi, elektr transporti rivojlanadi[2].

Tadqiqotda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining amaliyotga joriy etish va qo’llash bo’yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, hukumat qarorlari va statistika ma’lumotlari tahlil qilindi. Ushbu tadqiqotda “yashil” iqtisodiyot atamasining

mohiyatini o’rganish bilan bog’liq muammolarni tahlil qilish jarayonida induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

“Yashil iqtisodiyot” bu iqtisodiy tizim bo’lib, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Mazkur iqtisodiyot tabiiy muhitning tarkibiy qismi bo’lib, uning bir yo’nalishi bo’lib hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot” tushunchasi iqtisodiy fanlar va falsafaning ko’plab boshqa sohalaridagi g’oyalarni o’z ichiga oladigan tabiat va jamiyat bilan bog’liq ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, resurslarga asoslangan iqtisodiyot, aholining rivojlanishi, feminizm iqtisodiyoti va yashil siyosat bilan bog’liq iqtisodiyotni o’z ichiga oladi. Shunday qilib “yashil iqtisodiyot” deganda, inson hayoti va sog’lig’i uchun zarur bo’lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalari bilan bog’liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo’nalishi tushuniladi. [223]

Ko’p mamlakatlar iqlim o’zgarishiga qarshi kurashish uchun past uglerodli siyosatni qo’llayotganligi sababli, uglerodni ko’p iste’mol qiladigan mahsulotlarga jahonshumul talab o’rta va uzoq muddatli istiqbolda kamayadi. Bu O’zbekistonning ko’p karbon eksportiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, mamlakat yalpi ichki mahsuloti va farovonligiga ta’sir qilishi mumkin. Turli siyosiy senariylarga ko’ra, 2050-yilga kelib O‘zbekiston iqtisodiyotiga nafaqat tabiy gaz va neft, balki uglerodni k’p iste’mol qiladigan mahsulotlar eksporti ham ta’sir qilishi mumkin, jumladan, ko’p miqdorda uglerodli mahsulotlar uchun chegara soliqlariga ega bo’ladiganlar ham bundan mustasno emas. Keyinchalik undan voz kechish ancha qimmatga tushadigan texnologiya va tizimlarga yopishib qolmaslik uchun O’zbekiston o’z iqtisodiyotini yashillashtirish jarayonini darhol boshlashi kerak. Yashil maqsadlarga ustuvorlik berish bozor iqtisodiyotiga kengroq o’tishda davom etayotgan sa’y-harakatlarning ajralmas qismi bo’lishi kerak. Resurs samaradorligini oshirish, yashil bandlik va moliyani rivojlantirish kabi boshqa yashil choralar ham O’zbekistonga yaqin muddatli foyda keltirishi mumkin. Biroq, mamlakat yashil iqtisodiyotga o’tishning jamiyatga ta’sirini ham hisobga olishi kerak.

2019-2030- yillarda O’zbekiston Respublikasi “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasining to’rtta ustuvor yo’nalishlari belgilangan bo’lib, ularda asosiy e’tibor quvvat samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini o’zlashtirish, iqlim o’zgarishlari oqibatlariga moslashish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. [1.3]. Mazkur Strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo’nalish bo‘yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida quvvat samaradorligini 2030 -yilga qadar

ikki baravar oshirish vazifasi qo’yilgan. Mamlakatimizda “Yashil iqtisodiyot”ga o’tishda quvvat resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi quvvat manbalaridan foydalanishni ikkinchi ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi quvvat manbalarini

[223][223] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 4- oktyabrdagi 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘sida”gi PQ-4477-son Qarori
2.Shermuhammedov.A.T. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish

o’zlashtirish, binolarni qurish va ulardan foydalanish, transport sohasi hamda qurilish materiallarini ishlab chiqarishda quvvat iste’molini diversifikatsiyalash muhimdir.

Uchinchi ustuvor yo’nalish iqlim o’zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash muammolarini qamrab oladi. Suv x’jaligi, qishloq xo’jaligi, o’rmon xo’jaligi, qattiq maishiy chiqindilar bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish hamda Orol bo’yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralari mazkur yo’nalishning maqsadli ko’rsatkichlari bo’lib hisoblanadi.

To’rtinchi yo’nalish “Yashil iqtisodiyot”ni qo’llab-quvvatlashning moliyaviy va nomaliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalariga qaratilgan bo’lib, «yashil texnologiyalar»ni joriy etishning institutsional asoslarini rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot” sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, quvvat samaradorligini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini ta’lim va fanga integratsiya qilish, “yashil iqtisodiyot”ga o’tish uchun salohiyatni oshirish va qulay muhit yaratish, “yashil sarmoyalar”ni qo’llab-quvvatlash kabi sohalarni qamrab oladi.[4]

“O’zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan keng ko’lamli islohotlarni samarali amalga oshirish, xalqimizning kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlarga erishish bo’yicha tizimli harakatlarni izchil davom ettirish, “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlash, ekologik holatni yaxshilash, suv va boshqa tabiiy resurslardan unumli foydalanish standartlarini keng joriy qilish hamda xalq manfaatlariga yo’naltirilgan boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida vazifalar belgilanib qo’yildi.

1. Respublikada “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish uchun qulay sharoitlarni yaratish va “yashil quvvat” manbalari salmog’ini oshirish maqsadida:

- “Yashil quvvat” sertifikatlari aylanmasini bozor tamoyillari asoslisida yo’lga qo’yish, xalqaro issiqxona gazi savdosi bo‘yicha loyihani amalga oshirish tartibini tasdiqlash;
- Iqlim o’zgarishi sohasida monitoring, hisobot berish va tekshirishning zamonaviy tizimi va ma’lumotlar bazasini bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yish;
- Xorijiy investorlar ishtirokida Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Namangan, Navoiy va Samarqand viloyatlarida umumiy quvvati 2700 mvt bo‘lgan 6 ta yirik quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirishni ta’minlash.

2. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishi doirasida:

- 2025- yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatlarini, qalamchalarini ekish, respublikada 444 ta yashil bog‘lar barpo etishni davom ettirish;
- suv kanallarini rekonstruksiya qilish ishlariga davlat byudjetidan qo‘shimcha ajratilgan 500 milliard so‘m mablag‘lar doirasida kamida 1,5 ming kilometr yirik kanallarni betonlash ishlarini yakunlash choralarini ko‘rish.

3.Mamlakatimizda chang bo‘ronlariga qarshi va ularning salbiy oqibatlarini yumshatish doirasida;

•hududlarda chang bo‘roni sodir bo‘layotganda va atmosfera havosida mayda dispers zarrachalari belgilangan normadan yuqori bo‘lgani aniqlanganda aholini ogohlantirish, yurak-qon tomir va nafas yo‘llari kasalliklariga chalingan hamda [224]sog‘lig‘i havoning ifloslanishiga ta’sirchanligi yuqori bo‘lgan boshqa fuqarolarni zarur profilaktik choralar to‘g‘risida doimiy xabardor qilishni amaliyotda yo‘lga qo‘yish;

•o‘lchami 500 metr kvadrat va undan ortiq bo‘lgan qurilish maydonlarida, unga kirib chiqish yo‘llarida chang va qum zarralarini havoga ko‘tarilishini bartaraf etish bo‘yicha majburiy talablarni joriy etish[3].

Xulosa o‘rnida davlatimiz rahbarining 2021- yilda Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan “Yashil o‘sish” va jahonshumul maqsadlar uchun “Hamkorlik-2030” ikkinchi xalqaro sammitida so‘zlaganligida quyidagi iqtibosni keltirish mumkin: “Bugungi kunda ona tabiatning o‘zi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Bugun yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q”. Inson va jamiyat taraqqiyotining dolzarb masalalarida “yashil iqtisodiyot”ning roli juda keng va murakkab mavzudir. Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, bugungi kunda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlari nafaqat O'zbekistonda, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ham sezilmoqda, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, shuningdek, qazib olinadigan yoqilg'idan nazoratsiz foydalanish jahonshumul isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga va atrof-muhit va aholi salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda.[6] Barqaror rivojlanishni “ijtimoiy”- “iqtisodiy”-“ekologik” uchlikning o‘zaro bog‘liqlikda rivojlanishiga asoslangan sinergetik samara hisobidan taraqqiy etadigan jarayon sifatida tasavvur etish mumkin. Barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi iqtisodiy yondashuv cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Ijtimoiy yondashuv jahonshumul miqyosda ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ekologik yondashuv esa har qanday ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini ta’minlashga xizmat qilishi zarur bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

[1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 4- oktyabrdagi 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘sida”gi PQ-4477-son Qarori.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 800-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasida “Yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 4-oktyabrdagi 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4447-sonli Qarorining 1-ilovasi asosida.

[224] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.

[4]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 20 oktabrdagi “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.

[5] Pirs D. «Yashil iqtisodiyot» //Ekologik qadriyatlar 1 - 1992. - No1. – B.3–13. DOI: 10.3197/096327192776680179.

[6].Shermuhammedov.A.T. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish. A.Shermuhammedov, B. M. Xolboyev // Progressiv texnologiyalar va jarayonlar.

[7].Vaxabov A. V. Xajibakiev Sh. X. Yashil iqtisodiyot. -T. 2006.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTR GENERATSIYASI TARKIBI VA IQTISODIYOTNING UGLEROD INTENSIVLIGI

Farmonov Dilshodbek Daminovich
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi doktoranti

Annotatsiya. Tezisda O‘zbekistonda elektr generatsiyasi tarkibi bilan YaIMning uglerod intensivligi o‘rtasidagi qisqa muddatli bog‘liqlik tahlil qilingan. Jahon bankining 1990-2023 yillarga oid ma’lumotlari asosida tabiiy gaz va gidroenergetika ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlari ikki omilli eng kichik kvadratlar modeli yordamida baholangan. Statistik xulosalar HC3 standart xatolari asosida shakllantirilgan. Tahlil uglerod intensivligining pasayishi gidroenergetika ulushining izchil ortishi bilan birga kechmaganini ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: elektr generatsiyasi tarkibi, YaIMning uglerod intensivligi, tabiiy gaz, gidroenergetika, qisqa muddatli bog‘liqlik, OLS modeli, HC3 standart xatolari, statsionarlik, CUSUM testi.

Tadqiqotda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibi bilan iqtisodiyotning uglerod intensivligi o‘rtasidagi bog‘liqlik eng kichik kvadratlar usuli (OLS) yordamida baholandi. Tahlil Jahon bankining 1990-2023 yillarga oid yillik ma’lumotlariga asoslanib, 34 ta kuzatuvni qamrab oldi. Asosiy e’tibor tabiiy gaz va gidroenergetikaning elektr ishlab chiqarishdagi ulushlari o‘zgarishi bilan YaIMning uglerod intensivligi o‘zgarishi o‘rtasidagi qisqa muddatli bog‘liqlikka qaratildi.

Modelda bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida YaIMning uglerod intensivligi (CI), mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa tabiiy gaz va gidroenergetikaning jami elektr ishlab chiqarishdagi foizli ulushlari olindi. Uglerod intensivligi doimiy narxlarda hisoblangan YaIMning bir AQSh dollariga to‘g‘ri keladigan karbonat angidrid emissiyalari miqdorini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich butun iqtisodiyotni qamrab oladi, elektr generatsiyasi ulushlari esa elektr ishlab chiqarish tarkibini tavsiflaydi. Baholashda ko‘rsatkichlarning natural logarifmlari bo‘yicha birinchi farqlaridan foydalanildi. Buning uchun har bir ko‘rsatkichning joriy yilgi qiymati oldingi yilgi qiymatiga bo‘linib, ushbu nisbatning natural logarifmi 100 ga ko‘paytirildi. Natijada yillik logarifmik o‘sish sur’atlari hosil qilindi. Birinchi yil keyingi yil o‘zgarishini hisoblash uchun boshlang‘ich qiymat vazifasini bajargani sababli regressiya 1991-2023 yillardagi 33 ta kuzatuv asosida baholandi.

Bu yondashuv regressiya koeffitsiyentlarini qisqa muddatli elastiklik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Boshqa shartlar bir xil bo‘lganda, koeffitsiyent elektr ishlab chiqarishdagi tegishli manba ulushining 1 foizga nisbiy oshishi uglerod intensivligining taxminan necha foizga o‘zgarishi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bunda nisbiy foizli o‘zgarish bilan foiz punktidagi o‘zgarish farqlanadi. Masalan, gidroenergetika ulushining 10 foizdan 11 foizga ko‘tarilishi 1 foiz punktga yoki 10 foizga nisbiy o‘sishni anglatadi.

Ekonometrik baholashdan oldin tadqiqotga kiritilgan ko‘rsatkichlarning umumiy xususiyatlarini aniqlash maqsadida ularning o‘rtacha qiymati, standart og‘ishi, eng kichik va eng katta qiymatlari hisoblandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot ko‘rsatkichlarining tavsifiy statistikasi (1990-2023 yillar, N = 34)[225]

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha	Standart og‘ish	Min	Max
CI, kg CO_2e / 2015-yil doimiy narxlaridagi AQSh dollari YaIM.	2.75	1.28	1.00	4.33
Gidro, %	11.76	2.75	6.97	18.73
Gaz, %	78.34	5.34	69.68	86.20
Ko‘mir, %	5.01	1.79	3.45	11.13
Neft, %	4.84	4.17	0.26	11.91


Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 1990-2023 yillarda O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarishda tabiiy gaz asosiy o‘rinni egallagan. Uning yillik ulushi o‘rtacha 78,34 foizni tashkil etgan. Gidroenergetikaning o‘rtacha ulushi 11,76 foizga, ko‘mir va neftning ulushlari esa mos ravishda 5,01 va 4,84 foizga teng bo‘lgan. Uglerod intensivligining davr bo‘yicha o‘rtacha qiymati 2,75 ni tashkil etib, eng kichik va eng katta qiymatlari mos ravishda 1,0 va 4,33 ga teng bo‘lgan.

Ko‘rsatkichlarning vaqt davomida o‘zgarishini batafsil ko‘rib chiqish maqsadida elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibi hamda YaIMning uglerod intensivligi dinamikasi quyidagi 1-rasm grafigida tahlil qildik.

Rasmda ko‘rishimiz mumkinki, tahlil davrida O‘zbekiston elektr energetikasida tabiiy gaz yetakchi manba bo‘lib qolgan. Uning jami elektr ishlab chiqarishdagi ulushi 1990-yilda 76,39 foizni, 2023-yilda esa 75,86 foizni tashkil etgan. Davrning boshlang‘ich va yakuniy qiymatlari yaqin bo‘lishiga qaramay, oraliq yillarda gaz ulushida sezilarli tebranishlar kuzatilgan. Gidroenergetikaning ulushi ham yillar bo‘yicha o‘zgarib, 1990-yildagi 11,80 foizdan 2023-yilda 9,34 foizga tushgan.

Shu davrda ko‘mir ulushi 7,38 foizdan 11,13 foizga oshgan, neft ulushi esa 4,42 foizdan 2,83 foizga kamaygan. YaIMning uglerod intensivligi davr boshidagi 3,982 dan davr oxirida 0,999 gacha pasaygan. Bu 1990-yilga nisbatan 74,92 foizlik kamayishni anglatadi. Demak, doimiy narxlarda hisoblangan YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan CO_2 emissiyalari miqdori qisqargan. Biroq ushbu o‘zgarishning o‘zi mamlakatdagi jami emissiyalar ham kamayganini bildirmaydi, chunki intensivlik emissiyalar hajmi bilan bir qatorda real YaIM o‘zgarishiga ham bog‘liq.

[225] Jahon banki. World Development Indicators: O‘zbekistonning uglerod intensivligi va elektr generatsiyasi ulushlari, 1990-2023 yillar. Muallifning Stata dasturidagi hisob-kitoblari.



1-rasm. O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibi va YaIMning uglerod intensivligi dinamikasi, 1990-2023 yillar.[226]

Uglerod intensivligining pasayishi gidroenergetika ulushining muntazam ortishi bilan birga kechmagan. Shu sababli kuzatilgan pasayishni faqat elektr ishlab chiqarish tarkibidagi o‘zgarishlar bilan izohlash yetarli emas. Gaz va gidroenergetika ulushlari bilan uglerod intensivligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholash uchun ekonometrik tahlil qo‘llaniladi. Regressiyani baholashdan oldin modelga kiritiladigan yillik logarifmik o‘zgarish qatorlarining statsionarligi tekshiriladi.

Elektr generatsiyasi tarkibi va uglerod intensivligi dinamikasini o‘rganishdan so‘ng, ekonometrik modelga kiritiladigan qatorlarning statsionarligi tekshiriladi. Vaqt qatorlaridagi davomli tendensiyalar regressiya natijalarini noto‘g‘ri talqin qilishga olib kelishi mumkinligi sababli, ushbu bosqich tahlilning muhim qismi hisoblanadi. Tadqiqotda qisqa muddatli bog‘liqlikni baholash uchun uglerod intensivligi, gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlaridan foydalaniladi.

Regressiya modelini baholashdan oldin uglerod intensivligi, gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlari statsionarligi kengaytirilgan Dikki-Fuller (ADF) testi yordamida tekshiriladi[227]. Testning nol gipotezasi qatorda birlik ildiz mavjudligini bildiradi. Natijalar 5 foizlik ahamiyatlilik darajasida baholandi.

[226] Jahon bankining World Development Indicators bazasidagi uglerod intensivligi hamda gaz, gidro, ko‘mir va neft generatsiyasi ulushlari asosida muallif tuzgan, 1990-2023 yillar.

[227] Dickey D. A., Fuller W. A. Likelihood Ratio Statistics for Autoregressive Time Series with a Unit Root // Econometrica. – 1981.

2-jadval

Ko‘rsatkichlarning yillik logarifmik o‘zgarishlari uchun ADF testi natijalari[228]

Qator	ADF statistikasi	p-qiymat
Uglerod intensivligining o‘zgarishi - y	−5,065	<0,001
Gidroenergetika ulushining o‘zgarishi - h	−8,100	<0,001
Tabiiy gaz ulushining o‘zgarishi - g	−7,861	<0,001

ADF testi konstanta hisobga olingan holda, vaqt trendisiz va qo‘shimcha kechikishlar soni nolga teng qilib bajarildi. Dastlabki 34 ta yillik kuzatuvdan logarifmik o‘zgarishlar hisoblangach 33 ta qiymat hosil bo‘ldi. ADF hisobida qatorning oldingi yilgi qiymatidan ham foydalanilgani sababli har bir testda 32 ta kuzatuv qatnashdi.

Natijalarga ko‘ra, uglerod intensivligi, gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlari uchun ADF statistikalari mos ravishda −5,065; −8,100 va −7,861 ni tashkil etdi. Ushbu qiymatlarning barchasi 5 foizlik kritik qiymatdan (−2,980) kichik bo‘lib, p-qiymatlari 0,001 dan past bo‘ldi. Shu sababli birlik ildiz mavjudligi haqidagi nol gipoteza barcha uchta qator uchun rad etildi. Ushbu natijalar ko‘rsatkichlarning yillik logarifmik o‘zgarishlarini statsionar qatorlar sifatida modellashtirishni qo‘llab-quvvatlaydi. Keyingi bosqichda ushbu o‘zgarishlar o‘rtasidagi qisqa muddatli bog‘liqlik OLS usuli yordamida baholandi.

Uglerod intensivligi bilan elektr generatsiyasi tarkibi o‘rtasidagi qisqa muddatli bog‘liqlikni baholash uchun ikki omilli OLS modeli tuzildi. Modelda uglerod intensivligining yillik logarifmik o‘zgarishi bog‘liq o‘zgaruvchi, gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlari esa mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida olindi. Model quyidagicha ifodalandi:

$$y_t = \alpha + \beta_H h_t + \beta_G g_t + \varepsilon_t$$

Bunda **α** – konstanta, **βh va βg** – baholanadigan elastiklik koeffitsiyentlari, **ε** – modelda hisobga olinmagan omillarni ifodalovchi xatolik hadi.

3-jadval

Uglerod intensivligining yillik logarifmik o‘zgarishi uchun ikki omilli OLS natijalari[229]

O‘zgaruvchi	Koeffitsiyent	HC3 standart xatosi	p-qiymat
Gidro ulushining o‘zgarishi - h	−0,0956	0,1027	0,360
Gaz ulushining o‘zgarishi - g	−0,1715	0,5379	0,752
Konstanta - _cons	−4,2631	1,2242	0,002

Ikki omilli OLS modeli 1991-2023 yillardagi 33 ta kuzatuv asosida baholandi. Statistik xulosalarda HC3 (Heteroskedasticity-Consistent Covariance Matrix Estimator, Type 3) standart xatolaridan foydalanildi[230]. Gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining qisqa muddatli elastikliklari mos ravishda −0,0956 va −0,1715 ga teng bo‘ldi. Biroq ularning p-qiymatlari 0,05 dan yuqori bo‘lgani sababli, alohida

[228] Jahon banki, World Development Indicators: uglerod intensivligi, gidro va gaz ulushlari asosida muallifning Stata dasturida ADF testi bo‘yicha hisob-kitoblari.

[229] Jahon bankining World Development Indicators ma’lumotlari asosida muallifning Stata dasturidagi OLS baholashi, 1991-2023 yillar; HC3 standart xatolari.

[230] MacKinnon J. G., White H. Some heteroskedasticity-consistent covariance matrix estimators with improved finite sample properties // Journal of Econometrics. – 1985.

koeffitsiyentlarning statistik ahamiyati tasdiqlanmadi. Shuning uchun manfiy belgilarni uglerod intensivligini kamaytiruvchi isbotlangan ta’sir sifatida talqin qilish mumkin emas.

Modelning determinatsiya koeffitsiyenti 0,083 ni tashkil etib, uglerod intensivligining yillik logarifmik o‘zgarishlarini izohlash imkoniyati cheklanganini ko‘rsatdi. HC3 asosidagi umumiy F testi ham gidro va gaz koeffitsiyentlarining birgalikdagi ahamiyatliligini 5 foiz darajada tasdiqlamadi (p = 0,133). Bu natijalar ikki omil o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun mavjud model va tanlamadagi dalillar yetarli emasligini bildiradi.

Model xatolarining dispersiyasi doimiyligini baholash uchun Breush-Pagan testi qo‘llanildi[231]. Test natijasida p = 0,1316 qiymati olindi. P-qiymat 0,05 dan katta bo‘lgani sababli, xatolar dispersiyasi doimiyligi haqidagi nol gipoteza rad etilmadi. Shunday qilib, bu test doirasida geteroskedastiklik mavjudligini tasdiqlovchi yetarli statistik dalil aniqlanmadi. Regressiya koeffitsiyentlarining statistik ahamiyatliligi HC3 tuzatishli standart xatolar asosida baholandi.

Hisob-kitoblarda gidroenergetika va tabiiy gaz ulushlarining yillik nisbiy o‘zgarishlari uchun manfiy koeffitsiyentlar olindi. Biroq HC3 standart xatolari asosida ushbu bog‘lanishlar 5 foizlik darajada statistik ahamiyatli bo‘lmadi. Model uglerod intensivligining yillik logarifmik o‘zgarishlaridagi tafovutlarning 8,28 foizini izohladi. Shu sababli, olingan natijalar asosida gaz yoki gidroenergetika ulushining oshishi iqtisodiyotning uglerod intensivligini albatta kamaytiradi, degan qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Bu natija ta’sir umuman mavjud emasligini ham anglatmaydi.

Model koeffitsiyentlarining vaqt davomida barqarorligi OLS qoldiqlariga asoslangan CUSUM testi yordamida tekshirildi[232]. Test statistikasi 1,3749 ni tashkil etib, 5 foizlik kritik qiymatdan – 1,3581 dan yuqori bo‘ldi. Shu sababli koeffitsiyentlarning barqarorligi haqidagi nol gipoteza rad etildi. Ushbu natija butun tadqiqot davri uchun baholangan bog‘lanishlarni vaqt davomida o‘zgarmas deb talqin qilishni cheklaydi.

Tahlil natijalari 1990-2023 yillarda O‘zbekistonda YaIMning uglerod intensivligi sezilarli pasayganini, biroq bu jarayon elektr ishlab chiqarishda gidroenergetika ulushining izchil oshishi bilan birga kechmaganini ko‘rsatdi. 1991-2023 yillar bo‘yicha baholangan ikki omilli modelda tabiiy gaz va gidroenergetika ulushlarining yillik logarifmik o‘zgarishlari uchun manfiy koeffitsiyentlar olingan bo‘lsa-da, HC3 standart xatolari asosida ularning statistik ahamiyatliligi tasdiqlanmadi. Modelning izohlash darajasi pastligi va CUSUM testida koeffitsiyentlar barqarorligi gipotezasining rad etilishi mazkur bog‘lanishlarni butun davr uchun o‘zgarmas qonuniyat sifatida talqin qilish imkonini cheklaydi.

Tadqiqotning asosiy empirik xulosasi shundan iboratki, tanlangan davr va model doirasida gaz hamda gidroenergetikaning elektr generatsiyasidagi ulushlari o‘zgarishi bilan YaIM uglerod intensivligining yillik o‘zgarishi o‘rtasida statistik ahamiyatli qisqa muddatli bog‘liqlik aniqlanmadi. Ushbu natija mazkur

[231] Breusch T. S., Pagan A. R. A Simple Test for Heteroscedasticity and Random Coefficient Variation // Econometrica. – 1979.
[232] Ploberger W., Krämer W. The CUSUM Test with OLS Residuals // Econometrica. – 1992.

manbalarning ekologik ahamiyatini inkor etmaydi va uzoq muddatli munosabatlar haqida xulosa bermaydi. Amaliy jihatdan iqtisodiyotning kam uglerodli rivojlanishini kuzatishda elektr generatsiyasi tarkibini energiya samaradorligi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi va texnologik yangilanish ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mazkur tadqiqot ushbu qo‘shimcha omillarning alohida hissasini baholamaganligi sababli, uglerod intensivligining kuzatilgan pasayishini muayyan omilga sababiy jihatdan bog‘lash uchun asos bermaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. World Bank. World Development Indicators: Carbon intensity of GDP (kg CO_2e per constant 2015 US$ of GDP) – O‘zbekiston, 1990-2023 yillar.
2. World Bank. World Development Indicators: Electricity production from hydroelectric sources (% of total) – O‘zbekiston, 1990-2023 yillar.
3. World Bank. World Development Indicators: Electricity production from natural gas sources (% of total) – O‘zbekiston, 1990-2023 yillar.
4. World Bank. World Development Indicators: Electricity production from coal sources (% of total) – O‘zbekiston, 1990–2023-yillar.
5. World Bank. World Development Indicators: Electricity production from oil sources (% of total) – O‘zbekiston, 1990–2023-yillar.
6. Dickey D. A., Fuller W. A. Likelihood Ratio Statistics for Autoregressive Time Series with a Unit Root // Econometrica. – 1981.
7. MacKinnon J. G., White H. Some heteroskedasticity-consistent covariance matrix estimators with improved finite sample properties // Journal of Econometrics. – 1985.
8. Breusch T. S., Pagan A. R. A Simple Test for Heteroscedasticity and Random Coefficient Variation // Econometrica. – 1979.
9. Ploberger W., Krämer W. The CUSUM Test with OLS Residuals // Econometrica. – 1992.

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH STRATEGIYASI DOIRASIDA SANOAT TARMOQLARINI TRANSFORMATSIYA QILISH YO‘NALISHLARI

Ibragimova Sh.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

So‘nggi o‘n yillikda jahon iqtisodiyotida iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning tanqisligi va ekologik xavflarning kuchayishi iqtisodiy o‘sish modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. An’anaviy, yuqori energiya va xomashyo sig‘imiga asoslangan sanoat ishlab chiqarishi uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlay olmasligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ko‘plab davlatlar iqtisodiy o‘sishni tabiiy resurslar sarfi va atrof-muhitga salbiy ta’sirdan ajratish, ya’ni yashil o‘sish tamoyiliga o‘tishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilamoqda.

O‘zbekiston ham ushbu jarayondan chetda emas. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tishning huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda. Xususan, 2019–2030-yillar davrida yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining qabul qilinishi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurs tejamkorligini oshirish, energiya samaradorligini yaxshilash va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish vazifalarini belgilab berdi. Keyinchalik ushbu vazifalar “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham iqtisodiy o‘sishning sifat ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirildi. Mamlakatning Parij kelishuvi doirasida qabul qilgan yangilangan milliy belgilangan hissasi esa yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish bo‘yicha xalqaro majburiyatlarni mustahkamladi.

Sanoat tarmoqlari iqtisodiyotning eng ko‘p energiya va xomashyo iste’mol qiladigan, shuningdek, atrof-muhitga eng katta yuk tushiradigan sohasi hisoblanadi. Shu bois yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan aynan sanoat tarmoqlarining texnologik, energetik va institutsional transformatsiyasiga bog‘liq..

O‘zbekiston sanoatining tarkibiy tuzilishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning salmoqli qismi kon-metallurgiya, neft-gaz, kimyo, qurilish materiallari, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoati hissasiga to‘g‘ri keladi. Rasmiy statistik ma’lumotlar sanoatning yalpi ichki mahsulot va eksport tarkibidagi ulushi barqaror yuqoriligini, biroq energiya va suv iste’moli bo‘yicha ham yetakchi bo‘lib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Xalqaro baholashlarga ko‘ra, mamlakat iqtisodiyotining energiya sig‘imi rivojlangan davlatlarning o‘rtacha darajasidan sezilarli yuqori bo‘lib, bu holat asosan eskirgan texnologiyalar, energiya yo‘qotishlarining yuqoriligi va tabiiy gazga haddan tashqari bog‘liqlik bilan izohlanadi. Sanoat tarmoqlarida yashil transformatsiyaga to‘sqinlik qilayotgan asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

–asosiy ishlab chiqarish fondlarining ma’naviy va jismoniy eskirganligi, energiya tejovchi texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi;

–sanoat chiqindilari va ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash darajasining pastligi;

–issiqxona gazlari chiqindilarini hisobga olish, monitoring qilish va tekshirish tizimining yangi shakllanayotganligi;

–yashil investitsiyalarni moliyalashtirish vositalarining cheklanganligi va ularning narxi yuqoriligi;

–yashil texnologiyalar bo‘yicha malakali kadrlar va mahalliy ilmiy-texnik salohiyatning yetishmasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida yashil iqtisodiyotga o‘tish islohotlari samaradorligini oshirish bo‘yicha qabul qilingan dastur sanoat uchun aniq maqsadli ko‘rsatkichlarni belgiladi. Ushbu ko‘rsatkichlar va ularga erishish mexanizmlari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval ma’lumotlari sanoatni yashil transformatsiya qilish siyosati ikki darajada amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Birinchi daraja makroiqtisodiy maqsadlarni, ya’ni iqtisodiyotning energiya va uglerod sig‘imini kamaytirishni qamrab oladi. Ikkinchi daraja esa korxona darajasidagi aniq vositalarni, xususan,

energiya auditi, yashil sertifikatlar va chiqindilarni monitoring qilish tizimini o‘z ichiga oladi.

1-jadval

Sanoat tarmoqlarini yashil transformatsiya qilishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari va mexanizmlari

№	Ko‘rsatkich	Maqsadli qiymat va muddat	Asosiy ta’sir ko‘rsatiladigan tarmoqlar	Transformatsiya mexanizmi
1	YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilari	2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirish (2030-yil)	Energetika, kimyo, qurilish materiallari, metallurgiya	MRV tizimi, tarmoq maqsadlari, uglerod birliklari reyestri
2	Sanoatda energiya samaradorligi	Kamida 20 foizga oshirish (2030-yil)	Barcha sanoat tarmoqlari	Energiya auditi, energiya tejovchi uskunalar, energiya menejmenti tizimi
3	Yirik korxonalar mahsulotining energiya sig‘imi	25 ta korxona va tashkilotda 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirish (2026-yil)	Kon-metallurgiya, neft-gaz, kimyo, energetika	Yonilg‘i-energetika resurslarini tejash bo‘yicha maqsadli parametrlar
4	YaIMning energiya sig‘imi	30 foizga kamaytirish (2030-yil)	Iqtisodiyot va sanoat umuman	Texnologik modernizatsiya, qayta tiklanuvchi energiya manbalari
5	Elektr energiyasi ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushi	30 foizdan oshirish (2030-yil)	Energetika va energiya iste’mol qiluvchi tarmoqlar	Quyosh va shamol elektr stansiyalari, energiya to‘plash tizimlari
6	Yashil sertifikatlar va MRV tizimi	2023-yil 1-iyundan sertifikatlar, 2024-yil 1-yanvardan MRV tizimi	Ekologik ta’siri yuqori sanoat korxonalari	Ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablar asosida sertifikatlash

Jadvaldan ko‘rinadiki, maqsadli ko‘rsatkichlarning aksariyati energiya bilan bog‘liq bo‘lib, resurs unumdorligi, suvdan oqilona foydalanish va sanoat chiqindilarini qayta ishlash bo‘yicha tarmoq darajasidagi miqdoriy maqsadlar hali yetarlicha aniqlashtirilmagan. Bu esa sanoat transformatsiyasini faqat energetika omili bilan cheklab qo‘ymasdan, uni kompleks tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan sanoat tarmoqlarini yashil transformatsiya qilishning tizimli modeli ishlab chiqildi (1-rasm).


Modelning birinchi yo‘nalishi energetik transformatsiya. U sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini oshirish, majburiy energiya auditini o‘tkazish, aqlli hisoblagichlar va energiya menejmenti tizimlarini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu yo‘nalish sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish maqsadiga bevosita xizmat qiladi.

Ikkinchi yo‘nalish texnologik modernizatsiya. Bunda eng yaxshi mavjud texnologiyalar tamoyiliga asoslangan ishlab chiqarishga o‘tish, eskirgan uskunalarni bosqichma-bosqich yangilash, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamli boshqarish va

sun’iy intellekt asosida optimallashtirish ko‘zda tutiladi. Kon-metallurgiya, kimyo va sement sanoatida bu yo‘nalish mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sig‘imini kamaytirishning asosiy omili hisoblanadi.

1-rasm.

Sanoat tarmoqlarini yashil transformatsiya qilishning tizimli modeli



Uchinchi yo‘nalish aylanma iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish. U sanoat chiqindilarini qayta ishlash, ikkilamchi xomashyodan foydalanish, suvni aylanma tizim orqali qayta ishlatish hamda sanoat simbiozini, ya’ni bir korxona chiqindisini boshqa korxona uchun xomashyoga aylantirishni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalish ayniqsa suv resurslari tanqis bo‘lgan mintaqalarda joylashgan sanoat zonalari uchun dolzarbdir.

To‘rtinchi yo‘nalish moliyaviy va institutsional mexanizmlar. Bu yo‘nalish yashil obligatsiyalar, imtiyozli yashil kreditlar, yashil sertifikatlar, issiqxona gazlari chiqindilarini hisobga olish, monitoring qilish va tekshirish tizimi hamda kelajakda uglerodga narx belgilash vositalarini qamrab oladi. Mazkur mexanizmlar korxonalar uchun yashil investitsiyalarni iqtisodiy jihatdan foydali qilish orqali qolgan uch yo‘nalishning amalga oshishini ta’minlaydi.

Modelning asosini davlat siyosati, malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi hamda davlat-xususiy sheriklik tashkil etadi. Bu asos mustahkam bo‘lmasa, yuqoridagi yo‘nalishlar alohida-alohida loyihalar darajasida qolib ketishi va tizimli natija bermasligi mumkin.

Olib borilgan tahlil natijalari O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarini yashil transformatsiya qilishning huquqiy asoslari va makroiqtisodiy maqsadlari aniq belgilanganini, biroq ularni tarmoq va korxona darajasida amalga oshirish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmaganini ko‘rsatdi. Sanoatning yuqori energiya sig‘imi, ishlab chiqarish fondlarining eskirganligi va yashil moliyalashtirish vositalarining cheklanganligi transformatsiya jarayonini sekinlashtiruvchi asosiy omillar bo‘lib qolmoqda.

Har bir yirik sanoat tarmog‘i uchun 2030-yilgacha mo‘ljallangan dekarbonizatsiya “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish va unda energiya sig‘imi, suv sarfi hamda chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha miqdoriy maqsadlarni belgilash.

Energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan korxonalar uchun eng yaxshi mavjud texnologiyalar bo‘yicha milliy ma’lumotnomalarni joriy etish va ularni ekologik ruxsatnomalar berish tizimi bilan bog‘lash.

Sanoat korxonalarining o‘z ehtiyoji uchun quyosh va shamol energiyasi qurilmalarini o‘rnatishini rag‘batlantirish maqsadida soliq va tarif imtiyozlarini kengaytirish.

Erkin iqtisodiy zonalar va sanoat zonalari negizida eko-sanoat parklarini tashkil etish orqali sanoat simbiozi va aylanma iqtisodiyot amaliyotini rivojlantirish.

Mahalliy fond bozorida yashil obligatsiyalar chiqarish tartibini soddalashtirish va tijorat banklarida yashil kreditlash liniyalarini kengaytirish.

Issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish tizimi ma’lumotlari asosida bosqichma-bosqich ichki uglerod bozorini shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish.

Oliy ta’lim muassasalarida yashil texnologiyalar, energiya menejmenti va ekologik muhandislik yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish.

Taklif etilgan model va chora-tadbirlarning amalga oshirilishi sanoat tarmoqlarining energiya va resurs samaradorligini oshirish, eksport mahsulotlarining xalqaro ekologik talablarga mosligini ta’minlash hamda mamlakatning iqlim bo‘yicha xalqaro majburiyatlarini bajarishga xizmat qiladi.

ENVIRONMENTAL PROTECTION AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN CENTRAL ASIA: CHALLENGES AND SUSTAINABLE PATHWAYS

Jie Yang
Lecturer of Department of International Business and Creative Economics, “Silk Road” International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand, Uzbekistan.

Abstract: The five Central Asian states sit deep in the Eurasian interior and form the core of the Silk Road Economic Belt, yet they are also among the most fragile inland arid ecosystems in the world. Since the end of the Cold War the region has expanded its resource-based economy at speed, and has paid a heavy price for it in environmental terms. Taking Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan as its subject, this paper builds on both Chinese and international scholarship and combines documentary analysis, statistical comparison and case study. It explores the current situation of environmental protection and green economy development in the region, the challenges and sustainable ways forward through public data from the World Bank, International Energy Agency, UNEP and the Chinese Academy of Sciences. There are four important findings. Second, ecological degradation, most obviously in the form of the Aral Sea crisis, glacier retreat and desertification, is a fundamental constraint on sustainable development in the region. Second, GHG emission intensity is also high across Central Asia and

structurally imbalanced due to the average per capita CO2 emissions of Kazakhstan and Turkmenistan being 10+ tonnes, much higher than the world average. Thirdly, Agriculture accounts for around 90% of water use with low efficiency and the water, energy and food stress is significant. Fourth, the region has abundant renewable resources, but used them only partially; and outside the very high hydropower presence of Tajikistan and Kyrgyzstan, renewables still represent a small percentage in other countries. A green institutional framework has started to take shape, although weak implementation of the framework, sizeable funding deficits and limited coordination at regional level remain. Therefore, the paper suggests policy measures for four pillars of institutional coordination, technological upgrade, green finance and regional cooperation. The paper therefore offers policy recommendations along four dimensions: institutional coordination, technological upgrading, green finance and regional cooperation.

Keywords: Central Asia; green economy; environmental protection; Aral Sea crisis; sustainable development

Central Asia is usually taken to mean Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan and Uzbekistan, a combined area of roughly 4 million square kilometres with a population of about 80 million. Set in the heart of the Eurasian landmass, the region was an obligatory passage on the ancient Silk Road and is now central to the building of the Silk Road Economic Belt, which gives it considerable geostrategic importance. At the same time it is one of the world's archetypal ecologically fragile zones. Far from the sea, dry in climate and dependent on snow and glacier melt from its high mountains, its ecosystems recover poorly from external shocks and are correspondingly sensitive to climate change and human activity.

From the 1960s onward the former Soviet Union built large-scale diversion and irrigation works across Central Asia in order to expand irrigated farming, cotton above all. The volume of the Amu Darya and the Syr Darya reaching the Aral Sea fell sharply and the lake shrank dramatically. Micklin (2007) puts the drop in water level at about 23 metres, the loss of surface area at roughly 74% and the loss of volume at some 90%, with salinity rising from about 10 grams per litre to more than 100. The result was a cascade of ecological and social harm: the collapse of the fishery, repeated salt and dust storms, and damage to public health. The United Nations has called it one of the worst ecological disasters of the twentieth century. Beyond the Aral Sea, glacier retreat, grassland degradation, soil salinisation and biodiversity loss are common across the region, and global climate change is making all of them worse.

A green economy is a newer model of development that seeks to reconcile economic growth with environmental protection. In 2011 UNEP published Towards a Green Economy, defining it as one “that results in improved human well-being and social equity, while significantly reducing environmental risks and ecological scarcities”. Building a green economy has become an important route for countries to respond to climate change and to meet the UN Sustainable Development Goals for 2030. For Central Asia, a green transition is both an unavoidable answer to

ecological pressure and a chance to loosen its dependence on resource-based growth and diversify its economies.

The paper therefore asks three questions. What are the main challenges to environmental protection and green economy development in Central Asia? Judging from the macroeconomic data that are available, at what level does the region's green economy stand? And given present conditions, what sustainable pathway should the region follow? What follows is organised in four parts: the introduction above, a review of the literature, the research methods together with the data analysis, and finally the conclusions and policy recommendations.

The Evolution of Green Economy Thinking

Green economy thinking grew out of the reappraisal of industrial civilisation in the 1960s and 1970s. In 1987 the World Commission on Environment and Development set out the idea of sustainable development in Our Common Future, laying the theoretical groundwork for the green economy. In 2011 UNEP proposed a systematic green economy framework, stressing investment in natural capital, clean energy and ecological infrastructure as a route to the "triple win" of growth, social equity and environmental protection. Ideas such as green growth, inclusive green growth and the circular economy have since multiplied, and bodies including the OECD and the World Bank have introduced green growth indicator systems, carrying the green economy from theory into policy practice.

Research on Central Asia's Ecological and Environmental Problems

The Aral Sea crisis sits at the centre of Chinese and international work on Central Asia's ecology. Micklin (2007) assessed the causes and consequences of the sea's shrinkage and identified the spread of irrigation as the dominant factor. Yang Shu and Tian Bao (2002) gave an early review of environmental problems in the region, exposing the inner link between flood-irrigated farming and ecological decline. Yang Shu and colleagues (2024) assembled a systematic account of the lake's history and the current state of its governance. On climate change, Sorg and colleagues (2012) showed that glaciers in the Tien Shan have retreated continuously, and that the retreat is more pronounced in the densely populated lower margins downstream; summer runoff is therefore exposed to decline, which threatens irrigation and hydropower supply alike.

Research on Central Asia's Green Economy and Regional Cooperation

On the green transition and regional cooperation, Xu Haiyan (2016) used the cases of Aral Sea governance and Tajikistan to examine how the Green Silk Road Economic Belt and Central Asia's environmental problems are connected. Wu Miao and colleagues (2023) argued that stronger scientific and technological cooperation is an important route to deepening Aral Sea restoration. Li Lifan and Chen Jiajun (2018) approached transboundary water in Central Asia through the institutional difficulties and coordination challenges of basin governance. Fang Kai and colleagues (2021) assessed sustainability across the countries along the Belt and Road, offering a basis for zone-based management of the regional green transition. Assessment reports from the World Bank, the FAO and other institutions add important data on water use, agricultural transformation and climate adaptation.

Taken as a whole, existing research is rich on the origins of the Aral Sea crisis, the effects of climate change and water governance. Three gaps remain. Most studies concentrate on a single environmental issue and stop short of a systematic analysis that ties ecological challenges to the green transition. Quantitative comparisons of green economy development among the five states are still thin. And policy recommendations tend to stay at a general level, so their targeting and practicality need work. This paper tries to add something on each of these fronts.

All three methods are employed simultaneously. The first is documentary analysis, a systematic review of the theory of green economy and the study of the ecology of Central Asia, setting the boundaries of the study and the frame of its conceptualization. The second is statistical comparison, which compares the population, GDP per capita, CO2 emissions per capita, share of renewable energy in electricity generation and share of agricultural water use for the five countries.

1. The Aral Sea crisis and desertification. The Aral Sea was once the fourth largest inland lake in the world, covering about 68,000 square kilometres in 1960. As inflow declined, the lake shrank without pause: by 1990 the area had fallen to roughly 40,000 square kilometres, and by 2007 it was less than 10% of its original extent. The eastern basin of the South Aral Sea dried up entirely around 2014. The exposed bed became a “new desert”, the Aralkum, spreading over tens of thousands of square kilometres. Each year tens of millions of tonnes of salt-laden dust are carried downwind, bringing soil salinisation, air pollution and a high rate of respiratory illness among residents.

2. Scarce and poorly used water. Central Asia suffers from physical and infrastructural water scarcity at the same time, and the two transboundary rivers, the Amu Darya and the Syr Darya, meet most of the region's demand. Agriculture is by far the largest user, taking about 90% of total water, while flood irrigation of the traditional kind keeps the efficiency of canal systems low and returns little output per unit of water. Because upstream and downstream states weigh power generation and irrigation differently, the water-energy-food tension has persisted, and coordinating transboundary water remains difficult.

3. Glacier retreat and climate change. The Tien Shan and the Pamirs are Central Asia's “water towers”, and their snow and ice melt keep regional runoff stable. Sorg and colleagues (2012) found that Tien Shan glaciers have retreated steadily in recent decades, and most clearly in the densely populated lower peripheral ranges. Glacier loss may lift runoff in the near term, but over the longer run it will cut runoff during the dry summer season, which is a serious threat to irrigated farming and hydropower. The IPCC's Sixth Assessment Report (2022) likewise warns that cryosphere retreat in the high mountains of Asia will magnify water risks.

4. Greenhouse gas emissions and an unbalanced energy mix. The energy structures of the five countries differ considerably. Kazakhstan and Turkmenistan, as exporters of fossil fuels, have high per capita CO2 emissions above 10 tonnes, whereas Kyrgyzstan and Tajikistan, which run mainly on hydropower, keep theirs low. Greenhouse gas emissions in the region clearly track resource endowments, and the low-carbon transformation of the energy mix remains a long-term undertaking.

Taking the five Central Asian states as its subject, this paper has reviewed the literature and used the data available to analyse the present state of, the challenges to, and the pathways for environmental protection and green economy development in the region. Three conclusions emerge.

Ecological degradation is first and foremost a limiting factor for Central Asia's sustainable development. The Aral Sea crisis, desertification and glacier retreat and water scarcity are intertwined and constitute the true basis of any regional development towards green transition. The reduction of the sea to approximately 13% of its size in 1960 and the emergence of the Aralkum desert as a new supplier of salt and dust does not require arguments on the need for ecological rehabilitation.

Second, there are significant differences between countries concerning the level of green economy development in Central Asia. Per capita CO2 emissions in Kazakhstan and Turkmenistan are high, and the pressure to transform their energy systems is strong, whereas Kyrgyzstan and Tajikistan are hydraulic nations with limited carbon emissions, but weak economic bases; and Uzbekistan is the driving force in the regional green transition, due to its high population density and rapid growth. The region overall is highly endowed with renewable resources, but is not well developed and lacks institutional support.

Third, in Central Asia, the green transition is hindered by four factors simultaneously: institutional coordination is insufficient, technologies and industries are limiting, funding is lacking and the data base is limited. Systemic institutional design is called for to untangle them.

The paper makes recommendations on these findings from four points of view. There is a need to enhance institutional coordination through strengthened water and ecosystem governance mechanisms across borders and incorporating green indicators into regional cooperation mechanisms. Water-saving irrigation should be promoted and clean energy technologies and recycling technologies should be popularized and accelerate the greening of traditional industries to promote technological upgrading. Green finance should be put on a better basis through broadening the channels of green credit, green bond, and international cooperation and reducing green projects financing cost. Further, regional cooperation should take advantage of platforms like the Belt and Road Initiative and the Shanghai Cooperation Organisation, to enhance cooperation in ecological governance, technology sharing and training, and to make green development a common regional goal.

References

Yang Shu, Tian Bao. A Review of Ecological and Environmental Issues in Central Asia [J]. East European and Central Asian Studies, 2002(5).

Xu Haiyan. Construction of the Green Silk Road Economic Belt and Ecological-Environmental Issues in Central Asia: A Case Study of Aral Sea Remediation and Tajikistan [J]. Russian, East European & Central Asian Studies, 2016(4).

Li Lifan, Chen Jiajun. Transboundary Water Resources in Central Asia: Development Dilemmas and Governance Challenges [J]. International Politics Quarterly, 2018(3).

Wu Miao, Qiao Jianfang, Zhang Yuanming, et al. Ecological Governance of the Aral Sea: A Key Pathway for Deepening Scientific and Technological Cooperation with Central Asia [J]. Bulletin of Chinese Academy of Sciences, 2023(9).

Yang Shu, Sun Lingxiao, He Jing, et al. Changes in the Aral Sea: Crisis and Current Status [J]. Arid Land Geography, 2024,47(2).

Fang Kai, Xu Anqi, He Jianjian, et al. Comprehensive Assessment and Zonal Management of Sustainable Development in Countries Along the "Belt and Road" [J]. Chinese Science Bulletin, 2021(19).

MARKAZIY OSIYODA SUV TANQISLIGI MUAMMOLARI VA YASHIL IQTISODIY O'SISH ASOSLARI

Kasimov Maxamatjon Sulaymanovich
i.f.n., "Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash" kafedrasi professori,

Markaziy Osiyoda suv muammosi - mamlakatlarning kelajagi, hayot-mamot masalasi va mustaqqil davlatchilik muammosidir. Iqtisodiy rivojlanishning xozirgi shiddatli bosqichida Markaziy Osiyo mamlakatlarining har birida milliy manfatlar birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun har bir mamlakat manfatlarini umumiy mintaqaviy manfatlar bilan o'zaro xizmatlar va kompensasiyalar taqdim etish yo'li bilan samarali muvofiqlashtirish va boshqarish zarur, chunki suv resurslarini boshqarish yaxlit suv xavzasini boshqarish hamdir.




1-rasm. Markaziy Osiyo suv xavzasi[233]

Markaziy Osiyoda cheklangan suv resurlaridan samarali foydalanish uchun - hudud uning suv xavzasi va har bir mamlakatni xalqaro qonunlar, institutlar va suvga

[233] https://www.worldometers.info/water/

investitsiyalar kiritish masalalarini samarali tashkil etilishi va o’zaro muvofiqlashtirishi lozim (1-rasm). Ma’lumki suvdan samarali foydalanish va boshqaruvga ko’p xalqaro va mamlakatlarning investitsiyalari kiritilgan, kelgusida yana ham ko’proq investitsiyalar kiritsh zarur bo’ladi. Jaxon Bankining mutahassislari va Qirg’izston, O’zbekiston va Qozog’iston mamlakatlarning suv va energetika bo’yicha yetakchilarining 2026 yilda birgalikda qabul qilgan qarorlari suv diplomatsiyasining ijobiy natijalaridan bo’lib xisoblanadi.

Hudud mamlakatlarining transchegaraviy suvlarini yillar va oylar kesimida olishlari kelishilmoqda va Qambarota-1gidroelektr stantsiyasini birgalikda qurish va boshqarish va xujjatlashtirilmoqda. Xalqaro suv tashkilotlari va ularning loyihalarini amalga oshirish va muvofiqlashtirish samarali yo’lga qo’yila boshlandi (1-jadval). Shuningdek, xukumatlar formatida, samarali kommunikatsiyalar olib borilmoqda va barqaror iqtisodiy o’sishga qulay muhit yaratilmoqda. Buni ayniqsa Amudayo xavzasi misolida ham yaqqol ko’rish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Amudaryo o’zanidan jami suv olish miqdori (2025 yil, mln. M^3)[234]

Markaziy Osiyo mamlakatlari keyingi yillarda suvdan samarali foydalanish muammosini institutsional asoslarini takomillashtirib, suv resurslarini boshqarishni raqamlashtirish borasida ham muayan siljishlarga erishmoqda.

Global hududning suv va ekologiya muammolari global iqtisodiyot olimlarining ham doimo diqqat markazida turibdi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoning suvdan samarasiz foydalanayotgan xudud ekanligi ham global iqtisodiyot olimlari va mutaxassislariga ma'lum. Misol uchun, bir birlik mahsulot yetishtirish uchun suv sarfi ilg‘or mamlakatlarga nisbatan 2-3 marta ko‘p. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari qiymatida suvning qiymat ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham shunday farqlar mavjud. Mamlakatlar miqyosida suvdan samarali foydalanish darajasini jon boshiga suv sarfi ko’rsatkichi misolida ham ko’rish mumkin.

Jon boshiga suv sarfi Turkmanistonda 15 445 litr, O’zbekistonda 4 778 litrni tashkil etsa, (2 jadval) bu ko’rsatkich Daniyada 319 litr, Lyuksemburgda esa 207 litrni tashkil etgan. Jahonda suv sarfining 70 % qishloq xo’jaligiga to’gri keladi. Sanoatda 20% va maishiy extiyojlar uchun 10% suv sarflanmoqda.[235] O’zbekistonda esa umumiy suvning 88-89% qishloq xo’jaligida ishlatilmoqda. Suv tanqisligi

[234]https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/4d3c423f-975e-4e83-95f3-a9b3c26a3c82/content asosida muallif tomonidan xisoblangan

[235] www/World Water Statistics

muammosi esa yildan yilga oshib bormoqda. Bu esa o’z navbatida barqaror rivojlanish uchun suvni boshqarishga yanada ko’proq investitsiya kiritishni taqazo etadi. Shu bilan birga kam suv sarflaydigan sanoat tarmoqlarini rivojlantirish zarur bo’lmoqda.

1-Jadval

Amudaryo o’zanidan jami suv olish miqdori (2025 yil)[236]

Mamlakatlar	Oylar											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Tojikiston (%)	10	10	9	16	20	17	16	18	17	26	32	29
Turkma- niston (%)	36	50	52	47	42	42	40	43	44	47	41	39
O’zbe- kiston (%)	54	40	39	37	38	41	44	39	39	27	27	32
Jami (mlrd m^3)	2,5	2,3	3,5	4,1	5,1	6,0	7,2	6,1	5,0	2,6	1,7	1,5

“Masalan, Belgiya sanoat uchun mavjud bo'lgan suvning 80 foizidan foydalanadi. So'nggi 50 yil ichida chuchuk suv olish uch baravar oshdi. Chuchuk suvga bo'lgan talab yiliga 64 milliard kub metrga oshib bormoqda (1 kub metr = 1000 litr)”[237].

Markaziy Osiyoning suv tanqis xududlarida migrasiya jarayonlari kuzatilmoqda. Buni Quyi Amudaryo hududida ko‘rish mumkin. Suv tanqisligining ortishi bilan kelgusida Markaziy Osiyo hududida migrasiya jarayonlarining ko‘payishi mumkin.

2-Jadval

Mamlakatlarda jon boshiga suv sarfi (2015 yil)[238]

Mamlakatlar	Yillik suv sarfi (mln. m3)	Jon boshiga kunlik suv sarfi
Afg’oniston	2 028, 0	2760
Qozoqiston	22 770, 0	3397
Qirg’izston	8 007	453
Tojikiston	11 490	4460
Turkmaniston	**27 950**	**15445**
O’zbekiston	**54 560**	**4778**
Buyuk Britaniya	8 420	350
Lyuksemburg	**0.44**	**207**
Irlandiya	0.757	457
Daniya	**0.652**	**319**

Jaxon Banki o‘zining maxsus xisobotida Evropa ittifoqi mamlakatlarini Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan samarali migrasiya siyosati olib borishlarini tavsiya etmoqda. 2050 yilga borib, Markaziy Osiyoda suv tanqisligi natijasida aholining migrasiyasi kuchayishi prognoz qilingan. Ekspertlarning ta'kidlashicha 2050 yilga borib, Evropa ittifoqida mehnatga yaroqli aholi 14% ga kamayishi kutilmoqda. Markaziy O‘siyoda esa aholining yosh va faol qatlami ko‘payib, ularning migrasiyasi oshadi. Markaziy Osiyoda suv tanqisligi migrasiya jarayonlarini tezlashtiradi[239].

Global hududda suvga bo‘lgan talab barqaror o‘sib boraveradi. Tyanshan va Pomir tog’laridagi abadiy muzliklar va qorning yog’ishi global isish tufayli kamayib

[236] www/World Water Statistics asosida muallif tomonidan xisoblangan
[237] www/World Water Statistics asosida muallif tomonidan xisoblangan
[238] www/World Water Statistics asosida muallif tomonidan xisoblangan
[239] Global Hududda O’zbekistonning suv muammolari. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2026 yil.

boradi. Faqat mavjud suv resurslaridan tizimli va samarali foydalanish asosida, Markaziy Osiyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ekologik barqaror rivojlanishlari mumkin.

Bunday trendda iqtisodiyot tarmoqlarning strukturaviy siljislarni amalga oshirish kerak bo'ladi, shuningdek kam suv sarflaydigan tarmoqlarni (informatsion texnologiyalar, logistika, xalqaro moliya va investitsiyalr xizmatlari kabi sektorlarni) rivojlantirish zarur. Bu soha va tarmoqlarni ustivor rivojlantirish kelgusi taraqqiyot strategiyalarida nazarda tutilishi lozim.

Bunda suv tanqisligi omili va ekologiya alohida ustivorlikka ega bo'lishi kerak. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, bir birlik yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni kamroq suv sarflagan holda, barqaror rivojlanish shartlari asosida ko'paytirish lozim bo'ladi. Suvdan samarali foydalanish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarida ilm-fan va innovasiyalarga investisiya kiritishni ko'paytirishi, suv tejamkor texnologiyalarni joriy qilish, qishloq xo'jaligida suv tanqisligiga chidamli ekin maydonini kengaytirish – iqtisodiyotni diversifikasiya qilish, suvni boshqaruv tizimini shaffof qilish, barcha suv resurslarini kadastrlash, qishloq xo'jaligini intensiv rivojlantirish lozim. Suvdan samarali foydalanish muammosi fanlararo tadqiqod predmetidir. Uning global iqtisodiy asoslarini o'rganish asosida hukumatlarning investitsiya qarorlari, iqtisodiy va siyosiy barqarorlik qarorlari qabul qilinadi.

TURIZM VA XIZMATLAR SOHASINI BARQARORLASHTIRISHDA YASHIL TADBIRKORLIK VA INNOVATSION YECHIMLARNING O'RNI

Majidova Mahliyo Shomilovna
Qarshi Davlat Universiteti
Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada turizm va xizmatlar sohasini barqarorlashtirishda yashil tadbirkorlik hamda innovatsion yechimlarning ahamiyati tahlil qilingan. Sohaning ekologik va iqtisodiy muammolari aniqlanib, resurs tejamkorligi, raqamli texnologiyalar va "yashil" sertifikatlash yo'nalishlari asoslab berilgan. Natijada soha korxonalari uchun yashil tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *turizm, xizmatlar sohasi, barqaror rivojlanish, yashil tadbirkorlik, innovatsiya, ekoturizm, raqamlashtirish.*

Hozirda turizm va xizmatlar sohasiga talab kuchayib, bu soha yildan-yilga rivojlanib, jahon iqtisodiyotida eng serdaromat sohaga aylanib ulgurdi. Bu soha ortidan jahonda valyuta tushumlari ortib, aholi bandligi ta'minlanib, boshqa sohalarning ham rivojlanishi yaxshilandi. Ammo shu bilan birgalikda, soha atrof-muhitga sezilarli bosim o'tkazdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, global turizm jahondagi issiqxona gazlari emissiyasining taxminan 8 foizini tashkil etishi haqida malumot bor.[2]. Ushbu holat sohani ekologik va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqdi.

O'zbekistonda turizm strategik tarmoq sifatida e'tirof etilgan, 2018-yildagi PF-5326-son Farmon va 2019-yilda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonun

sohaning huquqiy asoslarini yaratdi. Natijada turizmga investitsiyalar kiritish, xorijiy turistlarni ko‘proq jalb qilish hamda turizmni xususiy sektor va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalish sifatida rivojlantirish kabi masalalar yanada qo‘llab-quvvatlandi. [6, 7]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi ushbu iqtisodiyot tarmog‘ini ekologik jihatdan barqaror rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi. Ushbu strategik hujjatlar turizm sohasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqaror turizm tamoyillarini keng joriy etish uchun muhim asos yaratmoqda.

Tadqiqotning maqsadi – turizm va xizmatlar sohasini barqarorlashtirishda yashil tadbirkorlik hamda innovatsion yechimlarning imkoniyatlarini aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Barqaror rivojlanish g‘oyasi J. Elkington ilgari surgan tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyilga ko‘ra barqarorlikka “uch tomonlama natija” orqali, ya’ni - iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yondashuvlar orqali erishiladi [1]. R. Butler esa barqaror turizmni mahalliy resurslrga zarar yetkamasdan, kelajak avlodlar ehtiyojini xavf ostiga qo‘ymagan holda rivojlantirish sifatida izohlagan. Resurslardan oqillik bilan foydalanish nafaqat kelgusi avlodlar uchun foyda, bundan tashqari atrof-muhitni asrashga ham katta yordam hisoblanadi [5]. UNEP va UNWTO tomonidan tayyorlangan qo‘llanmada esa turizmni barqarorlashtirish uchun davlat siyosati va tadbirkorlik tashabbuslarini uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlangan. Bu ikki qatlam o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik kelgusida sohani iqtisodiy foydaning chuqqisiga olib chiqishi mumkin [3]. Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi roli J. Shumpeter nazariyasida asoslab berilgan. Uning fikriga ko‘ra Iqtisodiy rivojlanishni asosiy asosiy harakatlantiruvchi kuch bu – innovatsiya hamda tadbirkorlikdir.[8], zamonaviy tadqiqotlar esa turizm va barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur o‘rganadi [4].

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va kontent-tahlil, guruhlash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ma’lumot manbalari sifatida me’yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy nashrlar xizmat qildi.

Turizm sohasida barqarorlikka to‘siq bo‘lgan 4 omil bor. Bular : mavsumiylik sabab daromadning notekis aylanishi; mehmonxona, restoran va transport kabi xizmatlarida energiya va suv sarfining yuqoriligi; chiqindilar, ayniqsa plastik hamda oziq-ovqat chiqindilarining ko‘payishi; kelayotgan foydaning mahalliy hamjamiyatga yetarli darajada yetib bormasligi. Manashu kabi muammolar turizmni jahon bozorida raqobatbardoshligiga tahdid soladi.

Yashil tadbirkorlik – bu resurslarni asragan holda, atrofga bo‘layotgan zararni pasaytirish hamda ekologik jihatdan xavfsiz mahsulotlar va xizmatlar yaratishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Bizning sohamizda bular ekomehmonxonalar tashkil etish, ekologik transport tizimini joriy etish, mahalliy va madaniy mahsulotlarga asoslangan ovqatlanishni taqdim qilish, shuningdek, chiqindisiz xizmat modellarida namoyon bo‘ladi. Bu kabi yondashuvlar ham ekologik ham iqtisodiy foydani oshiradi, resurslar sarfining kamayishi ko‘pgina xarajatlarni pasaytiradi, “yashil” brend esa xalqaro bozorda mijozlar ishonchini oshiradi.

Yashil tadbirkorlikni sohaga joriy qilishda innovatsion yechimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sohadagi asosiy yo‘nalishlar va ularning kutilayotgan samarasi ko‘rib turganinggiz 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, bunday innovatsion yechimlar sohaning har bir yo‘nalishini rivojlantiradi. Xususan, raqamli platformalar sayyohlar oqimini tartibga solish va mavsumiylikni kamaytirishga, qayta tiklanuvchi energiya manbalari esa operatsion xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi.

Jadval 1

Turizm va xizmatlar sohasida yashil tadbirkorlik yo‘nalishlari va innovatsion yechimlar

Yo‘nalish	**Innovatsion yechim**	**Kutilayotgan samara**
Energiya samaradorligi	Quyosh panellari, LED yoritish, “aqlli” iqlim boshqaruvi tizimlari	Energiya xarajatlari va uglerod gazining kamayishi
Suv va chiqindilar	Suvni qayta ishlatish, kompostlash, bir martalik plastikdan voz kechish	Resurs tejamkorligi, tozalash xarajatlarining pasayishi
Raqamli texnologiyalar	Onlayn bron platformalari, mobil gidlar, sun’iy intellekt asosidagi talabni prognozlash	Mavsumiylikni yumshatish, xizmat sifatining oshishi
Ekotransport	Elektrmobil va velosiped ijarasi, elektr transport marshrutlari	Emissiyaning kamayishi, yangi xizmat turlari
Hamjamiyat turizmi	Uy mehmonxonalari, hunarmandchilik, agroturizm	Qishloq aholisi bandligi va daromadining oshishi
Sertifikatlash	Sohaga yashil sertifikatlashtirishni joriy etish	Ishonch va raqobatbardoshlikning ortishi

Tahlil natijalariga ko‘ra, yurtimizda turizm va xizmatlar sohasini barqarorlashtirish uchun quyida keltirilgan chora-tadbirlar maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bular yashil investitsiya loyihalari uchun imtiyozli kreditlar va soliq rag‘batlarini ko‘paytirish, mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarida energiya va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni subsidiyalash, milliy “yashil” sertifikatlash tizimini xalqaro mezonlar bilan uyg‘unlashtirish; kichik biznes va oilaviy mehmon uylari uchun raqamli va ekologik savodxonlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish; hamda ekoturizm va agroturizm mahsulotlarini hududlar kesimida rivojlantirish.

Yashil tadbirkorlik joriy etilishida asosiy to‘siqlar boshlang‘ich sarmoyaning yuqoriligi, korxonalarda buy o‘nalishdagi malakali kadrlar yetishmasligi va sertifikatlashtirish bo‘yicha xabardorlikning pastligi bilan bog‘liq. Shu sababli ham davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi hamkorliklar, alohida ahamiyatni kasb etadi[3, 4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, yashil tadbirkorlik va innovatsion yechimlar yurtimiz hududida sohani yanada rivojlantiradi. Ular resurslardan kam foydalanish, ekologik yuklamani kamaytirish, aholi bandligini oshirish va sohaning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston turizmining uzoq muddatli va barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. – Oxford: Capstone, 1997.
2. Lenzen M., Sun Y.-Y., Faturay F., Ting Y.-P., Geschke A., Malik A. The carbon footprint of global tourism // Nature Climate Change. – 2018. – Vol. 8. – P. 522–528.
3. UNEP, UNWTO. Making Tourism More Sustainable: A Guide for Policy Makers. – Paris/Madrid, 2005.
4. Hall C.M., Go‘ssling S., Scott D. (eds.). The Routledge Handbook of Tourism and Sustainability. – London: Routledge, 2015.
5. Butler R.W. Sustainable tourism: A state-of-the-art review // Tourism Geographies. – 1999. – Vol. 1(1). – P. 7–25.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-fevraldagi PF-5326-son Farmoni “Turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
9. Global Sustainable Tourism Council. GSTC Criteria. – URL: https://www.gstcouncil.org
10. United Nations. Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development. A/RES/70/1. – New York, 2015.

SANOAT KORXONALARIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYADAN FOYDALANISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI

Mamarasulova Iroda Zafarjon qizi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
Tayanch doktorant

Annotatsiya. Maqolada sanoat korxonalarida quyosh, shamol, biogaz va geotermal energiyadan foydalanish yo‘nalishlari hamda ularning iqtisodiy to‘siqlari tahlil qilingan. Tarif oshishi quyosh qurilmalarining qoplanish muddatini 15 yildan taxminan 6 yilgacha qisqartirgani, biroq ko‘lam, tungi yuklama, ortiqcha energiya narxi va tarmoq cheklovlari qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni cheklashi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: qayta tiklanuvchi energiya, sanoat korxonalari, elektr tarifi, qoplanish muddati, iqtisodiy tahlil.

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari va sanoatning eskirgan infratuzilmasini yangilash, energiya resurslariga o‘sib borayotgan talabni qondirish maqsadida energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya (QTE) sohasida tizimli islohotlar olib borilmoqda. Prezidentning 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son qaroriga muvofiq 2030-yilgacha QTE ulushini elektr ishlab chiqarishning 25 foizidan ko‘prog‘iga yetkazish belgilangan [1]; 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorda esa sanoatda energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish vazifasi

qo‘yilgan [2]. 2020-yilda QTE ulushi taxminan 10 foizni tashkil etgan [3]. Bu maqsadlarga erishish uchun eng yirik iste’molchi — sanoat — o‘z energiya ta’minotini o‘zgartirishi kerak, shuning uchun uning iqtisodiy to‘siqlarini aniqlash dolzarbdir.

Sanoatda energiya tejash va samaradorlik bo‘yicha tadqiqotlar ko‘p, chunki energiya xarajati korxona raqobatbardoshligiga bevosita ta’sir qiladi. R.A. Burganov va hammualliflar korxonada energiyaning barcha turlarini hisobga oladigan samaradorlik ko‘rsatkichlari metodologiyasini taklif qilgan [4]. N.R. Kelchevskaya va boshqalar energiya samaradorligi chora-tadbirlarining muvaffaqiyatini belgilovchi boshqaruv omillarini aniqlagan [5]. M. Abdullayeva va S. Shodmonov mahsulot tannarxini energiya sarfini kamaytirish orqali pasaytirish masalasini o‘rgangan [6]. B.T. Qodirov O‘zbekistonda QTE manbalari istiqbollarini tahlil qilgan [7]. Biroq bu ishlarda asosiy e’tibor energiya tejashga qaratilgan; QTE ga o‘tishning sanoat korxonasi uchun iqtisodiy shartlari (tarif, qoplanish, tarmoq) kam yoritilgan.

Tadqiqotda rasmiy hujjatlar, vazirliklar va OAV ma’lumotlari qiyosiy va tarkibiy tahlil qilindi. Quyosh qurilmasining qoplanish muddati $T = K_0/(E \cdot t)$ (K_0 — kapital xarajat, E — yillik ishlab chiqarish, t — tarif) bo‘lgani uchun K_0 va E o‘zgarmasa T tarifga teskari proporsional: $T_2 = T_1 \cdot t_1/t_2$. Model ekspluatatsiya xarajati va eskirishni hisobga olmaydi, shuning uchun natijalar taxminiy (optimistik) hisoblanadi.

Sanoat korxonalari uchun QTE ning to‘rt asosiy turi mavjud. Quyosh energiyasi eng keng tarqalgan: 2026-yil aprelida kichik quvvatli qurilmalar 145 738 obyektda 2 114 MVtga yetgan, shundan 54,6 foizi tadbirkorlik sub’ektlariga tegishli [8]. Bu, ehtimol, yuridik shaxslar tarifi yuqori bo‘lgani uchun o‘z ishlab chiqarishi tejam berishi bilan izohlanadi (muallif talqini). Shamol energiyasi katta ochiq hudud va tarmoqqa ulanishni talab qiladi, shuning uchun yirik loyihalarga mos. Biogaz oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi chiqindilari bor korxonalarda issiqlik va elektr beradi hamda chiqindini utilizatsiya qiladi. Geotermal energiya asosan issiqlik ta’minotida samarali.

Quyosh energiyasining iqtisodiy jozibadorligi tarifga bog‘liq. Tarif 450 so‘m/kVt·soat bo‘lganda qoplanish 15 yil edi [9]; 2026-yil 1-iyundan yuridik shaxslar uchun tarif 1 100 so‘mga yetdi [10], shunda $T = 15 \cdot 450/1\,100 \approx 6{,}1$ yil (muallif hisobi). Demak, tarif 2,4 baravar oshgani qoplanishni qariyb 2,5 baravar qisqartirdi va qurilma iqtisodiy qarorga aylandi. Biroq bunday qisqarishning katta qismi 2023-yilda (tarif 1 000 so‘mga ko‘tarilganda, $T \approx 6{,}8$) sodir bo‘lgan; 2026-yilgi oshish qoplanishni atigi 9 foizga qisqartirdi, ya’ni tarif o‘sishining samarasi kamaymoqda.

Iqtisodiy to‘siqlar quyidagilar. Birinchidan, ko‘lam: tadbirkorlik obyektining o‘rtacha quvvati 34,8 kVt (1 155 MVt / 33 208 obyekt), Buxoro neftni qayta ishlash zavodidagi 3,5 MVt stansiya esa kunlik iste’molning atigi 20 foizini qoplaydi [11]. Ikkinchidan, uzluksiz ishlaydigan korxona uchun quyosh faqat kunduzi ishlaydi, shuning uchun energiya saqlash tizimisiz energiyaning kichik qismi qoplanadi. Uchinchidan, ortiqcha energiya II guruh tarifining 80 foizidan sotiladi, loyihada shamol va quyosh uchun 70 foizgacha pasaytirish ko‘zda tutilgan [12]; bu 880 va

770 so‘mga teng, shuning uchun ortiqcha qismning qoplanishi 7,7–8,8 yilgacha uzayadi — qurilmani o‘z yuklamasidan katta qurish ma’qul emas. To‘rtinchidan, 2027-yildan EI CBAM po‘lat, alyuminiy, o‘g‘it, sement va elektr energiyasiga qo‘llanadi [13]; eksportchi korxona uchun QTE emissiya xarajatini kamaytirishning vositasi bo‘lishi mumkin, ammo hisob qoidalari mahsulotga qarab farqlanadi.

Tadqiqot natijalari qayta tiklanuvchi energiyaning sanoatda kengayishiga to‘siq bo‘layotgan omillar o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli takliflar alohida chora sifatida emas, ketma-ket amalga oshiriladigan yagona yo‘nalish sifatida ilgari suriladi. Sanoat kesimida qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari va ishlab chiqarilishi bo‘yicha alohida statistika yuritilishi lozim. Hozir bunday ma’lumot yo‘qligi sababli tadqiqotda “tadbirkorlik sub’ektlari” proksi sifatida olindi. Bu esa sanoat ulushini aniq baholashga to‘sqinlik qiladi. Ishonchli baza keyingi barcha qarorlarning asosi bo‘ladi. Statistika ortiqcha energiya miqdorini va qurilmalarning haqiqiy foydasini ko‘rsatgach, yashil tarif hamda ortiqcha energiya sotib olish narxi qoidalarini kamida 10 yilga belgilash kerak. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu narx 80 foizdan 70 foizgacha pasaysa, ortiqcha qismning qoplanishi 7,7 yildan 8,8 yilgacha uzayadi. Qoidalar barqaror bo‘lsa, korxona daromadini oldindan baholay oladi va qaror qabul qilish xavfi kamayadi. Tarif barqaror bo‘lgach, loyihalar kengayadi; saqlash tizimi tungi yuklamani, tarmoq rejasi esa ulanish cheklovini hal qiladi. Loyihalar kengaygach, eksportchilar QTE afzalligini xalqaro bozorda tasdiqlashi kerak bo‘ladi. Qayta tiklanuvchi energiyaning sanoatda kengayishini to‘rt omil cheklaydi: qurilmalarning kichik ko‘lami, tungi yuklama, ortiqcha energiyaning past narxi (bu qoplanishni 7,7–8,8 yilgacha uzaytiradi) va tarmoq imkoniyatlari. Tadqiqot sanoat statistikasi yo‘qligi sababli proksi ko‘rsatkichga va soddalashtirilgan modelga tayanganligi bilan cheklangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi PQ-4422-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-4486125

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. – URL: https://lex.uz/docs/-6303230

3. On the role of RES in the further development of the country’s energy sector // Invest.gov.uz. – URL: https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/on-the-role-of-res-in-the-further-development-of-the-country-s-energy-sector/

4. Burganov R.A. et al. On the need to improve the methodology for calculating energy saving and energy efficiency of enterprises // IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering. – 2020. – Vol. 791. – No. 1. – 012040.

5. Kelchevskaya N.R., Shirinkina E.V., Atlasov I.V. Assessing energy efficiency factors in industrial companies // IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering. – 2020. – Vol. 862. – No. 4. – 042001.

6. Abdullayeva M., Shodmonov S. Sanoat korxonalarida energiya sarfini kamaytirishning asosiy jihatlari // Arxiv nauchnykh issledovaniy. – 2019. – Vol. 1, No. 1. – URL: https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/587

7. Qodirov B.T. O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalari istiqbollari // Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. – 2024. – Vol. 4,

No. 3. – B. 13–22. – URL: https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/download/128/135/262

8. Juraqulov S. O‘zbekistonda 145 mingdan ortiq obyektga quyosh panellari o‘rnatildi // Kursiv Uzbekistan. – 22.04.2026. – URL: https://uz.kursiv.media/uz/2026-04-22/ozbekistonda-145-mingdan-ortiq-obyektga-quyosh-panellari-ornatildi/

9. Ochilova M. Narxlar erkinlashtirilishi quyosh panellarining o‘zini oqlashi muddatini 2 barobarga qisqartiradi // Kun.uz. – 20.09.2023. – URL: https://kun.uz/news/2023/09/19/narxlar-erkinlashtirilishi-quyosh-panellarining-ozini-oqlashi-muddatini-2-barobarga-qisqartiradi-abdulla-otajonov

10. O‘zbekistonda 1-iyundan elektr va gaz tariflari o‘zgaradi // Gazeta.uz. – 15.05.2026. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2026/05/15/tariffs-uzb/

11. Buxorodagi zavodda quyosh stansiyasi ishga tushirildi // Kursiv Uzbekistan. – 25.03.2024. – URL: https://uz.kursiv.media/uz/2024-03-25/buxorodagi-zavodda-quyosh-stansiyasi-ishga-tushirildi/amp/

13. Important for Uzbek exporters to the EU // O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. – 11.01.2026. – URL: https://gov.uz/en/miit/news/view/118666

HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA “YASHIL IQTISODIYOT” TAMOYILLARINI JORIY ETISH

Mansurov Sanjar Magrufovich
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
“Aniq va gumanitar fanlar” kafedrasi
dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi
Yakubov Javlon Nigmatovich
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
“Aniq va gumanitar fanlar” kafedrasi
dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda tabiat resurslarini ekstensiv (miqdor jihatdan) foydalanishga asoslangan ananaviy iqtisodiy modelidan “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishga o‘tish, rivojlanishning intinsiv modeli bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni ekologik zarardan ajratishni maqsad qilib qo‘yadi.

““Yashil” iqtisodiyotga o‘tishning maqsadi – tabiiy resurslarni asrash, zaharlovchi moddalar emissiyasiyalarini kamaytirish va kelgusi avlodning hayotini ta’minlashga yordam beradigan barqaror va ekologik to‘g‘ri rivojlanish modelini yaratishda”.[240]

Respublika hududlarning mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida “yashil” iqtisodiy yondashuvlar va ekologik samaradorlik hozirgi kunda barqaror taraqqiyotni ta’minlashning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

[240] Xoshimova S.N. Yashil iqtisodiyot Darslik. – T: “Ma’rifat, 2024. 224 bet.

BMT Atrof-muhit dasturi ma’lumotlariga ko‘ra, inson faoliyati Er kurrasi quruqlik qismining to‘rtdan uch qismi, suv xavzalarining uchdan ikki qismidagi ekologik muhitni sezilarli darajada o‘zgartirgan.[241]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev tashabbusi bilan o‘tgan 2025 yilni mamlakatimizda “Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili” deb nomlanishi, O‘zbekiston uchun nafaqat ekologik mas’uliyat, balki barqaror rivojlanishning yangi modeliga, ya’ni yashil iqtisodiyotga o‘tish naqadar dolzarb ekanligini, hududlardagi mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan ilmiy echimlar ishlab chiqish hayotiy zaruriyat ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa Orolbo‘yi mintaqasining ekologik inqirozi, suv resurslarining tanqisligi va energetika tizimidagi yuklamalar fonida ushbu muammolarni bosqichma-boqich hal qilish o‘ta muhim strategik ahamiyatga ega. Davlat tomonidan qabul qilingan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” aynan sanoatda energiya sarfini kamaytirish, qayta tiklanadigan energiyani ulushini oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasi orqali hududlarning ekologik landshaftini yaxshilashni ko‘zda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida “Chang-to‘zonlarning oldini olish uchun Surxondaryoda 10 ming gektarda “yashil makon” va Sirdaryoda 84 kilometrli “yashil devor” barpo etiladi. Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Buxoro va Navoiyda jami 250 ming gektar, jumladan, Orolning qurigan tubida 115 ming gektar erda daraxt va butalar ekiladi.

Hududlarni rivojlantirishda “yashil” tamoyillarni joriy etish quyidagi energiya manbalari tarmoqlar, tizim va texnologiyalarni qamrab oladi:

- Qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM): Quyosh, shamol va biomassa energiyasidan foydalanish orqali hududlarning energetik mustaqilligini oshirish va uglerod izini kamaytirish.

“So‘nggi besh yilda 6 ming megavattli quyosh, shamol va gidro elektr stansiyalari ishga tushirildi, umumiy generatsiyada “yashil” energiyaning ulushi 30 foizga etdi. Yaqinda hamkorlarimiz bilan jami 3,5 ming megavattli 4 milliard 200 million dollarlik yangi “yashil” quvvatlar qurilishiga start berdik. Bu ishlarimiz orqali 2026-yilning o‘zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi va havoga 11 million tonna zararli moddalar chiqishining oldi olinadi.

- Ekologik qishloq xo‘jaligi: Kimyoviy o‘g‘itlar va pestitsidlar samaradorligini optimallashtirish, organik dehqonchilikni rivojlantirish va erlarning degradatsiyaga uchrashining oldini olishdan iborat. Qishloq xo‘jaligida – unumdorlikni oshirish uchun bioinjeneriyadan keng foydalanish, ilg‘or agrotexnika va suv tejaydigan usullarni faol qo‘llash keng ommalashmoqda.

- Aylanma iqtisodiyot: Chiqindilarni qayta ishlash, ishlab chiqarish qoldiqlaridan ikkilamchi xomashyo sifatida qayta foydalanish (“chiqindisiz texnologiyalar”) ko‘zda tutilgan. Iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun “yashil” energetika, chiqindisiz ishlab chiqarishga

[241] Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Toshkent “O’zbekiston” nashryoti 2021. 388-bet.

o‘tish kelgusi besh yilda iqtisodiyotimiz oldida turgan asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

- Resurslarni tejovchi va energiya samarador texnologiyalar: Sanoat va uy-joy kommunal xo‘jaligida energiya yo‘qotishlarini kamaytirish, suvni tejaydigan (tomchilatib, yomg‘irlatib) sug‘orish tizimlarini joriy etish.

Dunyoda suv tanqisligi muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois islohotlarimizning ilk kunlaridanoq suvdan oqilona foydalanishni davlat siyosati darajasiga olib chiqilgan bo‘lib, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llash, suv inshootlarini modernizatsiya qilish, sug‘orish tadbirlari bo‘yicha kelgusi uch yil uchun qiymati 5,5 milliard dollarlik katta dastur qabul qilgan.

“Dastur doirasida suvni tejaydigan texnologiyalar qamrovi 61 foizga yoki 2,6 million gektarga etkaziladi. Natijada yiliga 2,5 milliard kub metr suv tejaladi, 200 ming tonna bug‘ gazi kamaytiriladi..[242].

Hududlarning iqtisodiy rivojlantirishda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yuzasidan quyidagi xulosa va takliflarni tavsiya etamiz:

- hududlar aholisining doimiy o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo‘ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda yondashish zarur;

- har bir hududda atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni etishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish.

- hududlar iqtisodiyoti va ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo‘ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko‘paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo‘nalishlarda ishlarni olib borish.

- hududlarning iqtisodiy rivojlantirishda bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta’minlash maqsadida ne’matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ko‘rish.

- hududlarning joylashgan o‘rni, ishlab chiqarish va iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne’matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar etkazmasdan ko‘paytirib borish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi Toshkent “O’zbekiston” nashryoti 2021. 464 bet.

[242] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi. Toshkent sh., 2025 yil 26 dekabr

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2025-yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi. Toshkent sh., 2025-yil 26-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-21-son Farmoni.
4. Xoshimova S.N. Yashil iqtisodiyot Darslik. – T: “Ma’rifat, 2024. 224 bet.

QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIKNI INTENSIV RIVOJLANTIRISH – YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MUHIM YO’NALISHI

Murodov Sardor Nurali o‘g‘li
University of Business and Sciense
Yuldashev Murodjon G‘ulom o‘g‘li
University of Business and Sciense

Chorvachilik oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq aholisi daromadlarini oshirishda muhim o‘rin tutadi, biroq u tabiiy resurslarga eng katta bosim o‘tkazuvchi tarmoqlardan biri hamdir. FAO hisob-kitoblariga ko‘ra, chorvachilik inson faoliyati natijasida chiqariladigan issiqxona gazlarining 14,5 foizini beradi, mahsuldorligi past xo‘jaliklarda esa mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan chiqindilar bir necha barobar yuqori bo‘ladi[243]. Shu sababli chorva sonini ko‘paytirishga asoslangan ekstensiv yo‘ldan har bir bosh mahsuldorligini oshirishga asoslangan intensiv yo‘lga o‘tish yashil iqtisodiyotning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda bu vazifa «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasida[244] hamda «O‘zbekiston – 2030» strategiyasida[245] resurslardan oqilona foydalanish va qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish yo‘nalishlari doirasida belgilangan. Ushbu vazifalarni hududlar kesimida amalga oshirish uchun har bir viloyatda chorvachilik o‘sishi qaysi manba hisobiga ta’minlanayotganini miqdoriy baholash zarur.

Qashqadaryo viloyati respublikaning yirik chorvachilik hududlaridan biri bo‘lib, uning tog‘, sug‘oriladigan tekislik va cho‘l yaylovlarida qoramolchilik bilan birga qo‘ychilik ham keng rivojlangan. Tadqiqotda viloyat statistika boshqarmasi va Statistika agentligining 2011–2024-yillar ma’lumotlari[246] asosida go‘sht ishlab chiqarish o‘sishi ikki manbaga ajratildi: chorva sonining ko‘payishi (ekstensiv omil) va bir boshga to‘g‘ri keladigan mahsuldorlikning oshishi (intensiv omil). Turli

[243]Gerber, P. J., Steinfeld, H., Henderson, B. et al. (2013). Tackling climate change through livestock: A global assessment of emissions and mitigation opportunities. Rome: FAO.
[244]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son «2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori. https://lex.uz
[245]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni. https://lex.uz
[246]Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi. Qishloq xo‘jaligi: rasmiy statistika. https://qashstat.uz; Statistika agentligi. SIAT. https://siat.stat.uz

chorva turlarini taqqoslash uchun ular shartli bosh soniga keltirildi (sigir – 1,0; boshqa qoramol – 0,6; qo‘y va echkilar – 0,1). Asosiy ko‘rsatkichlar jadvalda keltirilgan.

Jadval 1

Qashqadaryo viloyatida chorvachilikning asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2011	2017	2024	2024/2011, %
Go‘sht ishlab chiqarish (tirik vaznda), ming t	192,3	281,9	345,9	179,9
Shartli bosh soni (yil oxiriga), ming	1207,3	1578,1	1802,5	149,3
1 shartli boshga go‘sht, kg	159,2	178,6	191,9	120,5
Ekin maydonining 100 ga hisobiga shartli bosh	252,1	333,8	418,2	165,9

Manba: viloyat statistika boshqarmasi va SIAT ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2011–2024-yillarda viloyatda go‘sht ishlab chiqarish yiliga o‘rtacha 4,6 foizga o‘sib, 1,8 barobar ko‘paygan. Shu davrda shartli bosh soni yiliga 3,1 foizga, bir shartli boshga to‘g‘ri keladigan go‘sht esa yiliga 1,45 foizga oshgan. O‘sish sur’atlarini logarifmik dekompozitsiya qilish natijasida go‘sht ishlab chiqarish o‘sishining 68,2 foizi chorva sonining ko‘payishi, 31,8 foizi mahsuldorlikning oshishi hisobiga ta’minlangani aniqlandi. Demak, viloyat chorvachiligi hanuzgacha asosan ekstensiv yo‘l bilan rivojlanmoqda.

Ijobiy tendensiya ham kuzatiladi: mahsuldorlikning o‘sishdagi ulushi 2011–2017-yillardagi 30,0 foizdan 2017–2024-yillarda 35,0 foizga ko‘tarilgan. Biroq bu umumiy o‘sish sur’atining pasayishi fonida ro‘y bergan: ikkinchi davrda go‘sht ishlab chiqarish yiliga 6,6 foiz o‘rniga 3,0 foizga, chorva soni esa 4,6 foiz o‘rniga 1,9 foizga o‘sgan. Bu ekstensiv o‘sish salohiyati tugab borayotganidan dalolat beradi.

Buning asosiy sababi resurs cheklovlaridir. Viloyatda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari 2011-yildagi 479,0 ming gektardan 2024-yilda 431,0 ming gektarga qisqargan bir paytda, chorva soni ko‘paygan. Natijada ekin maydonining har 100 gektariga to‘g‘ri keladigan shartli bosh soni 252 tadan 418 taga, ya’ni 1,66 barobar oshgan. Bu yem-xashak bazasiga va tabiiy yaylovlarga bosimning keskin kuchayganini, demak yaylovlar degradatsiyasi va cho‘llanish xavfi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ikki rivojlanish yo‘lining ekologik oqibatlarini taqqoslash uchun quyidagi hisob-kitob bajarildi. Viloyatda 2027-yilda 368,4 ming tonna go‘sht ishlab chiqarish uchun, agar mahsuldorlik 2024-yil darajasida (191,9 kg) saqlansa, shartli bosh sonini 1919,6 mingga, ya’ni 6,5 foizga ko‘paytirish talab etiladi. Agar mahsuldorlik o‘tgan davrdagi sur’atda oshib, 200,4 kg ga yetsa, buning uchun 1838,7 ming shartli bosh, ya’ni atigi 2,0 foiz o‘sish yetarli bo‘ladi. Ikki yo‘l o‘rtasidagi farq 80,9 ming shartli boshni tashkil etadi. Bu esa intensiv yo‘l bir xil miqdordagi mahsulotni yaylovlar va yem-xashak resurslariga ancha kam bosim bilan ishlab chiqarish imkonini berishini anglatadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Viloyat chorvachiligini rivojlantirish dasturlarida asosiy maqsadli ko‘rsatkich sifatida chorva bosh sonini emas, bir boshga to‘g‘ri keladigan mahsulot miqdorini belgilash. Buning uchun naslchilik ishlarini kuchaytirish, go‘sht

yo‘nalishidagi yuqori mahsuldor zotlarni ko‘paytirish va sun’iy urug‘lantirish xizmatlarini kengaytirish lozim.

2. Chorvani oqilona oziqlantirish asosida bo‘rdoqiga boqish muddatlarini qisqartirish. Bu bir tomondan mahsuldorlikni oshirsa, ikkinchi tomondan yem sarfi va mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan chiqindilarni kamaytiradi.

3. Tog‘ va cho‘l yaylovlarida almashlab foydalanish (rotatsion o‘tlatish) tizimini joriy etish, yaylovlarning yuklanish me’yorlarini belgilash va degradatsiyaga uchragan maydonlarda fitomeliorativ tadbirlarni amalga oshirish.

4. Sug‘oriladigan yerlarda yem-xashak ekinlarining hosildorligini oshirish va takroriy ekinlar hisobiga yem bazasini kengaytirish, shuningdek, intensiv texnologiyalarni joriy etayotgan fermer xo‘jaliklari uchun subsidiyalarni mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga bog‘lash.

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo viloyatida chorvachilikning ekstensiv o‘sish salohiyati resurs cheklovlari sababli tugab bormoqda. Tarmoqni mahsuldorlikni oshirishga asoslangan intensiv yo‘lga o‘tkazish go‘sht ishlab chiqarishning barqaror o‘sishini ta’minlash bilan birga, tabiiy resurslarni saqlash va yashil iqtisodiyotga o‘tish vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

CHALLENGES IN ENSURING ENVIRONMENTAL SAFETY AND DEVELOPING THE "GREEN ECONOMY" IN UZBEKISTAN

Nazokat Davronbekovna Xojiyeva
PhD in Economics, Acting Associate Professor
Tashkent University of Information Technologies
Mamiyeva Dildora Murod qizi
Master’s student, 2nd year,
Tashkent University of Information Technologies

Climate change and resource constraints necessitate a fundamental reconsideration of the development model of the global economy. The concept of a green economy has gained increasing international importance over recent decades as an approach aimed at ensuring economic growth, social justice, and environmental sustainability in an integrated manner. Uzbekistan has also embraced this global trend and has been consistently implementing a strategy for transitioning towards a green economy since 2019.

The theoretical foundations of this process can be traced back to classical economic thought. In particular, Alfred Marshall, in his work *Principles of Economics*, addressed issues related to the rational use of resources and the balanced allocation of factors of production. Michael Porter, in *The Competitive Advantage of Nations*, demonstrated that stringent environmental requirements and effective regulation can contribute to increasing the innovation potential and international competitiveness of national economies. This idea, known as the “Porter Hypothesis,” is considered one of the theoretical foundations of modern green economy policies. On February 16, 2026, Presidential Decree No. PF-21 of the Republic of Uzbekistan updated the “Uzbekistan – 2030” Strategy, further strengthening green and sustainable development as one of the country's priority

areas. The purpose of this article is to analyze the strategic and legal foundations of Uzbekistan's transition towards a green economy, examine its practical outcomes in the energy sector and its relationship with macroeconomic indicators, and develop proposals for further development of the sector.

A green economy is an economic model aimed at improving human well-being and ensuring social justice while significantly reducing environmental risks and resource scarcity. The concept of sustainable development is broader and implies a long-term balance among the economic, social, and environmental dimensions of development. In neoclassical economic theory, the scarcity of resources and their efficient utilization occupy a central position. In modern institutional economic thought, increasing emphasis is placed on the regulatory role of the state, particularly on stimulating green innovations through environmental standards and incentive mechanisms. This approach is also reflected in Uzbekistan's green economy policy. Public-private partnerships, preferential tariffs, and tax incentives for attracting private investors to green energy projects have become key mechanisms of the national strategy. Uzbekistan's transition towards a green economy began with the adoption of the relevant strategy for 2019–2030. The strategy identifies four major priority areas: increasing energy efficiency; developing renewable energy sources; adapting to the consequences of climate change and ensuring the rational use of natural resources; and establishing financial and economic mechanisms for the development of a green economy.

In connection with the declaration of 2025 as the "Year of Environmental Protection and Green Economy," the state program established a number of targets, including increasing the share of renewable energy in electricity generation to 26% and its share in total generation capacity to 40%. The program also introduced the requirement to implement a "Green Building" certification system for newly constructed buildings and facilities. On February 16, 2026, Presidential Decree No. PF-21 updated the "Uzbekistan – 2030" Strategy, further consolidating green transformation as a long-term priority of state policy.

The quantitative targets established in the strategic documents include reducing the specific greenhouse gas emissions per unit of gross domestic product by 35% compared with the 2010 level, increasing renewable energy generation capacity to more than 15 gigawatts, and improving energy efficiency in the industrial sector by at least 20% In recent years, significant structural changes have been observed in Uzbekistan's energy sector. As of the end of 2025, the country had 148 operating power plants with a total installed capacity of 25,797 megawatts. Of this total, solar photovoltaic power plants accounted for 3,930 MW, wind power plants for 1,652 MW, and hydropower plants for 2,441 MW.

In 2025 alone, 42 new generation projects with a total capacity of 4,647 MW were commissioned, including five solar power plants with a combined capacity of 1,413 MW and four wind power plants with a combined capacity of 752 MW. As a result, of the 86.7 billion kWh of electricity generated in the country in 2025, 16.8 billion kWh came from renewable energy sources. Electricity generation from solar and wind power increased 2.1-fold compared with the previous year. This indicates

that renewable energy sources accounted for approximately 19% of total electricity generation.

The large-scale deployment of renewable energy sources resulted in savings of 3.2 billion cubic meters of natural gas in 2025 and prevented the release of 4.7 million tons of harmful gas emissions into the atmosphere. In December 2025, the country's leadership announced plans to commission more than 17,000 MW of additional renewable energy capacity by 2030, with the share of green energy expected to reach 54% of the total energy balance. By 2030, the country's total power generation capacity is planned to reach 29,200 MW, representing a substantial increase compared with the current level.

The green transformation is taking place in close connection with the overall sustainable growth of Uzbekistan's economy. Between 2023 and 2025, nominal gross domestic product increased from USD 107.5 billion to USD 140 billion. During the same period, the unemployment rate decreased from 6.8% to 4.9%, while the poverty rate declined from 11% to 6.8%. These indicators are also associated with significant investment in the green energy sector. Over the past five years, approximately USD 20 billion in foreign investment has been attracted to the energy sector, and 9.6 GW of modern energy capacity has been commissioned.

Green economy policies are not limited to the energy sector but also cover construction, agriculture, and urban development. A "Green Building" certification system based on energy efficiency is being introduced for newly constructed buildings and facilities. Preferential tariffs have been established to encourage households to install solar panels, and households have also been given the opportunity to sell excess electricity generated from solar energy to the state.

Every spring and autumn, tree-planting activities are organized in local communities as part of the nationwide "Yashil Makon" ("Green Nation") initiative. This represents an example of large-scale environmental initiatives involving public participation. Such measures demonstrate an important combination of state policy and civil society engagement in environmental protection.

Despite the progress achieved, the development of a green economy in Uzbekistan faces a number of challenges. First, the intermittent nature of renewable energy generation requires further expansion of energy storage systems. Second, the integration of new green generation capacities into the electricity grid requires the construction of thousands of kilometers of new transmission lines. Third, there is a need to strengthen the capacity of local specialists in green technologies and expand the use of green financing instruments, including green bonds and other mechanisms. At the same time, the expected significant growth in population and the size of the economy by 2030 implies a further increase in energy demand. This, in turn, necessitates accelerating reforms and investments in the green energy sector.

The analysis demonstrates that Uzbekistan's transition towards a green and sustainable economy has a consistent strategic and legal foundation, while significant practical results have been achieved in the energy sector in recent years. The share of renewable energy sources has been steadily increasing, generating not only environmental benefits but also contributing to economic growth, foreign investment attraction, and employment. At the same time, accelerating the green

transformation requires a systematic approach. Based on the analysis, the following recommendations are proposed:

1. Expand investment in energy storage systems to balance the intermittent generation of renewable energy sources.

2. Strengthen public-private partnership programs aimed at adapting electricity transmission and distribution infrastructure to new green generation capacities.

3. Increase private sector participation by expanding the use of green financing instruments, including green bonds and preferential lending mechanisms.

4. Expand the training of specialists in green energy and sustainable development within higher education and vocational education systems.

5. Gradually make the “Green Building” certification system a mandatory standard for all new construction projects.

6. Establish regular monitoring and transparent reporting mechanisms for green economy indicators at the regional level.

The implementation of these recommendations will contribute to accelerating the achievement of the targets established under the “Uzbekistan – 2030” Strategy and support the country’s long-term sustainable development.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16-fevral 2026-yil PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-8050769

2. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.

3. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari // https://stat.uz

4. Davronbekovna, X. N. (2025). O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA RAQAMLI VA YASHIL IQTISODIYOT INTEGRATSIYASI MASALALARI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (13. I), 395-401.

5. Хожиева, Н. (2025). АНАЛИЗ РЕЙТИНГОВ СТРАН ПО ПОКАЗАТЕЛЯМ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, *3*(10).

XORAZM VILOYATIDA BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Nurmatova Iroda Sanjar qizi

Ma’mun Universiteti magistranti

Annototsiya. Xorazm viloyatida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash yuzasidan qishloq xo‘jaligi sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillari tatbiq e’tish va iqtisodiy samaradorlikka erishish, suv resurslardan oqilona foydalanish bilan bog’liq chora-tadbirlar aks ettirilgan.

Kalit so’zlar. Barqaror iqtisodiy rivojlanish, qishloq xo’jaligi, yashil iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, suv resurslari.

Mamlakatimizda qishloq xo’jaligini modernizatsiya qilish bo’yicha bir qator xorijiy tajribalar orqali yangi tizimlarni joriy qilinib kelinmoqda . Bu jarayonda qishloq xo’jaligiga innovatsiyalar, ilg’or ishlanmalar, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalar ya’ni tomchilab sug’orish texnologiyalari har bir hududda joriy qilinib kelinmoqda. Shuningdek, Xorazm viloyatida bu yangi texnologiyalardan foydalanish bosqichma-bosqich olib borilmoqda.

Xorazm viloyatida qishloq xo’jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar viloyat iqtisodiy muhim qismini tashkil qilib kelmoqda. Masalan, Xorazm viloyatida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo’jaligi mahsulotlari hajmi 32 545,8 mlrd so’mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 4,9 %ga oshgan. Xo’jalik toifalari bo’yicha tahlillarga ko’ra, qishloq xo’jaligi mahsulotlari umumiy hajmida[247] :

1. Dehqon va tomorqa xo’jaliklari - 69,3%;
2. Fermer xo’jaliklari - 23,5%;
3. Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – 7,2% ulushga ega bo’lgan.

Xorazm viloyatida qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligining yalpi qo’shilgan qiymat yaratishdagi hissasi ushbu tarmoqning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini ko’rsatadi. 2025-yilning oxiriga ko’ra, mazkur tarmoqda 20 190,5 mlrd so’mlik yalpi qo’shilgan qiymat yaratilgan bo’lib, uning hajmi 2024-yilga nisbatan 4,8 % ga oshgan. Tarmoqning YAHM tarkibidagi 32,6 % lik ulushi qishloq xo’jaligining Xorazm viloyati iqtisodiyotida muhim o’ringa ega hisoblanadi. Qishloq xo’jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirishda hududda yashil iqtisodiyot tamoyillarini shakllantiriladi[248].

Yashil iqtisodiyot – bu odamlar farovonligini oshirishga olib keladigan iqtisodiyot va xavflarni sezilarli darajada kamaytirish bilan birga ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, atrof-muhit va ekologik resurslarning tanqisligi oldini oluvchi siyosat hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini ya’ni adolatlilik, barqarorlik, samaradorlik va yetarlilik,avlodlar birdamligi, moslashuvchanlik, ishtirok etish, sog’lom sayyora, oqilona boshqarish va shaffoflikni ta’minlash, barcha uchun foydalanish imkoniyatlari mavjudligi[249].

O’zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo’yicha barqaror qishloq xo’jaligiga o’tish yuzasidan bir qancha o’zgarishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda milliy strategiya va siyosatga asoslangan holda, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, resurslar smaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun agrosanoat tizimini modernizatsiya qilinmoqda. Bu

---

[247] https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/19694-yetishtirilgan-qishloq-xo-jaligi-mahsulotlari-hajmida-dehqon-va-tomorqa-xo-jaliklarining-ulushi-yuqori-bo-lgan?utm_source

[248] https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/19757-xorazm-viloyatining-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligida-qancha-qo-shilgan-qiymat-yaratildi-6?utm_source

[249] Eshmurodov X. Barqaror qishloq xo‘jaligi: ekologik toza texnologiyalar va ularning iqtisodiy ta’siri. International journal of scientific researchers (Vol.12,No. 2).2025

jarayon global barqaror rivojlanish maqsadlariga mos keladi hamda O'zbekistonning iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligi muammolarini hal etishga bo'lgan faol yondashuvini aks ettiradi[250]. Jumladan. Djumaniyazov F.[251] Xorazm viloyatida suv resusrlari tasqisligi va tuproq degradatsiyasining mintaqaning ekologik-iqtisodiy holatiga ta'siri mavzusidagi maqolasida suv tanqisligi va tuproq degradatsiyasi o'rtasida o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlash va qishloq xo'jaligi iqtisodiyotiga yetkazayotgan miqdoriy zararini baholash hamda ilmiy asoslangan siyosiy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Mahalliy tadqiqotlar orasida Xoliqov[252] Xorazm viloyatida suv iste'moli samaradorligini tahlil qilib, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etgan fermer xo'jaliklarida hosildorlik 28 foizga, suv tejash darajasi esa 42 foizga oshganini qayd etgan. Nazarov[253] esa sho'rlangan yerlar ulushi yiliga 0,4–0,5 p.p. sur'at bilan ortib borayotganini ta'kidlab, ushbu tendensiya saqlanib qolsa, 2040-yilga kelib viloyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 30–35 foizga kamayishi mumkinligini prognoz qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligini yashil iqtisodiyot tamoyillarini asosida rivojlantirish hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining yuqori ulushga ega ekanligi ushbu tarmoqda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash zaruratini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/19694-yetishtirilgan-qishloq-xo-jaligi-mahsulotlari-hajmida-dehqon-va-tomorqa-xo-jaliklarining-ulushi-yuqori-bo-lgan?utm_source
2. UNEP (2011), "Yashil" iqtisodiyot sari: Barqaror rivojlanish va qashshoqlikka barham berish yo'llari http://www.unep.org/greeneconomy
3. https://xorazmstat.uz/uz/matbuot-markazi/boshqarma-yangiliklar/19757-xorazm-viloyatining-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligida-qancha-qo-shilgan-qiymat-yaratildi-6?utm_source
4. Eshmurodov X. Barqaror qishloq xo'jaligi: ekologik toza texnologiyalar va ularning iqtisodiy ta'siri. International journal of scientific researchers (Vol.12,No. 2).2025
5. https://www.fao.org/platforms/green-agriculture/countries/uzb/?utm_source
6. xorazm viloyatida suv resurslari tanqisligi va tuproq degradatsiyasining mintaqaning ekologik-iqtisodiy holatiga ta'siri | green economy and development
7. Xoliqov, A. (2019). Xorazm viloyatida tomchilatib sug'orishning iqtisodiy samarasi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, 4,

[250] https://www.fao.org/platforms/green-agriculture/countries/uzb/?utm_source

[251] xorazm viloyatida suv resurslari tanqisligi va tuproq degradatsiyasining mintaqaning ekologik-iqtisodiy holatiga ta'siri | green economy and development

[252] Xoliqov, A. (2019). Xorazm viloyatida tomchilatib sug'orishning iqtisodiy samarasi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, 4,

[253] Nazarov, B. (2021). Xorazm viloyatida iqtisodiy rivojlanishning ekologik omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar,3, 45–58.

8.Nazarov, B. (2021). Xorazm viloyatida iqtisodiy rivojlanishning ekologik omillari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar,3, 45–58.

MINTAQAVIY AGLOMERATSIYALARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK YONDASHUVLARI

Olimjonov Islomjon Odiljon ugli
University of Business and Science, Rektor maslahatchisi,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy aglomeratsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini baholashning ekonometrik yondashuvlari tadqiq etilgan. Aglomeratsiya jarayonlarining hududiy yalpi mahsulot, mehnat unumdorligi, investitsion faollik va bandlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlashda panel ma’lumotlar, regressiya tahlili hamda aglomeratsiya effektlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlardan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Shuningdek, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni hisobga olgan holda ekonometrik modellarni shakllantirish va ularning parametrlarini baholashning metodik jihatlari yoritilgan. Natijalar mintaqaviy siyosatda aglomeratsiya salohiyatidan samarali foydalanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: mintaqaviy aglomeratsiya, iqtisodiy o‘sish, ekonometrik model, panel ma’lumotlar, regressiya tahlili, hududiy rivojlanish, mehnat unumdorligi, investitsiyalar, aglomeratsiya effekti, hududiy siyosat.

Bugungi globallashuv va hududiy raqobat sharoitida iqtisodiy o‘sishning hududiy omillarini chuqur tadqiq etish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatining makonda joylashuvini optimallashtirish hamda mavjud iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish masalalari alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, shaharlar va ularga tutash hududlarda aholi, mehnat resurslari, kapital, infratuzilma, innovatsion faoliyat hamda biznes subyektlarining fazoviy jihatdan konsentratsiyalashuvi natijasida shakllanadigan mintaqaviy aglomeratsiyalar iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, shaharlar global iqtisodiy o‘sishning asosiy dvigatellaridan bo‘lib, ularning iqtisodiy samaradorligi yuqori darajadagi infratuzilma, mehnat bozori va iqtisodiy imkoniyatlarning konsentratsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. [1]

Aglomeratsiyalarning iqtisodiy samarasi, avvalo, hududda iqtisodiy subyektlarning o‘zaro yaqin joylashuvi natijasida yuzaga keladigan tashqi iqtisodiy samaralar bilan izohlanadi. Ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar va mehnat resurslarining hududiy yaqinlashuvi transport xarajatlarini kamaytirish, ixtisoslashgan mehnat bozorini shakllantirish, bilim va texnologiyalar almashinuvini jadallashtirish, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish hamda innovatsion faollikni oshirish imkonini beradi. [2]

Mazkur jarayonlarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini faqat oddiy statistik taqqoslashlar asosida aniqlash yetarli emas. Chunki aglomeratsiya va iqtisodiy

o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘p omilli, dinamik va hududiy jihatdan differensial xususiyatga ega.

Bir tomondan, iqtisodiy faoliyatning yuqori darajada konsentratsiyalashuvi mehnat unumdorligi, investitsiyalar va innovatsiyalar o‘sishini rag‘batlantirishi mumkin bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ortiqcha urbanizatsiya, transport tirbandligi, ekologik bosim, uy-joy narxlarining oshishi va infratuzilmaga tushadigan yukning ortishi aglomeratsiyaning ijobiy samarasini cheklashi mumkin. Shu sababli aglomeratsiya ta’sirini miqdoriy baholashda hududlararo farqlar, vaqt omili va sabab-oqibat munosabatlarini hisobga oluvchi ekonometrik modellarni qo‘llash muhim metodologik vazifa hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlarning so‘nggi tahlillari ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xalqaro valyuta jamg‘armasi materiallarida ishchi kuchining iqtisodiy jihatdan faol hududlarda yuqori darajada konsentratsiyalashuvi miqyos samarasi va aglomeratsion spilloverlar orqali mehnat unumdorligini oshirishi qayd etilgan. Bu holat hududiy iqtisodiy siyosatda nafaqat alohida shaharlarning, balki ular bilan funksional va iqtisodiy jihatdan bog‘langan hududlarning yagona iqtisodiy makon sifatida qaralishini taqozo etadi. [3]

O‘zbekiston sharoitida mintaqaviy aglomeratsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini tadqiq etish ayniqsa muhimdir. Mamlakatda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, yirik shaharlarning iqtisodiy markaz sifatidagi rolining kuchayishi, shahar va unga tutash tumanlar o‘rtasidagi mehnat, transport, xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish aloqalarining kengayishi aglomeratsion jarayonlarni ilmiy jihatdan baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son qarori alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda bosh sxemalar, hududiy sxemalar, aglomeratsiyalarni rivojlantirish strategiyalari, shaharlarning bosh rejalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish bilan bog‘liq tizimli vazifalar belgilangan. [4]

1-jadval.

Namangan viloyati hududlarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining dinamikasi, 2016–2025-yillar

Hududlar	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	1 715,9	2 102,8	3 089,1	3 999,5	4 356,5	6 091,0	7 052,1	8 174,6	10609,3	11975,8
Mingbuloq	86,8	79,3	139,2	144,5	545,7	623,6	751,0	648,5	540,4	980,3
Kosonsoy	126,1	161,3	244,8	358,2	314,4	589,9	970,2	1 366,2	1 843,3	1 831,5
Namangan	309,8	439,4	694,0	813,1	1 036,3	949,5	1 062,4	1 186,0	1 915,4	1 936,0
Norin	94,8	116,6	130,3	372,2	316,2	435,4	233,1	300,7	367,4	677,6
Pop	150,9	202,0	302,1	393,0	506,2	439,5	545,3	523,7	755,4	989,5
To‘raqo‘rg‘on	210,4	411,1	485,3	850,9	1 545,1	2 511,8	3 368,4	4 871,9	5 875,9	6 632,3
Uychi	248,7	342,8	429,0	643,7	640,8	891,3	1 028,1	1 258,1	1 609,4	2 058,8
Uchqo‘rg‘on	244,5	418,8	659,2	629,3	782,2	834,7	951,6	801,2	969,4	1 030,6
Chortoq	82,2	76,6	82,0	132,2	187,2	282,5	394,8	538,8	699,3	1 063,0
Chust	128,9	186,9	244,9	334,4	584,0	801,1	1 483,6	1 920,9	2 491,5	3 251,2
Yangiqo‘rg‘on	76,8	77,8	86,8	147,8	197,3	244,9	279,9	316,3	485,5	579,1

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligi ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

1-jadval ma’lumotlari Namangan viloyatida 2016–2025-yillar davomida iqtisodiy faoliyatning hududiy konsentratsiyasi sezilarli darajada kuchayganligini ko‘rsatadi. Eng avvalo, sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on va Chust hududlarida jamlanayotganini kuzatish mumkin.

Tanlangan statistik ma’lumotlar Namangan viloyati hududlarining iqtisodiy va demografik salohiyatini o‘zaro taqqoslash, vaqt davomida yuz bergan o‘zgarishlarni aniqlash hamda aglomeratsion jarayonlarning shakllanish xususiyatlarini ifodalash imkonini beradi. 2016–2025-yillar bo‘yicha ma’lumotlarning qo‘llanilishi qisqa muddatli o‘zgarishlardan tashqari, uzoq muddatli tendensiyalarni ham hisobga olish imkonini yaratadi.

Namangan shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2016-yildagi 1 715,9 mlrd so‘mdan 2025-yilda 11 975,8 mlrd so‘mga yetgan. Demak, 10 yillik davrda nominal hajm 6,98 baravar, yoki 597,9 foizga oshgan. Ayniqsa, 2020–2025-yillarda o‘sish sur’atining jadallashgani ko‘zga tashlanadi: 2020-yildagi 4 356,5 mlrd so‘mlik ishlab chiqarish 2025-yilga kelib qariyb 12 trln so‘mga yetgan. Bu Namangan shahrining viloyatdagi asosiy iqtisodiy markaz sifatidagi mavqei mustahkamlanganini anglatadi. 2025-yil 1-may holatida shaharda 1 522 ta faol sanoat korxonasi mavjudligi ham iqtisodiy konsentratsiyaning yuqoriligini tasdiqlaydi.

Investitsiya hajmining o‘sishi o‘z-o‘zidan hududiy iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanilganini anglatmaydi. Investitsiyalarning ishlab chiqarish natijasiga aylanishini baholash uchun aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish ko‘rsatkichi muhim indikator hisoblanadi. Mazkur ko‘rsatkich hududning sanoat salohiyati, ishlab chiqarish konsentratsiyasi va mavjud iqtisodiy resurslardan foydalanish darajasini nisbatan yaxshiroq ifodalaydi (2-jadval).

2-jadval.

Namangan viloyati hududlarida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish dinamikasi, 2017–2024-yillar, ming so‘m

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Namangan shahri	3 533,0	5 095,8	6 429,6	6 881,2	9 328,6	10 531,6	11 893,1	15 049,6
Mingbuloq	663,1	1 142,1	1 161,5	4 293,4	4 804,9	5 663,4	4 786,2	3 906,4
Kosonsoy	815,7	1 212,9	1 737,2	1 493,0	2 739,8	4 405,5	6 063,1	7 996,9
Namangan	2 598,6	4 017,7	4 604,4	5 737,9	5 222,1	5 711,5	6 226,7	9 827,1
Norin	746,9	820,0	2 300,3	1 920,1	2 596,7	1 364,1	1 726,7	2 070,1
Pop	963,6	1 417,3	1 811,3	2 292,8	1 955,5	2 380,5	2 243,1	3 177,4
To‘raqo‘rg‘on	1 919,9	2 221,8	3 847,5	6 785,6	10 884,4	14 243,6	20 105,4	23 697,5
Uychi	1 701,3	2 087,2	3 121,3	2 987,5	4 061,1	4 576,0	5 475,2	6 850,1
Uchqo‘rg‘on	2 557,0	3 954,3	3 696,2	4 518,8	4 732,7	5 289,1	4 364,6	5 182,1
Chortoq	405,0	425,3	672,7	934,7	1 383,4	1 895,7	2 534,1	3 221,9
Chust	738,8	951,4	1 274,8	2 187,3	2 946,4	5 354,3	6 796,0	8 635,1
Yangiqo‘rg‘on	375,6	411,6	687,5	898,4	1 091,7	1 220,0	1 348,1	2 027,4
Namangan viloyati	**1 724,8**	**2 416,0**	**3 169,8**	**3 878,7**	**5 068,6**	**6 112,9**	**7 225,6**	**10 228,2**

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika agentligi ma’lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi

2-jadval ma’lumotlari Namangan viloyatida aglomeratsiya jarayonlarining demografik asoslari ham hududlar bo‘yicha bir xil emasligini ko‘rsatadi. 2016–2025-yillar davomida viloyatning aksariyat hududlarida aholi zichligi izchil oshgan. Biroq o‘sishning eng yuqori darajasi Namangan shahrida kuzatilgan bo‘lib, mazkur hududda 1 km² ga to‘g‘ri keladigan aholi soni 2016-yildagi 3 288,7 kishidan 2025-yilda 4 756,0 kishigacha oshgan. Bu 44,6 foizlik o‘sishni anglatadi.

Eng yuqori o‘sish To‘raqo‘rg‘on tumanida qayd etilgan. Mazkur hududda sanoat ishlab chiqarishi 2016-yildagi 210,4 mlrd so‘mdan 2025-yilda 6 632,3 mlrd so‘mga yetgan. Ya’ni 10 yil ichida ishlab chiqarish hajmi 31,5 baravar oshib, o‘sish 3 052,2 foizni tashkil qilgan. Ayniqsa, 2020-yildagi 1 545,1 mlrd so‘mdan 2021-yilda 2 511,8 mlrd so‘mga, 2022-yilda esa 3 368,4 mlrd so‘mga ko‘tarilishi hududda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining shakllanganini ko‘rsatadi. 2025-yil yanvar–avgust oylarida ham To‘raqo‘rg‘onda 4 327,2 mlrd so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, viloyatdagi eng yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lib qolgan.

Tadqiqot natijalari aglomeratsiyaning iqtisodiy samarasi faqat aholining ma’lum hududda jamlanishi bilan emas, balki mehnat bozori, ishlab chiqarish infratuzilmasi, investitsiyalar, transport-logistika aloqalari, xizmatlar sohasi va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya darajasi bilan ham belgilanadi degan xulosaga kelish imkonini beradi. Shu sababli mintaqaviy aglomeratsiyalar ta’sirini ekonometrik baholashda panel ma’lumotlar asosidagi ko‘p omilli regressiya modellaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman, Namangan viloyatida aglomeratsion rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hududiy iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalarini shakllantirish, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini chuqurlashtirish va shahar hamda unga tutash hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish uchun muhim shart hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank. Building Productive Cities for an Urbanizing World. World Bank Data360.

2. World Bank. Agglomeration and Manufacturing Activities in Indonesia. World Bank Open Knowledge Repository.

3. International Monetary Fund. Making European Reforms a Success on the Ground. IMF, 2026.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-299-son “Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISH SHAROITIDA BUXORO VILOYATI HUDUDIY XUSUSIYATLARIDAN EKSPORTNI RIVOJLANTIRISHDA SAMARALI FOYDALANISH

Umaraliyev S.R.
BuxDU tadqiqotchisi

Buxoro viloyati O‘zbekiston Respublikasining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan, hududning umumiy maydoni 40,3 ming kv. km bo‘lib, mamlakat

hududining qariyb 9 foizini, aholi soni 2,1 mln nafardan ortiq bo‘lgan holda mamlakat aholisining 5,4 foizini tashkil etadi. Hududning iqtisodiy-geografik joylashuvi muhim transit funksiyalarni ifoda etadi: shimoliy va sharqiy yo‘nalishlardan Markaziy Osiyoning janubiy mintaqalariga, jumladan, Afg‘oniston va Eronga eltuvchi xalqaro avtomobil va temir yo‘l koridorlari aynan Buxoro viloyati hududidan o‘tadi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi obyektiv asoslar qatorida boy uglevodorod resurslari (Qorovulbozor, Muborak yo‘nalishidagi neft-gaz konlari), qadimiy tarixiy-madaniy meros (UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Buxoro tarixiy markazi, Qo‘hna Vobkent shahri va Buxoro xonligi davriga oid yodgorliklar), qishloq xo‘jaligiga moslashgan irrigatsiya tizimi (Amu-Buxoro magistral kanali) hamda paxta–to‘qimachilik klasterlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur omillar viloyat iqtisodiyotining hududiy xususiyatlarini izohlovchi asosiy obyektiv shartlardir.

Viloyatning eng muhim tabiiy boyligi – uglevodorod (gaz va neft-gaz) resurslaridir. Buxoro hududi mamlakatning yirik gaz qazib olish mintaqalaridan biri bo‘lib, Gazli, Jarqoq, Uchqir, Setalantepa, Dengizko‘l kabi yirik gaz konlari shu yerda joylashgan; Buxoro-Xiva neft-gaz mintaqasi tarkibida 17 ta yirik gaz koni mavjud[254]. Bundan tashqari, Ko‘kdumaloq gaz kondensati koni, Mingbuloq neft koni hamda grafit, ohaktosh, bentonit (gilmoya), granit va mineral suv zaxiralari ham viloyat resurs bazasini boyitadi[255]. Muallif fikricha, bunday boy uglevodorod bazasi viloyat sanoatining, shuningdek, eksport salohiyatining muhim tayanchi bo‘lsa-da, u ayni paytda iqtisodiyotning resurs-bog‘liqligini kuchaytirib, diversifikatsiya zaruriyatini ham keltirib chiqaradi.

Uglevodorod resurslari bilan bir qatorda, Buxoro viloyati qayta tiklanadigan energiya manbalari – quyosh va shamol energiyasi bo‘yicha ham katta salohiyatga ega. Viloyatning quruq, sernur iqlimi va keng cho‘l hududlari quyosh va shamol elektr stansiyalarini joylashtirishga qulay imkoniyat yaratadi. Hozirda viloyatda umumiy qiymati 5,2 mlrd dollar va quvvati 4,5 gigavattga teng 10 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi qurilmoqda[256]. Muallif fikricha, «yashil energiya» nafaqat viloyat energetika balansini yaxshilaydi, balki kelajakda «toza» elektr energiyasi va past uglerodli mahsulotlar eksporti uchun yangi imkoniyat ochadi – bu zamonaviy global tendensiyalarga, xususan uglerod chegaraviy moslashtirish mexanizmlariga muvofiqdir. Shu tariqa viloyatning tabiiy-resurs salohiyati an’anaviy (uglevodorod) va zamonaviy (qayta tiklanadigan energiya) manbalarni o‘z ichiga oladi.

Shu bilan birga, viloyatning tabiiy sharoiti bir qator cheklovlarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, suv tanqisligi: Buxoro viloyati asosan Zarafshon va Amudaryo suvlariga tayanadi, Orol dengizi inqirozi va iqlim o‘zgarishi sharoitida esa suv resurslari yanada cheklanmoqda. bu sug‘orma dehqonchilik va, demak, agro-eksport salohiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, hududning katta qismi cho‘l va yarim cho‘l bo‘lib, dehqonchilik uchun yaroqli yerlar cheklangan. Uchinchidan, viloyat seysmik jihatdan faol zonada joylashgan (Gazli shahri atrofi 9

[254] O‘zbekiston Respublikasi tog’-kon sanoati va geologiya vazirligi ma’lumotlari, - 2025. https://gov.uz/oz/mingeo.
[255] Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari. - Buxoro, 2026 // buxstat.uz.
[256] Buxoro viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari.. - Buxoro, 2026 // buxstat.uz.

balli zilzila zonasiga kiradi). Muallif fikricha, bu tabiiy cheklovlar viloyat iqtisodiy rivojlanishida suvni tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug‘orish va resurs-tejamkor ishlab chiqarishni joriy etish zaruriyatini kuchaytiradi; bu omillar eksportbop qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda hisobga olinishi shart[257].

Buxoro viloyati aholisi 2026-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra 2 107 000 kishini tashkil etib, bu mamlakatning 14 ta hududi orasida 9-o‘rinni bildiradi[258]. Aholining 63,14 foizi qishloq joylarda, 36,86 foizi shaharlarda istiqomat qiladi; aholi zichligi 1 km²ga o‘rtacha 51,0 kishini tashkil etadi[259]. Aholining yoshlik tarkibi va mehnat resurslarining mavjudligi viloyat uchun muhim iqtisodiy salohiyat manbai bo‘lib, ayni paytda yetarli ish o‘rni yaratish va malaka oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Inson kapitali eksport salohiyatining muhim omilidir: zamonaviy iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, hududning raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslar, balki malakali mehnat, tadbirkorlik va innovatsion salohiyat bilan belgilanadi[260]. Buxoro viloyatida 2025-yilda ishsizlik darajasi 4,7 foizgacha, kambag‘allik darajasi 6 foizgacha pasaytirilgani[261] ijobiy tendensiya bo‘lsa-da, tadqiqotchi fikricha, eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarda malakali kadrlar – marketing, xalqaro savdo, sifat menejmenti mutaxassislari – tanqisligi hududning eksport salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biridir.

Viloyatning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda transport-logistika infratuzilmasi muhim o‘rin tutadi. Buxoro temir yo‘l va avtomobil yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, Kogon yirik temir yo‘l tugunidir; viloyatda xalqaro aeroport ham faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning «ikki tomonlama quruqlik bilan o‘ralgan» (double-landlocked) maqomi viloyat eksportyorlari uchun ham dengiz portlariga chiqishni qiyinlashtiradi va logistika xarajatlarini oshiradi[262]. Muallif fikricha, transport xarajatlari va logistik bog‘liqlik Buxoro viloyati eksport mahsulotlarining (xususda og‘ir va past qiymatli tovarlarning) raqobatbardoshligini pasaytiruvchi muhim omildir; shu bois viloyat uchun yuqori qiymat-og‘irlik nisbatiga ega mahsulotlar (qayta ishlangan agro-mahsulotlar, hunarmandchilik buyumlari) va logistikadan kam bog‘liq xizmatlar eksporti (turizm) strategik jihatdan afzalroqdir.

Qishloq xo‘jaligi viloyatning an’anaviy va eng muhim tarmog‘i bo‘lib, paxtachilik, g‘allachilik, meva-sabzavotchilik, poliz ekinlari va chorvachilik (xususan qorako‘l qo‘ychiligi) bilan ifodalanadi. Muallif fikricha, qishloq xo‘jaligining yuqori ulushi bir tomondan eksport salohiyatini ta’minlasa, ikkinchi tomondan qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat yaratish darajasining pastligini

[257] Pomfret R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. — Princeton: Princeton University Press, 2019. – P. 140–185.
[258] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Hududlar bo‘yicha doimiy aholi soni. - Toshkent, 2026 // stat.uz.
[259] Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. - Buxoro, 2026 // buxstat.uz.
[260] Audretsch D.B., Lehmann E.E. The Seven Secrets of Germany: Economic Resilience in an Era of Global Turbulence. - New York: Oxford University Press, 2016. - P. 55–90.
[261] Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. - Buxoro, 2026 // buxstat.uz..
[262] Pomfret R. The Central Asian Economies in the Twenty-First Century: Paving a New Silk Road. - Princeton: Princeton University Press, 2019. - P. 140–185.

ko‘rsatadi, xom mahsulot o‘rniga qayta ishlangan, qadoqlangan va brendlangan mahsulot eksporti strategik vazifa bo‘lib qolmoqda.

Buxoro viloyatining eksport salohiyati bir necha tarmoqqa tayanadi, biroq ularning eksportga aylanish darajasi turlicha. 2021-yilning yanvar–may oylarida viloyat eksporti 156,7 mln dollarni tashkil etgan bo‘lib, uning katta qismi sanoat mahsulotlari va gaz-kimyo mahsulotlari hisobiga to‘g‘ri kelgan[263]. 2024-yilda esa viloyat eksporti hatto avvalgi yil darajasiga yetmagan – bu eksport salohiyatidan foydalanishdagi muammolarni ko‘rsatadi. Viloyatning asosiy eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlari va ularning xususiyatlari turlichaligi bilan tavsiflanadi.

Eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishning samarali shakli – klaster yondashuvidir. Buxoro viloyati sharoitida uchta klaster yo‘nalishi istiqbolli ko‘rinadi: birinchidan, agro-oziq-ovqat klasteri (yetishtirish, qayta ishlash, qadoqlash, sovutib saqlash va eksportni bir zanjirda birlashtirgan); ikkinchidan, to‘qimachilik klasteri (paxtadan tayyor gazlama va trikotajgacha); uchinchidan, turizm klasteri (mehmonxona, transport, hunarmandchilik, gastronomiya va madaniy xizmatlarni o‘zaro bog‘lagan). Mintaqaviy iqtisodiyot va klaster nazariyalariga ko‘ra, bunday tarmoq jamlanmasi qo‘shilgan qiymatni oshiradi, innovatsiya va malakani tarqatadi hamda eksport barqarorligini ta’minlaydi[264].

Viloyat iqtisodiy salohiyati va uning eksportga aylanishi o‘rtasidagi tafovutni baholash mazkur tahlilning markaziy g‘oyasidir. Buxoro viloyati YaHM 2016-2025 yillarda joriy narxlarda qariyb olti barobar oshib, 86,6 trln so‘mga (taxminan 6,8 mlrd dollar) yetgan bo‘lsa-da, viloyat eksporti bu o‘sishga proporsional tarzda kengaymadi. Eksportning YaHMga nisbati (eksport kvotasi) viloyat darajasida mamlakat o‘rtacha ko‘rsatkichidan past bo‘lib qolmoqda - bu eksport salohiyatidan foydalanish koeffitsiyentining pastligini bildiradi. Muallif fikricha, aynan shu tafovut - yuqori ishlab chiqarish salohiyati va past eksport faolligi o‘rtasidagi farq viloyat uchun eng muhim iqtisodiy muammo bo‘lib, uni bartaraf etish ilmiy-amaliy tavsiyalarning asosini tashkil etadi[265].

YASHIL ENERGETIKA LOYIHALARINI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY TAJRIBA

Yakubova Dilfuza
ISFT instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi
o‘qituvchisi va mustaqil izlanuvchisi

Hududlarda qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini ko‘paytirish uchun ularning ekologik natijasi va moliyaviy samarasi ishonchli baholanishi zarur. Biroq quyosh va shamol stansiyalari uskunalarini yagona aktiv sifatida hisobga olish, emissiya natijalarini tekshirish mexanizmining yetarlicha rivojlanmagani hamda uglerod birliklarining hisobdagi maqomi investorga taqdim etiladigan axborot sifatini

[263]Buxoro viloyati statistika boshqarmasi. Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibi: 2021-yil (yanvar–may) eksport 156,7 mln dollar. — Buxoro, 2021 // buxstat.uz.
[264] Porter M.E. The Economic Performance of Regions // Regional Studies. - 2003. - Vol. 37, No. 6-7. – P. 549-578.
[265] Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters // Journal of Economic Growth. - 2007. - Vol. 12, No. 1. – P. 1-25.

pasaytirishi mumkin. Ushbu tezisning maqsadi Qozog‘iston, Germaniya va AQSh amaliyotidan O‘zbekistonning yashil energetika loyihalariga mos hisob va rag‘batlantirish yechimlarini ajratib ko‘rsatishdir.

Qozog‘istonda emissiyalar savdosi tizimi korxona chiqindilarini monitoring qilish, hisobot berish va mustaqil tekshirish (MRV) bilan bog‘langan. Uglerod birligi yaratilishi, egasi o‘zgarishi va emissiyani qoplash uchun hisobdan chiqarilishi reyestrda kuzatiladi. Ushbu tajriba O‘zbekiston uchun avvalo o‘lchov va tekshiruvning bir xil tartibini yaratish kerakligini ko‘rsatadi: tekshirilmagan qisqartirish hajmini iqtisodiy manfaat sifatida tan olish noto‘g‘ri qarorlarga olib kelishi mumkin.

Mazkur tizimda emissiya manbalari bo‘yicha yoqilg‘i sarfi, ishlab chiqarish hajmi va hisoblash koeffitsiyentlari jamlanadi; yil yakunida korxona hisobotini mustaqil verifikator tekshiradi. Agar ajratilgan kvota haqiqiy emissiyadan kam bo‘lsa, yetishmagan birliklarni sotib olish zarurati paydo bo‘ladi. Foydalanilmagan kvotalar qonun ruxsat etgan doirada muomalaga kiritilishi mumkin. Shunday qilib, ekologik natija bevosita xarajat yoki iqtisodiy manfaatga ta’sir etadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu zanjirni tashkil qilishdan avval yirik emissiya manbalari ro‘yxati va ma’lumotni tekshirish vakolatlari aniq belgilanishi kerak.

Uglerod birliklari hisobida yagona tasnif barcha vaziyatga mos kelmaydi. Qayta sotish uchun olingan birliklar zaxira sifatida IAS 2 mezonlari bo‘yicha, korxonaning o‘z emissiyasini qoplashga mo‘ljallangan birliklar esa IAS 38 tan olish mezonlari bajarilsa nomoddiy aktiv sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Bepul davlat ajratmalari uchun IAS 20, mavjud majburiyat va uning ishonchli bahosi yuzaga kelganida ortiqcha emissiya bo‘yicha rezerv uchun IAS 37 talablarini alohida baholash lozim. Bu milliy ko‘rsatma uchun taklif etilayotgan yondashuv bo‘lib, har bir shartnomaning mazmuni va amaldagi huquqiy rejim tekshirilishi kerak.

Amaliyotda birlikning kelib chiqishi va foydalanish maqsadi uni analitik hisobda alohida aks ettirishga asos bo‘ladi. Masalan, korxona savdo uchun xarid qilgan birlik bilan o‘z emissiyasini qoplash uchun olgan birlikni bitta guruhda ko‘rsatsa, zaxira aylanmasi va ekologik majburiyatning qoplanishini tahlil qilish qiyinlashadi. Shu sababli reyestrdagi birlik raqami, sotib olingan yoki bepul olingan sanasi, tannarxi, egasi va hisobdan chiqarish sababi hisob registrlariga bog‘lanishi lozim.

Germaniyada shamol parkini tashkil etuvchi uskunalar va infratuzilmaning iqtisodiy jihatdan farqlanishi soliq amaliyotida ham e’tirof etilgan. MHXS bo‘yicha asosiy qoida esa IAS 16 talabidir: qiymatning muhim qismini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar alohida amortizatsiya qilinadi. O‘zbekistonda quyosh stansiyasi panellari, invertorlari va transformatorlari bo‘yicha foydalanishga tayyor sana, foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Invertor almashtirilsa, uning eski balans qiymatini hisobdan chiqarish va yangi uskunani tan olish loyiha aktivlari qiymatini aniqroq ko‘rsatadi. Germaniya soliq qarorlari bilan IAS 16 talablari aynan bir xil qoidalar sifatida talqin qilinmasligi kerak.

Komponentli hisobni tashkil etishda stansiyaning umumiy smetasini texnik hujjatlar bilan solishtirish muhim. Har bir muhim tarkibiy qismga to‘g‘ri keladigan xarid, yetkazib berish, montaj va sinov xarajatlari asosli taqsimlanadi. Keyin texnik

xizmat muddati va kutiladigan almashtirish davri bo‘yicha amortizatsiya jadvali tuziladi. Bu yondashuv qimmat invertor qisqa muddatda almashtirilganda butun stansiya amortizatsiyasini qayta hisoblashga ehtiyojni kamaytiradi hamda yangi investitsiya bilan oddiy ta’mirlash xarajatlarini farqlashga yordam beradi.

AQSh tajribasida toza energiya ishlab chiqarishga yoki loyihaga kiritilgan investitsiyaga bog‘liq soliq kreditlari xususiy mablag‘ni jalb etish vositasi sifatida qo‘llanadi. O‘zbekiston uchun bunday rag‘batni tayyor qonuniy imtiyoz sifatida emas, balki sinovdan o‘tkaziladigan taklif sifatida baholash o‘rinli: ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq imtiyoz stansiya samaradorligini, investitsiyaga bog‘liq imtiyoz esa dastlabki kapital qo‘yilmalarni rag‘batlantirishi mumkin. Ularning budjet xarajati, qo‘shimcha ishlab chiqarish va jalb etilgan xususiy investitsiyaga ta’siri oldindan hisoblanishi zarur.

Masalan, quyosh stansiyasining tarmoqqa yetkazgan elektr energiyasiga bog‘liq rag‘bat faqat hisoblagich ko‘rsatkichi mustaqil tasdiqlanganidan keyin berilsa, to‘lov haqiqiy ishlab chiqarishga bog‘lanadi. Investitsiya xarajatiga bog‘liq rag‘bat esa loyiha ishga tushirilishi va tegishli uskunaning hujjatlari tekshirilishi sharti bilan qo‘llanishi mumkin. Ikki mexanizmning qaysi biri maqsadga muvofiqligini aniqlashda qurilish xarajati, ishlab chiqarish prognozi va loyihaning hududiy elektr ta’minotiga hissasi solishtiriladi. AQSh soliq qoidalari O‘zbekistonga bevosita tatbiq etilmaydi; milliy tartib alohida qonunchilikni talab qiladi.

Shu asosda, yirik quyosh va shamol loyihalari uchun uch bog‘langan elementdan iborat pilot model taklif etiladi: emissiya hamda elektr ishlab chiqarish hajmini mustaqil tasdiqlash; uglerod birliklari harakati va muhim aktiv komponentlari bo‘yicha alohida analitik hisob; natijalar tasdiqlangandan keyin maqsadli rag‘batlarning budjet samaradorligini baholash. Pilot natijalarida CO_2-ekvivalent qisqarishi, ishlab chiqarilgan kilovatt-soat, komponentlar amortizatsiyasining foydaga ta’siri va xususiy investitsiya hajmi birgalikda kuzatilishi lozim.

Pilot dasturining birinchi bosqichida ishtirokchi korxonalar hisob siyosati va texnik hisoblagichlari inventarizatsiya qilinadi. Ikkinchi bosqichda emissiya ko‘rsatkichlari, birliklar reyestri va aktiv kartochkalari o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Yakuniy bosqichda oddiy hisob yuritish bilan taklif etilgan model natijalari taqqoslanadi: amortizatsiya, aktivlarning qoldiq qiymati, ekologik majburiyatlar va loyiha foydasidagi farq aniqlanadi. Natijalar ijobiy va tekshiriladigan bo‘lsa, uslubiy ko‘rsatmalar boshqa hududlardagi loyihalarga kengaytirilishi mumkin.

Hisob siyosatidagi birinchi amaliy o‘zgarish- yangi loyiha boshlanishidayoq aktivlarning komponentlar ro‘yxatini shakllantirishdan iborat. Bunda uskunaning qiymati yuqoriligi bilan bir qatorda uning boshqa qismlardan oldin almashtirilishi ehtimoli ham inobatga olinadi.

Ikkinchi o‘zgarish- emissiya ma’lumotlarining kelib chiqishini hujjatlashtirishdir. Korxona yoqilg‘i turi, sarf miqdori, o‘lchash uskunasi va hisoblash koeffitsiyentlarini bir davr kesimida saqlashi lozim. Elektr energiyasi ishlab chiqarishning ekologik foydasi bilan amaldagi emissiya kvotasi bir xil ko‘rsatkich emas: birinchisi energiya manbalari o‘rtasidagi taqqoslashga, ikkinchisi esa tegishli tartibda belgilangan ruxsat etilgan chiqarilmaga taalluqlidir. Ularni

aralashtirish uglerod birliklarini ikki marta hisoblash xavfini kuchaytiradi. Mustaqil tekshiruv va yagona reyestr ushbu xavfni kamaytiradi.

Uchinchi o‘zgarish- rag‘batlantirish samaradorligini faqat berilgan imtiyoz summasi orqali baholamaslikdir. Pilotda bitta loyiha hisobiga jalb etilgan qo‘shimcha xususiy kapital, amalda tarmoqqa yetkazilgan elektr energiyasi, elektr ta’minotining hududiy barqarorligiga qo‘shilgan hissa va budjet tushumlaridagi o‘zgarishlar ham qayd etilishi kerak. Bunday ma’lumotlar soliq rag‘bati o‘z xarajatini oqlaganini, qaysi hududlarda samaraliroq ishlaganini va qaysi shartlar qayta ko‘rib chiqilishi kerakligini aniqlashga yordam beradi. Natijalar ochiq e’lon qilinsa, tadqiqotchilar va investorlar loyiha ko‘rsatkichlarini o‘zaro qiyoslay oladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribaning O‘zbekiston uchun asosiy sabog‘i ekologik ko‘rsatkichlar, moliyaviy hisob va investitsion rag‘bat o‘rtasida tekshiriladigan bog‘liqlik yaratishdir. Bunday tartib loyihalarning hududiy iqtisodiy samarasini baholash hamda investorlar uchun ochiq va qiyoslanadigan ma’lumot tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. IFRS Foundation. IAS 16 Property, Plant and Equipment; IAS 2 Inventories; IAS 20 Accounting for Government Grants; IAS 37 Provisions; IAS 38 Intangible Assets. https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/

2. Bundesfinanzhof. 14.04.2011, IV R 46/09; 01.02.2012, I R 57/10 (shamol parki aktivlari bo‘yicha qarorlar).

3. U.S. Internal Revenue Service. Clean Electricity Production Credit (26 USC §45Y); Clean Electricity Investment Credit (26 USC §48E). IRS.gov.

ПОДГОТОВКА КАДРОВ С ЦИФРОВЫМИ И «ЗЕЛЕНЫМИ» КОМПЕТЕНЦИЯМИ: ВОЗМОЖНОСТИ СОГЛАСОВАНИЯ ПОДХОДОВ УЗБЕКИСТАНА И КЫРГЫЗСТАНА

Б.Т. Токсобаев
д.э.н., Кыргызский экономический научно-исследовательский университет им. М.Рыскулбекова Директор «Института непрерывного открытого образования»

Кадры становятся одним из главных факторов конкурентоспособности стран Центральной Азии в период цифровой и «зеленой» трансформации. Узбекистан и Кыргызстан связывают общий рынок труда и тесные образовательные связи, но кадровую политику каждая страна выстраивает самостоятельно: Узбекистан опирается на Стратегию «Цифровой Узбекистан – 2030» [1] и Стратегию перехода к «зеленой» экономике на 2019–2030 гг. [2], Кыргызстан – на Концепцию цифровой трансформации на 2024–2028 гг. [3]. Исходные условия при этом неравны. По данным CAREC Institute, 98% взрослого населения Кыргызстана владеют цифровыми навыками лишь на базовом или более низком уровне, а в неформальном секторе занято 59% работающих (в сельской местности – более 80%) [4].

Цифровая политика Узбекистана строится на массовом обучении с заданными числовыми целями. Стратегия «Цифровой Узбекистан – 2030» предусматривает обучение 587 тыс. человек основам программирования (в том числе в рамках проекта «Один миллион программистов»), подготовку 12 тыс. государственных служащих в области информационных технологий и информационной безопасности, открытие более 200 специализированных школ с углубленным изучением информатики и цифровых учебных центров в каждом районе и городе, а также компенсацию 50% стоимости международных ИТ-сертификатов [1].

Стратегия перехода к «зеленой» экономике предусматривает развитие подготовки кадров для «зеленых» рынков труда на всех уровнях образования при участии международных партнеров [2]. Кыргызстан делает ставку на государственный аппарат и на специалистов по данным и искусственному интеллекту. Концепция 2024–2028 гг. вводит требования к цифровым компетенциям госслужащих всех уровней управления, делает цифровую компетентность одним из критериев приема на госслужбу и предусматривает в вузах программы подготовки по искусственному интеллекту, машинному обучению и большим данным, в том числе специалистов уровня Data Scientist и Data Engineer [3]. Что касается «зеленых» навыков, для Кыргызстана опорной остается оценка MOT 2018 г. [5]; CAREC Institute предлагает создавать региональные центры подготовки по обслуживанию солнечных и ветровых установок и энергоэффективному строительству [4].

Национальные рамки двух стран пока не согласованы. Требования и целевые показатели по цифровым и «зеленым» компетенциям каждая страна формулирует отдельно, поэтому квалификации трудно сопоставить, а сертификаты – взаимно признать [1; 3]. Уровень цифровой подготовки населения различается: в Кыргызстане базовыми навыками ограничиваются 98% взрослых [4], а узбекские программы обучения [1] пока не подкреплены региональными индикаторами качества. «Зеленые» компетенции закреплены слабее цифровых: цифровые цели обеих стран выражены в числах [1; 3], тогда как в документах по «зеленым» навыкам [2; 5] сопоставимых показателей меньше.

Наконец, образовательные связи вузов развиты, но совместных программ по цифровым и «зеленым» компетенциям в открытых источниках найти не удалось. Между вузами двух стран подписано около 120 соглашений и меморандумов, около 100 кыргызстанских специалистов работают в университетах Узбекистана, а в числе приоритетов названы академическая мобильность, цифровизация и искусственный интеллект [6]. Расширение мобильности студентов и преподавателей подтверждено в марте 2026 г. [7], а III Форум ректоров в июле 2026 г. назвал приоритетом интеграцию образования, науки и бизнеса [8].

Первым шагом могла бы стать общая рамка цифровых и «зеленых» компетенций с взаимным признанием сертификатов; опорой для нее служат узбекский механизм софинансирования международных ИТ-сертификатов [1] и кыргызстанские требования к цифровым компетенциям госслужащих [3].

Базой для совместных программ могут стать вузы – участники форума ректоров: Ошский государственный университет, Кыргызско-Узбекский университет, Ферганский и Андижанский государственные университеты [6].

Здесь можно сформировать трансграничный кластер для приграничных территорий Ферганской долины с программами по данным и искусственному интеллекту и по возобновляемой энергетике. Региональные центры подготовки по обслуживанию солнечных и ветровых установок и энергоэффективному строительству [4] стоит создавать как совместные площадки с участием работодателей обеих стран.

Результаты такой работы нужно измерять общими показателями: числом обученных, долей трудоустроенных по специальности, уровнем цифровых навыков по регионам, охватом «зелеными» программами. Дорожные карты мобильности [7; 8] имеет смысл дополнить программами повышения квалификации преподавателей по цифровым и «зеленым» дисциплинам.

Узбекистан делает ставку на массовое обучение с числовыми целями, Кыргызстан – на компетенции госслужащих и подготовку специалистов по данным и искусственному интеллекту. Эти подходы можно объединить: общая рамка компетенций и совместные программы опираются на уже действующие связи вузов и могут стать основой единого рынка цифровых и «зеленых» кадров.

Литература

1. Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации: Указ Президента Республики Узбекистан от 05.10.2020 № УП-6079 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://www.lex.uz/docs/5031048 (дата обращения: 06.10.2026).

2. Об утверждении Стратегии перехода Республики Узбекистан к «зеленой» экономике на период 2019–2030 годов: Постановление Президента Республики Узбекистан от 04.10.2019 № ПП-4477 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://lex.uz/ru/docs/4539506 (дата обращения: 06.10.2026).

3. Концепция цифровой трансформации Кыргызской Республики на 2024–2028 годы: приложение к Указу Президента Кыргызской Республики от 05.04.2024 № 90. – Бишкек, 2024. – URL: https://digital.gov.kg/wp-content/uploads/2024/06/konczepcziya-czifrovoj-transformaczii-kyrgyzskoj-respubliki-na-2024-2028-gody.pdf (дата обращения: 06.10.2026).

4. Kadyraliev A., Akizhanov K., Abdulloev I. Addressing Socio-Economic Inequality: Decent Work in CAREC's Green and Digital Transitions in the Kyrgyz Republic: Policy Brief. – CAREC Institute, 2026. – URL: https://www.carecinstitute.org/wp-content/uploads/2026/04/Kyrgyz-Republic-Policy-Brief-Final.pdf (дата обращения: 06.10.2026).

5. Skills for green jobs in Kyrgyz Republic / Partnership for Action on Green Economy, ILO Skills and Employability Department, European Centre for the

Development of Vocational Training. – Geneva: International Labour Office, 2018. – 46 p. – ISBN 978-92-2-030922-3. – URL: https://researchrepository.ilo.org/esploro/outputs/report/Skills-for-green-jobs-in-Kyrgyz/995219457402676 (дата обращения: 06.10.2026).

6. Узбекистан–Кыргызстан: сотрудничество в сфере высшего образования // Национальное информационное агентство Узбекистана (УзА). – 16.07.2024. – URL: https://uza.uz/ar/posts/uzbekistan-kyrgyzstan-sotrudnichestvo-v-sfere-vysshego-obrazovaniya_616772 (дата обращения: 06.10.2026).

7. Кыргызстан и Узбекистан расширят академическую мобильность студентов // 24.kg. – 04.03.2026. – URL: https://24.kg/obschestvo/364556_kyirgyizstan_iuzbekistan_rasshiryat_akademicheskuyu_mobilnost_studentov/ (дата обращения: 06.10.2026).

8. III Форум ректоров Узбекистана и Кыргызстана начал свою работу // Правительственный портал Республики Узбекистан (Gov.uz). – 29.07.2026. – URL: https://gov.uz/ru/edu/news/view/199052 (дата обращения: 06.10.2026).

ДЕКАПЛИНГ ПРОМЫШЛЕННОГО РОСТА И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ НАГРУЗКИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ НАЦИОНАЛЬНЫХ РЯДОВ К РЕГИОНАЛЬНОЙ МОДЕЛИ PANEL ARDL

Эркаева Бибиробия Камоладдин кизи
независимый соискатель PhD,
Ташкентский государственный
экономический университет

Индустриализация остаётся одним из главных драйверов роста экономики Узбекистана: доля промышленности в ВВП увеличилась с 21,1% в 2017 г. до 26,7% в 2022 г.[266], а в 2025 г. при реальном росте ВВП на 7,7% промышленность выросла на 6,8%[267]. Выработка электроэнергии достигла 86,7 млрд кВт·ч (+6,4% к 2024 г.), причём на «зелёную» генерацию, включая гидроэнергетику, пришлось лишь около 20%[268]. Страна даёт примерно 0,3% мировых выбросов CO_2, но её экономика остаётся одной из наиболее энергоёмких[269]. Ключевой вопрос экологической безопасности — сопровождается ли рост пропорциональным ростом экологической нагрузки либо наблюдается их декаплинг. Цель тезиса — оценить динамику этих процессов по национальным данным за 2017–2025 гг. и обосновать переход к региональной модели Panel ARDL, разрабатываемой в докторской диссертации.

Расчёты основаны на рядах за 2017–2023 гг. из магистерского исследования автора, составленных по данным Агентства статистики[270]: ВВП

[266]Эркаева, 2024 (данные ИМРИ).
Критически важно, что целевой показатель углеродоёмкости не гарантирует снижения нагрузки на промышленные регионы, поэтому вопрос о механизмах и источниках финансирования становится центральным. Цель тезиса — систематизировать финансово-институциональные механизмы обеспечения экологической безопасности промышленности, которые развиваются в третьей главе докторской диссертации на основе магистерского исследования автора.

Первый механизм — ценовой: отмена энергетических субсидий. По оценкам Всемирного банка, она необходима для декарбонизации, вызывает временное замедление роста в первые годы, но сопровождается снижением ущерба от загрязнения воздуха и стимулирует рост в долгосрочной перспективе[302].

В расчётах Всемирного банка предполагается контрциклическая политика: рост социальных трансфертов, снижение налогов на труд и увеличение государственных инвестиций в энергоэффективность на 2,5% ВВП в течение четырёх лет. Следовательно, тарифная реформа без компенсационного пакета и программ энергоэффективности для энергоёмких отраслей остаётся неполной.

Второй механизм — структура финансирования. В 2022 г. государственные расходы составляли 34% ВВП, что выше, чем в большинстве

[300]Обновлённый определяемый на национальном уровне вклад Республики Узбекистан (ОНУВ 3.0). – Ташкент, 2025. URL: https://unfccc.int/sites/default/files/2025-11/Uzbekistan%20Third%20NDC%20rus.pdf
[301]Там же. – С. 12–13.
[302]Всемирный банк. Страновой доклад о климате и развитии: Узбекистан. – Вашингтон, 2023. URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532434/pdf/P1790e5fb890b808f570f046c76bbe10.pdf

стран со сходным уровнем дохода, а поступления от продажи природных ресурсов сокращаются. В сценарии, где половина инвестиций зелёного перехода финансируется государством, отношение госдолга к ВВП может превысить пороговые уровни устойчивости задолго до 2050 г.[303]. Опора на бюджет как основной источник поэтому рискованна; необходимы смешанное финансирование и реформы, повышающие привлекательность отрасли для частных инвестиций. Усиление административного давления — например, ноябрьское поручение 2025 г. предприятиям вдвое сократить выбросы за неделю, предусматривающее пятикратное увеличение компенсационных платежей и приостановку деятельности[304], — действует быстро, но не создаёт стимулов к долгосрочным инвестициям в очистные технологии.

Третий механизм — корпоративно-институциональный, связанный с ESG. В магистерской работе автора выявлены три барьера: отсутствие стандартизации ESG-показателей, затрудняющее сопоставление предприятий для инвесторов[305]; ограниченный доступ к финансированию зелёных проектов, особенно для малых и средних предприятий; недостаточное понимание сотрудниками финансовых институтов связи ESG с их функциями. Так, комплаенс-подразделения банков, предотвращая легализацию доходов от экологических преступлений, фактически реализуют экологическую составляющую ESG, но нередко не воспринимают свою роль таким образом. Международные данные подтверждают проблему: оценки ESG-рейтингов разных агентств для одних и тех же компаний существенно расходятся[306].

Предлагаются следующие направления: 1) поэтапная отмена энергосубсидий с адресной компенсацией и привязкой к программам энергоэффективности предприятий; 2) смешанное финансирование — государственные гарантии и разделение рисков для привлечения частного капитала при ограничении доли прямого бюджетного финансирования; 3) единые требования к раскрытию ESG-информации предприятиями и кредитуемыми проектами; 4) специальные условия кредитования проектов ресурсо- и энергосбережения для малого и среднего бизнеса; 5) программы подготовки специалистов банков и финансовых организаций по ESG, «зелёному» финансированию и комплаенсу; 6) региональная дифференциация мер по результатам панельной модели.

Выводы: 1) эффективность экологической политики определяется не только целевыми показателями, но и источниками финансирования и институциональной готовностью участников; 2) целевой показатель углеродоёмкости необходимо дополнять региональными показателями качества среды; 3) выводы о механизмах носят пока качественный характер и опираются на сценарные расчёты Всемирного банка; их количественная

---

[303]Там же.

[304]Промпредприятиям в Узбекистане поручено сократить выбросы вредных веществ в 2 раза до 1 декабря // Gazeta.uz, 24.11.2025.

[305]Эркаева Б.К. Анализ влияния экологических факторов на экономический рост Республики Узбекистан: магистерская диссертация. – Ташкент: ТГЭУ, 2024. – Гл. 4.5.

[306]Berg F., Kölbel J.F., Rigobon R. Aggregate Confusion: The Divergence of ESG Ratings // Review of Finance. – 2022. – Vol. 26, No. 6. – P. 1315–1344.

проверка на региональном уровне — задача эмпирической части диссертации, где влияние инвестиций и энергоёмкости на экологический показатель оценивается методом Panel ARDL.

Список использованной литературы

1. Обновлённый определяемый на национальном уровне вклад Республики Узбекистан (ОНУВ 3.0). – Ташкент, 2025. URL: https://unfccc.int/sites/default/files/2025-11/Uzbekistan%20Third%20NDC%20rus.pdf
2. Всемирный банк. Страновой доклад о климате и развитии: Узбекистан. – Вашингтон, 2023. URL: https://documents1.worldbank.org/curated/en/099111423124532434/pdf/P1790680e5fb890b808f570f046c76bbe10.pdf
3. Промпредприятиям поручено сократить выбросы вредных веществ в 2 раза до 1 декабря // Gazeta.uz, 24.11.2025. URL: https://www.gazeta.uz/ru/2025/11/24/air-pollution/
4. Эркаева Б.К. Анализ влияния экологических факторов на экономический рост Республики Узбекистан: магистерская диссертация. – Ташкент: ТГЭУ, 2024.
5. Berg F., Kölbel J.F., Rigobon R. Aggregate Confusion: The Divergence of ESG Ratings // Review of Finance. – 2022. – Vol. 26, No. 6. – P. 1315–1344.

DEVELOPING CHARACTERISTIC TOWNS IN CHINA THROUGH CULTURAL IP

Ainiao Wang[307]

Shandong Xiehe University, Jinan 250000, China;
"Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand 140104, Uzbekistan

Abstract: As demand for higher-quality tourism experiences grows and culture becomes more closely integrated with tourism, cultural intellectual property (IP) offers a means of differentiating China's characteristic towns. This paper examines how such towns can be developed through cultural IP. It proposes a three-stage framework of IP positioning, IP development, and IP promotion, and applies it to Nianhuawan in Wuxi, a tourism town inspired by Chan Buddhist culture. Drawing on secondary materials, the case study traces how Nianhuawan positions itself as a destination for spiritual retreat, with a Chan-inspired way of life at the center of its identity. This identity takes shape through narrative naming, architecture and landscape design, complementary tourism businesses, and digital technologies. It is promoted through immersive nighttime performances, experiences tailored to different visitor groups, online and offline communication, and the application of its development model to other destinations. The case illustrates how a cultural theme

[307] Ainiao Wang; Shandong Xiehe University, Jinan, Shandong, China; Lecturer; Ph.D. Candidate; "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage, Samarkand, Uzbekistan; Rural tourism; development of characteristic towns; etc.

can connect destination identity, visitor experiences, and a broader tourism value chain.

Keywords: Characteristic towns; cultural intellectual property; Nianhuawan

IP is short for intellectual property. In its conventional usage, the term concerns intangible assets and rights associated with intellectual creation, including copyright, trademarks, patents, and designs. Within China's cultural industries, however, IP has acquired a broader commercial meaning: recognizable cultural content that can be developed across products, media, and experiences. Xiang and Bai (2017) discuss this relationship between cultural content, audience positioning, and commercial value. The emphasis on intellectual creation is central to this understanding. Creative work gives cultural content a distinctive identity and provides the basis for developing its value.


1 A framework for developing cultural IP in characteristic towns

In the Chinese context, characteristic towns, or tese xiaozhen, are developments organized around distinctive industries and local cultural or environmental resources; they need not correspond to administrative towns. The English term follows established research on this development model (Wu et al., 2018). For these towns, distinctiveness is a defining requirement. Cultural IP gives a recognizable form to that distinctiveness by connecting a core attraction with an integrated value chain.

Developing cultural IP begins with an assessment of local geography, cultural heritage, other resources, and market demand. This assessment identifies the town's distinctive strengths in industry, culture, and the environment. These strengths are then expressed through specific physical, experiential, and media forms and communicated to target markets. The purpose is to establish a coherent theme, increase market appeal and competitiveness, and support economic activity and income growth.

Figure 1.

A framework for developing cultural IP in characteristic towns



The framework comprises three stages. IP positioning identifies the town's distinctive advantages and the theme guiding its development. IP development gives this theme tangible expression and builds the associated value chain. IP promotion communicates the theme, increases recognition, and attracts visitors. Figure 1 shows how the stages are connected. A single cultural theme can take several forms, each of which can reach more than one target market. This relationship is consistent with

recent research treating destination storytelling as a process that connects content, storytellers, modes of presentation, and channels of communication.

2 Developing a Chan-inspired tourism town at Nianhuawan

2.1 Case background

Lingshan Town Nianhuawan is a resort in Wuxi, Jiangsu Province, China. Developed by Lingshan Group over five years with substantial investment, it opened on November 14, 2015. It reportedly received more than 1.4 million paid visits in its first year (Titan Saishiquan, 2020), quickly becoming a widely recognized tourism town. Building on the nearby Lingshan scenic area, the project combined ecological restoration with comprehensive design on the site of the former Gengwan village in Mashan. Its theme draws on Chan, the Chinese Buddhist tradition more widely known internationally as Zen. Architecture inspired by the Tang and Song dynasties is arranged into functional areas that include Xiangyuehua Street, Luming Valley, and Chanxin Valley.

In 2016, the resort introduced the immersive nighttime production Chanxing (A Journey through Chan), which included a pagoda-lighting ceremony and the performance One Flower, Five Petals. These attractions helped establish its reputation for nighttime tourism. The resort subsequently expanded its flower gardens, themed guesthouses, and Chan-inspired activities.

Table 1.

Principal reported honors and awards of Nianhuawan

No.	Category	Honor or award
1	National	First group of National Nighttime Culture and Tourism Consumption Clusters (2021)
2	National	First group of national pilot projects for immersive smart-tourism spaces (2023)
3	National	Nianhua Yixiao included in the National Catalogue of Outstanding Tourism Performances
4	National	National exemplary case of new consumption settings (2024)
5	Jiangsu Province	First group of Jiangsu characteristic towns
6	Jiangsu Province	First group of projects selected for the Jiangsu tourism town development program
7	Jiangsu Province	First group of provincial nighttime culture and tourism consumption clusters
8	Jiangsu Province	Jiangsu demonstration area for consumer confidence
9	Jiangsu Province	Provincial demonstration project for bringing intangible cultural heritage into scenic areas through the Unbounded Spaces initiative
10	Industry	Inaugural Chinese Town Aesthetics Exemplars selection
11	Industry	China Best Tourism Project Award
12	Industry	China's Ten Most Popular Towns selection
13	Industry	Golden Finger Award for a Branded Convention and Exhibition Destination
14	Industry	Jiangsu Top Ten New Scenic Attractions selection

Source: Wuxi Binhu Integrated Media Center; the tourism-performance designation is also documented by the Binhu District Committee (2024). Honor and award names are translated descriptively.

The production Nianhua Yixiao (A Flower and a Smile) followed in 2020. After the COVID-19 pandemic, the resort continued to refine its immersive settings, interactions with costumed performers, and seasonal events. In 2023, it was selected for the first national pilot program for immersive smart-tourism spaces. In 2025, it introduced its AI Tower and regular drone and fireworks performances, extending the use of digital technology in its nighttime attractions (Binhu District Culture, Sports and Tourism Bureau, 2025). These successive additions reflect an effort to turn short-lived online attention into sustained appeal as a holiday destination. Reported cumulative visits have exceeded 10 million, alongside growth in local employment and tourism-related rural incomes. Table 1 lists its principal reported honors and awards.

2.2 IP positioning

Nianhuawan positions itself as a destination for a Chan-inspired spiritual retreat. This positioning translates local cultural resources into an offer that responds to contemporary tourism demand. Instead of reproducing the conventional model of a Buddhist sightseeing attraction, it emphasizes the relaxation, introspection, and slower pace of life associated with Chan. The resulting shift in emphasis, from religious sightseeing to a restorative holiday, supports its development into a destination for extended and more involved stays.

The site on the Mashan Peninsula lies close to established attractions such as the Lingshan Grand Buddha and Brahma Palace. The area's association with the World Buddhist Forum and its established Buddhist tourism activities provide a cultural basis for the theme. Lingshan Group's more than two decades of experience in Buddhist cultural tourism also give it organizational capabilities in cultural interpretation and content planning. Such capabilities help turn the proposed identity into an operating destination. Yet existing religious resources alone cannot sustain a resort town. They establish the starting point for positioning, while the eventual direction of the IP must also respond to market demand.

In the Yangtze River Delta, tourism demand has increasingly extended beyond sightseeing to leisure and holidays. Visitors seek emotional relaxation and meaningful experiences alongside visits to well-known attractions. Urban middle-class consumers in Shanghai, Suzhou, and Hangzhou form an important market for aesthetically appealing settings, a carefully designed atmosphere, and opportunities for personal retreat. The growth of boutique guesthouses in Moganshan provides a comparable expression of this demand. Located roughly two to three hours' drive from the Mashan Peninsula, these urban markets constitute Nianhuawan's main catchment area. Lingshan Group brought the region's Buddhist cultural resources together with urban consumers' desire for respite, making a Chan-inspired way of life the core of its IP. Its positioning presents Chan as an approach to everyday living, extending beyond incense offerings and religious worship, and helps distinguish the resort from conventional religious attractions.

2.3 IP development

Narrative naming establishes a connected set of cultural symbols. The name Nianhuawan draws on the Chan account in which the Buddha holds up a flower and his disciple Mahākāśyapa responds with a smile. This allusion associates the

destination with joy, ease, and understanding beyond words. The overall layout evokes a five-petalled lotus and organizes the site into five valleys, one street, and one hall. The names of these spaces reinforce the same narrative, giving visitors a consistent set of cultural cues as they move through the town. Naming thereby connects individual places to the destination's wider story, a relationship also emphasized in research on destination storytelling (Zhang and Ramayah, 2024).

Architecture and landscape design translate cultural aesthetics into the built environment. The buildings draw on Tang- and Song-dynasty styles, incorporate East Asian Chan-inspired design, and follow the waterways characteristic of Jiangnan, the region south of the lower Yangtze River. The design seeks to make the landscape appear to grow naturally from its setting, with buildings integrated into their surroundings. The selection of thatch for the Shanlu building illustrates the attention to materials. The development team reportedly collected more than twenty natural materials from several Chinese provinces and Bali, compared their performance under outdoor exposure, and invited overseas craftspeople to construct samples on site. The selection process took thirteen months and involved eighteen organizations. Artificial substitutes with an unsatisfactory appearance and natural materials with insufficient durability were rejected before two materials were chosen for their combination of appearance and service life.

A complementary mix of businesses turns the cultural theme into a functioning tourism value chain. Beyond its physical setting, Nianhuawan offers accommodation, food, shopping, and activities organized around the experience of a Chan-inspired stay. Xiangyuehua Street accommodates themed restaurants and craft activities; Luming and Zhuxi valleys provide upscale resort accommodation; and Chanxin Valley serves meetings and educational visits. Sutra copying, flower arranging, ocarina playing, and tea ceremonies translate Chan from a visual theme into activities in which visitors can participate. The resort later introduced an original character, the Smiling Chan Practitioner. Drawing on the traditional Huishan clay-figurine craft, it developed dolls, scented sachets, and auspicious gift pouches, extending its cultural IP into merchandise.

Digital technologies provide further ways to express the theme. Since 2020, Nianhuawan has expanded the use of technology in its cultural tourism offer. The AI Tower, drone formations, and water-screen projections create scenes such as the opening of a blue lotus. Familiar symbols, including the flower and lotus, become elements of immersive digital performances. Selection for the national pilot program for immersive smart-tourism spaces reflects this broader development. Digital media extend the expressive range of the Chan theme while retaining its recognizable visual and cultural references (Binhu District Culture, Sports and Tourism Bureau, 2025).

2.4 IP promotion

Immersive nighttime performances provide a focal point for promotion. Introduced in 2016, Chanxing guides visitors through a sequence of outdoor scenes, including the pagoda-lighting ceremony, One Flower, Five Petals, and Crossing the River on a Reed. Holographic effects, water screens, and live performance allow visitors to watch as they move through the site, extending the performance beyond a conventional theater. It was among the earlier large-scale open-air immersive

nighttime tourism projects in China. The resort's performance offer has been revised repeatedly; Nianhua Yixiao was subsequently included in the National Catalogue of Outstanding Tourism Performances (Binhu District Committee, 2024). Nighttime attractions encourage longer stays and spending on guesthouses and other accommodation. Local reporting records more than 200 additional boutique inns and guesthouses in the surrounding resort area since Nianhuawan opened, with tourism supporting nearly 10,000 jobs directly or indirectly (Wuxi Binhu Integrated Media Center, 2025). These figures suggest links with the wider local tourism economy, although they do not isolate the causal effect of the performances or of the resort itself.

Experiences tailored to different visitor groups broaden the IP's audience. The offer extends beyond a small group of committed Chan practitioners to families and visitors of different ages. For urban office workers, regular activities such as sutra copying, Chan-inspired meals, seated meditation, and walking meditation with an alms bowl provide opportunities to slow down and relax. Families with children can take part in summer activity trails, clay modeling, and introductory tea activities, which place greater emphasis on shared leisure and less on religious observance. Regular walking meditation, flower arranging, ocarina, and tea sessions give visitors activities to join throughout the year.

Online and offline communication maintain public visibility. On site, display banners, repeated screenings in small theaters, and organized events direct visitors' attention to available experiences. Online, the official WeChat account and mini-program distribute event information, while travel accounts and short videos on third-party platforms circulate through visitors' own networks. A survey by Chen and Wu (n.d.), covering residents and visitors at Nianhuawan and Lingshan, found that 62% of respondents had learned about Nianhuawan through the internet. This finding concerns that survey sample, but it indicates the importance of online information in the destination's early promotion. More recent research likewise shows how verbal and visual elements in short tourism videos construct recognizable destination images (Du and Cheong, 2025). Seasonal campaigns provide recurring subjects for communication and are intended to sustain interest beyond peak holidays.

Applying the model to other destinations turns project experience into a wider brand asset. Nianhuawan Cultural Tourism combines concept development, planning, construction, and operation, transferring its approach to projects with different local cultural themes. Examples include Luyuan Village at Nishan in Shandong, where the emphasis is on Confucian culture; Jinling Town in Nanjing, which evokes the cultural life of the Six Dynasties; and the Nalati project in Xinjiang, which draws on grassland and nomadic traditions (Wuxi Binhu Integrated Media Center, 2025). This expansion marks a move from operating a single attraction to providing cultural IP development services. Projects elsewhere can, in turn, increase recognition of the original destination and extend the commercial reach of its brand.

References

1.Binhu District Committee: Report on progress in implementing inspection rectification measures [In Chinese]. Available online (2024/03/27).

2.Binhu District Culture, Sports and Tourism Bureau: Nianhuawan's AI Tower receives a provincial award [In Chinese]. Available online (2025/08/18).

3.Du, S., Cheong, C.Y.M.: Beyond the scenic view: a multimodal discourse analysis of sustainable tourism imaginaries on TikTok in Anhui, China.Humanities and Social Sciences Communications12, Article 690 (2025).

4.He, R.: Cultural IP design for revolutionary-heritage imagery in characteristic towns: the case of Dongxuan Fairy Tale Town [In Chinese].Zhuangshi(8), 128–129 (2021).

5.Titan Saishiquan: Discussing the night-time economy: how Nianhuawan Cultural Investment develops its nighttime tourism offer [In Chinese]. Sohu. Available online (2020/10/25).

6.Wu, Y., Chen, Y., Deng, X., Hui, C.M.: Development of characteristic towns in China.Habitat International77, 21–31 (2018).

7.Wuxi Binhu Integrated Media Center: What makes Nianhuawan? [In Chinese]. Wuxi Binhu Release, hosted by The Paper. Available online (2025/11/15).

8.Xiang, Y., Bai, X.: Audience positioning and value evolution in cultural-industry IP development under the new normal [In Chinese]. Journal of Peking University (Philosophy and Social Sciences)54(1), 123–132 (2017).

9.Yang, X., Gao, H.: New pathways for realizing the value of agricultural heritage through IP development [In Chinese]. Journal of Northwest Minzu University (Philosophy and Social Sciences) (2), 178–188 (2025).

ЯШИЛ ИШ ЎРИНЛАРИНИ ЯРАТИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ АҲАМИЯТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Асқарова Муҳаббат Ибрахимовна
катта илмий ходим
ТДИУ ҳузуридаги "Ўзбекистон иқтисодиётини ривожлантиришнинг илмий асослари ва муаммолари" илмий-тадқиқот маркази


Иқлим ўзгариши, ресурслар чекланганлиги ва технологик трансформация меҳнат бозорининг тармоқ таркиби ҳамда касбий малакага бўлган талабини ўзгартирмоқда. Шу шароитда "яшил иш ўринлари" экологик хавфларни камайтириш билан бирга инвестиция, унумдорлик ва муносиб бандлик ўртасидаги боғланишни кучайтиради. Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ) бу атамани атроф-муҳитни сақлаш ёки тиклашга ҳисса қўшадиган муносиб иш ўринлари сифатида тавсифлайди [1]. Демак, экологик маҳсулот ишлаб чиқаришнинг ўзи етарли эмас: иш ҳақи, меҳнат муҳофазаси ва ижтимоий ҳимоя мезонлари ҳам инобатга олиниши шарт.

Яшил иш ўринлари икки ўлчамда намоён бўлади: биринчиси – экологик товар ва хизматларни (масалан, қуёш электр энергияси) ишлаб чиқариш; иккинчиси – анъанавий тармоқларда энергия, сув ва хом ашё сарфини

қисқартирадиган иш жараёнлари. ХМТнинг статистик ёндашуви экологик сектордаги бандлик ва муносиб меҳнат талабига жавоб берувчи “яшил” бандликни фарқлайди [2]. 2022 йилги тизимли адабиётлар шарҳи тушунча бўйича ягона халқаро чегара йўқлигини, бироқ “барқарор ривожланиш – айланма иқтисодиёт – меҳнат бозори – таълим” алоқалари устувор эканини кўрсатган [3].

Яшил иш ўрнини фақат корхонанинг соҳаси билан эмас, балки иш вазифасининг экологик натижаси, ходимнинг малакаси ва муносиб меҳнат сифати орқали баҳолаш мақсадга мувофиқ. Бундай ёндашув рақамли мониторинг, ресурс тежамкор технологиялар ва яшил касблар учун таълим стандартларини ягона тизимда бирлаштиради.

Ушбу занжирда инвестиция фақат ускуна харидини эмас, балки ўқитиш, сертификатлаш, иш берувчи билан ҳамкорлик ва барқарор иш шароитларини молиялаштиришни ҳам қамраб олади. Шу сабабли яшил иқтисодиётга ўтиш инсон капиталини ривожлантириш сиёсати билан бирга олиб борилиши лозим.



1-расм. Яшил бандликни шакллантириш кетма -кетлиги

ХМТнинг 2018 йилги “World Employment and Social Outlook: Greening with Jobs” ҳисоботида тўғри сиёсат шароитида 2030 йилгача 24 миллион янги иш ўрни яратилиши мумкинлиги баҳоланган [4]. Жаҳон ресурслари институти (WRI) 2026 йилги таҳлили эса келгуси ўн йилда энергетика, қурилиш, ишлаб чиқариш ва қишлоқ хўжалиги доирасида қарийб 375 миллион қўшимча иш ўрни имкониятини қайд этган; шундан тахминан 280 миллиони иқлимга мослашув билан боғлиқ бўлиши мумкин [5]. Бу икки прогноз бир хил статистик кўрсаткич эмас: давр, тармоқ қамрови ва сценарий фаразлари фарқ қилади.

1-жадвал

Яшил иқтисодиёт тармоқлари ва ёшлар учун касбий йўналишлар

Тармоқ	Иш вазифалари	Зарур кўникмалар
Қайта тикланувчи энергия	Қуёш панеллари монтажи, техник хизмат	Электротехника, техник хавфсизлик
Энергия тежамкор қурилиш	Энергия аудити, иссиқлик изоляцияси	Ўлчаш, қурилиш ва HVAC
Айланма иқтисодиёт	Саралаш, қайта ишлаш, ресурс ҳисоби	Логистика, экологик мониторинг
Барқарор аграр тармоқ	Сув тежаш, агротехнология, тиклаш	Агрономия, рақамли назорат
Яшил транспорт	Электротранспортга хизмат кўрсатиш	Электромеханика, диагностика

Манба: *ХМТ таърифи ва тақдим этилган соҳавий материаллар асосида муаллиф томонидан тизимлаштирилган [1; 3].*

Ёшлар учун асосий имконият – яшил касблар кўп ҳолларда бутунлай янги мутахассисликни эмас, балки мавжуд техник, аграр ва рақамли

компетенцияларни янгилашни талаб қилишидадир. Шу билан бирга, иш берувчининг реал талабини ҳисобга олмаган ўқув дастури меҳнат бозорида малака номутаносиблигини кучайтириши мумкин.

Ҳиндистоннинг Ражастан штатидаги Kiran Energy компаниясига тегишли 20 МВт қуёш фотоэлектр лойиҳаси бандликни босқичлар бўйича баҳолаш намунасидир. CEEW ва NRDC ҳисоботи биринчи йил доирасида жами 180,8 FTE иш ҳажмини кўрсатади; шу билан бирга эксплуатация даврида малака талаб этадиган 8 FTE/йил ва бошқа ишлар учун 36,9 FTE/йил ҳисобланган [6]. FTE – бир нафар тўлиқ иш вақтидаги ходим меҳнатига эквивалент бирлик; вақтинчалик қурилиш босқичи ва йиллик хизмат кўрсатиш кўрсаткичлари бир-бирига қўшилиб кетмаслиги керак.

Филиппинда яшил иш ўринларини қўллаб-қувватлаш қонунчилик, идоралараро мувофиқлаштириш ва таълим сиёсатини боғлаш орқали амалга оширилмоқда [5]. Покистонда K-Electric компаниясининг “Roshni Baji” дастури аёлларни электротехникага тайёрлаш йўли билан яшил энергетикада иштирок учун кўникмалар яратиш мисолидир [5]. Кенияда эса таклиф этилаётган яшил молиявий рағбатлар, кредит кафолатлари ва облигациялар орқали барқарор қишлоқ хўжалиги ҳамда кичик бизнес инвестицияларини жалб этиш механизми илгари сурилган [5].

Тақдим этилган тадқиқотлар асосида Ўзбекистонда “яшил бандлик”ни ривожлантиришнинг тўрт ўзаро боғлиқ вазифаси ажратилади. Биринчидан, яшил иш ўринларини ҳисобга олишда маҳсулот, иш жараёни ва муносиб меҳнат мезонларини акс эттирувчи миллий тасниф ҳамда FTE ҳисобот шаклларини ишлаб чиқиш зарур. Иккинчидан, касб-ҳунар ва олий таълим дастурлари ҳудудий инвестиция лойиҳаларидаги аниқ вакансиялар билан боғланиши керак. Учинчидан, яшил инвестиция шартномаларида маҳаллий ишчи кучини ўқитиш, амалиётга қабул қилиш ва хавфсиз меҳнат шартларига оид индикаторларни белгилаш мақсадга мувофиқ. Тўртинчидан, технологик ўзгаришлар туфайли иш вазифаси ўзгарадиган ходимлар учун қайта тайёрлаш ва ижтимоий ҳимоя чоралари ташкил этилиши лозим.

2-жадвал

Ўзбекистон учун таклиф этилаётган амалий механизмлар

Муаммо	Таклиф этиладиган механизм	Баҳолаш индикатори
Статистик ҳисобда фарқлар	Яшил бандлик реестри ва ягона мезон	FTE, муносиб иш улуши
Малака номутаносиблиги	Дуал таълим ва микросертификатлар	Таълимдан ишга ўтиш улуши
Ҳудудий тенгсизлик	Лойиҳа–коллеж–иш берувчи кластерлари	Маҳаллий ёшлар бандлиги
Инвестиция–бандлик узилиши	Шартномада касбий тайёрлаш мажбурияти	1 МВтга тўғри келадиган FTE
Ижтимоий хавфлар	Қайта тайёрлаш ва ижтимоий ҳимоя	Қайта ишга жойлашиш улуши

Ушбу тажрибаларнинг умумий хулосаси шуки, яшил иш ўринларини яратиш фақат экологик мақсад қўйиш билан чекланмайди: таълим тизими,

меҳнат бозори маълумотлари, инвестиция воситалари ва ижтимоий ҳимоя бир пайтда ишлаши керак. Акс ҳолда янги технологияларнинг жорий этилиши ҳудудлар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасида бандлик номутаносиблигини кучайтириши мумкин.

Хулоса. Яшил иқтисодиётга ўтиш ёшлар бандлигини диверсификация қилиш, меҳнат унумдорлигини ошириш ва ҳудудий ривожланишни қўллаб-қувватлаш имкониятини беради. Бироқ иш ўринлари сонининг кўпайиши автоматик жараён эмас; унинг кўлами инвестиция сифати, касбий тайёргарлик, инфратузилма ва меҳнат ҳуқуқлари ҳимоясига боғлиқ. Шу боис Ўзбекистонда яшил бандликни ривожлантириш сиёсати “инвестиция – кўникма – муносиб иш – экологик самара” тамойили асосида баҳоланиши, ёшларнинг янги касбларга кириш имконияти эса мустақил натижа кўрсаткичи сифатида қайд этилиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. International Labour Organization. What is a green job? https://www.ilo.org/topics-and-sectors/just-transition-towards-environmentally-sustainable-economies-and-societies/what-green-job
2. International Labour Organization. A new milestone towards an international statistical definition of green jobs. 17.10.2013. https://www.ilo.org/resource/news/new-milestone-towards-international-statistical-definition-green-jobs
3. Green Jobs—A Literature Review. International Journal of Environmental Research and Public Health. 2022, 19(13), 7998. https://doi.org/10.3390/ijerph19137998
4. ILO. World Employment and Social Outlook 2018: Greening with Jobs. Geneva: ILO, 2018. ISBN 978-92-2-131647-3. https://www.ilo.org/publications/world-employment-and-social-outlook-2018-greening-jobs
5. Dasgupta A., Steer L., Hoven I.-G. Climate Action Can Be One of the World’s Biggest Job Creators. WRI, 12.02.2026. https://www.wri.org/insights/climate-action-job-creation
6. CEEW; NRDC. Creating Green Jobs: Employment Created by Kiran Energy’s 20-Megawatt Solar Plant in Rajasthan, India. 2014. https://www.ceew.in/publications/creating-green-jobs

5-SHO‘BA. MINTAQAVIY RIVOJLANISH BO‘YICHA FANLARARO TADQIQOTLAR: SOTSIOLOGIYA, HUDUDIY BRENDLAR, YANGI IQTISODIY GEOGRAFIYA VA KREATIV IQTISODIYOT

HUDUDIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA OVQATLANISH XIZMATLARI VA RESTORAN BIZNESINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Abdullayeva Dilnoza Bekchan qizi
“Turizm va mehmondo‘stlik” yo‘nalishi
Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

Hozirgi sharoitda turizmni hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida qarash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turizmning rivojlanishi nafaqat sayyohlik obyektlarining mavjudligi, balki turistlarga ko‘rsatiladigan kompleks xizmatlarning sifati bilan ham belgilanadi. Mazkur xizmatlar tarkibida joylashtirish, transport, ekskursiya va ko‘ngilochar xizmatlar bilan bir qatorda ovqatlanish xizmatlari ham alohida o‘rin egallaydi.

Turistning hudud haqidagi umumiy taassuroti ko‘p jihatdan unga ko‘rsatilgan xizmatlarning qulayligi va sifatiga bog‘liq. Ayniqsa, mahalliy taomlar, milliy oshxona, restoranlarning xizmat ko‘rsatish madaniyati va o‘ziga xos gastronomik muhiti hududning turistik jozibadorligini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli restoran biznesini turizm infratuzilmasining oddiy tarkibiy qismi emas, balki hududiy turistik mahsulotni shakllantiruvchi muhim omil sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Hududiy turizm va restoran biznesi o‘rtasidagi iqtisodiy aloqadorlikni “turistik salohiyat – turistlar oqimi – ovqatlanish xizmatlariga talab – restoran biznesining rivojlanishi – yangi ish o‘rinlari va daromadlar – hududiy iqtisodiy faollik” ketma-ketligi orqali ifodalash mumkin. Ushbu jarayonda restoranlar turistlarning fiziologik ehtiyojini qondirish bilan cheklanmasdan, ularga hududning madaniy va gastronomik xususiyatlarini namoyish etuvchi xizmatni ham taklif qiladi.

O‘zbekiston hududlari milliy oshxona va gastronomik an’analarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mazkur imkoniyatdan turistik mahsulotni diversifikatsiya qilishda yetarlicha foydalanish mumkin. Xususan, mahalliy taomlarni restoran menyusiga kiritish, taomlarning kelib chiqishi va tayyorlanish texnologiyasini turistlarga namoyish etish, milliy oshpazlik bo‘yicha mahorat darslarini tashkil etish va gastronomik yo‘nalishlarni turistik marshrutlarga qo‘shish hududning o‘ziga xosligini kuchaytiradi.

Bizning fikrimizcha, hududiy restoran biznesining raqobatbardoshligi faqat taomlarning narxi yoki menyu xilma-xilligi bilan emas, balki “mahalliylik + sifat + servis + raqamli qulaylik” uyg‘unligi bilan belgilanishi lozim. Bunday yondashuv restoran xizmatini standart xizmatdan hududning turistik tajribasini shakllantiruvchi mahsulotga aylantirish imkonini beradi.

Restoran biznesini rivojlantirishda xizmat sifati ham muhim masalalardan biridir. Turistlar uchun xizmat ko‘rsatish tezligi, xodimlarning muomala madaniyati,

sanitariya-gigiyena talablari, menyuning tushunarli shaklda taqdim etilishi, narxlarning shaffofligi va to‘lov imkoniyatlarining qulayligi muhim ahamiyatga ega. Shu bois restoran xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini muntazam oshirib borish va mijozlar fikrini o‘rganish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Bundan tashqari, restoran biznesida raqamli texnologiyalardan foydalanish xizmat ko‘rsatish jarayonlarini takomillashtirish imkonini beradi. Elektron menyu, QR-kod orqali buyurtma berish, onlayn bron qilish, elektron to‘lov, yetkazib berish xizmatlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qilish kabi vositalar turistlar uchun xizmatlardan foydalanish jarayonini soddalashtiradi. Raqamlashtirish restoran korxonalariga mijozlarning talabini yaxshiroq o‘rganish va marketing faoliyatini takomillashtirish imkonini ham beradi.

Restoran biznesining hududiy iqtisodiyotga ta’sirini kuchaytirishning yana bir muhim yo‘nalishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishdir. Mahalliy fermer va tadbirkorlardan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish hudud ichidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Natijada turizm orqali yaratilgan iqtisodiy qiymatning bir qismi mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi subyektlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Shuningdek, restoran biznesini hududiy brendlash jarayoniga jalb qilish maqsadga muvofiq. Muayyan hududga xos taom yoki gastronomik an’ana turistning xotirasida hudud nomi bilan bog‘lanishi mumkin. Shu jihatdan restoranlar nafaqat ovqatlanish korxonasi, balki hududning madaniy va gastronomik brendini targ‘ib qiluvchi subyekt sifatida faoliyat yuritishi kerak.

O‘tkazilgan tahlillar asosida hududiy turizm sharoitida ovqatlanish xizmatlari va restoran biznesini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi takliflarimizni ilgari suramiz:

1. Turistik hududlarda mahalliy gastronomik mahsulotlarga ixtisoslashgan restoranlar faoliyatini rag‘batlantirish va ularni hududning turistik brendi bilan bog‘lash.

2. Restoran menyularida hududga xos milliy taomlarning ulushini oshirish hamda turistlarga taomlarning tarixi, tarkibi va tayyorlanish jarayoni haqida qisqa ma’lumot berish.

3. Restoranlarda QR-menyu, elektron buyurtma, onlayn bron va elektron to‘lov tizimlarini keng joriy etish orqali xizmat ko‘rsatishning tezligi va qulayligini oshirish.

4. Restoran xodimlari uchun xorijiy tillar, servis madaniyati, gastronomik turizm va mijozlar bilan kommunikatsiya bo‘yicha qisqa muddatli malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

5. Restoranlar, mehmonxonalar, turoperatorlar va mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali yagona hududiy turistik xizmatlar zanjirini shakllantirish.

6. Hududlarda gastronomik festivallar, milliy taomlar ko‘rgazmalari va oshpazlik mahorat darslarini turistik tadbirlar dasturiga kiritish.

Xulosa qilib aytganda, ovqatlanish xizmatlari va restoran biznesining rivojlanishi hududiy turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omillardan biridir. Restoran xizmatlarini turistik mahsulot bilan integratsiyalash

orqali turistlarning hududdagi tajribasini boyitish, mahalliy gastronomik merosni ommalashtirish va tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Bizning fikrimizcha, kelgusida hududiy turizmni rivojlantirish siyosatida restoran biznesini faqat xizmat ko‘rsatish sohasi sifatida emas, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish, gastronomik brendlash va turistik raqobatbardoshlikni ta’minlovchi kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida ko‘rib chiqish lozim. Buning uchun xizmat sifati, raqamlashtirish, mahalliy mahsulotlardan foydalanish, gastronomik brendlash va kadrlar salohiyatini oshirish bir-birini to‘ldiruvchi yagona tizimda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasining turizm sohasini rivojlantirishga oid rasmiy ma’lumotlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm va xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar.

4. O‘zMSt ISO 21621:2025. Turizm va unga bog‘liq xizmatlar. An’anaviy restoranlar. Vizual jihatlar, bezatish va xizmatlar.

O‘ZBEKISTON SHAHARLARIDA XIZMATLAR SOHASI RIVOJLANISHINING HUDUDIY TAFOVUTLARI: YANGI IQTISODIY GEOGRAFIYA YONDASHUVI

Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o‘g‘li
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston shaharlarida xizmatlar sohasi rivojlanishining hududiy tafovutlari yangi iqtisodiy geografiya yondashuvi asosida tahlil qilinadi. Milliy statistika qo‘mitasining 2025-yil yakunlari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimidagi dastlabki ma’lumotlari asosida bozor xizmatlari hajmi hamda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi qiyoslandi. Natijalar xizmatlar faoliyati yirik ma’muriy, turistik, sanoat va transport markazlarida nisbatan yuqori darajada jamlanishini, biroq mutlaq hajm va jon boshiga ko‘rsatkich bo‘yicha shaharlar reytingi bir xil emasligini ko‘rsatadi. Bu holat hududiy bozor sig‘imi, aglomeratsiya samaralari, infratuzilma, aholi zichligi va funksional ixtisoslashuvning xizmatlar iqtisodiyotiga ta’sirini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sohasi, shahar iqtisodiyoti, hududiy tafovut, yangi iqtisodiy geografiya, aglomeratsiya, bozor xizmatlari, hududiy rivojlanish.

Hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy farqlarni baholashda xizmatlar sohasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi iqtisodiy geografiya (New Economic Geography) – iqtisodiy faoliyat nima sababdan ayrim hududlarda jamlanishi, boshqalarida esa nisbatan sust rivojlanishini bozor mexanizmlari orqali tushuntiruvchi yondashuvdir.

P. Krugman (1991) ushbu yondashuvda miqyos samarasi, transport xarajatlari va bozor sig‘imining o‘zaro ta’siri natijasida iqtisodiy faoliyatning ‘markaz–periferiya’ ko‘rinishida shakllanishini asoslaydi. Talab va korxonalar bir hududda to‘plangan sari u yerda yangi faoliyatlarni joylashtirish jozibadorligi ortadi; bu esa aglomeratsiya, ya’ni aholi, biznes va infratuzilmaning hududiy jamlanishidan kelib chiqadigan iqtisodiy afzalliklarni kuchaytiradi. Mazkur tezisda ushbu nazariy mantiq O‘zbekiston shaharlaridagi xizmatlar hajmi va aholi jon boshiga xizmatlar ko‘rsatkichlaridagi tafovutlarni izohlash uchun qo‘llaniladi.

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 050 292,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. 2024-yilda ushbu ko‘rsatkich 840 146,5 mlrd so‘m bo‘lgan. Nominal hajmning bir yil ichida 210 146,0 mlrd so‘mga yoki qariyb 25 foizga ortishi xizmatlar sektorining iqtisodiyotdagi miqyosi kengayayotganini ko‘rsatadi. Biroq bu o‘sish hududiy jihatdan bir tekis taqsimlanmagan: viloyat markazlari va yirik shaharlarda xizmatlar bozori boshqa hududlarga nisbatan ancha katta.

Jadval ma’lumotlari mutlaq xizmatlar hajmi bo‘yicha Samarqand shahrining ajralib turishini ko‘rsatadi: 22 391,9 mlrd so‘m. Keyingi o‘rinlarda Andijon (13 343,2 mlrd so‘m), Namangan (12 619,5 mlrd so‘m), Buxoro (12 557,7 mlrd so‘m) va Farg‘ona (12 191,0 mlrd so‘m) shaharlari joylashgan. Ushbu natijalar yirik aholi markazlari va ma’muriy markazlarda iste’mol bozori, transport oqimlari, savdo hamda biznes xizmatlari ko‘lami kattaroq ekanini ko‘rsatadi. Samarqandning yuqori ko‘rsatkichi uning yirik urbanistik markaz bo‘lishi bilan birga turizm, transport va xizmat ko‘rsatish funksiyalarining bir hududda jamlanganligi bilan ham izohlanishi mumkin.

1-jadval

2025-yilda ayrim yirik shaharlarda bozor xizmatlari ko‘rsatkichlari

Shahar	Xizmatlar hajmi, mlrd so‘m	Aholi jon boshiga, ming so‘m
Samarqand	22 391,9	37 270,2
Andijon	13 343,2	26 793,7
Namangan	12 619,5	17 510,1
Buxoro	12 557,7	41 526,7
Farg‘ona	12 191,0	36 753,1
Nukus	9 017,1	25 985,9
Qarshi	8 895,5	29 300,2
Urganch	8 638,0	55 089,1
Navoiy	7 777,9	46 050,3
Jizzax	7 639,5	37 875,6
Termiz	6 170,2	29 367,9
Guliston	4 191,5	40 576,2

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi SIAT ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. 2025-yil ma’lumotlari dastlabki.

Biroq shahar iqtisodiyotining xizmatlar bilan ta’minlanganlik darajasini faqat mutlaq hajm orqali baholash yetarli emas. Aholi jon boshiga hisoblanganda shaharlar o‘rtasidagi nisbat sezilarli o‘zgaradi. Tanlangan shaharlar ichida Urganchda 55 089,1 ming so‘m, Navoiyda 46 050,3 ming so‘m, Buxoroda 41 526,7 ming so‘m, Gulistonda 40 576,2 ming so‘m, Jizzaxda 37 875,6 ming so‘m va

Samarqandda 37 270,2 ming so‘m xizmatlar to‘g‘ri kelgan. Namangan shahrida mutlaq xizmatlar hajmi yuqori bo‘lsa-da, jon boshiga ko‘rsatkich 17 510,1 ming so‘mni tashkil etgan. Bu farq shahar aholisi soni va bozor sig‘imi mutlaq ko‘rsatkichga kuchli ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari yangi iqtisodiy geografiyaning markaz–periferiya mexanizmi bilan uyg‘unlashadi. Yirik markazlarda iste’molchilar, korxonalar hamda moliyaviy va transport infratuzilmasining zich joylashuvi xizmat ko‘rsatuvchilar uchun bozorni kengaytiradi. Xizmatlar taklifining ko‘payishi esa o‘z navbatida aholi va biznes uchun mazkur shaharlarning jozibadorligini oshirib, aglomeratsiya samarasini kuchaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, yuqori jon boshiga ko‘rsatkich faqat shahar kattaligiga bog‘liq emas. Urganch, Navoiy, Buxoro va Guliston misoli shaharlarning funksional ixtisoslashuvi ham muhimligini ko‘rsatadi. Turizm va savdo markazi, sanoat markazi yoki hududiy ma’muriy markaz sifatidagi funksiyalar mahalliy aholidan tashqari boshqa tuman va hududlardan keluvchi talabni ham jalb qiladi. Natijada shaharda yaratilgan xizmatlar qiymati uning doimiy aholisi soniga nisbatan yuqori bo‘lishi mumkin. Demak, hududiy siyosatda xizmatlar sektorini rivojlantirishni faqat demografik o‘lcham bilan emas, balki shaharning iqtisodiy funksiyasi va uning atrof hududlar bilan aloqalari bilan birgalikda baholash zarur.

Mazkur yondashuvda hududiy konsentratsiya tasodifiy jarayon sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq iqtisodiy kuchlar natijasi sifatida qaraladi. Bir tomondan, markazga intiluvchi kuchlar – katta bozor, malakali mehnat resurslari, yetkazib beruvchilar va iste’molchilarga yaqinlik, infratuzilma hamda bilim almashinuvi – korxona va xizmat ko‘rsatuvchilarni yirik shaharlarda jamlanishga undaydi. Ikkinchi tomondan, yuqori ijara va yer narxlari, tirbandlik, ekologik yuklama hamda raqobatning kuchayishi markazdan qochuvchi kuchlarni yuzaga keltiradi. Shu sababli shaharlar o‘rtasidagi xizmatlar hajmi farqini faqat aholi soni bilan izohlash yetarli emas; hududning boshqa bozorlar bilan bog‘langanligi, transport qulayligi va iqtisodiy faoliyatning xilma-xilligi ham hisobga olinishi lozim. O‘zbekiston shaharlaridagi kuzatilayotgan tafovutlar ham aynan shu omillar birikmasi bilan izohlanishi mumkin.

2025-yil ma’lumotlari mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish zarurligini ham ko‘rsatadi. Masalan, Samarqand xizmatlar hajmi bo‘yicha tanlangan shaharlar orasida yetakchi bo‘lsa, aholi jon boshiga xizmatlar hajmida Urganch va Navoiy yuqoriroq natija qayd etgan. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, birinchidan, hududiy xizmatlar siyosatida barcha shaharlar uchun bir xil yondashuvdan voz kechib, ularning funksional ixtisoslashuviga mos “o‘sish nuqtalari”ni shakllantirish maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, xizmatlar hajmi nisbatan past shaharlarda transport va raqamli infratuzilmani yaxshilash orqali yirik markazlarning bozoriga ulanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, viloyat markazlarida shakllangan xizmatlar klasterlarining yaqin tumanlarga tarqalishini rag‘batlantirish uchun shahar atrofi transporti, elektron savdo, logistika va biznes xizmatlari tarmoqlarini rivojlantirish zarur. To‘rtinchidan, hududiy rivojlanishni monitoring qilishda mutlaq xizmatlar hajmi bilan bir qatorda aholi jon

boshiga xizmatlar hajmi va shaharlarning funksional ixtisoslashuvini aks ettiruvchi indikatorlardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yil ma’lumotlari O‘zbekiston shaharlarida xizmatlar sohasi rivojlanishi sezilarli hududiy tafovutlarga ega ekanini ko‘rsatadi. Mutlaq hajm bo‘yicha yirik urbanistik markazlar ustunlik qilsa, aholi jon boshiga hisoblangan ko‘rsatkichlarda ayrim o‘rta kattalikdagi ma’muriy, sanoat va turistik markazlar yuqori natija qayd etmoqda. Bu esa xizmatlar iqtisodiyotining hududiy rivojlanishida aholi sonidan tashqari aglomeratsiya, funksional ixtisoslashuv, infratuzilma va hududlararo iqtisodiy aloqalar muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Mazkur omillarni hisobga olish shaharlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish va xizmatlar sektorining hududiy multiplikativ ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yillik, tuman va shaharlar kesimida). https://siat.stat.uz/data/4482/?lang=uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmi (yillik, tuman va shaharlar kesimida). https://siat.stat.uz/data/3414/?lang=uz

3. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. 1991. Vol. 99, No. 3. P. 483–499. https://doi.org/10.1086/261763

MEHMONXONA XO‘JALIKLARIDA AUTSORSING VA KEYTERING XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Davlanov Baxriddin
Qarshi davlat texnika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxona xo‘jaliklarida autsorsing va keytering xizmatlari samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmining asosiy elementlari, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmning o‘ziga xos jihati, autsorsing va keytering xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmining asosiy bosqichlari hamda baholash mezonlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: mehmonxona xo‘jaligi, autsorsing va keytering xizmatlari, samaradorlig, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm, mexanizm elementlari.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va geoaxborot tizimlarining integratsiyasi oddiy texnik uyg'unlik emas, balki sinergetik effekt yaratib, tabiiy ofatlarni boshqarish, ekologik monitoring, shaharsozlik va qishloq xo'jaligi kabi sohalarda fazoviy tahlil va prognozlash aniqligini sezilarli oshirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Li, X., Yue, J., Wang, S., Luo, Y., Su, C., Zhou, J., Xu, D., & Lu, H. (2023). Development of Geographic Information System Architecture Feature Analysis and Evolution Trend Research. Sustainability.

2. https://doi.org/10.3390/su16010137.

3. Fischer, M., & Nijkamp, P. (1991). Geographic information systems and spatial analysis. The Annals of Regional Science, 26, 3-17. https://doi.org/10.1007/BF01581477

4. Song, G. (2020). A Review of Recent Researches and Reflections on Geospatial Artificial Intelligence., 45, 1865-1874. https://doi.org/10.13203/J.WHUGIS20200597.

5. Civco, D. (1993). Artificial Neural Networks for Land-Cover Classification and Mapping. Int. J. Geogr. Inf. Sci., 7, 173-186. https://doi.org/10.1080/02693799308901949.

6. Emami, P., & Marzban, A. (2023). The Synergy of Artificial Intelligence (AI) and Geographic Information Systems (GIS) for Enhanced Disaster Management: Opportunities and Challenges. Disaster Medicine and Public Health Preparedness, 17.

7. Bouzeraa, Yehya & Bouchemal, Nardjas & Salim, Djaaboub. (2023). GIS, AI, and Environmental Data in Fire Susceptibility Mapping: A Survey. 159-164. 10.1109/ICSC58660.2023.10449790.

8. Sodha, Krishna & Pati, Priyanka & Rajput, Dhara & Solanki, Hitesh. (2023). REVIEW OF THE STUDY CLIMATE CHANGE IMPACT ASSESSMENT ON THE GUJARAT COASTLINE: THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE, STATISTICAL, MATHEMATICAL AND GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEMS (GIS). International Association of Biologicals and Computational Digest. 2. 241-244. 10.56588/iabcd.v2i1.170.

9. Katkani, Deepak & Babbar, Anita & UPADHYAY, SHIKHA & PATEL, VINOD. (2022). Identification of chickpea (Cicer arietinum) breeding lines tolerant to high temperature. The Indian Journal of Agricultural Sciences. 92. 10.56093/ijas.v92i11.123850.

10. Li, Zhenlong & Ning, Huan. (2023). Autonomous GIS: the next-generation AI-powered GIS. International Journal of Digital Earth. 16. 4668-4686. 10.1080/17538947.2023.2278895.

11. Manolova, Monika. (2022). Ethical Risks in the Cross Section of Extended Reality (XR), Geographic Information Systems (GIS), and Artificial Intelligence (AI). 10.4018/978-1-7998-8467-5.ch014.

MILLIY IQTISODIYOTNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA YEVROPA ITTIFOQI GSP+ TIZIMI DOIRASIDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH MEXANIZMLARI VA MUAMMOLARI

Fozilova Shaxloxon Nodirovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy - tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yevropa Ittifoqining GSP+ preferensiyalari doirasida O‘zbekistonning eksport salohiyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda GSP+ tizimining rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyati, uning barqaror rivojlanish va samarali boshqaruvni ta’minlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning GSP+ tizimiga qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan imkoniyatlar, eksport tarkibining diversifikatsiyasi, ayniqsa to‘qimachilik va sanoat mahsulotlari eksportining o‘sish tendensiyalari ko‘rib chiqilgan. Maqolada xalqaro tajriba asosida GSP+ tizimidan samarali foydalanish yo‘llari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, eksportni kengaytirish va innovatsion rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.


Kalit so’zlar: GSP+, Yevropa Ittifoqi, eksport slohiyati, raqobatbardoshlik, Yevropa bozori, Jahon savdo tashkiloti.

GSP+ (Generalised System of Preferences Plus) — bu Yevropa Ittifoqining rivojlanayotgan davlatlar uchun mo‘ljallangan maxsus savdo imtiyozlari rejimi bo‘lib, u mamlakatlarga YI bozoriga bojxona to‘lovlarisiz (yoki juda past stavkalarda) eksport qilish imkonini beradigan tizim hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi 1971-yildan boshlab rivojlanayotgan mamlakatlarga o‘z bozoriga preferensial kirish

imkonini beruvchi Umumlashtirilgan preferensiyalar tizimini (Generalised System of Preferences – GSP) joriy etdi. Ushbu tizim orqali rivojlanayotgan davlatlarning global ishlab chiqarish va qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvi yengillashtirilib, savdo faoliyati orqali qo‘shimcha daromad manbalarini shakllantirish imkoniyati yaratildi.

GSP mexanizmi Yevropa Ittifoqining rivojlanayotgan mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanib, u savdo instrumentlari orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. GSP Yevropa Ittifoqi uchun kam daromadli mamlakatlarda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim savdo vositasidir.Xususan, mazkur tizimning asosiy maqsadi sifatida zaif iqtisodiyotga ega mamlakatlardan eksport hajmini kengaytirish orqali kambag‘allikni qisqartirish, shuningdek, savdo aloqalari orqali barqaror rivojlanish va samarali boshqaruv tamoyillarini ilgari surish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, GSP tizimi nafaqat iqtisodiy, balki institutsional va ijtimoiy rivojlanish omillarini ham qamrab oladi. U preferensiyalarni inson huquqlari va mehnat standartlariga oid 15 ta asosiy xalqaro konvensiyalar bilan bog‘lash orqali umumiy qadriyatlar va xalqaro standartlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. GSP+ tizimi esa ushbu talablarni yanada kengaytirib, atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshi boshqaruvga oid qo‘shimcha 12 ta xalqaro konvensiyaga rioya etishni rag‘batlantiradi. Bu esa GSP mexanizmini Yevropa Ittifoqining savdo va barqaror rivojlanish siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘laydi.



1-rasm. GSP (Generalised System of Preferences) va GSP+ (GSP Plus) tizimi farqlari.

Mazkur tizim Yevropa Ittifoqining zamonaviy savdo siyosatida muhim o‘rin egallab, rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga chuqur integratsiyalashuvini ta’minlash, ularning eksport salohiyatini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashuvini tezlashtirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga,

GSP doirasida taqdim etilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida xabardorlikni oshirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat davlat organlari, balki tadbirkorlik subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va kasaba uyushmalari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

GSP (Generalised System of Preferences) va GSP+ (GSP Plus) — ikkalasi ham Yevropa Ittifoqining rivojlanayotgan davlatlar uchun beriladigan savdo imtiyozlari tizimi bo‘lsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud:

Umuman olganda, GSP tizimi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun nafaqat preferensial savdo rejimi, balki ularning iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi kompleks mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishi bevosita eksport salohiyatining kengayishi hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik darajasining oshishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqi bozorlariga GSP+ preferensiyalari asosida kirib borish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lib, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi o‘rnini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Standart GSP dan GSP+ ga o'tish: O'zbekiston 2020-yil iyun oyida sxemaga rasman ariza topshirgandan so'ng, 2021-yil aprel oyida GSP+ ga qo'shildi.

1-jadval

GSP+ benefitsiar mamlakatlarining Yevropa Ittifoqiga imtiyozli eksporti hajmi (mln yevro)[336]

Davlatlar	2019y	2021y	2023y
Pokiston	5,117 mln	7,976 mln	7.1 mlrd
Fillipin	1.763 mln	2.047 mln	2.3 mlrd
Shri Lanka	1.168 mln	1.415 mln	1.5 mlrd
O’zbekiston	94 mln	240 mln	448 mln
Boliviya	-	-	49 mln
Mongoliya	-	-	19 mln
Qirg’iziston	-	-	3.4 mln

Manba:Muallif ishlanmasi

GSP+ tizimi barqaror rivojlanish va samarali boshqaruvni rag‘batlantirishga qaratilgan muhim mexanizm bo‘lib, zaif rivojlanayotgan mamlakatlarni qo‘llab-quvvatlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Hisobot davrida Armaniston, Boliviya, Kabo-Verde, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Pokiston, Filippin, Shri-Lanka va O‘zbekiston GSP+ benefitsiarlari sifatida e’tirof etilgan.GSP+ tizimi yuqori darajadagi imtiyozlar bilan birga, xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilish va ularni samarali amalga oshirish kabi majburiyatlarni ham nazarda tutadi. O‘zbekistonning 2021-yilda ushbu tizimga qo‘shilishi va undan faol foydalanishi, shuningdek, Tojikistonning unga qo‘shilish jarayonidagi harakatlari tizimning jozibadorligini tasdiqlaydi.

[336] https://ec.europa.eu/transparency/documents-register

Eksport tarkibi tahlili shuni ko‘rsatadiki, GSP+ doirasida Yevropa Ittifoqiga eksportning asosiy qismini Pokiston, Filippin va Shri-Lanka tashkil etadi, O‘zbekiston esa qisqa muddat ichida yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Tovarlar kesimida to‘qimachilik va kiyim-kechak mahsulotlari exportning asosiy qismini tashkil etadi. Bu esa GSP+ tizimi eng muhtoj mamlakatlar va ustuvor mahsulot yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Xususan, Ilxomjon o‘g‘li va Voxidova (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Yevropa Ittifoqi bozoriga eksportni diversifikatsiya qilishning 2030 yilgacha bo‘lgan ssenariylari asoslab berilib, eksportni kengaytirish milliy iqtisodiy o‘sishning muhim drayveri ekanligi ta’kidlanadi. Bu esa GSP+ tizimi imkoniyatlaridan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, tashqi bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ouyosh o‘g‘li (2025) o‘z tadqiqotida kichik to‘qimachilik korxonalarida ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali mahsulot sifati va eksport salohiyatini oshirish mumkinligini asoslab beradi. Bu esa GSP+ tizimi talablariga moslashish, texnik standartlar va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, GSP+ tizimi rivojlanayotgan davlatlar uchun muhim iqtisodiy instrument sifatida e’tirof etilib, eksport hajmini oshirish va yangi bozorlarni egallash imkonini beradi. Jumladan, Javli o‘g‘li (2025) GSP+ tizimining iqtisodiy ta’sirini tahlil qilib, uning rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishini, ayniqsa, bojxona preferensiyalari orqali eksportni rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishi ham mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Akmalovich (2025) o‘z tadqiqotida ikki tomonlama munosabatlarning yangi darajaga chiqayotgani va bu jarayon eksport hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qilishini qayd etadi. Bu esa GSP+ tizimi doirasida yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘liq foydalanishni taqozo etadi.

Biroq, GSP+ tizimidan samarali foydalanish bilan birga, muayyan institutsional va tarkibiy muammolar ham mavjud. Раупова (2025) o‘z ilmiy ishida GSP+ tizimidan Jahon savdo tashkiloti doirasidagi erkin savdo tizimiga o‘tish jarayonini tahlil qilib, benefisiar davlatlar uchun xalqaro standartlarga moslashish, huquqiy-me’yoriy bazani takomillashtirish va eksport strategiyasini chuqurlashtirish zarurligini asoslaydi. Bu esa O‘zbekiston uchun uzoq muddatli istiqbolda barqaror eksport siyosatini shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Yevropa Ittifoqi bozorlariga GSP+ tizimi doirasida eksportni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish, mavjud imkoniyatlar va muammolarni kompleks tahlil qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar milliy iqtisodiyotning

innovatsion rivojlanishini ta’minlash, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Ilxomjon o‘g‘li, A.S. and Voxidova, M.X., 2025. O ‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BOZORIGA EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH STRATEGIYALARI: 2030 YILGACHA SSENARIY TAHLILI. Global Science Review, 13(12), pp.1025-1138.

2.Ouyosh o’g’li, A.O. and Ouyosh o’g’li, A.O., 2025. Adapting Advanced Foreign Practices for Enhancing the Competitiveness of Small Textile Enterprises in Uzbekistan’s Context. Adapting Advanced Foreign Practices for Enhancing the Competitiveness of Small Textile Enterprises in Uzbekistan’s Context, 8(12), pp.6453-6458.

3.Раупова, Д., 2025, July. ОТ GSP+ К СВОБОДНОЙ ТОРГОВЛЕ В РАМКАХ ВТО: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И СТРАТЕГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СТАТУСА БЕНЕФИЦИАРА. In Russian-Uzbekistan Conference (pp. 310-313).

4.Javli o‘g‘li, T.A., 2025. THE ECONOMIC IMPACT OF THE GSP+ SCHEME: OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING COUNTRIES. MILLIY IFTIXOR, 1(1), pp.221-230.

5.Akmalovich, E.F., 2025. A NEW LEVEL IN RELATIONS BETWEEN UZBEKISTAN AND THE EUROPEAN UNION AND ITS PROSPECTS. SHOKH LIBRARY, 1(13).

6.https://ec.europa.eu/transparency/documents-register

THE IMPACT OF THE INSTITUTIONAL ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF PRICE COMPETITION IN UZBEKISTAN

Goyibnazarova Nozimakhon Khamzaevna
Independent Researcher,
Tashkent State University of Economics
Dilyafruz Sabitkhanovna Nasyrkhodjaeva,
Scientific supervisor
Doctor of Economic Sciences, Professor

Abstract. Effective price competition supports market efficiency, entrepreneurial activity, consumer welfare and sustainable growth. In Uzbekistan, market-oriented reforms have increased the role of institutions governing competition, pricing, market entry, property rights and business activity. This thesis examines how the institutional environment shapes price competition and identifies priorities for strengthening competitive pricing mechanisms.

Keywords: price competition, institutional environment, competition policy, antimonopoly regulation, market concentration, Uzbekistan, digitalization, economic reforms.

Competition encourages firms to reduce costs, improve quality, introduce innovations and offer consumers more favorable prices. Price competition is one of the clearest forms of this rivalry, yet it does not arise automatically. Much depends on the institutional environment in which firms operate: the rules of market entry and exit, protection of property rights, contract enforcement, access to infrastructure, transparency of information and the quality of antimonopoly regulation. In D. North's institutional approach, institutions are the "rules of the game" that structure economic interaction and reduce uncertainty.1 From this perspective, competition is not only rivalry among firms; it is also shaped by the formal and informal institutions surrounding the market.

This connection is particularly important for Uzbekistan. Since 2017, foreign-exchange liberalization, lower administrative barriers, support for entrepreneurship, reform of state-owned enterprises, digitalization of public services and changes in competition policy have gradually altered the institutional basis of market relations. At the same time, price competition in a number of sectors is still limited by market concentration, dominant enterprises, unequal access to infrastructure and resources, and uneven competitive conditions. For this reason, the number of firms in a market by itself says little unless firms also have comparable opportunities to enter and compete.

In simplified form, the market price can be expressed as $P = C + M$, where C represents production and transaction costs and M is the firm's price margin. Stronger competition puts pressure on both costs and excessive margins. The institutional environment may be written as $IE = f(PR, CR, AB, TR, MR, INF)$, where the variables denote protection of property rights, competition regulation, administrative barriers, transparency, market regulation and access to infrastructure. Better institutional quality can lower entry barriers and transaction costs, bring more potential competitors into the market and increase pressure on prices.

A major institutional step was the adoption of the new Law of the Republic of Uzbekistan "On Competition" in 2023. The law strengthened the legal framework governing dominant positions, economic concentration, anticompetitive agreements, unfair competition and state participation in markets.2 This matters because effective rivalry depends not only on formal rules, but also on whether firms can obtain inputs, finance, infrastructure, licenses, information and access to distribution channels on comparable terms.

Digitalization creates both opportunities and risks for competition. Digital platforms can reduce search costs, improve price transparency and make it easier for consumers to compare offers. At the same time, network effects, economies of scale, large datasets and technological advantages may allow major platforms to accumulate considerable market power. This is why competition regulation increasingly needs to consider algorithms, data concentration, network effects and online pricing mechanisms.3

Foreign trade liberalization is another factor affecting domestic price competition. Greater openness increases import competition and can restrain the ability of domestic firms to keep prices above competitive levels, especially in

highly concentrated markets. At the same time, excessive dependence on imports may create external vulnerabilities. A more sustainable approach combines open markets with competitive domestic production and export development, encouraging firms to improve productivity and quality rather than rely on administrative protection.4

Macroeconomic stability also influences how price competition works. When inflation is high, consumers may find it difficult to separate general price growth from price changes made by individual firms. More stable inflation makes pricing more predictable and price comparison easier. Still, competition policy cannot replace monetary policy: it mainly affects relative prices and market margins, whereas overall inflation also reflects monetary, supply-side and external factors.

The analysis points to several priorities for Uzbekistan: further reducing unjustified administrative barriers; strengthening competitive neutrality between private and state-owned enterprises; preventing excessive concentration during privatization; making competition-impact assessment a regular part of economic regulation; ensuring transparent and nondiscriminatory access to infrastructure, finance, land and other essential resources; using public procurement to support supplier competition; developing modern rules for digital marketplaces; and making wider use of quantitative indicators such as HHI, concentration ratios, price-cost margins and market-entry indicators.5

These priorities should not be treated separately. Lower entry barriers will have only a limited effect if access to infrastructure or finance remains unequal. Privatization can improve market outcomes only if it does not reproduce dominant positions under private ownership.

Digital markets show the same tension: greater transparency and lower search costs can intensify price rivalry, while growing platform power can create new barriers. For this reason, reforms in competition policy, privatization, regulation, public procurement, digitalization and trade policy need to be mutually consistent.

The analysis shows that effective price competition in Uzbekistan is closely linked to the quality of the institutional environment. Competition cannot be measured simply by the presence of several firms in a market. Sustainable price rivalry requires comparable market opportunities, low and nondiscriminatory entry barriers, transparent pricing mechanisms, protection of property rights, effective antimonopoly regulation, access to infrastructure and predictable economic policy.

The reforms carried out in Uzbekistan have already created important prerequisites for stronger competition. Liberalization, private-sector development, improvements in competition legislation, digitalization, reform of public administration and the gradual transformation of state participation have all contributed to a more market-oriented institutional environment.

The policy focus should therefore move away from direct influence on individual prices and toward creating conditions in which competitive market mechanisms discipline prices themselves. Strengthening price competition requires a combination of competition law, privatization, regulatory reform, digitalization, trade openness, transparent public procurement and support for private-sector

development. Better institutions in these areas can contribute not only to more efficient pricing, but also to productivity growth, innovation, sustainable economic development and the long-term competitiveness of the national economy.

References:

1. North, D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 152 p.

2. Law of the Republic of Uzbekistan “On Competition”, No. O‘RQ-850.

3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-158 of 11.09.2023 “On the Uzbekistan-2030 Strategy”.

4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-60 of 28.01.2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”.

5. UNCTAD. Competition and Consumer Protection Policies for Inclusive Development in the Digital Era. Geneva: United Nations, 2021.

6. OECD. Competition Trends 2025. Paris: OECD Publishing, 2025.

MEDICAL TOURISM AND REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Hao Xiaohui
Phd student "Silk Road" International University of Tourism and Cultural Heritage

Keywords: medical tourism; regional economy; healthcare services; tourism cluster; BRM 3.

Medical tourism links healthcare with accommodation, transport, food services, tourism intermediation and other local activities. It can therefore generate demand beyond the clinic, but its contribution to regional development is conditional rather than automatic. Medical-tourism counts are sensitive to definitions, and international evidence also shows that output gains can be partly offset if scarce healthcare resources are diverted from residents.[337]

Uzbekistan has formalized this field in tourism policy. Presidential Resolution PQ-335 of 23 September 2024 introduced the "Medical service hospitality" program and a cluster model combining consultation, diagnosis, treatment, tour-operator, transport and medical-translation services.[338] This institutional design makes medical tourism relevant to interdisciplinary research on regional service linkages and competitiveness.

The study uses descriptive trend and structure analysis. Its core sources are official statistics on treatment-purpose arrivals, the 2025 country composition of those arrivals, preliminary 2025 regional volumes of market healthcare services, and

[337] Connell, J. (2013). “Contemporary Medical Tourism: Conceptualisation, Culture and Commodification.” Tourism Management, 34, 1-13; Beladi, H., Chao, C.-C., Ee, M. S., & Hollas, D. (2019). “Does Medical Tourism Promote Economic Growth? A Cross-Country Analysis.” Journal of Travel Research, 58(1), 121-135.

[338] President of the Republic of Uzbekistan. Resolution No. PQ-335 of 23 September 2024, “On Additional Measures for the Further Development of Medical and Wellness Tourism in the Republic of Uzbekistan.” Lex.uz, document No. 7111500.

national policy targets. The tourism indicator records foreign persons whose officially declared purpose of entry was treatment. It does not report expenditure, treatment region, procedure or length of stay; therefore, this paper does not estimate a regional multiplier or a causal effect on gross regional product.[339]

Key indicators are summarized in Table 1.

Treatment-purpose arrivals show recovery with marked volatility. The 2025 level was 55.3% above 2019 and 166.0% above 2021, but 17.8% below 2024. The evidence therefore supports medium-term expansion, not uninterrupted annual growth.

Table 1.

Selected medical-tourism indicators, Uzbekistan[340]

Indicator	**2019**	**2024**	**2025**
Treatment-purpose arrivals, thousand persons	55.5	104.9	86.2
Top-three neighboring markets share, %	-	-	96.3

The 2025 source-market structure was highly concentrated. Of 86,199 foreign citizens arriving for treatment, 59,145 came from Tajikistan, 15,631 from the Kyrgyz Republic and 8,224 from Kazakhstan. Together these three countries represented 96.3% of the total; Russia accounted for 1,899 arrivals and Afghanistan for 914.[341] The observed market is therefore predominantly regional and short-distance. This provides an established neighboring demand base, but also creates exposure to changes in a small number of source markets.

Policy ambition is substantially higher than the observed count. Resolution PQ-335 set a 2025 target of 230,000 treatment-purpose visitors; the official 2025 count of 86,199 equals about 37.5% of that target. The difference should not be treated as a stand-alone measure of policy effectiveness because target construction, statistical classification and implementation timing may differ. It nevertheless indicates a gap between policy ambition and recorded arrivals.[342]

Regional healthcare market activity is also concentrated. The preliminary national volume of healthcare services was 19.89 trillion soums in 2025. Tashkent city accounted for 9.07 trillion soums (45.6%), Tashkent region for 2.00 trillion and Samarkand region for 1.49 trillion; together the three territories represented about 63.1% of the national total.

These figures cover domestic and foreign demand and measure market-service value, not medical-tourism revenue or clinical capacity. They should therefore be used only as an indicator of where large healthcare-service ecosystems already exist.[343]

---

[339] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. SIAT indicator 2.04.11.0012, "The number of inbound tourist trips by foreign citizens to the Republic of Uzbekistan for medical purposes," updated 13 June 2026.

[340] Sources: National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, SIAT indicator 2.04.11.0012; National Statistics Committee, "More than 86 thousand foreigners chose Uzbekistan for treatment," 26 January 2026.

[341] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. "More than 86 thousand foreigners chose Uzbekistan for treatment," 26 January 2026.

[342] President of the Republic of Uzbekistan, Resolution No. PQ-335, Annex 4 (2024-2027 target indicators).

[343] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. SIAT indicator 1.05.01.0035, "Volume of the human health activities services (annual)"; 2025 data are preliminary.

The economic relevance of medical tourism depends on local linkages. Direct demand arises from diagnosis and treatment; indirect demand can arise from accommodation, transport, food, pharmacy, interpretation and tourism services purchased by patients and companions. Regional specialization should be evidence-based. PQ-335 designates sanatorium-resort development locations including Xonobod in Andijan region; Chortoq, Kosonsoy and To'raqo'rg'on in Namangan region; Baxmal and Zomin in Jizzakh region; and Boysun and Oltinsoy in Surkhandarya region, with additional 2025-2026 programs in other regions.[344] These designated wellness areas provide a firmer basis for rehabilitation and resort products than assigning clinical specializations to regions solely from aggregate service-volume data.

Market strategy should also distinguish consolidation from diversification. Tajikistan, the Kyrgyz Republic and Kazakhstan are the verified core markets and should remain the main basis for near-term service design. New markets can be tested through targeted partnerships, but diversification should follow observed demand and clinic-level capability rather than promotional assumptions.

In July 2026, the Tourism Committee identified international accreditation, "Treatment + Travel" packages, multilingual consultation, telemedicine, online appointment systems and improved services for accompanying persons as priorities.[345] For regional policy, these measures are most useful when implemented through coordinated destination-level networks linking verified clinics with licensed tourism, transport and accommodation providers.

Future official reporting should add treatment region, procedure, patient expenditure, nights stayed and companion expenditure. These variables would distinguish patient-count growth from regional value creation. Resident access should also be monitored through waiting times and workforce availability.

A cautious two-track model follows from the evidence. Integrated clinical-service clusters can be piloted where clinic capability, accreditation and international-patient services are verified; Tashkent’s large healthcare-service ecosystem makes it suitable for such assessment, although aggregate service value does not prove clinical specialization. Rehabilitation and wellness clusters can meanwhile build on resort zones already designated in national policy.

Uzbekistan's treatment-purpose arrivals exceed the 2019 level but remain volatile and concentrated in neighboring Central Asian markets. In 2025, 86.2 thousand arrivals were recorded, 96.3% from Tajikistan, the Kyrgyz Republic and Kazakhstan. Healthcare services are also concentrated, especially in Tashkent city, but these values are not medical-tourism revenue or clinical-capacity measures. Regional strategy should therefore link verified healthcare capability with designated rehabilitation assets and improve destination, expenditure and patient-experience data.

[344] President of the Republic of Uzbekistan, Resolution No. PQ-335, Annex 2.

[345] Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan. “Priority tasks for the development of medical tourism defined,” 14 July 2026.

INKLYUZIV TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: IMKONIYATLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Ishankulova Farangis Azamovna,
Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv turizm tushunchasi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda turizm sohasida barcha insonlar uchun teng imkoniyatlar yaratish masalalari yoritilgan. Inklyuziv turizm, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslar, keksalar, bolali oilalar va harakatlanish imkoniyati cheklangan boshqa turistlarning sayohat qilishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Maqolada turistik infratuzilmaning moslashuvi, transport, mehmonxona, madaniy va tarixiy obyektlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va istiqbolli yo‘nalishlari ko‘rib chiqilib, sohani takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv turizm, turizm infratuzilmasi, nogironligi bo‘lgan shaxslar, qulay muhit, turistik xizmatlar, barqaror turizm.

Bugungi kunda turizm nafaqat iqtisodiy faoliyat turi, balki insonlarning dam olishi, madaniy bilim va tajribalarini boyitishi hamda turli xalqlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Turizm xizmatlaridan jamiyatning barcha qatlamlari foydalanishi uchun teng imkoniyat yaratish zamonaviy turizm siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, inklyuziv turizm tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv turizm turistik xizmatlar va ob’yektlarni turli jismoniy ehtiyojlarga ega bo‘lgan insonlar uchun imkon qadar qulay va foydalanish mumkin bo‘lgan shaklda tashkil etishni anglatadi.

Bunda faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar emas, balki keksalar, vaqtinchalik jarohat olgan shaxslar, yosh bolali oilalar va boshqa turistlarning ehtiyojlari ham hisobga olinadi.

Inklyuziv turizmni rivojlantirish orqali turizm bozorining qamrovini kengaytirish, yangi xizmat turlarini shakllantirish va aholining turizmda faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratish mumkin.

Inklyuziv turizmning asosiy mazmuni — insonning jismoniy imkoniyatlaridan qat’i nazar, turistik xizmatlardan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdir. Bunda turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqishdan tortib, transport, mehmonxona, ovqatlanish, ekskursiya va axborot xizmatlarigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda qulaylik tamoyili hisobga olinishi kerak.

Shuningdek, inklyuziv turizmni faqat panduslar yoki maxsus liftlar bilan ta’minlash masalasi sifatida ko‘rish yetarli emas. Haqiqiy inklyuziv turizm tizimi quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

- turistik obyektlarga jismoniy kirish imkoniyati;
- moslashtirilgan transport xizmatlari;
- mehmonxonalarda maxsus jihozlangan xonalar;

- eshitish yoki ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun axborot vositalari;
- turistik yo‘nalishlar va ekskursiya dasturlarining moslashtirilishi;
- xodimlarning inklyuziv xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorgarligi;
- raqamli va onlayn axborotning foydalanish uchun qulay shaklda taqdim etilishi.

Shunday qilib, inklyuziv turizmning rivojlanishi turizm xizmatlarining sifatini oshirish bilan bir qatorda, ijtimoiy tenglik va inson huquqlarini ta’minlashga ham xizmat qiladi.

Inklyuziv turizm, avvalo, ijtimoiy ahamiyatga ega. Turistik sayohat insonning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishi, yangi joylarni ko‘rishi, madaniy tajribaga ega bo‘lishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishiga imkon beradi. Shuning uchun turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini kengaytirish ijtimoiy integratsiya jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Iqtisodiy jihatdan esa inklyuziv turizm yangi iste’molchilar guruhini turizm bozoriga jalb etadi. Turistik korxonalar xizmatlarini turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan mijozlarga moslashtirgan sari xizmatlar assortimenti kengayadi. Bu esa mehmonxonalar, transport kompaniyalari, gidlik xizmatlari, restoranlar va boshqa turizm subyektlari uchun qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, inklyuziv turizm infratuzilmasining rivojlanishi ko‘pincha boshqa turistlar uchun ham qulaylik yaratadi. Masalan, panduslar, liftlar, qulay yo‘laklar va aniq axborot belgilaridan nogironligi bo‘lmagan turistlar, keksalar va bolali oilalar ham foydalanishi mumkin.

Inklyuziv turizmni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri turistik infratuzilmani moslashtirishdir. Mehmonxonalar, aeroportlar, temir yo‘l vokzallari, muzeylar, tarixiy obidalar, restoranlar va boshqa turistik obyektlarda qulay muhit yaratilishi lozim.

Mehmonxonalarda nogironlar aravachasidan foydalanadigan turistlar uchun yetarli kenglikdagi eshiklar, maxsus sanitar xonalar, qulay liftlar va moslashtirilgan xonalar bo‘lishi muhim. Turistik ob’yektlarda esa panduslar, tutqichlar, maxsus yo‘laklar va tushunarli yo‘naltiruvchi belgilar mavjudligi tashrif buyuruvchilar uchun qulaylik yaratadi.

Ko‘rish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun Brayl yozuvidagi ma’lumotlar, audio-gidlar va ovozli axborot tizimlaridan foydalanish mumkin. Eshitish imkoniyati cheklangan turistlar uchun esa subtitrlar, imo-ishora tarjimasi va vizual axborot vositalari muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston tarixiy, madaniy va tabiiy turizm resurslariga boy mamlakatlardan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent va boshqa hududlarda ko‘plab tarixiy-madaniy ob’yektlarning mavjudligi inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarda turizm infratuzilmasini inklyuziv tamoyillar asosida rivojlantirish mahalliy va

xorijiy turistlarning turistik ob’yektlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Bunda tarixiy obidalarning me’moriy xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga, ularga tashrif buyuruvchilar uchun qulay sharoit yaratish muhim vazifalardan biridir. Ayrim tarixiy ob’yektlarda zamonaviy infratuzilma elementlarini o‘rnatish me’moriy merosni muhofaza qilish talablari bilan muvofiqlashtirilishi kerak.

O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

- turistik ob’yektlarning mavjud qulaylik darajasini muntazam baholash;
- transport infratuzilmasini moslashtirish;
- mehmonxonalarda universal dizayn tamoyillarini keng qo‘llash;
- turistik xodimlarni inklyuziv xizmat ko‘rsatishga o‘rgatish;
- turistik ob’yektlar haqida qulay va to‘liq axborot berish;
- raqamli turizm xizmatlarini foydalanish uchun qulay shaklda ishlab chiqish;
- inklyuziv turistik marshrutlarni yaratish.

Inklyuziv turizmni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolarga duch kelish mumkin. Ulardan biri mavjud turistik infratuzilmaning barcha ehtiyojlarni to‘liq hisobga olmagan holda shakllanganidir.

Ayniqsa, tarixiy ob’yektlarda zamonaviy moslashtirish ishlarini amalga oshirish murakkab bo‘lishi mumkin. Chunki bunday ob’yektlarning tarixiy va me’moriy qiyofasini saqlab qolish zarur.

Yana bir muhim muammo — xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning inklyuziv turizm bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligidir. Maxsus ehtiyojga ega turist bilan to‘g‘ri muloqot qilish, unga yordam ko‘rsatish va xizmatni individual ehtiyojiga moslashtirish bo‘yicha xodimlarni muntazam tayyorlash talab etiladi.

Shuningdek, turistik ob’yektlar haqida internet va boshqa axborot kanallarida ularning inklyuzivlik darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aniq berilishi ham muhim. Turist safarini oldindan rejalashtirish jarayonida ob’yektga kirish imkoniyati, transport, maxsus xona va boshqa qulayliklar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Kelajakda inklyuziv turizmni rivojlantirishda universal dizayn tamoyillaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Universal dizayn ob’yekt va xizmatlarni imkon qadar keng foydalanuvchilar guruhi uchun moslashtirishni nazarda tutadi.

Raqamli texnologiyalar ham inklyuziv turizm uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mobil ilovalar, audio-gidlar, elektron xaritalar, virtual ekskursiyalar va boshqa raqamli vositalar turistik tajribani turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, turistik tashkilotlar, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar va nogironligi bo‘lgan shaxslar manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadga muvofiq. Turistik ob’yektlarni moslashtirish jarayonida aynan xizmatlardan foydalanadigan insonlarning fikrini inobatga olish amaliy natijadorlikni oshirishi mumkin.

Inklyuziv turizm zamonaviy turizm rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi turistik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish va turli ehtiyojlarga ega bo‘lgan insonlar uchun qulay sharoit yaratishdan iborat.

O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va turizm salohiyati inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Buning uchun turistik infratuzilmani takomillashtirish, transport va mehmonxona xizmatlarini moslashtirish, turizm xodimlarining malakasini oshirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish zarur.

Umuman olganda, inklyuziv turizmning rivojlanishi turizm bozorini kengaytirish bilan birga, jamiyatda teng imkoniyatlar tamoyilini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. O‘zbekistonda inklyuziv turizmni tizimli ravishda rivojlantirish mamlakatning turistik jozibadorligini oshirish va turizm xizmatlarini yanada qulay shaklga keltirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities. New York, 2006.
2. World Tourism Organization (UN Tourism). Accessible Tourism. Madrid.
3. World Health Organization. World Report on Disability. Geneva, 2011.
4. Darcy, S., Dickson, T. A Whole-of-Life Approach to Tourism: The Case for Accessible Tourism Experiences. Journal of Hospitality and Tourism Management.
5. Buhalis, D., Darcy, S. Accessible Tourism: Concepts and Issues. Channel View Publications.
6. O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
7. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga oid davlat dasturlari va strategik hujjatlar.

ZIYORAT TURIZMINI KLASTERLASH ASOSIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI


Uzoqov Jamshid Norboyevich
ATMU i.f.f.d., PhD
Xasanova Sofiya Komoliddinovna
ATMU stajyor o'qituvchi

Ziyorat turizmi jahon iqtisodiyotida mustaqil tarmoq sifatida shakllanib, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omilga aylanmoqda. Turli din vakillari har yili 600 milliondan ortiq milliy va xalqaro diniy sayohatni amalga oshiradi.[346] Ziyorat turizmi iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda

[346] https://www.sltrib.com/religion/2020/08/27/conversation-religious/; https://gulfnews.com/world/gulf/saudi/saudi-arabia-more-than-6-million-pilgrims-perform-umrah-in-record-breaking-season-1.95714738; https://www.csmonitor.com/World/Middle-East/2023/0626/Spiritual-journey-revival-Hajj-returns-to-Mecca-in-force

individual va jamoaviy identifikatsiyani mustahkamlovchi ijtimoiy-madaniy kuch hamdir. Shunga qaramay, mavjud tadqiqotlarning aksariyati konseptual va metodologik jihatdan soddalashtirilgan bo‘lib, ko‘proq kesim yondashuvlarga tayanadi. Bu holat hududiy rivojlanish siyosatini ilmiy jihatdan asoslashni qiyinlashtiradi. O‘zbekistonda, xususan Qashqadaryo hududida, ziyoratgohlarning ko‘pligi katta imkoniyat yaratadi, biroq undan foydalanish samaradorligi tizimli yondashuvga bog‘liq.

Ziyorat turizmini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar iqtisodiy, geografik va makroiqtisodiy, ijtimoiy, barqaror rivojlanish, psixologik va individual, diniy bag‘rikenglik hamda integrativ yondashuvlarga ajratish mumkin. Qiyosiy tahlil har bir yondashuv o‘ziga xos ustuvorlikka ega bo‘lsa-da, cheklovlardan holi emasligini ko‘rsatdi. Iqtisodiy yondashuv daromad, yalpi ichki mahsulot va bandlik ko‘rsatkichlarini qiymatda baholash imkonini beradi, ammo ijtimoiy ta’sirni to‘liq qamrab olmaydi. Geografik va makroiqtisodiy yondashuv hududiy rejalashtirishda samarali bo‘lsa-da, ijtimoiy-madaniy omillarni chetda qoldiradi. Ijtimoiy yondashuv madaniy o‘zlikni saqlaydi, lekin tijoratlashtirish xavfini keltirib chiqaradi, barqaror rivojlanish yondashuvi esa uzoq muddatli muvozanatni ta’minlagani holda qisqa muddatli daromadni cheklashi mumkin. Shu sababli biror bir nazariy guruh asosida hudud ziyorat turizmi salohiyatidan to‘liq foydalanishga erishib bo‘lmaydi.



1-rasm. Ziyorat turizmida klasterlar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari[347]

Fikrimizcha, hududiy rivojlanishni takomillashtirish uchun eng samarali metodologik asos integrativ yondashuv bo‘lib, u barcha yondashuvlarni hududning o‘ziga xos sharoitlariga moslab, o‘zaro mutanosiblikda qo‘llashni nazarda tutadi, garchi uni qo‘llash metodologik jihatdan murakkabroq bo‘lsa ham. Ziyorat turizmi salohiyati tizimli-resurs nuqtai nazaridan o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan murakkab, uyushgan va dinamik tizim sifatida talqin etiladi.

Uning infratuzilmaviy, moliyaviy, investitsiyaviy, boshqaruv va axborot kabi tarkibiy qismlari bir vaqtda va birgalikda faoliyat yuritgandagina hudud sifat jihatidan yangi, yuqori tartibli holatga o‘tishi mumkin. Shu bois hududiy

[347] Mualliflik ishlanmasi

rivojlanishni takomillashtirishda alohida tarmoqlarni emas, balki salohiyatning barcha elementlarini uyg‘unlashtiruvchi tashkiliy shakl zarur bo‘ladi. Bunday shakl turistik klasterdir.

Klaster hududiy jihatdan o‘zaro yaqin joylashgan, faoliyati turizm sohasi bilan bog‘liq tadbirkorlik subyektlari, davlat muassasalari va jamoat tashkilotlarining integratsiyalashgan tizimi bo‘lib, hududning innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish hamda sifatli va raqobatbardosh turistik mahsulot shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuvga muvofiq, mavjud muqaddas joylarni inventarizatsiya qilish va mezonlar bo‘yicha baholash asosida ularni avvalo ichki ziyoratchilar uchun “ziyoratbop qadamjolar”ga, keyinchalik destinatsion marketing vositalari yordamida xalqaro oqimni jalb qiluvchi “jozibali ziyoratgohlar”ga aylantirish maqsadga muvofiq. Qashqadaryo hududida ziyorat turizmi klasterlarini shakllantirish iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion salohiyatni kengaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Ziyorat turizmini turistik makonda xizmatlar bozoridagi talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan turistik resurslardan foydalanish bilan bog‘liq ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy munosabatlar majmuasi hamda ushbu jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq faoliyat tizimi sifatida ta’riflaymiz.[348] Ziyorat turizmi salohiyati esa ziyorat turizmi industriyasini rivojlantirish va uning faoliyatidan ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishish hamda hududning turistik jozibadorligini oshirish imkoniyatlarining mavjudligi sifatida tushuniladi.

Bu ta’riflar hududiy siyosatda faqat tashrif buyuruvchilar sonini emas, balki talab va taklif muvozanatini, resurslardan oqilona foydalanishni hamda davlat tartibga solishining chegaralarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Hududiy rivojlanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tashkiliy va iqtisodiy omillarning uyg‘unligi asosida amalga oshadi. Tashkiliy jihatdan atrof-muhit muhofazasi, ziyorat obyektlariga e’tiborning kuchayishi, infratuzilmaning yaxshilanishi, diniy bag‘rikenglik va millatlararo hamjihatlik hamda aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalarining ko‘payishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy jihatdan esa yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, yondosh tarmoqlarning rivojlanishi, turistik daromad va investitsiyalar hajmining ortishi hamda xizmatlar diversifikatsiyasi samaradorlikni ifodalaydi.

Shuni inobatga olish lozimki, ziyoratchilarning katta qismi moddiy xarajatni cheklashga intiluvchi turistik qatlam bo‘lib, ularning asosiy maqsadi yuqori darajadagi servisdan bahramand bo‘lish emas, balki ruhiy kamolot va poklanishdir. Shu sababli hududda xizmatlar hamyonbop, diniy qadriyatlarga mos, sanitariya va xavfsizlik talablariga javob beradigan shaklda tashkil etilishi kerak.

Bunda xalqaro tajribadan, jumladan “OIC/SMIIC 9:2019 – Halol turizm xizmatlari” standartini joriy etish hamda joylashtirish vositalari va turoperatorlarni sertifikatlashtirishdan foydalanish mumkin.[349]

---

[348] Mualliflik yondashuv.

[349] OIC/SMIIC 9:2019 – Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar. Islom mamlakatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIC).

Hududiy rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda samaradorlikni baholash alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birga, hududiy darajada ziyorat turizmi bo‘yicha statistik ma’lumotlarning yetarli darajada to‘planmayotgani ayrim ko‘rsatkichlarni, xususan turizmning hudud iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholash imkonini cheklamoqda.

Mazkur ko‘rsatkichlardan tashqari “Transport ↔ Turistik mahsulot ↔ Raqamlashtirish ↔ Inson kapitali ↔ Boshqaruv ↔ Barqarorlik” zanjiriga asoslangan milliy uslubiyat ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Samarqand, Buxoro va Urganch kabi yo‘nalishlarga “charter / low cost” reyslari va haftalik turistik paketlarni yo‘lga qo‘yish orqali transport qamrovi va hududlararo integratsiyani kuchaytirish;

“Buyuk ipak yo‘li” marshruti bo‘ylab eko-agro-gastro integratsiyasiga asoslangan sarguzasht marshrutlarini hamda hunarmandchilik bo‘yicha ko‘rgazmali master-klasslarni tashkil etish mahsulotlarni diversifikatsiya qilish imkonini beradi;

Respublika, viloyat va shahar darajalarida yagona “ziyorat turistik ma’lumot-marketing” tizimini yaratish hamda “bron + gid + to‘lov” xizmatlarini raqamlashtirish;

“CEFR-B2” til sertifikatlari, “Front-Office” va “Soft-Skills” bo‘yicha malaka talablarini joriy etish va “eco-Label” treninglari orqali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish. Mehmon uylari kooperatsiyalari, mahalliy ta’minot zanjiri va hunarmandchilik klasterlarini grantlar hamda mikromoliyalashtirish orqali qo‘llab-quvvatlash qo‘shilgan qiymatni oshiradi;

har 6–12 oyda ziyoratgohlar faoliyatini baholashni o‘tkazib borish hududlarning ziyorat salohiyatidan o‘zaro mutanosiblikda foydalanishga imkon beruvchi klasterlarning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmi asosida hududiy rivojlanishni takomillashtirish klaster shaklidagi tashkiliy mexanizm va muntazam kompleks baholashning uyg‘unligida amalga oshirilishi lozim. Bu hududlarda ziyorat salohiyatidan to‘liq foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshlikni mustahkamlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 18-iyul, O‘RQ-549-son. URL: https://lex.uz/docs/4428101

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “‘O‘zbekiston – 2030’ strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. URL: https://lex.uz/docs/6600413

3. Rinschede G. Forms of religious tourism // Annals of Tourism Research. 1992. Vol. 19, No. 1. pp. 51–67.

4. Timothy D.J., Olsen D.H. (eds.). Tourism, Religion and Spiritual Journeys. London: Routledge, 2006.

5. Raj R., Griffin K. (eds.). Religious Tourism and Pilgrimage Management: An International Perspective. 2nd ed. Wallingford: CABI, 2015.

6. Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. 1998. Vol. 76, No. 6. pp. 77–90.

7. OIC/SMIIC 9:2019 – Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar. Islom mamlakatlari standartlashtirish va metrologiya instituti (SMIIC).

FORMATION OF A REGIONAL TOURISM BRAND AS A FACTOR IN ENHANCING REGIONAL COMPETITIVENESS (THE CASE OF BUKHARA REGION)

Kadirova Shafoat Khabibulloevna
Bukhara state university Senior lecturer
department of tourism and hotel management

Abstract. The paper treats the regional tourism brand as an economic asset of Bukhara region. Using official statistics for 2022–2025, programme documents and tour-operator itineraries, it shows that the region has already met its quantitative targets and argues that further gains in competitiveness require a shift from a "museum city" image to that of a living cultural region. Institutional, product, integration and monitoring measures are proposed.

Keywords: regional brand, destination management, regional competitiveness, Bukhara region, creative economy, Central Asian integration.

The "Uzbekistan – 2030" Strategy sets the goals of raising foreign tourist arrivals to 15 million, domestic trips to 25 million and tourism service exports to 5 billion US dollars[350]. Targets of this scale cannot be met by a single national brand: they require each region to compete with a distinct, professionally managed identity. Uzbek research on regional tourism has so far concentrated on sectoral niches – agrotourism, pilgrimage and ecotourism[351] – whereas the regional brand as an economic asset that determines length of stay, expenditure and investment attractiveness remains little studied. The *aim* of this paper is to assess the current position of the tourism brand of Bukhara region and to substantiate measures for converting it into a factor of regional competitiveness. The *methods* used are analysis of official statistics of the National Statistics Committee and the regional statistics department for 2022–2025, analysis of programme documents, content analysis of published itineraries of inbound tour operators, and comparison with international destination-management practice. The *scientific novelty* lies in substantiating the transition from a "museum city" brand to a "living cultural region" brand as the condition for the next stage of tourism growth in Bukhara.

In the literature on place marketing a regional brand is a system of associations and values that a territory deliberately forms among tourists, investors and residents

[350] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 of 11 September 2023 "On the Strategy 'Uzbekistan – 2030'", Goal 58. lex.uz; uzbekistan2030.uz.

[351] Safarov B. et al. Prospects of Agrotourism Development in the Region // Economies. – 2024. – Vol. 12, No. 12; Rustamov A. Buxoro viloyatida agroturizm rivojlanishining joriy holati (2025-yil statistik ko'rsatkichlari asosida tahlil) // Qo'qon universiteti xabarnomasi. – 2026.

in order to win the competition for mobile resources[352]. Regional competitiveness is understood as the capacity of a territory to attract and retain factors of production and to raise the incomes of its population[353]. The link between the two runs through territorial capital: a brand converts heritage, atmosphere and reputation into a price premium, longer stays, repeat visits, lower investor risk and spillovers to crafts, agriculture and the creative industries.

Bukhara possesses an exceptional asset base: the historic centre has been a UNESCO World Heritage site since 1993, the city is a member of the UNESCO Creative Cities Network in the field of Crafts and Folk Art, and the region contains more than 800 cultural heritage objects[354]. The regional tourism programme for 2022–2026 set the targets of 5 million foreign and domestic tourists, 1.8 million foreign tourists, 600 million US dollars of tourism service exports an expansion of the accommodation base from 178 hotels with 5.4 thousand rooms in 2022 to about 8 thousand rooms, and an increase in hotel occupancy from 45 to 93 per cent by 2026[355]. Growth has outpaced the plan. In 2025 Uzbekistan received a record 11.7 million foreign tourists, 46.8 per cent more than in 2024[356], and Bukhara region alone received 2.25 million foreign tourists in January–November 2025 with tourism service exports of 614.1 million US dollars[357], so that the 2026 targets for arrivals and exports were exceeded a year early. The first Bukhara Biennial of contemporary art (5 September – 23 November 2025) attracted 1.8 million visitors, more than half of them residents of Bukhara and domestic tourists[358], and demonstrated the capacity of events to fill the autumn season and to position the region in the creative economy.

Three features of this growth matter for brand policy. First, it is driven mainly by neighbouring countries: in 2025 about three-quarters of arrivals to Uzbekistan came from Kyrgyzstan, Tajikistan and Kazakhstan, and arrivals from Turkmenistan, which borders Bukhara region, grew by 87 per cent[359]. Such cross-border flows generate lower spending per trip than long-haul markets, but they make Bukhara a natural gateway of Central Asian integration – the closest heritage city to the Turkmen border and a node of joint Silk Road itineraries (Merv – Bukhara – Samarkand). Second, the local intermediary sector is small: in 2024 the region had 44 of the country's 743 travel companies, which served 66.1 thousand persons and

---

[352] Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2007; Kavaratzis M., Ashworth G.J. City branding: an effective assertion of identity or a transitory marketing trick? // Tijdschrift voor Economische en Sociale Geografie. – 2005. – Vol. 96, No. 5. – P. 514.

[353] Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990; Camagni R. On the concept of territorial competitiveness: sound or misleading? // Urban Studies. – 2002. – Vol. 39, No. 13. – P. 2395–2411.

[354] UNESCO World Heritage Centre. Historic Centre of Bukhara (ref. 602, inscribed 1993); UNESCO Creative Cities Network: Bukhara – Crafts and Folk Art. whc.unesco.org; Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 543 of 28 September 2022 (more than 800 cultural heritage objects in the region).

[355] Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 543 of 28 September 2022 "On measures for further development of tourism in Bukhara region in 2022–2026", target indicators for 2022–2026. lex.uz/docs/-6212874.

[356] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Preliminary data on foreign citizens who visited Uzbekistan for tourism purposes in 2025 (11.7 million; Kyrgyzstan 3.3 million, Tajikistan 2.7 million, Kazakhstan 2.7 million; Turkmenistan +87%). – Tashkent, January 2026. stat.uz.

[357] Rustamov A. Op. cit. (data of the Bukhara regional tourism department for January–November 2025).

[358] Bukhara Biennial 2025: official results of the inaugural edition, 5 September – 23 November 2025. Uzbekistan Art and Culture Development Foundation. bukharabiennial.uz.

[359] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Op. cit. (structure of arrivals of citizenship, 2025).

sold 48.7 thousand tours[360], so that package design, transport and foreign-language guiding are largely organised from Tashkent or abroad. Third, published itineraries of inbound tour operators allocate Bukhara, as a rule, one or two nights within 7–10-day multi-city tours, which limits the share of trip expenditure captured by the region. Since accommodation, meals and craft purchases are the main items of visitor spending, an extension of the average stay from two to three nights would, other things being equal, raise tourism income of the region by roughly half without any increase in arrivals.

The brand position of Bukhara may therefore be characterised as strong but passive: the region is widely known, yet its image is defined almost entirely by the historic centre – a "museum city" that can be "seen" in a day, is interchangeable with Samarkand and Khiva for a first-time visitor, and does not communicate the higher-value products of crafts, gastronomy, pilgrimage and events. Five obstacles reinforce this position: (1) institutional fragmentation – no body is responsible for the brand as an economic asset, and administrations, cultural institutions, hotels and craftsmen each promote their own message; (2) seasonality – demand concentrates in spring and autumn, and the planned rise in occupancy to 93 per cent cannot be achieved without smoothing it; (3) spatial concentration of income within a few kilometres of the Poi-Kalon complex, while Gijduvan, Vobkent, Romitan and Karakul districts remain outside the main routes; (4) crafts sold as low-priced souvenirs without a protected regional designation of origin, quality mark or international e-commerce channel; (5) absence of regional data on length of stay, expenditure per visitor, satisfaction and brand awareness, which makes evidence-based brand management impossible.

International practice shows that such obstacles are addressed by a destination management organisation (DMO) that acts as custodian of the brand, coordinates public and private stakeholders, disperses flows from the historic core and measures results against explicit indicators[361].

Bukhara region has completed the quantitative stage of tourism growth ahead of schedule; the next stage of competitiveness depends on the quality of demand – length of stay, expenditure and repeat visits – which is precisely what a managed regional brand governs. The following measures are proposed.

1. Establish the Bukhara Destination Management Organisation as a non-profit public–private partnership under the regional khokimiyat, financed jointly from the regional budget, a share of the tourist tax and membership contributions of hotels and tour operators, with a mandate for the brand platform, marketing and monitoring.

2. Adopt a brand platform "Bukhara – living heritage" built on three pillars – heritage, living crafts and the creative economy – with sub-brands for the pilgrimage route, the craft route, desert tourism and the event calendar.

---

[360] National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. Press release "Development of tourism and recreation in the Republic of Uzbekistan", 12 August 2025: performance indicators of travel companies by region, 2024. stat.uz.
[361] UNWTO Guidelines for Institutional Strengthening of Destination Management Organizations (DMOs). – Madrid: World Tourism Organization, 2019; 'Overtourism'? Understanding and Managing Urban Tourism Growth beyond Perceptions. – Madrid: UNWTO, 2018.

3. Fix a year-round event calendar anchored by the biennial in autumn, a winter craft and gastronomy festival and spring pilgrimage seasons, targeting an average length of stay of at least three nights by 2030.

4. Register protected regional designations (“Bukhara gold embroidery”, “Gijduvan ceramics”) with a unified quality mark, craft clusters in Gijduvan and Bukhara and an export-oriented online marketplace, moving crafts from souvenir status to a premium segment of the brand.

5. Use the border position of the region for integration: joint cross-border products with Turkmenistan (Merv – Bukhara), a common Central Asian “Silk Road” itinerary and coordinated promotion in long-haul markets, where brand awareness rather than proximity determines demand.

6. Introduce a regional tourism data system and a single multilingual digital platform measuring length of stay, expenditure, monthly occupancy, district dispersal and brand awareness, with target values for 2027–2030 published in an annual brand report; growth should be bounded by carrying-capacity limits and resident participation so that authenticity – the core of the brand – is preserved.

The limitations of the study are the absence of official regional data on length of stay and expenditure per visitor; the estimates based on tour-operator itineraries should be verified by a visitor survey, which constitutes the direction of further research.

Implementation of these measures will convert the region’s intangible capital into sustainable income, support Goal 58 of the “Uzbekistan – 2030” Strategy and strengthen Bukhara’s position in the integrating Central Asian tourism market.

DINIY TURIZM OQIMLARINING MAKONIY TAQSIMOTI VA HUDUDIY NOMUTANOSIBLIK: BUXORO VILOYATI MISOLIDA “MARKAZ–PERIFERIYA” MODELINI QO‘LLASH

M.X.Kurbanova
Buxoro davlat universiteti
doktoranti, i.f.f.d.

Hududlarni mutanosib rivojlantirish va ularning iqtisodiy salohiyatini oshirish “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining muhim vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Turizm sohasida bu vazifa ayniqsa dolzarb bo‘lib, turistik oqimlar va ulardan keladigan daromadlar asosan yirik shaharlar markazida to‘planib, tumanlar va qishloq hududlari bu jarayondan kam naf ko‘rmoqda. 2019-yildan diniy turizm turizmning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda, biroq uning hududiy samarasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Buxoro viloyati bu muammoni o‘rganish uchun qulay obyektdir. Viloyatning diniy-ma’naviy resurslari makonda tarqoq joylashgan: “Yetti pir” qadamjolari shahar atrofi va bir nechta tumanlar bo‘ylab joylashgan. Ammo turistik boshqa turistik obyektlardagi ziyoratchilar oqimi va turistik xizmatlar asosan shahar markazi va unga tutash majmualarda to‘planmoqda. Shunday qilib, resurslar tarqoq,

talab esa markazlashgan. Bu ziddiyat hududiy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi va uni nazariy jihatdan asoslangan yondashuv bilan tahlil qilishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro viloyatida diniy turizm oqimlarining makoniy taqsimotini “markaz–periferiya” modeli asosida tahlil qilish, nomutanosiblik mexanizmlarini aniqlash va uni kamaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

“Markaz–periferiya” g‘oyasi R.Prebish tomonidan jahon iqtisodiyotini tahlil qilishda ilgari surilgan. J.Fridman uni mintaqaviy rivojlanishga tatbiq etib, markaz hududlar periferiyadan resurs, kapital va malakali kadrlarni o‘ziga tortishini asoslagan. G.Myurdal bu jarayonni kumulyativ sababiyat orqali tushuntirgan: markazning ustunligi o‘z-o‘zini kuchaytiradi, periferiyaga yoyilish samaralari esa sust bo‘ladi. P.Krugman yangi iqtisodiy geografiya doirasida o‘sib boruvchi daromad, transport xarajatlari va talab bog‘liqligi iqtisodiy faollikni markazda to‘plashini model shaklida isbotlagan [1].

Turizm geografiyasida bu masalaga boshqacha qarash ham mavjud. V.Kristaller rekreatsion turizm, aksincha, markazdan periferiyaga – tabiiy va sokin hududlarga intilishini ta’kidlagan. S.Britton esa periferiyaga yo‘nalgan turizmda ham daromadning katta qismi markazdagi tashkilotlarga qaytishini ko‘rsatgan [1]. Diniy turizmda G.Rinschede qisqa muddatli, bir kunlik ziyoratlar ustunligini qayd etgan. Bu xususiyat periferiyada tunab qolish va xarajatlar kam bo‘lishini izohlaydi.

Buxoro viloyatining diniy turizm makonini funksional jihatdan uch zonaga ajratish mumkin (1-jadval).

Tahlil nomutanosiblikni yuzaga keltiruvchi to‘rtta mexanizmni ko‘rsatdi. Birinchidan, o‘sib boruvchi daromad samarasi. Markazdagi xizmatlar hajmi katta bo‘lgani uchun ularning tanlovi va sifati yuqori, bu esa yangi oqimni yana markazga tortadi. Ikkinchidan, transport xarajatlari.

1-jadval

Buxoro viloyati diniy turizm makonining zonalari

Makoniy zona	Asosiy obyektlar	Oqim va xizmatlar xususiyati
Markaz	Buxoro shahrining tarixiy qismi, shaharga tutash Bahouddin Naqshband majmuasi	Oqimning asosiy qismi; mehmonxona, ovqatlanish, transport va gid xizmatlari to‘plangan; mavsumda yuklama yuqori
O‘tish zonasi	Shahar yaqinidagi Chor Bakr majmuasi va boshqa qadamjolar	Markazdan qisqa safar sifatida ziyorat qilinadi; turistik xizmatlar markazga bog‘liq
Periferiya	Jondor, Shofirkon, Romitan va boshqa tumanlardagi muqaddas qadamjolar	Tashriflar kam va bir kunlik; tunab qolish deyarli yo‘q; servis infratuzilmasi sust

Tumanlardagi qadamjolarga muntazam jamoat transporti kam, safar vaqti uzun bo‘lgani uchun ziyoratchilar markaz yaqinidagi obyektlar bilan cheklanadi. Uchinchidan, talab bog‘liqligi. Tur operatorlarining paketlari markaz atrofida tuziladi, periferiya qadamjolari ularga kam kiritiladi. To‘rtinchidan, axborot assimetriyasi. Periferiya obyektlari haqida ko‘p tilli va raqamli axborot yetarli emas.

Fikrimizcha, Buxoroda Kristaller ta’kidlagan qonuniyat teskari ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Diniy jihatdan eng muhim obyekt – Bahouddin Naqshband

majmuasi shaharga yaqin joylashgani sababli, ramziy va iqtisodiy markaz bir joyda birlashgan. Natijada, Myurdal ta’riflagan kumulyativ jarayon kuchayadi, ya’ni, investitsiyalar, malakali kadrlar va tadbirkorlik markazga oqadi, periferiyada esa bir kunlik, kam xarajatli tashrif modeli mustahkamlanadi. Bu holat uch turdagi oqibatga olib keladi: iqtisodiy samara markazda to‘planadi; tumanlarda aholi daromadi va bandligi oshmaydi; markazdagi majmualarga esa turistik mavsum kunlarida ijtimoiy va ekologik bosim ortadi.

Model nuqtai nazaridan o‘tish zonasi alohida ahamiyatga ega. Fridman yondashuvida bunday hududlar markaz ta’sirini periferiyaga yetkazuvchi ko‘prik vazifasini bajaradi. Buxoroda esa o‘tish zonasidagi qadamjolar hozircha markazning davomi sifatida ishlaydi. Ziyoratchi bu yerga markazdan kelib, yana markazga qaytadi. Agar o‘tish zonasi markazdan periferiyaga yo‘nalgan marshrutning birinchi bosqichiga aylantirilsa, oqim tabiiy ravishda tumanlar tomon davom etadi.

Xorijiy tajriba ham bu yondashuvni tasdiqlaydi. Ispaniyadagi Santyago-de-Kompostela ziyorat yo‘li marshrutga asoslangan diniy turizmning yorqin namunasidir. U yerda ziyoratchilar bir necha kun davomida yo‘l bo‘ylab joylashgan kichik shaharcha va qishloqlarda tunab, ovqatlanadi, xarid qiladi. Natijada, diniy turizm samarasi bitta markazda emas, butun yo‘nalish bo‘ylab taqsimlanadi. Buxoro vohasida joylashgan qadamjolarining ziyorat qilinishi an’anasi ham shunday marshrut modelini shakllantirish uchun tayyor asos bo‘la oladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra diniy turizm oqimlarini hududlar bo‘ylab mutanosib taqsimlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) Hududdagi tarixiy va ma’naviy ahamiyati yuqori, ammo atrofida turistik infratuzilma yaratilmagan qadamjolarning (Romitan tumanidagi Xo‘ja Ubbon va Xo‘ja Za’faron, Jondor tumanidagi Qizbibi va boshqalar) ro‘yxatini shakllantirish;

2) “Yetti pir” yo‘nalishining tayyor infratuzilmasi va tanilganligidan foydalanib, uni yaqin atrofdagi kam o‘zlashtirilgan qadamjolar bilan to‘ldiruvchi tuman marshrutlarini ishlab chiqish;

3) periferiya qadamjolari yonida mehmon uylari, ovqatlanish va hunarmandchilik xizmatlarini jamlagan xizmat ko‘rsatish shaxobchalarini tashkil etish, ya’ni, Krugman modelidagi aglomeratsiya samarasini kichik miqyosda periferiyada yaratish;

4) Shifobaxshlik an’anasiga, hunarmandchilik san’atiga ega qadamjolar salohiyatidan foydalanib, diniy turizmni ziyorat-sog‘lomlashtirish, ziyorat-hunarmandchilik yo‘nalishlari bilan uyg‘unlashtirish;

5) yangi tuman marshrutlarini tur paketlariga kiritgan tur operatorlari uchun rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish va viloyat markazidan voha tumanlariga muntazam ziyorat qatnovini yo‘lga qo‘yish;

6) kam o‘zlashtirilgan qadamjolar uchun ko‘p tilli raqamli xarita, audio-gid va onlayn axborot tizimini yaratib, axborot assimetriyasini bartaraf etish;

7) tumanlar kesimida tashriflar, tunab qolishlar va xarajatlar statistikasini yuritib, hududiy nomutanosiblik darajasini o‘lchovchi indeksni joriy etish.

Umuman olganda, Buxoro viloyatida diniy turizm resurslari butun voha bo‘ylab tarqoq, oqimlar esa shahar markazi va “Yetti pir” yo‘nalishida to‘plangan.

“Markaz-periferiya” modeli bu nomutanosiblikning sabablarini o‘sib boruvchi daromad, transport xarajatlari, talab bog‘liqligi va axborot assimetriyasini aniq ko‘rsatadi. Rivojlangan ziyorat yo‘nalishlarini chekka hududlardagi kam tanilgan qadamjolar bilan bog‘lash diniy turizmdan olinadigan iqtisodiy samarani tumanlarga yoyish, periferiya hududlarida bandlikni oshirish va markazdagi majmualarga bosimni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cheer, J. M., Mostafanezhad, M., & Lew, A. A. (2022). Cultural ecosystem services and placemaking in peripheral areas: a tourism geographies agenda. Tourism Geographies, 24(4–5), 495–500. https://doi.org/10.1080/14616688.2022.2118826

2. Farmanov, E., Dushanova, Y., Akhmatova, M., Kurbanova, M., Mutaliyeva, L., & Turobova, H. (2025). Balancing Heritage and Innovation: A Multi-Dimensional Framework for Smart City Implementation in Historic Urban Centers – The Case Of Bukhara, Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 648, 03024. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202564803024

3. Kurbanova, M. (2025). BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL. GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT, 3(10). https://doi.org/10.5281/zenodo.17471754

AYOLLARNING MEHNAT BOZORI VA RAHBARIYAT LAVOZIMLARIDAGI VAKILLIGIDA GENDER NOMUTANOSIBLIGI: GLOBAL TENDENSIYALAR TAHLILI

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna
Iqtisod fanlari doktori, professor
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi,
Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent filiali


Global iqtisodiy transformatsiya sharoitida ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki bilan bir qatorda ularning rahbarlik va qaror qabul qilish lavozimlaridagi vakilligi ham gender tengligini baholashning asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy forumining Global Gender Gap Report 2026 hisobotida gender tafovutlari mehnat bozoriga kirish bilan cheklanmay, kasbiy rivojlanish va yuqori boshqaruv pog‘onalariga ko‘tarilish jarayonlari kesimida ham tahlil qilingan [1]. Ushbu tadqiqotning maqsadi ayollar bandligining kengayishi ularning rahbarlik lavozimlaridagi vakilligida qay darajada aks etayotganini aniqlashdir.

Tahlil WEF hisobotining empirik ma’lumotlariga asoslangan. Mehnat bozoridagi ishtirok bo‘yicha tafovutning yopilish darajasi 97 ta mamlakat misolida uzoq muddatli dinamikada baholangan. Ayollarning ishchi kuchi va boshqaruvdagi

ulushi esa LinkedIn ma’lumotlari asosida 62 ta iqtisodiyot bo‘yicha o‘rganilgan [1]. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy usul hamda ko‘rsatkichlarning vaqt kesimidagi dinamikasini tahlil qilish usuli qo‘llanildi.


Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, mehnat bozoridagi ayollar va erkaklar ishtiroki o‘rtasidagi tafovutning yopilish darajasi 2006-yildagi 63,7 foizdan 2026-yilda 66,5 foizga ko‘tarilgan, ya’ni yigirma yil davomida o‘sish 2,8 foiz bandni tashkil etgan. Ayollarning umumiy ishchi kuchidagi ulushi 2015-yildagi 39,9 foizdan 2025-yilda 42,0 foizga oshgan, biroq 2026-yil iyuniga kelib 41,8 foizgacha biroz pasaygan [1]. Bu o‘sish tendensiyasining barqaror emasligini ko‘rsatadi.

Yuqori darajadagi boshqaruvda ayollar ulushi 2015-yildagi 26,7 foizdan 2023-yilda 29,4 foizga, 2026-yilda esa 29,6 foizga yetgan. Keyingi davrda ushbu ko‘rsatkich deyarli o‘zgarmagan, ya’ni o‘sish sur’ati sezilarli darajada sekinlashgan [1]. 2015–2026-yillarda umumiy ishchi kuchidagi ulush 1,9 foiz bandga, yuqori boshqaruvdagi ulush esa 2,9 foiz bandga oshgan. Shunga qaramay, ikkala ko‘rsatkich o‘rtasidagi tafovut 13,2 foiz banddan 12,2 foiz bandgacha, ya’ni atigi 1,0 foiz bandga qisqargan (1-rasm). Demak, bandlikning kengayishi avtomatik ravishda rahbarlikdagi mutanosib vakillikni ta’minlamaydi.



1-rasm. Ayollarning umumiy ishchi kuchi va yuqori darajadagi boshqaruvdagi ulushi, 2015 va 2026-yillar (%). Manba: WEF, Global Gender Gap Report 2026 [1] asosida tuzilgan.

Tadqiqotning eng muhim natijasi ayollar ulushining karyera zinapoyasi bo‘ylab qisqarishi, ya’ni WEF tomonidan “drop to the top” deb nomlangan hodisadir. 2026-yilda ayollarning boshlang‘ich lavozimlardagi o‘rtacha ulushi 46,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, C-suite darajasida bu ko‘rsatkich 23,0 foizga, ya’ni ikki baravarga kamaygan. Bosh direktorlar (CEO) orasida ayollar ulushi 19,1 foizni tashkil etadi (2-rasm) [1]. Bu natija gender tafovutlari faqat ishga qabul qilish bosqichida emas, balki kasbiy ko‘tarilish mexanizmlarida ham shakllanishini ko‘rsatadi.



2-rasm. Ayollar ulushining karyera pog‘onalari bo‘yicha o‘zgarishi, 2026-yil (%). Manba: WEF, Global Gender Gap Report 2026 [1] asosida tuzilgan.

Global miqyosda ayollar vakilligi kengaymoqda, biroq bu jarayon yuqori rahbarlik lavozimlariga mutanosib tarzda ko‘chmayapti. Gender tafovutlarini qisqartirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1) mentorlik, malaka oshirish va rahbarlikka tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali ayollar karyerasini qo‘llab-quvvatlash;

2) rahbarlik lavozimlariga tanlov jarayonlarida aniq kasbiy mezonlarni joriy etish va karyera o‘sishini tizimli monitoring qilish;

3) ayollarni texnologik, muhandislik va boshqaruv yo‘nalishlaridagi yuqori malakali faoliyatga ko‘proq jalb qilish;

4) gender monitoringida ayollar ulushini umumiy bandlik bilan cheklamay, lavozim darajasi va karyera bosqichi kesimida muntazam baholash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2026. https://reports.weforum.org/docs/WEF_GGGR_Report_2026.pdf

HUDUDLAR IQTISODIYOTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH

Maxamatova Malika Abdurashidovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash”
kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global transformatsiya jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, to‘rtinchi sanoat inqilobi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), «yashil» iqtisodiyot hamda bilimlarga asoslangan rivojlanish modelining shakllanishi hududlar iqtisodiy taraqqiyotining yangi omillarini yuzaga keltirmoqda.

Bunday sharoitda hududlarning raqobatbardoshligi tabiiy resurslar va arzon mehnat resurslari bilangina emas, balki innovatsion salohiyat, ilmiy-texnik

imkoniyatlar, inson kapitali sifati, texnologik rivojlanish va raqamli infratuzilma darajasi bilan belgilanmoqda.

Hududlarning innovatsion rivojlanishi iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, hududlarda samarali innovatsion tizimni shakllantirish va uning institutsional asoslarini takomillashtirish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Innovatsion tizim davlat organlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta’lim tashkilotlari, biznes subyektlari, moliyaviy institutlar hamda innovatsion infratuzilma elementlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni ta’minlaydi. Mazkur tizim orqali ilmiy ishlanmalarni yaratish, moliyalashtirish, tijoratlashtirish va ishlab chiqarishga joriy etish jarayonlarining uzviyligi ta’minlanadi. Natijada texnologik tadbirkorlik rivojlanib, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish kengayadi hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi va raqobat ustunliklari mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda ham hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF–165-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi»da innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, hududiy innovatsion tizimlarni takomillashtirish, texnologik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap loyihalarni moliyalashtirish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan [1].

Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida innovatsion rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik salohiyat, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari, raqamli infratuzilma va inson kapitalidan foydalanish samaradorligi bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud. Mazkur holat hududlarning mavjud raqobat ustunliklaridan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va hududiy innovatsion tizimlarning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shundan kelib chiqib, hududlar iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishning innovatsion tizimini takomillashtirishda ilm-fan, ta’lim va biznes integratsiyasini kuchaytirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish, texnologik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda inson kapitalidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini yuksaltirish va iqtisodiyot tarmoqlarini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayon hududiy innovatsion ekotizimlarni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta’lim muassasalari, sanoat korxonalari hamda xususiy sektor o‘rtasidagi integratsiya va hamkorlikni kuchaytirish asosida amalga oshirilmoqda.

Buning natijasida innovatsion mahsulotlar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘nalishlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda mamlakat bo‘yicha innovatsion mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqargan korxona hamda tashkilotlar soni 5 026 tani tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkich respublika iqtisodiyotida innovatsion faoliyat ko‘lami kengayib borayotganini ifodalasa-da, uning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Xususan, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni bo‘yicha Toshkent shahri 912 ta ko‘rsatkich bilan yetakchilik qilgan. Shuningdek, Xorazm viloyatida 446 ta, Toshkent viloyatida 434 ta, Buxoro viloyatida 426 ta va Surxondaryo viloyatida 420 ta korxona qayd etilgan. Mazkur hududlarning innovatsion faollik bo‘yicha yuqori natijalarga erishishida sanoat ishlab chiqarishining rivojlanganligi, ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalarining mavjudligi, innovatsion infratuzilmaning shakllanganligi, texnoparklar faoliyati hamda investitsiya muhitining nisbatan qulayligi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston hududlarida innovatsion ekotizim elementlarining shakllanish darajasi bir xil emasligini va innovatsion salohiyat hududlar kesimida sezilarli darajada tabaqalashganini ko‘rsatadi. Bu holat innovatsion faollikning faqat iqtisodiy resurslar bilan emas, balki inson kapitali, ilmiy infratuzilma, davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit va xususiy sektorning innovatsiyalarga bo‘lgan talabi bilan ham uzviy bog‘liq ekanligini anglatadi. Innovatsion ekotizim samaradorligi indeksi (IESI) bo‘yicha Toshkent shahri (0,96 ball) mutlaq yetakchi hisoblanadi.

Bu yerda mamlakatning asosiy ilmiy tadqiqot institutlari, akademik markazlari, yetakchi oliy ta’lim muassasalari, innovatsion markazlar, IT Park rezidentlari va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish korxonalari jamlangan. Shuningdek, venchur moliyalashtirish imkoniyatlari, raqamli infratuzilma va xususiy investitsiyalar hajmining yuqoriligi innovatsion g‘oyalarni tezkor ravishda tijoratlashtirish imkonini bermoqda. Natijada Toshkent shahri innovatsiyalarni yaratish, joriy etish va bozorlashtirish bo‘yicha respublikada yetakchi pozitsiyani egallab turibdi.

O‘zbekiston hududlari bo‘yicha olib borilgan tahlillar innovatsion faollik ko‘rsatkichlari o‘rtasida sezilarli hududiy tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Innovatsion ekotizim elementlari nisbatan yaxshi shakllangan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand, Navoiy va Xorazm viloyatlarida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, investitsiyalarni o‘zlashtirish hamda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish yo‘nalishlarining rivojlanish darajasi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

Shu bilan birga, innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ilmiy-tadqiqot salohiyati bilan ishlab chiqarish sektori o‘rtasidagi aloqalarning cheklanganligi va xususiy sektor tomonidan innovatsion loyihalarga

investitsiya kiritish imkoniyatlarining pastligi ayrim hududlarda raqobatbardoshlikni oshirishga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shundan kelib chiqib, hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish faqat alohida innovatsion infratuzilma obyektlarini tashkil etish bilan cheklanmasligi, balki ilm-fan, ta’lim, biznes, moliya va davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi lozim. Bunday yondashuv hududlarda innovatsion faollikni kengaytirish, yangi texnologiyalarni tezkor o‘zlashtirish va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini oshirish orqali hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi «2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF–165-sonli Farmoni**.**

2. Люлюченко М.В. Формирование и развитие инновационных экосистем мезоуровня в условиях цифровой экономики: автореферат дис. ... кандидата экономических наук : 08.00.05 / Люлюченко Михаил Владимирович; — Белгород, 2022. — 23 с.

3. Усмонов Б.Ш., Раҳимов Ф.Х., Шукуриллаев У.Б. Инновациялар ва кластерлаштириш иқтисодий тараққиёт кафолати. – Тошкент.: “KALEON PRESS”, 2022. – 176 б.

4. Ташматов Р.Х. Ҳудудларни инновацион ривожлантириш усуллари ва уларнинг инновацион салоҳиятини баҳолаш методикаси // Экономика и финансы (Узбекистан). 2017. №4.

5. Турсунов Б. О. Роль инновационного развития малого бизнеса в обеспечении конкурентоспособности национальной экономики // Россия: тенденции и перспективы развития. 2020. №15-2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/rol-innovatsionnogo-razvitiya-malogo-biznesa-v-obespechenii-konkurentosposobnosti-natsionalnoy-ekonomiki.

REGIONAL ECONOMIC SPILLOVERS OF SEAPORT-DRY PORT MULTIMODAL CONNECTIVITY: A CHINA-UZBEKISTAN CORRIDOR PERSPECTIVE

Mu Zhendi
PhD Candidate in Management (08.00.13),
“Silk Road” International University
of Tourism and Cultural Heritage,
Zhejiang Seaport Group, China

Lower generalized transport costs are translated into better market access, denser trade linkages and changes in firms' location incentives, which results in wider economic effects of transport infrastructure. These effects are not just sectoral,

but also spatial, from a new economic geography point of view, because enhanced connectivity can boost agglomeration in some locations and diffuse it in others. Dry ports expand the capabilities of seaports to the land and can facilitate gateway-hinterland connections to become multimodal transport networks.[362,363]

At this juncture, the China-Uzbekistan corridor is an opportune setting to explore these spillovers. In 2025, the volume of foreign trade in Uzbekistan amounted to USD 81.2 billion, of which the share of China was 21.2% (USD 17.2 billion). In January-June 2026, China continued to be the leading trade partner of Uzbekistan with bilateral trade turnover of approximately USD 9.5 billion. Meanwhile, the construction of the China-Kyrgyzstan-Uzbekistan (CKU) railway is on track and China and Uzbekistan are attempting to make existing multimodal corridors more appealing. Based on this background, the paper poses the following questions: How can the multimodal connectivity between seaports and dry ports generate regional economic spillovers and what governance conditions are needed for them to materialise? The analysis is intentionally mechanism-based, in that it brings together recent empirical evidence and official corridor data, but does not make a new causal estimate.[364,365]

The core transmission mechanism is sequential: increased multimodal connectivity reduces generalised logistics costs, widens market access, encourages trade and investment responses, encourages agglomeration of industry and services, and improves regional competitiveness. Dry ports reinforce this mechanism by consolidating cargo, moving selected customs and logistics functions inland, linking production areas to rail services, and reducing the distance between inland firms and maritime gateways. Evidence from Ningbo-Zhoushan Port is especially relevant: a difference-in-differences study found that dry-port construction increased city-port container volumes by 31.5%, with foreign trade growth and port substitution effects acting as important transmission channels.[366]

However, connectivity gains should not be treated as spatially automatic or uniform. Recent evidence shows that dry-port benefits vary with inland location, rail-service frequency, cargo time value and environmental-policy conditions. Research on the Western China-Central Asia multimodal network likewise identifies marked differences in node accessibility and modal diversity. Four spillover channels are therefore central to the China-Uzbekistan case: (1) a market-access effect, through lower border-to-market frictions; (2) a trade-and-agglomeration effect, as improved accessibility changes location incentives; (3) a node-upgrading

[362]Khaslavskaya, A., & Roso, V. (2020). Dry ports: research outcomes, trends, and future implications. Maritime Economics & Logistics, 22, 265-292. https://doi.org/10.1057/s41278-020-00152-9; Fellah, S., & Mabrouki, C. (2026). Dry Port-Seaport System: A Systematic Review. Future Transportation, 6(3), 96. https://doi.org/10.3390/futuretransp6030096.

[363]Rosik, P., & Wójcik, J. (2023). Transport Infrastructure and Regional Development: A Survey of Literature on Wider Economic and Spatial Impacts. Sustainability, 15(1), 548. https://doi.org/10.3390/su15010548.

[364]Ministry of Transport of the Republic of Uzbekistan. (2026, July 15). China-Kyrgyzstan-Uzbekistan railway project: A new stage of cooperation. https://gov.uz/ru/mintrans/news/view/193833.

[365]National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (2026, January 22; August 6). Uzbekistan foreign-trade releases for 2025 and January-June 2026. https://stat.uz/

[366]Wan, S., Luan, W., Chen, Y., & Lin, Q. (2022). Influence of dry ports construction on seaport growth: Case of Ningbo Zhoushan Port. Transport Policy, 117, 40-47. https://doi.org/10.1016/j.tranpol.2022.01.008.

effect, when inland terminals absorb customs, consolidation, distribution and other value-added functions; and (4) a coordination externality, when shared data, synchronized schedules and greener modal choices improve system-wide reliability.[367,368]

The corridor connects the maritime gateway system of China to a double-landlocked Central Asian economy that relies on the availability of seaports and cross-border rail routes for external competitiveness. Ningbo-Zhoushan evidence shows that inland-port development strengthens seaport-hinterland interaction, but a single-node model should not be replicated on the Uzbek side. Regional spillovers will rely on the development of inland logistics nodes with functions that match local industrial structures, border access, customs capability and market demand. In this way, the throughput of corridors is an intermediate measure and the more relevant question is whether connectivity broadens the effective economic geography of firms and regions.

The CKU railway could provide a shorter, more diversified east-west connection, but its benefits for the region will not be assured by the construction of new trunk capacity. International evidence shows that transport investments can generate positive trade and GDP effects while also producing heterogeneous spatial outcomes. Recent spatial research similarly finds that the agglomeration effects of transport infrastructure differ by infrastructure type, economic activity and time horizon. For Uzbekistan, the policy challenge is therefore to prevent improved trunk connectivity from being absorbed only by a few major nodes. Rail-slot coordination, interoperable information systems, predictable customs procedures, adequate terminal capacity and last-mile links to production centres are complementary assets that determine whether accessibility is translated into wider regional participation.[369,370]

Three policy priorities follow. First, corridor performance should be evaluated through regional outcomes as well as transport outputs. Alongside transit time, reliability and logistics cost, monitoring should include export participation, industrial investment, employment, value-added logistics services and modal carbon intensity. Second, inland nodes should pursue differentiated functional upgrading rather than homogeneous expansion. Their functions should be related to the local demand for industrial products, their centrality and their capacity to provide services, so that connectivity can facilitate complementary regional specialization. Third, China-Uzbekistan cooperation should institutionalize cross-border data exchange and operational coordination among seaports, rail companies, customs authorities,

[367]Sun, R., Xin, Y., Shao, Y., & Ju, P. (2026). Structural Entropy, Modal Diversity Entropy, and Accessibility Differentiation: A Study of the Western China-Central Asia Cross-Border Multimodal Transportation Network. Entropy, 28(7), 823. https://doi.org/10.3390/e28070823.

[368]Li, J., Lim, H., & Lee, S.-Y. (2026). Analyzing regional disparities in dry port benefits. Maritime Business Review, 11(2), 106-129. https://doi.org/10.1108/MABR-01-2025-0002.

[369]Liu, X., Hickman, R., Cao, M., & Tao, Y. (2026). Can transport infrastructure really facilitate economic activity concentration? A spatial and temporal spillover perspective. Transportation Research Part A: Policy and Practice, 204, 104831. https://doi.org/10.1016/j.tra.2025.104831.

[370]Shevtsova, Y., Díaz-Lanchas, J., Persyn, D., & Mandras, G. (2025). Trade spillover effects of transport infrastructure investments: a structural gravity analysis for EU regions. Regional Studies, 59(1), 2441231. https://doi.org/10.1080/00343404.2024.2441231.

dry ports and logistics platforms. This coordination reduces interface uncertainty and enhances the capacity of firms outside of the major hubs to take advantage of corridor accessibility.

The main finding is that seaport-dry port multimodal connectivity is a necessary but not sufficient condition for regional economic transformation. When there is physical connectivity, coupled with capable inland nodes and effective cross-border coordination, spillovers arise. This paper's contribution is thus a three-layer spillover-capture framework: corridor accessibility, node functional capability, and institutional coordination. This framework applies a new economic geography lens to the China-Uzbekistan corridor and shifts evaluation from freight volume to the distribution, quality, and durability of regional benefits.

HUDUDLARDA YUQORITEXNOLOGIYALI INNOVATSION-TA'LIM KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISHGA USLUBIY YONDASHUVLAR

Olimxonova Dilnoza Abdurashid qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi stajor tadqiqotchisi

O‘zbekistonning 2030-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasining maqsadi bilim va yuqori texnologiyalarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan. O‘zbekistonda muhandislik, AT va boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlarda kadrlar yetishmovchiligi kuzatilmoqda. Ta’lim va ilm-fan o‘rtasidagi zaif aloqa, universitetlardan ishlab chiqarishga texnologiyalar transfer tizimi yetarli darajada rivojlanmagan.

“Iqtisodiyotni klasterlashtirish deganda nafaqat xo‘jalik yuritishning tashkiliy shakllari evolyutsiyasi, balki davlat-xususiy sherikligi, ta’lim tuzilmalari, ilmiy-tadqiqot sektorlari, yirik va kichik biznesning hamkorligi, davlat tomonidan tartibga solishni institutsionallashtirish asosida jamiyat muassasalarini tarkibiy isloh qilish tushuniladi”[371]. Klaster kontseptsiyasi uchun integratsiyani institutsional tushunish alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini tarmoq, texnologik va kooperatsion mehnat taqsimoti emas, balki tarmoqlararo va mintaqalararo integratsiyalar belgilaydi.

Klasterning tizimni tashkil etuvchi unsuri bu uning yaratilish gipotezasidir. U klaster ishtirokchilarining shaxsiy maqsadlaridan farq qiladi, chunki u ishtirokchilarining foydasini maksimallashtirishdan iborat emas, balki barqaror rivojlanish, klaster ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirish uchun zarur shart-sharoitlar, tashkiliy va ijtimoiy imkoniyatlar yaratishdan iborat[372].

Takliflarni ishlab chiqishda biz global raqobat sharoitida ichki bozorda raqobatni yaxshilash va eksport bozorlariga yo’naltirilganlikni ta’minlash maqsadida infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni

[371]Портер М. Международная конкуренция: Пер. с англ. / Под ред. и с предисловием В. Д. Щетинина. – М.: Междунар. отношения, 2005. – 859 с.
[372]Мингалева Ж., Ткачева С. Кластеры и формирование структуры региона. // МЭМО. - 2020. - №5. - С.97-102.

o’zlashtiirish bo'yicha o'z vaqtida chora-tadbirlar ko'rish zarurligidan iborat bo'lgan paradigmadan kelib chiqdik. Shu munosabat bilan O‘zbekiston iqtisodiyotida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish jarayonida innovatsion rivojlanishning yangi vositalarini va zamonaviy sharoitlarga moslashtirilgan ta’lim tizimini ishlab chiqish va takomillashtirish talab etiladi.

Shunday qilib, jahon trendlariga muvofiq, bugungi kunda zamonaviy ta'lim muassasalari ta'lim va ilmiy xizmatlarni tijoratlashtirishga e'tibor qaratishlari kerak. Shu munosabat bilan yangi innovatsion texnologiyalar, zamonaviy ta’lim resurslari va hudud iqtisodiyoti raqobatbardoshligining o‘sishini ta’minlaydigan startaplarni yaratish maqsadida davlat, ilmiy-ta’lim hamjamiyatlari va xususiy sektorlar o’rtasida sheriklik va o’zaromanfaatli hamkorlik o’rnatish orqali Buxoro muhandislik-texnologiyasi instituti negizida mintaqaviy innovatsion ta’lim klasterini (sinov rejimida) shakllantirish taklif etilmoqda.

Innovatsion ta’lim klasterini yaratishning afzalliklaridan biri ta’lim sifatini oshirishdir. Klaster talabalarga ilg‘or ta’lim dasturlari va zamonaviy laboratoriyalardan foydalanish imkoniyatini beradi, muhandislik, axborot texnologiyalari va iqtisodiyotning boshqa yuqori texnologiyali tarmoqlarida ilmiy izlanishlarni rag‘batlantiradi. Yangi ish o‘rinlarining yaratilishi yuqori texnologiyali yangi kompaniyalarning tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Raqobatbardoshligini oshirishni ta’minlaydigan innovatsion texnologiyalarni yaratish va ko‘paytirish maqsadida davlat, mahalliy hokimiyat organlari, ilmiy-ta’lim hamjamiyatlari va xususiy sektorlar o’rtasida sheriklik va o’zaromanfaatli hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish orqali innovatsion-ta’lim sohasida yuqori texnologiyali klasterlarni (sinov loyihada) shakllantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bunga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

hududlar iqtisodiyotini rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlarining SWOT tahlili va muammoli vaziyatlarni, o’sish salohiyati va tarmoqda yuqori texnologiyali klasterlarning, xususiy sektorning loyihada ishtirok etishi uchun ishbilarmonlik muhitining rivojlanishini aniqlash;

klasterli rivojlanishning ilmiy konsepsiyalarini hududlar sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari va xususiyatlarini aniqlagan holda tizimlashtirish;

tarmoq ixtisoslashuvi xususiyatlarini va ishbilarmonlik muhitining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda, hududlarning innovatsion-ta’lim sohasining klaster salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish;

mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari va faoliyatining xususiyatlarini, shuningdek, hududlarning innovatsion-ta’lim sohasidagi xalqaro raqobat darajasini tahlil qilish;

hududlarda yuqori texnologiyali innovatsion-ta’lim klasterlarini yaratishga ta’sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va ularning iqtisodiy o‘sish strategiyasiga ta’sirini baholash;

infratuzilma sharoitlarini yaxshilash, bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xususiy tadbirkorlarning moliyaviy resurslarini jalb qilish;

institutsional muhitni o‘rganish va uning yuqori texnologiyali innovatsion-ta’lim klasterlarini shakllantirishga ta’sirini aniqlash (me’yoriy-huquqiy hujjatlar, ta’lim tizimi, milliy standartlarning uyg‘unlashuvini ta’minlash, IT sektorining institutsional salohiyatini mustahkamlash va mahalliy hokimiyat organlari vakillari va jamiyat o‘rtasidagi sheriklik munosabatlarini rivojlantirish);

rivojlanish tendentsiyalari hamda ichki va jahon bozorlarida raqobat kuchayganligini hisobga olgan holda Buxoro viloyatida yuqori texnologiyali innovatsion-ta’lim klasterini shakllantirish algoritmi va amaliy tavsiyalarini ishlab chiqsin.

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning klaster yondashuviga asoslangan ilmiy yangiligining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy maqomi, tarmoq va geografik mansubligi bo‘yicha xilma-xil bo‘lgan tashkilotlarning yuqori qo’shilgan qiymat va inson kapitali ishtirokidagi yaxlit ishlab chiqarish tizimiga birlashtirilishi;

klasterning barcha ishtirokchilari o‘zlarining huquqiy va iqtisodiy mustaqilligini saqlab qoladilar, bu esa ierarxik boshqaruv organlarini yaratishni talab qilmaydi, ma’muriy va tashkiliy xarajatlarni kamaytiradi;

patentlar, litsenziyalar va boshqa nomoddiy aktivlardan birgalikda foydalanish tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishda tranzaksiya xarajatlarini qisqartirishga olib keladi;

alohida korxonalar faoliyatini tartibga solishdan farqli o'laroq, klasterni davlat va mintaqaviy boshqarish strategik boshqaruvni, tarmoqlararo aloqalarni (ta'lim, ilmiy tadqiqot, kichik biznes, IT sohasi, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar) rivojlantiradi, davlat-xususiy sheriklik asosidagi innovatsion infratuzilmani yaratishga imkon beradi.

Umumiy tizim xarakteridagi klasterlarni shakllantirishning muhim uslubiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

boshqaruvning ma’muriy usullarini tashabbuslar, innovatsiyalar, investitsiyalar va mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning o‘zini-o‘zi rivojlantirishini rag‘batlantiradigan iqtisodiy tartibga solishning bilvosita usullariga izchil almashtirishga e’tibor qaratish;

yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar (Xitoy, Malayziya, Koreya, Hindiston va boshqalar) tajribasini hisobga olgan holda mavjud blok va segmentlarni tarkibiy o‘zgartirish va istiqbolli innovatsion-ta’lim klasterlari tuzilmasini ishlab chiqish;

ta'lim, innovatsiyalar va biznesni integratsiyalash vositasi sifatida institutsional islohot doirasida klasterli rivojlantirishning bozorga yo'naltirilgan yangi komponentlarini yaratish;

institutsionallashtirish va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar guruhlarini o’z ichiga oladigan yuqori texnologiyali innovatsion-ta’lim klasterlari negizida biznes bilan sheriklik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish (davlat-xususiy sheriklik mexanizmi).

Hudidiy oliy ta’lim nuassalari instituti negizida O‘zbekiston iqtisodiyotining yuqori texnologiyali tarmoqlari uchun raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlar

tayyorlashga ixtisoslashgan innovatsion-ta’lim klasterini shakllantirish nazarda tutiladi. Mazkur klaster ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash orqali kompetensiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnikaviy hamda texnologik salohiyatni oshirish, shuningdek, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar raqobatbardoshligini barqaror yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi. Klaster doirasida ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish hamda texnologiyalar transferini jadallashtirish mexanizmlari takomillashtiriladi. Natijada hududning innovatsion salohiyati oshib, sanoat korxonalarining malakali kadrlar va zamonaviy texnologiyalarga bo‘lgan ehtiyojini samarali qondirish imkoniyatlari kengayadi.

Shunday qilib, BMTI negizida davlat, xususiy tadbirkorlik va ta’limning kompleks va maqsadli sa’y-harakatlariga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar Buxoro viloyati iqtisodiyotining qisqa va o‘rta muddatli istiqbolda yuqori texnologiyali innovatsiyalarga asoslangan dinamik rivojlanishini ta’minlaydi, tarmoqlarning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi. Innovatsion-ta’lim klasteri faoliyati samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari (KPI) ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Мингалева Ж., Ткачева С. Кластеры и формирование структуры региона. // МЭМО.2000№5.с.97–102.

2.Мигранян А.А. «Теоретические аспекты формирования конкурентоспособных кластеров».- Интернет-ресурс: http://www.krsu.edu.kg/vestnik/v3/a15.html

3.Филиппов П. Кластеры конкурентоспособности // Ж. «Эксперт Северо-Запад» - 2003. - № 43 (152). С.24. http://stra.teg.ru/ienta/innovation/1086/print(17/11/2003).

4.Тўхлиев Н. Тараққиётнинг ўзбек модели / Н.Тўхлиев. – Тошкент.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2012.

5. Цихан Т.В. Кластерная теория экономического развития // Теория и практикауправления.2003.№5.

6.Харт Д.А. Инновационные кластеры: основные идеи // Институт регио-нальных инновационных систем (ИСИР) : [сайт]. URL: http://www.innosys.spb.ru/?id=886

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR BANDLIGI VA TA’LIMINING TUG‘ILISH JARAYONLARIGA TA’SIRI: DEMOGRAFIK-EKONOMETRIK TAHLIL

Omanova Kamola Botir qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi stajyor-tadiqotchisi

Tug‘ilish darajasi aholining takror ishlab chiqarilishini, demografik dinamikani va kelgusidagi mehnat resurslarining shakllanishini belgilovchi asosiy


ko‘rsatkichlardan biridir. Hozirgi bosqichda fertillik jarayonlarini ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki, oliy ta’limga qamrovi va nikoh yoshi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi [1,2,3].

Ayollar bandligining fertillikka ta’siri ikki qarama-qarshi mexanizm orqali shakllanishi mumkin: bir tomondan, mehnat faoliyati vaqt va imkoniyat xarajatlarini oshiradi, ikkinchi tomondan oila daromadini ko‘paytirib, reproduktiv qarorlar uchun moddiy asos yaratadi [2,5]. Oliy ta’limning kengayishi esa ayollarning kasbiy faoliyati, nikohga kirish muddati va reproduktiv xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois mazkur omillarning tug‘ilish darajasi hamda uning yosh tarkibiga ta’sirini kompleks baholash zarur [4,6].

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda ayollar bandligi, oliy ta’limga qamrov va nikoh yoshining tug‘ilish jarayonlari bilan bog‘liqligini jami tug‘ilish koeffitsiyenti (TFR) va yoshga xos tug‘ilish koeffitsiyentlari (ASFR) kesimida demografik va ekonometrik usullar yordamida baholashdan iborat.

Tug‘ilish jarayonlari ikki ko‘rsatkich orqali tahlil qilindi: TFR tug‘ilishning umumiy darajasini, ASFR esa uning yosh tarkibini ifodalaydi. Tushuntiruvchi omillar sifatida ayollar bandligi, oliy ta’limga qamrov va nikoh yoshi ko‘rsatkichlari qo‘llanildi. Empirik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy statistikasiga asoslandi [9]. Tahlilda Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari, TFR uchun ARDL (avtoregressiv taqsimlangan lag) modeli [7] hamda Granger sababiyat testi qo‘llanildi.

Yoshga xos tug‘ilish dinamikasi. 2013–2025-yillar ma’lumotlari tahlili 20–24 yosh guruhining tug‘ilishdagi yetakchi o‘rni saqlanib qolganini ko‘rsatdi: bu guruhda ASFR 2013-yildagi 185,1 dan 2024-yilda 250,0 gacha oshgan, 2025-yilda esa 244,9 ni tashkil etgan [9]. Shu bilan birga, katta reproduktiv yosh guruhlarida ham tug‘ilish intensivligi kuchaygan: 30–34 yoshda ASFR 78,5 dan 116,1 gacha (taxminan 47,9 foizga), 35–39 yoshda esa 23,5 dan 55,4 gacha (taxminan 2,4 baravar) ortgan (1-rasm). Demak, tug‘ilish intensivligining oshishi faqat 20–24 yoshdagi ayollar bilan cheklanmayapti.




1-rasm. Tanlangan yosh guruhlarida yoshga xos tug‘ilish koeffitsiyenti (ASFR), 2013 va 2025-yillar.

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [9] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TFR bilan ayollar bandligi, oliy ta’limga qamrov va nikoh yoshi o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari mos ravishda −0,54, 0,84 va −0,68 ni tashkil etdi (2-rasm).

Ya’ni ayollar bandligi va nikoh yoshi bilan teskari, oliy ta’limga qamrov bilan esa to‘g‘ri statistik bog‘liqlik kuzatildi. Biroq korrelyatsiya sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi, shu sababli olingan natijalar ehtiyotkorlik bilan talqin etilishi lozim.



2-rasm. Jami tug‘ilish koeffitsiyenti (TFR) bilan ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘rtasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlari

Manba: muallif hisob-kitoblari.

TFR bo‘yicha ARDL modelining determinatsiya koeffitsiyenti R^2=0,9674, tuzatilgan R^2 esa 0,9348 ni tashkil etdi. Uzoq muddatli baholashda ayollar bandligi koeffitsiyenti −0,5013, oliy ta’limga qamrov koeffitsiyenti esa 0,1511 ga teng bo‘ldi. TFRning bir davr oldingi qiymati koeffitsiyenti 0,9634 bo‘lib, tug‘ilish darajasida yuqori vaqt davomiyligi (inersiya) mavjudligini ko‘rsatadi [7] (1-jadval).

1-jadval

TFR bo‘yicha ARDL modeli asosiy natijalari

Ko‘rsatkich	**Qiymat**
Determinatsiya koeffitsiyenti (R^2)	0,9674
Tuzatilgan R^2	0,9348
Uzoq muddatli koeffitsiyent: ayollar bandligi	−0,5013
Uzoq muddatli koeffitsiyent: oliy ta’limga qamrov	0,1511
TFRning bir davr oldingi qiymati koeffitsiyenti	0,9634

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Oliy ta’limga qamrov → TFR yo‘nalishida F=29,08 (p=0,000162), nikoh yoshi → TFR yo‘nalishida F=6,64 (p=0,024) qayd etildi, ya’ni ikkala yo‘nalishda ham natija statistik jihatdan ahamiyatli. Ayollar bandligi → TFR yo‘nalishida esa statistik ahamiyatli natija aniqlanmadi (2-jadval). Bu fertillik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p yo‘nalishli ekanini ko‘rsatadi.


2-jadval

Granger sababiyat testi natijalari (bog‘liq o‘zgaruvchi: TFR)

Yo‘nalish	F-statistika	p-qiymat	Ahamiyatlilik
Oliy ta’limga qamrov → TFR	29,08	0,000162	Ha
Nikoh yoshi → TFR	6,64	0,024	Ha
Ayollar bandligi → TFR	—	—	Yo‘q

Manba: muallif hisob-kitoblari.

ASFR kesimidagi tahlilda ayollar bandligi bilan eng kuchli teskari bog‘liqlik 25–29 yosh guruhida (r=−0,7992), oliy ta’limga qamrov bilan eng yuqori to‘g‘ri bog‘liqlik 20–24 yosh guruhida (r=0,8734), nikoh yoshi bilan esa eng kuchli teskari bog‘liqlik 40–44 yosh guruhida (r=−0,8900) aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. ASFR bilan ijtimoiy-iqtisodiy omillar o‘rtasidagi eng kuchli bog‘liqliklar yosh guruhlari kesimida.

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Ayollar bandligi va TFR o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik korrelyatsion tahlilda (r=−0,54) ham, ARDL modelining uzoq muddatli koeffitsiyentida (−0,5013) ham kuzatilgan, biroq Granger testi bu omilning TFRdan oldin kelishini tasdiqlamadi. Oliy ta’limga qamrov bilan TFR o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlik esa Granger testida ham tasdiqlangan. Shu bilan birga, bunday bog‘liqlikni vaqt bo‘yicha umumiy tendensiyalar ta’siri bilan ham izohlash mumkinligini hisobga olish zarur. Natijalar tug‘ilish jarayonini faqat bitta ko‘rsatkich yoki omil asosida baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi: TFR umumiy darajani, ASFR esa yosh tarkibini ochib beradi. Shu sababli demografik siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ayollar bandligi, ta’limi, nikoh yoshi va tug‘ilishning yosh tarkibini birgalikda inobatga olish maqsadga muvofiq [8].

Tahlil natijalari O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonlari ayollar bandligi, oliy ta’limga qamrov va nikoh yoshi bilan murakkab va ko‘p yo‘nalishli bog‘liqlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Ayollar bandligi va TFR o‘rtasida teskari, oliy ta’limga qamrov va TFR o‘rtasida esa to‘g‘ri statistik bog‘liqlik aniqlandi. Tug‘ilishning yosh tarkibida 20–24 yosh guruhi yetakchiligicha qolayotgan bo‘lsa-da, 30–39 yosh guruhlarida ham tug‘ilish intensivligi ortmoqda [9]. Shu asosda quyidagilar taklif etiladi:

1) ayollar bandligi va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtirish maqsadida moslashuvchan bandlik shakllari hamda bolalarni parvarishlash infratuzilmasini rivojlantirish;

2) ayollarning oliy ta’limni davom ettirishi va oilaviy hayotni uyg‘unlashtirishiga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish;

3) demografik siyosatda yosh guruhlari bo‘yicha differensial yondashuvni kuchaytirish;

4) tug‘ilish monitoringida TFR bilan bir qatorda ASFR ko‘rsatkichidan muntazam foydalanish.

Kuzatuvlar soni cheklanganligi sababli korrelyatsiya va Granger testi natijalarini sabab-oqibat munosabati sifatida emas, balki statistik bog‘liqlik sifatida, ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim. Kelgusida hududlar kesimidagi panel ma’lumotlardan foydalanish tadqiqotning empirik asosini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurakhmanov A. Fluctuating fertility trends in Uzbekistan: 1991-2021 // Demographic Review. - 2023. - Vol. 10, No. 3. - P. 125-129. - DOI: 10.17323/demreview.v10i3.17973.

2. Behrman J. A., Gonalons-Pons P. Women’s employment and fertility in a global perspective (1960-2015) // Demographic Research. - 2020. - Vol. 43. - DOI: 10.4054/DemRes.2020.43.25.

3. Brehm U., Engelhardt H. On the age-specific correlation between fertility and female employment: Heterogeneity over space and time in OECD countries // Demographic Research. - 2015. - Vol. 32. - P. 691-722. - DOI: 10.4054/DemRes.2015.32.23.

4. Hwang J., Lee J. H. Women’s education and the timing and level of fertility // International Journal of Social Economics. - 2014. - Vol. 41, No. 9. - P. 862-874. - DOI: 10.1108/IJSE-06-2013-0153.

5. Engelhardt H., Kögel T., Prskawetz A. Fertility and women’s employment reconsidered: A macro-level time-series analysis for developed countries, 1960-2000 // Population Studies. - 2004. - DOI: 10.1080/0032472032000167715.

6. Guirguis H., Donlon T. M., McCarthy M., Mehovic A., Mehta R. The future of the labour force: a quantitative examination of the drivers of female labor force participation and total fertility rate in developed economies // Applied Economics. - 2023. - DOI: 10.1080/00036846.2023.2244248.

7. Kripfganz S., Schneider D. C. ardl: Estimating autoregressive distributed lag and equilibrium correction models // The Stata Journal. - 2023. - Vol. 23, No. 4. - P. 983-1019. - DOI: 10.1177/1536867X231212434.

8. Tairova A. The Impact of Fertility on the Female Employment Rate in the Samarkand Region of the Republic of Uzbekistan // Voprosy Statistiki. - 2024. - DOI: 10.34023/2313-6383-2024-31-6-69-81.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Rasmiy statistik ma’lumotlar. - Toshkent.

MINTAQANING IQTISODIY VA IJTIMOIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASHDA TRANSPORT INFRASTRUKTURASINING O‘RNI

Pardaboyev Navro‘z Toshpulot o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy
asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi xodimi

Transport infratuzilmasi hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ishlab chiqarish omillarining hududlararo harakatini ta’minlash hamda aholining ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim infratuzilmaviy omil hisoblanadi. Mintaqada avtomobil va temiryo‘l tarmoqlarining rivojlanganligi, logistika markazlarining mavjudligi, jamoat transporti xizmatlarining sifati va transport obyektlarining hududiy joylashuvi iqtisodiy faollikning makoniy taqsimlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo‘jaligi subyektlari va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining bozorlar bilan bog‘langanlik darajasi ko‘p jihatdan transport infratuzilmasining holati bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasini rivojlantirish va hududlarning transport jihatdan bog‘liqligini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatning strategik hujjatlarida transport-logistika tizimini modernizatsiya qilish, avtomobil va temiryo‘l infratuzilmasini takomillashtirish, xalqaro transport koridorlaridan samarali foydalanish, hududlarning transport xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni transport sohasiga joriy etish bo‘yicha vazifalar belgilangan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28-sonli “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[373]gi qarorida mamlakat transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Mazkur hujjatda transport infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, hududlarda zamonaviy transport-logistika markazlarini tashkil etish, tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, transport-logistika xarajatlarini kamaytirish hamda transport xizmatlarining sifat va samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarning izchil amalga oshirilishi hududlarning transport jihatdan bog‘langanligini kuchaytirish, iqtisodiy faoliyatning hududiy ko‘lamini kengaytirish, tovar va xizmatlar harakatini jadallashtirish hamda mintaqalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun muhim shart-sharoit yaratadi.

Transport infratuzilmasining iqtisodiy samarasi, avvalo, transport xarajatlarini kamaytirish va tovarlarning harakatlanish tezligini oshirish orqali namoyon bo‘ladi. Rivojlangan transport tarmog‘i ishlab chiqaruvchilar uchun xomashyo va resurslarni o‘z vaqtida yetkazib berish, tayyor mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada korxonalarning bozorlar bilan

[373] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi PQ-28-sonli qarori

integratsiyasi kuchayadi, hududning investitsiyaviy jozibadorligi ortadi va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish uchun qulay sharoit shakllanadi.

1-jadval[374]

O‘zbekistonda transport xizmatlari rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Transport xizmatlari hajmi, mlrd so‘m	58 623,0	74 708,7	92 277,2	118 275,5	151 825,0	188 270,8
Temir yo‘l transporti xizmatlari, mlrd so‘m	8 201,6	8 196,7	9 165,4	10 959,9	13 455,8	15 320,6
Avtotransport xizmatlari, mlrd so‘m	32 395,7	42 091,3	48 058,6	57 906,7	73 439,0	95 853,8
Quvur yo‘li transporti xizmatlari, mlrd so‘m	9 514,8	10 518,9	10 697,3	17 471,0	20 181,3	19 800,6
Avtomobil transportida tashilgan yuklar, mln tonna	1 238,2	1 282,0	1 284,1	1 322,0	1 370,1	1 445,2
Avtomobil transportida tashilgan yo‘lovchilar, mln kishi	5 248,5	5 914,2	6 092,1	6 292,7	6 642,3	7 586,0

2020–2025-yillarda O‘zbekistonda transport xizmatlari rivojlanishida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilganini ko‘rsatadi. Ushbu davrda transport xizmatlari hajmi 58 623,0 mlrd so‘mdan 188 270,8 mlrd so‘mga, ya’ni qariyb 3,2 barobarga oshgan. Bunda avtotransport xizmatlari asosiy ulushni egallab, ularning hajmi 32 395,7 mlrd so‘mdan 95 853,8 mlrd so‘mga yetgan. Shuningdek, avtomobil transportida tashilgan yuklar va yo‘lovchilar sonining ortishi iqtisodiy faoliyat hamda aholining transport xizmatlariga bo‘lgan talabining kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Mintaqaviy transport infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblash mumkin:

mintaqalarning transport infratuzilmasi rivojlanish darajasini kompleks baholash. Bunda yo‘l tarmoqlarining zichligi, transport xizmatlarining hajmi va sifati, logistika obyektlarining joylashuvi, transportdan foydalanish imkoniyati hamda hududlarning iqtisodiy markazlar bilan bog‘langanlik darajasini yagona tizim asosida baholash maqsadga muvofiq;

transport infratuzilmasini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ravishda rivojlantirish. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish salohiyati yuqori bo‘lgan hududlarda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonlarining uzviyligini ta’minlash mumkin;

logistika infratuzilmasini takomillashtirish. Hududlarda logistika markazlari, taqsimlash terminallari va ombor komplekslarini rivojlantirish yuk oqimlarini optimallashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish va mahsulotlarning bozorga chiqish muddatlarini qisqartirish imkonini beradi;

transport infratuzilmasini raqamlashtirish. Elektron logistika platformalari, transport oqimlarini monitoring qilish tizimlari, raqamli xaritalash va aqlli transport

[374] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

texnologiyalarini joriy etish mavjud infratuzilmadan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish uchun xususiy investitsiyalarni jalb etish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va transport xizmatlari sifatini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi;

ekologik barqaror transport infratuzilmasini shakllantirish. Elektr transporti, piyodalar va velosiped infratuzilmasini rivojlantirish, energiya tejamkor transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish orqali transport tizimining ekologik yuklamasini kamaytirish mumkin.

Umuman, mazkur ko‘rsatkichlar transport infratuzilmasining ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash hamda aholining harakatchanligini ta’minlashdagi ahamiyati ortib borayotganini ifodalaydi. Shu sababli mintaqalar transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika imkoniyatlarini kengaytirish hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Transport tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish subyektlarining bozorlar bilan integratsiyalashuvi, logistika xarajatlarining shakllanishi hamda hududlarning investitsiyaviy jozibadorligiga bevosita ta’sir qiladi. 2020–2025-yillar dinamikasi transport xizmatlari hajmining sezilarli o‘sishini ko‘rsatib, iqtisodiy faollik va aholining harakatlanish ehtiyojlari kengayib borayotganini tasdiqlaydi.

Shu asosda mintaqaviy transport siyosatini hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va transport ta’minoti darajasidan kelib chiqib differensiallashtirish, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, transport xizmatlarini raqamlashtirish hamda xususiy investitsiyalarni jalb etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv transport xarajatlarini optimallashtirish, hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali mintaqalarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma’lumotlari.

3. Fayzullayev J. Transport tizimi va iqtisodiy rivojlanish: muammo va yechimlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

4. Gulmatov U. O‘zbekiston transport infratuzilmasining iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

5. Kuziyev A. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda transport infratuzilmasining roli. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, 2022, №1.

6. Ibadullayev N., Haydarov J. Transport xizmatlarining raqamlashtirilishi va hududiy rivojlanish. // “Ilmiy-amaliy tadqiqotlar” to‘plami, 2023, №3.

MARKAZIY OSIYODA DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA INSON KAPITALI MIGRATSIYASI: ZAMONAVIY MUAMMOLAR, TENDENTSIYALAR VA STRATEGIK ISTIQBOLLAR

Raxmonova Ziolola Islomjon qizi
SamISI "Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" kafedrasi

Bugungi kunda Markaziy Osiyo -global miqyosda aholisi eng tez o‘sayotgan, yosharib borayotgan va strategik jihatdan muhim o‘zgarishlarni boshidan kechirayotgan regionlardan biri hisoblanadi. Oxirgi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mintaqaning umumiy aholisi 80 milliondan oshdi. Ushbu demografik dividend to‘g‘ri boshqarilsa, ulkan iqtisodiy o‘sish drayveri (drayver) bo‘lishi mumkin, biroq hozirgi sharoitda u qator tizimli muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Muammoning asosiy sababi - yangi ish o‘rinlari yaratish sur’atining aholi, xususan, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlar oqimi tezligidan orqada qolayotganligidir.

Shu bois, mintaqa davlatlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni saqlash inson kapitalini to‘g‘ri taqsimlash hamda transchegaraviy migratsiyani samarali boshqarish bilan uzviy bog‘liqdir.

Markaziy Osiyoning zamonaviy iqtisodiy makonida inson kapitali bilan bog‘liq bir nechta chuqur ziddiyatlar ko‘zga tashlanmoqda:

• Hududiy disbalans: Ishchi kuchi ko‘p bo‘lgan mamlakatlar (O‘zbekiston va Tojikiston kabi demografik bosim yuqori davlatlar) bilan iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan, ammo ayrim sanoat mintaqalarida kadrlar yetishmovchiligi sezilayotgan hududlar (Qozog‘istonning g‘arbiy va shimoliy hududlari) o‘rtasida jiddiy nomutanosiblik mavjud.

• Intellektual migratsiya: Eng xavfli tendentsiyalardan biri — yuqori malakali muhandislar, IT-mutaxassislari, shifokorlar va olimlarning mintaqani tark etishi (Brain Drain). Bu holat milliy darajada inson kapitali sifatining pasayishiga va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonining sekinlashishiga olib kelmoqda.

• Yoshlar ishsizligi va yashirin bandlik: Mintaqa aholisining o‘rtacha yoshi 27-29 yoshni tashkil etadi. Har yili mehnat bozoriga yuz minglab yosh kadrlar kirib kelmoqda, biroq sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining texnologik qoloqligi yoki past investitsion faollik sababli ularni to‘liq va sifatli ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkoniyati cheklangan.

2024–2026-yillar oralig‘ida mintaqadagi migratsiya oqimlarida yangi va jiddiy iqtisodiy tendentsiyalar shakllandi:

• Tashqi migratsiya yo‘nalishlarining diversifikatsiyasi: Avvallari Markaziy Osiyo mamlakatlari (ayniqsa Tojikiston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston) mehnat migratsiyasida asosan birgina tashqi bozorga (Rossiya Federatsiyasiga) qaram bo‘lgan bo‘lsa, oxirgi ikki yilda huquqiy va iqtisodiy cheklovlar kuchayishi oqibatida bu oqim diversifikatsiya qilindi. Endilikda o‘zbek va qirg‘iz ishchi kuchi Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va Sharqiy Yevropa bozorlariga faol ravishda yo‘naltirilmoqda.

• Mintaqa ichki migratsiyasining o‘sishi: Mintaqa ichidagi (intra-regional) migratsiya sezilarli darajada faollashdi. Qozog‘iston Respublikasi o‘zining iqtisodiy o‘sish sur’atlari va nisbatan yuqori ish haqi evaziga qo‘shni Qirg‘iziston va O‘zbekistondan nafaqat mavsumiy ishchilarni, balki professional mutaxassislarni ham o‘ziga jalb qiluvchi mintaqaviy markazga (habga) aylanmoqda.

• Ta’lim integratsiyasining kuchayishi: Ta’lim sohasidagi integratsiya ham yangi bosqichga chiqdi. O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida qo‘shma universitetlar filiallari ochilishi va talabalar almashinuvi dasturlarining kengayishi umumiy transmilliy mehnat resurslari poydevorini yaratmoqda.

Markaziy Osiyoda inson kapitalidan samarali foydalanish va migratsiya risklarini yumshatish uchun quyidagi strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Markaziy Osiyo yagona mehnat bozorini shakllantirish: Beshta davlat ishtirokida mehnat resurslarining erkin harakatlanishi, mehnat muhojirlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasi va yagona pensiya/sug‘urta tizimini kafolatlovchi konseptual kelishuvni qabul qilish zarur.

2. Yagona malaka sertifikatlash tizimini joriy etish: Davlatlararo Malakalarni baholash va sertifikatlash agentligini tashkil etish lozim. Bu tizim bir mamlakatda berilgan kasbiy diplom yoki sertifikatning qo‘shni davlatda qo‘shimcha imtihonlarsiz tan olinishini ta’minlaydi va kadrlar almashinuvini tezlashtiradi.

3. Inson kapitalini sanoat ehtiyojlariga moslashtirish: Ta’lim tizimini ishlab chiqarish va sanoat ehtiyojlariga moslashtirish (Dual Education — dual ta’lim modelini kengaytirish). Germaniya va Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, yoshlarni muayyan korxona buyurtmasi asosida transmilliy loyihalarga tayyorlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.

4. Innovatsion ekotizimlarni qo‘llab-quvvatlash: Mintaqa poytaxtlarida transchegaraviy texnoparklar va ilmiy-innovatsion xablarni yaratish orqali yosh startapchilarni region ichida olib qolish va «miyalar oqimi»ni «miyalar aylanishi» (Brain Circulation) ijobiy formatiga o‘tkazish.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasida demografik jarayonlar va inson kapitali migratsiyasini samarali boshqarish faqat alohida olingan bir mamlakatning ichki imkoniyatlari bilan to‘liq hal etilmaydi. Global iqtisodiy tebranishlar va geosiyosiy o‘zgarishlar fonida muvaffaqiyat garovi — mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishdir.

Yagona mehnat bozori mexanizmlarining yaratilishi, malakalarning o‘zaro tan olinishi va inson kapitaliga qilinadigan investitsiyalarning sinergetik birlashuvi Markaziy Osiyo davlatlarining uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishini hamda global bozordagi umumiy raqobatbardoshligini ta’minlovchi poydevor vazifasini o‘taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Central Asian Economic Review. (2024). "Demographic Dividends and Labor Market Pressures in Uzbekistan and Tajikistan", No. 3, pp. 45-58.

2. Eurasian Journal of Economic and Business Studies. (2025). "Intra-regional Labor Migration Trends in Central Asia: The Rising Role of Kazakhstan as a Hub", Vol. 12, Issue 2, pp. 112-125.

3. The Times of Central Asia. (2026). "Diversification of External Migration Profiles: Moving Beyond Traditional Markets", June 2026 Edition.

4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy axborotnomasi. (2025). "Mintaqaviy iqtisodiyot va inson kapitalini rivojlantirish muammolari", 4-son, 89-97-betlar.

5. World Bank Report. (2024). "Central Asia: Human Capital and Economic Mobility Outlook", Washington D.C.

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

Safarov Manuchexr Axtam o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mamlakatimizdagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida mintaqalarning rivojlanish ko‘rsatkichlari, tarmoq xususiyatlari hamda demografik salohiyati tahliliga alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan shu sababli, hududlarning majmuali iqtisodiy yuksaltirish mexanizmlarini ilmiy-metodik bazasini shakllantirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda mintaqa va uni o‘rganuvchi fan yo‘nalishlarining konseptual asoslari xususida yagona yondashuv mavjud emas. Biroq, mintaqalarning iqtisodiy tizim sifatida vujudga kelishida hududiy mehnat taqsimotining roli beqiyos hisoblanadi.

Kirish. Hududlarning iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog‘liq konseptual hamda nazariy muammolarni tadqiq etishda, birinchi navbatda, “mintaqa” va “mintaqaviy iqtisodiyot” kabi fundamental tushunchalarning mohiyatini chuqur tahlil qilish talab etiladi. Jumladan, mintaqaviy iqtisodiyot fani asoschilaridan biri U.Izard: mintaqaviy fan mintaqaviy iqtisodiyotga qaraganda kengroq tushunchadir: “mintaqaviy fanlar uyushmasi va amaliy geografiya bir-biriga o‘xshashdir”, - deb ta’kidlaydi.

Zamonaviy mintaqaviy iqtisodiyot alohida ilmiy yo‘nalish sifatida asosan Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Ta’kidlash joizki, mintaqaviy iqtisodiyot fani federativ tuzilishga ega hamda keng hududiy ko‘lamni qamrab olgan mamlakatlarda nisbatan faol taraqqiy etgan.Akademik N.N. Nekrasovning konseptual qarashlariga ko‘ra, “mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiyot fanining tarkibiy tarmog‘i sifatida mamlakatning hududiy tizimi hamda har bir alohida mintaqada ishlab chiqaruvchi kuchlarning shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilab beruvchi omillar hamda hodisalar majmuasini tadqiq etadi”[1]. V.N. Vidyapin va M.V. Stepanov tahriri ostida chop etilgan “Mintaqaviy iqtisodiyot” darsligida “ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish hamda hududlar rivojlanishining o‘ziga

xos xususiyatlari va qonuniyatlari, shuningdek, mintaqaviy rivojlanish hamda joylashtirish omillari mintaqaviy iqtisodiyot fani o‘rganadigan asosiy predmet”[2] sifatida belgilangan.

“Mintaqaviy iqtisodiyot asoslari” nomli ilmiy ish mualliflari V.I. Butov, V.G. Ignatov va N.P. Ketovalarning ta’kidlashicha, “mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuv tartibini, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor tendensiyalarini, tarmoqlar makoniy taqsimotini, hududlarning muhim tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini, shuningdek, mintaqalararo, ichki mintaqaviy va davlatlararo iqtisodiy aloqadorlikni o‘rganish mintaqaviy iqtisodiyotning amaliy doirasiga kiradi. Boshqacha aytganda, mintaqaviy iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy obyekti - ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining hududiy jihatlarini tahlil qilishdan iboratdir”[3].

Ayrim ilmiy qarashlarda “mintaqaviy iqtisodiyot” tushunchasiga hududiy rivojlanishning obyektiv omillari, ishlab chiqarish tarkibi, ijtimoiy infratuzilma va aholi farovonligini o‘rganuvchi tizim sifatida qaraladi. Uning tadqiqot obyekti doirasiga demografik joylashuv, mintaqaviy boshqaruv mexanizmlari hamda tegishli hududning boshqa mintaqa va davlatlar bilan yo‘lga qo‘ygan iqtisodiy aloqalari tahlili ham kiradi”[4] - deb ta’rif beradilar. Boshqa bir olimlar esa, “mintaqa” deganda umumiy tabiiy-geografik, tarixiy, milliy-madaniy birlik va diniy-etnik yaqinlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (xo‘jalik ixtisoslashuvi va iqtisodiy rivojlanish, demografik vaziyat, aholi turmushi va hokazo) darajasi hamda ekologik muammolarni hal etishdagi ma’muriy-hududiy organlar faoliyatining mushtarakligini taqozo qiluvchi yaxlit hududiy birlikni tushunish maqsadga muvofiq[5], - deb ta’kidlaydi. Ko‘pgina mualliflar o‘z ta’riflarida mintaqa rivojlanishida uni boshqarish omiliga katta e’tibor qaratadilar[6]. Ta’kidlash joizki, hududlarni chegaralash va guruhlash ko‘rsatkichlarining xilma-xilligi amaliyotda ishlab chiqarishni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda boshqaruv mexanizmlarini mukammallashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mintaqalarning iqtisodiy o‘sish sur’atlari va umumiy taraqqiyoti jarayonlari aynan yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tizimi yordamida kompleks baholanadi. Yuqorida yoritilgan yetti indikatorli konseptual metodologiya mintaqaviy iqtisodiy o‘sish jarayonlarini ko‘p o‘lchamli va kompleks tahlil etish imkonini bersa-da, uning barcha tarkibiy unsurlarini bir xil chuqurlikda amaliyotga tatbiq etish muayyan murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, ayrim maxsus ko‘rsatkichlar (jumladan, xo‘jalik subyektlarining aksiya paketlarini xorijiy sarmoyadorlarga realizatsiya qilish dinamikasi) hududiy statistik hisobotlar tizimida to‘liq va tizimli ravishda aks ettirilmaydi. Shu bois, mazkur ilmiy izlanishda A.Sodiqov tomonidan taklif etilgan metodologik yondashuv to‘liq hajmda emas, balki mavjud statistik ma’lumotlar bazasining qamrovi hamda tadqiq etilayotgan hudud iqtisodiyotining real tarmoqlararo tuzilmasiga mos keluvchi bazaviy indikatorlar kesimida adaptatsiya qilinadi. Ushbu metodologik tanlov mintaqa iqtisodiyotining amaldagi tarmoqlararo proporsiyalari - eng avvalo, sanoat, qishloq xo‘jaligi hamda servis va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanishi - bilan uzviy bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Некрасов Н.Н. Региональная экономика. Теория, проблемы, методы. 2-е изд.-М.: Экономика, 1978. С.19.

2. Региональная экономика. -М.: ИНФРА-М, 2002. С. 7.

3. Бутов В.И., Игнатов В.Г., Кетова Н.П. Основы рыночной экономики. Москва. Ростов на-Дону. Издательский центр «МарТ». 2000. С. 7-8.

4. Qayumov A.A., Nazarova X.M., Egamberdiyev F.T. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. -T.: Universitet, 2004. -115-b.

5. Abdullayev O., Baxriddinov N. Mintaqa murakkab tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik tizim sifatida // Xozirgi zamon geografiyasining dolzarb muammolari. Andijon: 2007. Б. 136-139.

6. Ахмедов Т.М., Хасанжонов К.А., Хакимов Н.Х. Региональная экономика. -М.: Российская экономическая академия, 2006. -235 с.

O‘ZBEKISTON EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY SOVUTGICHLI LOGISTIKA TIZIMIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Sobirova Muxlisa Sherali qizi
TDIU huzuridagi O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ayni vaqtda tezda buziladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportida raqobatbardoshlik tobora ko‘proq yetkazib berish ishonchliligi, harorat rejimining uzluksizligi va kuzatuvchanlik bilan belgilanmoqda. Tezisda O‘zbekiston meva-sabzavot eksportini rivojlantirish uchun Milliy sovutgichli logistika tizimining (MSLT) konseptual modeli taklif etiladi. Model olti bosqichli jismoniy oqim (ishlab chiqarish, yig‘ish va oldindan sovutish, sovutgichli saqlash, refrijerator transport, bojxona va chegara jarayonlari, xalqaro bozorlar) hamda uni bog‘lovchi raqamli monitoring va institutsional qo‘llab-quvvatlash qatlamlaridan iborat. Kutilayotgan samaralar nazariy farazlar bo‘lib, empirik tekshiruvni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: sovutgichli logistika; eksport raqobatbardoshligi; O‘zbekiston; hosildan keyingi yo‘qotishlar; raqamli monitoring; kuzatuvchanlik.

Eksport raqobatbardoshligi endi faqat ishlab chiqarish hajmi va narxga emas, balki mahsulot sifati, yetkazib berish ishonchliligi, kuzatuvchanlik hamda xaridor bozor talablariga muvofiqlikka ham bog‘liq. Tez buziladigan mahsulotlar uchun bu natijalarga hosil yig‘ishdan yakuniy yetkazib berishgacha bo‘lgan harorat nazorati hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.[375] Shu sababli sovutgichli logistika oddiy transport xizmati emas, balki qiymatni saqlash tizimi sifatida qaralishi lozim. Jahon miqyosida hosil yig‘ishtirilgandan keyin chakana savdogacha bo‘lgan bosqichda oziq-ovqatning taxminan 14 foizi yo‘qoladi.[376]

[375]Mustafa M.F.M.S., Navaranjan N., Demirovic A. Food cold chain logistics and management: A review of current development and emerging trends // Journal of Agriculture and Food Research. – 2024. – Vol. 18. – Art. 101343.
[376]FAO. The State of Food and Agriculture 2019. Moving forward on food loss and waste reduction. – Rome: FAO, 2019. Hosil yig‘ishtirilgandan keyin chakana savdogacha bo‘lgan bosqichda yo‘qotishlar jahon miqyosida taxminan 14 % deb baholangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.05.2026 yildagi PQ-193-sonli “Fitosanitariya tartib-taomillarini soddalashtirish hamda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish jarayonlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori qabul qilinishi ham aynan ushbu mavzuning dolzabr ekanligidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda eksport qilinayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xaridorlarga yetib borishida sodir bo‘layotgan muammolar ham ushbu mavzuni kengroq muhokama qilinishiga sababchi bo‘lmoqda. O‘zbekiston meva-sabzavot eksporti izchil o‘smoqda: 2024 yilda u 1,5 mlrd AQSH dollaridan va 2 mln tonnadan oshdi,[377] 2025 yil yanvar–noyabr oylarida esa 2 022,2 ming tonna (1 942,8 mln dollar) ni tashkil etdi.[378] Shu bilan birga eksport bozorlari konsentratsiyalashgan: Rossiya va Qozog‘iston qiymat bo‘yicha jami eksportning taxminan 55 foizini beradi.[379] Infratuzilma esa o‘sish sur’atidan orqada: mamlakatda 2 011 ta sovutgichli ombor (jami 1,14 mln t) mavjud bo‘lib, bu yalpi hosilning (23 mln t dan ortiq) atigi 4,9 foizini qamrab oladi. Ekspertlar eksport hajmining kamida 75 foizi sovutgichli saqlash bilan ta’minlanishi kerak deb hisoblaydi; 2024 yil uchun bu ≈1,53 mln t talab etadi, ya’ni ≈0,39 mln t quvvat yetishmaydi. Hosildan keyingi yo‘qotishlar ekspert baholariga ko‘ra 20–30 foizgacha yetishi mumkin.[380] Demak, alohida sovutgich xonalar yoki transport vositalari emas, balki yagona milliy tizim zarur.

Tadqiqot maqsadi – O‘zbekiston eksportini rivojlantirishga xizmat qiluvchi Milliy sovutgichli logistika tizimining nazariy asoslangan konseptual modelini ishlab chiqish. Uslubiyat sifatida yetkazib berish zanjirini boshqarish nazariyasi va tizimli yondashuv, eksport zanjirini funksional dekompozitsiya qilish hamda xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilish qo‘llanildi.[381] Tadqiqot sifat xarakteriga ega; birlamchi so‘rov yoki ekonometrik baholash da’vo qilinmaydi.

Milliy sovutgichli logistika tizimi to‘rt bosqichdan iborat (1-rasm).

Birinchi bosqich – jismoniy oqim: (1) agroklasterlarda yetishtirish va dala darajasida oldindan sovutish; (2) yig‘ish markazlarida saralash, navlarga ajratish va haroratni nazorat qilish; (3) sovutgichli omborlarda zaxira boshqaruvi va sifat nazorati; (4) GPS va real vaqt rejimida harorat monitoringi bilan jihozlangan refrijerator transport va marshrutlarni optimallashtirish; (5) raqamli hujjatlar, tezlashtirilgan tartib-taomillar va sanitar-fitosanitar (SPS) talablariga muvofiqlik; (6) yuqori qiymatli xalqaro bozorlarga chiqish. Ikkinchi bosqich – raqamli monitoring va axborot platformasi: IoT-sensorlar, GPS, bulutli ma’lumotlar bazasi, prediktiv tahlil, blokcheyn asosidagi kuzatuvchanlik va manfaatdor tomonlarning

[377]O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumoti: Uzbekistan exported $1.5 billion worth of fruits and vegetables in 2024 // Kun.uz, 22.01.2025. – https://monitor.kun.uz/en/news/2025/01/22/uzbekistan-exported-15-billion-worth-of-fruits-and-vegetables-in-2024-statistics-agency

[378]O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumoti (2025 yil yanvar–noyabr): Uzbekistan’s fruit and veg exports surpass 2M tons in 2025 // FreshPlaza, 23.12.2025. – https://www.freshplaza.com/asia/article/9797462/

[379]Hisob-kitob muallif tomonidan [3]-manba ma’lumotlari asosida bajarilgan: (632,9 + 189,8) / 1 500 ≈ 55 %. Rossiya – 815,1 ming t / 632,9 mln AQSH dollari; Qozog‘iston – 520,5 ming t / 189,8 mln AQSH dollari.

[380]Rising fruit and vegetable exports and production drive the need to expand cold storage in Uzbekistan // FreshPlaza, 24.10.2025 (UzDaily ma’lumotlari asosida). – https://www.freshplaza.com/asia/article/9778399/. Yo‘qotishlar ko‘rsatkichi (20–30 %) soha ekspertlarining baholari bo‘lib, rasmiy statistika emas.

[381] Mustafa M.F.M.S., Navaranjan N., Demirovic A. Food cold chain logistics and management… // Journal of Agriculture and Food Research. – 2024. – Vol. 18. – Art. 101343.

yagona platformasi.[382] Uchinchi bosqich – institutsional va me'yoriy qo'llab-quvvatlash: davlat idoralari, standartlar va sertifikatlash, davlat-xususiy sheriklik, eksportni rag'batlantirish va "yashil logistika" talablari.[383] To'rtinchi bosqich – kutilayotgan natijalar: hosildan keyingi yo'qotishlarning kamayishi, mahsulot sifati va xavfsizligining oshishi, eksport raqobatbardoshligi, premium bozorlarga kirish va barqaror iqtisodiy o'sish.



1-rasm. O'zbekiston eksportini rivojlantirish uchun milliy sovutgichli logistika tizimining konseptual sxemasi[384].

Modelning ilmiy yangiligi shundaki, u jismoniy infratuzilma, axborot oqimlari va institutsional mas'uliyatni yagona arxitekturada birlashtiradi: bir bosqichdagi uzilish oldingi bosqichlarda saqlangan sifatni yo'qqa chiqarishi mumkin, shuning uchun tizim samarasi alohida obyektlar quvvatidan emas, balki ular o'rtasidagi interfeyslar va axborot almashinuvidan kelib chiqadi. Raqamli vositalar fizik sovutishni almashtirmaydi, sovutgichli zanjirni kengaytirish esa energiya sarfini oshirishi mumkinligi sababli energiya samaradorligi loyihalash mezoni bo'lishi kerak.[385]

[382] Le T.V., Fan R. Digital Twins for Logistics and Supply Chain Systems: Literature Review, Conceptual Framework, Research Potential, and Practical Challenges // arXiv:2311.17317. – 2023; Ahmad K., Islam M.S., Jahin M.A., Mridha M.F. Analysis of Internet of Things implementation barriers in the cold supply chain: An integrated ISM-MICMAC and DEMATEL approach // PLOS ONE. – 2024. – PMC11244810.

[383] Usvakangas I., Tuovinen R., Neittaanmäki P. The Current State and Future of the Urban Cold Chain: A Review of Algorithms for Environmental Optimization // Algorithms. – 2024. – Vol. 17(10). – Art. 465.

[384] Muallif ishlanmasi.

[385] Usvakangas I., Tuovinen R., Neittaanmäki P. The Current State and Future of the Urban Cold Chain… // Algorithms. – 2024. – Vol. 17(10). – Art. 465.

Milliy sovutgichli logistika tizimi O‘zbekiston tez buziladigan mahsulotlar eksportining ishonchliligi va sifatini oshirish uchun asoslangan konseptual tizim sifatida taklif etiladi. Amalga oshirishda bosqichma-bosqich yondashuv maqsadga muvofiq: dastlab yuqori qiymatli va tez buziladigan mahsulotlar hamda asosiy eksport yo‘nalishlarida pilot loyihalar; ularda hosildan keyingi yo‘qotishlar, har bir jo‘natmadagi harorat chetlanishlari, chegarada kutish vaqti, rad etilgan partiyalar ulushi, 1 kg uchun logistika xarajati va eksport birlik qiymati kabi ko‘rsatkichlarni oldin-keyin solishtirish. Taklif etilgan mexanizmlar empirik tekshiruv-ekspert intervyulari, obyektlar xaritasi va marshrut darajasidagi harorat ma’lumotlari –orqali tasdiqlanishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarimizda ushbu mavzuni yanada kengroq yoritib, mavjud muammolarga ijobiy ilmiy yechim va takliflar beramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. FAO. The State of Food and Agriculture 2019. – Rome: FAO, 2019.
2. Mustafa M.F.M.S., Navaranjan N., Demirovic A. Food cold chain logistics and management: A review of current development and emerging trends // Journal of Agriculture and Food Research. – 2024. – Vol. 18. – 101343.
3. Le T.V., Fan R. Digital Twins for Logistics and Supply Chain Systems: Literature Review, Conceptual Framework, Research Potential, and Practical Challenges. – arXiv:2311.17317, 2023.
4. Ahmad K., Islam M.S., Jahin M.A., Mridha M.F. Analysis of Internet of Things implementation barriers in the cold supply chain: An integrated ISM-MICMAC and DEMATEL approach // PLOS ONE. – 2024.
5. Usvakangas I., Tuovinen R., Neittaanmäki P. The Current State and Future of the Urban Cold Chain: A Review of Algorithms for Environmental Optimization // Algorithms. – 2024. – 17(10). – 465.
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi / qo‘mitasi ma’lumotlari (2024–2025), Kun.uz va FreshPlaza nashrlari orqali (havolalar sahifa pastidagi izohlarda).

KORXONALARDA ISTE’DODLARNI BOSHQARISH (TALENT MANAGEMENT) TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Tursunova Zarnigor Rustamovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Innovatsion menejment kafedrasi katta o’qituvchisi
Shonazarova Maftuna G’olib qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Innovatsion menejment kafedrasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda “Mintaqaviy rivojlanish bo’yicha fanlararo tadqiqotlar: sotsiologiya, hududiy brendlar, yangi iqtisodiy geografiya va kreativ iqtisodiyot” yo’nalishlari doirasida korxonalarda iste’dodlarni boshqarish (Talent Management) tizimini rivojlantirish hududlarning barqaror o’sishi va raqobatbardoshligiga qanday ta’sir qilishi tahlil qilinadi. Inson kapitalidan samarali

foydalanish, yuqori salohiyatli xodimlarni aniqlash, rivojlantirish, rag'batlantirish va korxonada saqlab qolishning hududiy rivojlanishdagi o'rni yoritiladi. Talent Management tizimini korxona strategiyasi, hududiy mehnat bozori va ta'lim muassasalari bilan uyg'unlashtirish masalalari ham ko'rib chiqiladi. Natijalar asosida hududlarda malakali kadrlarni shakllantirish, iqtidorli mutaxassislarni saqlab qolish va korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar beriladi.

Kalit so'zlar. Talent Management, iste'dodlarni boshqarish, inson kapitali, hududiy rivojlanish, mehnat bozori, raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish, kompetensiya, kadrlar zaxirasi.

Raqobatning kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va malakali mutaxassislarga talabning ortishi korxonalarda inson kapitalini boshqarishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Michaels, Handfield-Jones va Axelrod "war for talent" (iste'dodlar uchun kurash) tushunchasi orqali malakali kadrlar korxona muvaffaqiyatining hal qiluvchi omiliga aylanayotganini ko'rsatib bergan[386]. Zamonaviy korxonaning raqobatbardoshligi moddiy-texnik va moliyaviy resurslarga emas, birinchi navbatda inson kapitalidan qanchalik samarali foydalanishiga bog'liq. Shu bois iste'dodlarni boshqarish (Talent Management) tizimini rivojlantirish korxonaning barqaror ishlashi va strategik rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Talent Management tushunchasi tashkilotdagi yuqori salohiyatli xodimlarni aniqlash, jalb etish, rivojlantirish, rag'batlantirish va korxonada saqlab qolishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida izohlanadi. D.G. Collings va K. Mellahi fikricha, strategik iste'dodlarni boshqarish tashkilot raqobatbardoshligiga ta'sir qiladigan asosiy lavozimlarni aniqlash va ularga yuqori salohiyatli xodimlar zaxirasini shakllantirish bilan bog'liq[387]. P. Cappelli esa iste'dodlarni boshqarishda tashkilotning kelajakdagi kadr ehtiyojini oldindan aniqlash va mavjud xodimlarni shu ehtiyojga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi[388].

Lewis va Heckmanning tanqidiy tahliliga ko'ra, Talent Management atamasi ko'pincha kadrlar boshqaruvining odatiy amaliyotlariga yangi nom berish uchun ishlatiladi[389]. Shu bois Talent Managementni faqat "iqtidorli xodimlarni tanlab olish" jarayoni deb qarash yetarli emas. U korxona strategiyasi, xodimlarning kompetensiyasi, mehnat unumdorligi, motivatsiyasi va martaba rivojini yagona tizimga birlashtiruvchi boshqaruv mexanizmi sifatida qaralishi lozim. Ayniqsa hududiy rivojlanish sharoitida korxonaning malakali mutaxassislarni jalb qilishi va hududda ushlab qolishi shu hududning inson kapitali hamda raqobatbardoshligiga ham ta'sir qiladi.

---

[386] Michaels E., Handfield-Jones H., Axelrod B. The War for Talent. – Boston: Harvard Business School Press, 2001.
[387]Collings D.G., Mellahi K. Strategic Talent Management: A Review and Research Agenda. // *Human Resource Management Review*. – 2009. – Vol. 19, Issue 4. – P. 304–313.
[388]Cappelli P. Talent Management for the Twenty-First Century. // *Harvard Business Review*. – 2008. – Vol. 86, No. 3. – P. 74–81.
[389] Lewis R.E., Heckman R.J. Talent Management: A Critical Review. // Human Resource Management Review. – 2006. – Vol. 16, Issue 2. – P. 139–154.

Talent Management tizimini rivojlantirish avvalo iste’dodlarni aniqlashning aniq va shaffof mezonlarini talab qiladi. Bunda xodimning joriy natijalari bilan birga uning kelajakdagi ilmiy salohiyati, kasbiy kompetensiyasi, liderlik qobiliyati, innovatsion fikrlashi va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati ham hisobga olinishi kerak. Shu sababli tizimni korxona strategiyasi, ta’lim tizimi va hududiy mehnat bozori bilan integratsiyalash mazkur tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Tadqiqotning maqsadi — korxonalarda Talent Management tizimini rivojlantirishning tashkiliy va amaliy yo‘nalishlarini aniqlash hamda uning inson kapitalidan foydalanish samaradorligiga, korxonalar raqobatbardoshligiga va hududlarning barqaror rivojlanishiga ta’sirini asoslashdir. O‘zbekiston korxonalarida bu tizimni rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri — ta’lim muassasalari va biznes subyektlari hamkorligini kuchaytirishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1) Talent Management tizimining mazmuni va asosiy yo‘nalishlarini o‘rganish;

2) yuqori salohiyatli xodimlarni aniqlash va baholash mexanizmlarini tahlil qilish;

3) xodimlarning kasbiy rivoji va martaba o‘sishini ta’minlash yo‘nalishlarini aniqlash;

4) ta’lim muassasalari, korxonalar va mehnat bozori hamkorligining Talent Managementdagi ahamiyatini asoslash;

5) malakali xodimlarni saqlab qolish va rag‘batlantirish mexanizmlarini o‘rganish;

6) kadrlar zaxirasini shakllantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

7) Talent Management tizimini hududiy inson kapitali va raqobatbardoshlik bilan bog‘lash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Talent Management tizimini besh bosqichli model asosida tashkil etish taklif qilinadi: 1) iste’dodlarni aniqlash; 2) kompetensiyalarni baholash; 3) individual rivojlanish dasturini shakllantirish; 4) martaba va kadrlar zaxirasini boshqarish; 5) xodimlarni rag‘batlantirish va saqlab qolish. Bu yondashuv Tarique va Schulerning ta’rifiga mos keladi: ular Talent Managementni eng muhim lavozimlar uchun eng yaxshi xodimlarni jalb qilish, tanlash, rivojlantirish va saqlab qolishga qaratilgan barcha tashkiliy faoliyat sifatida izohlaydi[390]. Modelning bosqichlari alohida emas, yagona tizim sifatida amalga oshirilsa, Talent Management samaraliroq bo‘ladi.

Tadqiqotda Talent Managementning hududiy rivojlanish bilan bog‘liq jihatlari ham aniqlandi. Korxonalar, oliy ta’lim muassasalari va hududiy boshqaruv organlari hamkorligini kuchaytirish hududlarning kadrlar salohiyatini oshirishi mumkin. Richard Florida fikricha, hududlar iqtisodiy o‘sishga texnologiya, iste’dod va bag‘rikenglikning uyg‘unligi orqali erishadi, shu sababli ular iqtidorli va ijodkor kadrlarni jalb qilishi hamda saqlab qolishi kerak[391]. Ayniqsa raqamli iqtisodiyot,

[390] Tarique I., Schuler R.S. Global Talent Management: Literature Review, Integrative Framework, and Suggestions for Further Research. // Journal of World Business. – 2010. – Vol. 45, Issue 2. – P. 122–133.

[391] Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It’s Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2002.

innovatsion faoliyat va kreativ iqtisodiyotdagi yangi kasblar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash hududlarning mehnat bozori ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi.

Shu bois “ta’lim – mehnat bozori – korxona” o‘rtasidagi bog‘liqlikni shakllantirish Talent Management tizimining muhim sharti hisoblanadi. Korxonalar kelajakdagi kadr ehtiyojini oldindan belgilashi, talabalar uchun amaliyot va stajirovka imkoniyatlarini yaratishi hamda iqtidorli yoshlarni erta aniqlashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, Talent Management zamonaviy korxonada inson resurslarini boshqarishning alohida funksiyasi emas, balki strategik rivojlanishni ta’minlovchi mexanizm sifatida qaralishi lozim. Uning samaradorligi iste’dodlarni aniqlash bilan emas, balki aniqlangan kadrlarni rivojlantirish, imkoniyatlaridan samarali foydalanish va korxonada uzoq muddat saqlab qolish bilan belgilanadi. G. Becker fikricha, xodimlarni o‘qitish va rivojlantirishga qilingan sarf jismoniy kapitalga qo‘yilgan investitsiya kabi mehnat unumdorligini oshiradi[392]. Shu sababli tizimni korxona strategiyasi, ta’lim tizimi va hududiy mehnat bozori bilan integratsiyalash O‘zbekiston hududlarining inson kapitalidan samarali foydalanishi va barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu yo‘nalishda korxonalar iqtidorli xodimlar uchun aniq martaba yo‘llarini va adolatli rag‘batlantirish tizimini yaratishi kerak. Oliy ta’lim muassasalari esa o‘quv dasturlarini hududiy mehnat bozori talablariga moslashtirib, amaliyot va stajirovka orqali talabalarni real ish muhitiga tayyorlashi lozim. Hududiy boshqaruv organlari, o‘z navbatida, iqtidorli mutaxassislarning hududda qolishi uchun ish va yashash sharoitlarini yaxshilashga e’tibor qaratishi zarur. Shunday hamkorlik natijasida malakali kadrlarning hududdan ketishi kamayadi, korxonalar barqaror rivojlanadi va hududlarning raqobatbardoshligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Collings D.G., Mellahi K. Strategic Talent Management: A Review and Research Agenda. // Human Resource Management Review. – 2009. – Vol. 19, Issue 4. – P. 304–313.

2. Cappelli P. Talent Management for the Twenty-First Century. // Harvard Business Review. – 2008. – Vol. 86, No. 3. – P. 74–81.

3. Armstrong M., Taylor S. Armstrong’s Handbook of Human Resource Management Practice. – London: Kogan Page, 2023.

4. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.

5. Lewis R.E., Heckman R.J. Talent Management: A Critical Review. // Human Resource Management Review. – 2006. – Vol. 16, Issue 2. – P. 139–154.

6. Tarique I., Schuler R.S. Global Talent Management: Literature Review, Integrative Framework, and Suggestions for Further Research. // Journal of World Business. – 2010. – Vol. 45, Issue 2. – P. 122–133.

7. Michaels E., Handfield-Jones H., Axelrod B. The War for Talent. – Boston: Harvard Business School Press, 2001.

[392] Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.

8. Florida R. The Rise of the Creative Class: And How It's Transforming Work, Leisure, Community and Everyday Life. – New York: Basic Books, 2002.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi hujjatlari.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MINTAQAVIY EKSPORT SALOHIYATINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY SHAROIT VA OMILLAR

Xayitova Feruza Baxrom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari" Ilmiy tadqiqot markazi tayanch doktaranti

Hozirgi davrda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiyotning tarkibiy islohotlarini jadallashtirish, uni diversifikatsiya qilish, tarmoqlarning texnik va texnologik darajasini oshirish, shuningdek, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish orqali amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar samaradorligini yuksaltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Eksportni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi moliyaviy instrumentlarshu kabi muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Xususan, eksportni rag'batlantiruvchi institutlar faoliyati orqali tashqi savdo salohiyatini mustahkamlash, imtiyozli kreditlar ajratish orqali moliyaviy barqarorligini mustahkamlash shu bilan birga, eksport qiluvchi korxonalarga soliq va bojxona preferensiyalarini berish kabi mexanizmlaridan samarali qo'llanilmoqda. Barqaror iqtisodiy muhit mintaqa eksport salohiyatining muvaffaqiyatli amalga tatbiq etilishi va o'sishiga xizmat qiladi. Ularni takomillashtirish infratuzilmaga sarmoya kiritish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rag'batlantirish va global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuvni o'z ichiga olgan strategik yondashuvni talab qiladi. Iqtisodiy resurslaridan samarali va oqilona foydalanayotgan hududlarda mavjud ishlab chiqarish imkoniyatlaridan to'liqroq foydalanish, mahsulot va xizmatlar hajmini oshirish hamda ularning raqobatbardoshligini ta'minlash imkoniyatlari yuqori bo'ladi. Natijada bunday hududlarning xalqaro bozorlarga chiqish, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish va xalqaro savdoda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyatlari ham kengayadi (1-jadval). Mintaqaning eksport salohiyati hududda shakllangan iqtisodiy shart-sharoitlar, xalqaro bozorlarda samarali ishtirok etish imkoniyatlari, eksport salohiyatini oshirish va takomillashtirish darajasi hamda xalqaro savdo aloqalarini kengaytirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Mintaqaning eksport salohiyatini o'rganishning dolzarbligi bir qator holatlar bilan bog'liq. Birinchidan, jahon iqtisodiyoti integratsiya jarayonlarini rivojlantirish va o'zgartirishning yangi sharoitlarida

davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston mintaqalarining rolini kuchaytirish zarurati[393].

Mintaqaning eksport salohiyatini o‘rganishning dolzarbligi bir qator holatlar bilan bog‘liq. Birinchidan, jahon iqtisodiyoti integratsiya jarayonlarini rivojlantirish va o‘zgartirishning yangi sharoitlarida davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston mintaqalarining rolini kuchaytirish zarurati[394]. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi sub’yektlarini tashqi iqtisodiy, xususan, eksport faoliyatini amalga oshirishga jalb etishni ko‘paytirish orqali hududlar eksport salohiyatidan samarali foydalanish mamlakatimizning barqaror o‘rnini egallashning muhim omiliga aylantiradi. Uchinchidan, hududlarning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi faol ishtiroki ichki iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday ishtirok hududiy iqtisodiy majmualarni texnologik jihatdan yangilashga xizmat qiladi, xalqaro standartlarga mos mahalliy mahsulotlar ulushining oshishiga hamda tarkibiy islohotlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlashiga imkon yaratadi.

Mintaqaviy eksport salohiyatini shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va institutsional omillarga bog‘liq.

1-jadval

Eksport salohiyatini shakllantirishning iqtisodiy shartlar[395]

Nomi	Tarkibi
Mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi	Iqtisodiy barqarorlik, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot darajasi va sanoatning iqtisodiy tuzilmadagi ulushi mintaqaning eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga tayyorligini belgilaydi. Sanoat bazasi va infratuzilmasi rivojlangan hududlarning eksport salohiyati yuqori
Iqtisodiyotning tuzilishi va ixtisoslashuvi	Yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan iqtisodiyotlar xalqaro bozorlarga chiqish uchun ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Hududning ixtisoslashuvi (masalan, qishloq xo‘jaligi, xomashyo qazib olish yoki yuqori texnologiyali ishlab chiqarish) xalqaro savdodagi raqobatdosh ustunliklarini belgilaydi.
Inflyatsiya va valyuta kursi	Inflyatsiya darajasi va milliy valyuta kursining barqarorligi eksport mahsulotlarining raqobatbardoshligiga ta‘sir qiladi. Barqaror valyuta kursi eksport operatsiyalarini rejalashtirishni osonlashtiradi, investorlar uchun xavflarni kamaytiradi va mintaqaning jahon bozoridagi mavqeini mustahkamlaydi.
Infratuzilmani ta‘minlash	Transport, ombor va port infratuzilmasining rivojlanishi logistika xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot yetkazib berishni tezlashtiradi.
Investitsion muhit	Mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb etish eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Qulay sarmoyaviy muhitga ega hududlar xalqaro bozorlar talablariga tez moslasha oladi.

[393] Позиционирование региона в системе новых форматов международной экономической интеграции / Колл. моногр.:под ред. д.э.н., проф. Е.Л. Андреевой; д.э.н., проф. А.Г. Шеломенцева. Екатеринбург: Институт экономики Ур О РАН, 2016. 250 с.

[394] Позиционирование региона в системе новых форматов международной экономической интеграции / Колл. моногр.:под ред. д.э.н., проф. Е.Л. Андреевой; д.э.н., проф. А.Г. Шеломенцева. Екатеринбург: Институт экономики Ур О РАН, 2016. 250 с.

[395] Muallif tomonidan o‘rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan

Moliya resurslariga kirish imkoniyati	Eksportchilarni kreditlar, subsidiyalar yoki kafolatlar shaklida moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ularning imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Eksportga yo‘naltirilgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat moliyalashtirish dasturlari eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.
Iqtisodiy diversifikatsiya	Eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali hududning iqtisodiy barqarorligi ta’minlanmoqda. Tovar va xizmatlarning keng assortimentini taklif qila oladigan mintaqa jahon bozoridagi o‘zgarishlarga yaxshiroq moslasha oladi.
Mehnat resurslari	Malakali ishchi kuchining mavjudligi eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishning muhim shartidir. Malakali kadrlar bilan ta’minlangan hududlar innovatsion texnologiyalarni tezroq joriy etish va xalqaro standartlarga moslashish imkonini beradi.
Energiya xavfsizligi	Arzon va qulay energiya manbalarining mavjudligi ishlab chiqarish tannarxini pasaytirib, mintaqa mahsulotlarini jahon bozorlarida raqobatbardosh qiladi. Mintaqaning energetik mustaqilligi energiya narxining oshishi sharoitida ham xavflarni kamaytiradi
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) o'rni	Mintaqa iqtisodiyotida kichik va o‘rta korxonalar salmoqli o‘rin tutib, eksport salohiyatini diversifikatsiya qilish va moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu omillarni nazariy nuqtai nazardan, mualliflar ishlariga tayanib ko‘rib chiqamiz. Xorijiy tadqiqotchilar bozordagi dinamik va innovatsiyalarning roliga alohida e’tibor qaratadilar. Iqtisodiyot fanlari doktori P. Krugmanning fikriga ko‘ra, xalqaro bozorlarga chiqish va hududiy klasterlarni yaratish eksport o‘sishining asosiy omillari hisoblanadi[396].

O‘zbekistonda eksport tovarlarini diversifikatsiya qilish va xomashyo bazasining roliga alohida e’tibor qaratilmoqda. D.Xolmuratov va Sh.Quliev eksport salohiyatini rivojlantirishning asosiy omili global ta’minot zanjirlariga integratsiya ekanligini ta’kidlamoqda[397].

Mazkur jihatlarni o‘rganish eksport salohiyatini belgilovchi asosiy drayverlarni aniqlash bilan birga, kelgusi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Hududiy ekport imkoniyatlarini shakllantirish ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, bir-biriga bog‘liq bo‘lgan qator omillar ta’sirida yuz beradi. Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida eksport salohiyatini shakllantirish omillari tasnifi ishlab chiqilib, uning doirasida to‘rt guruh: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, milliy-madaniy va ishlab chiqarish-texnologik omillar belgilandi. Quyida ushbu omillarning batafsil tasnifi va atroflicha tavsifi keltirilgan (2-jadval).

Jadvalda keltirilgan tasnif hududlarda eksport faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamda eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillarning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini chuqur tahlil qilish hudud eksport salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash va uni rivojlantirishning ustuvor strategik yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida eksport salohiyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar tizimli ravishda o‘rganilib, ularning ilmiy tasnifi ishlab chiqildi. Mazkur tasnifga ko‘ra, eksport salohiyatini

[396] (Кругман П. География и торговля. – М.: MIT Press, 1991)
[397] Холмуратов Д., Кулиев Ш. Региональная инновационная политика. – Т.: Фан, 2022

belgilovchi, ishlab chiqarish va texnologik rivojlanish jihatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion hamda institutsional kabi to‘rtta asosiy guruhga ajratildi.

2-jadval

Globallashuv sharoitida mintaqaviy eksport salohiyatining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning tasnifi[398]

№	Nomi	Mazmuni	Muallif
1	Iqtisodiy omillar	Ishlab chiqarish va logistikani yaratish va rivojlantirish uchun moliyaviy resurslardan foydalanish. Global iqtisodiyotda mintaqaviy klasterlarni yaratish rolini ta’kidlaydi.	Krugman P. Geografiya va savdo. - M.: MIT Press, 1991 yil
2	Ijtimoiy omillar	Xodimlarning malaka darajasi va mehnat resurslarining mavjudligi. Mualliflarning fikricha, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘qitish kabi eksport o‘sishining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi	Petrov N.G. MDH mamlakatlarida bojxona tartibga solish. – M.: Nauka, 2018
3	Innovatsion omillar	Yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish. Ta’minot zanjirlariga integratsiya mintaqaviy salohiyatni mustahkamlashga yordam berishini qayd etadi	Xolmuratov D., Quliev Sh. Mintaqaviy innovatsion siyosat. – T.: Muxlis, 2022
4	Institutsional omillar	Eksportni rag‘batlantirish va biznesni qo‘llab-quvvatlashda davlatning roli institutlarni eksportni qo‘llab-quvvatlashning asosi sifatida belgilaydi.	Petrov N.G. MDH mamlakatlarida bojxona tartibga solish. – M.: Nauka, 2018

Taklif etilayotgan tasniflash kontekstida eksport salohiyatining tarmoq va hududiy jihatlari bo‘yicha eksport salohiyatini shakllantirish omillari aniqlandi. Mintaqaviy eksport salohiyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi iqtisodiy omillarni ko‘rib chiqamiz: Kredit liniyalari, investitsiya fondlari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgani eksport salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo’lsa, moliyalashtirish - ishlab chiqarish quvvatlarini, logistika infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish va eksport operatsiyalarini amalga oshirishning asosi bo‘lmoqda. Samarali infratuzilma (transport, ombor, port) logistika xarajatlarini kamaytiradi va mahsulotni yetkazib berish tezligini oshiradi. Bu ayniqsa, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega yoki yaroqlilik muddati cheklangan tovarlarni eksport qilishda muhim ahamiyatga ega. Eksport qilinadigan mahsulot va xizmatlar turlarining diversifikatsiyalashuvi hududlarga global bozor tebranishlariga tezkor moslashish hamda monotoversifikasiya (yagona mahsulotga qaramlik) xavfini minimallashtirish imkoniyatini yaratadi. Mahsulotning xalqaro sifat standartlariga (ISO, HACCP, ekologik sertifikatlar) muvofiqligi yangi bozorlarga chiqishda asosiy rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, sertifikatlashtirish tizimini joriy etishga yo‘naltirilayotgan moliyaviy sarmoyalar viloyatning eksport salohiyatini oshirmoqda.

[398] Muallif tomonidan o‘rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan

Eksport salohiyatini shakllantiruvchi omillar bilan jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik eksport siyosatini tizimli va kompleks yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Raqobat ustunliklaridan unumli foydalanadigan va global o‘zgarishlarga moslashgan hududlar barqaror o‘sishga erisha oladi va xalqaro savdoda o‘z mavqeini mustahkamlaydi. Mintaqaviy eksport salohiyatini shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va institutsional omillarga bog‘liq. O‘rganilgan omillar eksport salohiyatini barqaror rivojlantirish iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini kompleks qo‘llab-quvvatlash hamda mavjud resurslardan oqilona foydalanishga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son https://lex.uz/uz/docs/-5841063

2. O’zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo’mitasi https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/50245-2024-yil

3. Balkind V.S., Gromov I.V., Конкурентоспособность региона в условиях глобализации, 2021

GLOBALLASHUV SHAROITIDA HUDUDNING BREND-IMIDJINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Zakirova Umida Maxamadaminovna,
DSc, Toshkent davlat iqtisodyot universiteti

Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini va uning jahon xo'jaligidagi o'rnini belgilaydi. Bugungi kunda davlatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari bozor iqtisodiyotining global xarakterini aniqroq aks ettirmoqda, uning asosida tovarlar, xizmatlar va ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning o'zaro bog'liqligi yotadi. Globallashuv jarayonlari tashqi iqtisodiy aloqalarga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi va o'zaro bog'liqligi ortadi, demak, dunyo mamlakatlarining xalqaro savdoning barqaror rivojlanishidan manfaatdorligi oshadi. Boshqa tomondan, ular jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlarni beqarorlashtiradigan omillarni keltirib chiqaradi, bu esa jahon bozorida xomashyo narxlarining keskin o'zgarishiga, iqtisodiy pasayishga va moliyaviy inqirozlarga sabab bo'ladi. Shuning uchun jahon iqtisodiyotining globallashuvi respublikamiz tashqi iqtisodiy siyosatidan doimiy ravishda o'zgarib turadigan tashqi sharoitlarga moslashuvchanlikni talab etadi.

Bularning barchasi tashqi iqtisodiy aloqalar va milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda jahon iqtisodiyotining makroiqtisodiy sharoitlarga ta'sirini hisobga olish zarurligidan dalolat beradi. Jahon bozorlaridagi beqarorlik sharoitida (jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, COVID-19, geopolitik beqarorlik va boshqalar) tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish muammosi zamonamizning eng munozarali masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida tashqi munosabatlar

sohasidagi davlat siyosatining ikkita asosiy turi mavjud. Bular proteksionizm va ochiq iqtisodiyot printsipidir. Ya'ni, bir tomondan, davlat tomonidan ichki bozorni faol himoya qilish va eksportga yo'naltirilgan siyosatni qo'llab-quvvatlash bo'lsa, boshqa tomondan, tashqi savdoga erkin savdo tamoyillarini keng joriy etishdir.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarni isloh qilish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning murakkab jarayonlari jahon bozorlarida raqobat kuchayib borayotgan bir sharoitda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini tashkil etishga, respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini hududlar darajasida tartibga solish tamoyillari va usullariga yangicha yondashuvlarni talab etadi. Iqtisodiy islohotlar davomida tashqi iqtisodiy aloqalar va eksport tarkibi ham geografiyaning o'zgarishi, ham tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining sifat va miqdor xarakteristikalari nuqtai nazaridan sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solish tizimining transformatsiyasi institutsional o'zgarishlarni va yangi xo'jalik yurituvchi subyektlarning shakllanishini, mahalliy boshqaruv organlarining rivojlanayotgan raqobatli bozorlar talablariga mos keladigan rolini o'zgartirishni talab qildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari yangi bozorga kirishda, ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qisqartirish to'g'risida qaror qabul qilishda, texnologik uskunalar va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni yangilash maqsadida investitsiyalarni amalga oshirishda xalqaro savdo me'yorlari va qoidalari, tashqi bozorlarni marketing tadqiqotlari talablari, eksport jarayoni, standartlashtirish, mahsulot sifatini sertifikatlash va boshqalar bo'yicha bilim hamda ko'nikmalarga ega bo'lishlari shart. Zamonaviy sharoitda respublika hududlarining tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirish tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarini bozor talablariga moslashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi, shuningdek, hududlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi («Made in Germany», «Made in Turkey») ko'rsatganidek, bozor xo'jaligi sharoitida hududiy iqtisodiyot bozordagi konyunkturani hamda tashkiliy-texnologik tuzilmani tashqi muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish orqali hududning brend-imidjini shakllantirishni hisobga olmasdan, faqat mavjud raqobatbardosh ustunliklarga tayanib uzoq vaqt davomida barqaror mavqeni egallay olmaydi [4]. Hududning brend-imidjini shakllantirish hududning unikal identikligining barcha elementlarini aks ettirish usuli orqali turli maqsadli auditoriyalar bilan munosabatlarni boshqarish vositasida hudud strategiyasini amalga oshirish jarayonini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishni ta'minlaydi [5]. Hududning brend-imidjini shakllantirish va rivojlantirish zaruratining dolzarblashuvi raqobatbardoshlikni oshirishga (Value Proposition), umuman olganda, hudud aholisi farovonligining o'sishiga xizmat qiladi. Hudud subyektlari oldida hududiy salohiyatni samarali ro'yobga chiqarishning zarur omiliga aylanayotgan pozitiv brend-imidjini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat yangi vazifa turibdi.

Hudud brend-imidjining muvaffaqiyati (Country of Origin Effect) hududning barqaror rivojlanishiga, yangi iqtisodiy agentlarni va binobarin, tashqi

investitsiyalarni jalb qilishga, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatni oshirishga, integratsiya va kooperatsiya aloqalarini mustahkamlashga, hududiy ustunliklar, yutuqlar va tashabbuslarni shakllantirishga yordam beradi. Hududning brend-imidjini yaratish va rivojlantirish — mintaqaviy darajada hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi imidjini jahon iqtisodiy makonida ilgari surishning zamonaviy konsepsiyasi va texnologiyasi sifatida brendga bo'lgan mavjud yondashuvlar va qarashlarni qiyosiy tahlil qilish asosida zamonaviy marketing-menejmentda mamlakat brendi nazariyasi va metodologiyasining rivojlanish darajasiga tavsif berish va baholash;

mamlakat brendi boshqaruvining xorijiy nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotini retrospektiv tahlil qilish asosida mamlakat brendining mavjud va shakllanayotgan konsepsiyalarini, ularning turli turlari hamda modifikatsiyalarini tizimlashtirish va tasniflash, tegishli brend konsepsiyalarining tushunchalari, kategoriyalari va usullari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatish;

marketing nazariyasi [6] ilmiy muomalasiga mamlakat brend-imidji tushunchasini jahon media-makonida ijobiy assotsiatsiyalarni uyg'otuvchi shakllangan barqaror obraz sifatida kiritish, uning mohiyati va tuzilmasini komponentlar (ma'naviy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy, etnik va b.) hamda funksiyalar (modifikatsiya, ilgari surish, sodiqlik va b.) orqali ochib berish;

globallashuv sharoitida mamlakat aholisining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun brendlarning turli turlarini amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydigan ushbu konsepsiya modifikatsiyalarini ko'rib chiqilayotgan ilmiy muammoni tadqiq etishda qo'llashning metodologik jihatlarini aniqlagan holda, "milliy iqtisodiy muvaffaqiyat" kategoriyasini ilmiy muomalaga kiritib, barqaror rivojlanish variantlarini tanlash maqsadida mamlakat brend-imidjini shakllantirish konsepsiyalari modifikatsiyalarini tizimlashtirish;

brendning tarixiy chegaralari va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarining global idrok etilishiga urg'u bergan holda mamlakat brend-imidjini shakllantirishning marketing modellarini ishlab chiqish. Yondashuvning yangiligi turli milliy xo'jalik yuritish modellarining mamlakatlararo qiyosiy tadqiqotining metodologik mezon sifatida tizimli tahlildan foydalangan holda mamlakat brend-imidjining identikligini aniqlashda zamonaviy marketing texnologiyalarini qo'llashni asoslashdan iborat;

mamlakat brend-imidjini shakllantirish marketing modelini amalga oshirishning izchil bosqichlarini taqdim etish: milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui sifatida strategik maqsadlarni belgilash, tadqiqotlar o'tkazish, identiklikni aniqlash, kreativ va media-strategiyani tanlash, ilgari surish va monitoring qilish. Ishlab chiqilgan tartib-taomil milliy iqtisodiy tizimlar rivojlanishining jahon tendensiyalarini ochib berishga hamda ularning iqtisodiy muvaffaqiyatini belgilovchi omillar va sharoitlarni aniqlashga qaratilgan.

Shuday qilib, marketing texnologiyalaridan foydalangan holda mamlakat hududlarini brend-imidjini shakllantirishning turli bosqichlari bo'yicha an'anaviy

tadqiqot vositalari va usullarini tizimlashtirishga imkon beruvchi metodologik instrumentariyni shakllantirish, olingan natijalarni esa O'zbekistonni rivojlangan ochiq bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatga aylantirish mezonlari va omillarini belgilash orqali uning raqobatbardosh ustunliklarini aniqlashning strategik muammolarini hal etish uchun qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida (PF-158-son, 2023-yil 11-sentabr).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – T.: O‘zbekiston, 2022.
4. Anholt, S. (2007). Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. London: Palgrave Macmillan.
5. Dinnie, K. (2015). Nation Branding: Concepts, Issues, Practice. 2nd Edition. Routledge.
6. Kotler, P., Asplund, C., Rein, I., & Haider, D. (1999). Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. Press.
7. Oliyev, A., & Vohobov, A. (2020). Xalqaro iqtisodiy munosabatlar va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya.

РЕГИОНАЛЬНЫЕ РИСКИ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ УЗБЕКИСТАНА: ВОДНО-КЛИМАТИЧЕСКИЕ И ДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ВЫЗОВЫ И ПУТИ ИХ СНИЖЕНИЯ

А.А. Абдуллаев
эксперт ННО «Экспертный центр стратегических инициатив», г. Ташкент
А.А. Самиев
эксперт ННО «Экспертный центр стратегических инициатив», г. Ташкент

Продовольственная безопасность остается одним из приоритетов государственной политики Узбекистана: это первый из стратегических приоритетов Стратегии развития сельского хозяйства на 2020–2030 гг. [1], а стратегия «Узбекистан – 2030» обновлена на 2026–2030 гг. [2; 3]. Тема актуальна по трем причинам. Спрос растет: численность постоянного населения увеличилась с 33,9 млн чел. в 2020 г. до 37,5 млн чел. на 1 января 2025 г., то есть на 10,6% [4]. Ресурсная база сужается: по оценке Всемирного банка и АБР, к 2050-м гг. приток воды в Сырдарью может сократиться на 22–28%, в Амударью – на 26–35%, а потери ледниковой массы при потеплении на 2,2–3,1°C могут достигнуть 36–45% [5]. Наконец, климатическая и демографическая нагрузка распределена по территории неравномерно, поэтому продовольственную безопасность нужно рассматривать не только в национальном, но и в региональном разрезе.

Главный структурный риск – зависимость от импорта зерна. По данным аналитического материала [6], коэффициент самообеспеченности зерном в 2021–2024 гг. составлял 64,1–66,7% (в 2024 г. – 65,9%), тогда как по мясу, молоку, яйцам, овощам и фруктам превышал 100%. Импорт при этом сосредоточен у одного поставщика: из 422,6 тыс. т пшеничной муки, ввезенной в 2025 г., 399,8 тыс. т (около 95%) поступило из Казахстана [7].

Второй риск связан с водой и климатом. Около 85% пахотных земель орошается, а примерно 80% водных ресурсов формируется за пределами страны (оценка на 2014 г.) [5]. По Концепции развития водного хозяйства, 35–40% воды теряется в оросительных сетях, а дефицит воды к 2030 г. может вырасти до 7 млрд м³ [8]. При высоком сценарии выбросов (RCP8.5) к 2090-м гг. сильная засуха прогнозируется в 87% лет, а в западном Каракалпакстане – в 95%. К 2050-м гг. (сценарий RCP6.0) урожайность озимой пшеницы может снизиться на 31–43%, яровой – на 41–57%, картофеля – на 37–57%; пик стока рек сместится с лета на весну, а в июле–августе сток главного притока Амударьи сократится примерно на 25% [5].

Эти риски распределены по стране неравномерно. Наибольшее потепление к 2090-м гг. ожидается в Ферганской долине (5,6–5,7°C) и в Аралкуме (5,5–5,6°C) [5]. Ферганская долина, по оценке [6], отличается высокой плотностью населения и нехваткой земли, а Хорезмская область и Каракалпакстан наиболее уязвимы по природно-экологическим факторам.

Стратегические документы между тем задают целевые параметры на национальном уровне: снижение водопотребления на гектар на 20% к 2030 г. [1]; рост эффективности ирригации с 0,63 до 0,73, капельное орошение на 600 тыс. га, сокращение площади земель с дефицитом воды с 560 до 190 тыс. га и расширение водосберегающих технологий до 2 млн га [8]; переработка свыше 25% продукции, 100 агрологистических центров мощностью 2,5 млн т, агроэкспорт 10 млрд долл. [2]. По мнению автора, региональный разрез рисков выражен в этих документах слабее отраслевого, и это нужно учитывать при реализации обновленной стратегии.

Сопоставление показателей дает три вывода. Рост населения на 10,6% за 2020–2025 гг. при самообеспеченности зерном около 66% [4; 6] означает рост абсолютной потребности в импортном зерне, если урожайность не вырастет; поэтому целевой ориентир по урожайности зерновых – 80–85 ц/га [2] – становится ключевым рычагом. Повышение эффективности ирригации с 0,63 до 0,73 [8] снижает условные потери воды в сетях примерно с 37% до 27%, но при прогнозируемом сокращении стока рек [5] этого может не хватить без перераспределения воды в пользу наиболее рискованных территорий. Наконец, засуха, потепление и демографическая нагрузка пространственно совпадают в Ферганской долине и Приаралье [5; 6], так что средние национальные показатели скрывают самые уязвимые территории.

Прежде всего стоит ввести региональное зонирование рисков с дифференцированными целевыми показателями для трех типов территорий: зон демографического давления, водного стресса и экологического бедствия

(Приаралье). Программы водосбережения – капельное орошение, цифровой мониторинг водораспределения «Smart Water» [8] – следует разворачивать в первую очередь там, где водный дефицит совпадает с высокой плотностью населения: так можно сократить потери 35–40% воды в сетях именно в самых рискованных территориях. Чтобы снизить зерновую зависимость, нужно диверсифицировать источники импорта (импорт муки в 2025 г. снизился на 10,3% к 2024 г., но по-прежнему привязан к одному поставщику [7]) и наращивать мощности хранения и агрологистики, включая запланированные агрологистические центры [2]. Структуру посевов необходимо адаптировать к климатическим проекциям: делать ставку на засухоустойчивые сорта и пересмотреть размещение влагоемких культур. Нужна и региональная система мониторинга и раннего предупреждения.

К национальным индикаторам можно добавить региональные: коэффициент самообеспеченности зерном по области, долю орошаемых земель с водосберегающими технологиями, уровень потерь воды в оросительных сетях, обеспеченность мощностями хранения и долю основного поставщика в импорте. Такой набор пригодится при уточнении целевых показателей обновленной стратегии «Узбекистан – 2030» [3] и при разработке региональных программ развития агропродовольственного сектора.

Устойчивость продовольственной безопасности Узбекистана зависит не столько от национальных балансов, сколько от того, насколько регионы смогут приспособиться к водному и демографическому давлению. Управление рисками на региональном уровне может повысить эффективность реализации стратегии «Узбекистан – 2030».

Литература:

1. Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы: Указ Президента Республики Узбекистан от 23.10.2019 № УП-5853 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://www.lex.uz/uz/docs/4567337 (дата обращения: 06.10.2026).

2. О Стратегии «Узбекистан – 2030»: Указ Президента Республики Узбекистан от 11.09.2023 № УП-158 (утратил силу 17.02.2026) // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://lex.uz/docs/6600404 (дата обращения: 06.10.2026).

3. Dushanbe hosts launch of Uzbekistan’s updated long-term 2030 development strategy // Dunyo IA. – 16.02.2026. – URL: https://dunyo.info/en/strategy2030/v-dushanbe-predstavlen-obnovlyonnyy-kurs-razvitiya-uzbekistana-do-2030-goda (дата обращения: 06.10.2026).

4. O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni // Национальный комитет статистики Республики Узбекистан. – 11.03.2025. – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/60425-o-zbekiston-respublikasining-doimiy-aholisi-soni (дата обращения: 06.10.2026).

5. Climate Risk Country Profile: Uzbekistan. – Washington, DC: World Bank Group; Manila: Asian Development Bank, 2021. – URL: https://climateknowledgeportal.worldbank.org/sites/default/files/2021-06/15838-Uzbekistan%20Country%20Profile-WEB.pdf (дата обращения: 06.10.2026).

6. Анализ ситуации в сфере продовольственной безопасности в России и Узбекистане: аналитический материал (НИР П204-33-26, разд. 1). – Ташкент; Москва: ЭЦСИ, 2026. – Рукопись.

7. Uzbekistan's wheat flour imports drop by over 10 percent in 2025 // Kun.uz. – 21.02.2026. – URL: https://kun.uz/en/news/2026/02/21/uzbekistans-wheat-flour-imports-drop-by-over-10-percent-in-2025 (дата обращения: 06.10.2026).

8. Об утверждении Концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020–2030 годы: Указ Президента Республики Узбекистан от 10.07.2020 № УП-6024 // Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. – URL: https://www.lex.uz/docs/4892946 (дата обращения: 06.10.2026).

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНИРОВАНИЯ В СТРАТЕГИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РЕГИОНОВ

З.Т.Абдалова,
ТГЭУ к.г.н., и.о. профессор

Особое значение в формировании и совершенствовании научных основ государственной региональной политики приобретают вопросы пространственной трансформации экономики, оптимизации системы регионального управления и повышения эффективности территориальной организации хозяйственной деятельности. Существенную роль при этом играет экономическое районирование как инструмент научно обоснованной дифференциации территории, позволяющий учитывать специфику природно-ресурсного, производственного, инфраструктурного и социально-экономического потенциала регионов при разработке стратегических направлений их долгосрочного развития в целях обеспечения территориально сбалансированного, устойчивого экономического роста.

В прошлом, формирование системы экономического районирования Узбекистана происходило в тесной взаимосвязи с процессами индустриализации и становлением народнохозяйственного комплекса бывшего союза. Основной особенностью районирования данного периода являлась его тесная связь с административно-территориальным устройством, а также определением перспектив размещения и развития производительных сил на основе электрификации.

Принципиальной особенностью экономического районирования является его отличие от административно-территориального деления. Экономические районы, как правило, не обладают самостоятельным административно-правовым статусом и не выступают официальными единицами государственного управления, в отличие от административно-

территориальных образований. Ранжирование обусловлено прежде всего научно-аналитическими и практическими задачами территориальной организации хозяйства. В рамках данного территориального устройства складывалась единая экономическая система, в которой ключевая роль в определении основных направлений и принципов размещения производительных сил принадлежала государству.

В настоящее время в теории экономического районирования наблюдается постепенная трансформация методологических подходов, выражающаяся в смещении акцента с преимущественного учета экономических факторов к комплексному рассмотрению социально-экономических, экологических и инфраструктурных характеристик территорий. Данная тенденция обусловлена необходимостью более полного отражения пространственной взаимосвязанности хозяйственной деятельности, населения, природно-ресурсного потенциала и состояния окружающей среды.

В условиях рыночной экономики важнейшим критерием экономического районирования выступает территориальное разделение труда, направленное на более эффективное использование внутреннего потенциала страны, ускорение адаптации регионов к рыночным отношениям и повышение уровня их экономической активности. Актуальность данного подхода обусловлена особенностями прежней экономической системы, в рамках которой хозяйственное пространство республик отличалось недостаточной внутренней дифференциацией, а их специализация преимущественно определялась производством отдельных видов продукции или ориентацией на сырьевую базу.

Территориальное развитие определяется инфраструктурными, институциональными и экологическими факторами, при этом инфраструктурное районирование основывается на показателях обеспеченности территории инфраструктурой, её пространственной организации и эффективности функционирования.

Природная среда является важным фактором социально-экономического развития и районообразования. Физико-географические особенности территории, включая природные ресурсы и условия жизнедеятельности и хозяйствования, определяют необходимость их учёта при территориальном районировании. Физико-географическое районирование позволяет комплексно оценивать природные условия и ресурсы для решения инженерно-строительных, транспортных, рекреационных и других задач. Степень его уровень территориальной дифференциации определяется целями районирования и значимостью отдельных характеристик природной среды.[399]

Формирование парадигмы в мире «зелёной экономики» обусловлено необходимостью решения экологических проблем, вызванных ростом производства и потребления в обеспечение сбалансированного экономического, социального и экологического развития. На региональном

[399] Исаченко А. Г. Основы ландшафтоведения и физико-географическое районирование, М., 1965.

уровне это предполагает рациональное использование природного потенциала, внедрение экологически эффективных технологий и современных методов утилизации отходов.

В современной экономической науке возрастает роль нематериальных факторов регионального развития, особенно преимуществ «второй природы», к которым относятся агломерационные эффекты, инфраструктура, человеческий капитал, институциональная среда и инновационный потенциал. Согласно подходу П. Кругмана, агломерационный эффект выступает одним из ключевых факторов районообразования и новой экономической географии, обусловливая концентрацию населения и производства, близость рынков, технологий и информации, а также совместное использование инфраструктуры.[400]

Важное районообразующее и комплексообразующее значение в исследовании пространственной организации экономики имеет концепция «полюсов роста», впервые разработанная французским экономистом Франсуа Перру в середине XX века. В рамках данной концепции экономическое развитие рассматривается через систему взаимосвязанных отраслей и экономических субъектов, оказывающих дифференцированное воздействие на пространственную структуру хозяйства. Одним из инструментов анализа выступает экономико-матричная модель «затраты – выпуск», позволяющая выявлять характер и интенсивность межотраслевых связей, а также определять роль и место отдельных отраслей в структуре региональной экономики, прежде всего ведущих отраслей, обеспечивающих производство новых товаров и услуг и формирующих импульсы последующего экономического развития. [401]

В Республике Узбекистан выделяют шесть экономических районов — Ташкентский, Мирзачульский, Ферганский, Зарафшанский, Южный и Нижнеамударьинский. Однако данная система не имеет официального законодательного закрепления, а статистическая отчётность по экономическим районам не ведётся, вследствие чего основными субъектами региональной политики остаются административно-территориальные единицы.[402] Существенные различия районов по природно-ресурсному, демографическому и экономическому потенциалу, инвестиционным условиям и экологической ситуации обусловливают необходимость дальнейшего совершенствования территориальной организации управления.

В этой связи стратегию регионального развития целесообразно формировать на основе комплексного территориального районирования с учётом социально-экономических и природно-географических факторов, гидрографической структуры и водных бассейнов, энергетической и транспортной обеспеченности, состояния инфраструктуры и экологических

---

[400] Павлов Ю. В. Развитие экономики районов на основе агломерационных эффектов.: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кан. экон. наук.: Самара.: 2023г. Стр.26.

[401] Перру Ф. Экономическое пространство: теория и приложения // Пространственная экономика. 2007. № 2. С. 77–93).

[402] Абдалова З.Т. Региональная экономика: Учебник Т.: Lavita Print-2025,с.197.

условий. Одновременно развитие межобластных интеграционных процессов должно способствовать формированию единого производственного и рыночного пространства, обеспечивая более эффективное согласование экономических, социальных и экологических интересов и повышение устойчивости национальной экономики.

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ В РОССИИ И УЗБЕКИСТАНЕ В ПРИОРИТЕТНЫХ ОТРАСЛЯХ ДВУСТОРОННЕГО СОТРУДНИЧЕСТВА

Алимухамедов Б.Б.
Институт исследований бедности и рынка труда Министерства занятости и сокращения бедности Республики Узбекистан

Современный этап развития российско-узбекских отношений характеризуется активным расширением экономического, научно-технического и гуманитарного сотрудничества. Особое место в системе двустороннего взаимодействия занимает подготовка квалифицированных кадров, способных обеспечить реализацию совместных проектов в промышленности, энергетике, цифровой экономике, сельском хозяйстве, транспорте и других стратегически важных направлениях. За последние годы между Россией и Узбекистаном значительно увеличилось количество совместных образовательных программ, филиалов российских университетов, программ академической мобильности и научно-исследовательских проектов. Стороны уделяют особое внимание адаптации образовательных программ к современным требованиям рынка труда и развитию совместной подготовки специалистов.

Развитие сотрудничества между Россией и Узбекистаном в сфере образования является одним из ключевых факторов формирования общего научно-образовательного пространства. Между университетами двух стран заключены сотни соглашений о сотрудничестве, реализуются совместные образовательные программы, развивается система двойных дипломов и академической мобильности. Важную роль играет деятельность филиалов российских вузов в Узбекистане, которые обеспечивают подготовку специалистов по инженерным, техническим, экономическим и информационным направлениям. Такое взаимодействие способствует внедрению современных образовательных технологий и повышению качества подготовки кадров.

Анализ экономического сотрудничества России и Узбекистана позволяет выделить несколько ключевых отраслей, требующих подготовки высококвалифицированных специалистов:

развитие совместных промышленных предприятий требует инженеров нового поколения, обладающих компетенциями в области

автоматизированного производства, робототехники, материаловедения и цифрового проектирования. Особое значение приобретают специалисты, владеющие технологиями цифровых производственных систем и принципами «Индустрии 4.0 промышленной революции»;

Yangi davrga kelib, kapitalistik ishlab chiqarish tizimi shakllanib, mulkchilikning xususiy shakli ustunlik qila boshladi. Natijada, jamiyatda ishlab chiqarish vositalariga egalik qiluvchi burjuaziya va mehnat kuchini sotuvchi proletariat sinfi o‘rtasidagi farqlar keskinlashdi. Aynan shu davrda sinflararo kurash nazariyasining ilmiy asoslari shakllana boshladi. Sinflararo tafovutlar masalasi klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ham tahlil qilingan. Adam Smit, David Rikardo, Tomas Maltus kabi iqtisodchilar iqtisodiy manfaatlarning jamiyatdagi turli qatlamlarga ta’siri haqida yozganlar. Adam Smit “Xalqlar boyligi” asarida jamiyatni uch asosiy sinfga ajratadi yer egalari, kapital egalari va ishchilar. Uning fikricha, ushbu sinflar o‘rtasidagi manfaatlar farqi iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi omil hisoblanadi. Biroq Smit bu farqlarni tabiiy va muvozanatli deb biladi. David Rikardo esa sinfiy farqlarni ishlab chiqarish jarayonidagi ulush asosida tahlil qiladi. Unga ko‘ra, yer egalari renta, kapital egalari foyda, ishchilar esa ish haqi shaklida daromad oladilar. Bu iqtisodiy ulushlarning nisbatlari o‘zgargan sayin, sinflar o‘rtasida ziddiyat kuchayadi. Shu tariqa, sinflararo manfaatlar to‘qnashuvi iqtisodiy rivojlanishning muqarrar natijasi sifatida ko‘riladi. Bu g‘oyalar keyinchalik Karl Marks tomonidan yanada chuqurlashtirilib, sinflararo kurash nazariyasi darajasiga ko‘tarildi.

Karl Marks (1818–1883) va Fridrix Engels (1820–1895) jamiyatni tahlil qilishda materialistik dialektikani asos qilib oldilar. Ularning fikricha, jamiyatdagi barcha tarixiy jarayonlar ishlab chiqarish usuli bilan belgilanadi, ishlab chiqarish vositalariga egalik shakli esa sinflarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Marks “Kommunistik manifest” asarida quyidagicha yozadi: “Hozirgacha bo‘lgan barcha jamiyatlar tarixi bu sinflar kurashi tarixidir.” Marks uchun sinflararo kurash ijtimoiy o‘zgarishlarning asosi. U jamiyatni iqtisodiy struktura (baza) va ideologik-siyosiy ustqurma sifatida tahlil qiladi. Baza ishlab chiqarish munosabatlarini ifodalaydi,

ustqurma esa huquqiy, siyosiy va mafkuraviy tizimlardan iborat. Agar ishlab chiqarish munosabatlari ishlab chiqarish kuchlariga to‘g‘ri kelmasa, sinfiy ziddiyat yuzaga keladi va natijada jamiyat inqilobiy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi.

Marks kapitalistik tizimda asosiy sinfiy ziddiyatni burjuaziya va proletariat o‘rtasida ko‘radi. Burjuaziya ishlab chiqarish vositalariga egalik qilgani uchun siyosiy hokimiyatni ham nazorat qiladi. Proletariat esa mehnat kuchini sotish orqali yashaydi. Bu holat ekspluatatsiya ya’ni mehnatkashlarning ortiqcha qiymat hisobiga ekspluatatsiya qilinishiga olib keladi. Shu sababli, Marks nazarida sinflararo kurash kapitalistik tizimning ichki qonuniy natijasidir. Marks va Engels ishlab chiqqan tarixiy materializm nazariyasi sinflararo kurashning nazariy asosini tashkil etadi. Bu nazariyaga ko‘ra, tarixiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi g‘oyalar emas, balki moddiy ishlab chiqarishdir. Insonlar o‘z hayot sharoitlarini o‘zgartirish jarayonida jamiyatni ham o‘zgartiradilar.

Tarixiy materializm konsepsiyasi jamiyatni o‘zaro bog‘liq bosqichlar sifatida talqin qiladi.Yaniy ibtidoiy jamoa, qullik, feodalizm, kapitalizm va sotsializm. Har bir bosqichda asosiy sinfiy qarama-qarshilik mavjud bo‘lib, bu qarama-qarshilik yangi tizimning vujudga kelishiga turtki beradi. Masalan, feodalizmda yer egalari bilan dehqonlar o‘rtasidagi ziddiyat kapitalistik tizimning paydo bo‘lishiga olib keldi. Kapitalizmda esa burjuaziya va proletariat o‘rtasidagi ziddiyat sotsialistik tizimga yo‘l ochadi. Sinflararo kurashning natijalari ikki yo‘nalishda ko‘rinadi, destruktiv va konstruktiv. Destruktiv oqibatlar ijtimoiy qarama-qarshiliklar, inqiloblar va iqtisodiy inqirozlar shaklida namoyon bo‘ladi. Konstruktiv tomoni esa ijtimoiy o‘zgarishlar, huquqiy islohotlar va mehnat munosabatlarining rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Kasaba uyushmalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ham aynan sinflararo ziddiyatlarning mehnatkashlar foydasiga yechim topish jarayoni sifatida ko‘riladi. Ular kapital va mehnat o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvini tinch yo‘l bilan tartibga solish imkonini yaratgan.

Sotsiologik hamkorlik nazariyasi bu yondashuvga ko‘ra, kasaba uyushmalari ish beruvchilar va ishchilar o‘rtasida ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyatdagi ijtimoiy sheriklik modeliga asoslanadi. Inson jamiyati o‘z mohiyatiga ko‘ra, ijtimoiy aloqalar va o‘zaro ta’sirlar tizimidan tashkil topgan. Har qanday ijtimoiy tizimning barqarorligi, rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasi individlar o‘rtasidagi hamkorlik, bir-birini tushunish va ijtimoiy muvofiqlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Shu bois, sotsiologiyada “hamkorlik nazariyasi” (cooperation theory) ijtimoiy tizimlarning ichki barqarorligini tushuntiruvchi muhim konsepsiya sifatida shakllangan. Sotsiologik hamkorlik nazariyasi ijtimoiy munosabatlarning konflikt (ziddiyat) emas, balki muvofiqlik va hamjihatlik tamoyillari asosida rivojlanishini asoslaydi. Ushbu nazariya jamiyatdagi turli guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni raqobat emas, balki hamkorlik orqali tahlil qiladi. Hamkorlik g‘oyasining falsafiy ildizlari qadimiy jamiyatlardan boshlangan.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari faoliyatini tarixiy nuqtai nazardan o‘rganish nafaqat mehnat munosabatlari tizimini, balki fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. Kasaba uyushmalari

mehnatkashlarning oʻz huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan ixtiyoriy jamoat tashkilotidir. Ular fuqarolik jamiyatining eng qadimiy va keng tarqalgan institutlaridan biri boʻlib, mehnat munosabatlarida muvozanatni saqlash, mehnat qonunlarini amalda qoʻllash, adolatli ish haqi tizimini shakllantirish kabi vazifalarni bajaradi. Kasaba uyushmalarining faoliyati uch asosiy yoʻnalishda kechadi. Bular ijtimoiy-huquqiy himoya, Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat, madaniy-ma'rifiy faoliyat yoʻnalishida faoliyat olib boradi.

Ijtimoiy-huquqiy himoya bu fuqarolarning mehnat, ijtimoiy ta'minot, sogʻliqni saqlash, dam olish va boshqa huquqlarini himoya qilish tizimidir. Oʻzbekistonda bu yoʻnalishda muhim rolni kasaba uyushmalari bajaradi. Oʻzbekistonda asosiy tashkilot Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hisoblanadi. Bu tashkilot ishchilar va xodimlarning manfaatlarini himoya qiladi. Oʻzbekistonda kasaba uyushmalari ijtimoiy-huquqiy himoyaning muhim instituti hisoblanadi. Ular nafaqat ishchilarning huquqlarini himoya qiladi, balki jamiyatda barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda kasaba uyushmalarining faoliyati haqida "Kasaba uyushmalari axborotnomasi", "Xalq soʻzi", "Oʻzbekiston ovozi", "Huquq" gazetalarida, shuningdek, www.fpu.uz**,** www.lex.uz**,** www.norma.uz saytlarida e'lon qilinayotgan tahliliy maqolalar, press-relizlar, statistik axborotlar zamonaviy manbalar sifatida xizmat qilmoqda. Oʻzbekiston kasaba uyushmalari tarixini oʻrganish sovet davridan boshlab bugungi kungacha toʻrt asosiy bosqichda kechgan:

Sovet davri (1920–1991). Bu davrda kasaba uyushmalari faoliyatiga bagʻishlangan tadqiqotlar asosan kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan olib borilgan. Ularning aksariyati kasaba uyushmalarini "ishchilar sinfining sodiq yordamchisi" sifatida talqin qilgan. Masalan, 1950–1980-yillardagi "Kasaba uyushmalar tarixi" nomli rus tilidagi oʻquv qoʻllanmalar Oʻzbekiston tajribasini SSSR doirasidagi bir qism sifatida yoritgan, mahalliy xususiyatlarga esa e'tibor berilmagan.

Mustaqillikning dastlabki davri (1991–2000). Bu bosqichda Oʻzbekiston jamiyatida kasaba uyushmalarning yangi maqomi shakllana boshladi. Ilmiy adabiyotlarda ularning siyosiy tizimdagi mustaqil institut sifatidagi roli oʻrganila boshlandi. Jumladan, A. Abdurahmonov, T. Mirzayev, M. Toʻlaganovlarning ishlari Oʻzbekiston kasaba uyushmalarining yangi konstitutsiyaviy maqomini ochib beradi.

Islohotlar va fuqarolik jamiyatining rivojlanish bosqichi (2000–2016). Bu davrda kasaba uyushmalarning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi faolligi kuchaydi. Tarixshunoslikda ularning aholini ijtimoiy himoya qilishdagi oʻrni, gender siyosatida tutgan mavqei, mehnat migratsiyasi masalalaridagi roli tahlil qilindi. Shu yillarda Oʻzbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan chop etilgan "Oʻzbekiston kasaba uyushmalari tarixi" (Toshkent, 2008) nomli nashr muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Yangi Oʻzbekiston davri (2016–hozirgi kungacha). Prezident Sh. M. Mirziyoyev tomonidan boshlangan ijtimoiy davlat konsepsiyasi doirasida kasaba uyushmalar faoliyati yangi bosqichga koʻtarildi. Shu davrda yozilgan ilmiy

maqolalar (masalan, F. Qurbonov, G. Ergasheva, S. Sattorovlarning ishlari) kasaba uyushmalarning mehnat munosabatlari, ijtimoiy dialog va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishdagi faoliyatini yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. –56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. -592 b.
4. Инсопов А.А. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини шаклланиши ва ривожланиш тарихи. Ўқув қўлланма. Т.: 2023. – Б.88.
5. Асминкин Ю.П. Ўзбекистон аёллар нодавлат нотижорат ташкилотлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - Б.8.
6. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик. Т.: “Ўқитувчи”, 2008. Б.152.
7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: “Ўзбекистон”, 2023.
8. Нормурадов М.Т., Эргашев О. Жамоатчилик назорати ва ижтимоий бошқарув тизими. Қарши, 2019. Б.102.
9. Блок М. Апология истории, или Ремесло историка. – Москва, 1986.78-стр.
10. Фримен Э. Методы изучения истории / Пер. с англ. – Москва, 1986.125-стр.
11. Тойнби А.Дж. Постижение истории. – Москва, 1991.48-стр.
12. Февр Л. Бои за историю. – Москва, 1991.97-стр.

ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА ТРУДА В РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА: ВЫЗОВЫ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» И ПРОБЛЕМА ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Р.Р.Хусаинов,
проф. ТГТУ, к.э.н., профессор

Стратегия «Узбекистан – 2030», утверждённая Указом Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года, определяет ключевые ориентиры социально-экономического развития страны на среднесрочную перспективу. Одним из центральных направлений стратегии является обеспечение продуктивной занятости населения, снижение уровня безработицы и создание условий для достойного труда в каждом регионе [1]. Однако реализация этих целей сталкивается с серьёзными структурными вызовами, обусловленными демографическим ростом, региональными диспропорциями и масштабными миграционными процессами [3].

Настоящая статья посвящена анализу трансформации рынка труда в регионах Узбекистана в контексте задач Стратегии «Узбекистан – 2030», а также выявлению ключевых проблем, связанных с трудовой миграцией. Особое внимание уделяется вопросам сбалансированного регионального развития, качества человеческого капитала и эффективности миграционной политики [1; 2; 3].

1. Стратегические ориентиры и демографический контекст

Стратегия «Узбекистан – 2030» ставит амбициозные задачи: удвоение объёма экономики к 2030 году, вхождение в число стран с уровнем доходов выше среднего, сокращение доли ненаблюдаемой экономики и удержание дефицита консолидированного бюджета на безопасном уровне. В социальной сфере приоритетом заявлено развитие человеческого капитала, повышение охвата высшим образованием и улучшение качества профессиональной подготовки [1].

Демографическая динамика усиливает нагрузку на рынок труда. Постоянное население Узбекистана превысило 37 млн человек, а к 2030 году, по прогнозам, достигнет 41 млн [3]. Молодёжь составляет значительную часть населения, и ежегодно на рынок труда выходят сотни тысяч молодых людей. Такая динамика требует создания значительного количества новых рабочих мест, прежде всего в регионах с высоким естественным приростом населения [3].

2. Региональные диспропорции на рынке труда. Одной из наиболее острых проблем остаётся существенная дифференциация регионов по уровню занятости, доходов и доступности рабочих мест. Исследования показывают, что в 2020–2024 годах сохранялись устойчивые различия в уровне занятости между столицей и отдалёнными областями. Наиболее высокие показатели безработицы и недостаток формальных рабочих мест зафиксированы в Сурхандарьинской области, Республике Каракалпакстан и Джизакской области [3].

Заработная плата также распределена неравномерно. Самые низкие абсолютные значения заработной платы отмечены в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях [3].

Структурные различия в занятости усугубляются отраслевой специализацией регионов. В Ташкенте востребованы специалисты в сфере программирования, в Самаркандской области — в сфере услуг, в Ташкентской области — специалисты технического профиля. В сельских районах преобладает неформальная занятость в аграрном секторе, что ограничивает доступ к социальным гарантиям и стабильному доходу [3]. Цифровизация экономики создаёт дополнительные риски роста территориального неравенства, поскольку доступ к качественному интернету и образовательным программам в отдалённых кишлаках остаётся ограниченным [3].

3. Вызовы для рынка труда в контексте Стратегии «Узбекистан – 2030»

Молодёжная безработица и дисбаланс навыков. Несмотря на снижение общего уровня безработицы, безработица среди молодёжи остаётся

значительной. Основная проблема заключается в несоответствии профессиональной подготовки выпускников потребностям региональных рынков труда [3]. Система профессионального образования не всегда учитывает отраслевую специфику территорий, что приводит к трудоустройству молодёжи не по специальности или к вынужденной миграции.

В рамках Стратегии «Узбекистан – 2030» предусмотрены меры по созданию «городков профессий» при техникумах передового профессионального мастерства, внедрению стипендий для учащихся техникумов и созданию центров оценки квалификации. Эти инициативы направлены на ориентацию школьников на современные профессии и повышение признания квалификаций на рынке труда [1]. Однако их эффективность будет зависеть от координации с региональными программами экономического развития [1; 3].

3.3. Внутренняя миграция и урбанизация. Региональные диспропорции стимулируют внутреннюю миграцию из депрессивных сельских районов в Ташкент и областные центры. Это создаёт дополнительную нагрузку на городскую инфраструктуру, рынок жилья и социальные службы, а также усиливает неравенство между столицей и периферией [3].

4. Трудовая миграция: масштабы, направления и последствия

Количественные параметры. Трудовая миграция остаётся важнейшим фактором, влияющим на рынок труда Узбекистана. По данным Международной организации по миграции, на конец 2025 года за рубежом находилось около 1,4 млн узбекских трудовых мигрантов [2]. По оценкам, общее число граждан Узбекистана, проживающих за рубежом, достигает 2 млн человек, из которых около 1,6 млн трудоустроены.

Денежные переводы и их роль в экономике. Денежные переводы трудовых мигрантов являются существенным источником валютных поступлений и поддержки домохозяйств. В 2025 году объём трансграничных переводов в Узбекистан достиг 18,9 млрд долларов, увеличившись на 27,2% по сравнению с 2024 годом. Такой рост отражает как увеличение числа мигрантов, так и повышение их доходов, а также расширение географии миграции за счёт европейских стран и Азии [2].

Стратегия «Узбекистан – 2030» предусматривает диверсификацию направлений трудовой миграции и повышение доли официальной и адресной миграции. Планируется увеличить количество межправительственных соглашений о трудоустройстве и соглашений с иностранными компаниями по профессиональному обучению и трудоустройству [1].

Проблемы и риски трудовой миграции. Несмотря на экономические выгоды, трудовая миграция сопряжена с серьёзными рисками [2]. Узбекские мигранты в России сталкиваются с длительными очередями на паспортном контроле, проверками мобильных телефонов и полицейскими рейдами в общежитиях. Официальные органы Узбекистана неоднократно поднимали

вопросы защиты прав и достоинства граждан в ходе миграционных проверок [2].

Трансформация рынка труда в регионах Узбекистана представляет собой сложный и многогранный процесс, обусловленный как стратегическими целями «Узбекистан – 2030», так и объективными демографическими и экономическими факторами. Ключевые вызовы включают сохранение региональных диспропорций, молодёжную безработицу, неформальную занятость и масштабные миграционные потоки.

Стратегия «Узбекистан – 2030» предлагает комплексный подход к решению этих проблем: от создания новых рабочих мест и центров профессиональной подготовки в регионах до формирования новой модели управляемой трудовой миграции, ориентированной на защиту прав граждан и диверсификацию направлений [1]. Однако успех реализации этих мер будет зависеть от эффективности координации между центральными и региональными органами власти, а также от способности системы образования адаптироваться к меняющимся потребностям рынка труда [1; 3].

Список использованных источников:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии „Узбекистан – 2030“» от 11.09.2023 № УП-158. Lex.uz. URL: https://lex.uz/docs/-8050769

2. Международная организация по миграции (МОМ). Uzbekistan — Migration Situation Report (October–December 2025). ReliefWeb, 2026. URL: https://reliefweb.int/attachments/61f0404c-3906-4e90-a452-06c90a47e17e/Uzbekistan__Migration_Situation_Report_October_December_2025_EN.pdf

3. Хожиев Т. Т. Анализ динамики занятости и региональных различий в регионах Узбекистана за 2020–2024 годы // Zenodo. 2025. URL: https://zenodo.org/records/17240333

ҲУДУДЛАРНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИ ИШТИРОКИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Халбеков Авазбек Мехмонович
Мустақил изланувчи,
“Барқарор ривожланиш маркази” бўлим бошлиғи

Глобал иқтисодий беқарорлик, иқлим ўзгариши, демографик босим ва ресурслар чекланганлиги шароитида мамлакатнинг барқарор ривожланиши ҳудудларнинг мутаносиб ривожланиши, ички салоҳияти ва маҳаллий ресурслардан самарали фойдаланилишига боғлиқ. Ўзбекистонда ҳудудларни комплекс ривожлантириш, камбағалликни қисқартириш, бандликни таъминлаш, инфратузилмани яхшилаш ва тадбиркорликни қўллаб-қувватлаш бўйича ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бироқ ҳудудларнинг табиий-ресурс, демографик, ишлаб чиқариш ва инвестиция имкониятлари ўзаро фарқланиши

сабабли уларнинг эҳтиёжларига мос ёндашувларни қўллаш, аҳоли фаровонлигини ошириш ва маҳаллий ташаббусларни қўллаб-қувватлаш муҳим аҳамият касб этади.

2026 йилнинг январь–июнь ойларида ҳам ҳудудлар иқтисодий кўлами ва ўсиш суръатлари ўртасида сезиларли фарқ кузатилди. Жумладан, Тошкент шаҳри ялпи ҳудудий маҳсулоти 226,0 трлн сўмни ташкил этиб, 13,3 фоизга ўсган бўлса, Навоий вилоятида ЯҲМ 113,9 трлн сўм ва ўсиш 6,7 фоизни, Тошкент вилоятида эса мос равишда 103,8 трлн сўм ва 8,7 фоизни ташкил этди. Мазкур тафовутлар ҳудудларни ривожлантиришда уларнинг ўзига хос хусусиятлари ва ички имкониятларини ҳисобга олувчи механизмларни кенгайтириш зарурлигини кўрсатади.

Фуқаролик ташаббуслари иқтисодий нуқтаи назардан, энг аввало, давлат ва бозор механизмлари тўлиқ қамраб ололмайдиган маҳаллий эҳтиёжларни аниқлаш имконини беради.

Ҳудуддаги аҳоли ва жамоат ташкилотлари қайси маҳаллада ичимлик суви, ички йўл, транспорт, бандлик, тиббий ёки ижтимоий хизмат билан боғлиқ муаммо мавжудлигини бевосита ҳис қилади. Демак, уларнинг қарор қабул қилиш жараёнида иштирок этиши ахборот асимметриясини камайтиради ва давлат ресурсларини аҳолининг реал эҳтиёжларига яқинлаштиради.

Иккинчидан, фуқаролик жамияти қўшимча ресурсларни сафарбар этади. ННТлар давлат грантлари ва ижтимоий буюртмалар билан бир қаторда бизнес, халқаро ташкилотлар, хайрия маблағлари, аҳоли ташаббуслари ва кўнгилли меҳнатини маҳаллий муаммоларни ҳал этишга йўналтириши мумкин.

Учинчидан, фуқаролик жамияти институтлари давлат томонидан амалга оширилаётган ҳудудий дастурларнинг натижадорлиги устидан жамоатчилик мониторингини кучайтириш орқали ресурслардан фойдаланиш самарадорлигига таъсир кўрсатади.

Тўртинчидан, фуқаролик ташаббуслари ҳудудда ижтимоий инновациялар шаклланишига хизмат қилади. Аҳоли бандлиги, хотин-қизлар тадбиркорлиги, ёшлар билан ишлаш, экологик муаммоларни ҳал этиш, туризм, ҳунармандчилик ва ижтимоий хизматлар соҳасида кичик миқёсда синовдан ўтган самарали лойиҳалар кейинчалик бутун туман, вилоят ёки республика даражасида кенгайтирилиши мумкин.

2026 йилда фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш амалиётида ҳам ҳудудий йўналиш кучайиб бормоқда. Хусусан, айрим давлат ижтимоий буюртмаларида ННТлар, ёшлар ва ташаббускор фуқаролар учун замонавий инфратузилма яратиш, ижтимоий лойиҳалар ишлаб чиқиш имкониятларини кенгайтириш ҳамда давлат органлари билан ҳамкорликни кучайтириш вазифалари белгиланган.

Шунингдек, 2026 йилда эълон қилинган халқаро қўшма грант танловида ҳам “Ҳудудий ривожланиш ва ижтимоий фаровонлик ташаббуслари” алоҳида устувор йўналиш сифатида белгиланган.

Бу фуқаролик жамияти институтларининг вазифаси анъанавий ижтимоий ҳимоя доирасидан чиқиб, ҳудудларни ривожлантириш жараёнларига тобора яқинлашаётганини кўрсатади.

Фуқаролик жамияти институтларининг ҳудудий ривожланишга қўшаётган ҳиссасини ошириш нуқтаи назаридан айрим механизмларни такомиллаштириб бориш мақсадга мувофиқ.

Биринчидан, ННТлар ва бошқа жамоат ташкилотларини ҳудудий дастурларни нафақат амалга ошириш, балки уларни ишлаб чиқиш, устувор йўналишларни белгилаш ва маҳаллий эҳтиёжларни баҳолаш босқичларига ҳам кенгроқ жалб этиш мақсадга мувофиқ. Бу жойларда тўпланган амалий тажриба, аҳоли эҳтиёжлари ҳақидаги бевосита маълумотлар ва маҳаллий ташаббусларни стратегик режалаштириш жараёнида тўлиқроқ ҳисобга олиш имконини беради.

Иккинчидан, фуқаролик жамияти институтларининг ҳудудлар кесимидаги ташкилий, молиявий ва кадрлар салоҳиятини мутаносиб ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш зарур. Айниқса, туман ва чекка ҳудудларда фаолият юритаётган ННТлар учун лойиҳа бошқаруви, грант маблағларини жалб қилиш, ижтимоий тадбиркорлик, рақамли технологиялар ва натижадорликни баҳолаш бўйича амалий кўникмаларни ошириш уларнинг маҳаллий ривожланиш жараёнларидаги иштирокини янада кучайтириши мумкин.

Учинчидан, ижтимоий лойиҳалар самарадорлигини баҳолаш тизимини босқичма-босқич натижага йўналтирилган ёндашув билан бойитиш муҳим. Амалда лойиҳаларни баҳолашда сарфланган маблағлар, ўтказилган тадбирлар ва иштирокчилар сони каби кўрсаткичлар муҳим аҳамиятга эга. Бироқ барқарор ривожланиш нуқтаи назаридан улар билан бир қаторда лойиҳанинг ҳудуд ҳаётига кўрсатган аниқ ижтимоий-иқтисодий таъсирини ҳам ҳисобга олиш мақсадга мувофиқ.

Бунда асосий эътибор қуйидаги саволга қаратилиши мумкин:

“Амалга оширилган лойиҳа ҳудудда қандай ижобий ижтимоий-иқтисодий натижа яратди?”

Масалан, лойиҳа натижасида янги доимий иш ўринлари яратилдими, оилалар даромадлари ошдими, аҳолининг ичимлик суви, таълим, тиббий ёки бошқа ижтимоий хизматлардан фойдаланиш имконияти яхшиландими, экологик ҳолатда ижобий ўзгариш кузатилдими ана шу каби натижавий мезонлар лойиҳаларнинг ҳақиқий самарасини тўлиқроқ баҳолаш имконини беради.

Давлат ҳудудий ривожланишнинг стратегик устувор йўналишларини белгилаш, қулай ҳуқуқий ва институционал муҳит яратиш, инфратузилмани ривожлантириш ҳамда иштирокчилар ўртасидаги ҳамкорликни мувофиқлаштириш вазифасини бажаради.

Бизнес субъектлари инвестициялар ва замонавий технологияларни жалб этиш, ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларини кенгайтириш, янги иш

ўринларини яратиш ҳамда маҳаллий иқтисодий фаолликни ошириш орқали ҳудуднинг иқтисодий салоҳиятини рўёбга чиқаришга ҳисса қўшади.

Фуқаролик жамияти институтлари аҳоли ва маҳаллий ҳамжамиятларнинг эҳтиёж ҳамда ташаббусларини ифодалаш, уларни ҳудудий ривожланиш жараёнларига жалб этиш, ижтимоий аҳамиятга эга лойиҳаларни илгари суриш ва амалга ошириш, шунингдек, жамоатчилик иштирокини таъминлаш орқали давлат ва аҳоли ўртасидаги самарали мулоқотни мустаҳкамлайди.

Илм-фан ва таълим муассасалари эса ҳудудларнинг иқтисодий салоҳияти ва ривожланиш имкониятларини илмий жиҳатдан баҳолаш, истиқболли ўсиш нуқталарини аниқлаш, инновацион ечимларни таклиф этиш, амалга оширилаётган лойиҳалар натижадорлигини таҳлил қилиш ҳамда илмий асосланган прогноз ва тавсияларни ишлаб чиқиш орқали мазкур ҳамкорликнинг таҳлилий асосини мустаҳкамлайди.

Шу нуқтаи назардан, амалдаги ҳудудий ривожланиш механизмларини “эҳтиёжни аниқлаш - ташаббусни шакллантириш - ҳамкорликни йўлга қўйиш - ресурсларни сафарбар этиш - лойиҳани амалга ошириш - натижани баҳолаш - самарали тажрибани оммалаштириш” тамойили билан янада бойитиш мақсадга мувофиқ.

Фуқаролик жамиятининг ҳудудий ривожланишга қўшаётган ҳиссасини объектив баҳолаш учун “Ҳудудий фуқаролик иштироки индекси” (ҲФИИ)ни ишлаб чиқиш таклиф этилади.

Индексни қуйидаги бешта йўналиш бўйича шакллантириш мумкин:

1. Институционал фаоллик (20 фоиз) - ҳудудда фаолият кўрсатаётган ННТ ва бошқа жамоат институтларининг аҳоли сонига нисбати, уларнинг ҳудудий қамрови.

2. Ижтимоий шериклик (20 фоиз) - давлат органлари ва ННТлар ҳамкорлигида амалга оширилган лойиҳалар, давлат грантлари ва ижтимоий буюртмалар.

3. Фуқаролик ташаббуслари (20 фоиз) - аҳоли ва жамоат ташкилотлари ташаббуси билан илгари сурилган ҳамда амалга оширилган маҳаллий лойиҳалар.

4. Жамоатчилик назорати ва очиқлик (20 фоиз) - ҳудудий дастурлар, бюджет маблағлари ва ижтимоий лойиҳалар устидан жамоатчилик мониторинги.

5. Ижтимоий-иқтисодий натижа (20 фоиз) - фуқаролик ташаббуслари натижасида бандлик, аҳоли даромади, ижтимоий хизматлардан фойдаланиш, экологик ҳолат ва ҳаёт сифатида кузатилган ўзгаришлар.

Шунда умумий индекс қуйидагича ҳисобланиши мумкин:

ҲФИИ = 0,2ИФ + 0,2ИШ + 0,2ФТ + 0,2ЖН + 0,2ИН.

Индекснинг мақсади ҳудудларни механик тарзда қайси ҳудудда фуқаролик иштироки механизмлари яхши ишлаётгани, қаерда эса институционал қўллаб-қувватлаш зарурлигини аниқлашдан иборат.

Ҳудудларнинг барқарор ривожланишида табиий ресурслар, инвестициялар, ишлаб чиқариш ва инфратузилма билан бир қаторда ижтимоий капитал, фуқаролик фаоллиги ва маҳаллий ташаббуслар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Фуқаролик жамияти институтларининг аҳолига яқинлиги маҳаллий эҳтиёжларни аниқлаш, ташаббусларни қўллаб-қувватлаш ва қўшимча ресурсларни сафарбар этиш орқали ҳудудий дастурлар самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ҳудудий сиёсат самарадорлигини ошириш учун «давлат — бизнес — фуқаролик жамияти — илм-фан» ҳамкорлигини ривожлантириш, фуқаролик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий натижаларини баҳолаш механизмларини такомиллаштириш зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси. 2026 йил январь–июнь ойларида ялпи ҳудудий маҳсулот кўрсаткичлари. – Тошкент, 2026.
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш жамоат фонди. Давлат ижтимоий буюртмалари тўғрисида маълумотлар. – Тошкент, 2026.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш жамоат фонди. Ҳудудий ривожланиш ва ижтимоий фаровонлик ташаббусларига оид грант танлови материаллари. – Тошкент, 2026.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги Қонуни.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонуни.
6. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. Фуқаролик жамияти институтларини қўллаб-қувватлаш – очиқ ва ҳисобдор бошқарув кафолати. – Тошкент, 2026.
7. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси ва уни амалга оширишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.

“QO‘SHKO‘PIR TUMANINING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA DEMOGRAFIK OMILNING ROLI”

Soloyeva Shodiya Quvondiq qizi
Mirzo Ulug’bek nomidagi
O’zbekiston Milliy universiteti
Geografiya mutaxasisligi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida demografik omilning o‘rni va ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda tumanning doimiy aholisi sonining yillar davomida o‘zgarishi dinamikasi, aholining jinsiy tarkibi, tug‘ilish va o‘lim jarayonlari, tabiiy ko‘payish,

migratsiya jarayonlari hamda demografik tarkibning mehnat resurslari va iqtisodiy faoliyatga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Statistik ma’lumotlar asosida Qo‘shko‘pir tumanida aholi sonining barqaror o‘sib borayotgani, qishloq aholisi salmog‘ining yuqoriligi va demografik o‘sish tumanning mehnat salohiyatini shakllantirishda muhim omil ekanligi asoslangan. Shuningdek, demografik o‘sishning bandlik, qishloq xo‘jaligi, kichik biznes, xizmat ko‘rsatish va ijtimoiy infratuzilmaga ta’siri tahlil qilinib, hududning kelgusidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘shko‘pir tumani, demografik omil, aholi soni, tabiiy o‘sish, tug‘ilish, migratsiya, mehnat resurslari, bandlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy geografiya.

Aholi soni har bir mamlakatning taraqqiyoti va farovonligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Aholi soni va tarkibi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga, uning innovatsion rivojlanishiga va faoliyatning turli sohalarida yuqori ko’rsatkichlarga erishish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Inson resurslarining miqdori va sifati mamlakatning iqtisodiy o’sish sur’atlarini, turmush darajasini ko’rsatkichlarini, jahon bozoridagi kuchi va raqobatbardoshligini belgilaydi. Aholi hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki aholining soni, tarkibi, tabiiy va mexanik harakati, yosh-jinsiy tuzilishi hamda mehnat salohiyati hudud iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, qishloq hududlarida demografik jarayonlar iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Aholi sonining o‘sishi bir tomondan hududning mehnat resurslari va iste’mol bozorini kengaytirsa, ikkinchi tomondan yangi ish o‘rinlari, ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, transport va boshqa ijtimoiy infratuzilmaga bo‘lgan talabni oshiradi.

Qo‘shko‘pir tumani Xorazm viloyatining aholisi nisbatan ko‘p bo‘lgan hududlaridan biridir. 2024-yil 1-yanvarda tumanda 182,3 ming kishi istiqomat qilgan bo‘lsa, 2025-yil 1-yanvarda bu ko‘rsatkich 185 367 kishiga, 2026-yil 1-yanvarda esa 188,6 ming kishiga yetgan. Tuman aholisi viloyat aholisining 9 foizini tashkil qiladi. Aholi zichligi 1 km ga 331,7 kishini hisoblanadi. Bu shuni ko’rsatadiki tumanning deyarli barcha hududlarida aholi manzilgohlari bo’lsada. Lekin ular tuman bo’yicha bir xil tarqalmagan. Shu jihatdan Qo‘shko‘pir tumanida demografik jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — Qo‘shko‘pir tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida demografik omilning o‘rnini aniqlash va uning hudud iqtisodiyotiga ta’sirini baholash.

Tadqiqot jarayonida statistik, qiyosiy-geografik, demografik, tizimli tahlil, dinamik qatorlar, guruhlash va kartografik metodlardan foydalanildi.


Demografik ko‘rsatkichlarni baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi:

- doimiy aholi soni;
- aholining o‘sish sur’ati;
- tug‘ilish koeffitsiyenti;

- o‘lim koeffitsiyenti;
- tabiiy ko‘payish;
- migratsiya saldosi;
- jinsiy tarkib;
- shahar va qishloq aholisi nisbati.

2026-yil dagi ma’lumotlarga ko’ra Qo’shko’pir tumanining doimiy aholisi 188,6 ming kishiga yetgan. Qo’shko’pir tumani aholisi 2020-yildan 2026-yilga kelib yillik o‘rtacha 1,8 foizga (taxminan 3 000 kishiga) o‘sib bormoqda. Ushbu o‘sish barqaror bo‘lib, asosan tabiiy ko‘payish (yillik ~2 100-2 200 kishi) hisobiga ta’minlanmoqda. Sug‘orish infratuzilmasi barqarorligi aholi uchun iqtisodiy asos bo‘lgan qishloq xo‘jaligini uzluksiz saqlash imkonini berib, aholi ko‘payishiga qulay zamin yaratmoqda.

Aholi dinamikasi



Har qanday davlat yoki hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bevosita hududdagi urbanizatsiya va globallashuv jarayonlari bevosita ta’sir ko’rsatadi. Qo’shkio’pir tumani aholisining asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qiladi. Qo’shko’pir tumani urbanizatsiya darajasi 25,6 foizni tashkil qiladi bu ko’rsatkich bo’yicha viloyat o’rtacha ko’rsatkichlaridan(33 foiz) ham respublika ko’rsatkichlaridan(51 foiz) ham ancha past. Shahar aholisi 45 871 kishi(25,6%), qishloq aholisi esa 141 599 kishini(74,4%) tashkil qiladi. Aholining asosiy qismi qishloq xo’jaligi sohalarida ish bilan bandligi tufayli aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashaydi.

Demografik o‘sishning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri: Demografik omil Qo‘shko‘pir tumani iqtisodiyotiga bir nechta yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan — mehnat resurslari shakllanadi.

Aholi sonining o‘sishi kelajakda mehnat bozoriga kirib keladigan yoshlar sonining ko‘payishini anglatadi.

Bu esa: sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo, xizmat ko‘rsatish, transport, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarida qo‘shimcha ish o‘rinlariga ehtiyojni oshiradi.

Ikkinchidan — iste’mol bozori kengayadi.

Aholining ko‘payishi oziq-ovqat, kiyim-kechak, maishiy xizmat, savdo, transport va boshqa xizmatlarga talabni oshiradi.

2025-yil 1-iyul holatida Qo‘shko‘pir tumanida 1 665 ta kichik korxona va mikrofirma faoliyat yuritgan. Shundan 576 tasi savdo, 325 tasi sanoat, 292 tasi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 126 tasi qurilish sohasida faoliyat yuritgan.

Bu raqamlar demografik salohiyatning tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish sohalari uchun muhim bozor yaratishini ko‘rsatadi.

Qo‘shko‘pir tumanida demografik o‘sishning asosiy manbalaridan biri — tabiiy ko‘payishdir.

2024-yil davomida tumanda 4 190 ta tug‘ilish qayd etilgan. Shu davrda 1 446 ta nikoh va 184 ta ajralish qayd etilgan.

2025-yilning yanvar-mart oylarida esa tumanda 712 ta tug‘ilish qayd etilgan bo‘lib, tug‘ilish koeffitsiyenti 15,6‰ ni tashkil qilgan.

2025-yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilishlar soni 1 354 ta bo‘lgan.

O‘lim ko‘rsatkichi ham hududning demografik rivojlanishini baholashda muhim indikator hisoblanadi.

2024-yil yanvar-mart oylarida Qo‘shko‘pir tumanida 177 ta o‘lim qayd etilgan va o‘lim koeffitsiyenti 3,9‰ ni tashkil qilgan.

2024-yil yanvar-sentabr oylarida esa Qo‘shko‘pirda 590 ta o‘lim, o‘lim koeffitsiyenti esa 4,3‰ bo‘lgan.

Tug‘ilish ko‘rsatkichining o‘limdan ancha yuqori bo‘lishi tumanda tabiiy ko‘payishning ijobiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shu sababli demografik o‘sish Qo‘shko‘pir tumani uchun nafaqat demografik, balki iqtisodiy resurs sifatida ham qaralishi mumkin.

Asosiy muammolar: Tadqiqot natijalari asosida Qo‘shko‘pir tumanining demografik rivojlanishida quyidagi muammolarni ajratish mumkin:

1. Migratsiya saldosining manfiyligi. 2024-yilda migratsiya saldosi –316 kishini, 2025-yilning birinchi yarmida esa –184 kishini tashkil qilgan.

2. Qishloq aholisining yuqori ulushi. Aholining 74,5 % qishloq joylarida yashashi qishloq infratuzilmasini rivojlantirishni talab qiladi.

3. Yoshlar bandligi. Aholi sonining o‘sishi mehnat bozoriga yangi ishchi kuchining kirib kelishini anglatadi.

4. Ijtimoiy infratuzilmaga bosim. Aholi ko‘paygani sari ta’lim, tibbiyot, uy-joy va transport xizmatlariga talab ortadi.

5. Mehnat migratsiyasi. Agar mahalliy iqtisodiyot yangi ish o‘rinlarini yetarli darajada yaratmasa, mehnat yoshidagi aholining boshqa hududlarga chiqib ketishi davom etishi mumkin.

Qo‘shko‘pir tumanining demografik salohiyatidan samarali foydalanish uchun quyidagi yo‘nalishlarni ustuvor deb hisoblaymiz:

1. Yoshlar bandligini oshirish

Tumanda yoshlar uchun: zamonaviy kasb-hunar markazlari; IT va raqamli xizmatlar; kichik ishlab chiqarish korxonalari; servis va xizmat ko‘rsatish markazlari tarmog‘ini kengaytirish zarur.

2. Qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini yaratish

Qishloq aholisi yuqori bo‘lganligi sababli qishloq joylarda: oziq-ovqatni qayta ishlash; tekstil; hunarmandchilik; chorvachilik; issiqxona xo‘jaligi; logistika kabi yo‘nalishlarni rivojlantirish maqsadga muvofiq.

3. Mehnat migratsiyasini kamaytirish.

Mahalliy ish o‘rinlari va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali mehnat yoshidagi aholining tumanda qolishini rag‘batlantirish lozim.

4. Demografik prognoz asosida infratuzilmani rejalashtirish

Aholi sonining o‘sish tendensiyasidan kelib chiqib, maktab, bog‘cha, poliklinika, uy-joy va transport infratuzilmasining istiqboldagi ehtiyojlarini oldindan hisoblash kerak.

Tadqiqot natijalari Qo‘shko‘pir tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida demografik omil hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tumanda aholi soni 2024-yil boshidagi 182,3 ming kishidan 2026-yil 1-aprel holatiga 188,9 ming kishigacha oshgan. Shu bilan birga, qishloq aholisining 74,5 % atrofidagi yuqori ulushi tumanda qishloq xo‘jaligi va qishloq infratuzilmasining ahamiyatini oshiradi. Tug‘ilishning nisbatan yuqoriligi tumanning tabiiy demografik salohiyatini belgilaydi. 2025-yilning I choragida tug‘ilish koeffitsiyenti 15,6‰ ni tashkil qilgan. Shu sababli tumanning kelgusidagi rivojlanish siyosatida “aholi sonining o‘sishi”dan “aholi salohiyatidan samarali foydalanish”ga o‘tish muhim. Umuman olganda, Qo‘shko‘pir tumanida demografik omilni iqtisodiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirishning eng samarali yo‘li — yoshlar bandligini oshirish, qishloq joylarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznes va xizmatlar sohasini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy infratuzilmani demografik prognoz asosida rejalashtirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avezov S.A., Abdullayev A.G., Raximov A.K. Xorazm viloyati. - Xiva:Xorazm mamun akademiyasi, 2020.
2. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Toshkent, 2017.
3. Soliyev A.S. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Darslik. – Toshkent, 2014.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi.
5. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

MINTAQANI KOMPLEKS BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Prof. B. Ruzmetov
Dots. Sh. Baxtiyarov
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti

Mintaqalar milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy bo‘g‘ini bo‘lib, mamlakatning umumiy rivojlanish sur'ati ko‘p jihatdan ularning salohiyatidan

qanchalik to‘liq foydalanilishiga bog‘liq. Biroq hududlar o‘rtasida iqtisodiy salohiyat, infratuzilma bilan ta'minlanganlik va aholi turmush darajasi bo‘yicha sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda. Bu tafovutlarni bartaraf etish alohida tarmoq choralari bilan emas, balki kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi mumkin.

O‘zbekistonda hududlarni mutanosib rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan. Xususan, "O‘zbekiston – 2030" strategiyasida har bir hududning salohiyatidan kelib chiqib iqtisodiy o‘sishni ta'minlash, aholi turmush sifatini oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlari yagona tizimda ko‘zda tutilgan. Shu bois mintaqani kompleks barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini ilmiy asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasida mintaqa murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijasida mintaqani kompleks barqaror rivojlantirishning oltita strategik yo‘nalishi aniqlandi. Har bir yo‘nalish uchun strategik vazifa, uni amalga oshirish vositalari va natijani o‘lchash ko‘rsatkichlari belgilandi (1-jadval).

1-jadval

Mintaqani kompleks barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari

Strategik yo‘nalish	**Strategik vazifa**	**Asosiy vositalar**	**Natija ko‘rsatkichlari**
1. Iqtisodiy diversifikatsiya	Iqtisodiyotning bir tarmoqqa bog‘liqligini kamaytirish	Klasterlar tashkil etish; eksportbop tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash; kichik biznesga imtiyozli kreditlar	Aholi jon boshiga YaHM; YaHMda xizmatlar ulushi; eksport hajmi
2. Sanoat va innovatsiya	Mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash	Kichik sanoat zonalari; texnoparklar; OTM–korxona hamkorligi	Sanoat mahsuloti hajmi; innovatsion mahsulot ulushi
3. Infratuzilma va logistika	Hududlararo bog‘liqlik va xizmatlar qamrovini oshirish	Yo‘l, energiya va suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish; logistika markazlari	Ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik; qattiq qoplamali yo‘llar ulushi
4. Inson kapitali	Aholi farovonligi va sifatli bandlikni ta'minlash	Kasbiy ta'lim; birlamchi tibbiyotni kuchaytirish; "mahallabay" kambag‘allikni qisqartirish	Ishsizlik va kambag‘allik darajasi; real daromadlar
5. Ekologik barqarorlik	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish	Quyosh va shamol energetikasi; tomchilatib sug‘orish; chiqindilarni qayta ishlash	Zararli chiqindilar hajmi; suv tejovchi texnologiyalar maydoni
6. Boshqaruv va raqamlashtirish	Hududiy boshqaruv samaradorligi va ochiqligi	Hududiy strategiyani KPI bilan bog‘lash; e-hukumat xizmatlari; ochiq ma'lumotlar	Elektron davlat xizmatlari ulushi; boshqaruvdan qoniqish darajasi

Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar ma'ruzalari tashkil etadi.

$$P_j = \Sigma_{k=1}^{m} w_k s_{jk}$$

bu yerda: P_j - j-strategik yo‘nalishning ustuvorlik indeksi; w_k - k-mezonning vazni, bunda $\Sigma_{k=1}^{m} w_k = 1$; s_{jk} - j-yo‘nalishning k-mezon bo‘yicha ekspert bahosi (1-5 ball); m - baholash mezonlari soni.

$I_{k\beta} = \sqrt[4]{(I_i q \cdot I_i j \cdot I_e k \cdot I_\beta q)} = (I_i q \cdot I_i j \cdot I_e k \cdot I_\beta q)^{1/4}$

bu yerda: $I_{k\beta}$ - kompleks barqarorlik integral indeksi; $I_i q$ - iqtisodiy barqarorlik kichik indeksi; $I_i j$ - ijtimoiy barqarorlik kichik indeksi; $I_e k$ - ekologik barqarorlik kichik indeksi; $I_\beta q$ - boshqaruv barqarorligi kichik indeksi. Barcha kichik indekslar 0-1 oralig‘ida normallashtiriladi.

Izoh: Geometrik o‘rtachadan foydalanish komponentlardan biridagi past ko‘rsatkichning boshqa komponentlardagi yuqori natijalar bilan to‘liq qoplanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Iqtisodiy diversifikatsiya va sanoat innovatsiyalari infratuzilma va malakali kadrlarsiz amalga oshmaydi. Ekologik yo‘nalish esa iqtisodiy o‘sishning tabiiy resurslar hisobiga emas, samaradorlik hisobiga bo‘lishini ta'minlaydi. Shu sababli yo‘nalishlar bir vaqtda, lekin turli bosqichlarda turlicha ustuvorlik bilan amalga oshirilishi lozim. Shu mantiqdan kelib chiqib, strategik yo‘nalishlarni amalga oshirishning 2026-2035-yillarga mo‘ljallangan uch bosqichli yo‘l xaritasi ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

Strategik yo‘nalishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘l xaritasi

Strategik yo‘nalish	**I bosqich: qisqa muddat (2026–2027)**	**II bosqich: o‘rta muddat (2028–2030)**	**III bosqich: uzoq muddat (2031–2035)**
1. Iqtisodiy diversifikatsiya	Hudud ixtisoslashuvini aniqlash, klaster loyihalarini tanlash	Klasterlarni ishga tushirish, eksport geografiyasini kengaytirish	Yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlarga o‘tish
2. Sanoat va innovatsiya	Kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yakunlash	Texnoparklar va OTM laboratoriyalarini tijoratlashtirish	Innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni barqarorlashtirish
3. Infratuzilma va logistika	Muammoli aholi punktlarida suv va energiya ta'minotini yaxshilash	Hududlararo yo‘llar va logistika markazlarini qurish	Infratuzilmani to‘liq qamrovga yetkazish
4. Inson kapitali	Kambag‘al oilalarni kasbga o‘qitish va bandligini ta'minlash	Kasbiy ta'lim va tibbiyot sifatini oshirish	Mehnat unumdorligi va daromadlarni barqaror o‘stirish
5. Ekologik barqarorlik	Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish	Qayta tiklanuvchi energetika quvvatlarini kengaytirish	"Yashil" iqtisodiyotga o‘tishni yakunlash
6. Boshqaruv va raqamlashtirish	$I_{k\beta}$ monitoring tizimini joriy etish	Hokimliklar faoliyatini KPI asosida baholash	Ma'lumotlarga asoslangan hududiy boshqaruv

Birinchi bosqichda asosiy e'tibor infratuzilma va kambag‘allikni qisqartirish kabi "tez natija" beradigan choralarga qaratiladi. Ikkinchi bosqichda sanoat, innovatsiya va inson kapitaliga investitsiyalar ustuvor bo‘ladi. Uchinchi bosqichda


esa yuqori qo‘shilgan qiymatli, "yashil" va ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiyot shakllanishi kutiladi.

Strategik yo‘nalishlar, ta'minlovchi mexanizmlar va monitoring tizimi yagona konseptual modelga birlashtirildi (1-rasm).

Model "bino" mantiqiga asoslangan: ta'minlovchi mexanizmlar (institutsional, moliyaviy, tashkiliy, ilmiy-axborot) poydevor vazifasini bajaradi. Oltita strategik yo‘nalish ustunlar sifatida strategik maqsadni ko‘taradi. Monitoring bloki $I_{k\beta}$ indeksi orqali natijani har yili baholaydi va qayta aloqa orqali strategiyani yangilash uchun asos yaratadi.

Hududiy dasturlardan asosiy farqi yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olishdir. Amaliyotda hududiy dasturlar ko‘pincha tarmoqlar kesimida alohida tuziladi, natijada resurslar tarqoq taqsimlanadi va sinergiya samarasi yo‘qoladi.

$I_{k\beta}$ indeksini o‘rtacha geometrik shaklda hisoblash muhim metodik jihatdir. Masalan, iqtisodiy o‘sish yuqori bo‘lib, ekologik holat yomonlashgan hududda indeks past chiqadi. Bu boshqaruv organlarini "har qanday narxdagi o‘sish" o‘rniga muvozanatli rivojlanishga yo‘naltiradi.



1-rasm. Mintaqani kompleks barqaror rivojlantirish strategiyasining konseptual modeli

Tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Yo‘nalishlarni ustuvorlashtirishda ekspert baholashdan foydalanilgan, bu esa ma'lum darajada sub'ektivlikka olib keladi. Keyingi tadqiqotlarda aniq hudud ma'lumotlari asosida $I_{k\beta}$ indeksini hisoblash va yo‘nalishlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellar yordamida baholash maqsadga muvofiq.

Mintaqani kompleks barqaror rivojlantirish oltita o‘zaro bog‘liq strategik yo‘nalish – iqtisodiy diversifikatsiya, sanoat va innovatsiya, infratuzilma va logistika, inson kapitali, ekologik barqarorlik hamda boshqaruv va raqamlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Hududiy strategiyalar natijasini baholash uchun o‘rtacha geometrik shakldagi kompleks barqarorlik integral indeksi ($I_{k\beta}$) ni joriy etish taklif qilinadi. Viloyat hokimliklari huzurida strategiyani amalga oshirishni muvofiqlashtiruvchi loyiha ofisi va idoralararo kengash tashkil etish maqsadga muvofiq.

MINTAQADA XIZMATLAR SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Turdibekova Zamira
Ajiniyaz nomidagi Nukus davlat instituti Tadq.

